ANIQ VA IJTIMOIY FANLAR UNIVERSITETI

TURKIY XALQLAR TILI, MADANIYATI SARCHASHMALARI: TARIXIY MUSHTARAKLIK VA ZAMONAVIY TALQINLAR

XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Toshkent-2026



Turkiy xalqlar tili, madaniyati sarchashmalari: tarixiy mushtaraklik va zamonaviy talqinlar / Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya to‘plami. Elektron nashr (ebook). – Toshkent: Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, 07.02.2026.

Mazkur to‘plamda turkiy tillar tarixi, nazariy tilshunoslik, madaniyatlararo o‘zbek tili taraqqiyoti bilan birga, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosining jahon tamaddudida tutgan o‘rni hamda tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari masalalariga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan nazariy va amaliy tilshunoslik vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Botirov G‘olibjon Isroilovich – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti rektori, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Umurzoqova M. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, f.f.d. (DSc), professor.

Qulbulov Sh. Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, f.f.d. (PhD).

Abdullayeva D. Toshkent amaliy fanlar universiteti, f.f.n.

TASHKILIY QO‘MITA

Botirov G‘olibjon Isroilovich – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Shakarov Qulmat Ashurovich – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

G‘aniyeva Aziza Zayniddinovna – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Halil Küçükler – Balıkesir University, Türkiye

O‘rozov Jumanazar Norqizilovich – Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

TAHRIR HAY’ATI:

O‘rozov Jumanazar

Umurzoqova Marhabo

Qulbulov Sherqo‘zi

Abdullayeva Dildora

Alimardonov Elyor

Imomov Jo‘shqin

Jumayeva Shaxnoza

Jo‘rayeva Yulduz

Jumayeva Nozima

Ashurova Nilufar

KIRISH

TURKIY XALQLAR TILI VA MADANIYATI

Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashgan, madaniy chegaralar tobora nisbiylashib borayotgan bir davrda turkiy xalqlarning til va madaniy merosini ilmiy asosda anglash, mushtarak ildizlarni aniqlash va ularni zamonaviy talqinlar orqali qayta o‘qish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turkiy xalqlarni birlashtirib turuvchi lingvistik o‘xshashliklar, mifologik qatlamlar, og‘zaki va yozma adabiy an’analar, urf-odat va marosimlar – bularning barchasi bizni umumiy sarchashmalarga eltadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6084-son Farmonida davlat tilining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash va o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish vazifalari qo‘yilgach, bu sohadagi ishlar yanada jadallashdi.

“Turkiy xalqlar tili, madaniyati sarchashmalari: tarixiy mushtaraklik va zamonaviy talqinlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi ham sohada faoliyat yuritayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, talabalarning yangi g‘oyalari va ilmiy yondashuvlarini bir joyga jamlagan holda tilshunoslik fanining rivojlanishida yana bir muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Anjuman doirasida, siz aziz ishtirokchilar, nafaqat o‘z bilim va tajribalaringizni baham ko‘rishingiz, balki sohaning yetakchi mutaxassislari bilan fikr almashishingiz mumkin bo‘ladi. Ushbu tadbirda Turkiya va Qozog‘iston Respublikalaridan xorijiy olimlarning ham ishtirok etayotgani juda quvonarli holat. O‘ylaymanki, bu yerda o‘rnatiladigan hamkorlik aloqalari kelajakdagi ilmiy loyihalar uchun yangi yo‘llar ochadi. Zero, bizning asosiy maqsadimiz – tilshunoslik sohasida global hamjihatlikni mustahkamlash va zamonaviy ilmiy yondashuvlar orqali tilshunoslikni yanada rivojlantirishdir.

Konferensiyaning muvaffaqiyatli va samarali o‘tishiga tilakdoshman. Umid qilamanki, bu uchrashuv sizlarga ilmiy va shaxsiy rivojlanishda yangi imkoniyatlar ochadi. Anjuman tashkilotchilariga, ishtirok etayotgan barcha olimlarga va xorijiy mehmonlarimizga samimiy minnatdorligimni bildiraman.

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti rektori
G‘olibjon Botirov
2026-yil, 7-fevral

O‘ZBEK TILIDAGI KONSEPTUAL METONIMIYADA MILLIY TAFAKKURNING AKS ETISHI

Muhayyo Karimovna Xakimova
Filologiya fanlari doktori, professor
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
xakimova197621@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-2002-7978

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi konseptual metonimiyada milliy tafakkurning aks etishi misollar yordamida yoritilgan. Maqolada konseptual metonimiyaning mohiyati ochiqlangan. Konseptual metonimiyada ham til egalarining olam haqidagi tizimli bilimlari aks etishi yoritilgan. Konseptual metonimiyada abstrakt tushunchalar boshqa tushunchalar bilan aloqadorlikda osonroq anglanadi. Konseptual metaforada ham, konseptual metonimiyada ham abstrakt, murakkab tushunchalarni bilishda konkret tushunchalar asos bo‘lishi kuzatiladi. Bu jarayonda hissiy va aqliy bilishning o‘zaro hamkorligi yanada yorqinroq bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *metonimiya, konseptual metonimiya, nominatsiya, milliy idrok, aloqadorlik, bosh ma’no, hosila ma’no.*

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ В КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МЕТОНИМИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье на примерах рассматривается отражение национального мышления в концептуальной метонимии узбекского языка. В статье объясняется сущность концептуальной метонимии. Концептуальная метонимия отражает систематические знания носителей языка о мире. В концептуальной метонимии абстрактные понятия легче понять в связи с другими понятиями. Как в концептуальной метафоре, так и в концептуальной метонимии наблюдается, что конкретные понятия являются основой для понимания абстрактных, сложных понятий.

В этом процессе более ярко прослеживается взаимодействие чувственного и ментального познания.

Ключевые слова: *метонимия, концептуальная метонимия, номинация, национальное восприятие, релятивизм, первичное значение, производное значение***.**

REFLECTION OF NATIONAL THINKING IN THE CONCEPTUAL METONYMY OF THE UZBEK LANGUAGE


Abstract. This article examines, through examples, the reflection of national thinking in the conceptual metonymy of the Uzbek language. The article explains the essence of conceptual metonymy. Conceptual metonymy reflects the systematic knowledge that native speakers have about the world. In conceptual metonymy, abstract concepts are more easily understood in relation to other concepts. Both in conceptual metaphor and in conceptual metonymy, it is observed that concrete concepts serve as the basis for understanding abstract and complex notions. In this process, the interaction between sensory and mental cognition becomes more clearly evident.

Keywords: *metonymy, conceptual metonymy, nomination, national perception, relativism, primary meaning, and derived meaning.*

Metonimiya tilshunoslikda nom ko‘chish usullaridan biri sifatida talqin qilinadi. “bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o‘xshashlik asosida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik asosida ko‘chirilishi metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi (yunoncha metonumia – “qayta nomlash”). Masalan, *dasturxon* leksemasi “ovqatlanish uchun yoziladigan buyum”ni anglatadi; bu leksema bilan ovqatning o‘zi, “dasturxonga qo‘yiladigan noz-ne’mat” ham bildiriladi [Rahmatullayev, 2006: 53].

Metonimiyaning asl mohiyati bir narsaning nomi ikkinchi bir narsaga o‘zaro aloqadorlik asosida ko‘chishdir. Ushbu jarayonning o‘ziga xosligini, metaforadan farqini quyidagi chizmada aks ettirish mumkin:

1-rasm. Metafora va metonimiyaning farqi.



Chizmaga e’tibor berilsa, metaforada bir-biridan uzoq obyektlar bitta nom bilan nomlansa, metonimiyada esa bir-biri bilan aloqada bo‘lgan obyektlar bitta so‘z bilan nomlanadi. Metonimiya metaforadan tubdan farq qiladi va u sinekdoxaga yaqin turadi. Qism va butun munosabati ham aslida aloqadorlikning bir ko‘rinishidir.

Metonimiya yo‘li bilan ko‘chirishning asosiy ko‘rinishlari:

1. Bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko‘chiriladi: *bosh* (kishi organizmining bo‘yindan yuqori qismi) – *bosh* (miya: *Boshim og‘ridi*), *ich* (ichki tomon) – *ich (*qorin bo‘shlig‘ida joylashgan a’zolar: *Ichim og‘ridi*) kabi.

2. Bir predmetning nomi shu predmetga asoslangan o‘lchov birligining nomi bo‘lib xizmat qiladi: *kun* (quyosh) – *kun* (sutkaning yorug‘ qismi), *oy* (yerning yo‘ldoshi) – *oy* (yilning o‘n ikkidan bir qismi) kabi. Ba’zida teskari holat ham yuz beradi.

3. Bir predmetning nomi shu predmet asosida hosil bo‘ladigan predmetga ko‘chiriladi: *til* (nutq a’zosi) – *til* (nutq), *choy* (o‘simlik) – *choy* (ichimlik), *dam*- (nafas, havo) – *dam* (tinim, vaqt, daqiqa) kabi.

4. Belgining nomi shunday belgisi bor predmetga ko‘chiriladi: *ko‘k* (rang nomi) – *ko‘k* (ko‘kat), *kir* (iflos) – *kir* (ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak), *yupqa* (qalinning aksi) – *yupqa* (taom nomi), *chuqur* (sayozning aksi) - *chuqur* (o‘ra) kabi.

5. Predmetning nomi shu predmetning belgisiga ko‘chiriladi: bosh (odamning boshi) - bosh (bosh farzand, bosh vazir).

6. Harakatning nomi shu harakat natijasida hosil bo‘ladigan predmetga ko‘chiriladi: *atala*-*atala* kabi.

7. Tana a’zosining nomi u bilan bog‘liq predmetga ko‘chiriladi: tomoq (ovqat o‘tadigan a’zo) - tomoq (ovqat).

8. Narsaning nomi uning vazifasiga ko‘chiriladi: ko‘z (a’zo) - ko‘z (nazar) [Xakimova, 2025: 87].

Metonimiyaning ham lisoniy va nutqiy turlari mavjud. Semantik strukturada mavjud, lug‘atlarda qayd qilingan ma’nolar lisoniy metonimiya asosida shakllangan bo‘lsa, nutqda gapdagi biror so‘zni tushurish natijasida hosil bo‘lgan, kontekstdan tashqarida bu ma’nolarni anglatmasa, ya’ni muayyan ma’no semantik strukturada mavjud bo‘lmasa bu nutqiy metonimiyadir. Quyidagilarni nutqiy metonimiyaga misol qilish mumkin: *Navoiyni o‘qidim, butun zal turdi, mahalla rozi bo‘lmadi* kabi.

So‘nggi paytlarda tilshunoslikda til hodisalariga kognitiv yondashish ustuvorlik qilayotgani hammaga ma’lum. Bugungi kunda konseptual metafora nazariyasi yaratilgan bo‘lib, uning kognitiv asosi, turlari, lug‘ati aniqlandi. Lekin hali tilshunoslikda konseptual metonimiya tushunchasi mavjud emas.

Ammo metonimiyaga kognitiv yondashuv tilshunoslikda anchadan beri mavjud bo‘lib, konseptual metonimiya ham konseptual metafora kabi bilishning fundamental usuli va olamni anglashning yo‘li sifatida talqin qilinmoqda. Bilishning bu usuli mental tuzilmadagi metonimik konseptlar asosida shakllanadi. Ya’ni bunda bir konseptual mohiyat unga aloqador boshqa mohiyat orqali anglanadi.

Metonimiyaning har qanday turi orqali olamning bir bo‘lagini bilish jarayoni mavjud bo‘ladi. Bu jarayonda bir noma’lum mohiyat unga aloqador ikkinchi ma’lum aloqador mohiyat orqali anglanadi hamda nomlanadi. Masalan, til egalari avvaldan nomlangan *oy* leksemasi asosida shakllangan o‘lchov birligini anglagan va nomlagan. Bunda “vaqt” semantikasiga ega “oy” semantikasi shakllanishiga osmon jismi bo‘lgan oy predmetining aloqasi mavjud ekanligi xususidagi til egalarining konseptual bilimlari asos bo‘lgan. Yoki o‘zbek xalqining kundalik hayotidagi eng ko‘p ishlatiladigan choy ichimligining nomi uning tayyorlanishi asos bo‘lgan quruq choydan olingan bo‘lib, quruq choydan choy ichimligi tayyorlanadi degan oddiy bilim asosida yangi so‘z emas, balki metonimik ma’no shakllangan. Demak, har qanday lisoniy metonimiyada til egalari bilimlari aks etadi.

Biz metaforada bo‘lgani kabi metonimiyani ham oddiy va konseptual turlarga ajratdik. Oddiy metonimiyada bir mohiyat unga aloqador boshqa bir mohiyat bilan anglanadi, nomlanadi. Lekin bunda ikkinchi nomlangan obyekt hissiy bilish orqali anglanadi va jarayonning asosiy maqsadi nomlash bo‘ladi. Ya’ni ko‘rish, eshitish, hid, ta’m bilish, teri orqali bilishda biz mohiyatni osonroq anglaymiz va bunday holatda metonimiya bilishdan ko‘ra ko‘proq nomlash vazifasini bajaradi. Masalan, yuqorida ko‘rganimiz – *choy* leksemasining semantik strukturasi shakllanishida oddiy metonimiya amalda bo‘lgan. Zero, o‘simlikning

muayyan turi ham, uning bargidan tayyorlanadigan quruq va qadoqlangan predmet ham, undan tayyorlangan suyuqlik ham bevosita kuzatishda berilgan. Bu voqeliklarni anglash ong uchun qiyin emas. Lekin gnoseologik mohiyat sanalgan tushunchalarni bilish ong uchun qiyin ekanligi ma’lum [Xakimova, 2019: 30-31]. Abstrakt murakkab tushunchalarni millat tomonidan o‘xshash deb topilgan konkret tushunchalarning andozasi orqali bilish kognitiv metaforaning mohiyati sanalsa, abstrakt murakkab tushunchalarni unga aloqador tushunchalar orqali bilish konseptual metonimiyaning mohiyatidir.

O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan *qismat*, *taqdir* kabi mavhum tushunchalarning *peshona* leksemasi bilan ifodalanishi ana shu konseptual metonimiya hodisasiga misol bo‘la oladi. *Peshona* so‘zining bosh ma’nosi “inson yuzining qoshdan soch chiqadigan chegaragacha bo‘lgan qismidagi tana” a’zosini bildirsa, ikkinchi – hosila ma’nosida u taqdir, qismat kabi mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Mazkur semantik ko‘chishning sababi diniy-ma’naviy tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lib, an’anaviy e’tiqodlarga ko‘ra, inson taqdiri uning peshonasiga yozilgani haqidagi qarash asosida shakllangan. Demak, diniy bilimlarga ko‘ra, *peshona* – taqdir yozilgan joy sifatida idrok etilgan va bu orqali u taqdirning ramziy belgisi sifatida ham ishlatila boshlagan. Bu holatda peshonaning o‘zi emas, balki undagi yozuv – taqdir nazarda tutiladi. Shu tariqa, aniq bir jismiy obyekt nomi mavhum tushunchaga aloqadorlik asosida ko‘chirilgan bo‘lib, bu konseptual metonimiyaning yaqqol namunasidir.

Konseptual metonimiya oddiy metonimiyadan farqli ravishda, faqatgina tashqi yoki shakliy aloqadorlik asosida emas, balki xalqning tafakkuri, dunyoni idrok etish usuli, madaniy, diniy va tarixiy tajribasi asosida shakllanadi. Ya’ni bu turdagi nom ko‘chish jarayoni faqat til birliklari o‘rtasidagi yaqinlik, insoniyat tafakkurining ma’naviy, bilish darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Konseptual metonimiya yuzaga kelishida quyidagi uch asosiy omil muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Bosh ma’no va hosila ma’no o‘rtasidagi aloqaning mavjudligi.
2. Bosh ma’noning aniq, hosila ma’noning esa mavhum bo‘lishi.
3. Ma’no ko‘chishida kognitiv bilimlarning ishtiroki.

Shu jihatdan konseptual metonimiya tilda yuz beruvchi chuqur semantik jarayon bo‘lib, u til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yoritishda muhim ilmiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

1-jadval

Avval o‘zlashtirilgan a’zo	**Peshona**	**Taqdir**	Keyin o‘zlashtirilgan a’zo
Tushunilishi oson, bevosita kuzatishda berilgan narsa			Tushunilishi qiyin, bevosita kuzatishda berilmagan tushuncha
Aniq			Mavhum
Fiziologik bilish			Diniy falsafiy
Taqdirning peshonaga yozilishi (kognitiv metonimiya)			

O‘zbek xalqining qadimiy tibbiy bilimlari asosida o‘zbek tilida *zarda* leksemasining metonimik ma’nosi shakllangan bo‘lib, u “g‘azab”, “jahl” singari holatlarni ifodalashda ishlatiladi: *zarda bilan gapirmoq, zarda qilmoq, zarda bilan qaramoq, zardasi yomon* kabi birikmalar bunga misoldir.

O‘zbek xalqidagi tibbiy bilimlarga asoslanib o‘t suyuqligi *zarda, safro* deb nomlangan, azaldan inson uchun muhim sanalgan. Zarda (safro) suyuqligi azaldan inson g‘azabini nazorat qiluvchi a’zo sifatida qaraladi. Abu Ali Ibn Sino nazariyasiga ko‘ra, inson tanasida 4 xil suyuqlik (xilt) bor: 1) Qon, 2) Sariq o‘t (safro, zarda), 3) Qora o‘t (savdo), 4) Balg‘am. Agar Sariq o‘t (safro, zarda) oshsa: inson jizzaki, g‘azabli, o‘zgaruvchan bo‘ladi, yuz qizaradi, yurak urishi tezlashadi, ko‘ngil aynishi, achchiq tupik kuzatiladi, og‘izda quruqlik bo‘ladi. Xalqdagi shu kognitiv bilimga asoslanib, aytish mumkinki, tanada zardaning ko‘payishi insonda jahl, g‘azab, jizzakilikni kuchaytiradi. Z*arda bilan qaramoq, zarda bilan gapirmoq, zarda qilmoq, zardasi yomon* kabi birliklarda qo‘llangan *zarda* so‘zi metonimik ma’no ko‘chish asosida “jahl”, “g‘azab” ma’nolarini ifodalamoqda, xalqning kognitiv, tibbiy bilimlariga asosan zardaning bevosita jahlni nazorat qilishidan kelib chiqib bu holatni konseptual metonimiya deb nomlashimiz mumkin.

2-jadval

Avval o‘zlashtirilgan a’zo	**Zarda**	**Jahl, g‘azab**	Keyin o‘zlashtirilgan tushuncha
Tushunilishi oson, bevosita kuzatishda berilgan narsa			Tushunilishi qiyin, bevosita kuzatishda berilmagan tushuncha
Aniq			Mavhum

Fiziologik bilish			Aqliy bilim
Zarda miqdorining g‘azab oshishiga bog‘liqligi (konseptual metonimiya)			

Xulosa qilib aytganda, metonimiyada til egalarining olam haqidagi bilimlari, xususan, mohiyatlarning bir-biri bilan bog‘liq tizimli konseptual asoslari aks etadi. Konseptual metonimiyada abstrakt tushunchalari boshqa tushunchalar bilan aloqadorlikda osonroq anglanadi. Mazkur aloqadorliklar esa til egalarining olam haqidagi konseptual bilimlari asosida mavjud bo‘ladi.

Bir nom ostida umuman boshqa-boshqa voqeliklarning umumlashtirish inson tafakkuri va tilini ixchamlashtirish yo‘lidagi asosiy usullaridan biri bo‘lsa, har bir millatning olam va uning xususiyatlarini o‘ziga xos birlashtira olishi tahsinga loyiqdir. Konseptual metafora orqali shakllangan ma’no taraqqiyotiga nazar tashlasak, unda bir belgi ostida nomlanayotgan tushunchalar bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Konseptual metonimiyada esa olamdagi aloqadorliklar, til egalarining tizimli bilimlari aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Kitoblar va kitoblardan boblar

1. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. –Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 119-120.
2. Миртожиев М. Семасиология. – Тошкент, 2010. – 288 б.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2006. – B 53. 204.
4. Хажиев С.К. Сўз маъносининг кўчиши билан боғлиқ лингвистик ҳодисалар: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007
5. Xakimova M. Semasiologiya. - Toshkent, 2025. -150 b.
6. Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. - Тошкент, 2019.
7. Khakimova M. The human factor in the formation of abstract vocabulary. // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2021. № 11. - P. 124-126. https://www.researchgate.net/publication/358051475_The_human_factor_in_the_formation_of_abstract_vocabulary?_sg%5B0%5D

TAKRORNING LINGVOPOETIK JILOSI

Muqimova Zohida Rasulovna,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori (DSc)
zohidamuqimova69@gmail.com
ORSID: https://orsid.org/0009-0006-6429-5022

Annotatsiya: Mazkur maqolada takror haqidagi ta’riflar, uning badiiyatdagi o‘rni, lingvopoetik xususiyati haqida so‘z yuritilgan. Bilamizki, O‘tkir Hoshimov asarlarida o‘zbek tili imkoniyatlaridan, uning maxsus leksik birliklaridan, tasvir vositalaridan unumli va o‘rinli foydalangan, jumladan, takrordan ham. Bunda takrorning lingvistik xususiyatlari O‘tkir Hoshimov asarlari misolida yoritilgan. Adib asarlarida qo‘llanilgan ayrim takrorlarning: tovush, qo‘shimcha, so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn takrori kabilarning badiiy matndagi o‘rni, o‘ziga xosligi ochib berilgan hamda ularning lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *takror, lingvopoetik vosita, tovush takrori, so‘z takrori, so‘z birikmasi takrori, gap takrori, xiazm, tardu aks.*

Abstract: This article discusses the definitions of repetition, its role in literature, and its linguopoetic properties. We know that in the works of O‘tkir Hoshimov, he productively and appropriately used the possibilities of the Uzbek language, its special lexical units, and means of imagery, including repetition. In this article, the linguistic properties of repetition are illustrated using the example of the works of O‘tkir Hoshimov. The role and uniqueness of some repetitions used in the works of the writer: sound, suffix, word, word combination, sentence, text repetition, etc. in the literary text are revealed, and their linguopoetic properties are considered.

Keywords: *repetition, linguopoetic device, sound repetition, word repetition, word combination repetition, sentence repetition, chiasm, tardu aks.*

Takror – o‘zbek tilining badiiy uslubida eng faol qo‘llaniladigan tasviriy vositalardan biri. Badiiy matn shakllanishida takrorning ham alohida o‘rni va xizmati bor. Ma’lumki, “Birinchi gapda qo‘llangan ayrim affikslar, so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta’sirchanligi ortadi” [5:79].

Tilshunos olim S.Karimovning “Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari” kitobining “Badiiy adabiyot tilida uslubiy figuralar” deb nomlanuvchi bobida birgina takrorning o‘ttizga yaqin turi mavjudligi alohida qayd etiladi [4:44]. S.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Takrorning o‘ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora, ... kabi turlarining mavjudligi badiiy uslubda ifoda-tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan dalolat beradi” [4:44]. Tilshunos olim M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari [6:98]” kitobida takrorning qo‘llanishiga ko‘ra, takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga, sintaktik tabiatiga, takror birliklarning joylashish tartibiga, o‘rtadagi masofasiga, ma’lum bir fikrning turli shakllarda takrorlanishiga ko‘ra turlari mavjudligi hamda takrorning matn tashakkulida uslubiy vazifa bajarishi ta’kidlangan.

Tadqiqotlardagi takrorga berilgan ta’riflarga qo‘shilgan holda aytmoqchimizki, haqiqatdan ham, takror – badiiy adabiyotning lingvopoetik jilosi. She’riyatda takrorlarning o‘rni bo‘lak, o‘zgacha. Bizning tadqiq obyektimiz esa nasr, ya’ni O‘tkir Hoshimov asarlari. Adib asarlarini kuzatar ekanmiz, iqtidorli muallif o‘z asarlarida takrorni mahorat bilan qo‘llaganining guvohi bo‘lamiz. Takror nafaqat she’riy matn, balki nasriy matn badiiyatini ta’minlashda ham asosiy tasviriy vositadir.

O‘tkir Hoshimov o‘zi tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o‘quvchining diqqatini tortish, uni bo‘rttiribroq ko‘rsatish uchun tovush, qo‘shimcha, so‘z, so‘z birikmasi, gap, mikromatnlarni takrorlaydi. Bu esa badiiy matnining estetik ta’sir kuchini oshiradi hamda ular vositasida kitobxon muallifning badiiy maqsadini oson ilg‘ay oladi. O‘tkir Hoshimov bu badiiy tasvir takrorni deyarli barcha asarida mohirona qo‘llagan, u orqali asarlari ta’sirchanligi kuchaytirilib, ko‘tarinki ruh hosil qilingan.

Adibning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”ida bitiklar ham shaklan, ham ma’nan mukammallikka ega bo‘lib, ularda badiiy ifoda tasvir vositalari, jumladan, takror mahorat bilan qo‘llangan. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”ning “Tabiat. Jamiyat. Inson” hamda “Urushlar haqida” bo‘limida 50 ta bitik mavjud bo‘lib, shundan 30 tasida takror qo‘llanilgan. Masalan, “Notavon”, “Tiriklar va O‘liklar”, “O‘zbek boyisa...” nomli bitiklarda tovush takrori; “Munofiq”, “Odat”, “Paxtakor”, “Sodda va buyuk”, “Mehr”, “Bolalik va keksalik”, “Boy va kambag‘al” bitiklarida so‘z takrori; “Qismat”, “Ona tili” “Teskari haqiqat” bitiklarida so‘z birikmasi takrori; “Taomil”, “Gunohi azim”, “Sevgi”, “Bozor iqtisodi”, “Bayram chechaklari”, “Ko‘ngil” nomli bitiklarda gap takrori kuzatildi. Yana ta’kidlash joizki, adibning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida so‘z va so‘z birikmalari takrori keng qo‘llangan.

Bilamizki, takrorlar bir-biridan u yoki bu darajada takrorlanish usuliga ko‘ra farqlanadi. Bu farq zamirida tovushlar, so‘zlar, sintaktik qurilmalarning o‘ziga xos takrori yotadi.

Noyob iste’dod egasi O‘tkir Hoshimovning asarlarida takrorning deyarli barcha turi kuzatildi. Adib asarlarida qo‘llanilgan takrorlar bayon qilinayotgan holatni aynan berishda lingvopoetik vosita bo‘lgan.

Quyidagi matnda *m* tovushini cho‘zish orqali Muzaffarning Munavvar o‘z singlisi ekanligini bilib qolgan vaqtdagi holati yorqin o‘z ifodasini topgan: *Nima? Nima deyapti? Bir zum karaxt bo‘lib yotdim-u sapchib o‘rnimdan turib ketdim.*

– Ni-mma?! (“Ikki eshik orasi”)

Mening o‘g‘lim xo‘-o‘-p orzu-havasli chiqdi-da, baraka topgur! Yaqinda to‘y qilaman deb, yap-yangi “Neksiya”sini sotib yubordi, azamat! (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) *...Shoshilmang. Dunyo ishi bitganmas... Iloji bo‘lsa, qabristonni osoyishta aylaning. Shunda... g‘alati holat ro‘y beradi. Marhumlar sizga ko‘-o‘-p narsalarni aytadi... (*“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) Yuqorida keltirilgan misollarda *o‘* unlisini cho‘zib talaffuz qilish orqali bayon qilinayotgan voqelik yanada bo‘rttirilgan.

O‘tkir Hoshimov tomonidan yaratilgan matnlarda tovushlar takrori vositasida emotsional-ekspressivlikning kuchaytirilishiga oid misollar talaygina.

“Unli va undosh tovushlar takrori, bo‘g‘in takrori poetik nutqda, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalarida ko‘p uchraydi. Fonetik vositalarni ataylab takrorlash orqali so‘z san’atkorlari o‘z tasvir bayonining kuchini oshiradilar, his-tuyg‘ularini bo‘rttirib ko‘rsatadilar [1:11]”. Alliteratsiyada nutq tovushlari ma’lum bir o‘rinda, ma’lum bir holatda takrorlanib kelishi bilan ma’noga ta’sir etadi. Alliteratsiya adibning deyarli barcha asarlarida, jumladan, “Tushda kechgan umrlar” romani, “Bahor qaytmaydi” qissalarida ham qo‘llanib, asar qahramonining holatini, ruhiyatini o‘zida aks ettirgan. Masalan: *Oyim bir nimalarni o‘ylab, o‘zicha jilmayib qo‘ydi.*

*– **K**afan **k**iygan **k**etadi, **k**apalak **k**iygan **k**eladi! – dedi ishonch bilan. – Meni aytdi, dersan! Dadang keladilar. Yarim yil o‘tar, bir yil o‘tar... Eshikdan kuli-i-ib kirib keladilar; – Odatlarini ham bilasizmi? – Bu nima deganing? – Ya’ni... masalan... **K**imnikiga **k**im **k**iradi, **k**im chiqadi. **K**im-**k**im bilan yaqin?* (“Tushda kechgan umrlar”).

Ma’lumki, assonans ham badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik, emotsionallik-ekspressivlik bag‘ishlaydi [6:46]. Quyidagi matnda assonans takror so‘zda kelib, Umar Zakunchi holatini yaqqol tasvirlashda lingvopoetik vosita bo‘lgan: *Bir burda qotgan non ham qolmabdi! O‘zim **o**ch, **o**t **o**ch, it **o**ch! Qanaqa hayot bu! ... Zamon og‘ir, urush ketyapti, ...* (“Ikki eshik orasi”)

Quyidagi matnda esa ***-lar*** qo‘shimchasi matn kogerentligiga xizmat qilishidan tashqari unda ifodalangan fikr tadrijiyligini ham ta’minlab, muhim lingvopoetik ahamiyat kasb etgan:

*O‘qib ko‘rdi**lar**. Yoqmadi. Qayta yozdi**lar**. Asl holiga qaytdi. O‘chirib tashladi**lar**. Tag‘in asliga qaytdi. Olovga otdi**lar**.Yonmadi... Bu kitob – Tarix edi!* (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)

Adib ijodida eng ko‘p uchraydigan takror turlaridan biri so‘z takroridir. Quyidagi matnga e’tibor bering.

“Inson” bitigida yozuvchi insonning buyukligi va tubanligini tog‘ cho‘qqisiga emaklab chiqish va tushish mashaqqatiga qiyoslaydi. Bu tengsiz qiyos so‘zlar takrori vositasida yanada obrazli ifodalanadi hamda emotsionallik darajasi oshiriladi: ***Inson*** *shu qadar buyukki,* ***uning*** *fazilatlarini* ***o‘lchash*** *–* ***dunyodagi eng baland tog‘ning eng baland cho‘qqisiga*** *emaklab chiqish* ***zahmati bilan teng.*** ***Inson*** *shu qadar tubanki,* ***uning*** *illatlarini* ***o‘lchash*** *–* ***dunyodagi eng baland tog‘ning eng baland cho‘qqisidan*** *emaklab tushish* ***zahmati bilan teng***.

O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasi takrorining original namunalari ko‘p kuzatildi. “Munojot” bitigida so‘z birikmasi takrori matn oxirida kelib, uning estetik qimmati, ta’sirchanligi oshirilgan: *Xudodan, umr ber, deb* ***so‘raganlarni ko‘rdim***. *Xudodan, baxt ber, deb* ***so‘raganlarni ko‘rdim***. *Xudodan, farzand ber, deb* ***so‘raganlarni ko‘rdim***. *Xudodan, davlat ber, deb* ***so‘raganlarni ko‘rdim***. *Xudodan, omad ber, deb* ***so‘raganlarni ko‘rdim***. *Faqat... Xudodan, ey, yaratgan Egam, men – nodonga bir chimdim aql ber, deb so‘ragan bandasini ko‘rganim yo‘q!* (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)

Adib asarlarida gap takrorlariga ham muhim vazifalar yuklatilgan. Bu, asosan, matnning umumiy mazmunidan va undagi tegishli o‘rinlarning muhimlik darajasidan kelib chiqqan. “Laylak” [2:18] bitigida *Ona yosh edi. Ona navjuvon edi; Laylak, o‘g‘lim, laylak!*; *Nima u, oyi?*; *Hali shaharga qaytishi kerak* takrori, “Taomil” [2:100] bitigida *O‘zbekning g‘alati taomillari bor; Falonchi qanday odam edi?* takrori, “Sevgi” [2:46] bitigida *Ajab, Sevgi hech qachon yolg‘iz yurmas ekan* takrori qo‘llanib, matnning ta’sirchanligini oshirgan. Masalan, “Sevgi” bitigi buning dalilidir:

Avvaliga bir-birlarini tanimas edilar.

Ularni sevgi degan g‘aroyib kuch topishtirdi.

Ular ana shu kuch sehriga maftun bo‘lib qoldilar.

Ajab, Sevgi hech qachon yolg‘iz yurmas ekan. *Unga Hijron degan alanga ergashib keldi. Ular ana shu alanga otashida baravar kuya boshladilar.*

Nihoyat, Hijron alangasi so‘ndi-yu, sevgi Visol degan entiktiruvchi tuyg‘uni yetaklab keldi. Endi ular baxtiyor edilar.

Ajab, Sevgi hech qachon yolg‘iz yurmas ekan*. Endi u Sinov degan to‘siqni yetaklab keldi. Agar ular Sevgining qo‘lidan mahkam tutishganida bu to‘siqdan o‘tishlari mushkul*

emasdi. Ammo bunday bo‘lmadi. Ular sinov oldida chekindilar. (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) Mazkur bitikda ***Ajab, Sevgi hech qachon yolg‘iz yurmas ekan*** jumlasi ikki o‘rinda qatnashib, takrorni yuzaga keltirgan. Mazkur takror yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrni – sevishganlar sinovlarga bardosh bera olsalargina bir umr birga bo‘la olishlarini ta’kidlashga xizmat qilib, matnning muhim lingvopoetik komponenti vazifasini bajargan.

Ma’lumki, matn mikromatnlardan tashkil topadi. Matn takrori deganda mikromatnlar takrori nazarda tutildi. Adibning “Sirli yulduz” qissasida asar boshlanishidagi mikromatn – *Tashqarida sim-sim yomg‘ir yog‘adi. Tomchilarning shitirlashi, tarnovning shovullashi ham eshitilmaydi. Ammo yomg‘ir yog‘yapti, ezib-ezib kuz yomg‘iri yog‘yapti* matni to‘rt o‘rinda [3:307,311,320,326] takror kelib, ular vositasida qissada bayon qilayotgan voqealar: paxta terimi, paxta terimiga hasharga chiqqan to‘qqizinchi sinf va o‘qituvchilarning ayanchli ahvoliga ishora qilingan. Ayniqsa, qissaning bosh qahramonlaridan biri Toshpo‘lat xarakteri va holati mazkur mikromatn takrori vositasida yanada aniq tasvirlangan.

Adibning “Xayollarga bo‘laman tutqun” hikoyasida esa matn boshida kelgan mazkur mikromatn hikoya oxirida yana takrorlangan: *U ketdi... Yaproqlari oqshom shabadasida ohista silkinib turgan bir tup o‘rik tagidan burilib o‘tdi-yu, muyulishda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Qarg‘ashoyi ko‘ylagining etagini, o‘ng bilagiga ilib olgan qizil sumkachasinigina ko‘rib qoldim.*

U ketdi... Quloqlarim ostida anhorning qiqir-qiqir kulgisi-yu, xo‘rsinishga to‘lgan qiz yig‘isi qoldi.

... Ko‘zlarimda yosh qalqdimi?! Yo‘q-yo‘q, axir,nega endi?

U ketdi... U ketdi-yu, xayolimda ham shirin, ham achchiq, ham quvnoq, ham alamli uzuq-yuluq xotiralar qoldi... [3:43] Hikoya matni boshida kelgan ushbu mikromatn hikoyaning asosiy mazmuni haqida kitobxonni oldindan xabardor qilgan. Uning hikoya oxirida takrorlanishi esa sevgilisidan judo bo‘lgan qahramon ruhiyatidagi iztirobni yanada ta’kidlash, shuningdek, hikoya matniga xos mahzun ohangni yanada kuchaytirish kabi lingvopoetik vazifani ado etgan.

“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”da bir bitikning o‘zida takrorning barcha ko‘rinishlari qatnashgani ham kuzatildi. Masalan, “Bozor va mozor” nomli bitikda takrorning besh turi – qo‘shimcha, so‘z, so‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi, gap takrori mavjud: *Bozorda hayot qaynaydi... mozor esa marhumlar makoni... Bozor**da** shoh-shoh, gado-gado. Mozor**da** esa shoh-u gado barobar...*

*Bozor**da** kun-u tun shovqin tinmaydi. Mozor esa sukunat maskani...*

Bozor bilan Mozor bir-biridan naqadar uzoq…

Lekin…

*Aqli raso odam hech qachon bozor**ni** buzmaydi. Aqli raso odam hech qachon mozo**rni** ham buzmaydi...*

*Aqli raso odam qay yurtga bormasin, bozor**ni** aylanadi. Aqli raso odam qay yurtga bormasin, mozor**ni** ham aylanadi. Bozorga kirib, bu yurtning moddiy boyligini ko‘radi. Mozorga kirib, ma’naviy boyligiga baho beradi...*

Bozor bilan Mozor bir-biridan naqadar uzoq**. Bozor bilan Mozor bir-biriga naqadar yaqin!* (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) Mazkur bitikda qo‘shimcha takrori *(-da, -ni*), so‘z takrori (*bozor, mozor, hech qachon, kirib, buzmaydi, aylanadi*), so‘z birikmasi takrori (*aqli raso odam, qay yurtga bormasin*), gap takrori (*Bozor bilan Mozor bir-biridan naqadar uzoq*) hamda so‘z qo‘shilmasi takrori (*Bozor bilan Mozor)* ham mavjud. Bir matnda besh xil takror, bir tomondan, matnning ta’sirchanligini, badiiy qimmatini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa yozuvchining bu boradagi mahoratini yaqqol namoyon qilgan. “Munofiq” bitigidagi bir gapning o‘zida uch so‘z, ya’ni ***tilini, madaniyatini, tarixini so‘zlari shu gapning o‘zida takrorlanib, yuksak badiiyatni yuzaga keltirgan: *Onasini behurmat qilgan odam qo‘shni kampirni yaxshi ko‘raman desa, ishonmayman. O‘z xalqining **tilini, madaniyatini, tarixini** hurmat qilmagan odam boshqa xalqlarning **tilini, madaniyatini, tarixini** hurmat qilaman, desa, ishonmayman.* (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) Mazkur takrorlar vositasida asosiy maqsad kuchaytirilgan. Kitobxon bir qarashda adibning niyati, asosiy maqsadi takror kelgan uch tushunchaga – til, madaniyat, tarixga qaratilayotganini anglaydi.

Adib asarlarida so‘z qo‘shilmasining takror qo‘llanilishi ham keng kuzatildi: *Urushda **g‘olib va baxtli** podshoh, **g‘olib va baxtli** qo‘shin, **g‘olib va baxt**li davlat, **g‘olib va baxtli** tuzum bo‘lishi mumkin. Ammo **g‘olib va baxtli** odam bo‘lmaydi. Negaki, urush odamni odam o‘ldirishga majbur qiladi. Odam o‘ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo‘lmaydi!* (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) Mazkur bitikda ***g‘olib va baxtli*** so‘z qo‘shilmasi takrori to‘rt marta takrorlanib, matn ta’sirchanligini oshirgan hamda urushning shafqatsizligini ifodalashda matnning asosiy badiiy vositasi bo‘lgan.

Bizningcha, anafora, epifora, akromonogramma, epistrofa, antimetabola, xiazm kabi tasvir vositalarini takrorning qo‘llanish o‘rniga ko‘ra turlari deb nomlagan ma’qul.

Anafora **(**anafora – she’riy asarda misralar boshidagi so‘z yoki birikma takrorlanishi [4:55]) “To‘rt toifa” bitigida muallifning nisbiylik, haqiqat, do‘st haqidagi mulohazalarini yorqin ifodalashda lingvopoetik vosita bo‘lgan. Masalan: ***Boshingda** quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan do‘st-shunchaki do‘st. **Boshingda** quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida g‘oyib bo‘ladigan do‘st-do‘st*

emas. ***Boshingda*** *quyosh charaqlab turganida izingdan qolmaydigan, boshingga bulut kelganida xiyonat qiladigan "do'st" – dushman.* ***Boshingda*** *quyosh charaqlab turganida izingdan quvmaydigan, boshingga bulut kelganida izingdan qolmaydigan do'st – haqiqiy do'st* ("Daftar hoshiyasidagi bitiklar").

"Rifma (qofiya)da qo'shimchalar ham, so'z yoki so'z birikmalari ham takrorlanib kelaverishi mumkin. Aruzda yozilgan asarlarda so'zlarning joylashish o'rni birmuncha qat'iy bo'lganligi sababli unda takrorning ishtiroki ham chegaralangan. Takrorning, asosan, qofiya tarzida misra oxirida kelishi bu xildagi ijod namunalari uchun xarakterli [4:58]". Rifma epiforaga teng hodisadir (Epifora – jumla oxirida tovushlarning, so'zlarning, so'z birikmalarining takrorlanishi. "Odat" bitigida *hayron bo'lmang* so'zi o'n uch marta, ya'ni har bir gap oxirida qo'llanilib, epiforani yuzaga keltirgan. *Hayron bo'lmang* takrori ayolning qiziquvchanligini yorqin (ishonarli) tasvirlashda lingvopoetik vosita bo'lgan: *Ishdan nega kech kelganingizni surishtirsa,* ***hayron bo'lmang****.*

Bo'yinbog'ingizni yechishga ko'maklashish bahonasida yoqangizni hidlab ko'rsa, ***hayron bo'lmang****. Majlisda nima masala ko'rilganini so'rasa,* ***hayron bo'lmang****. Majlisda necha kishi qatnashganligini so'rasa,* ***hayron bo'lmang****.*

Kimning yonida o'tirganingizni so'rasa, ***hayron bo'lmang****. Telefoningizning rangi qanaqaligini so'rasa,* ***hayron bo'lmang****. Necha kishi qo'ng'iroq qilganini so'rasa,* ***hayron bo'lmang****. Qayerda tushlik qilganingizni so'rasa,* ***hayron bo'lmang****. Bufet nechanchi qavatdaligini so'rasa,* ***hayron bo'lmang****. Nima ovqat yeganingizni so'rasa,* ***hayron bo'lmang****. Bufetchining yoshi nechadaligini so'rasa,* ***hayron bo'lmang****. Sizga choyni qaysi qo'li bilan uzatganini so'rasa,* ***hayron bo'lmang****! Boringki, oftob qaysi tomondan chiqqanini so'rasayam* ***hayron bo'lmang****. Qiziquvchanlik – ayolning tabiiy odati!* ("Daftar hoshiyasidagi bitiklar") Adib asarlarida anadiplozis ("Bir gap oxiridagi so'z yoki so'z birikmasining ikkinchi gap boshida takroran qo'llanishi [5:52]")ning oxoriy namunalarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, quyidagi bitik bunga misol bo'la oladi: *Ijod ahli – misoli* ***go'dak****.* ***Go'dak*** *qalbini jarohatlashdan oson narsa yo'q.* ***Go'dak*** *qalbini jarohatlashdan og'ir gunoh yo'q.*

Ma'lumki, "Akromonogramma va uning ko'rinishlari anadiplozis, epanalepsis, epanafora, eponostrofa kabilar mumtoz adabiyotdagi tasbig' san'atiga to'g'ri keladi. Akromongrammada bir to'rtlik yoki bayt qaysi gap bilan tugasa, ikkinchisi shu birlik bilan boshlanadi. Uning boshqa ko'rinishlarida ham so'z, so'z birikmalari shu tartibda takrorlanadi [4:59]". Nazarimizda, akromonogrammaga berilgan ta'rif anadiplozis ta'rifiga o'xshash. Faqat anadiplozisda bir gap oxiridagi so'z yoki so'z birikmasining ikkinchi gap boshida takroran qo'llanishi tushunilsa, akromonogrammada matnni tashkil qilgan mikromatn qaysi gap bilan

bilan tugasa, o‘sha gap bilan boshlanishi tushuniladi Akromonogramma adibning *Ayol qalbi teskari magnitga o‘xshaydi: yaqinlashsang – **uzoqlashadi, uzoqlashsang** – yaqinlashadi* (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) matnida kuzatildi. Bitik besh sodda gapdan iborat bo‘lib, uchinchi sodda gap – *uzoqlashadi* gapi to‘rtinchi sodda gap boshida takrorlangan.

O‘.Hoshimov asarlarida – distant takror ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan prozapodosis ham lingvopoetik maqsadda qo‘llangan. “Bunda gap boshidagi ayrim so‘z va birikmalarining gap oxirida takrorlanishi tushuniladi” [5:73]. Prozapodosis epistrofa (band yoki to‘rtlik bir so‘z yoki ibora bilan boshlanib, yana shu birlik bilan tugaydi) [4:72]ga o‘xshaydi. Prozapodosisga “Ikki eshik orasi romani”dagi ***Iymonsiz!*** *Senga ham boqqan balo bordir, vijdonsiz! Norasta nima gunoh, qildi, uyatsiz? Bu kunlar ham o‘tar-ketar, javobini beradigan kelar,* ***iymonsiz!*** matni misol bo‘ladi. ***Iymonsiz*** so‘zi takrorida roman qahramoni Robiyaning Umar zakunchiga bo‘lgan nafrati ekspressiv tarzda ifodalangan.

Annominatsiya kontakt takror ko‘rinishlaridan biri (“O‘zakdosh so‘zlarning ketma-ket takrorlanishidan hosil bo‘ladigan uslubiy figura [5:58]”). Adibning quyidagi bitigi annominatsiyaning ajoyib namunasidir:

– ***Iste’dodsiz iste’dodsizni*** *yomon ko‘rsa nima bo‘ladi?*

– *Hech nima bo‘lmaydi!*

– ***Iste’dodsiz iste’dodlini*** *yomon ko‘rsa nima bo‘ladi?*

–*Hech nima bo‘lmaydi!*

–***Iste’dodli iste’dodsizni*** *yomon ko‘rsa nima bo‘ladi?*

– *Hech nima bo‘lmaydi.*

– ***Iste’dodli iste’dodlini*** *yomon ko‘rsa nima bo‘ladi?*

– *Fojia bo‘ladi!* (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) Bunda *iste’dodsiz, iste’dodli* o‘zakdosh so‘zlari takrorlanib, matn ta’sirchanligini oshirgan.

Ma’lumki, “Bir xil grammatik formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig‘indisidan tashkil topadigan aloqa” [5:79; 6:38] parallel aloqadir. Mazkur bitik parallel aloqaning yorqin misolidir. Bunda bir xil shakllangan so‘z, so‘z birikmasi va gap takrorlanib, parallel aloqani yuzaga keltirgan. Uch xil takror bir-birini to‘ldirib, matn hosil bo‘lishida lingvopoetik vosita bo‘lgan.

Uslubiy vositalardan biri bo‘lgan halqa (“Halqa takrorida she’r boshida biror fikr aytilib, shu fikr rivojlantiriladi, she’r oxirida yana shu fikrga qaytiladi. Halqa takrorini yirik til birliklari, asosan, gaplar hosil qiladi [7:14]”) adibning “Laylak”, “Taomil” bitiklarida kuzatildi.

“Laylak” bitigida *Ona yosh edi. Ona navjuvon edi* gapi, “Taomil” bitigida *O‘zbekning g‘alati taomillari bor* gapi oddiy qaytariqlar bo‘lmay, lingvopoetik vazifa bajarishga xizmat qilgan. “Laylak”, “Taomil” bitiklari boshida aytilgan fikr matn davomida rivojlanib borgan va oxirida umumlashtirilgan hamda o‘zi ishtirok etgan matnning kompozitsion butunligini vujudga keltirgan.

Xiazm “U so‘z yoki so‘z birikmasini shu misraning o‘zida yoki bandda teskari takrorlash san’atidir [7:15]”) – tardu aks. Ma’lumki, u “X” harfi shaklida namoyon bo‘luvchi uslubiy vosita bo‘lib, matnda uslubiy-semantik, ekspressiv, evfonik vazifa bajaradi. Adibning quyidagi bitiklari xiazmning ajoyib namunalaridir.

Aql bilan mansabga *erishish mumkin.*

Mansab bilan aqlga *erishib bo‘lmaydi*;

Bolalikda dunyo ***keng-u kiyim*** *tor.*

Keksayganda ***kiyim keng-u*** *dunyo tor*… (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)

Yozuvchining asosiy maqsadi bitiklarning ikkinchi gapida berilgan bo‘lib, birinchi gaplar ikkinchi gapdan anglashiladigan ma’noni bo‘rtirib ifodalashga xizmat qilgan.

Adib asarlarida bog‘lam ham uchraydi. Bog‘lam – matnning syujetini uyushtirib turuvchi markaziy birlik. (Bog‘lam ijodkor uchun muhim hisoblangan, asarning syujetini uyushtirib turuvchi markaziy so‘zning she’r davomida boshida ham, o‘rtada ham, oxirida ham takrorlanishi [4:62]) “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”ning “Farishtalar” bitigida *hayot abadiy emasligini o‘ylab, taskin topasiz* takrori fikrimiz isbotidir: *Xonadoningizda keksa odam bormi? Baxtli ekansiz! Dunyo tashvishlaridan to‘yib ketsangiz shularni ziyorat qiling:* ***hayot abadiy emasligini o‘ylab***, ***taskin topasiz***.

Xonadoningizda go‘dak bormi? Siz ham baxtli ekansiz... dunyo tashvishlaridan to‘yib ketsangiz, go‘dakni bag‘ringizga bosing: ***hayot abadiy ekanini o‘ylab***, ***taskin topasiz*** ...

Matnning ta’sirchanligini ham oshirgan bu kabi bog‘lamlarni “Bozor iqtisodi”, “Sevgi” “Ko‘ngil” “Bayram chechaklari” “Taomil” “Oq libos” bitiklarida ham kuzatish mumkin [2:46,52,76,100,141].

Shuni ta’kidlash joizki, O‘tkir Hoshimov asarlarida sintaktik parallelizm keng qo‘llanilgan. “Parallelizm yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi” [5:76]dir. “Ikki eshik orasi” romanida ham sintaktik parallelizm keng kuzatildi. Masalan: *Kolxozning qaddini ko‘targanim – yolg‘on! Yetti yil ishlaganim – yolg‘on! O‘zim och yurib, topgan-tutganimni frontga jo‘natganim – yolg‘on! Gektardan oltmish tonna olganim – yolg‘on! Mana bu ordenga, – u entikib ko‘ylagiga taqilgan, oftobda yaraqlab turgan ordenni*

changalladi, – mana shu ordenga siz qo‘l qo‘yganingiz ham yolg‘on. Mazkur takror kitobxonga roman qahramoni Umar Zakunchining holatini to‘la anglashida yordam beradi.

O‘tkir Hoshimov asarlari matnidagi takrorlar, yozuvchining tafakkuri, g‘oyaviy niyati, tushunchasi, ruhiy olami, uni ilhomlantiradigan hayotiy voqelikni tasvirlashda asosiy tasvir vositasi bo‘lgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, adibning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobining barcha bo‘lim bitiklarida takror unumli va o‘rinli qo‘llanib, bitiklarning badiiy qimmatini oshirgan, estetik ta’sirchanligini kuchaytirgan, shakl va mazmun munosabatining uyg‘unligini namoyon etgan, o‘z ichki musiqasiga ega bo‘lgan matnlarni yuzaga keltirgan. Bitiklardagi takrorlar yozuvchining inson haqidagi mulohazalarining o‘ziga xos badiiy shaklda namoyon bo‘lishiga xizmat qilgan.

O‘tkir Hoshimov asarlaridagi takrorlarni o‘rganish jarayonida shunga amin bo‘ldikki, yozuvchi o‘z qahramonlari ruhiyatidagi afsusni, achinishni, iztirobni, eng og‘riqli vaziyatlarni va qahramonning fojeaviy holatini emotsional-ekspressiv tarzda berish maqsadida bunday tasvir vositasidan mahorat bilan foydalangan. Buni adibning yuqorida tahlil qilingan matnlari misolida ko‘rib chiqdik.

Badiiy takrorni matn shaklining ohangdorligi va mazmunning ekspressivligini ta’minlashga yo‘naltirish yozuvchi nutqiy uslubiga xos eng muhim xususiyatlardan biridir. Takrorlar matnlarning estetik ta’sirchanligini kuchaytirishda, matn kogerentligini ta’minlashda, uning mazmuniy-kompozitsion butunligini shakllantirishda muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘lgan. Xususan, O‘tkir Hoshimov bitiklaridagi badiiy takrorlar adibning inson haqidagi kuzatuv-mulohazalari, teran hukm-xulosalari, shaxsiy nuqtayi nazari, faylasufona fikrlarining o‘ziga xos badiiy shaklda namoyon bo‘lishiga xizmat qilgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б.11.

2. Ҳошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. – Тошкент: “Шарқ”, 2013. – Б.18-20.

3. Ҳошимов Ў. Севги қиссалари. – В. 307; 311; 320; 326.

4. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари:Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – Б. 44.

5. Йўлдошев М., Ядгаров Қ. Бадий матннинг лисоний таҳлили. –Тошкент, 2007. – Б.79.

6. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007. – 98 б.

7. Шофқоров А. Миртемир шеъриятида такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2012. – Б.26.

“BOBURNOMA”DA SUVDA VA QURUQLIKDA YASHOVCHI ZOONIMLAR ETIMOLOGIYASI

Kenjayeva Dildora Eshmamatovna
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchi
https://orsid.org/0009-0005-7777-4607

Annotatsiya. “Boburnoma” XV-XVI asrlar eski o‘zbek adabiy tili leksik xususiyatlarini namoyon qiladigan lingvistik qomusdir. Muallifning mahorati asarning tilidagi voqeliklarning ravonligi va betakror badiiy tasvir vositalariga ega ekanida namoyon bo‘ladi. Asar matni Boburning yozma nutqda mahoratli ekanini isbotlaydi. Uning tilshunoslikka oid talqinlari o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotidagi o‘rnini yuzaga chiqaradi. Asar leksikasida zoonimlarning ko‘pgina turlari uchraydi. Zoonimlarning suvda va quruqlikda ham yashay oluvchi turlari nisbatan kam. Quyida “Boburnoma”dagi suv va quruqlikda ham yashovchi *baliq, ilon, baqa* zoonimlariga oid etimologik tahlillar keltirilgan. Tahlil orqali ularning tarixiy nomlanishi, shuningdek, asardagi shakli misollar asosida yoritilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili shakli bilan o‘xshash va farqli jihatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *etimologiya, zoonim, suvda yashovchi zoonimlar, quruqlikda yashovchi zoonimlar, baliq, ilon, baqa.*

Annotation. “Boburnoma” is a linguistic dictionary that reflects the lexical features of the old Uzbek literary language of the 15th-16th centuries. The author’s skill is manifested in the fluency of the realities in the language of the work and the unique means of artistic depiction. The text of the work proves that Babur was skilled in written speech. His linguistic interpretations reveal his place in the development of the Uzbek literary language. The lexicon of the work contains many types of zoonyms. There are relatively few types of zoonyms that can live both in water and on land. Below is an etymological analysis of the zoonyms of fish, snakes, and frogs that live both in water and on land in “Boburnoma”. The analysis highlights their historical naming, as well as their form in the work based on examples. Similarities and differences with the form of the current Uzbek literary language are presented.

Keywors: *etymology, zoonym, aquatic zoonyms, terrestrial zoonyms, fish, snake, frog.*

“Boburnoma”da suv va quruqlikda yashovchi zoonimlar bir nechta bo‘lib, ulardan biri **baliq**dir. Mazkur zoonim qadimgi turkiy yodgorliklarda *balaq, balïq* shaklida Alisher Navoiy asarlarida *baliğ, balïq* fonetik variantlarida qo‘llangan. S.Tolstovning ko‘rsatishicha, so‘zning

o‘zagi eradan III-II ming yil oldin “baliq” ma’nosini anglatgan *bal//bar* so‘ziga borib taqaladi. Mazkur ma’no eski o‘zbek tili manbalarida *māhi,* arabcha *samak* va *hut* o‘zlashmalari bilan ham ifodalangan. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “namlik”, “suv” ma’nosini anglatgan *ba:l* otidan yasalgan, asli “suvda yashaydigan jonivor” ma’nosini anglatgan: *(ba:l>bal)+ы= balы-)+q=balыq>bäliq* [Rahmatillayev,I 2000:38]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida baliq suzgichlari bo‘lgan, oyquloqlari orqali nafas oladigan, umurtqalilar kenja tipiga mansub suv jonivori, muchal yil hisobida beshinchi yil nomi sanaladi. Shuningdek, *baliq/balig‘* leksemasi qadimgi turkiy tilda shahar, qo‘rg‘on ma’nolarini ham anglatgan [O‘TIL, 2006-2008:148]. T.Nafasovning fikricha, bu leksema- shahar ma’nosini anglatgan, barcha turkiy, mo‘g‘ul, tungus- manjur tillariga xos eng qadimiy so‘z. Professor A.Nurmonov baliq so‘zini turkiy va mo‘g‘ul tillarga xos ekanligini alohida qayd qilgan. Rus olimi akademik V.V.Radlov lug‘atida ham bu so‘zning qadimgi turkiy bitiklardagi ma’nosi asos qilib olingan va baliq, “balaq” - shahar, qo‘rg‘on deb izohlangan [Xabibullayeva, 2024:474].

Zoonim “Boburnoma”da ***baliq/balig‘*** shaklida kelgan, umurtqali hayvonlar sinfiga mansub hayvon hisoblanadi. Baliq qadimdan insonlar tomonidan ovlanadi. Bobur Kobul viloyatining Boron, Gulbahor, Parvon, Istalif suvlarida boshqa joyda ko‘rilmagan ov usullarida baliq ovlanganini bayon etgan. U Hindiston baliqlarining go‘shtini yuqori baholaydi [Bobur ensiklopediyasi, 2017:69]. Baliq Hindiston hayvonlaridan biri *huki obiy* ta’rifida *“O‘zga boshi va tanasi baliqtektur…”, “...bu baliqdek suvdin tashqari hargiz chiqmas”* izohlari bilan keladi [Boburnoma, 1960:352]. Asar matnida forscha baliqxona so‘zi mohixona leksemasi bilan ham ifodalangan, bu tilimizda bir ma’noga ega ikki til leksemasi teng qo‘llanganini bildiradi: *“yasag‘on mohixonalarda baliq tuttilar. Burnaroq bu mohixonaning kayfiyati mazkur bo‘lib edi”* [Boburnoma, 1960:320]. Bobur Hindiston baliqlarini: *“go‘shti laziz bo‘lur edi va qiltig‘i bo‘lmas, ajab chust baliqlardur”* deb ta’rif etadi. Hindistonda uchraydigan <u>ushoq baliqlar</u>ni *“bir qattiq un yo tovush bo‘lsa, bayakbar sachrab, suvdin bir qari-bir yarim qari baland chiqadurlar”* deya ularning xususiyatlarini bayon etadi [Boburnoma, 1960:352]. Bir hodisada baliqning <u>gariyal</u> (kiryol/karyal)dan qo‘rqqancha, shunchalik baland sakrashidan kema ichiga kelib tushganini aytadi [Boburnoma, 1960:438]. <u>Parsaruda baliq</u>larning sham yorug‘ida qalin kelib ularni qo‘l bilan bemalol tutishganini misol asosida keltiradi [Boburnoma, 1960:447]. Asarda quyidagi baliq ovi turlari keltirilgan.

1. Boron suvida baliqning to‘r bila yana jax bog‘lab ovlanishi.
2. Gulbahor, Parvon, Istalif suvida kuz oylarida qulon quyrugi‘ o‘ti gullab, dona bog‘laganda, suv yoqasiga 20-30 tasini keltirib, yanchib suvga solib, uning hididan mast baliqlarni, quyiroqda tol xunchalaridan to‘qilgan chig‘ga suv tushadigan joyda pastroq

qismga kovok qo‘yib atrofiga tosh qalab ichiga tushgan mast baliqlarni tutishlari keltirilgan.

3. Lamg‘anotda uy o‘rnicha-uy o‘rnicha yerlarni chuqur qilib, o‘choq poyasidek toshlarni chuqurlarda qo‘yib ustiga tosh qalashgan. Oqib kelgan suv tosh ustidan o‘tar, baliqlar esa, bir joydan kirar boshqa joydan chiqolmaydi. Qishda qachon baliq kerak bo‘lsa, handaqlardan birini ochib 40-50 baliq olinadi.
4. Yana boshqa bir ov usulida bir yerda chig‘ og‘zidan baliqlar kirar teshiklari bor, ammo chiqish imkonsiz holda, boshqa yerda hech uchramaydigan ov usuli [Boburnoma, 1960:203] kabilar bayon etilgan.

Demak, Bobur ov jarayonlarida ham ishtirok etib, sinchkovlik bilan kuzatgani ma’lum bo‘ladi.

Navbatdagi zoonim **baqa** bo‘lib, *baqa, bag‘a,* hozirgi o‘zbek adabiy tilida *baqa* variantida mavjud. A.Sherbak zoonimni ko‘rinishi jihatidan tovushga taqlid so‘zidan kelib chiqqanligini qayd etadi [Abdushukurov, 2020:81]. O‘zbek tilining etimologik lug‘atida baqa- “qurbaqa” bo‘lib, bu ot qadimgi turkiy tildagi *ba:g‘* tovushga taqlid so‘zi asosida yuzaga kelgan *baq-* fe’lidan –a qo‘shimchasi bilan yasalgan: *baq+a= baqa> bäqä* [Rahmatillayev,I 2000:40]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida baqa *shv*. suvda va quruqlikda yashovchi dumsiz jonivorlar oilasi vakili; qurbaqa [O‘TIL, 2006-2008:185]. *Qurbaqa, qïrbaxa, qurbuğa* ko‘rinishlarida qo‘llangan [Abdushukurov, 2020:82]. Qurbaqa baqa so‘zi oldidan qur-qur tovushga taqlid so‘zini qo‘shib tuzilgan: (qur-qur)+baqa=qurbaqa>qubäqä [Rahmatillayev,I 2000:576]. Qurbaqa suvda va quruqlikda yashovchi dumsiz jonivorlar turkumining bir turi; oyoqlari sakrab yurish uchun moslashgan [O‘TIL, 2006-2008:379]. “Boburnoma”da zoonim hind baqalarining yugurikligi tasviri taqqosida uchraydi: *“Yana Hinduston baqalari, agarchi o‘shal baqalardektur, vale bu baqalar suvning yuzida yeti-sekkiz qari yuguradurlar”* [Boburnoma, 1960:352]. Hindiston baqalari suv yuzasida tez harakat qiladi va ularning farqli jihatdan biri sifatida keltirilgan. Masofani bildirgan *qari so‘zi* - qadimiy o‘lchov birliklaridan biri hisoblanadi. U tutam asosida o‘lchanadi. 1 tutam — (Markaziy Osiyoda)= 9 sm: arqon yoki tayoqni siqib ushlagan qo‘l to‘rtta barmog‘ining kengligiga mos tarzda tanlangan uzunlik birligi hisoblangan [To‘rayev Q., Zokirova M., 2013].Demak, Hindiston baqalari suv yuzasida 63-72 smgacha uzunlikkacha yugurib harakat qila olagan deyish mumkin.

Ilon (yilon) zoonimi turkiy o‘n ikki muchal yillaridan oltinchisi, ilon yilini anglatgan. Mazkur zoonim *yïl*= “jilmoq”, “sirpanmoq” fe’liga *–an* affiksini qo‘shish natijasida hosil bo‘lganligi qayd etiladi [Abdushukurov, 2020:77]. O‘zbek tilining etimologik lug‘atida “qimirla-”, “jil-” ma’nosini anglatuvchi *ɣɯl-* fe’lidan –(a)n qo‘shimchasi bilan yasalgan deb

beriladi: *уыl-+an= уылan>ылan>ilân* [Rahmatillayev,I 2000:116]. B.Vafoyev zoonimni *ir-yer-yir* hamda *lon-lan* qismlaridan iboratligini, ya'ni *yer hayvoni* ma'nosida kelganini taxmin qilgan va so'zda atalmish narsa, predmet, hodisaning eng asosiy ustun belgisi aks etgan ma'no tashuvchisi sifatida bu so'zda muhit, sharoit birinchi o'rinda turadi deb hisoblaydi [Vafoyev, 1991:111].

"Boburnoma"da ikki o'rinda ***yilon*** [Is'hoqov, 208:75] shaklida kelgan. Xo'jand atrofida ko'p bo'lishi aytiladi [Boburnoma, 1960:62]. Kobul yaqinidagi Xoja Seyoron yaqinida zoonim haqida hayratlanarli, qiziq voqea eslanadi [Bobur ensiklopediyasi, 2017:242]. "*Xoja Seyoron yaqiniga yetganda, bir ulug' yilonkim, yo'g'onligi*

bilakcha va uzunligi bir quloch bo'lg'ay edi, o'lturuldi. Bu ulug' yilonning ichidan bir inchkaroq yilon chiqti, g'olibo o'shul yaqinda yutub ekandur, bori a'zosi butun edi. Bu inchka yilon bu ulug' yilondin juzviy qisqaroq bo'lg'ay edi. Bu inchka yilonning ichidan bir katta sichqon chiqdi, ul ham butun edi. Hech yeri hal bo'lmaydur edi" [Boburnoma, 1960:306]. Ko'rinadiki, ilon tasvirida Bobur uning nomini yozmagan, boshqa manbada shu voqeadagi ilon barchaga tanish bo'g'ma ilon ekani va ichidan sichqon o'lik holda chiqqani bayon qilingan [Valixonov, 2004:51]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ilon sudralib yuruvchi, oyoqsiz tanasi ingichka va uzun, ko'zlari shaffof qovoqlar bilan qoplangan jonivor, muchal yilining oltinchi yili, mor hisoblanadi [O'TIL, 2006-2008:198]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *ilon* shaklida yoziladi va aytiladi. Tarixiy tarqqiyot natijasida bu so'zda bir "y" fonemasi tushib qolgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning memuar janrdagi "Boburnoma" asari ma'lumotlar va tafsilotlarning aniqligi, sodda, ravon tildagi bayoni bugun ham uning o'z qadr-qimmatini ko'rsatadi. Bobur asarda turli sohaga mansub leksemalarning etimologiyasini bergan o'rinlar bor. Aynan, Kakka, Nilagov, Murg'aki Qarshi zoonimlariga oid ma'lumotlar ham yoritilgan.

"Boburnoma"dagi zoonimlarning etimologik tadqiqi magistrlik ishi sifatida yoritilgan [Kenjayeva, 2023]. Boburning sinchkov va tabiatga oshnoligi zoonimlar haqida ko'p ma'lumotlarni qayd etishiga sabab bo'lgan. Uning yurishlarida yangi hududlar egallanishida uchragan hayvon turlari, muallifning o'z yurti tabiati, hayvonot va tabobati bilan solishtirib izohlangan. Baliq zoonimi qadimgi turkiy tilda omonim sifatida, ilon zoonimi hozirgi o'zbek adabiy tilida fonetik jihatdan o'zgarishga uchraganini, baqa zoonimi hozirda ikki nomda ham baqa, ham qurbaqa shaklida qo'llanishi ma'lum bo'ldi. Zoonimlarning etimologik tahlili ularning bugungi nomlari va uning qo'llanish jarayoni tadrijini ko'rsatib berishda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдушукуров Б. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили. –Тошкент.: Нодирабегим, 2020. – Б.81.
2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. –Тошкент: ФА нашр, 1960.
3. Бобур энциклопедияси. –Тошкент: Шарқ, 2017. –Б.69.
4. Исҳоқов Ф. ‹‹Бобурнома››учун қисқача изоҳли луғат. – Андижон, 2008. -Б.75.
5. Kenjayeva D. “Boburnoma”dagi zoonimlarning etimologik tadqiqi.-Toshkent, 2023. Magistrlik diss.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд (туркий сўзлар). - Тошкент: Университет, 2000. 600 б.
7. To‘rayev Q., Zokirova M. “Ma’rifat” gazetasi. https://n.ziyouz.com/ 2013-yil, 24-oktabr.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Мадвалиев А. таҳрири остида. 5 жилдлик. – Тошкент. 2006-2008.
9. Вафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. –Тошкент, Фан 1991. –Б.111.
10. Валиханов М.Н. Табиатшунослик асослари. –Тошкент, 2004. –Б.51.
11. Xabibullayeva M. Andijon viloyati ma’muriy tumanlari va ma’muriy markazlarining toponimik taxlili. FarDU Ilmiy xabarlar. 2024/1-son. -B. 274.
12. Холманова З. «Бобурнома»- тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021.

O‘ZBEK TILIDA BELGI-XUSUSIYATNI BILDIRUVCHI LINGVOMADANIY KODLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Niyozova Zarnigor Abdig‘affor qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvomadaniy kodlar va ularning lingvistik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Unda leksema, frazeologizm, so‘z birikmasi kabi birliklar bilan ifodalangan belgi-xususiyatni ifodalovchi lingvomadaniy kodlar tarmoqlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. *Kod, lingvomadaniy kod, madaniy kod, belgi-xususiyat, leksema*

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвокультурные коды и их лингвистические свойства. Обсуждаются лингвокультурные коды, представляющие собой знаковые свойства, выраженные такими единицами, как лексема, фразеология и словосочетание.

Ключевые слова: *Код, лингвокультурный код, культурный код, знаковое свойство, лексема*

Til - bu faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, qadriyatlari va mentalitetini o‘zida mujassam etgan murakkab madaniy hodisadir. Til orqali jamiyatning madaniy tajribasi avloddan avlodga o‘tadi. Ana shu jarayonda lingvomadaniy kodlar muhim o‘rin tutadi.

Lingvomanadiy kodlar til birliklari orqali madaniy ma’nolarni ifodalash va uzatish mexanizmi bo‘lib ular milliy tafakkur va ijtimoiy tajriba bilan chambarchas bog‘liqdir. D.Xudoyberganova madaniyat kodlar va va lingvomadaniy kodlar haqida “muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimini bildiradi. Madaniyat kodlari inson tomonidan olamni kategoriyalashtirish jarayonining mahsulidir”[1]. Farhod Usmanovning fikricha, “Lingvomadaniy kod madaniyat kodining lisoniy qobiqdagi ko‘rinishidir. Verbal vositalar orqali har qanday narsani ifodalash mumkin. Til o‘ziga madaniyatning obrazli kodlarini singdiradi. Bunda kodning ifoda rejasida o‘zgarish sodir

[1] Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин
зиё, 2015. – Б. 29.

bo‘ladi va madaniy kodlar verballashib, lingvomadaniy kodga aylanadi”.[2] Muqimova Z. fikrlariga ko‘ra “ U yoki bu til muayyan madaniyatning makrokodi, uni boyituvchi birliklar esa o‘sha madaniyat mikrokodlaridir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek tili – o‘zbek xalqining madaniy makrokodi. Chunki o‘zbek tili – o‘zbek millatining o‘zbekona tafakkuri va tasavvurlari jamlanmasi. Xalqning ruhi uning tilida voqelanib, u faqat ungagina tegishli va ungagina tushunarli bo‘ladi[3].

Bizning fikrimizcha, lingvomadaniy kod ma’lum bir bir xalq yoki madaniyatga xos bo‘lgan tushunchalar ramzlar, stereotiplar va qadriyatlarning til birliklari orqali ifodalanishidir. Bunday kodlar so‘z, frazeologizm, maqol-matal, metafora va ramziy obrazlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida “non” so‘zi shunchaki oziq-ovqat nomi emas, balki muqaddaslik, baraka va hayot ramzi hisoblanadi. “Nonga hurmat-elga hurmat” degan qarash lingvomadaniy kod sifatida mustahkam o‘rnashgan..

Lingvomadaniy kodlarning o‘ziga xos turlari quyidagilardan iborat:

1) Predmetli (buyumlar orqali);
2) Fazoviy va vaqt kodlari;
3) Harakat-holatga oid kodlar
4) Belgi va xususiyatga oid kodlar

Shundan kelib chiqib, biz ushbu tadqiqot ishimizda belgi-xususiyatga oid bo‘lgan lingvomadaniy kodlar haqida so‘z yuritamiz. Xususan, metafora usulidagi lingvomadaniy kod – bu belgi orqali insonning ichki kechinmasi, munosabati, ijtimoiy bahosini bevosita aytmasdan ko‘chma ma’no yordamida ifodalashidir. Jumladan, o‘zbek tilida belgi-xususiyatni bildiruvchi metaforalar asosan tabiat hodisalari, hayvonlar, buyumlar, ranglar, jismoniy holatlar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Misol sifatida ko‘rishimiz mumkin:” Boshi egik”- bu birikmada to‘g‘ridan to‘g‘ri bosh egilganlik emas, kamtarlik ma’nosi tushuniladi. Shuningdek, “ko‘ngli qora”-bu so‘z orqali yovuzlik ma’nosini anglash mumkin. Bundan tashqari “ko‘zi to‘q- qanoatni, yuragi tosh- rahmsizlikni, yuzi yorug‘-poklikni, ko‘ngli tor-baxillikni, “*U qora niyatli inson”, “Onam yuragi keng ayol*”, “*Bahor kelishi bilan tabiat sekin uyg‘ona boshladi*”. Bularda ko‘rishimiz mumkinki “oq ko‘ngillik-samimiylikni, qora niyat-yovuzlikni, yuragi keng-mehribonlikni, tabiatning uyg‘onishi esa, kurtaklarning ochila boshlaganini ifodalaydi. Bu kabi so‘z birikmalari tilimizning ichki madaniy ma’no qatlamini yanada chuqurroq anglab yetishga, nutqimizni obrazli va ta’sirchan qilishga, shuningdek, kognitiv tafakkurni

[2]Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol.fan.dok…. diss. – Toshkent. 2024. – B.35

[3] Muqimova Z. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni. Toshken. 2025.-54

rivojlantirishga, millatlararo muloqotni samarali qilishga xizmat qiladi. Lingvomadaniy kodlar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, dunyoqarashi va qadriyatlarini tilda yashirin holda saqlaydi. Natijada, belgi-xususiyatni bildiruvchi lingvomadaniy kodlarni o‘rganish o‘zbek tilining semantik, pragmatik va madaniy qatlamlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Ular tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika kabi yo‘nalishlari uchun muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi. Shu bois, mazkur kodlarni tahlil qilish va tizimlashtirish nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida belgi-xususiyatni bildiruvchi lingvomadaniy kodlar millatning tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab va serqatlam til hodisasidir. Bunday kodlar orqali xalqning inson xarakteriga, tashqi va ichki belgilariga, axloqiy fazilatlariga bergan bahosi ifodalanadi. Ular nafaqat tilning leksik boyligini, balki milliy tafakkurning obrazli va ramziy tafsilotlarini ham namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 29.
2. Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol.fan.dok…. diss. – Toshkent. 2024. – B.228
3. Muqimova Z. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni. Toshkent. 2025. – B. 237

TOSHHOVUZ O‘ZBEK SHEVALARIGA TURKMAN TILINING MORFOLOGIK TA’SIRI

Alimardanov Elyor
ToshDO‘TAU doktoranti
elyoralimardanov11@gmail.com

Annotatsiya. Ma’lumki, mavjud arealdagi qarindosh va qarindosh bo‘lmagan til va shevalar o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi. O‘zbek tili massivining Xorazm dialektal zonasiga mansub bo‘lgan Toshhovuz o‘zbek shevalari uzoq vaqt davomida atrof turkman shevalarining ta’siriga tushgan bo‘lib, maqolada Toshhovuz o‘zbek shevalari xususida va ularga turkman tilining morfologik ta’siri haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek shevalari, turkman shevalari, o‘g‘uz lahjasi, morfologik ta’sir, Xorazm dialektal zonasi.*

Annotation. It is known that related and unrelated languages and dialects in the existing area influence each other. The Toshkhovuz Uzbek dialects, which belong to the Khorezm dialectal zone of the Uzbek language massif, have been influenced by the surrounding Turkmen dialects for a long time, and the article discusses the Toshkhovuz Uzbek dialects and the morphological influence of the Turkmen language on them.

Keywords: *Uzbek dialects, Turkmen dialects, Oghuz dialect, morphological influence, Khorezm dialectal zone.*

Xorazm dialektal zonasida o‘zbek tili turkman shevalariga o‘z ta’sirini o‘tkazgani singari turkman shevalari ham o‘zbek shevalariga ta’sir ko‘rsatadi. Bu kabi til va shevalarning bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama ta’siri areal lingvistikada o‘zaro ta’sir deyiladi [Ashirboyev, 2023: 67-68].

Tadqiqotlarda tillarning ta’siri 3 xil usulda amalga oshirilishi keltiriladi: a) tillarning majburiy yo‘ldagi ta’siri (g‘olib til mag‘lub tilning ustidan g‘olib kelishi); b) taraqqiy etgan davlatlarning ilm-fan, texnika, iqtisodiyot, madaniyat va boshqa jihatlarini o‘rganish natijasidagi ta’sir; v) aralash yashaydigan xalqlarning turmush faoliyati natijasida tillarning o‘zaro ta’siri [Аразов, 2007: 10-11]. Xorazm dialektal zonasidagi o‘zbek tilining boshqa til va shevalarga ta’siri, shuningdek, ularning o‘zbek shevalariga ta’siri yuqoridagi 3-turdagi til kontaktiga mansubdir.

Dialektal zonalardagi til va shevalarning kontaktini yuzaga chiqaruvchi til, sheva va etnik birliklarning kesishuvi davlat va ma’muriy bo‘linishlarning rasmiy hududiy kesishishiga, ya’ni milliy chegaralanishiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, dialektal zonalarni belgilashda davlat chegaralari hisobga olinmaydi, balki o‘zbek tili massivining geografik, dialektal farqlanishi, tarixiy-etnografik xususiyatlari asosida uning shevalari guruhlashtiriladi [Ashirboyev, 2023: 75]. Shu ma’noda, Xorazm dialektal zonasi o‘z tarkibiga Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l, Ellikqal’a, Beruniy, Amudaryo, Nukus, Xo‘jayli, Qonliko‘l, Shumanoy, Qo‘ng‘irot tumanlari bilan birga Turkmanistonning Toshhovuz viloyatini ham qamrab oladi.

Toshhovuz viloyati o‘zbek shevalariga atrof turkman shevalarining sezilarli ta’siri bor. Bu borada M.Saparov quyidagilarni bayon qiladi: “Turkmaniston hududidagi o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi (shu jumladan, qipchoq – E.A.) vakillari tiliga turkman so‘zlashuv tili, shuningdek, turkman adabiy tili vaqtli matbuot, radio, televideniya va o‘quv-o‘qitish ishlarining turkman tilida olib borilishining ta’siri nihoyatda kuchlidir. Bu faktorlar mazkur hududda yashovchi o‘zbeklar tilida turkman tili hamda uning shevalariga xos so‘zlarning juda ham ko‘p bo‘lishiga asos bo‘lgan. Xuddi shunday ta’sir Xorazm vohasida yashovchi ota, igdir, duyeji, go‘klan, emrali, qoratoshli, chovdur singari turkman shevalari vakillari nutqida mavjud. Bu turkman shevalari vakillarining tilida o‘zbekcha so‘zlar, xususan, o‘g‘uz lahjasiga xos lingvistik xususiyatlar nihoyatda ko‘p uchraydi. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va turkman xalqlarining O‘zbekiston hududida yoki Turkmaniston hududida aralashib va qo‘shni yashashlari o‘zbek shevalarida turkmancha, turkman shevalarida o‘zbekcha leksik qatlamning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lgan” [Сапаров, 1987: 50-51].

Toshhovuz viloyati aholisining etnik tarkibi xilma-xil va rang-barangdir. Viloyatda turkmanlar (o‘g‘uz: yovmut, ota, shix, go‘klan, salir, chovdur; qipchoq: arabachi, noxur, mukri, surxi, duyeji, mexinli, olam urug‘lari vakillari) o‘zbeklar (o‘g‘uz, qipchoq), qoraqalpoqlar, qozoqlar istiqomat qiladi va mazkur arealda turkman shevalari boshqa til va shevalarga ta’sirini o‘tkazadi.

Y.Ibragimov Toshhovuz o‘zbek shevalari haqidagi quyidagi muhim ma’lumotlarga to‘xtaladi: “Toshhovuz viloyatida 229790 nafar o‘zbeklar yashaydi, bu umumiy aholining 31,5 foizini tashkil etadi. Ular o‘tmishda qipchoq, mang‘it, qo‘ng‘irot, qangli, nayman, alan, as, arap, qishliq, bog‘alon, jumashaq, chandir, oyrot, uyg‘ur, shayx, ayaqchi, bo‘zchi, oy, chavdir, torg‘ay, qaramergen, tuyachi, do‘rmon, ag‘ar, kanagas, hazaras, sart, qiyot, no‘kis, xo‘ja kabilar qadimiy o‘zbek qabilalaridan iborat alohida oraliq etnografik hududini tashkil qiladi. Faol o‘zaro ta’sir jarayonida Janubiy Orolbo‘yi o‘zbek shevalari oraliq guruhlari turkman tilining

o‘zaro bog‘liq shevalari xususiyatini qamrab olgan, ular turkmanlarning mahalliy shevalari bilan hayratlanarli darajada aralashib, faqat shu hududga xos bo‘lgan o‘ziga xos so‘zlashuv nutqini tashkil etdi” [Ибрагимов, 2000: 49-50].

Toshhovuz viloyatidagi o‘zbek shevalari F.Abdullayev, J.Saidmurodov, K.Rahimova, Y.Ibragimov, R.Yo‘ldoshevlar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbek tili massivining Toshhovuz o‘zbek shevalari bizning tasnifga ko‘ra, tashqi oraliq shevalar guruhining o‘zbek-turkman shevalari turiga mansubdir. Sababi, hududiy jihatdan Turkmanistonda joylashgan mazkur o‘zbek shevalariga ta’sir ko‘rsatuvchi til – turkman tilidir.

O‘zbek-turkman tashqi oraliq shevalari hisoblangan Toshhovuz o‘zbek shevalari o‘z ichida 2ga bo‘linadi: 1) Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor (til xususiyatlariga ko‘ra, o‘g‘uz tur shevalariga yaqin); 2) Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish (til xususiyatlariga ko‘ra, qipchoq tur shevalariga yaqin).

Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor tip shevalariga Toshhovuz tumani Katli, Ro‘zimboy, Tozabozor qishloqlari, Ilonli tumani Qoramozi, Chandir, Do‘rmon, Kanagas qishloqlari, Toshhovuz viloyati Oqdepa tumani Qizil Baydoq qishlog‘i kabilarda yashovchi o‘zbeklar tili mansubdir.

Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish tip shevalariga Ko‘hna Urganch tumanining Qumqal’a, Jetiqora, Barakat, Oqqala, Sodiqov, Nayman qishloqlari, Gubadog‘ tumanining Ko‘kchaga, Jumaboysag‘i qishloqlari, Toshhovuz tumanining Oltmish, Toza yormish, Ko‘hna yormish, Qarg‘ish qishloqlarida yashovchi o‘zbeklar tili kiradi.

R.Yo‘ldoshevning dissertatsiyasida keltirgan tasnifi yuqoridagi tasnif bilan ko‘p tomonlama umumiylikni hosil qiladi [Йўлдошев, 2002: 17-27]. Olim viloyatdagi o‘zbek shevalarini 3ga ajratadi: o‘g‘uz, qipchoq, aralash (o‘g‘uz-qipchoq, qipchoq-o‘g‘uz) va olim tomonidan keltirilgan o‘g‘uz shevalari Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor tip shevalariga, qipchoq shevalari Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish tip shevalariga to‘g‘ri keladi. Aralash shevalar sifatida talqin etilgan shevalar o‘g‘uz va qipchoq areallari tutashgan hudud shevalarini qamrab oladi.

Dialektal zonaning o‘zbek shevalari morfologiyasi K.Rahimova tomonidan maxsus o‘rganilgan [Рахимова 1983: 167]. U hudud o‘zbek shevalarini 3ga ajratadi (o‘g‘uz, qipchoq, oraliq shevalar) va Toshhovuz o‘zbek shevalari morfologik xususiyatlarini keltiradi.

Toshhovuz turkman shevalari fonetik jihatdan ta’sir etgani singari grammatik tomondan ham o‘zbek shevalariga ta’sir ko‘rsatadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

– ko‘plik kategoriyasining o‘zbek shevalariga xos *-la / -lä, -ar / är* affikslarining *-lar / -ler* affikslariga o‘zgarishi;

– qaratqich va tushum kelishiklarining alohida ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi;

– jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklaridagi o‘zgarishlar.

Ko‘plik kategoriyasi. Ma’lumki, Xorazm dialektal zonasidagi o‘zbek (o‘g‘uz) shevalarida ko‘plik *-la / -lä* affikslarini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Toshhovuz o‘zbek shevalarida ko‘plik *-la / -lä* bilan birga *-lar / -lär* qo‘shimchalari bilan ham ifodalanadi. Masalan: *Bizäni änälärimizäm šu xasta bolγanïmïzda isvänt tütätgänlär. Šo jaŋŷï šähär maŋollar basïb alγannan soŋ pïtrap ketgänäkän.* Umuman olganda, ko‘plik kategoriyasining *-lar / -lär* holda qo‘llanilishi Toshhovuz o‘zbek shevalari uchun yod emas. Hududdagi Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish (qipchoq) shevalarida ushbu shakl faol qo‘llaniladi.

Kelishik kategoriyasi. K.Rahimova Toshhovuz o‘zbek shevalarining o‘g‘uz va qipchoq guruh shevalarida Toshkent va Qarshi shevalaridan farqli o‘laroq, kelishiklarning adabiy til bilan bir xil 6ta uchrashini qayd etadi [Рахимова, 1983: 32-33]. U Toshhovuz o‘zbek shevalari kelishiklar tizimini hududlar kesimida quyidagicha joylashtiradi.

1-jadval

Kelishiklar	Toshhovuz	Ilonli	Qipchoq	O‘g‘uz-qipchoq
Bosh kelishik				
Qaratqich	-ни / -нъ / -ны / -иң / -ъң / -ың / -уң / -үң / -и / -ъ / -ы	-ни / -нъ / -ны / -иң / -ъң / -ың / -уң / -үң / -и / -ъ / -ы	-ниң / -ның / -тиң / -тың / -диң / -дың	-ниң / -нъң / -ның / -ни / -нъ / -ны / -тиң / -тың / -диң / -дың
Tushum	-ни / -нъ / -ны / -и / -ъ / -ы	-ни / -нъ / -ны / -и / -ъ / -ы	-ни / -ны / -ди / -ды / -ти / -ты	-ни / -нъ / -ны / -ди / -дъ / -ды / -ти / -тъ /-ты / -и /-ъ / -ы
Jo‘nalish	-а / -ə / -ға /-гə	-а / -ə / -ға /-гə / -на / -нə	-ға /-гə / -на / -нə / -ка / -кə	-ға /-гə / -на / -нə / -қа / -кə / -а / -ə
O‘rin-payt	-да /-дə / -та / -тə	-да / -дə	-да /-дə / -та / -тə	-да /-дə / -та / -тə
Chiqish	-дан /-дəн / -тан / -тəн / -нан / -нəн	-дан /-дəн / -нан / -нəн	-дан /-дəн / -тан / -тəн / -нан / -нəн	-дан /-дəн / -тан / -тəн / -нан / -нəн

Jadvaldan ham ma’lumki, Toshhovuz o‘zbek shevalarining Toshhovuz va Ilonli (o‘g‘uz), qipchoq va oraliq (o‘g‘uz-qipchoq) guruhlaridagi kelishik tizimida o‘g‘uz va qipchoq unsurlari bilan birga turkmancha elementlar saqlagan. Masalan, Urganch-Xiva shevalarida qaratqich kelishigining *-ní / -nı* shakllari qo‘llansa, Toshhovuz shahri va Ilonli tumani shevalarida *-ní / -nı* bilan *-íŋ / -ıŋ, -üŋ / -uŋ* hamda *-í / -ı* shakllari ham qo‘llanadi. Toshhovuz va Ilonli shevalari bizning tasnifimizga ko‘ra, o‘zbek-turkman oraliq shevalarining Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor tipiga to‘g‘ri keladi. Dialektal zonaning markaziy shevalari, shu jumladan, Urganch-Xiva shevalarida 5ta kelishik mavjud bo‘lsa, Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor shevalariga yondosh turkman shevalarining ta’siridan qaratqich kelishigining *-íŋ / -ıŋ, -üŋ / -uŋ* shakllari o‘zlashgan. Shunga ko‘ra, Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor shevalarida qo‘llaniladigan kelishiklar soni 6tadir. Qiyoslang, Urganch-Xiva, *atnı balasï, üjní äldi;* Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor, *atıŋ / atnı balasï, üjní / üjíŋ äldi;* Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish, *attïŋ balasï, üjdiŋ äldi*.

Shuningdek, qaratqich kelishigining *-í / -ı* shakllari ham qo‘llangan. Bu holat Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor shevalarigagina xos bo‘lgan oraliq xususiyat hisoblanadi. Sababi, dialektal zonadagi aksar o‘g‘uz shevalarida qaratqich kelishigi funksiyasini tushum kelishigi affikslari *(-ní / -nı)* bajaradi. Turkman shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari alohida ko‘rsatkichlarga ega. Masalan, qaratqich kelishigining undosh bilan tugagan asosga *-íŋ / -ıŋ, -üŋ / -uŋ* affikslari, unli bilan tugagan asosga *-níŋ / -nıŋ, -nüŋ / -nuŋ* shakllari qo‘shiladi. Tushum kelishigining undosh bilan tugagan asosga *-í / -ı* (sporadik holatda *-ü / -u*) ko‘rsatkichlari, unli bilan tugagan asosga *-ní / -nı, -nü / -nu* qo‘shimchalari qo‘shiladi. Demak, Urganch-Xiva shevalarida tushum kelishigining *-ní / -nı* affikslari qaratqich o‘rnida keladi va shunga ko‘ra, Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor shevalariga yondosh turkman shevalarining ta’siri natijasida tushum kelishigining *-í / -ı* affikslari o‘zlashgan va mazkur affikslar ba’zi holatlarda qaratqich kelishigining ham funksiyasini bajaradi, *Rejímbajı bırtlas balası – Rahimboyning sermo‘ylov bolasi, hunı xijalı – uning xayoli, fikri, atamı qolı – otamning qo‘li* kabi.

Yuqorida aytilganidek, turkman shevalarining tas’iridan o‘zbek shevalariga tushum kelishigining *-í / -ı* affikslari o‘zlashgan. Masalan: *Jüsípí gördím* – Yusufni ko‘rdim.

Kelishiklar tizimida aksar affikslar turkman shevalari bilan (ba’zi fonetik o‘zgarishlarni hisobga olmaganda) bir xilligini kuzatish mumkin. Masalan, Toshhovuz o‘zbek shevalari: *-ya /-gä / -na / -nä / -qa / -kä / -a / -ä* (jo‘nalish kelishigi), *-da / -dä / -ta / -tä* (o‘rin-payt kelishigi), *-dan /-dän / -tan / -tän / -nan / -nän* (chiqish kelishigi); turkman shevalari: *-na / -ne / -a / -e* (jo‘nalish kelishigi), *-da / -de / -ta / -te* (o‘rin-payt kelishigi), *-dan /-den / -tan / -ten* (chiqish kelishigi).

K.Rahimova dissertatsiyasida kelishiklar haqida keltirgan morfonologik eslatmalari biroz munozarali. Masalan, u qaratqich va tushum kelishiklarining Toshhovuz o‘g‘uz shevalaridagi *-íŋ / -ıŋ; -í / -ı* affikslari *-níŋ / -nıŋ; -ní / -nı* dagi *n* undoshining dastlab assimilyatsiyalashuvini so‘ngra ushbu undosh tushib qolishi natijasida yuzaga kelganini qayd etadi, *balam**nıŋ*** > *balam**mıŋ*** (assimilyatsiya) > *balam**ıŋ*** (fonetik qisqarish), *it**níŋ*** > *it**tíŋ*** > *it**íŋ;*** *ʁar**nı*** > *ʁar**pı*** > *ʁar**ı*** kabi [Рахимова, 1983: 34-36]. Qadimgi turkiy til manbalaridan ma’lumki, qaratqich kelishigi *-niŋ / -nïŋ / -nüŋ / -nuŋ* shakllari bilan birga *-iŋ / -ïŋ / -üŋ / -uŋ* ko‘rsatkichlari bilan ham, shuningdek, tushum kelishigi *-ɣ / -g (-ïɣ / -ig / -uɣ / -üg), -n, -nï / -ni, -ï, / -i* qo‘shimchalari bilan ifodalangan [Содиқов, 2020: 325]. Ba’zi manbalarda qaratqich kelishigining qadimgi turkiy tilga xos shakli sifatida *-iŋ / -ïŋ* affikslari, tushum kelishigining esa, *-i / -ï* affikslari keltiriladi [Серебренников, Гаджиева, 1986: 85]. Mashhur turkolog olim V.V.Radlov qaratqich kelishigi kelib chiqishi egalik affikslariga borib taqalishini, uning dastlabki shakli *-iŋ / -ïŋ* bo‘lganligini qayd etadi [Радлов, 1906: 199]. Shunga ko‘ra, K.Rahimovaning Toshhovuz o‘g‘uz shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari *-íŋ / -ıŋ; -í / -ı* shakllarining yuzaga kelishi haqidagi fikrlari o‘rinsizdir. Shuningdek, mazkur affikslar turkiy tillarning o‘g‘uz turkum tillariga xos shakli hisoblanib, turkman adabiy tili va shevalarida (shu jumladan, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga mansub Iqon, Qarnoq, Qorabuloq shevalarida qaratqich kelishgining ushbu shakli [Абдуллаев, 1978: 79-82] ham) faol qo‘llaniladi. Urganch-Xiva shevalaridan farqli ravishda turkman-o‘zbek oraliq shevalarida *-íŋ / -ıŋ* affikslarining qo‘llanilishi, bizningcha, yondosh turkman shevalarining ta’siridir.

Shuningdek, olima jo‘nalish kelishigi *-a / -ä* shakllari haqida ham yuqoridagi kabi noto‘g‘ri talqin keltirib o‘tadi [Рахимова, 1983: 34-36]. Masalan: *ʁojɣ**a*** > *ʁoj**ja*** > *ʁoj**(j)a*** > *ʁoj**a; tojɣa*** > *toj**ja*** > *toj**(j)a*** > *toj**a; üjgä*** > *üj**jä*** > *üj**(j)ä*** > *üj**ä***. Jo‘nalish kelishigining *-a / -ä* qo‘shimchalari ham tarixiy shakl hisoblanib, o‘g‘uz turkum tillarida, shu jumladan, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasida ham keng qo‘llaniladi.

Qarashlilik shakllari. Yuqorida aytilganidek, Xorazm dialektal zonasida (Hazorasp, Toshhovuz shevalaridan boshqa) qarashlilik *-nikí* qo‘shimchasi bilan ifodalanadi. Ammo turkman shevalarida *-ïŋqï / -iŋki* shakllari ishlatiladi va atrof turkman shevalarining ta’siridan Toshhovuz o‘zbek shevalarida ham ushbu affikslar qo‘llaniladi. Masalan: *däniŋki, säniŋki*. Ba’zan bu qo‘shimcha qisqarib ketadi va *däŋki, säŋki* holatda talaffuz qilinadi.

Mahalliy turkman shevalarida keng qo‘llaniladigan zarurat shaklining *-malï / -meli* affikslari turkman-o‘zbek oraliq shevalariga *-malı / -mälí* holatda o‘zlashganini ko‘rish mumkin. Aytish joizki, bu affiks, asosan, Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish shevalaridan farqli ravishda Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor shevalarida keng uchraydi [Рахимова, 1983: 53].

2-jadval

№	Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor (birlik)	Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish (birlik)	Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor (ko‘plik)	Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish (ko‘plik)
1	*Oɣımalıman*	*oxuvım / oqıšım keräk*	*Oɣımalımız*	*oxuvımız / oqıšımız keräk*
2	*Oɣımalısaŋ*	*oxuvıŋ / oqıšıŋ keräk*	*Oɣımalısız*	*oxuvıŋız / oqıšıŋız keräk*
3	*Oɣımalı*	*oxuvı / oqıšı keräk*	*Oɣımalı*	*oxuvı / oqıšı keräk*

Dialektal zonaning markaziy shevalari, Urganch-Xiva shevalarida zaruratlik shaklining ushbu affiksi yo‘q, uning o‘rniga asos + harakat nomi (*-ıš / -íš*) + gäräk qolipidagi birikma orqali ifodalanadi. Masalan, Urganch-Xiva: *barıš gäräk, göríš gäräk;* Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor: *barmalı, görmälí.* Ma’lumki, harakat nomi otga xos bo‘lgan affikslar bilan kela oladi. Urganch-Xiva shevalarida harakat nomi affiksidan keyin egalik affikslari qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, *-malı / -mälí* affikslari Urganch-Xiva shevalarida buyruq-istak shakli *-alı / -älí* affikslarining bo‘lishsiz shaklini ifoda etadi. Masalan *baralı – boraylik, gitälí – ketaylik; barmalı – bormaylik, gitmälí – ketmaylik.*

Ilonli-Toshhovuz-Tozabozor shevalarida esa, zarurat shaklining bo‘lishsiz ko‘rinishi o‘ziga xos tarzda qo‘llaniladi. Fe’l (asos) + *-malı / -mälí* + *-(a)mas / -(ä)mäs* + shaxs-son qolipida ifodalanadi: *barmalïmasman, barmalïmassan, barmalïmas.* Ammo bu hol turkman adabiy tili va shevalarida, shuningdek, Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish shevalarida uchramaydi. Turkman adabiy tilida zarurat shaklining bo‘lishsiz ko‘rinishi *däl (emas)* so‘zini qo‘shish orqali hosil qilinadi, *Ol gelmeli däl (U kelishi shartmas). Ata-ene köp geplese-de, igense-de, köňlüňi dar tutmaly dälsiň (Ota-ona ko‘p gapirsa ham, shikoyat qilsa ham, ko‘nglingni tor tutishing kerakmas)*[Nyỳazow, 2009: 179].

K.Rahimova g‘arbiy va janubiy turkiy tillarga xos *-malı / -mälí* affikslarini o‘zbek tilining boshqa shevalarida, hatto Xorazm o‘g‘uz shevalarida uchramasligini, faqat Turkmanistondagi o‘zbek shevalarida mavjudligini ta’kidlasa [Рахимова, 1983: 64], Y.Ibragimov esa, ushbu murakkab formant Yuqori Qashqadaryodagi Jartepa qishlog‘i shevasida ham qo‘llanishini qayd etadi va B.Jo‘rayevdan havola keltiradi [Ибрагимов, 2000: 105].

O‘zbek-turkman oraliq shevalarida ta’sir ko‘rsatuvchi til turkman tili bo‘lsa-da, fokus nuqtasi bo‘lgan Urganch-Xiva shevalarining ham uzoq tarixiy, hozirda biroz susaygan ta’siri mavjud. Shunga ko‘ra, mazkur tip shevalarga ham Urganch-Xiva shevalarining ta’sirini sezish mumkin. Bu ayniqsa, Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish shevalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Aytilganidek, bu tip shevalar til xususiyatlari bilan ko‘p hollarda qipchoq shevalariga yaqin turadi. Shu jihatdan, turkman shevalarida ham uchramaydigan, ammo dialektal zonaning markaziy shevalariga xos xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Masalan, Urganch-Xiva shevalarida ko‘plikni ifodalashda *-la / -lä* affikslari keng qo‘llaniladi. Ayni affiks bilan birga *-lar / -lär* qo‘shimchalari Ko‘hna Urganch-Ko‘kchaga-Oltmish shevalarida parallel qo‘llaniladi, *a:damla ~ adamlar, künlä / küllä ~ küllär.* Ko‘plikning *-la / -lä* va *-lar / -lär* affikslarining parallel qo‘llanilishi Yangibozor tumani Hayvatyop, Oshiqlar, Qoratepa, Naziryop, Oltinko‘l, Bog‘alon, Bo‘zqal’a qishloqlari nutqida mavjud bo‘lib, Yangibozordan Gurlan tomon yo‘nalishida susayib boradi [Ибрагимов, 2000: 92]. Ko‘plikning *-la / -lä* affikslari turkman tilining go‘klan, shuningdek, qipchoq shevalarida (noxur va manish) ham qo‘llaniladi, maşynlar > ***maşşy:nla,*** itler > ***ýitle*** **(go‘klan),** geçiler > ***geçilä,*** bular > ***bula*** (noxur); daýhanlar > tiýhalla (manish) [Nartyýew, 2010: 133].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978.

2. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2023.

3. Аразов А. Қарақалпақстан түркменлериниң сөйлеў тили менен қарақалпақ тилиниң өз ара тәсири ҳәм интерференция қубылылсы: Филол.фан. номз...дисс. – Нукус, 2007.

4. Ибрагимов Ю. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2000.

5. Йўлдошев Р. Тошҳовуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2002.

6. Nartyýew N. Türkmen dialektologiýasy. – Aşgabat: Türkmen döwlet neşirýat gullugy, 2010.

7. Nyỳazow S. Türkmen dili. – Aşgabat, 2009.

8. Радлов В.В. Введение к изоложению тюркских языков. – СПб., 1906.

9. Рахимова К. Узбекские говоры Туркменской ССР (Морфология): Дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1983.

10. Сапаров М. Хоразм воҳасидаги туркий тилларнинг ўзаро алоқаси. – Тошкент: Фан, 1987.

11. Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. – М.: Наука, 1986.

12. Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент: Akademnashr, 2020.

RASMIY MATNNING KOGNITIV TADQIQI

Mirvaliyeva Dildora Anvarovna
O‘zMU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola matnni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish masalalariga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda matn inson tafakkurida shakllanadigan mental konstruksiya sifatida talqin qilinib, uning konseptual tuzilishi, kognitiv sxemalari hamda idrok jarayonidagi o‘rni yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari lingvokognitiv jihatdan tahlil qilinadi. Matnning kognitiv tadqiq asoslari til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yoritib beradi hamda matnni bilimlarni modellashtiruvchi va uzatuvchi muhim kognitiv vosita sifatida talqin qilish imkonini yaratadi.

Kalit so‘zlar: *matn, kognitiv tadqiq, konsept, kognitiv sxema, diskurs, institutsional matn, o‘zbek rasmiy uslubi.*

Annotation. This article is devoted to the issues of text research from the point of view of cognitive linguistics. In the study, the text is interpreted as a mental construct formed in human thinking, its conceptual structure, cognitive schemes, and role in the process of perception are highlighted. Laws of the Republic of Uzbekistan, Presidential decrees, and government resolutions are analyzed from a linguocognitive point of view. The basis of cognitive research of the text illuminates the relationship between language and thinking and makes it possible to interpret the text as an important cognitive tool that models and transmits knowledge.

Keywords: *text, cognitive research, concept, cognitive scheme, discourse, institutional text, Uzbek official style.*

Zamonaviy tilshunoslikda matnni tadqiq etish faqat strukturaviy va grammatik yondashuvlar bilan cheklanmay, balki insonning bilish faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Kognitiv yondashuv doirasida matn til birliklari majmui emas, balki inson ongida mavjud bo‘lgan bilimlar va tajribaning til orqali modellashtirilgan shakli sifatida qaraladi [Mahmudov N., 2019].

Kognitivizm tushunchasi insonning tafakkur jarayonlarini tartibga soladigan barcha tamoyillarni tadqiq qilishni o‘z ichiga oluvchi butunlikdir. Til fikrlash va ta’sir o‘tkazish jarayonlariga kirish vositasi sifatida talqin etiladi. Inson tajribasi, uning tafakkuri, dunyoqarashi, mentaliteti aynan tilda mustahkam o‘rin egallaydi; til esa kognitiv mexanizm bo‘lib, ma’lumotlar maxsus kodlar yordamida ifodalangan va o‘zgartiruvchi belgilar tizimi hisoblanadi [Jabborova S., 2022:2].

Kognitiv tadqiqotlarda matnning asosiy birliklaridan biri konsept hisoblanadi. Har bir yaxlit matn muayyan konseptual tizimga tayangan holda shakllanadi va matn tarkibidagi leksik hamda grammatik vositalar orqali ushbu konseptlar izchil faollashtiriladi. Natijada matn konseptlarni ongda tizimlashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi kognitiv mexanizm vazifasini bajaradi [Yo‘ldoshev M., 2020].

Matnni idrok etish jarayoni inson ongida mavjud bo‘lgan kognitiv sxemalar orqali amalga oshadi. Kognitiv sxemalar matn mazmunini tez va samarali anglash imkonini berib, o‘quvchining oldingi bilimlari bilan yangi axborot o‘rtasida bog‘lanish hosil qiladi. Ayniqsa, rasmiy va ilmiy matnlarda strukturaviy sxemalarning takroriyligi ushbu jarayonni avtomatlashtiradi [Abduazizov A., 2021].

Shuningdek, kognitiv yondashuv matnning depersonalizatsiyalangan xususiyatini ham izohlaydi. Rasmiy va ilmiy matnlarda nutq subyekti individual shaxs emas, balki ijtimoiy yoki institutsional ong vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat matnning obyektivligini oshirib, uni subyektiv baholashdan xoli qiladi [Karimova D., 2022].

O‘zbek rasmiy matnlarida termin va tushunchalar yuqori darajadagi konseptual qat’iylik bilan ajralib turadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida tez-tez uchraydigan:

“Mazkur Qonun … munosabatlarni tartibga solinadi” kabi formulalar TARTIBGA SOLISH konseptini markaziy kognitiv model sifatida faollashtiradi. Bu yerda qonun subyektiv fikr emas, balki normativ bilim manbai sifatida idrok etiladi. Ushbu model rasmiy diskursda bilimning buyruq emas, balki qonuniy me’yor sifatida qabul qilinishini ta’minlaydi.

Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida matn tuzilishining qat’iy sxemalashganligi kuzatiladi: kirish qismi, asoslovchi bandlar va ijro mexanizmlari. Masalan: “Ijrosini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuklatilsin”. Mazkur jumla VAKOLAT – MAS’ULIYAT kognitiv sxemasini faollashtiradi. Ushbu sxema rasmiy diskursni anglash jarayonida o‘quvchining ongida institutlararo munosabatlarni avtomatik tarzda modellashtiradi.

O‘zbek rasmiy diskursida depersonalizatsiya kuchli namoyon bo‘ladi. Masalan:
“Qaror ijrosi nazoratga olinsin.” Bu yerda ijrochi shaxs nomi tilga olinmaydi, natijada nutq subyekti individual emas, balki institut sifatida idrok qilinadi. Kognitiv
nuqtayi nazardan bu holat rasmiy diskursning shaxsiy tafakkurdan ustun turishini va jamiyat ongiga tayanishini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, matnning kognitiv tadqiq asoslari til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yoritib beradi hamda matnni bilimlarni modellashtiruvchi va uzatuvchi muhim kognitiv vosita sifatida talqin qilish imkonini yaratadi. Rasmiy diskurs inson ongida ijtimoiy bilimlarni tizimlashtiradi, normativ konseptlarni mustahkamlaydi va institutsional tafakkurni shakllantiradi. Ushbu yondashuv o‘zbek rasmiy uslubini kognitiv-sotsiokognitiv jihatdan chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A. O‘zbek tilida matn va uslub muammolari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Jabborova S. Kognitiv tilshunoslik masalalari, – Toshkent: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi, 2022.
3. Karimova D. Kognitiv tilshunoslik va diskurs tahlili. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
4 Mahmudov N. Til va tafakkur: kognitiv tilshunoslik masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5.Qodirova G. Zamonaviy matn tadqiqi: kognitiv yondashuv. – Toshkent: Universitet, 2023.
6. Yo‘ldoshev M. Matn lingvistikasi va diskurs tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

O‘ZBEK TILIDA OBRO‘SIZLANTIRISH, KAMSITISH VA TAHQIRLASH LEKSIK BIRLIKLARINING LINGVISTIK FARQLANISHI MASALASI

O‘rozov Jumanazar Norqizilovich
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
filologiya kafedrasi mudiri, dotsent
Burxanova Bahora Djamshid qiz
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti
E-mail: bahorab91gmail.com
Tel: +99891 005 07 60

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida shaxs sha’ni va qadr-qimmatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi obro‘sizlantirish, kamsitish va tahqirlash mazmunli leksik birliklarning lingvistik farqlanishi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etiladi. Ushbu birliklarning semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinib, ularning nutqiy qo‘llanish doirasi hamda baholovchi semantikasi aniqlanadi. Tadqiqot jarayonida lingvokriminalistika va lingvistik ekspertiza yondashuvlaridan foydalanilib, obro‘sizlantirish, kamsitish va tahqirlash tushunchalarining o‘zaro yaqin va farqli jihatlari asoslab beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan nashr etilgan “O‘zbek tilida sinonimlar izohli lug‘ati” materiallari asosida mazkur birliklarning sinonimik qatori va ularning semantik-differensial belgilari yoritiladi. Tadqiqot natijalari lingvistik ekspertiza, sud-lingvistik tahlil va nutq madaniyati masalalarida nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: obro‘sizlantirish, kamsitish, tahqirlash, leksik birlik, baholovchi semantika, lingvistik ekspertiza.

Annatation. This article examines the issue of linguistic differentiation of lexical units expressing defamation, discrimination, and insult in the Uzbek language. The semantic, pragmatic, and communicative characteristics of these units are analyzed, and their functional use in discourse is determined. The study applies approaches of linguo-criminalistics and linguistic expertise, revealing both common and distinctive features of defamation, discrimination, and insult. Special attention is paid to synonymic relations based on materials from the *Explanatory Dictionary of Uzbek Synonyms*. The results of the research are of theoretical and practical significance for linguistic expertise, forensic linguistic analysis, and speech culture studies.

Key words: defamation, discrimination, insult, lexical unit, evaluative semantics, linguistic expertise.

Zamonaviy jamiyatda til nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, shaxsning ijtimoiy mavqei va obroʻsini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon boʻladi. Ayniqsa, nutq orqali shaxs shaʼni va qadr-qimmatiga salbiy taʼsir koʻrsatish holatlari koʻpayib borayotgan hozirgi sharoitda obroʻsizlantirish, kamsitish va tahqirlash mazmunli leksik birliklarning lingvistik mohiyatini aniqlash dolzarb ilmiy muammo sifatida maydonga chiqmoqda. Bunday birliklar ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari va kundalik nutqda keng qoʻllanilib, koʻpincha ijtimoiy ziddiyatlar va huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Tilshunoslikda salbiy baholovchi leksik birliklar masalasi semantika, pragmatika va nutq madaniyati doirasida oʻrganilgan boʻlsa-da, ularni aniq mezonlar asosida farqlash masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Xususan, obroʻsizlantirish, kamsitish va tahqirlash tushunchalari koʻpincha bir-biriga yaqin maʼnoda qoʻllaniladi, biroq ularning lingvistik tabiatida muhim farqlar mavjud. Mazkur farqlarni aniqlash lingvistik ekspertiza jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (Oʻrozov, 2023).

Ushbu maqolaning maqsadi oʻzbek tilida obroʻsizlantirish, kamsitish va tahqirlash mazmunli leksik birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning lingvistik farqlanish mezonlarini asoslab berishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda Oʻzbek tilida sinonimlar izohli lugʻati materiallari, shuningdek, lingvokriminalistika va lingvistik ekspertiza sohasidagi ilmiy tadqiqotlar asosiy manba sifatida jalb etildi (OʻzR FA, 2001: 12).

Obroʻsizlantirish mazmunli leksik birliklar shaxs yoki ijtimoiy guruh haqidagi ijobiy tasavvurni pasaytirishga, ularning ijtimoiy bahosini salbiy tomonga oʻzgartirishga qaratilgan nutqiy vositalar hisoblanadi. Bunday birliklar koʻpincha ochiq haqorat shaklida namoyon boʻlmaydi, balki bilvosita, implitsit baholash orqali amalga oshiriladi. Shu sababli obroʻsizlantirish mazmunini aniqlashda kontekst muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvokriminalistik tadqiqotlarda obroʻsizlantirish tushunchasi shaxs shaʼni va ishchanlik obroʻsiga putur yetkazuvchi axborot bilan bogʻliq holda talqin qilinadi. Oʻrozov J.N. taʼkidlaganidek, obroʻsizlantiruvchi birliklar koʻpincha baholovchi semantika asosida shakllanib, ularning salbiy mazmuni nutqiy vaziyatda yaqqol namoyon boʻladi (Oʻrozov, 2023).

Masalan, “ishonchsiz”, “nopok”, “soxta mutaxassis” kabi birliklar lug‘aviy jihatdan neytral yoki nisbatan yumshoq bo‘lib ko‘rinsa-da, muayyan kontekstda shaxsning ijtimoiy obro‘sini pasaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu holat obro‘sizlantirish mazmunining ochiq haqoratdan farqli ravishda bilvosita ifodalanishini ko‘rsatadi.

Obro‘sizlantirish mazmunli birliklarning yana bir muhim jihati ularning baholovchi komponenti bilan bevosita bog‘liqligidir. Baholovchi semantika shaxs haqidagi axborotni fakt sifatida emas, balki muallifning subyektiv munosabati orqali uzatadi. Natijada tinglovchi yoki o‘quvchi ongida shaxsga nisbatan salbiy stereotip shakllanadi (Mahmudov, 2015: 76). Shu nuqtai nazardan obro‘sizlantirish birliklari ko‘pincha bahsli, baholovchi va isbot talab qiluvchi mazmunga ega bo‘ladi.

O‘zbek tilida obro‘sizlantirish mazmuni ko‘pincha metaforik ifodalar, kinoya va istehzo orqali ham amalga oshiriladi. Masalan, shaxsni to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqorat qilmasdan, uning faoliyati yoki xulq-atvoriga shubha uyg‘otuvchi iboralar orqali salbiy baho beriladi. Bunday holatlar lingvistik ekspertiza jarayonida alohida e’tibor talab qiladi, chunki ularning obro‘sizlantiruvchi mazmuni faqat kontekst asosida aniqlanadi. Kamsitish mazmunli leksik birliklar shaxs yoki ijtimoiy guruhni ongli ravishda past mavqega qo‘yish, ularning huquq va imkoniyatlarini inkor etish orqali namoyon bo‘ladi. Kamsitish obro‘sizlantirishdan farqli ravishda, ko‘pincha shaxsning individual sifatlariga emas, balki uning muayyan ijtimoiy belgilariga qaratilgan bo‘ladi. Bunday birliklar nutqda mensimaslik, kamsinuvchanlik va ijtimoiy tengsizlikni ifodalovchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Bu o‘rinda shuni aniqlashtirib olishimiz kerakki, O‘zbek tilining izohli lug‘atida haqorat, kamsitish, obro‘sizlantirish sha’nga putur yetkazish kabi bevosita inson shaxsiyatiga qarshi qaratilgan holatlarni ifodalovchi birliklar sifatida baholanadi. Xususan, shaxsiyatga tegmoq-muayyan shaxsni qadri, izzat-nafsi va boshqa jihatdan tahqirlovchi xatti-harakat qilmoq(O‘zbek tili izohli lug‘ati,2020:557).

“O‘zbek tilida sinonimlar izohli lug‘ati”da kamsitish mazmuniga yaqin bo‘lgan “mensimaslik”, “pisand qilmaslik”, “xor ko‘rish”, “kamsitmoq” kabi leksik birliklar qayd etilgan bo‘lib, ularning barchasida salbiy baholash semasi mavjud (O‘zR FA, 2001: 214). Ushbu birliklar semantik jihatdan shaxsni ijtimoiy yoki axloqiy jihatdan quyi pog‘onaga tushirish ma’nosini ifodalaydi.

Pragmatik jihatdan kamsitish birliklari nutq ishtirokchilarining o‘zaro munosabatida ustunlik va bo‘ysunuv munosabatlarini yuzaga chiqaradi. Masalan, “sen baribir tushunmaysan”, “bunga sening aqling yetmaydi” kabi iboralar ochiq haqorat bo‘lmasa-da, shaxsning qadr-qimmatini pasaytiruvchi kamsituvchi mazmunga ega.

Kamsitish mazmunli birliklarning muhim belgilaridan biri ularning tizimli qo‘llanishidir. Ya’ni bunday birliklar bir martalik emas, balki muntazam ravishda qo‘llanilganda kuchli kamsituvchi ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat lingvistik ekspertiza jarayonida nutq materialini yaxlit holda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi (Ismoilov, 2020: 64).

Tahqirlash mazmunli leksik birliklar salbiy baholovchi birliklarning eng keskin ko‘rinishi hisoblanadi. Ular shaxs sha’ni va qadr-qimmatini ochiqdan ochiq inkor etish, uni insoniylikdan mahrum etish maqsadida qo‘llaniladi. Tahqirlash birliklarining ekspressivlik darajasi yuqori bo‘lib, kuchli emotsional ta’sirga ega. Tahqirlash mazmunli birliklar obro‘sizlantirish va kamsitishdan farqli ravishda, kontekstdan qat’i nazar salbiy mazmunni saqlab qoladi. Masalan, “ahmoq”, “pastkash”, “inson emas” kabi birliklar har qanday nutqiy vaziyatda haqorat sifatida qabul qilinadi.

Najmidinova N.Y. tadqiqotlarida qayd etilishicha, tahqirlash mazmunli birliklar lingvistik ekspertiza jarayonida yuqori darajadagi tajovuzkorlik belgisi sifatida baholanadi va ularning mavjudligi ko‘pincha huquqiy mas’uliyat masalasini keltirib chiqaradi (Najmidinova, 2022: 21).

Obro‘sizlantirish, kamsitish va tahqirlash mazmunli leksik birliklarni bir-biridan farqlashda yagona mezon bo‘la olmaydi. Ularni aniq ajratish uchun semantik, pragmatik va kommunikativ mezonlarning kompleks tahlili zarur. Shu maqsadda tadqiqotda quyidagi mezonlar tizimi taklif etiladi.

Semantik mezonlar leksik birliklarning ma’noviy tarkibi, baholovchi komponenti va konnotativ yukini aniqlashga yordam beradi. Obro‘sizlantirish ko‘pincha implitsit baholashga tayanadi, ya’ni so‘z o‘z-o‘zi bilan haqorat ma’nosini bermasligi mumkin, ammo kontekst orqali obro‘ni pasaytiruvchi ma’no hosil bo‘ladi (O‘rozov, 2023).

Kamsitish esa semantik jihatdan ko‘proq ijtimoiy identifikatorni o‘z ichiga oladi. Ya’ni, so‘z yoki ibora guruhga taalluqli bo‘lib, u guruhni pastlatadi yoki diskriminatsiyalashga xizmat qiladi. Tahqirlash semantik jihatdan eksplisit va bevosita haqoratni bildiradi. So‘zning o‘zi tahqir ma’nosini aniq beradi, kontekst esa uni kuchaytirishi mumkin, ammo asosiy haqorat mazmuni so‘z tarkibida mavjud bo‘ladi (Shaxovskiy, 2008: 93).

Pragmatik mezonlar nutqning maqsadi, adresatga bo‘lgan munosabat va kommunikativ vazifani aniqlashga xizmat qiladi. Obro‘sizlantirishda nutq ishtirokchisi ko‘pincha baholovchi pozitsiyada turadi va adresatni ijtimoiy jihatdan pastlatishga urinadi. Kamsitishda pragmatik maqsad ko‘proq guruhga qarshi diskriminatsiya yoki stereotipni mustahkamlash bo‘ladi. Bu holatda nutq ishtirokchisi o‘z ijtimoiy pozitsiyasini kuchaytirish yoki guruhni “kam” deb belgilashni maqsad qiladi.

Tahqirlashda esa pragmatik maqsad bevosita agressivlik, qarshi chiqish yoki tahdidni ifodalashdir. Nutq ishtirokchisi hissiy zo‘riqish yoki g‘azab natijasida haqoratli so‘zlarni ishlatadi.

Diskurs mezonlari matnning janri, uslubi, nutqning formal yoki norasmiyligi, hamda ijtimoiy vaziyatni hisobga oladi. Obro‘sizlantirish ko‘pincha norasmiy diskursda, kinoya va istehzo orqali namoyon bo‘ladi. Kamsitish esa ijtimoiy stereotiplar bilan bog‘liq bo‘lib, u ommaviy nutqda ham, kundalik nutqda ham uchraydi. Tahqirlash ko‘proq konfliktli va agressiv vaziyatlarda paydo bo‘ladi, u formal diskursda kamroq uchraydi, lekin ijtimoiy tarmoqlardagi anonim nutqda keng tarqalgan (Shaxovskiy, 2008: 115).

Lingvistik ekspertiza amaliyotida obro‘sizlantirish, kamsitish va tahqirlashni ajratish uchun quyidagi mezonlar qo‘llaniladi:

1. Ma’no darajasi mezoni — leksik birlikning semantik zaxirasidagi baholovchi komponentni aniqlashni nazarda tutadi. Obro‘sizlantirish ko‘pincha implitsit (bilvosita) baholash shaklida namoyon bo‘ladi. Ya’ni so‘zning lug‘aviy ma’nosi bevosita haqoratni anglatmasligi mumkin, ammo kontekst orqali shaxsning obro‘si pasaytiriladi. Masalan, “u juda “shamollab qolgan” odam” kabi iboralar obro‘sizlantirish ma’nosini berishi mumkin, chunki bu yerda baho yashirin.

Kamsitish esa ijtimoiy guruhga nisbatan diskriminatsion ma’noni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu yerda leksik birlikning ma’nosi bevosita guruhni pastlatish, “kichik” ko‘rsatish yoki “normal”dan chetlatish vazifasini bajaradi. Masalan, “ular qonuniy emas, yo‘q joydan chiqqanlar” kabi iboralar guruhni ijtimoiy jihatdan kamaytiradi.

Tahqirlash esa bevosita haqoratni anglatadi, ya’ni so‘zning o‘zi emotsional agressiya bilan birga keladi. Bu holatda ma’no darajasi ham kuchli, ham aniq bo‘lib, adresatni past ko‘rsatish maqsadida ishlatiladi (Najmidinova, 2022: 35).

2. Kontekstual kuchaytirgichlar — leksik birlikning ma’nosini kuchaytiradigan yoki o‘zgartiradigan omillar. Obro‘sizlantirish ko‘pincha kinoya, istehzo, metafora, so‘z o‘yinlari orqali ifodalanadi. Bu holatda baho yashirin bo‘lib, nutq qahramoni yoki auditoriya tomonidan “o‘qilishi” kerak. Masalan, “u juda “aqlli”” deganda, kontekstga qarab bu ijobiy yoki salbiy ma’no berishi mumkin.

Kamsitishda esa kontekst ko‘pincha stereotipik yondashuv orqali namoyon bo‘ladi. Guruhning xususiyatlari, “ularning odatlari”, “ularning joyi” kabi stereotiplar matnda takrorlanadi va ijtimoiy pastlikni mustahkamlaydi. Masalan, “ular doim shunday qiladi” kabi umumlashtiruvchi iboralar kamsitishning kontekstual kuchaytirgichidir (Ergashev, 2014: 39).

Tahqirlashda esa kontekst koʻproq agressiv intonatsiya, soʻz tanlash, keskin tashbehlar bilan ifodalanadi. Bu holatda nutqning pragmatik maqsadi aniq — adresatni kamsitish yoki haqorat qilish.

3. Adresatga yoʻnaltirilganlik mezoni leksik birlikning kimga qarata aytilganini aniqlaydi. Obroʻsizlantirish va tahqirlash koʻproq individualga yoʻnaltiriladi, ya'ni maqsadli shaxsga nisbatan qaratilgan. Bu holatda nutqdagi baho yoki haqoratning maqsadi shaxsning obroʻsi yoki qadr-qimmatini pasaytirishdir.

Kamsitish esa koʻpincha ijtimoiy guruhga yoʻnaltiriladi. Bu guruh millat, din, kasb, ijtimoiy tabaqa, jins yoki boshqa identifikatorlar boʻlishi mumkin. Kamsitish orqali guruh "boshqalardan past" deb koʻrsatiladi, bu esa ijtimoiy stereotiplarni mustahkamlaydi (Karimov, 2018: 80).

4. Takroriylik va tizimlilik mezoni kamsitishning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Kamsitish koʻpincha takroriy va tizimli boʻlib, ijtimoiy stereotipni mustahkamlaydi. Bu mezon orqali kamsitish faqat bir marta aytilgan ibora emas, balki ijtimoiy struktura ichida qayta-qayta takrorlanadigan, "normal" deb qabul qilingan nutq shakli sifatida namoyon boʻladi. Misol uchun, media va ommaviy nutqlarda takrorlanadigan "ular shunaqa", "ular bunday" kabi iboralar kamsitishning tizimli tabiatini koʻrsatadi (Safarov, 2006: 121).

Obroʻsizlantirish va tahqirlash esa koʻpincha individual holatga bogʻliq, takroriylik darajasi past boʻlishi mumkin.

5. Nutq funksiyasi mezoni leksik birlikning nutqdagi asosiy maqsadini aniqlaydi. Obroʻsizlantirish koʻproq baholash vazifasini bajaradi: shaxs yoki guruhning qaysidir xususiyatini baholaydi va u orqali obroʻni pasaytiradi. Bu baho koʻpincha bilvosita boʻladi, shuning uchun ham obroʻsizlantirishning aniqlanishi murakkab boʻladi.

Kamsitish esa diskriminatsion vazifani bajaradi, ya'ni guruhni ijtimoiy jihatdan pastlashtirish, ularni "tashqariga" chiqarish maqsadini koʻzlaydi. Bu funksiyani aniqlashda ijtimoiy kontekst, stereotiplar va guruhga yoʻnaltirilganlik muhim rol oʻynaydi. Tahqirlash esa agressiv vazifani bajaradi: adresatni haqoratlash, his-tuygʻularini ranjitish, kuchli emotsional bosim yaratish. Bu vazifa nutqning pragmatik maqsadini aniq koʻrsatadi (Islomov, 2020: 64).

Obroʻsizlantirish koʻpincha bilvosita, kinoya va istehzo orqali ifodalanadi. Bu holatda soʻzning lugʻaviy ma'nosi salbiy boʻlmasligi mumkin, ammo kontekst orqali shaxsning obroʻsi pasaytiriladi. Shuning uchun lingvistik ekspertiza jarayonida kontekstual kuchaytirgichlar (masalan, kinoya, metafora, soʻz oʻyini) aniqlanishi muhimdir (Oʻrozov, 2023: 71).

Kamsitish esa ijtimoiy guruhlarni pastlatishga yoʻnaltirilgan boʻlib, u koʻpincha "normal" nutq shaklida ifodalanadi. Bu esa uni aniqlashni qiyinlashtiradi. Shu bois ekspertiza

jarayonida ijtimoiy identifikator, diskriminatsion kontekst va takroriylik mezonlarini birgalikda tahlil qilish zarur. Tahqirlash esa bevosita haqorat va agressivlikni o‘zida mujassamlashtiradi. U kontekstdan qat’iy ravishda mustaqil bo‘lib, so‘zning o‘zi tahqir mazmunini beradi. Shu sababli tahqirlashni aniqlashda emotsional intensivlik, konnotativ yuk va nutq maqsadi kabi mezonlar asosiy ahamiyat kasb etadi (Shaxovskiy, 2008: 93).

Mazkur maqolada o‘zbek tilida obro‘sizlantirish, kamsitish va tahqirlash mazmunli leksik birliklarning lingvistik farqlanishi semantik, pragmatik va diskursiv mezonlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, obro‘sizlantirish ko‘proq implitsit baholash va kinoya orqali ifodalanadi, kamsitish ijtimoiy guruhlarni pastlatish maqsadida diskriminatsion leksik birliklar orqali amalga oshiriladi, tahqirlash esa bevosita haqorat va agressiv ekspressivlik bilan ajralib turadi (O‘rozov, 2023: 49).

Xulosa qilib aytganda, Lingvistik ekspertiza va sud amaliyotida bahsli matnlarda mazkur birliklarning farqlanishini aniqlashda semantik, pragmatik va diskursiv mezonlarni kompleks qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari nutq madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy tarmoqlarda so‘z etikasi va huquqiy amaliyotni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bugungi kunda O‘zbekistonda mazkur sohani dunyo ilm-fan darajasida rivojlantirish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratishimz kerak:

1. Lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida yuridik ta’lim yo‘nalishlari, huquqni muhofaza qilish ta’lim dargohlarida alohida fan sifatida o‘quv rejalariga qo‘yilishi va shu asosda magistr-mutaxasis kadrlar tayyorlanishi kerak.
2. Bugungi kunda davlat xizmati, biznes va mahalliy boshqaruv sohalarida mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv dasturiga barcha kichik yo‘nalishlar bo‘yicha “Lingvistik ekspertiza” fanini, majburiy yoki maxsus kurs doirasida o‘rganiladigan fan, talabalar ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi yoki davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish maqsadida alohida fan sifatida kiritish juda muhimdir.
3. Bu sohani rivojlantirish uchun ko‘plab ilmiy-tadqiqot va dissertatsiyalar yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rozov J.N. O‘zbek tili lingvokriminalistikasi. – Toshkent: Bookmany Print, 2023.
2. Najmidinova N.Y. O‘zbek tilidagi “shaxsni obro‘sizlantirish” mazmunli ifodalarning lingvistik ekspertizasi. PhD dissertatsiya avtoreferati.
3. O‘zbek tilining izohli lug ati. 5 jildli. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. B.557.

4. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. O‘zbek tilida sinonimlar izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001.
5. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Yo‘ldoshev M. Matn va uning lingvistik tahlili. – Toshkent, 2012.
7. Ergashev U. Nutq madaniyati va etikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2008.
9. Galperin I.R. Tekst kak ob’yekt lingvisticheskogo issledovaniya. – Moskva, 2007.
10. Shaxovskiy V.I. Lingvistika emotsiy. – Volgograd, 2008.
11. Yartseva V.N. (tahr.) Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar. – Moskva, 2002.
12. Safarov Sh. Nutqning pragmatik talqini. – Toshkent, 2006.
13. Ismoilov X. Til va huquq munosabatlari. – Toshkent, 2020.

GIYOHVANDLIK FAOLIYATI BILAN BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLARNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

Hakimova Nigora Kutpitdinovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Giyohvandlik faoliyati bilan bog‘liq leksik birliklar jamiyatda taqiqlangan, stigmatizatsiyalangan va ko‘pincha yashirin ma’noga ega bo‘lib, ularning til orqali ifodalanishi ijtimoiy ong va stereotiplarga ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada O‘zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va badiiy matnlardan yig‘ilgan korpus asosida giyohvandlik leksikasi sotsiopragmatik jihatdan tahlil qilindi. Leksik birliklar tibbiy, huquqiy, argo va ijtimoiy tabu kontekstlari bo‘yicha tasniflandi. Tadqiqot natijasida leksik birliklar ijtimoiy guruhlar identifikatsiyasi, yashirish strategiyasi va stigmatizatsiya funksiyasini bajarishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *giyohvandlik, leksik birlik, sotsiopragmatika, argo, sleng, tabu, stigma, korpus, ijtimoiy kontekst.*

Annotation. Lexical units related to drug addiction are socially prohibited, stigmatized, and often carry hidden meanings, which influence social consciousness and stereotypes through language. This article analyzes the socio-pragmatic features of drug-related vocabulary in Uzbek based on a corpus collected from mass media, social networks, and literary texts. The lexical units are classified into medical, legal, slang, and social taboo contexts. The study reveals that these lexical units perform functions of social group identification, concealment strategies, and stigmatization. The findings contribute to a deeper understanding of the social and cultural aspects of drug-related communication in Uzbek society.

Keywords: *drug addiction, lexical unit, socio-pragmatics, argot, slang, taboo, stigma, corpus, social context.*

Giyohvandlik va narkotik moddalar muammosi bugungi kunda nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, huquqiy hamda madaniy kontekstlarda ham jiddiy muammo sifatida ko‘rilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, giyohvandlik kasalligi nafaqat inson salomatligini, balki oilaviy munosabatlar, jamiyat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi [WHO, 2022: 14]. Shu bilan birga, giyohvandlik mavzusi jamiyatda ko‘plab stereotiplar, stigma va tabu bilan qoplangan bo‘lib, bu fenomen til orqali ham o‘z ifodasini topadi. Til jamiyatning aksidir: u orqali ijtimoiy qadriyatlar, normalar, tabular va

stereotiplar ifodalanadi, shuningdek, ijtimoiy guruhlarning o‘zaro munosabatlari ham shakllanadi [Yartseva, 2002: 35].

Tilshunoslikda sotsiopragmatika nutqning ijtimoiy kontekstda qanday funksiyalar bajarishini, nutq aktining maqsadi va vazifalarini, shuningdek, ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilgan maxsus leksik birliklarni tahlil qiladi [Leech, 1983: 22]. Argo va sleng tilning ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilgan kodlangan qismi bo‘lib, u guruh ichida muloqotni osonlashtirish, tashqi dunyodan yashirish, guruhni identifikatsiyalash va o‘zaro yaqinlikni mustahkamlash vazifasini bajaradi [Ismoilov, 2017: 58]. Giyohvandlik mavzusi esa jamiyatda taqiqlangan va ijtimoiy jihatdan zararli fenomen bo‘lgani uchun unga oid leksik birliklar ko‘pincha yashirin, kodlangan va konnotativ ma’noga ega bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi — giyohvandlik faoliyati bilan bog‘liq leksik birliklarning sotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlash va ularni semantik-pragmatik toifalarga ajratishdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1) giyohvandlik leksikasining manbalarini aniqlash; 2) leksik birliklarni turkumlash; 3) ularning ijtimoiy guruhlar kontekstida ishlatilishini tahlil qilish; 4) natijalarni jamiyatga ta’siri nuqtai nazaridan izohlash. Tadqiqot obyekti — giyohvandlik faoliyati bilan bog‘liq leksik birliklar, predmeti esa ularning sotsiopragmatik xususiyatlari va kontekstual ishlatilishidir. Tadqiqot materiallari sifatida O‘zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, badiiy matnlar hamda izohli lug‘atlardan olingan leksik birliklar korpusi ishlatildi. Tadqiqot metodlari sifatida matnli korpus tahlili, sotsiopragmatik tahlil, semantik-pragmatik tasniflash va komparativ tahlil qo‘llandi.

Sotsiopragmatika tilshunoslikning nutq va ijtimoiy kontekst o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan bo‘limi bo‘lib, u nutq aktining maqsadi, ijtimoiy rollar, muloqot vazifalari va kontekstual omillarni hisobga oladi. Sotsiopragmatika tadqiqotlari nutqning ijtimoiy normalar va stereotiplar bilan o‘zaro ta’sirini, shuningdek, ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilgan maxsus leksik birliklarni (argo, sleng) o‘rganadi [Yartseva, 2002: 35]. Sotsiopragmatik yondashuv tilning faqat leksik ma’nosi bilan cheklanib qolmasdan, uning ijtimoiy vazifalari, kommunikativ maqsadi va kontekstga bog‘liqligini ham tahlil qiladi [Leech, 1983: 22].

Argo va sleng tilning ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilgan kodlangan qismi bo‘lib, u guruh ichida muloqotni osonlashtirish, tashqi dunyodan yashirish, guruhni identifikatsiyalash va o‘zaro yaqinlikni mustahkamlash vazifasini bajaradi [Ismoilov, 2017: 58]. Argo ko‘pincha ijtimoiy tabu bilan bog‘liq bo‘lib, uning maqsadi tashqi dunyodan yashirish yoki faqat guruh a’zolari orasida tushuniladigan kodni yaratishdir [Toshpo‘latov, 2018: 41]. Shu nuqtai nazardan, giyohvandlik mavzusiga oid leksik birliklar ham ko‘pincha yashirin, kodlangan va

konnotativ ma’noga ega bo‘lib, ularning sotsiopragmatik tahlili bu fenomenning ijtimoiy-madaniy qirralarini ochib beradi.

Til va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganishda pragmatika, semantika va sotsiopragmatika birgalikda ishlatiladi. Semantika so‘zning leksik ma’nosini, pragmatika nutqdagi maqsadni, sotsiopragmatika esa ijtimoiy guruh, norma va kontekst tahlilini o‘z ichiga oladi [Searle, 1969: 15]. Ayniqsa, giyohvandlik leksikasi — bu faqat atamalar majmuasi emas, balki ijtimoiy muhit, yoshlar madaniyati, jinoyat va tibbiy kontekstning til orqali ifodalanishi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy tabu va stigma giyohvandlik mavzusi bilan bog‘liq leksik birliklar strukturasini shakllantiradi: ba’zi birliklar ma’lum bir kontekstda “normativ” bo‘lsa, boshqalar “yashirin” yoki “taqiqlangan” hisoblanadi [Toshpo‘latov, 2018: 44].

Giyohvandlik mavzusida leksik birliklarni tahlil qilishda ijtimoiy guruhlar (yoshlar, jinoyatchilik muhiti, tibbiyot xodimlari, ommaviy axborot vositalari) ning til bilan bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega. Har bir guruh o‘zining kommunikativ maqsadlariga mos keladigan terminologiya va slengni ishlatadi. Masalan, tibbiyot xodimlari giyohvandlikni klinik va diagnostik nuqtai nazardan ifodalasa, jinoyat muhitida bu fenomen yashirin kodlar orqali nomlanadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar giyohvandlik haqidagi ma’lumotlarni “stigma” bilan bog‘lab, ijtimoiy stereotiplarni mustahkamlashi mumkin [Raximov, 2021: 73].

Maqola materiali sifatida O‘zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari (Kun.uz, Daryo.uz, Xabar.uz), ijtimoiy tarmoqlar (Telegram kanallari, YouTube sharhlari), badiiy matnlar (O‘zbek adabiyoti asarlari) hamda izohli lug‘atlar (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Tilshunoslik lug‘ati)dan olingan leksik birliklar korpusi ishlatildi. Korpus tuzishda 2020–2024 yillarga oid matnlar ustuvor qilib olindi, chunki ayni davrda giyohvandlik muammosi ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, yangi argo va sleng birliklar paydo bo‘lishi kuzatilmoqda [Sultonov, 2020: 112]. Korpus hajmi taxminan 150 ming belgidan iborat bo‘lib, unda giyohvandlik mavzusiga oid 50–60 ta leksik birlik aniqlangan.

Tadqiqot metodlari sifatida matnli korpus tahlili (kvantitativ va sifatli), sotsiopragmatik tahlil (ijtimoiy guruhlar, kontekst, tabu, stigma), semantik-pragmatik tasniflash hamda komparativ tahlil (tibbiy, huquqiy, argo va badiiy kontekstlarni solishtirish) qo‘llandi. Matnli korpus tahlili yordamida leksik birliklarning ishlatilish chastotasi, kontekstual bog‘liqligi va taqsimoti aniqlangan. Sotsiopragmatik tahlil esa leksik birliklarning ijtimoiy guruhlar ichida qanday funksiyalarni bajarishini, ularning yashirish strategiyasi va identifikatsiyalash vazifalarini tahlil qildi [Yartseva, 2002: 45]. Semantik-pragmatik tasniflash orqali leksik birliklar ma’no darajasida (denotativ va konnotativ) hamda kommunikativ vazifalar (ma’lumot

berish, ta’sir o‘tkazish, yashirish) nuqtai nazaridan guruhlandi. Komparativ tahlil esa giyohvandlik leksikasining turli kontekstlarda (tibbiy, huquqiy, argo, badiiy) qanday farq qilishini ko‘rsatdi [Ismoilov, 2017: 64].

Giyohvandlik mavzusi ko‘pincha tibbiy nuqtai nazardan ham o‘rganiladi, chunki u inson salomatligi, psixika va organizmning funksional holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tibbiy- ilmiy terminologiya giyohvandlik fenomenini diagnostika, terapiya va reabilitatsiya jarayonida aniq va obyektiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Tibbiy matnlarda ishlatiladigan leksik birliklar odatda denotativ ma’noga ega bo‘lib, konnotativ yuklamasi kam bo‘ladi. Biroq, bu terminlar ijtimoiy kontekstga kirganda stigmatizatsiya va patologizatsiya funktsiyasini ham bajarishi mumkin [Sultonov, 2020: 118].

Tibbiy kontekstdagi leksik birliklar quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi: 1) giyohvandlikning klinik tasnifi va tashxislari (masalan, “narkomaniya”, “giyohvandlik”, “drogadan qaramlik”); 2) preparatlar va moddalarning nomlanishi (“opiatlar”, “kanabinoidlar”, “sintetik moddalar”); 3) terapevtik va reabilitatsiya jarayoni (“detoksikatsiya”, “rehabilitatsiya”, “metadon terapiyasi”). Bu birliklar tibbiy matnlarda aniq, ilmiy ma’noda ishlatiladi va odatda ijtimoiy stigmani kamaytirishga xizmat qiladi, chunki ular insonni “jinoyatchi” emas, balki “kasallangan” deb tasniflaydi [Raximov, 2021: 80].

Quyida tibbiy-ilmiy kontekstdagi giyohvandlik leksik birliklarining sotsiopragmatik tahlili keltiriladi:

1. Narkomaniya — giyohvandlikning klinik va ijtimoiy kasallik sifatida tasnifi. Tibbiy matnlarda kasallik diagnostikasi va statistikasi kontekstida ishlatiladi. Bu termin ijtimoiy stigmani “kasallik” kontseptsiyasi orqali kamaytirishga xizmat qiladi [WHO, 2022: 14].
2. Giyohvandlik — umumiy tushuncha sifatida ishlatiladi, ijtimoiy muammo sifatida tilga olinadi. Giyohvandlik so‘zi ko‘pincha ommaviy axborot vositalarida ham qo‘llanib, fenomenni patologik kontekstga joylashtiradi [Sultonov, 2020: 115].
3. Drogadan qaramlik — kimyoviy moddalarga qaramlik holatini ifodalaydi. Bu ibora giyohvandlikni kasallik sifatida tasniflashga yordam beradi [Toshpo‘latov, 2018: 44].
4. Opiatlar — opioid guruhiga mansub preparatlar. Tibbiy matnlarda analgetik va dori vositalari kontekstida uchraydi.
5. Kanabinoidlar — kannabinoid guruhiga kiruvchi moddalar, ko‘pincha “marixuana” bilan bog‘lanadi. Tibbiy va ilmiy matnlarda aniq nomlanadi [Ismoilov, 2017: 61].
6. Sintetik moddalar — laboratoriyada tayyorlangan, sun’iy giyohvand moddalar. Ushbu ibora tibbiy va huquqiy matnlarda keng ishlatiladi.

7. Detoksikatsiya — organizmdan toksinlarni chiqarish jarayoni. Reabilitatsiya jarayonida muhim bosqich sifatida ta’kidlanadi [Raximov, 2021: 83].
8. Reabilitatsiya — sog‘liqni tiklash va ijtimoiy hayotga qaytarish jarayoni. Bu termin giyohvandlikni kasallik sifatida ko‘rsatadi va ijtimoiy yordamga urg‘u beradi.
9. Metadon terapiyasi — opioid qaramligini davolash usuli. Tibbiy matnlarda klinik protokollar bilan bog‘liq holda ishlatiladi [WHO, 2022: 19].
10. Psixoterapiya — giyohvandlikni davolashda psixologik yordam usuli.
11. Narkologiya — giyohvandlikni o‘rganadigan tibbiy soha.
12. Klinik diagnostika — giyohvandlikni aniqlash usullari.

Ushbu terminlar tibbiy kontekstda giyohvandlikni “kasallik” sifatida ko‘rsatib, jamiyatda ijtimoiy qarshilikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ba’zi hollarda tibbiy terminlar ommaviy axborot vositalarida noto‘g‘ri ishlatilib, fenomenni patologizatsiya qilish va stereotiplarni kuchaytirishi mumkin [Sultonov, 2020: 120].

Giyohvandlik muammosi ijtimoiy jihatdan ham, huquqiy jihatdan ham muhim masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida giyohvand moddalar bilan bog‘liq harakatlar jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik sifatida ko‘riladi. Shu sababli huquqiy matnlarda ishlatiladigan leksik birliklar ko‘pincha “jinoiy” va “yurisdiktsiyaviy” konnotatsiyaga ega bo‘ladi. Huquqiy kontekstda leksik birliklar giyohvandlikni ijtimoiy xavf, jinoyat va jazo bilan bog‘laydi, shuningdek, jamiyatda “noqonuniy” va “tazyiq” tushunchalarini kuchaytiradi.

Huquqiy matnlarda ishlatiladigan leksik birliklar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1) giyohvand moddalar va ularning ta’riflari (masalan, “narkotik vositalar”, “psixotrop modda”); 2) jinoyat-huquqiy harakatlar (masalan, “giyohvand modda savdosi”, “giyohvandlik vositalarini noqonuniy tarqatish”); 3) jazolar va javobgarlik (masalan, “jazo”, “mahkama”, “qamoq”). Ushbu birliklar huquqiy matnlarni aniq va rasmiy qilib ko‘rsatadi, ammo ular ijtimoiy stigma va “jinoyatchilik” stereotiplarini kuchaytirishi mumkin.

Quyida huquqiy-jinoyat kontekstidagi giyohvandlik leksik birliklarining sotsiopragmatik tahlili keltiriladi:

1. Narkotik vositalar — giyohvand moddalarni huquqiy nuqtai nazardan tasniflovchi umumiy atama. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida narkotik vositalar, psixotrop moddalar va ularning analoglari noqonuniy aylanishi taqiqlangan [O‘zbekiston Respublikasi JK, 1994]. Bu termin giyohvandlikni “huquqiy muammo” sifatida tasvirlaydi va jamiyatda xavf tushunchasini kuchaytiradi.

2. Psixotrop modda — ong holatini o‘zgartiruvchi modda sifatida ta’riflanadi. Huquqiy matnlarda bu atama “xavfli moddalar” kontekstida ishlatiladi.
3. Giyohvand modda savdosi — narkotik moddalarni sotish yoki tarqatish jinoyatini ifodalaydi. Bu ibora jinoyatning ijtimoiy xavfini til orqali kuchaytiradi.
4. Noqonuniy tarqatish — giyohvand moddalarni ruxsatsiz tarqatish jarayonini tasvirlaydi. Bu birlik ijtimoiy norma va qonuniy tartibni himoya qilishga xizmat qiladi.
5. Giyohvandlikka qo‘l urish — jinoyatga kirish, “giyohvand moddalar bilan shug‘ullanish” ma’nosida ishlatiladi. Ushbu ibora tilning “jinoyat” konnotatsiyasini kuchaytiradi.
6. Jazo — huquqiy javobgarlik sifatida qo‘llaniladigan chora. Huquqiy matnlarda giyohvand moddalar bilan bog‘liq jinoyatlar uchun jazo choralari ko‘rsatiladi [O‘zbekiston Respublikasi JK, 1994].
7. Mahkama — jinoyat ishlarini ko‘rish organi. Ommaviy axborot vositalarida giyohvandlik holatlari ko‘pincha “mahkama” kontekstida beriladi, bu esa muammoni ijtimoiy xavf bilan bog‘laydi.
8. Qamoq — jazoni o‘tash shakli sifatida tilga olinadi. Bu termin giyohvandlikni “jinoyat” va “jazo” bilan bog‘lab, stigmatizatsiya funksiyasini kuchaytiradi.
9. Tergov — jinoyat ishini surishtirish jarayoni. Giyohvandlik holatlari tergov jarayonida ko‘p tilga olinadi.
10. Giyohvand moddalar bilan bog‘liq jinoyat — umumiy yuridik atama. Bu ibora giyohvandlikni “huquqiy jihatdan taqiqlangan” deb belgilaydi.
11. Qonuniy doirada — giyohvand moddalar bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin tibbiy yoki ilmiy maqsadlarda ishlatiladigan holatlarni tasvirlashda ishlatiladi. Bu termin “ruxsat etilgan” va “taqiqlangan” o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi.
12. Noqonuniy aylanish — giyohvand moddalar savdosi va tarqalishining huquqiy jihatdan taqiqlanganligini ifodalaydi.

Huquqiy kontekstdagi leksik birliklar jamiyatda giyohvandlikni ko‘proq “jinoyat” sifatida qabul qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqiy matnlarda ishlatiladigan terminlar ijtimoiy tartib va xavfsizlikni ta’minlash maqsadini ko‘zlaydi. Biroq, ommaviy axborot vositalarida bu terminlar ba’zan “sensatsion” kontekstda berilib, giyohvandlikka nisbatan qo‘rqituvchi va stereotipik tasvirni kuchaytirishi mumkin [Sultonov, 2020: 120].

Yoshlar argo va sleng leksikasi jamiyatning “yoshlar submadaniyati”ni aks ettiruvchi til qatlami bo‘lib, u o‘ziga xos kodlash, yashirish va identifikatsiyalash funksiyalarini bajaradi. Argo leksika ko‘pincha ijtimoiy norma va tabu bilan bog‘liq mavzularni yumshatish, yashirish

yoki “qoralash” uchun ishlatiladi. Shuningdek, argo yoshlar orasida guruh ichidagi identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi [Ismoilov, 2017: 58]. Giyohvandlik mavzusi ham yoshlar argo leksikasida ko‘p uchraydi, chunki bu mavzu ko‘pincha “taqiqlangan”, “sirli” va “xavfli” sifatida talqin qilinadi. Shu sababli giyohvandlik bilan bog‘liq argo birliklar yashirin ma’noni berish, xavfni kamaytirish yoki aksincha “daredevil” kayfiyatini ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Argo va sleng leksik birliklarining asosiy sotsiopragmatik funksiyalari quyidagilardan iborat: 1) guruh ichida o‘zaro tushunishni osonlashtirish; 2) tashqi dunyodan yashirish va kodlash; 3) guruh identifikatsiyasi va ijtimoiy mavqe ifodasi; 4) fenomenni “normalizatsiya” qilish yoki aksincha “romantizatsiya” qilish [Toshpo‘latov, 2018: 44]. Giyohvandlik mavzusida bu birliklar ko‘pincha ikki tomonlama ma’no kasb etadi: bir tomondan, u “xavf” va “noqonuniylik”ni yashiradi; ikkinchi tomondan esa “qiziqish” va “o‘yin” nuqtai nazarini kuchaytiradi.

Quyida yoshlar argo va sleng kontekstidagi giyohvandlik leksik birliklari tahlil qilinadi:

1. “G‘ayritabiiy” — ko‘pincha “giyohvandlik”ni “normal holat”dan chetga chiqish sifatida ifodalash uchun ishlatiladi. Bu birlik fenomenni “ajralib turadigan” holat sifatida tasvirlab, uni “odatiy” hayotdan ajratadi.
2. “Sovun” — argo tilida ba’zi hollarda narkotik vosita yoki u bilan bog‘liq moddani ifodalash uchun ishlatiladi. Bu kodlash strategiyasi orqali mavzu yashiriladi.
3. “Qop” — giyohvandlikka berilib qolish, modda iste’mol qilish ma’nosida ishlatiladi. Bu birlik “qaramlik”ni yoshlar tilida yumshatib, “oddiy” holat sifatida ko‘rsatishga xizmat qiladi.
4. “Xush” — ba’zi ijtimoiy tarmoqlarda giyohli holatni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu birlik konnotativ ma’noda “rohat” va “eski holat”ni bildiradi.
5. “Tushib qolish” — modda iste’mol qilish yoki giyohvandlikka berilish ma’nosida ishlatiladi. Bu ibora “giyohvandlik”ni “yo‘qotish” bilan bog‘lab, ijtimoiy xavfni aks ettiradi.
6. “Qo‘lga tushish” — giyohvand moddalar bilan bog‘liq holatda huquq organlari tomonidan ushlanishni ifodalaydi. Bu ibora jinoyat kontekstini ham o‘zida aks ettiradi.
7. “Qancha yetsa ham” — giyohvandlikni “chegarasiz” holat sifatida tasvirlashda ishlatiladi, ya’ni modda iste’moli doimiy va nazoratsiz bo‘lishini ko‘rsatadi.
8. “Hushdan ketish” — giyohli holatni, ongning o‘zgarishini ifodalovchi argo ibora.
9. “Tug‘ilgan kun” — ba’zi ijtimoiy tarmoqlarda “dori iste’mol qilish”ni kodlash uchun ishlatiladi.

10. “Zohid” — giyohli holatni ko‘rsatadigan, “xush” holatiga yaqinlashgan ma’noda ishlatiladi.
11. “Ruxiy chiqish” — giyohli holat, “trip”ni ifodalovchi ibora.
12. “Koma” — giyohli holat natijasida yuzaga keladigan jiddiy ahvolni ifodalaydi. Bu birlik ko‘pincha ogohlantirish kontekstida ishlatiladi.

Yoshlar argo va slengdagi giyohvandlik leksik birliklari ko‘pincha ijtimoiy tarmoq postlari, video sharhlar va badiiy matnlarda uchraydi. Ular mavzuni kodlash, yashirish va guruh ichida “normalizatsiya” qilish funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga, argo birliklar ijtimoiy stigma va taqiqlanganlikni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin: ba’zi birliklar giyohvandlikni “qiziqarli” yoki “dahshatli” holat sifatida tasvirlab, jamiyatdagi stereotiplarni mustahkamlashi mumkin [Sultonov, 2020: 121].

Giyohvandlik mavzusi ko‘plab jamiyatlarda ijtimoiy tabu va stigma bilan qoplanadi. Tabu — bu ijtimoiy normalar va axloqiy me’yorlar bilan taqiqlangan mavzular bo‘lib, ularni ochiq muhokama qilish ko‘pincha “yomon” yoki “axloqsiz” deb baholanadi. Stigma esa ijtimoiy guruhlar tomonidan “salbiy” sifatida qabul qilinadigan atributlar to‘plami bo‘lib, giyohvandlik holati ko‘pincha insonni ijtimoiy jihatdan “ajratib” qo‘yadi. Til bu jarayonda asosiy vosita bo‘lib, u orqali mavzu yashiriladi, kodlanadi yoki aksincha ochiq muhokama qilinadi [Toshpo‘latov, 2018: 44]. Giyohvandlik leksik birliklari ko‘pincha tabu va stigma ta’sirida shakllanadi: ba’zi birliklar mavzuni “yumshatish”ga xizmat qilsa, boshqalari “qoralash” va “qo‘rqitish” funksiyasini bajaradi.

Tabu kontekstida ishlatiladigan leksik birliklar ikki turga bo‘linadi: 1) mavzuni “yumshatish” (euphemism) uchun ishlatiladigan birliklar; 2) “qoralash” va “kamsitish” funksiyasini bajargan birliklar. Euphemismlar giyohvandlikni bevosita nomlamasdan, uning o‘rniga “xush” kabi “yumshoq” ma’noli birliklarni qo‘llash orqali mavzuni ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan qilib ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, qoralovchi birliklar giyohvandlikni “buzuq”, “yo‘qotilgan” yoki “jinoiy” sifatida tasvirlab, stigmani kuchaytiradi [Raximov, 2021: 76].

Quyida tabu va stigma kontekstidagi leksik birliklar tahlili keltiriladi:

1. “Qaramlik” — giyohvandlikni “qaram bo‘lish” sifatida ifodalovchi atama. Bu birlik ko‘pincha ijtimoiy tabu bilan bog‘liq bo‘lib, “o‘zini yo‘qotish”ni ifodalaydi.
2. “G‘ayriinsoniy” — giyohvandlik holatini insoniy normalardan chetga chiqish sifatida tasvirlaydi. Bu ibora stigma funksiyasini kuchaytiradi.
3. “Bo‘ysunish” — giyohvandlikni “moddaga bo‘ysunish” sifatida ifodalaydi. Bu birlik ijtimoiy nazorat va taqiqlashni kuchaytiradi.

4. “O‘zini yo‘qotish” — giyohvandlik natijasida shaxsiy identifikatsiyani yo‘qotish ma’nosini beradi. Bu ibora stigma va qo‘rqitish funksiyasini bajaradi.
5. “Jismoniy va ruhiy degradatsiya” — giyohvandlikning salbiy oqibatlarini tasvirlaydi. Bu ibora ijtimoiy qo‘rqitish va ogohlantirish kontekstida ishlatiladi.
6. “O‘limga olib boruvchi” — giyohvandlikni hayotga xavf soluvchi holat sifatida tasvirlaydi. Bu birlik jamiyatda qo‘rqituvchi stereotipni mustahkamlaydi.
7. “G‘iybat” — giyohvandlik haqidagi gaplar ko‘pincha qoralovchi “g‘iybat” tarzida tarqaladi. Bu ijtimoiy stigmani kuchaytiradi.
8. “Qorong‘u yo‘l” — giyohvandlikni “yo‘qotilgan hayot” sifatida ifodalash uchun ishlatiladi.
9. “Jamoatchilik nuqtai nazaridan nomaqbul” — giyohvandlikni ijtimoiy norma doirasidan tashqarida ko‘rsatadi.
10. “Axloqiy buzilish” — giyohvandlikni axloqiy nuqtai nazardan qoralash.
11. “Narkobiznes” — giyohvandlikni tijorat, zararli biznes sifatida ko‘rsatadi. Bu ibora ham stigma va kriminalizatsiya funksiyasini kuchaytiradi.
12. “Ommaviy xavf” — giyohvandlikni jamiyat uchun xavf deb belgilaydi. Bu termin ijtimoiy qo‘rqitish va nazorat funksiyasini bajaradi.

Tabu va stigma kontekstidagi leksik birliklar ijtimoiy nazorat va axloqiy me’yorlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq, bu birliklar ba’zan giyohvandlikni “kasallik” sifatida emas, balki “axloqiy buzilish” yoki “jinoyat” sifatida qabul qilishga olib keladi. Shuning uchun giyohvandlik mavzusi til orqali yoritilganda, ijtimoiy va tibbiy nuqtai nazarlar muvozanati saqlanishi lozim [Raximov, 2021: 77].

Ushbu maqolada giyohvandlik mavzusiga oid leksik birliklarning sotsiopragmatik tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, giyohvandlik leksikasi turli ijtimoiy kontekstlarda o‘ziga xos tarzda ishlatiladi va har bir kontekstning o‘ziga xos kommunikativ maqsadi mavjud. Tadqiqot jarayonida leksik birliklar to‘rtta asosiy toifaga ajratildi: tibbiy-ilmiy terminlar, huquqiy-jinoyat konteksti terminlari, yoshlar argo va sleng, shuningdek ijtimoiy tabu va stigmatizatsiya terminlari.

Bir tomondan, tibbiy-ilmiy terminlar giyohvandlikni kasallik va davolash nuqtai nazaridan yoritib, mavzuni ilmiy va neytral ohangda ifodalaydi. Bunday terminlar ijtimoiy stigmani kamaytirishga xizmat qiladi va giyohvandlikni “jinoyat” emas, balki “kasallik” sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, huquqiy-jinoyat konteksti terminlari giyohvandlikni ijtimoiy nazorat va jazo tizimi bilan bog‘laydi. Bu turdagi leksika ko‘pincha giyohvandlikni kriminal holat sifatida tasvirlaydi va jamiyatda qo‘rqitish hamda ogohlantirish funksiyasini bajaradi.

Yoshlar argo va sleng esa mavzuni yashirish, kodlash va guruh identifikatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Argo va sleng leksikasi ko‘pincha giyohvandlikni “oddiy”, “qiziqarli” yoki “sarguzasht” sifatida qabul qilishga undaydi, bu esa yoshlar orasida giyohvandlikning normalizatsiyalanishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy tabu va stigmatizatsiya terminlari esa giyohvandlikni ijtimoiy nuqtai nazardan “nomaqbul”, “axloqsiz” yoki “buzuq” deb belgilaydi. Bunday leksika jamiyatda giyohvandlikka nisbatan “qoralovchi” munosabatni kuchaytiradi va bu mavzuni ochiq muhokama qilishni qiyinlashtiradi. Natijada giyohvandlik bilan bog‘liq muammolar yashiriladi, ularning oldini olish va davolash jarayonlari kechikadi.

Tadqiqotning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

1. Giyohvandlik leksikasi ijtimoiy kontekstga qarab turli ma’no va funksiyalarni oladi.
2. Tibbiy-ilmiy terminlar giyohvandlikni kasallik nuqtai nazaridan yoritadi va stigmani kamaytiradi.
3. Huquqiy-jinoyat terminlari giyohvandlikni jinoyat va jazo bilan bog‘lab, ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi.
4. Yoshlar argo va sleng giyohvandlikni yashirish va kodlash orqali ijtimoiy guruh ichidagi identifikatsiyani mustahkamlaydi.
5. Tabu va stigma terminlari giyohvandlikni “nomaqbul” deb belgilab, mavzuni muhokama qilishni qiyinlashtiradi.

Tavsiya va takliflar:

1. Giyohvandlik mavzusi til orqali yoritilganda, tibbiy va psixologik nuqtai nazar asosida ilmiy terminologiyadan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu ijtimoiy stigmani kamaytirishga xizmat qiladi.
2. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda giyohvandlik haqida ma’lumot berishda, “qoralovchi” leksikadan ko‘ra, ogohlantiruvchi va kasallik sifatida yondashuvni kuchaytirish lozim.
3. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida giyohvandlikning til orqali ifodalanishi, argo va slengning salbiy ta’siri bo‘yicha ma’ruza va seminarlar o‘tkazish zarur.
4. Giyohvandlik bilan bog‘liq leksik birliklarni o‘rganishda sotsiopragmatika bilan birga psixolingvistika va kommunikatsiya nazariyalarini ham qo‘llash tavsiya etiladi.
5. Kelgusidagi tadqiqotlarda giyohvandlik leksikasining “gender”, “hududiy-dialekt” va “media diskurs” nuqtai nazaridan tahlili amalga oshirilishi mumkin.

Umuman olganda, giyohvandlik leksikasi jamiyatning ijtimoiy, madaniy va axloqiy normalarini aks ettiradi. Shuning uchun bu mavzu tilshunoslikda sotsiopragmatik nuqtai nazardan o‘rganilsa, giyohvandlikning ijtimoiy mazmuni va uning jamiyatdagi ta’siri yanada aniqroq tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
2. Tilshunoslik lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
3. Ismoilov, A. “O‘zbek tilida argo va sleng leksikasi”. Toshkent: “Sharq”, 2017.
4. Raximov, M. “O‘zbek tilida ijtimoiy tabular va ularning tilshunoslik tahlili”. Toshkent: “Fan”, 2018.
5. Sultonov, D. “Til va jamiyat: sotsiopragmatika masalalari”. Toshkent: “Akademiya”, 2019.
6. Nazarov, B. “O‘zbek tilida noaniq leksika va tabular”. Toshkent: “Fan”, 2020.
7. Qodirov, U. “Zamonamizning yoshlar leksikasi: argo va sleng”. Toshkent: “Nihol”, 2021.
8. Saidov, R. “Ommaviy axborot vositalarida til va ijtimoiy stereotiplar”. Toshkent: “Ilm”, 2022.
9. Ahmedov, S. “Giyohvandlik muammosi: ijtimoiy va tibbiy nuqtai nazar”. Toshkent: “Medpress”, 2020.
10. Davronov, A. “Giyohvandlik: jinoyat va profilaktika”. Toshkent: “Huquq”, 2019.
11. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent: “Adolat”, 2023.
12. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “Giyohvandlik va psixotrop moddalar nazorati”. Toshkent: 2022.
13. Khalilov, I. “Nutq madaniyati va kommunikatsiya”. Toshkent: “Akademiya”, 2021.
14. Kuznetsov, V. “Sotsiopragmatika: nazariya va amaliyot”. Moskva: “Akademiya”, 2016.
15. Leech, G. “Principles of Pragmatics”. London: Longman, 1983.
16. Austin, J. L. “How to Do Things with Words”. Oxford: Oxford University Press, 1962.
17. Searle, J. R. “Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language”. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASIDA QIPCHOQ LAHJASINING O‘RNI VA TADQIQI

Jumayeva Shaxnoza Yunusovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
1-kurs magistranti
jumayevashahnoza88@g.mail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili lahjalari tizimida qipchoq lahjasining tutgan o‘rni, uning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari va o‘rganilish tarixi tahlil qilingan. Tadqiqotda qipchoq lahjasining shakllanishi Mahmud Koshg‘ariy davridan boshlab ko‘rib chiqiladi hamda uning “j”lovchi va singarmonizm xususiyatlari dalillangan. Muallif asosan, XX asr o‘zbek dialektologiyasining yirik namoyandalari — E.Polivanov, G‘.Olim Yunusov, A.Borovkov va V.Reshetovlar tomonidan taklif etilgan tasniflarni qiyosiy o‘rganib, qipchoq lahjasining o‘zbek tili taraqqiyotidagi ahamiyati yoritishga harakat qilgan. Maqolada lahjaning geografik tarqalish areali va etnik asoslari haqida ham ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek tili, dialektologiya, qipchoq lahjasi, qarluq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi, “j”lovchi shevalar, tasnif, fonetik qonuniyatlar, singarmonizm, etnik guruhlar.*

Annotation. This article analyzes the place of the Kipchak dialect within the system of Uzbek dialects, its specific linguistic features, and the history of its study. The study examines the development of the Kipchak dialect from the time of Mahmud Kashgari and demonstrates its synharmonic features. The author attempts to highlight the significance of the Kipchak dialect in the development of the Uzbek language through a comparative study of classifications proposed by leading figures in 20th-century Uzbek dialectology – E. Polivanov, G. Olim Yunusov, A. Borovkov, and V. Reshetov. The article also presents scientific conclusions on the dialect's geographic distribution and ethnic roots.

Keywords: *Uzbek language, dialectology, Kipchak dialect, Karluk dialect, Oghuz dialect, dialects with the "j" sound, classification, phonetic patterns, synharmonics, ethnic groups.*

O‘zbek tili boy tarixga ega bo‘lib, uchta asosiy lahjaga bo‘linadi: qarluq, qipchoq va o‘g‘uz. Adabiy o‘zbek tilining shakllanishida barcha lahjalar muayyan darajada hissa qo‘shgan va ular fonetik va leksik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

Qarluq lahjasi o‘zbek adabiy tilining asosini tashkil etadi. Bu lahja Toshkent, Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Buxoro va Qashqadaryoning ayrim hududlarida tarqalgan. Qarluq lahjasiga fors tilining ta’sir katta bo‘lgan, bu esa, singarmonizmning deyarli yo‘qolishida olib kelgan.

O‘g‘uz lahjasi Xorazm viloyatining Urganch, Xiva, Xonobod, Hazorasp, Qo‘shko‘pir, Shovot, tarqalgan tumanlarida keng tarqalgan. Shuningdek, Jizzax viloyatining Forish tumani, Qozog‘istonning Turkiston va Janubiy Qozog‘iston viloyatlaridagi Iqon va Qorabuloq qishloqlarida ham uchraydi. O‘g‘uz lahjasida unlilarning birlamchi va ikkilamchi cho‘ziqlik hodisasi uchraydi, bu uning o‘ziga xos xususiyatidir.

Qipchoq lahjasi geografi jihatdan keng tarqalgan bo‘lib, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston va Shimoliy Xorazm viloyatlarida tarqalgan. Shuningdek, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg‘oniston va Pokistonda ham saqlangan.

Qipchoq lahjasiga xos fonetik qonuniyatlar, morfologik shakllar va leksik birliklar uni boshqa o‘zbek lahjalaridan farqlovchi muhim belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Qipchoq lahjasini o‘rganish o‘zbek dialektologiyasi bilan bir qatorda umumturkiy tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. U turkiy tillar doirasida yuz bergan tarixiy til jarayonlari, ichki taraqqiyot va til aloqalarini aniqlash imkonini beradi.

Turkiy xalqlarning, jumladan o‘zbek xalqining qabila va urug‘larga bo‘linishi to‘g‘risidagi eng dastlabki ma’lumotlar Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida aks etgan. M.Koshg‘ariy devonining eng qimmatli tomoni ham shundaki, u urug‘ va qabilalarni ularning tillari bilan bog‘lab tushuntiradi. Ularning tillaridagi farqlarni va o‘ziga xos xususiyatlarni alohida ko‘rsatib o‘tadi. M.Koshg‘ariy tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan 30 ga yaqin turkiy urug‘lardan 10 tachasining nomi hozirgi o‘zbek xalqining tarkibida uchraydi[4]. Shuningdek, M.Koshg‘ariy tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan til xususiyatlari ham o‘zbek adabiy tilida va xususan o‘zbek xalq shevalarida saqlanib qolgan. Masalan, M.Koshg‘ariyning ko‘rsatishicha, o‘sha davrda turklar so‘z boshida “y” tovushini ishlatgan vaqtida o‘g‘uzlar bu tovushni tushurib qoldirgan. Qipchoqlar esa, so‘z boshida “y” tovushi o‘rnida “j” tovushini ishlatganlar, ya’ni turklar marvaridni o‘sha vaqtda “yinju” atagan bo‘lsalar, o‘g‘uzlar uni “inju” deb ataganlar, qipchoqlar esa “jinju” deb ataganlar[5].

Qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi xalqlar O‘zbekiston hududida qadim davrlardan yashab kelishgan. Xorazmshohlar davrida Movarounnahr hududlarida qipchoqlarning

[4] Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “ФАН”, 1968. – Б. 15.
[5] Кошғарий М. “Девону луғотит турк”, I том. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1960, 67-68-бетлар.

yashaganligi yozma manbalarda qayd etilgan. Biroq koʻpchilik tarixchilar qipchoq xalqlari, jumladan, koʻchmanchi oʻzbeklarning bu hududlarga 1500-1510-yillarda Shayboniyxon bilan kelganligini qayd etishadi. Aslida qipchoq lahjasida soʻzlashuvchi elatlar bu hududlarga ancha oldin kirib joylashgan va oʻtroq tarzda turmush kechirishgan.

Oʻzbek tili qipchoq lahjasi aslida turkiy tillar guruhiga kiruvchi ostguruhlarning barchasi bilan umumiy va farqli jihatlarga ega. Ammo keyingi davrlar, ayniqsa, XX asrdagi oʻzgarishga koʻra boshqa tillardan ajralib turadi. Oʻzbek tili qipchoq lahjasi X asrdan boshlab fors tili elementlarini oʻzlashtira boshlagan boʻlsa, XX asrga kelib qarluq lahjasi bazasida voqelangan oʻzbek adabiy tilining ta'sirida boshqa qipchoq tillaridan butunlay farq qila boshladi. Hozirgi kunda oʻzbek tili qipchoq lahjasi oʻzga tillardan *o* lovchi lahja sifatida ham ajralib turadi. Demak, bugungi kunda oʻzbek tili qipchoq lahjasi oʻziga xos dialekt sifatida shakllandi[6].

XX asrda oʻzbek tili dialektlarini oʻrganish boʻyicha keng koʻlamli tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, oʻzbek xalqi etnogenezining murakkab ekaniga qaramasdan, oʻgʻuz, qipchoq va qarluq lahjalarini alohida tasniflashga, ularning dialektik atlaslarini yaratishga erishildi. Oʻzbek tili shevalarini tasniflash borasida Gʻozi Olim Yunusov, A.Borovkov, V.Reshetov, I.Zarubin, E.Polivanov, K.Yudaxinlar ilmy izlanish olib borishgan.

I.Zarubinning tasnifida geografik omillar va xalqlarning etnik jihatlariga koʻproq e'tibor qaratilgan, ammo, qipchoq lahjasi mutlaqo oʻrganilmagan[7]. K.Yudaxin esa shevalarni ikki variantda tasniflagan. Ulardan birinchisida shevalarning grammatik tuzilishi, fonetikasi, singarmonizmi va tojik tili vokalizmini oʻzlashtirganligiga e'tibor qaratgan boʻlsa, ikkinchisida esa geografik hamda etnik omillar hisobga olingan[8]. E.Polivanovning tasnifi juda murakkab tuzilgan boʻlib, lahjalarning eng kichik elementlarigacha ahamiyat berilgan. Shuningdek, u tasnif jarayonida metisatsiya (qarindosh tillarning qorishuvi) va gibrizatsiya (turli tillarning qorishuvi) hodisalarini ham chetda qoldirmagan. Shevalarni eronlashgan va eronlashmagan guruhlarga boʻlib chiqqan[9]. U Buxoro va Samarqand shevalarining koʻproq, Toshkent, Fargʻona vodiysi shevalarining kamroq eronlashgani, Fargʻona vodiysining qishloq va

[6] Буранов А. Ўзбек тили қипчоқ лаҳжаси лексикасининг олтой тилига муносабати. Филол.фан. д-ри ...дисс. – Тошкент. 2022. – Б. 22.
[7] Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – Л., 1925. – С. 42.
[8] Юдахин К.К. Узбекский язык//Литературная энциклопедия. – М., 1939. – Т. XI. – С. 149.
[9] Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933. – 44 с.

“j”lovchi shevalarining eronlashmaganini ta’kidlab o‘tadi. Ayni paytda, bu shevalarni E.Polivanov “chig‘atoy” guruhiga birlashtiradi[10].

E.Polivanov “o‘g‘uz” guruhini janubiy Xorazm va shimoliy o‘g‘uz tillariga ajratadi, qipchoq lahjasini esa 5 tipga bo‘ladi:

1-tip. O‘rta Xorazm (Gurlan, Bog‘ot va Shabboz shevalari) va Shimoliy Xorazm (Xo‘jayli, Qipchoq va Qo‘ng‘irot tumanlari hamda Mang‘it tumanining ayrim shevalari) dialekti.

2-tip. “O” lovchi dialekt (qozoq-nayman, Farg‘ona-Qoraqalpoq shevasi).

3-tip. Qurama dialekti (Ohangaron vodiysidagi Qurama urug‘lari shevasi).

4-tip. Ayrim shimoliy o‘zbek qipchoqlari shevalari (Turkiston atrofidagi So‘zak va Chalaqo‘rg‘on qishloqlari shevasi).

5-tip. O‘rta o‘zbek dialekti (qirq, shimoliy laqaylar, Afg‘oniston qipchoqlari shevalari)[11].

Bundan ko‘rinadiki, E.Polivanovning tasnifi ham qipchoq lahjasining barcha shevalari to‘liq qamrab olinmagan. Sirdaryo, Jizzax, O‘ratepa, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Janubiy Tojikistondagi qipchoq shevalari o‘rganilmagan.

G‘ozi Olim Yunusovning 1936-yilda e’lon qilingan “O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba” mavzusidagi tadqiqot ishida keltirilgan tasnifda biroz kengaytirilgan xulosalar berilgan. Olim o‘zbek lahjalarini uch guruhga bo‘lgan:

– O‘zbek-qipchoq lahjasi;
– Turk-barlos lahjasi;
– Xiva-Urganch yoki o‘g‘uz lahjasi.

G‘ozi Olim Yunusov E.Polivanovning kamchiliklarini to‘ldiradi va o‘zbek tili qipchoq lahjasi tarkibiga Ohangaron, Mirzacho‘l, Samarqand, Zarafshon vodiysi, Buxoro, Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa hududlardagi barcha “j” lovchi shevalarni kiritadi. Ammo bu tasnifda ham ayrim kamchiliklar kuzatiladi. Jumladan, G‘ozi Olim Yunusov qipchoq lahjasini 4 ga ajratadi:

– Qirq dialekti;
– Jaloyir laqay dialekti;
– Qipchoq dialekti;

[10] Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 30.
[11] Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 33.

– Gurlan dialekti.

Ammo bu tasnif na etnik, na lingvistik va na geografik jihatdan asoslangan. Shuningdek, G‘ozi Olim Yunusov qarluq dialektining ma’lum bir qismini ham turk-barlos lahjasi tarkibiga qo‘shadi[12].

A.K.Borovkov o‘zbek tilining lahjalari bo‘yicha 2 tasnif keltiradi. Uning birinchi tasnifida o‘zbek shevalari fonetik belgilariga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

– “O” lovchi guruh;

– “A”lovchi guruh.

Ikkinchi tasnifida o‘zbek shevalari 4 guruhga bo‘linadi:

– o‘rta o‘zbek lahjasi;

– Shayboniy o‘zbeklari yoki “j” lovchi lahjasi;

– janubiy Xorazm shevasi;

– alohida shevalar guruhi[13].

V.Reshetovning klassifikatsiyasi hozirgi tasniflarga birmuncha yaqin keladi. U o‘zbek lahjalarini qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz lahjalariga, o‘z navbatida, qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasini ko‘plab shevalarni o‘z ichiga olgan 4 ta dialektga ajratadi.

I. Farg‘ona dialekti. Bu tarkibga butun Farg‘ona vodiysidagi shevalar guruhi bilan birga O‘sh-O‘zgan gurhini ham kiritadi.

II. Toshkent dialekti. Bu dialekt tarkibida Toshkent shahri, Toshkent va Jizzax viloyatlarining shahar aholisi, Xovos, shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Po‘lati, Mo‘lati va Boyterak aholisi shevalarini ham qayd etgan.

III. Qarshi dialekti. Bu dialekt ikki guruhga bo‘lingan. Qarshi guruhiga Qashqadaryoning Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ tumanlari shevalari, Samarqand-Buxoro guruhiga Samarqand, Buxoro, Xo‘jand hamda Namangan viloyatining Chust va Koson tumanlari markazlari shevasini kiritgan. Bu guruh shevalariga tojik tilining ta’siri katta bo‘lgan.

IV. Shimoliy o‘zbek dialekti:

– Iqon-Qorabuloq guruhi – Iqon, Qorabuloq, Qoramurt va Mankentda tarqalgan, o‘g‘uz va qipchoq shevalari ko‘p ta’sir qilgan.

– Turkiston-Chimkent guruhi – Chimkent, Turkiston, Taraz, Sayram shevalarini qamrab. Qipchoq tillarining ta’siri katta bo‘lgan.

[12] Буранов А. Ўзбек тили қипчоқ лаҳжаси лексикасининг олтой тилига муносабати. Филол.фан. д-ри ...дисс. – Тошкент. 2022. – Б. 25.

[13] Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских народных говоров. — Известия АН ЎзССР, 1953. — С. 58.

V.Reshetov qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga alohida to‘xtaladi. Mazkur lahjalarning dialektal hamda regional tasniflarini ishlab chiqadi[14]. U qipchoq lahjasini 14 ta belgisiga ko‘ra tavsiflaydi. Ammo bu belgilar barcha qipchoq shevalariga ham mos kelavermaydi.

Yuqorida keltirilgan tasniflar asosida va boshqa tadqiqotlarni o‘rganib xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga xos xususiyatlar E.Polivanov va G‘ozi Olim Yunusovning tasnifida birmuncha mukammalroq ochib berilgan.

O‘zbek tilining qipchoq lahjasini o‘rganish ishlari mustaqillik yillarida ham davom ettirildi. Bu davrda qipchoq lahjasi “faqat Jizzax, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Tojikistonning janubiy va Afg‘onistonning shimoliy hududlarida tarqalgan”, degan[15] an’anaviy qarashlarga chek qo‘yildi. Shuningdek, ushbu lahja O‘zbekistonning barcha hududlarida hamda qo‘shni mamlakat hududlarida ham keng tarqalganligi ma’lum bo‘ldi[16]. Bundan tashqari qipchoq lahjasini S.Rahimov o‘zining “O‘zbek tili Surxondaryo shevalari” nomli monografiyasida hamda Qashqadaryo shevalari ustida tadqiqot olib borgan Bolta Jo‘rayev ham “Yuqori Qashqaaryo shevalari”ga bag‘ishlangan monografiyasida hududdagi barcha shevalarni batafsil tahlil qilib chiqadi.

XX asrda o‘zbek tili qipchoq lahjasini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu lahjaning o‘zbek tilidagi muhim o‘rnini aniqlashga xizmat qildi. E.Polivanov, G‘ozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, V.Reshetov kabi olimlarning tasniflari qipchoq lahjasining hududiy tarqalishi, fonetik va grammatik xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillarida olib borilgan izlanishlar esa qipchoq lahjasining faqat ayrim hududlar bilan chegaralanmasdan, keng maydonda tarqalgan mustaqil dialekt ekanini ko‘rsatdi. Natijada qipchoq lahjasi o‘zbek dialektologiyasida alohida o‘rin tutuvchi va umumturkiy tilshunoslik uchun muhim ilmiy manba sifatida e’tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “ФАН”, 1968. – Б. 15.
2. Кошғарий М. “Девону луғотит турк”, I том. – Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1960, 67-68-бетлар.

[14] Решетов В.В. Изучение узбекских народных говоров // Ўзбек диалектологияси материаллари. – Тошкент, 1957. – Т. I.

[15] Этнический атлас Узбекистана. – Ташкент, 2002. – С. 310

[16] Узбекский язык//Языки мира. Тюркские языки. – Бишкек, 1997. – С. 436.

3. Буранов А. Ўзбек тили қипчоқ лаҳжаси лексикасининг олтой тилига муносабати. Филол.фан. д-ри ...дисс. – Тошкент. 2022. – Б. 22.
4. Зарубин И.И. Список народностей Туркестанского края. – Л., 1925. – С. 42.
5. Юдахин К.К. Узбекский язык//Литературная энциклопедия. – М., 1939. – Т. XI. – С. 149.
6. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент:
   Узгосиздат, 1933. – 44 с.
7. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 30.
8. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 33.
9. Буранов А. Ўзбек тили қипчоқ лаҳжаси лексикасининг олтой тилига муносабати. Филол.фан. д-ри ...дисс. – Тошкент. 2022. – Б. 25.
10. Боровков А.К. Вопросы классификации узбекских народных говоров. — Известия АН ЎзССР, 1953. — С. 58.
11. Решетов В.В. Изучение узбекских народных говоров // Ўзбек диалектологияси материаллари. – Тошкент, 1957. – Т. I.
12. Этнический атлас Узбекистана. – Ташкент, 2002. – С. 310
13. Узбекский язык//Языки мира. Тюркские языки. – Бишкек, 1997. – С. 436.

MATN O‘QIB TUSHUNISHNING OBYEKTI SIFATIDA

Narziyeva Dilnoza Ulug‘bek qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy mantning lingvodidaktik ahamiyati, matnni o‘qib tushunish bosqichlari, matnni tushunishdagi qiyinchiliklar, kamchiliklar haqida so‘z boradi. Shuningdek, matnni qabul qilish darsliklar kesimida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Badiiy matn, o‘qish, o‘qib tushunish, darsliklar, kompetensiya.*

Annotation. This article discusses the linguodidactic significance of literary texts, the stages of reading comprehension, the difficulties and shortcomings encountered in understanding texts. It also examines text perception from the perspective of textbooks.

Keywords: *Literary text, reading, reading comprehension, textbooks, competence.*

Har bir xalq o‘z tili, madaniyati, qadriyatlari bilan tirikdir. Bu uch omil – jamiyatning ustuni, jamiyat ular vositasida shakllanadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyot asrida tilimiz ham bundan mustasno emas. Barcha yangi g‘oyalar va fikrlar til bilan ifodalangani uchun aynan tilimiz o‘zgarishga, takomillashishga moyildir

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqesini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5850-sonli Farmoni ona tilimizni asrash, ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilganligi bilan o‘zbek tilining taraqqiyotga erishishi uchun yangi bir yo‘l ochildi.

Keyingi yillarda jahon standartlariga qiyosan o‘zbek tilini o‘qitishning yangi davri boshlandi. Uzoq yillar o‘zbek tili faqat grammatik qoidalarni mustahkamlashga, nazariy bilimlarni yodlashga asoslangan bo‘lib, o‘rganuvchilar faqat til tuzilishi qoliplarini, sxemasini o‘rganishgan, xolos. Ammo ularda o‘rganilgan qoidalarni real hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasi rivojlanmay qolish holatlari yuzaga keldi. O‘z navbatida bu holat o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ularning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirmadi va kommunikatsiyaga kirisha olishmadi.

Keyingi yillarda tuzilgan o‘quv dasturi va darsliklar aynan yuqoridagi muammolarga yechim sifatida ishlab chiqilayotganligi, o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish va takomilashtirishga yo‘naltirilganligi bilan diqqatga sazovordir. Uzoq vaqt

o‘zbek tili ta’limida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar yangi uslub, yangi darslik va yangi zamonaviy vositalar orqali yaratilyapti.

O‘zbek tilida kompetensiya o‘quvchilarda tilni mukammal va har tomonlama o‘rganishga yordam beradi. Kompetensiya bu u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olishlikni talab qiladi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan kompetensiyalar: nutqiy va lingvistik kompetensiyalardir. Lingvistik kompetensiyalar grammatik bilimlarga asoslangan bo‘ladi. Aynan oldingi darsliklarimiz ham matndan parcha berilgan holda lingvistik bilimlarni o‘rgatardi.

Nutqiy kompetensiyalar esa birgina matn orqali o‘quvchilarda 4 xil til bilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bular: tinglab tushunish (eshittirilgan matndagi asosiy axborotni tushunish); gapirish (o‘z shaxsiy qarashlari va fikrlarini og‘zaki tarzda ifodalay olish); o‘qib tushunish (biror mavzuga oid adabiy-badiiy matnlarni, o‘qib mulohaza yuritish); yozish (diktant, bayon, insho, biror ma’lumot, rasmiy ish qog‘ozlarini yoza olish malakalarini shakllantirish) ko‘zda tutadi tinglab tushunish. Jumladan, Matn *o‘qish* orqali o‘quvchida dunyoqarash kengayadi, fikrlash qobiliyati yaxshilanadi. Matn o‘qish savodxonligidagi muhim, biz matnni o‘qib tushunish jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratamiz:

so‘z orqali ma’lumotni tushunish –Grafik tasvirlarni tanish, chizmalarni, diagrammalarni o‘qish, uni mazmunga aylantirish.

jumla orqali ma’lumotni tushunish – Gap va jumlalarning matndagi vazifasi hamda mazmunini idrok qilish.

matn orqali ma’lumotni tushunish – Matnning umumiy mazmunini tushunish, matnning grammatik qurilishini anglash.

tushunish – Matnning g‘oyasini tushunish, matn muallifining maqsadini bilish.

Shu o‘rinda aytish kerakki, bir xil matnni o‘qish jarayoni har doim ham o‘quvchilarda muvaffaqiyatli yakunlanmasligi mumkin. Bir xil matnni har bir o‘quvchi turli xilda tushunishi yoki tushunmasligi mumkin. Bunga bir nechta sabablar bor:

- matn mavzusi murakkab bo‘lishi;
- o‘quvchining yoshi, psixologik holati, fikrlash qobiliyati to‘liq shakllanmaganligi;
- topshiriqlardagi qiyinchiliklar, ya’ni gaplar murakkab tuzilgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchi fikrini og‘zaki va yozma ifodalashi, o‘zgalar fikrini anglashi, matndagi axborot, yangiliklarni idrok eta olishi psixologik jarayon bo‘lib, uning nutqqa ko‘chishida, albatta, nutqiy va lingvistik bilimlar bazasiga tayaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. https://lex.uz/docs/-4561730
2. Azimova I. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent., 2020.
3. Muxitdinova X. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi, – Toshkent – 2023.
4. Temirova K. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. ‘‘Pedagogik mahorat’’ // ilmiy-nazariy va metodik jurnal, № 6/2022.

O‘ZBEK TILINING YOSHLAR ORASIDAGI IDENTIKLIGI VA INTERNATSIONAL SO‘ZLAR TA’SIRI

D.A.Ruzmetova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (PhD) dotsenti
druzmetova1974@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilining yoshlar orasida milliy va ijtimoiy identiklikni shakllantirishdagi o‘rni, shuningdek, globallashuv jarayonida internatsional va xorijiy so‘zlarning faol kirib kelish sabablari sotsiolingvistik hamda lingvokognitiv yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Yoshlar nutqidagi aralash til hodisalari, terminologik bo‘shliq, raqamli muhit ta’siri va til nufuzi masalalari real nutqiy misollar orqali yoritiladi. Tadqiqotda internatsional so‘zlarning ijobiy va salbiy jihatlari farqlanib, o‘zbek tilining zamonaviy ijtimoiy obrazini mustahkamlash zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, identiklik, yoshlar nutqi, internatsional so‘zlar, globallashuv, til nufuzi, lingvokognitiv yondashuv.*

Til jamiyatning asosiy madaniy va ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, u shaxsning o‘zini anglash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yoshlar orasida til orqali milliy mansublikni his etish, ijtimoiy guruhlarga qo‘shilish va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni faol kechadi. So‘nggi yillarda o‘zbek tilining yoshlar nutqidagi mavqei, unda internatsional va xorijiy so‘zlarning ko‘payishi masalasi ilmiy doiralarda tobora dolzarb muammoga aylanmoqda.

Globallashuv, raqamli kommunikatsiya va ko‘p tillilik sharoitida yoshlar nutqida ingliz va rus tillaridan o‘zlashmalar faol qo‘llanmoqda. Bu jarayon ayrim hollarda tabiiy til rivoji sifatida baholansa, boshqa tomondan, o‘zbek tilining identiklik belgisi sifatidagi ahamiyati pasayishiga olib kelayotgani kuzatilmoqda. Shu sababli mazkur maqolada o‘zbek tilining yoshlar identikligidagi roli va internatsional so‘zlar ta’siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Identiklik (identity) tushunchasi shaxsning o‘zini muayyan milliy, madaniy yoki ijtimoiy guruh a’zosi sifatida anglashini ifodalaydi. Tajfel va Turner (1986) ijtimoiy identiklik nazariyasiga ko‘ra, til guruhga mansublikni ko‘rsatuvchi eng muhim belgilaridan biridir. Fishman (1999) esa tilni milliy identiklikning asosiy tayanchi sifatida baholab, uning zaiflashuvi identiklik inqiroziga olib kelishini ta’kidlaydi.

Lingvokognitiv yondashuvga koʻra, inson dunyoni til orqali idrok etadi va konseptual tizimini til asosida shakllantiradi (Langacker, 2008). Demak, yoshlarning qaysi tilda fikrlashi va muloqot qilishi ularning madaniy va milliy ongiga bevosita

Oʻzbek tili yoshlar orasida bir necha muhim funksiyalarni bajaradi. Avvalo, u milliy identiklikni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Oʻzbek tilida muloqot qilish orqali yoshlar oʻzini oʻzbek jamiyatining bir qismi sifatida anglaydi. Bundan tashqari, til madaniy xotirani uzatuvchi mexanizm boʻlib, maqollar, iboralar va milliy konseptlar orqali qadriyatlar avloddan avlodga yetkaziladi.

Biroq soʻnggi yillarda yoshlar nutqida quyidagi holatlar koʻp uchramoqda:

- *“Bugun meeting bor.”*
- *“U juda smart bola.”*
- *“Bu joy comfort emas.”*

Bu gaplarning oʻzbekcha muqobillari mavjud boʻlsa-da (*yigʻilish, zukko, qulay*), xorijiy variantlar ustunlik qilmoqda. Bu holat til imkoniyatlarining cheklanganligi emas, balki til nufuzining pasayishi bilan bogʻliq ekanini koʻrsatadi.

Internatsional soʻzlar koʻplab tillarda deyarli bir xil shakl va ma’noda qoʻllanadigan leksik birliklar boʻlib, asosan ilm-fan, texnologiya va siyosat sohalariga oid tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, *internet, demokratiya, energiya, psixologiya, strategiya* kabi soʻzlar internatsional xarakterga ega.

Crystal (2003) fikricha, internatsional soʻzlar global ilmiy va texnologik muloqotni yengillashtiradi. Shuning uchun ularni butunlay inkor etish til rivojiga zid hisoblanadi. Biroq muammo internatsional soʻzlarning asossiz va me’yorsiz qoʻllanilishida namoyon boʻlmoqda. Masalan:

- *meeting* oʻrniga *yigʻilish*
- *location* oʻrniga *joy*
- *update* oʻrniga *yangilash*

kabi oʻzbekcha muqobillar mavjud boʻlsa-da, yoshlar ularni kam ishlatmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari yoshlar nutqiga kuchli ta’sir koʻrsatmoqda. Quyidagi iboralar kundalik holga aylangan:

- *“Bu fake ma’lumot.”*
- *“Yangi post tashladim.”*
- *“Story’da gapirib berdim.”*

Bu holat Pavlenko (2006) ta’riflagan kod-almashish jarayonining kuchayganini ko‘rsatadi. Natijada o‘zbek tili grammatik jihatdan saqlanib qolgan bo‘lsa-da, leksik jihatdan xorijiy unsurlarga tobora bog‘lanib bormoqda.

Oliy ta’lim jarayonida internatsional terminlarning faol qo‘llanilishi bugungi kunda ta’lim mazmuni va metodikasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, *assessment, syllabus, criteria, rubric, learning outcomes, feedback, academic writing* kabi terminlar dars jarayonida, baholash tizimida va rasmiy hujjatlarda keng qo‘llanilmoqda. Mazkur terminlarning o‘zbekcha muqobillari — *baholash, fan dasturi, mezon, baholash jadvali, o‘quv natijalari, mulohaza, akademik yozuv* — mavjud bo‘lsa-da, ularning qo‘llanishi barqaror emas va terminologik jihatdan yetarli darajada standartlashmagan.

Natijada talabalar ilmiy tushunchalarni o‘zbek tilida ifodalashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Masalan, talaba *assessment criteria* tushunchasini ingliz tilida to‘liq anglaydi, biroq uni o‘zbek tilida “baholash mezonlari” tarzida izohlashga kelganda mazmuniy aniqlik yo‘qoladi. Shuningdek, *rubric* termini ko‘pincha tarjimasiz qo‘llanib, uning funksional mohiyati — baholash darajalari va ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi jadval ekanligi talabalar ongida yetarlicha shakllanmaydi.

Bu holat auditoriya muhokamalarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Talabalar ko‘pincha ilmiy fikrini quyidagi tarzda ifodalaydi: *“Bu metod effective, lekin criteria’lari aniq emas”* yoki *“Task’ni rubric asosida baholashdi”*. Ushbu jumlalarda xorijiy terminlar o‘zbekcha grammatik shakllar bilan qo‘shilib, gibrid nutqni hosil qilmoqda. Bunday aralash nutq esa ilmiy uslubning aniqligi va mantiqiy izchilligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalar orasida keng tarqalgan fikrlar ushbu muammoni yanada oydinlashtiradi: *“Inglizcha tushunaman, lekin o‘zbekcha ayta olmayman”*, *“Ilmiy gapni o‘zbekcha aytsam, fikrim sust chiqadi”*. Bu kabi e’tiroflar shuni ko‘rsatadiki, talabaning kognitiv bazasi, ya’ni ilmiy tushunchalar tizimi asosan xorijiy til asosida shakllanmoqda. Natijada o‘zbek tili ilmiy tafakkur vositasi sifatida emas, balki faqat kundalik muloqot tili sifatida idrok etilmoqda.

Lingvokognitiv nuqtayi nazardan qaralganda, bunday holat fikrlash jarayonining asta-sekin xorijiy tilga ko‘chib borayotganidan dalolat beradi. Langacker (2008) ta’kidlaganidek, til nafaqat fikrni ifodalash vositasi, balki uni shakllantiruvchi mexanizmdir. Demak, ilmiy tafakkur xorijiy terminlar orqali qurilgan sharoitda, o‘zbek tilining ilmiy va konseptual imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmay qolmoqda.

Mazkur maqola o‘zbek tilining yoshlar, xususan, oliy ta’lim muhitidagi identiklikni shakllantirishdagi o‘rni hamda internatsional terminlarning faol qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammolarni sotsiolingvistik va lingvokognitiv yondashuvlar asosida tahlil qilishga qaratildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, internatsional va xorijiy terminlarning ta’lim jarayonida keng qo‘llanilishi tilning tabiiy rivoj jarayonining bir ko‘rinishi bo‘lsa-da, ularning me’yoriy va nazoratsiz ustunlashuvi o‘zbek tilining ilmiy va ijtimoiy nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari oliy ta’limda ilmiy tafakkurning ko‘p hollarda xorijiy til asosida shakllanayotganini, bu esa talabalarning o‘zbek tilida ilmiy fikrni izchil va aniq ifodalashida qiyinchiliklar yuzaga keltirayotganini ko‘rsatdi. Talabalar nutqida kuzatilayotgan aralash til hodisalari va terminologik nomuvofiqliklar o‘zbek tilining ilmiy muloqot vositasi sifatidagi funksional imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmayotganidan dalolat beradi. Natijada o‘zbek tili asta-sekin kundalik muloqot doirasida cheklanib, ilmiy va akademik sohalarda ikkilamchi mavqega tushib qolish xavfi bilan yuzlashmoqda.

Shu bilan birga, internatsional terminlarning mavjudligi va qo‘llanilishi til rivojiga mutlaqo zid hodisa emasligi aniqlandi. Muammo ularning zaruratdan tashqari, ijtimoiy nufuz va zamonaviylik belgisi sifatida haddan tashqari ideallashtirilishidadir. O‘zbek tilining ilmiy salohiyatini mustahkamlash uchun terminologiyani tizimli ravishda standartlashtirish, o‘zbekcha muqobillarni ta’lim jarayoniga izchil joriy etish hamda o‘zbek tilida ilmiy nutq madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining yoshlar orasidagi identiklik belgisi sifatidagi mavqeini mustahkamlash faqat tilni himoyalash yoki cheklovlar qo‘yish orqali emas, balki uning zamonaviy, ilmiy va raqamli muhitga mos funksional imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshirilishi lozim. Aynan shunday yondashuv o‘zbek tilining barqaror rivoji va yoshlar ongida ijtimoiy nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tiliga internatsional va xorijiy so‘zlarning kirib kelishi tabiiy jarayon bo‘lsa-da, ularning yoshlar nutqida me’yorsiz ustunlashuvi tilning ijtimoiy nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Muammo internatsional so‘zlarning mavjudligida emas, balki ularning identiklik belgisi sifatida haddan tashqari ideallashtirilishidadir. O‘zbek tilining zamonaviy, ilmiy va raqamli muhitga mos obrazini shakllantirish orqali yoshlar orasida uning nufuzini oshirish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fishman, J. A. (1999). *Language and Ethnicity in Minority Sociolinguistic Perspective*. Multilingual Matters.
2. Tajfel, H., & Turner, J. C. (1986). The social identity theory of intergroup behavior.
3. Langacker, R. W. (2008). *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. Oxford University Press.

4. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language*. Cambridge University Press.
5. Holmes, J. (2013). *An Introduction to Sociolinguistics*. Routledge.
6. Pavlenko, A. (2006). *Bilingual Minds*. Multilingual Matters.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI LUG‘ATLARINING BOYISH TENDENSIYALARI

Abdullayev Oxunjon Ikrom o‘g‘li
f.f.f.d., (PhD)
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi
okhunjonabdullayev@gmail.com

Annotatsiya. Maqola o‘zbek va qoraqalpoq tilining lug‘at sohasi va uning boyish manbalari hamda yo‘nalishlariga doir masalalarga bag‘ishlangan. O‘zbek va qoraqalpoq tillariga o‘zlashgan so‘zlar hamda bu tillarning ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘layotgan yangi leksemalarning ma’nolarini ochib berish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: *lug‘atchilik, leksikografiya, ijtimoiy aloqalar, yangi so‘zlar, zamonaviy leksika, til va madaniyat, fan-texnika*

Annotation. The article is devoted to issues related to the vocabulary sphere of the Uzbek and Kharakalpak language and its sources and directions of enrichment. It is envisaged to reveal the meanings of new lexemes emerging on the basis of the words adopted in Uzbek and Kharakalpak languages, as well as the internal capabilities of these languages.

Keywords: *vocabulary, lexicography, social contacts, new words, modern vocabulary, language and culture, science and technology*

XIX-XX asrlarda jamiyat hayotida boshlangan tarixiy o‘zgarishlar tilda ham o‘z aksini topa boshladi. Bu davr so‘zlarning o‘zlashish va so‘zlarning iste’moldan chiqib ketish jarayonining tezlashgan davri bo‘ldi. XX asrda maktablar tashkil etilishi, ommaviy savod chiqarish, gazeta va jurnallarning chop etilishi bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Bu davrning muhim xususiyati shundaki, tilimizga nafaqat ruscha so‘zlar, balki ko‘plab inglizcha, xitoycha, fransuzcha, ispancha so‘zlar rus tili orqali kirib kelgan bo‘lsa, leksikamizdagi ko‘p miqdordagi forscha-arabcha so‘zlar nofaol so‘zlarga aylandi yoki iste’moldan chiqib ketdi.[1, 12]

XX asr o‘zbek va qoraqalpoq tilshunosligi uchun yuksalish asri bo‘ldi. Ona tili darsliklarining yaratilishi, tilshunoslik nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishi, ilmiy jurnallarning nashr etila boshlashi, ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining yuzaga kelishi, filologik va ensiklopedik lug‘atlarning chop etilishi o‘zbek va qoraqalpoq tilshunoslari tomonidan yaratilgan ulkan meros hisoblanadi.

O‘tgan yuz yil ichida jamiyat taraqqiyoti tezlashdi. Insonlar ongi, ularning dunyoqarashi ham shunga muvofiq soddalikdan murakkablikka qarab o‘zgardi. Shuningdek, insonlarning kundalik iste’moldagi so‘zlari ham nutqiy rivojlanishda bo‘ldi, ko‘p ma’nolilik kasb etdi. Shunga muvofiq zamonaviy lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyoj ham kuchaydi. O‘tgan asr tilshunosligimiz borasida qilingan ishlar rus tilshunosligi bilan bevosita bog‘liq. Birgina tilshunoslikning leksikografiya sohasi kuzatiladigan bo‘lsa, mavjud lug‘atlarning deyarli ko‘pchiligi rus tili lug‘atlari andozasi asosida yaratildi. Yaratilgan lug‘atlar – ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi. Biroq bu lug‘atlarning ayrimlarini tilimizning o‘ziga xosligi, milliy xalq madaniyati asosida qayta ishlab chiqish zarur masala bo‘lib qolmoqda.

O‘tgan asrning 80-yillariga kelib o‘zbek lug‘atchiligi borasidagi ishlar susaydi, ilm-fan yangiliklari, leksikografiya sohasidagi nazariy ishlar amaliyotga tatbiq etilmadi, zamonaviy yangi lug‘at turlari yaratilmadi, tilda mavjud lug‘atlar mukammallashtirilib qayta ishlanmadi, jahon leksikografiyasi yutuqlariga tayanib ish tutish, yig‘ilgan tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ishlari amalga oshirilmadi. [2, 124]. Natijada o‘zbek va qoraqalpoq tili lug‘atchiligi rus lug‘atchiligi va jahon lug‘atchiligidan orqada qolib ketdi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, leksikografiyadagi keyingi davr o‘zgarishlari to‘xtab, bu sohada keskin o‘zgarishlar shu davrdan so‘ng deyarli sezilmadi.Tilda so‘z o‘zlashish jarayoni, asosan, xalqaro aloqalarning kengayishi, bozor munosabatlari shakllanishi, tovarlarning keng ko‘lamda savdo-sotig‘i, mafkuraviy yoki ijtimoiy aloqalar doirasida yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji, jamiyatning ma’lum bir tuzumdan yangi shaklga o‘tishi kabilar bilan bog‘liq. Fan-texnikaning jadal rivojlanishi hamda internet tizimi asosida turli tilda so‘zlashuvchi kishilarning fikr almashinishi natijasida XX asrning 90-yillaridan so‘ng dunyo miqyosida globallashgan zamonaviy texnologiyalarga oid so‘z va atamalarning baynalmillalashuvi kuchaydi. Shuningdek, bu holat jamiyatning siyosiy, ma’naviy, madaniy, iqtisodiy sohalaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Bu davrdagi yangi so‘zlar o‘zlashishida, avvalo, siyosiy sohaga oid bo‘lgan *prezident, spiker, parlament* kabi so‘zlarning kirib kelishi kuchaydi, ayrimlarida ishlatish faollashdi. Shuningdek, *kopyuter, display, fayl, monitoring, uzer, pleyyer, peydjer* kabi fan-texnikaga oid yangi so‘zlar, iqtisodiyotga doir *auditor, barter, diler, broker* kabi so‘zlar, madaniy sohaga oid *xit, xit-parad, shou* so‘zlari shular jumlasidandir.

Fan va turmush lug‘ati o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri va yaqin aloqa mavjud. Har qanday fan o‘sha xalqning tili va nutqining tafakkuri erishgan yutuqlardan boshlanadi. Adabiy tilga yangi leksemalarning o‘zlashtirilishining mavjud nolisoniy omillar qo‘llanadigan tushuncha yoki narsa-hodisaning ijtimoiy hayotdagi muhimligi va dolzarbligi bilan bog‘liq. Zamonaviy

leksikani badiiy nutqda qo‘llashning asosiy sababi badiiy tasvir maqsadiga mos vaziyatni yaratish va yetkazishdir.

Shu nuqtayi nazardan, badiiy so‘z ustalari o‘z asarlarida yangi leksikadan foydalanadilar. Bu ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq. Ta’kidlash lozimki, zamonaviy leksika badiiy nutqda obrazlilik muammosini hal etishda ko‘p vazifa bajaradi. Yangi leksemalarni qiyosiy tadqiq qilish murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki bunda leksemalarning o‘zigina emas, balki shu sohaga doir bir qancha ma’lumotlari aks etadi.

Yangi leksemalarning muqobilini topish va qo‘llash esa ma’noni to‘la ochib bera olmaydi. Lug‘aviy muqobillik ko‘pincha, leksik birlik haqida to‘g‘ri tasavvur uyg‘otmaydi, chunki ikki tildagi o‘zaro muqobil terminlar turli tushunchalarni yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan, lekin ma’no ko‘lamining turlicha ekanligi bilan farqlanadigan tushunchalarni ifodalaydi. [3, 52]. Shu sababli ham yangi leksemalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish va ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish yo‘llarini shunchaki bayon qilib berish emas, balki butun shu tilning butun sohalariga oid zamonaviy leksemalarning kompleks tadqiqini amlaga oshirish zarur.

Buning uchun, avvalo, yangi so‘zlarning til lug‘aviy tizimidagi maqomini va uning yangi bo‘lmagan leksemalardan farqlaydigan belgilarini aniqlab olish joiz. Demak, yangi*(zamonaviy)* leksika tilimizdagi lug‘at boyligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ammo, bunday leksemalarni o‘zbek tilida ham qoraqalpoq tilida ham qo‘llashda kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, teledasturlar va reklama e’lonlarida yangi leksemalarni o‘rinsiz qo‘llash va yangi ochilayotgan obyekt nomlariga mos bo‘lmagan yoki xato yozilyotganligi bu boradagi tadqiqotlarning kam ekanligining dalilidir. Bunday terminlar tilga o‘zlashgandan keyin, umumtil leksikasiga aylanganda til madaniyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Til madaniyatning fenomeni, madaniyatning tashuvchisi sifatida o‘rganiladi. Zamonaviy leksika to‘g‘ridan-to‘g‘ri lingvokulturologik birlik sifatida qaralmasa ham ma’lum tilda qo‘llanilishi, til egasining madaniy darajasiga ta’siri jihatini hisobga olib til madaniyatidagi o‘rnini belgilash ham bugungi kundagi til masalasining yechilishi lozim bo‘lgan jihatlaridan biridir. So‘z o‘zlashish jarayoni har bir jonli tilga xos bo‘lgan qonuniyat bo‘lib, dunyo tillari orasidagi ijtimoiy-madaniy, ma’naviy sohalar asosida to‘xtovsiz harakatda bo‘ladi. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Inlizcha so‘zlarning o‘zlashishi nafaqat o‘zbek tiliga, balki qoraqalpoq tiliga ham ta’sir qildi. Biroq rus tili ham ingliz tili singari hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo‘lgani bois bu tilning ta’sirini tilimizga nisbatan faolroq sezilishini kuzatish mumkin.

O‘zbek va qoraqalpoq tiliga inglizcha yangi o‘zlashma so‘zlarning o‘zlashish yo‘llari tulichadir. Qator yangi tushunchalar va hodisalar o‘zbekcha yoki qoraqalpoqcha nomlanishga

ega bo‘lmasa yoki o‘zlashma so‘z tushunchaning (sinonimiga nisbatan) turli qirralarini ifodalash va nomlash jihatidan o‘zining ijobiy va samarali ta’siriga ega bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish yoki aynan o‘zlashtirish usulidan foydalanilmoqda. Masalan, *chat (chat) – suhbat, bifshteks – (beefsteaks)* **–** qovurilgan mol go‘shtini qaylaga solib beriladigan ovqat turi, *mani (money) – pul, boy-frend (boy-friend) – do‘st, o‘rtoq* kabi so‘zlar ham ayrim reklama, bolalar kiyim-kechaklari yoki aholi e’tiborini tortuvchi buyumlarda aks etmoqda. [4, 56].

Bu kabi so‘zlar odatda tushuncha ifodalashi jihatidan ingliz yoki boshqa tillarda o‘z ekvivalentiga ega bo‘lsa-da, biroq ulardan uslubiy jihatdan u yoki bu xususiyatiga ko‘ra ma’noni tasviriy ifodalashiga ko‘ra farqlanadi.

Bugungi kunda matbuot va jamoat mutaxassislarining fikir-mulohazalariga ko‘ra, 40-50 yoshdagi kishilarning fikrlari hozirgi yoshlar nutqidan qoniqish hosil qilmayotgani va yangi o‘zlashayotgan so‘zlarga nisbatan salbiy munosabatda ekanligini aniqlashgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zlashma so‘zning o‘zlashgan tilda sinonimi bo‘lsa, uning qo‘llanishi uchun turli sabablar mavjud bo‘ladi. Ya’ni, sinonim sifatida kirib kelgan so‘z tilda termin sifatida yashaydi, yoki uslubiy ma’no ifodalovchi so‘z bo‘ladi, yoki o‘z zidlanuvchi so‘zga nisbatan mavhum tushuncha ifodalaydi, ba’zan esa yoshlar orasida odat tusini olmoqda. Zamonaviy terminlarning bunday qo‘llanilishi tilimiz madaniyatiga, jumladan, nutqimiz madaniyatiga salbiy ta’sir etayotganligini ham qayd qilishimiz lozim. Tilimizning jozibasini, sofligini va mavqeyini saqlash, avvalo, har birimizning ustuvor vazifamiz bo‘lishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tili leksikologiyasi (jamoa) – Toshkent, «Fan», 1981-y., – 12-b.
2. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, 1974. – 124-b.
3. Islomov I., Bobojonov Sh. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. 2007-y., 52-b.
4. Bazarov O. O‘zbek tilida darajalanish: Filol. fan. dokt. dis. ... avtoref. - T., 1997. – 56-b.

Internet materiallari

http//www.arxiv.uz

http//www.ziyonet.uz

http//www.wikipedia.com

BADIIY TARJIMADA MADANIY SEMANTIKA VA PRAGMATIK YO‘QOTISHLAR: A.P.CHEXOVNING “QAYNONA” HIKOYASI MISOLIDA

Qoraboyev Azimjon Yoqubjonovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tarjima jarayonida yuzaga keladigan madaniy semantika va pragmatik yo‘qotishlar masalasi misollar asosida chuqur tahlil qilinadi. Tarjima nafaqat lingvistik belgilarni bir tildan ikkinchisiga o‘tkazish, balki ikki xil madaniyat, dunyoqarash va kommunikativ kontekst o‘rtasida vositachilik qilish san'atidir. Tahlil obyekti sifatida A.P. Chexov hikoyasining ruscha asli va uning o‘zbekcha tarjimasi tanlab olingan. Maqolada xususan, murojaat shakllari, madaniy realiyalar, frazeologik birliklar, emotsional-ekspressiv leksika, ijtimoiy-kommunikativ munosabatlar va kinoya kabi jihatlarning tarjimada aks etishi o‘rganiladi. Har bir misol asosida tarjimonning pragmatik moslashuv strategiyalari va bu jarayonda yuz beradigan ma'no hamda uslubiy boyliklarning qisman yo‘qotilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, madaniy semantika, pragmatika, realiyalar, murojaat shakllari, frazeologizmlar, kommunikativ kontekst, Chexov, lingvokulturologiya, tarjima transformatsiyalari*.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of cultural semantics and pragmatic losses in literary translation, based on examples. Translation is not merely the transfer of linguistic signs from one language to another, but an art of mediating between two different cultures, worldviews, and communicative contexts. A short story by A.P.Chekhov in its asl Russian and its Uzbek translation have been selected as the object of analysis. The article specifically examines the reflection of forms of address, cultural realities, phraseological units, emotional-expressive vocabulary, socio-communicative relations, and irony in translation. Based on each example, the translator's pragmatic adaptation strategies and the partial loss of meaning and stylistic richness occurring in this process are scientifically substantiated.

Keywords: *literary translation, cultural semantics, pragmatics, realia, forms of address, phraseological units, communicative context, Chekhov, linguoculturology, translation transformations.*

Kirish. Har qanday badiiy tarjima – bu asl matn bilan o‘quvchi o‘rtasidagi murakkab kommunikativ jarayondir. Tarjimon nafaqat so‘z va gaplarni, balki muallifning uslubi, qahramonlarning ruhiy holati, ijtimoiy muhit va eng muhimi, madaniy kodlarni ham qayta

yaratishi lozim. Bu jarayonda pragmatik ekvivalentlikka erishish asosiy vazifalardan biri bo‘lib, tarjimon «yashirin ma'nolarni sharhlovchi, madaniyatlararo vositachi» sifatida maydonga chiqadi .

Anton Pavlovich Chexov hikoyalari esa bunday tahlil uchun alohida ahamiyatga ega. Antuan de Sent-Ekzyuperi ta'biri bilan aytganda, Chexov «so‘zlarning tagidagi ma'noni» o‘qiy olgan adibdir. Uning qahramonlari nutqida har bir murojaat shakli, har bir xorijiy so‘z yoki ijtimoiy detal muhim semantik va pragmatik yuklamaga ega. Mazkur maqolada aynan shunday nozik jihatlarning o‘zbekcha tarjimada qay darajada aks etgani, qanday pragmatik yo‘qotishlar yuz bergani va tarjimon qanday strategiyalarni qo‘llagani misollar asosida ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism. **Murojaat shakllarining pragmatik talqini.** Asl matnda qaynona va kuyov o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasi murojaat shakllari orqali mohirona ifodalangan. Quyida to‘rtta muhim murojaat shakli tahlil qilinadi: “muttherhen”.

Aslida	“Чем могу быть полезен, муттерхен?”
Tarjima	“Xizmatingizga tayyorman, ona!”
Izoh	“Muttherhen” – nemischa “ona” so‘zining kichraytirish shakli. Bu murojaat bir necha pragmatik vazifani bajaradi: 1) Nemis tilining qo‘llanishi orqali qahramonning ma'lum ijtimoiy qatlamga (ziyolilar, dvoryanlar) mansubligi ko‘rsatilgan. 2) “Hen” qo‘shimchasi orqali erkalash, iliqlik ifodasi berilgan. 3) Biroq bu iliqlik kinoyali ohangga ega – kuyov qaynonaga “onajon” deb murojaat qilsa-da, keyingi gaplarida uning fikriga qat'iy qarshi chiqadi.
Yo‘qotish	Tarjimada “ona” so‘zi umumiy va betaraf. Nemischa so‘z orqali berilgan ijtimoiy mavqe, kinoyali erkalash va qahramonning nutqiy xarakteristikasi butunlay yo‘qolgan.
«mon petit»	
Aslida	“Я давно уже собираюсь поговорить с вами, mon petit...”
Tarjima	“Men ko‘pdan beri siz bilan so‘zlashmoqchi bo‘lib yurgan edim, o‘g‘lim.”

Izoh	«Mon petit» (fransuzcha – kichkina, kichkintoyim) – bu murojaat orqali qaynona bir vaqtning o‘zida ikkita maqsadni ko‘zlaydi: 1) Kuyoviga nisbatan o‘zining «katta» va hurmatga loyiqlik mavqeini mustahkamlash. 2) Fransuz tilini qo‘llash orqali o‘zining «madaniyligi» va «aristokratik» kelib chiqishini namoyish qilish. XIX asr rus zodagonlari orasida fransuz tilida gapirish yuqori madaniy darajaning belgisi hisoblangan.
Yo‘qotish	«O‘g‘lim» – o‘zbek madaniyatiga xos samimiy va hurmatli murojaat. Biroq asldagi frantsuz tilining pragmatik ma'nosi (snobizm, sun'iylik, yuqori tabaqaga mansublik) yo‘qolgan.

«mon ange»

Aslida	«Но для чего, mon ange, крайности?»
Tarjima	«Lekin farishtam, bunchalik haddan oshirishning nima hojati bor?
Izoh	«Mon ange» (fransuzcha – farishtam) – bu erkalash shakli. Ammo kontekstda bu erkalash kinoyali ohangga ega. Qaynona bir tomondan erkalab murojaat qilsa, ikkinchi tomondan kuyovini «haddan oshirishda» ayblayapti. Bu murojaat va ayblov o‘rtasidagi ziddiyat qaynona nutqining ikkiyuzlamachilik ruhini ochib beradi.
Yo‘qotish	«Farishtam» so‘zi semantik jihatdan to‘g‘ri tarjima qilingan. Ammo aslidagi fransuz tili orqali berilgan madaniy kontekst va erkalash bilan ayblov o‘rtasidagi ziddiyatning keskinligi biroz yumshagan.

«ma chère»

Aslida	«Нет, ma chère! Ей противно ваше безделье!»
Tarjima	«Yo‘q, onajon! Sizlarning takasaltangligingizni u xushlamabdi!»
Izoh	«Ma chère» (fransuzcha – azizim, jonim) – bu murojaat odatda ayollar o‘rtasida ishlatiladi. Kuyovning qaynonasiga «ma chère» deb murojaat

	qilishi – bu nozik kinoya. U qaynonasini «ayollar dunyosi»ga xos murojaat bilan chaqirib, uning fikrlari to‘g‘ri va mantiqiy emasligiga ishora qiladi.
Yo‘qotish	«Onajon» – hurmat ifodalovchi murojaat, ammo aslidagi fransuz tili orqali berilgan kinoya va murojaatning o‘ta nozik kinoya ekanligi, gender xosligi yo‘qolgan.

2.2. Ijtimoiy-madaniy realiyalar tarjimasi

Matnda bir qancha muhim madaniy realiyalar uchraydi. Ularning har biri o‘ziga xos pragmatik yuklamaga ega.

«шляпа»

Aslida	«Когда Мишель выпил свой утренний кофе и стал искать глазами шляпу...»
Tarjima	«Mishel ertalabki qahvani ichib, ishiga ketmoqchi bo‘lib, shlyapasini qidirayotgan chog‘da...»
Izoh	Rus madaniyatida XIX asr oxirida shlyapa – bu nafaqat bosh kiyimi, balki muhim ijtimoiy ramzdir. Shlyapa – «jamoat oldiga chiqish», «xizmatga borish», ya'ni erkakning ijtimoiy hayotdagi faoliyatining belgisi. Birgina «shlyapa izlash» detali orqali Chexov qahramonining kundalik tartibi, kasbi (xizmatchi) va ijtimoiy mavqeini ko‘rsatib beradi.
Yo‘qotish	Tarjimada «шляпа» so‘zi «шляпа» deb o‘z holicha qoldirilgan. Garchi bu so‘z o‘zbek o‘quvchisiga tanish bo‘lsa-da, aslidagi ramziy ma'no (ijtimoiy faoliyat ramzi) ikkinchi planga tushib qolgan. Chunki o‘zbek madaniyatida shlyapa bunday ramziy ma'noga ega emas.

«jour fixe»

Aslida	«...поедем сегодня на jour fixe к Марье Петровне!..»
Tarjima	«...Bugun Mariya Petrovnanikiga mehmonga boraylik.»
Izoh	«Jour fixe» (fransuzchadan – belgilangan kun) – o‘sha davr rus zodagonlari orasida haftaning ma'lum bir kunida uyushtiriladigan ochiq mehmon

	kunlari. Bu realiya orqali Chexov Lizaning asl tabiati – zodagonlar hayotiga, ko‘ngilochar tadbirlarga bo‘lgan muhabbatini ochib beradi. Liza «jour fixe»ga borishni so‘rash orqali o‘zining «haqiqiy» yuzini namoyish qiladi.
Yo‘qotish	«Mehmonga boraylik» – umumiy ifoda. Aslidagi «jour fixe»ning aniqligi, uning davriyligi (har hafta belgilangan kun), zodagonlar turmush tarziga xosligi va fransuz tilining madaniy konnotatsiyasi yo‘qolgan.
«служба»	
Aslida	«...чтобы ретироваться на службу...»
Tarjima	«...ishiga ketmoqchi bo‘lib...»
Izoh	«Служба» so‘zi rus madaniyatida alohida ma'noga ega. Bu oddiy «ish» emas, balki «davlat xizmati», «chinovniklik» ma'nosini anglatadi. Chexov davrida «slujba» – bu ma'lum ijtimoiy mavqe, daraja, unvon bilan bog‘liq tushuncha. Mishelning «slujba»ga borishi uning chinovnik ekanligini, demak, ma'lum ijtimoiy qatlamga mansubligini ko‘rsatadi.
Yo‘qotish	«Ish» – umumiy tushuncha. Aslidagi ijtimoiy mavqe va davlat xizmati bilan bog‘liq ma'no yo‘qolgan.
«журналы»	
Aslida	«...читает эти глупые журналы!»
Tarjima	«...bemani jurnallarni o‘qiydi!»
Izoh	XIX asr rus madaniyatida «журналы» (jurnallar) so‘zi alohida ahamiyatga ega. Bu davrda jurnallar – ilg‘or fikrlarning, demokratik g‘oyalarning, adabiy-siyosiy munozaralarning asosiy maydoni edi. Qaynona «jurnallar»ni «ahmoq» deb atash orqali butun bir yangicha fikrlash tarzini, yangi avlodni va ularning qadriyatlarini mensimasligini ifodalaydi.

Yo‘qotish	«Jurnal» so‘zi o‘zbek tilida ham mavjud. Biroq aslidagi «jurnallar»ning rus jamiyatidagi o‘ziga xos madaniy-tarixiy konteksti (60-80-yillar demokratik harakati, «qalin jurnallar» davri) o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarsiz bo‘lib qoladi.

2.3. Frazeologik birliklar va emotsional-ekspressivlik

Chexov tilining boyligi frazeologik birliklar va obrazli iboralarda namoyon bo‘ladi.

«сделал большие глаза»

Aslida	«Зять сделал большие глаза.»
Tarjima	«Kuyov baqrayib qoldi.»
Izoh	«Сделать большие глаза» – rus frazeologizmi. So‘zma-so‘z «katta ko‘zlar yasamoq». Bu ibora hayrat, ajablanish, tushunmovchilik yoki go‘yo tushunmayotgandek bo‘lishni ifodalaydi. Matnda Mishel qaynonaning ayblovlarini eshitib, chin dildan hayratda qoladi – u Liza bilan munosabatlarini butunlay boshqacha tushungan edi.
Yo‘qotish	«Baqrayib qolmoq» – o‘zbek tilida hayrat va ajablanishni ifodalaydi. Biroq asl frazeologizmning obrazliligi («ko‘z yasash» harakati) va yengil kinoyali ohangi to‘liq saqlanmagan.

«плоть и кровь»

Aslida	«Она моя плоть и кровь!»
Tarjima	«U mening jon-u tanim axir!»
Izoh	«Плоть и кровь» (so‘zma-so‘z: et va qon) – Bibliyadan kirib kelgan frazeologizm. Bu ibora orqali qaynona nafaqat biologik qarindoshlikni, balki Lizaning o‘zining bir qismi ekanligini, uning ustidan huquqi borligini ta'kidlaydi. Bu ibora qaynonaning Lizaga bo‘lgan egalik munosabatini kuchaytiradi.

Yo‘qotish	«Jon-u tanim» – o‘zbek tilida ham kuchli emotsional ifoda. Biroq aslidagi Bibliyaga oid konnotatsiya va «et» (jismoniylik) va «qon» (nasl) orqali berilgan qadimiy ramziy ma'no yo‘qolgan.

«как щепка»

Aslida	«...а она уже похожа у вас на щепку!»
Tarjima	«...ozib, chopday bo‘lib qoldi-ya!»
Izoh	«Как щепка» (so‘zma-so‘z: mayda cho‘pdek) – rus tilida ozg‘inlikni ifodalovchi obrazli taqqoslash. «Щепка» – mayda, yupqa yog‘och parchasi. Bu taqqoslash orqali qaynona Lizaning haddan tashqari ozib ketganini, hatto jismonan zaiflashganini dramatik tarzda ifodalaydi.
Yo‘qotish	«Cho‘pday» – o‘zbek tilida ham ozg‘inlikni ifodalaydi («cho‘p» – quruq o‘t, poxol). Ammo asldagi «yog‘och parchasi» obrazining aniqligi va «щепка» so‘zining kundalik hayotdagi ishlatilish doirasi yo‘qolgan.

«хомут надеть»

Aslida	«Не будь меня, вы бы на нее хомут надели, милостивый государь!»
Tarjima	«Men bo‘lmasam, siz unga bo‘yinturuq kiydirardingiz, afandim!»
Izoh	«Хомут надеть»– ot-abzaliga oid bu ibora ko‘chma ma'noda «bo‘ysundirmoq», «og‘ir mehnatga solmoq», «erkinlikdan mahrum qilmoq» ma'nolarini anglatadi. Qaynona bu ibora orqali kuyovini Lizani «otdek ishlatmoqchilikda» ayblaydi. «Милостивый государь» – rasmiy va kinoyali murojaat.
Yo‘qotish	«Bo‘yinturuq kiydirmoq» – o‘zbek tilida ham mavjud ibora. Biroq asldagi «xomut»ning dehqonchilik hayotiga oid aniqligi va «Милостивый государь» orqali berilgan rasmiy-kinoyali ohang yo‘qolgan.

2.4. Kommunikativ kontekst va nutq

Pragmatika nuqtai nazaridan eng muhim jihat – bu personajlarning nutq aktlari va ularning tagidagi ma'nolar.

Lizaning iqror bo‘lishi

Aslida	«Тогда я боялась, что ты на мне не женишься...»
Tarjima	«O‘sha vaqtlarda, aytsam meni olmaysan, deb qo‘rqqan edim...»
Izoh	Bu iqror bo‘lish bir vaqtning o‘zida bir necha pragmatik vazifani bajaradi: 1) Bu Liza o‘zining «haqiqiy» yuzini ochib berayotgan kulminatsion nuqta. 2) Bu uning eriga nisbatan manipulyatsiyasi (avval «men sening g‘oyalaringni yaxshi ko‘raman» deb ko‘rsatib, keyin «men seni yo‘qotishdan qo‘rqardim» deb haqiqatni tan olishi). 3) Bu butun bir ijtimoiy tanqid – nikoh bozorida ayolning o‘zini tutish strategiyasi.
Yo‘qotish	Tarjima umumiy ma'noni to‘g‘ri yetkazgan. Biroq Liza nutqidagi stilistik noziklik – erining oldida o‘zini oqlash va bir vaqtning o‘zida ayblash ohangi – to‘liq saqlanmagan. Aslda Liza «Тогда я боялась» (o‘shanda men qo‘rqqandim) deyish orqali o‘zining o‘tmishdagi xatti-harakatini hozirgi zamondan ajratadi va bu orqali o‘zini oqlashga urinadi.

Misol №14: «Ты слышала?»

Aslida	«Ты слышала? Так скажи же ей! Пусть поймет свою дочь!»
Tarjima	«Eshitdingmi? Qani tushuntir bo‘lmasa, onang qizi kim ekanini bilib qo‘ysin!»
Izoh	Mishelning bu so‘zlari bir necha pragmatik qatlamga ega: 1) U Liza eshik oldida turganini ko‘rgach, undan yordam so‘raydi – u Liza o‘z tarafini oladi deb o‘ylaydi. 2) «Пусть поймет свою дочь» (qizini tushunsin) deyish orqali u Liza bilan o‘zini bir tomonga qo‘yadi. 3) Bu so‘zlar Mishelning ishonchi va umidini ifodalaydi, keyingi sahnalashgan voqea esa bu ishonchning qanchalik noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatadi.
Yo‘qotish	Tarjimada umumiy ma'no saqlangan. Biroq «Пусть поймет свою дочь» jumlasidagi «o‘z qizi» (свою дочь) birikmasi orqali berilgan egalik ma'nosi

va Mishelning Liza bilan qaynona o‘rtasidagi munosabatga «tashqaridan» qarashi kabi nozikliklar yo‘qolgan.

«Кто дурак?»

Aslida	«— Ах ты, дурак! — простонал Мишель. — Кто дурак? — спросила Лиза.»
Tarjima	«—Ey, ahmoq! — dedi Mishel nafas olmay. — Kim ahmoq? — dedi Liza.»
Izoh	Bu dialogda Mishel o‘z-o‘zini «ahmoq» deb ataydi (u noto‘g‘ri odamga ishongani, Liza haqida adashgani uchun). Liza esa bu so‘zni eshitib, uni o‘ziga nisbatan aytilgan deb o‘ylaydi va «Кто дурак?» (kim ahmoq?) deb so‘raydi. Bu qisqa dialog orqali Chexov ikki qahramon o‘rtasidagi tushunmovchilikni, Liza o‘z erining ichki kechinmalarini umuman anglamasligini ko‘rsatadi.
Yo‘qotish	Tarjimada so‘zlar to‘g‘ri tarjima qilingan. Biroq asldagi «Ах ты, дурак!» iborasining o‘z-o‘ziga nisbatan ishlatilgani va Liza buni tushunmay qolgani kabi pragmatik noziklik tarjimada o‘quvchi tomonidan kontekstdan anglanishi kerak.

2.5. Madaniy semantika va milliy mentalitet

Tarjima jarayonida yuz beradigan eng katta yo‘qotishlardan biri – bu milliy mentalitet va dunyoqarash farqlaridir.

«тиран, деспот»

Aslida	«Вы тиран, деспот!»
Tarjima	«Siz rahmsiz, zolimsiz!»
Izoh	«Тиран» va «деспот» so‘zlari antik davrdan kelgan siyosiy atamalar bo‘lib, ularni qo‘llash orqali qaynona vaziyatni atayin bo‘rttirib, dramatiklashtirishga urinadi. Bu so‘zlar «shafqatsiz hukmdor», «mustabid» ma'nolarini anglatadi. Qaynona kuyovini «tiran» deb atash orqali uni butun bir siyosiy tizim bilan, zolim hukmdorlar bilan qiyoslaydi.

Yo‘qotish	«Rahmsiz» va «zolim» so‘zlari umumiy ma'noda salbiy xususiyatlarni ifodalasa-da, asldagi siyosiy-falsafiy konnotatsiyaga (antik davr, zolim hokimiyat) ega emas.

«кротка и нема»

Aslida	«Неужели вы не видите, как она кротка и нема?»
Tarjima	«Siz hali uning ko‘ngilchanglik qilayotganini, dami ichida ekanini bilmas ekansizda?»
Izoh	«Кротка и нема» (so‘zma-so‘z: yumshoq va soqov) – bu ibora rus madaniyatida ideal ayol obraziga ishoradir. Patriarxal rus jamiyatida ayolning «yumshoq, kamgap va itoatkor» bo‘lishi fazilat hisoblangan. Qaynona bu iborani ishlatish orqali Liza ana shunday an'anaviy ayol obraziga mos kelishini, kuyov esa buni qadrlamayotganini aytadi.
Yo‘qotish	«Ko‘ngilchan» va «dami ichida» – bu ifodalar Liza holatini to‘g‘ri tasvirlaydi. Biroq asldagi an'anaviy rus ayol ideali bilan bog‘liq madaniy kontekst yo‘qolgan.

«Любовь связала ей язык»

Aslida	«Любовь связала ей язык!»
Tarjima	«Muhabbat uning tilini bog‘lab qo‘ygan!»
Izoh	Bu ibora orqali qaynona Liza indamasligining sababini «muhabbat» bilan izohlaydi. Ya'ni, Liza erini juda yaxshi ko‘rgani uchun unga qarshi chiqa olmaydi, o‘z fikrini ayta olmaydi. Bu izoh orqali qaynona bir tomondan qizini oqlaydi, ikkinchi tomondan esa kuyovining «zolim»ligini yana bir bor ta'kidlaydi.
Yo‘qotish	«Tilini bog‘lab qo‘ymoq» – o‘zbek tilida ham mavjud ibora. Biroq asldagi «связала» (bog‘lamoq, tugmoq) fe'lining obrazliligi va «muhabbat»ning bir kuch sifatida tasvirlanishi to‘liq saqlangan. Bu misol nisbatan muvaffaqiyatli tarjima deb hisoblanishi mumkin.

2.6. Kinoya va yashirin ma’nolar talqini

Chexov uslubining asosiy xususiyati – kinoya va yashirin ma'nolardan mohirona foydalanishdir.

«Мы не зять и не теща, а умные люди»

Aslida	«Мы не зять и не теща, а умные люди...»
Tarjima	«Biz qaynona-yu kuyov emas, aqlli odamlarmiz...»
Izoh	Qaynonaning bu so‘zlari chuqur kinoya bilan to‘la. U «kuyov va qaynona» stereotipik munosabatlarini (ular doim janjallashadi, bir-birini yoqtirmaydi) eslatib, o‘zlari «bundan mustasno», «aqlli odamlar» ekanliklarini ta'kidlaydi. Biroq butun suhbat davomida aynan shu stereotipik munosabatlar namoyon bo‘ladi. Ya'ni, qaynona aytgan so‘zining aksi bilan harakat qiladi.
Yo‘qotish	Tarjimada so‘zlar to‘g‘ri berilgan. Biroq asldagi kinoyaning ikki qatlamliligi – qaynona aytgan gap va uning harakatlari o‘rtasidagi ziddiyat – o‘quvchi tomonidan kontekstdan anglanishi kerak.

«Она умолила меня поговорить с вами!»

Aslida	«Она умолила меня поговорить с вами!»
Tarjima	«U, siz bilan gaplashib ko‘ring, deb yalinib kelgandi!»
Izoh	Qaynona bu so‘zni aytganda, u Liza uning orqasida turganini bilmaydi. Bu so‘z orqali u o‘zining «vositachilik» rolini oqlashga, hatto bu suhbatni Liza o‘zi so‘raganligini ta'kidlashga urinadi. Biroq eshik ochilgach, Liza haqiqatan ham azob chekayotgani ma'lum bo‘ladi va qaynonaning bu so‘zi yolg‘on emas, balki haqiqat ekani ochiladi.
Yo‘qotish	Tarjimada ma'no to‘g‘ri berilgan. Biroq asldagi «умолила» (so‘zma-so‘z: yolvordi, o‘tindi) fe'lining kuchli emotsional bo‘yoqi saqlangan. Bu misol nisbatan muvaffaqiyatli tarjima.

«Ну, вот видите! Теперь убедились?»

Jihat	Tahlil
Aslida	«Ну, вот видите! Теперь убедились?»
Tarjima	«Mana ko‘rdingizmi! Endi ishongandirsiz!»
Izoh	Qaynonaning bu so‘zlari – uning g‘alabasi, zafarli nidosi. U butun suhbat davomida o‘zini «haq» deb hisoblagan va nihoyat, Liza uning so‘zlarini tasdiqlagach, Mishelga «mana ko‘rdingmi, men to‘g‘ri aytdim» degan ma'noda murojaat qiladi. Bu so‘zlarda bir oz kekkayish, g‘ururlanish va hatto masxara ohangi bor.
Yo‘qotish	Tarjimada «Mana ko‘rdingizmi» va «endi ishongandirsiz» orqali qaynonaning g‘alabasi va ishonchi ifodalangan. Biroq asldagi «ну, вот видите!» iborasining kundalik nutqqa xosligi va «теперь убедились?» so‘rog‘idagi biroz masxara ohangi to‘liq saqlanmagan.

3. Tarjima transformatsiyalari tahlili (umumiy jadval)

Quyidagi jadvalda yuqorida tahlil qilingan misollardagi tarjima transformatsiyalari va pragmatik yo‘qotishlar darajasi umumlashtirilgan:

Misol	Asl element	Tarjima varianti	Transformatsiya turi	Pragmatik yo‘qotish darajasi
№1	muttherhen	Ona	madaniy moslashuv	Yuqori
№2	mon petit	o‘g‘lim	madaniy moslashuv	Yuqori
№3	mon ange	Farishtam	so‘zma-so‘z tarjima	O‘rta
№4	ma chère	Onajon	madaniy moslashuv	O‘rta

Misol	Asl element	Tarjima varianti	Transformatsiya turi	Pragmatik yo‘qotish darajasi
№5	шляпа	Shlyapa	transliteratsiya	Past
№6	jour fixe	mehmonga boraylik	umumlashtirish	Yuqori
№7	служба	Ish	umumlashtirish	O‘rta
№8	журналы	Jurnallar	transliteratsiya	Past
№9	сделал большие глаза	baqrayib qoldi	frazeologik moslashuv	O‘rta
№10	плоть и кровь	jon-u tanim	frazeologik moslashuv	O‘rta
№11	как щепка	cho‘pday	obrazli moslashuv	Past
№12	хомут надеть	Bo‘yinturuq kiydirmoq	frazeologik moslashuv	Past
№13	Тогда я боялась...	O‘sha vaqtlarda...	semantik tarjima	Past
№14	Ты слышала?	Eshitdingmi?	semantik tarjima	Past
№15	Кто дурак?	Kim ahmoq?	semantik tarjima	Past

Misol	Asl element	Tarjima varianti	Transformatsiya turi	Pragmatik yo‘qotish darajasi
№16	тиран, деспот	rahmsiz, zolim	semantik moslashuv	O‘rta
№17	кротка и нема	Ko‘ngilchan, dami ichida	semantik moslashuv	O‘rta
№18	Любовь связала ей язык	Muhabbat uning tilini bog‘lab qo‘ygan	frazeologik moslashuv	Past
№19	Мы не зять и не теща...	Biz qaynona-yu kuyov emas...	semantik tarjima	Past
№20	Она умолила меня...	U yalinib kelgandi...	semantik tarjima	Past
№21	Ну, вот видите!	Mana ko‘rdingizmi!	semantik tarjima	Past

4. Xulosa. Chexov hikoyasining o‘zbekcha tarjimasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, badiiy tarjima – bu nafaqat tillar, balki madaniyatlar, dunyoqarashlar va tarixiy davrlar o‘rtasidagi murakkab muloqotdir. Tarjimon 21 ta tahlil qilingan misoldan 8 tasida yuqori yoki o‘rtacha darajadagi pragmatik yo‘qotishlarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, 13 ta misolda nisbatan muvaffaqiyatli tarjima qilgan.

Quyidagi asosiy yo‘qotishlar kuzatildi:

1. **Murojaat shakllaridagi stilistik va ijtimoiy konnotatsiyalar** – fransuz va nemis tilidagi murojaatlarning madaniy ma'nosi yo‘qolgan.

2. **Madaniy realiyalarning aniqligi** – «jour fixe», «slujba» kabi realiyalar umumlashtirib berilgan.
3. **Frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi** – ba'zi obrazli iboralar soddalashtirilgan.
4. **Ayrim ijtimoiy ziddiyatlarning tag ma'nosi** – «tiran, despot», «jurnallar» kabi tushunchalar orqali berilgan ijtimoiy tanqid to‘liq aks ettirilmagan.
5. **Kinoyaning nozik qatlamlari** – ba'zi kinoyali ifodalar tarjimada o‘z kuchini yo‘qotgan.

Tarjimon tomonidan qo‘llangan asosiy strategiyalar:

- **Madaniy moslashuv** – xorijiy murojaatlarni o‘zbek madaniyatiga moslashtirish.
- **Umumlashtirish** – aniq realiyalarni umumiy tushunchalar bilan almashtirish.
- **Frazeologik moslashuv** – rus frazeologizmlariga o‘zbek tilidan mos ekvivalent topish.
- **Semantik tarjima** – ma’noni to‘g‘ridan-to‘g‘ri berish.

Bu strategiyalar matnni o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli qilgan, biroq asl matnning bir qancha muhim pragmatik qatlamlarini soddalashtirishga olib kelgan.

5. Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чехов, А.П. Теща-адвокат [Электронный ресурс] / А.П. Чехов. - Москва : Инфра-М, 2015. - 3 с. - Текст : электронный. - URL: https://znanium.com/catalog/product/517623
2. Buqalamun: hikoyalar. / Anton Chexov. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 296 b.
3. Komissarov, V.N. (1990). Теория перевода (лингвистические аспекты). Moskva: Visshaya shkola.
4. Shveytser, A.D. (1988). Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. Moskva: Nauka.
5. Vinogradov, V.S. (2001). Введение в переводоведение. Moskva: Izdatelstvo instituta obshchego srednego obrazovaniya.

PRAGMATONIMLARNI TADQIQ ETISHDA INTEGRATIV (KOMPLEKS) METODOLOGIK YONDASHUV

Madrimova Zamira G‘aniy qizi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti, tadqiqotchi
zamiramadrimova95@mail.com

Annotatsiya. Maqolada pragmatonimlarni tadqiq etishda integrativ (kompleks) metodologik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari yoritildi. Pragmatonimlar til, ong, madaniyat, jamiyat va bozor kommunikatsiyasi kesishmasida shakllanuvchi ko‘p o‘lchovli fenomen sifatida talqin qilindi. Tadqiqot doirasida strukturaviy-semantik, funksional-pragmatik, kognitiv-psixolingvistik, sotsiolingvistik, marketing-brending, huquqiy hamda korpus-empirik komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asosda ochib berildi. 1087 ta pragmatonimdan iborat empirik material asosida olingan xulosalarning ilmiy asoslanganligi va verifikatsiya qilinganligi ta’kidlandi. Taklif etilgan metodologik model pragmatonimlarni alohida-alohida emas, balki tizimli va dinamik hodisa sifatida tahlil qilish imkonini berishi ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: *pragmatonim, integrativ yondashuv, metodologiya, funksional-pragmatik tahlil, kognitiv model, sotsiolingvistika, brending, empirik tadqiqot, nominatsiya.*

Annotation. The article examined the theoretical and methodological foundations of an integrative (complex) approach to the study of pragmatonyms. Pragmatonyms were conceptualized as a multidimensional phenomenon formed at the intersection of language, cognition, culture, society, and market communication. The study substantiated the interrelation of structural-semantic, functional-pragmatic, cognitive-psycholinguistic, sociolinguistic, marketing and branding, legal, and corpus-empirical components. Based on an empirical corpus of 1087 pragmatonyms, the scientific validity and verification of the research findings were emphasized. The proposed methodological model demonstrated the possibility of analyzing pragmatonyms not as isolated units but as a systematic and dynamic phenomenon.

Keywords: *pragmatonym, integrative approach, methodology, functional pragmatics, cognitive model, sociolinguistics, branding, empirical research, nomination.*

So‘nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda pragmatonimlar tobora murakkab va ko‘p qatlamli kommunikativ hodisa sifatida e’tirof etilmoqda. Ular nafaqat nominativ birlik, balki madaniy belgi, ijtimoiy indikator, iqtisodiy resurs hamda kommunikativ strategiya elementi

sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois pragmatonimlarni faqat bitta metodologik yondashuv doirasida tahlil qilish obyektning ontologik tabiatini to‘liq ochib bera olmaydi. Bu holat ularni kompleks, ya’ni integrativ yondashuv asosida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi [Fabiszak et al., 2016:371].

Integrativ metodologik yondashuv pragmatonimlarni til, ong, madaniyat, jamiyat va bozor o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir doirasida shakllanuvchi fenomen sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi [Li & Shooshtari, 2003:5]. Bunday yondashuv tadqiqotning nazariy chuqurligini ta’minlash bilan birga, empirik material asosida xulosalarning ishonchliligini ham mustahkamlaydi.

Integrativ metodologiya zamonaviy ilmiy bilishning metodologik pluralizm, fanlararo integratsiya, tizimlilik, holistiklik hamda empirik verifikatsiya kabi fundamental tamoyillariga tayanadi. Metodologik pluralizm obyektni turli nazariy paradigmalar doirasida talqin etish imkonini beradi. Fanlararo integratsiya esa lingvistika, psixologiya, sotsiologiya, marketing va madaniyatshunoslik sohalariga xos tushuncha va metodlarni konseptual sintez asosida uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Triangulyatsiya – turli manbalar, metodlar va kuzatuv kanallari orqali olingan natijalarni o‘zaro tekshirishdir [Papadopoulou et al., 2024:1145]; **tizimlilik va holistiklik** – pragmatonimlarni fragmentar emas, balki yaxlit semantik-pragmatik tizim sifatida talqin qilish hisoblanadi; **empirik verifikatsiya** – nazariy xulosalarni real material asosida tasdiqlashni anglatadi.

Mazkur tamoyillar pragmatonimlarni alohida til birligi sifatida emas, balki murakkab semantik-pragmatik tizim sifatida tahlil qilish imkonini yaratadi [McEnery & Hardie, 2012:1]. Natijada tadqiqot obyektining ichki tuzilishi, funksional salohiyati hamda ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o‘rni yaxlit tarzda yoritiladi.

Integrativ model pragmatonimlarni **til – ong – madaniyat – jamiyat – bozor – kommunikatsiya** kesishmasida joylashgan ko‘p o‘lchovli fenomen sifatida talqin etadi. Ular semantik jihatdan baholovchi ma’nolarni tashuvchi belgi, pragmatik jihatdan kommunikativ ta’sir vositasi, kognitiv jihatdan konseptual strukturalarni faollashtiruvchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi [Lakoff & Johnson, 1980:3].

Shu bilan birga, pragmatonimlar madaniy jihatdan kollektiv xotira va identitet ko‘rsatkichi, iqtisodiy jihatdan brend kapitalini shakllantiruvchi resurs [Aaker, 1996:68], huquqiy jihatdan esa intellektual mulk obyektidir [Keller, 2013:283].

Bunday ko‘p qirrali talqin pragmatonimlarni oddiy nominatsiya mahsuli sifatida emas, balki murakkab kommunikativ hodisa sifatida ilmiy asosda yoritish imkonini beradi [Van Langendonck, 2007:95].

Ushbu komponent pragmatonimlarning ichki lisoniy tuzilishini ochib berishga qaratilgan. So‘z yasalish modellari va nomlash mexanizmlari, nominativ motivatsiya turlari [Van Langendonck, 2007:103], fonosemantik va grafosemantik xususiyatlar, metaforik va metonimik mexanizmlar [Lakoff & Johnson, 1980:35] hamda semantik maydon va aksiologik yuk kabi parametrlar pragmatonimlarning formal-semantik tabiatini chuqurroq ochib beradi.

Funksional-pragmatik komponent pragmatonimlarning kommunikativ samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, nomning iste’molchi ongiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini ko‘rsatadi. Ushbu komponent doirasida pragmatonimlarning identifikatsiya, informativlik, persuaziya (ishontirish va emotsional ta’sir), fatik yaqinlik yaratish hamda madaniy rezonans hosil qilish kabi asosiy funksiyalari aniqlanadi va izchil tavsiflanadi.

Mazkur funksiyalar pragmatonimni oddiy nominativ birlik doirasidan chiqarib, uni kommunikativ strategiya elementi sifatida talqin etish imkonini beradi. Xususan, oziq-ovqat sohasida qo‘llanilayotgan “*VOLIDAM*” (emotsional yaqinlik + milliy identitet), “*BARAKA*” (diniy-madaniy konnotatsiya, “*O‘ZBEGIM*” (milliy o‘zlikni anglash) kabi pragmatonimlar kuchli emotsional va aksiologik potentsialga ega bo‘lib, iste’molchi ongida ijobiy assotsiatsiyalarni faollashtiradi hamda barqaror kommunikativ effekt yuzaga keltiradi [Keller, 2013:72].

Ushbu yo‘nalishda pragmatonimlarning inson ongida qanday konseptual strukturalar orqali idrok etilishi izohlanadi. Konseptual metafora [Lakoff & Johnson, 1980:5], freym va skript [Fillmore, 1982:111], prototipik struktura [Rosch, 1975:192], assotsiativ tarmoq hamda emotsional baholash mexanizmlari pragmatonimlarning esda qolishi, jozibadorligi va tanlov jarayoniga ta’sirini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pragmatonimlar ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi [Li & Shooshtari, 2003:8]. Til tanlovi va til mafkurasi, ko‘p tillilik va identifikatsiya, ijtimoiy stratifikatsiya, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy kodlar pragmatonim semantikasining shakllanishida muhim omillardir. “*TURKISTON*”, “*XORAZM*”, “*TURON*” kabi nomlar milliy madaniy assotsiatsiyalarni faollashtiruvchi birliklar hisoblanadi. Ular tarixiy xotira (“*TURON*” – qadimgi turkiy xalqlar birligi konsepti), geografik identifikatsiya (“*XORAZM*” – viloyat va tarixiy hudud) va madaniy merosni (“*TURKISTON*” – Markaziy Osiyoning madaniy markazi) o‘zida mujassamlashtiradi.

Sotsiolingvistik stratifikatsiya jihatidan ommaviy segment (“*MILLIY*”, “*OILAVIY*”, “*BAZAR*” – oddiy, tushunarli nomlar); o‘rta segment (“*TILLO DOMOR*”, “*MUSAFFO*”, “*CLASSIC*” – sifat ta’kidlash); premium segment (“*ROYAL*”, “*SULTAN*”, “*KOHINOOR*”, “*SHOHONA*” – hashamat va eksklyuzivlik) farqlanadi. Mazkur segmentatsiya pragmatonimlarning ijtimoiy adresatga yo‘naltirilganligini, iste’molchi identiteti va maqomini lingvistik vositalar orqali kodlashini yaqqol namoyon etadi.

Marketing nuqtayi nazaridan pragmatonimlar brend identitetining markaziy elementi bo‘lib [Aaker, 1996:68], pozitsiyalash [Keller, 2013:135], differensiatsiya, brend kapitali, emotsional bog‘lanish va iste’molchi sodiqligi kabi tushunchalar pragmatonimlarning marketing samaradorligini tushuntirishda asosiy kategoriyalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Pragmatonimlarning savdo belgisi sifatidagi maqomi integrativ modelning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Intellektual mulk, savdo belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish, nominativ kolliziyalar hamda huquqiy javobgarlik masalalari ushbu komponent doirasida ilmiy asosda izohlanadi. Xususan, empirik kuzatuvlarda “*BARAKA*” nomi 5 ta har xil turdagi mahsulot kategoriyasida (un, yog‘, tuz, kolbasa, go‘sht) turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo‘llanilishi kuzatilgan. “*MILLIY*”, “*OILAVIY*”, “*TABIIY*” kabi generik nomlarning haddan tashqari ko‘p ishlatilishi brend differensiatsiyasini qiyinlashtiradi.

Tadqiqotning empirik asosini 1087 ta pragmatonimdan iborat material tashkil etadi. Ushbu material asosida o‘tkazilgan miqdoriy va sifat tahlillar [McEnery & Hardie, 2012:6], qiyosiy kuzatuvlar, diaxronik tendentsiyalar hamda umumlashtirishlar xulosalarning empirik asoslanganligini ta’minlaydi hamda tadqiqotning ilmiy ishonchliligi va verifikatsiya darajasini mustahkamlaydi [Papadopoulou et al., 2024:1150].

Integrativ metodologik yondashuv pragmatonimlarni fragmentar hodisa sifatida emas, balki ko‘p o‘lchovli, tizimli va dinamik fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi [Fabiszak et al., 2016:381]. Ushbu yondashuv tadqiqotning nazariy chuqurligini oshiradi, natijalarning ilmiy yangiligini ta’minlaydi hamda pragmatonimshunoslikni mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida metodologik jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi [Van Langendonck, 2007:211].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aaker, D. A. (1996). *Building Strong Brands*. New York: Free Press, 380 p. ISBN: 978-0-02-900151-3.
2. Fabiszak, M., Hilpert, M., & Krawczak, K. (2016). Usage-based cognitive-functional linguistics: From theory to method and back again. *Folia Linguistica*, 50(2), 371–396. DOI: 10.1515/FLIN-2016-0013. URL: https://doi.org/10.1515/FLIN-2016-0013

3. Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In: *Linguistics in the Morning Calm*. Seoul: Hanshin Publishing Co., pp. 111–137.
4. Keller, K. L. (2013). *Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity*. 4th ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson, 640 p. ISBN: 978-0-13-266425-7.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 242 p. ISBN: 0-226-46801-1.
6. Li, F., & Shooshtari, N. H. (2003). Brand naming in China: Sociolinguistic implications. *The Multinational Business Review*, 11(3), 3–21. DOI: 10.1108/1525383X200300014. URL: https://doi.org/10.1108/1525383X200300014
7. McEnery, T., & Hardie, A. (2012). *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*. Cambridge: Cambridge University Press, 292 p. ISBN: 978-0-521-54962-3.
8. Papadopoulou, D., Amvrazis, N., Douka, G., & Tantos, A. (2024). Triangulating learner corpus and experimental data: Converging evidence in learner language research. *The Modern Language Journal*, 108(4), 1142–1166. DOI: 10.1111/modl.12951. URL: https://doi.org/10.1111/modl.12951
9. Rosch, E. (1975). Cognitive representations of semantic categories. *Journal of Experimental Psychology: General*, 104(3), 192–233. DOI: 10.1016/S0022-5371(75)80012-1.
10. Van Langendonck, W. (2007). *Theory and Typology of Proper Names*. Berlin/New York: Mouton de Gruyter, 378 p. DOI: 10.1093/acprof:oso/9780199297412.001.0001. ISBN: 978-3-11-019086-1.

PARADIGMATIK MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI LEKSIK-SEMANTIK MAYDON

Isayeva Dildora Erkin qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti
isoyevadildora89@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada til tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan paradigmatik munosabatlar doirasida leksik-semantik maydon nazariyasi tahlil qilinadi. Paradigmatik aloqalar — sinonimiya, antonimiya, giperonimiya-giponimiya va boshqa munosabatlar — leksik birliklarning xotira va lug‘aviy tizimda qanday uyushishini ko‘rsatishi yoritiladi. Leksik-semantik maydon so‘zlarni alohida emas, balki umumiy integrativ sema asosida tashkil topgan tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Maqolada maydonning markaz va periferiya zonalari, ularning prototipik va uslubiy xususiyatlari komponent tahlil yordamida izohlanadi. Shuningdek, sinonimik qatorlarda dominanta tushunchasi, antonimik oppozitsiyalarning gradatsion va kontekstga bog‘liq tabiati hamda giperonimik iyerarxiyaning konseptual ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Polisemiyaning maydonlararo harakati, metaforik va metonimik ko‘chishlar natijasida yuzaga keladigan kesishish zonalari ham tahlil markazida bo‘ladi. Tadqiqotda komponent tahlil, distribyutsion kuzatuv va kontekstual talqinga tayanuvchi integrativ metod leksik-semantik maydonni ishonchli tavsiflashning samarali vositasi sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *paradigmatika, leksik-semantik maydon, sema, giperonim, antonimiya, sinonimiya, komponent tahlil*

Annotation. This article analyzes the theory of the lexical-semantic field within the framework of paradigmatic relations, which constitute an important component of the language system. Paradigmatic relations—such as synonymy, antonymy, hyponymy–hypernymy, and other types of connections—are examined in terms of how lexical units are organized in memory and within the lexical system. The lexical-semantic field approach makes it possible to interpret words not as isolated units but as elements of a system structured around a common integrative seme. The article explains the central and peripheral zones of the field, along with their prototypical and stylistic features, through componential analysis. In addition, the concept of the dominant in synonymic sets, the gradational and context-dependent nature of antonymic oppositions, and the conceptual significance of hypernymic hierarchies are discussed. The study also focuses on the inter-field movement of polysemy and the zones of intersection that arise as a result of metaphorical and metonymic shifts. An integrative methodology combining

componential analysis, distributional observation, and contextual interpretation is substantiated as an effective means of providing a reliable description of the lexical-semantic field.

Keywords: *paradigmatics, lexical-semantic field, seme, hyperonym, antonymy, synonymy, componential analysis*

Paradigmatik munosabatlar til tizimining ichki tartibini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, u leksik birliklarning xotirada va lug‘aviy tizimda o‘zaro bog‘lanish mexanizmlarini ko‘rsatadi. Leksik-semantik maydon nazariyasi aynan shu bog‘lanishlarni yaxlit model sifatida tasvirlashga intiladi: so‘zlar alohida-alohida emas, balki umumiy mazmuniy o‘q atrofida jamlanib, o‘zaro farqlanuvchi va bir-birini to‘ldiruvchi birliklar sifatida talqin qilinadi. Tilshunoslikda paradigmatik munosabatlar deganda sinonimiya, antonimiya, giperonimiya-giponimiya, meronimiya, shuningdek, tematik yaqinlik kabi aloqalar tushuniladi; leksik-semantik maydon esa shu aloqalarning ma’lum bir semantik domen doirasida tizimlashgan ko‘rinishidir. Bunday yondashuvning metodologik afzalligi shundaki, u leksik ma’noni statik ta’rif emas, balki boshqa birliklar bilan munosabatda shakllanuvchi tizimiy hodisa sifatida ochib beradi. [Hojiyev,2002:304]

Maydon modeli leksik birliklarning “markaz” va “chegara” zonalarini farqlashni taqozo etadi. Markaziy zona, odatda, maydonning eng prototip, eng barqaror va ko‘p kontekstlarda ishlaydigan birliklari bilan ifodalanadi; periferiyada esa ma’no jihatdan yaqin, biroq qo‘llanish doirasi torroq, uslubiy bo‘yoqqa ega yoki ikkilamchi nomlash orqali maydonga kiruvchi birliklar joylashadi. Bunday zonalilikni izohlashda komponent tahlil muhim vosita bo‘lib, u so‘z ma’nosini semalar majmuasi sifatida ajratadi. Integrativ sema maydonni birlashtirsa, differensial semalar birliklarni bir-biridan ajratadi. Masalan, umumiy “harakatlanish” integrativ semasi ostida yurmoq, yugurmoq, sudralmoq, suzmoq kabi birliklar jamlanadi, biroq “tezlik”, “muhit”, “harakat usuli” differensial semalari ular orasidagi paradigmatik oppozitsiyalarni belgilaydi. Shuni ta’kidlash joizki, komponent tahlil natijalari doimo kontekstual talqin bilan tekshirilmasa, semalarning “sun’iy” ajratilishi xavfi yuzaga keladi; shu bois semantik maydonni tavsiflashda kontekst va distribyutsiya dalillari bir-birini to‘ldirishi zarur [Rahmatullayev,2006:45].

Paradigmatik munosabatlar ichida sinonimiya maydon ichki strukturasining eng sezilarli qatlamlaridan biridir. Sinonimlar bir integrativ semani bo‘lishadi, ammo differensial semalar, uslubiy bo‘yoq yoki baholovchanlik komponenti orqali ajraladi. O‘zbek leksikasida sinonimik qatorlar ko‘pincha adabiy til va so‘zlashuv, neytral va ekspressiv, umumxalq va terminologik qatlamlar kesishmasida shakllanadi; bu esa maydonning sotsiolingvistik

“chuqurligi” borligini ko‘rsatadi. Sinonimik qator ichida dominanta tushunchasi ham muhim: dominanta ko‘proq neytral, keng qo‘llanuvchi va ma’no markaziga yaqin bo‘ladi, qolgan a’zolar esa ma’no soyalari, uslub yoki konnotatsiya bilan differensiallashadi [Hojiyev,2002:15]. Maydon nuqtayi nazaridan dominanta markazni mustahkamlaydi, sinonimlar esa periferiya va o‘tish zonalarini to‘ldiradi; natijada leksik tizimda nomlashning variantlari, tanlash imkoniyatlari hamda nutqning stilistik resurslari izohlanadi.

Antonimiya esa maydonning ichki oppozitsion o‘qini yaratadi. Antonimlar ko‘pincha bir parametrning ikki qutbini bildiradi: “katta-kichik”, “issiq-sovuq”, “yuqori-past” kabi. Biroq antonimiyani faqat ikki a’zoli “juftlik” sifatida ko‘rish yetarli emas, chunki ko‘plab maydonlarda gradatsion qatorlar mavjud bo‘lib, unda oraliq birliklar, kuchaytirgichlar, shuningdek, kontekstga bog‘liq antonimiklashuvlar uchraydi. Demak, antonimiya maydonning mantiqiy-geometrik tuzilishini emas, balki semantik fazosini ifodalaydi: parametr bo‘yicha ziddiyat, baholash, normativlik kabi omillar qo‘shilib, oppozitsiya dinamik xarakter kasb etadi. Rus tilshunosligida semantik maydon va oppozitsiya masalasi sistem-struktur yondashuvda izchil yoritilgan bo‘lib, unda ziddiyat paradigmatik tizimning “harakatlantiruvchi” mexanizmi sifatida talqin qilinadi [ШМелёв,1973:56]. O‘zbek til materiali asosida esa antonimik qatorlarning uslubiy tabaqalanishi, shuningdek, frazeologik birliklar orqali antonimik ma’no hosil bo‘lishi maydon chegaralarini kengaytirishi mumkin.

Giperonimiya-giponimiya munosabati maydonning iyerarxik qatlamini belgilaydi. Maydonni tashkil etuvchi birliklar ko‘pincha umumiy nom (giperonim) va tur nomlari (giponimlar) tarzida uyushadi: masalan, “daraxt” giperonimi ostida “terak”, “chinor”, “olma” va boshqalar giponim sifatida joylashadi. Iyerarxiya maydonning konseptual xaritasini aniqroq chizishga yordam beradi, chunki u nafaqat yaqinlikni, balki umumlashtirish darajasini ham ko‘rsatadi. Shu bilan birga, real nutqda iyerarxiya doimo “toza” ko‘rinishda namoyon bo‘lmaydi: metafora, metonimiya, terminologik ko‘chish va ixtisoslashuv jarayonlari giperonim-giponim chegaralarini siljitadi. Kognitiv semantika ushbu hodisalarni kategoriyalashning prototipik modeli orqali izohlaydi: kategoriya markazida prototip, chetlarida esa kamroq tipik a’zolar turadi, shuning uchun maydon chegarasi qat’iy chiziq emas, balki darajali o‘tish sifatida ko‘rinadi [Evans,2007:78]. Natijada leksik-semantik maydonni tasvirlashda iyerarxik va zonal yondashuvni birlashtirish metodik jihatdan samarali bo‘ladi.

Leksik-semantik maydonni paradigmatik tizimda aniqlashning muhim masalalaridan biri uning chegarasini belgilashdir. Chegara masalasi, bir tomondan, integrativ semaning qamroviga, ikkinchi tomondan, differensial semalarning barqarorligiga bog‘liq. Agar integrativ sema juda umumiy tanlansa, maydon haddan tashqari kengayib, tematik ro‘yxatga aylanib

qoladi; aksincha, sema juda tor belgilansa, maydon ichki munosabatlarni koʻrsatishga ulgurmay, sun’iy fragmentga parchalanadi. Shuning uchun chegarani aniqlashda uch bosqichli tekshiruvni asosli deb bilish mumkin: birinchi bosqichda komponent tahlil orqali semalar ajratiladi; ikkinchi bosqichda korpus yoki matnlar asosida distribyutsion moslik va birikuvchanlik koʻrsatkichlari kuzatiladi; uchinchi bosqichda kontekstual talqin bilan ma’no farqlari va uslubiy boʻyoqlar sinovdan oʻtkaziladi. Ushbu integrativ metod semantik maydonni “lugʻatdagi ta’rif” darajasidan chiqarib, real nutqdagi ishlash mexanizmlariga yaqinlashtiradi [Lyons,1977:39].

Paradigmatik munosabatlar tizimida leksik-semantik maydonni oʻrganish yana bir jihatdan dolzarb: u polisemiyaning tizimiy tabiatini koʻrsatadi. Koʻp ma’noli soʻz turli maydonlarga turli ma’no variantlari bilan kiradi yoki bir maydon ichida semantik siljishlar orqali periferiyadan markazga yaqinlashadi. Bu holat leksik birlikning “bitta maydonga qamalib qolmasligi”ni, balki semantik tarmoq boʻylab harakatlanishini koʻrsatadi. Bunday harakat koʻpincha metaforik va metonimik koʻchishlar bilan bogʻliq boʻlib, natijada maydonlar oʻrtasida kesishish zonalari paydo boʻladi. Kesishish zonalari tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytiradi, lekin tahlilda ehtiyotkorlikni talab qiladi: har bir koʻchma ma’no varianti uchun kontekstual dalil va paradigmatik qarindoshlik asoslari koʻrsatilmasa, maydonlar chalkashib ketadi. Shu ma’noda, semantik maydonlar oʻrtasidagi interseksiya hodisasi leksik tizimning “ochiq” va dinamik tabiatini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning muhim natijasi sifatida shuni umumlashtirish mumkinki, leksik-semantik maydon paradigmatik munosabatlarning oddiy yigʻindisi emas, balki mazmuniy birliklar oʻrtasidagi iyerarxiya, oppozitsiya, sinonimik yaqinlik va uslubiy tabaqalanishning birgalikdagi tizimiy konfiguratsiyasidir. Maydonni ishonchli tavsiflash uchun semalarga tayanuvchi komponent tahlil yetarli boʻlmay, u albatta distribyutsion kuzatuv va kontekstual talqin bilan mustahkamlanishi kerak; aynan shu uchlik yondashuv maydonning markaz-periferiya tuzilishini asosli belgilash, polisemiyaning maydonlararo harakatini aniqlash hamda giperonimik iyerarxiyani real nutq bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, sinonimik qatorlarda dominanta va uslubiy boʻyoq, antonimik oppozitsiyalarda gradatsionlik va kontekstga bogʻliqlik, iyerarxik aloqalarda prototipiklik va kategoriyalash omillari hisobga olinganda, paradigmatik tizimning ichki mexanizmlari yanada aniqroq namoyon boʻladi. Demak, leksik-semantik maydon modeli oʻzbek til leksikasini tizimli tahlil qilishda nafaqat tasniflovchi, balki izohlovchi, ya’ni semantik jarayonlarning sabab va shartlarini koʻrsatuvchi ilmiy vosita sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Apresyan Yu. D. Lexical Semantics: User’s Guide to Contemporary Russian Vocabulary. Ann Arbor: Karoma Publishers, 1992. 364 p.
2. Evans V. A Glossary of Cognitive Linguistics. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2007. 256 p.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. 304 b.
4.Lyons J. Semantics. Vol. 1. Cambridge: Cambridge University Press, 1977. 371 p.
5.Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. Toshkent: Universitet, 2006. 256 b.
6. Шмелёв Д. Н. Проблемы семантического анализа лексики. Москва: Наука, 1973. 280 с.

RAVISHDOSHLI BIRIKMALARNING KO‘P FUNKSIYALILIGI: O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA QIYOSIY TAHLIL

Nilufar Abduraxmonova
O‘zabekiston Milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi va
amaliy tilshunoslik kafedra mudiri, professor
n.abduraxmonova@nuu.uz
Mahliyo Eshmamatova
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘zbek tili
va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
m.eshmamatova@dtpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada ravishdoshli birikmalarning polifunksional xususiyatlari o‘zbek va turk tillari materiallari asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda PARATRANSLATOR parallel korpusi texnologiyalaridan foydalanib, ravishdoshlarning sintaktik, semantik va funksional xususiyatlari, ularning matn tuzilishidagi o‘rni hamda qiyoslanadigan tillarda umumiy va farqli jihatlari aniqlangan. Parallel korpusga asoslangan yondashuv ravishdoshli birikmalarning kontekstual qo‘llanish chastotasini, grammatik shakllanish xususiyatlarini va matnda bajaruvchi vazifalarini obyektiv baholash hamda ikki tildagi ekvivalentlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va turk tillarining tipologik yaqinligini, shu bilan birga har bir tilning o‘ziga xos leksikogrammatik xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *ravishdosh, polifunksionallik, qiyosiy tilshunoslik, parallel korpus, PARATRANSLATOR o‘zbek tili, turk tili, leksikogrammatika, sintaktik funksiya*

POLYFUNCTIONALITY OF ADVERBIAL PHRASES: A COMPARATIVE ANALYSIS IN UZBEK AND TURKISH LANGUAGES

Annotation. This article provides a comparative analysis of the polyfunctional characteristics of adverbial phrases based on Uzbek and Turkish language materials. Using PARATRANSLATOR parallel corpus technologies, the syntactic, semantic and functional features of adverbial participles, their role in text structure, and common and distinctive aspects in the compared languages are identified. The parallel corpus-based approach enabled an objective assessment of the contextual frequency of adverbial phrases, their grammatical formation features, functions performed in texts, and identification of equivalents in both languages. The research results demonstrate the typological proximity of Uzbek and Turkish languages, along with the unique lexicogrammatical features of each language.

Key words: *adverbial participle, polyfunctionality, comparative linguistics, parallel corpus, PARATRANSLATOR, Uzbek language, Turkish language, lexicogrammar, syntactic function*

ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ ДЕЕПРИЧАСТНЫХ КОНСТРУКЦИЙ: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО И ТУРЕЦКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация: В данной статье проводится сопоставительный анализ полифункциональных особенностей деепричастных конструкций на материале узбекского и турецкого языков. С использованием технологий параллельного корпуса PARATRANSLATOR выявлены синтаксические, семантические и функциональные особенности деепричастий, их роль в структуре текста, а также общие и отличительные аспекты в сопоставляемых языках. Подход на основе параллельного корпуса позволил объективно оценить контекстуальную частотность деепричастных конструкций, особенности их грамматического оформления, функции, выполняемые в тексте, и определить эквиваленты в обоих языках. Результаты исследования демонстрируют типологическую близость узбекского и турецкого языков наряду с уникальными лексикограмматическими особенностями каждого языка.

Ключевые слова: *деепричастие, полифункциональность, сопоставительное языкознание, параллельный корпус, PARATRANSLATOR, узбекский язык, турецкий язык, лексикограмматика, синтаксическая функция*

1. Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda grammatik shakllarning ko‘p funksiyaliligi muammosi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turkiy tillarda ravishdoshlarning sintaktik va semantik xilma-xilligi, ularning matn tuzilishidagi murakkab vazifalari alohida tadqiqotni talab etadi. O‘zbek va turk tillari genetik jihatdan yaqin bo‘lgan tillar sifatida ravishdoshli birikmalarning qiyosiy tahlili qator umumiy tipologik xususiyatlarni va milliy o‘ziga xos farqlarni aniqlash imkonini beradi. Jahon tilshunosligida ravishdoshlarning funksional xususiyatlariga doir tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularning sintaktik rolini, semantik xilma-xilligini va pragmatik funksiyalarini o‘rganish zamonaviy korpus lingvistikasi metodlari bilan amalga oshirilmoqda [Haspelmath, 1995: 12; Nedjalkov, 1998: 425]. Turkiy tillar materiallari asosida olib borilgan tadqiqotlarda ravishdoshlarning grammatikalizatsiya jarayonlari, ularning

sintaktik pozitsiyalari va modal-temporal ma’nolarini ifodalash xususiyatlari o‘rganilgan [Nasilov, 1989: 87; Johanson, 2000: 145].

Ravishdoshli birikmalarni parallel korpus texnologiyalari asosida tahlil qilish ularning ikki tilda qanday mos kelishi, tarjima ekvivalentlarini aniqlash, real matnlardagi qo‘llanish chastotasini, tipik kontekstlarini va funksional yuk ko‘rsatkichlarini o‘rganish imkonini beradi [Abduraxmonova, 2021: 67]. Bu esa nazariy xulosalarni empirik materiallar bilan mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Metodologiya

Ravishdosh – fe’lning shaxssiz shakli bo‘lib, u harakat yoki holatni asosiy fe’l bilan bog‘lab, murakkab predikativ munosabatlarni ifodalaydi [Rustamov, 2010: 284]. Tilshunoslik nazariyasida ravishdosh ko‘pincha “converb” termini bilan ifodalanadi va u sintaktik jihatdan ergash gap bilan asosiy gap o‘rtasidagi oraliq kategoriya sifatida qaraladi [Haspelmath, 1995: 3].

M. Haspelmathning ta’rifiga ko‘ra, ravishdosh – bu shaxs va son bo‘yicha o‘zgarmay, asosiy fe’lning egasi bilan bir xil subyektga ega bo‘lgan va bosh gapning qismini tashkil etuvchi sintaktik birlik [Haspelmath, 1995: 3-4]. V.P. Nedjalkovning fikricha, ravishdoshlar gap ichidagi polipredikativlikni ta’minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi [Nedjalkov, 1998: 427].

Polifunksionallik deganda bir grammatik shaklning turli sintaktik, semantik va pragmatik vazifalarni bajarishi tushuniladi [Johanson, 2000: 156]. Ravishdoshlar uchun polifunksionallik ayniqsa xarakterli bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida quyidagi funksiyalarni bajarishi mumkin:

Sintaktik funksiya: murakkab gap tuzilishida ergash gap o‘rnini bosish

Semantik funksiya: vaqt, sabab, shart, maqsad kabi munosabatlarni ifodalash

Pragmatik funksiya: nutq iqtisodligini ta’minlash, matnni zichlash

Turkiy tillarda ravishdoshlarning polifunksionalligi ularning agglutinativ tuzilishi va boy affikslar tizimi bilan bog‘liq [Nasilov, 1989: 92]. Har bir ravishdosh qo‘shimchasi bir nechta semantik funksiyalarni bajarishi mumkin, bu esa kontekstga ko‘ra aniqlanadi.

Qiyosiy tilshunoslikda ravishdoshlarni o‘rganish uchun bir nechta yondashuvlar mavjud [Göksel, Kerslake, 2005: 340]:

Tipologik yondashuv: turli tillardagi ravishdoshlarning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlash

Genetik yondashuv: bir til oilasiga mansub tillardagi ravishdoshlarning tarixiy rivojlanishini o‘rganish

Funksional yondashuv: ravishdoshlarning nutqdagi amaliy qo‘llanishini tahlil qilish

Korpusga asoslangan yondashuv: real matnlardagi ravishdoshlar statistikasini o‘rganish

O‘zbek va turk tillari bir til oilasiga mansub bo‘lganligi sababli, ularning ravishdosh tizimlarida ko‘plab umumiy jihatlar mavjud [Kononov, 1956: 235]. Biroq, har bir tilning o‘z tarixiy rivojlanishi, kontaktologik ta'sirlari va ichki tendentsiyalari ravishdoshlarning qo‘llanishida o‘ziga xos xususiyatlarni vujudga keltirgan.

Korpus lingvistikasi – bu katta hajmdagi elektron matnlar to‘plamini tahlil qilish orqali tilning qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sohasi [Abduraxmonova, 2021: 15]. Parallel korpuslar esa ikki yoki undan ortiq tildagi bir xil matnlarning to‘plami bo‘lib, ular qiyosiy tadqiqotlar uchun alohida ahamiyatga ega [Tiedemann, 2012: 2214].

Parallel korpuslarning asosiy afzalliklari:

Tarjima ekvivalentlarini aniqlash imkoniyati

Tillararo funksional moslashuvlarni o‘rganish

Real kontekstdagi qo‘llanish statistikasini olish

PARATRANSLATOR parallel korpusi o‘zbek va turk tillari uchun maxsus ishlab chiqilgan bo‘lib, u ikki tilda ham leksikogrammatik tadqiqotlar olib borish imkonini beradi [Abdurakhmonova va boshq., 2021: 2-3].

Leksikogrammatika – bu leksika va grammatikani bir butun tizim sifatida o‘rganuvchi yondashuv [Abduraxmonova, 2021: 48]. Bu konsepsiyada so‘z va grammatik tuzilmalar alohida emas, balki o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Ravishdoshlar uchun leksikogrammatik yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

Ravishdosh yasovchi affikslarning leksik asoslar bilan birikishi

Kontekstual semantik qurshov tahlili

Grammatik shakl va leksik ma’no o‘rtasidagi munosabatlar

Kollokatsion (birgalikdagi qo‘llanish) xususiyatlar

Bu yondashuv parallel korpus tahlilida ayniqsa samarali bo‘lib, ikki tildagi ravishdoshlarning nafaqat grammatik, balki leksik-semantik xususiyatlarini ham o‘rganish imkonini beradi [Abduraxmonova, 2020: 79].

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-tipologik, deskriptiv va parallel korpusga asoslangan tahlil metodlari tashkil etadi. Material sifatida o‘zbek va turk tillarining PARATRANSLATOR parallel korpusi, badiiy, ilmiy va publitsistik matnlarning ikki tildagi tarjimalari tanlangan. Tadqiqotda PARATRANSLATOR parallel korpusi asosiy vosita sifatida qo‘llanildi. PARATRANSLATOR – bu o‘zbek va turk tillarini o‘z ichiga olgan ko‘p tilli

parallel korpus bo‘lib, u ikki yoki undan ortiq tillardagi matnlarni bir vaqtda tahlil qilish, tarjima ekvivalentlarini aniqlash va tillararo qiyoslash imkonini beradi [Abdurakhmonova va boshq., 2021: 3].

Parallel korpusdan quyidagi parametrlar bo‘yicha ma’lumotlar olindi:

- Ravishdosh shakllarining chastota ko‘rsatkichlari har ikki tilda
- Tarjima ekvivalentlari va ularning mos kelish darajasi
- Sintaktik pozitsiyalar (gap boshi, gap o‘rtasi, gap oxiri)
- Semantik funksiyalar (vaqt, sabab, shart, maqsad, tarz-usul)
- Grammatik shakllanish xususiyatlari
- Leksik-semantik qurshov (kollokatsiyalar)
- Funktsional almashuvlar (ravishdosh boshqa konstruksiya bilan almashganda)

O‘zbek va turk tillaridagi ravishdoshli birikmalarni parallel korpus orqali qiyoslashda quyidagi mezonlar asosiy bo‘ldi:

1. Morfologik mezon – ravishdosh yasovchi qo‘shimchalarning tizimi va ularning parallel matnlardagi mos kелishi [Göksel, Kerslake, 2005: 342]
2. Sintaktik mezon – gapdagi o‘rni va bog‘lanish usullari
3. Semantik mezon – ifodalangan munosabatlar turi va ularning tarjimada saqlanishi
4. Funksional mezon – nutqda bajaruvchi vazifalar
5. Statistik mezon – parallel korpusdagi qo‘llanish chastotasi
6. Ekvivalentlik mezoni – tarjimada ravishdosh bilan ravishdosh yoki boshqa konstruksiya qo‘llanishi

PARATRANSLATOR parallel korpusi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- O‘zbek-turk tillarida badiiy matnlar subkorpusi – klassik va zamonaviy adabiyot asarlari
- Ilmiy-texnik matnlar subkorpusi – akademik maqolalar, darsliklar
- Publitsistik matnlar subkorpusi – gazeta, jurnal maqolalari
- Hujjatli matnlar subkorpusi – rasmiy hujjatlar, shartnomalar

Har bir subkorpus lingvistik jihatdan annotatsiyalangan bo‘lib, morfologik, sintaktik va semantik teglar bilan belgilangan [Abduraxmonova, 2020: 82].

3. Material va metod

3.1. O‘zbek tilida ravishdoshli birikmalarning funksional xususiyatlari

O‘zbek tilida ravishdoshlar -ib, -a/-y, -gani/-gach, -gan(i)da/-ganida kabi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi [Rustamov, 2010: 287]. PARATRANSLATOR parallel korpusi tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu shakllar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Vaqt munosabatini ifodalash:

- Maktabga borib, darsda o‘tirdim (-ib shakli)
- Kechqurun kelgach, ovqatlandik (-gach shakli)
- Uyga yetganida, hamma uxlab qolgan edi (-ganida shakli)

2. Sabab munosabat:
- Charchab, dam oldim (natija-sabab)
- Kasal bo‘lgani uchun kelmadi (aniq sabab)

3. Shartli munosabat:
- Shu yo‘ldan borsa, tezroq yetib boradi
- Mehnat qilmay turib, meva olish mumkin emas

3.2. Turk tilida ravishdoshlarning tiplari va funksiyalari

Turk tilida ravishdoshlar -arak/-erek, -ıp/-ip/-up/-üp, -ınca/-ince/-unca/-ünce, -dıktan/-dikten, -alı/-eli kabi qo‘shimchalar orqali ifodalanadi [Korkmaz, 2003: 876]:

1. Vaqt va ketma-ketlik:
- Kahvaltı edip, işe gitti (ketma-ketlik)
- Gelince haber ver (vaqt chegarasi)

2. Sabab aloqa:
- Yorgun olduğu için erken uyudu
- Hasta olarak eve kaldı

3. Shartli funksiya:
- Çalışarak başarır
- Erken kalkınca yetişir

3.3. Parallel korpus statistikasi

PARATRANSLATOR parallel korpusida (o‘zbek-turk juftligi: 2.5 mln. so‘z) o‘tkazilgan tahlil quyidagi natijalarni berdi:

Ravishdosh turi	O‘zbek tilida chastota (%)	Turk tilida chastota (%)	Ekvivalentlik darajasi (%)
Vaqt funksiyasi	35%	32%	88%
Sababiy funksiya	25%	28%	82%
Shartli funksiya	15%	18%	75%
Boshqa funksiyalar	5%	5%	65%

Parallel korpus tahlili ravishdoshlarning tarjimada qanday ifodalanishini aniqlash imkonini berdi [Tiedemann, 2012: 2216]:

O‘zbek tilidan turk tiliga:

O‘zbek tili	Turk tili	Ekvivalent turi
Kitob o‘qib, dam oldim	Kitap okuyarak dinlendim	Ravishdosh → Ravishdosh
Kelgach, xabar berdi	Gelince haber Verdi	Ravishdosh → Ravishdosh
Uyga borganda	Eve gittiğinde	Ravishdosh → Ravishdosh shakli
Ishlab tugatdi	Çalışarak bitirdi	Fe’l birikma → Ravishdosh

Funktsional almashuvlar:

Parallel korpusda ba’zi holatlarda ravishdosh bir tilda ergash gap bilan, ikkinchi tilda esa ravishdosh bilan ifodalanishi aniqlandi:

- O‘zbek tilida: U kelganida, men uxlab yotgan edim
- Turk tilida: O gelince ben uyuyordum (ravishdosh saqlanadi)
- Turk tili varianti 2: O geldiğinde ben uyuyordum (ism-fe’l konstruksiyasi)

3.5. PARATRANSLATOR korpusining lingvistik ta’minoti

Tadqiqot uchun PARATRANSLATOR parallel korpusi bazasida maxsus lingvistik analizator yaratildi, unda ravishdosh shakllarini avtomatik aniqlash, parallel matnlardagi ekvivalentlarni topish va tasniflash algoritmlari ishlab chiqilgan [Abduraxmonova, 2019: 115]. FST (Finite State Transducer) texnologiyasi asosida ravishdoshlarning morfologik tahlili, ularning kontekstual funksiyalarini aniqlash va tillararo moslashtirish modullari joriy etildi.

Analizatorda quyidagi parametrlar kiritilgan:

- Ravishdosh yasovchi affikslar lug‘ati (ikki til uchun)
- Sintaktik pozitsiya aniqlovchi qoidalar
- Semantik funksiya klassifikatori
- Tarjima ekvivalentlarini aniqlash algoritmi
- Statistik tahlil moduli
- Parallel alignment (moslashtirish) tizimi

4. Tajriba natijalari

PARATRANSLATOR parallel korpusi asosidagi qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek va turk tillaridagi ravishdoshli birikmalarning quyidagi umumiy jihatlari aniqlandi:

1. Morfologik o‘xshashlik: Har ikkala tilda ham ravishdoshlar fe’l asosiga maxsus affikslar qo‘shish orqali hosil bo‘ladi [Kononov, 1956: 234]

2. Sintaktik pozitsiya: Asosiy fe’ldan oldin joylashish tendentsiyasi (parallel matnlarda 85% holatlarda saqlanadi)

3. Funksional xilma-xillik: Vaqt, sabab, shart, tarz-usul ma’nolarini ifodalash [Nedjalkov, 1998: 438]

4. Polipredikativlik: Murakkab gap tuzilishida qaramlik munosabatlarini yaratish

5. Tarjimada yuqori ekvivalentlik: 80-90% hollarda ravishdosh ravishdosh bilan tarjima qilinadi

Parallel korpus tahlili asosida aniqlangan farqli jihatlar:

O‘zbek tilida:

- -ib qo‘shimchasi eng produktiv (40% qo‘llanish) [Rustamov, 2010: 293]
- Ko‘proq analitik konstruksiyalar (-gan(i)da, -gach)
- Modal ma’nolar kombinatsiyasi kengroq
- Turk tiliga tarjimada ba’zan ergash gap bilan almashadi (15% holatlarda)

Turk tilida:

- -arak/-erek shakllari rasmiy uslubda ko‘proq [Korkmaz, 2003: 881]
- -ıp/-ip shakli og‘zaki nutqda dominant
- Vaqt funksiyasi aniqroq differensiatsiyalangan [Göksel, Kerslake, 2005: 358]
- O‘zbek tiliga tarjimada deyarli har doim ravishdosh shaklida saqlanadi (92%)

Parallel korpus tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- Badiiy matnlarda: Tarz-usul funksiyasi ko‘proq (o‘zbek tilida 35%, turk tilida 32%), ekvivalentlik 91%
- Ilmiy matnlarda: Sababiy funksiya dominant (o‘zbek tilida 45%, turk tilida 48%), ekvivalentlik 82% [Abduraxmonova, 2021: 124]
- Publitsistik matnlarda: Vaqt va ketma-ketlik funksiyasi yuqori (har ikkala tilda 40% atrofida), ekvivalentlik 88%

PARATRANSLATOR korpusida ravishdosh boshqa konstruksiya bilan almashgan holatlar ham aniqlandi:

O‘zbek tili ravishdoshi → Turk tilida ergash gap:

- O‘zbek tilida: Kecha kelgach, darhol uxlab qoldim
- Turk tilida: Dün gece geldiğim zaman hemen uyudum (10% holatlarda)

Turk tili ravishdoshi → O‘zbek tilida ergash gap:

- Turk tilida : Acele ederek geldi
- O‘zbek tilida: Shoshib keldi (ravishdosh saqlanadi - 90%)
- O‘zbek tili varianti: Shoshgani uchun keldi (ergash gap - 10%)

5. Muhokama

Olib borilgan tadqiqot ravishdoshli birikmalarning o‘zbek va turk tillarida polifunksional xarakterga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatdi [Haspelmath, 1995: 28]. PARATRANSLATOR parallel korpusi texnologiyalari ushbu grammatik shakllarning real nutqda qanday funksional yuk ko‘tarishini obyektiv baholash va ikki tildagi ekvivalentlarni aniq aniqlash imkonini berdi. Parallel korpusga asoslangan qiyosiy tahlil ikki tilning genetik yaqinligini tasdiqlagan holda, har bir tilning o‘ziga xos leksikogrammatik xususiyatlarini ham ochib berdi [Abduraxmonova, 2022: 78]. Tarjima ekvivalentlari tahlili ravishdoshlarning ko‘p hollarda (80-92%) bir tilda ravishdosh, ikkinchi tilda ham ravishdosh bilan ifodalanishini ko‘rsatdi, bu esa ikkala tilning tipologik yaqinligini tasdiqlaydi. Bu natijalar o‘zbek va turk tillarini o‘qitishda, ikki tilli leksikografik lug‘atlar tuzishda, mashina tarjimasi tizimlarini rivojlantirishda va kompyuter lingvistikasi loyihalarida qo‘llanishi mumkin [Gardner, Davies, 2014: 318]. Tadqiqot jarayonida yaratilgan lingvistik analizator va ravishdoshlar parallel ma’lumotlar bazasi kelajakda avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirish, matn generatori va boshqa NLP dasturlarini rivojlantirishda muhim resurs bo‘lib xizmat qilishi mumkin [Abdurakhmonova va boshq., 2021: 7].

6. Xulosa

Ravishdoshli birikmalarning polifunksionalligi o‘zbek va turk tillarining boy grammatik tizimini aks ettiradi. PARATRANSLATOR parallel korpusiga asoslangan qiyosiy tahlil quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Ravishdoshlar har ikkala tilda ham keng funksional spektrga ega bo‘lib, vaqt, sabab, shart va tarz-usul ma’nolarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.
2. Tillar o‘rtasidagi farqlar asosan affikslar tizimi va qo‘llanish chastotasida namoyon bo‘ladi, biroq umumiy funksional asoslar saqlanib qoladi.
3. Parallel korpus ravishdoshlarning real nutqdagi holatini to‘liq tasvirlash va tarjima ekvivalentlarini aniqlash imkonini beradi, bu esa nazariy xulosalarni empirik ma’lumotlar bilan boyitadi.
4. Tarjimada ravishdoshlarning yuqori ekvivalentlik darajasi (80-92%) ikki tilning tipologik yaqinligini va grammatik tuzilish printsiplarining umumiyligini tasdiqlaydi.
5 PARATRANSLATOR parallel korpusi qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlari uchun samarali vosita bo‘lib, leksikogrammatik hodisalarni kompleks o‘rganish imkonini yaratadi.
6. Tadqiqot natijalarida yaratilgan lingvistik analizator va ma’lumotlar bazasi til ta’limi, leksikografiya va mashina tarjimasi sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Kelajakda ushbu tadqiqotni boshqa turkiy tillar materiallari bilan kengaytirish, parallel korpusga yangi matnlar qo‘shish, sintaktik va semantik annotatsiya sifatini oshirish, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ravishdoshlarning avtomatik tahlil va tarjima tizimini takomillashtirish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haspelmath M. The converb as a cross-linguistically valid category // Converbs in Cross-Linguistic Perspective. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1995. – P. 1-55.
2. Nedjalkov V.P. Converbs in the languages of Europe // Language Typology and Language Universals. – Berlin, 1998. – Vol. 2. – P. 421-455.
3. Johanson L. Viewpoint operators in European languages // Tense and Aspect in the Languages of Europe. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2000. – P. 27-187.
4. Nasilov D.M. Problemy tyurkskoy aspektologii. – Leningrad: Nauka, 1989. – 207 s.
5. Göksel A., Kerslake C. Turkish: A Comprehensive Grammar. – London: Routledge, 2005. – 520 p.
6. Abduraxmonova N. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari (monografiya). – Globeedit, 2021. – 200 b.
7. Abduraxmonova N.Z., Abduvaxobov G‘.G‘. O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati : o‘quv lug‘at / – Toshkent: Bookmany print, 2022. - 550 b.
8. Abdurakhmonova N., Tuliyev U., Gatiatullin A. Linguistic functionality of Uzbek Electron Corpus: uzbekcorpus.uz // 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – 2021. DOI:10.1109/ICISCT52966.2021.9670043
9. Abduraxmonova N.Z. Korpus lingvistikasi va o‘zbek tili leksikogrammatikasini o‘rganish metodologiyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2021. – №3. – B. 45-52.
10. Abduraxmonova N.Z. O‘zbek tilining elektron korpusi: yaratish tamoyillari va lingvistik annotatsiya // Filologiya masalalari. – 2020. – №2. – B. 78-86.
11. Abduraxmonova N.Z. Tabiiy tilni qayta ishlashda morfologik analizatorning ahamiyati // Til va adabiyot ta’limi. – 2019. – №4. – B. 112-118.
12. Abduraxmonova N.Z. O‘zbek tilshunosligida kompyuter texnologiyalari: muammolar va istiqbollar // Jahon tillari va madaniyatlari. – 2022. – №1. – B. 67-74.
13. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo turetskogo literaturnogo yazyka. – Moskva-Leningrad: AN SSSR, 1956. – 569 s.
14. Rustamov A. O‘zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 456 b.
15. Korkmaz Z. Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi). – Ankara: TDK Yayınları, 2003. – 1245 s.

16. Gardner D., Davies M. A New Academic Vocabulary List // Applied Linguistics. – Volume 35, Issue 3, July 2014. – Pages 305–327.
17. Tiedemann J. Parallel Data, Tools and Interfaces in OPUS // Proceedings of the 8th International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC). – 2012. – P. 2214-2218.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI UCHUN DIALEKTAL KORPUSNI YARATISH ZARURIYATI

Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi
Filologiya fanlari doktori, professor
O‘zMU, Kompyuter lingvistikasi
va amaliy tilshunoslik kafedrasi mudiri
abduraxmonova@nuu.uz
O‘rinboyeva Roza Toliboy qizi
O‘zMU, Kompyuter lingvistikasi va amaliy
tilshunoslik kafedrasi tayanch doktoranti
orinboyevaroza@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarida tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarining samaradorligi lingvistik ma’lumotlar, xususan, dialektal korpuslar bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Dialekt va shevalarning real nutqdagi ustuvorligi, ularning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari hamda ushbu birliklarning sun’iy intellekt tizimlarida yetarli darajada aks etmasligi muammosi tahlil qilinadi. Dialectal korpus yaratish zaruriyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, NLP, sheva, dialektal korpus, korpus lingvistikasi, nutq texnologiyalari.*

Annotation. This article scientifically substantiates the inextricable link between the effectiveness of natural language processing systems in artificial intelligence technologies and linguistic data, in particular dialectal corpora. The problem of the dominance of dialects and dialects in real speech, their phonetic, lexical and grammatical features, and the insufficient reflection of these units in artificial intelligence systems is analyzed. The need to create a dialectal corpus is justified.

Keywords: *artificial intelligence, NLP, dialect, dialectal corpus, corpus linguistics, speech technologies.*

Bugungi rivojlangan jamiyatda nafaqat kompyuter qurilmalari, balki sun’iy intellekt asosida ishlovchi yangi texnologiyalar yaratilib, ularga bo‘lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Ayni paytda sun’iy intellekt texnologiyalari barcha sohada o‘zining samaradorligini

ko‘rsatmoqda. Bunday dasturiy vositalar til resurslaridan samarali foydalanish, axborotni qayta ishlash jarayonini tezlashtirish hamda inson mehnatini yengillashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tabiiy tilni qayta ishlashga asoslangan sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi o‘zbek tilining raqamli makondagi mavqeini mustahkamlab, uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlariga keng joriy etish imkonini bermoqda. Natijada, o‘zbek tili uchun lingvistik resurslar va intellektual tizimlarni yaratish masalasi nafaqat amaliy, balki ilmiy jihatdan ham dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy bosqichi tilni statik tizim sifatida emas, balki dinamik va variativ hodisa sifatida talqin qilishni talab etadi. Mutaxassislarning fikricha, NLP tizimlari til haqidagi nazariy bilimlardan ko‘ra, real ma’lumotlarga ko‘proq tayanadi. Shu bois, lingvistik korpuslarning tarkibi va sifati sun’iy intellekt tizimlarining natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek tili misolida tadqiq etiladigan bo‘lsa, sun’iy intellekt texnologiyalarini yaratishda adabiy tilga asoslangan ma’lumotlar bazalari keng qo‘llanilmoqda. Ammo, manbalarda qayd etilganidek, ma’lumotlar tarkibidagi notekislik va cheklanganlik NLP modellarida ijtimoiy va lingvistik nomutanosiblikni yuzaga keltiradi [Bender et al., 2018]. Bu holatda har bir tilda uchraydigan dialekt va sheva munosabatlari nazarda tutiladi. Dialektal korpuslar yaratish sun’iy intellekt texnologiyalari imkoniyatini kengaytirish, o‘zbek tili shevalarini raqamlashtirish, ularning o‘ziga xosliklarini ochib berishdan kelib chiqadigan zaruratdir.

Korpus lingvistikasi til hodisalarini empirik ma’lumotlar asosida o‘rganishga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, u sun’iy intellekt texnologiyalarining metodologik poydevorini tashkil etadi. Sinklair ta’kidlaganidek, korpus lingvistikasi *“til qoidalari majmui emas, balki uning qo‘llanishi orqali anglashiladigan tizimdir”* [Sinclair, 1991]. McEnery va Hardilar maxsus korpuslarning ahamiyatini ta’kidlab, *“tilning muayyan jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi”* deya qayd etadi [McEnery, Hardie, 2012]. Shuningdek, korpus lingvistikasi doirasida dialektal nutqlarning tadqiq etilishi aynan ASR tizimlarining aniqlik darajasini oshirish, sun’iy intellekt modellarida tilning dialekt qatlamini qo‘llash imkoniyatini beradi.

Jahon tajribasida ko‘plab tillar uchun dialektal korpuslar yaratilgan bo‘lib, ular o‘z ichiga audio, media va matnli ma’lumotlarni qamrab oladi. Jumladan, ingliz, fransuz, italyan, rus, xitoy, yapon tillari uchun quyidagi dialektal korpuslar yaratilgan:

1. **British National Corpus (BNC) – Dialect Subcorpora** (Buyuk Britaniya hududidagi turli mintaqaviy dialektlarni qamrab olgan);

2. **International Corpus of English (ICE)** (Ingliz tilining turli mamlakatlardagi (Britaniya, AQSh, Hindiston, Nigeriya va b.) variantlarini o‘z ichiga olgan);
3. **Corpus of Regional African American Language - CORAAL** (Afro-amerikan ingliz tilining hududiy variantlarini aks ettirgan);
4. **Corpus de Français Parlé Parisien - CFPP2000** (Parij va uning atrofidagi og‘zaki nutq, dialektal xususiyatlarni aks ettirgan);
5. **Deutsches Sprachatlas / Dialektatlas** (Nemis tilining hududiy lahjalari asosida yaratilgan);
6. **ALD – Atlante Linguistico Digitale** (Italyan dialektlari va hududiy nutq shakllariga asoslangan);
7. **Russkiy Dialektniy Korpus (RDK)** (Rossiya hududidagi turli rus dialektlarining og‘zaki nutq va fonetik transkripsiyalarini aks ettirgan);
8. **Chinese Dialect Corpus (CDC)** (Xitoyning Mandarin, Wu, Yue (kanton), Min va boshqa dialektlarni qamrab olgan);
9. **Corpus of Spontaneous Japanese (CSJ)** (Hududiy talaffuz va dialektal farqlarni o‘z ichiga olgan).

O‘zbek tili shevalari dialektolog olimlar tomonidan lingvistik jihatdan ko‘plab aspektlarda o‘rganilgan bo‘lib, ayni paytda ular asosida sun’iy intellekt texnologiyalariga mo‘ljallangan dialektal korpus yaratish masalasi tadqiq etilmoqda. O‘zbek tili leksik qatlamining barcha sathlari kompyuter lingvistlari tomonidan har tomonlama raqamlashtirilmoqda. Ammo o‘zbek tili shevalari alohida korpus sifatida shakllantirilmagan bo‘lib, bu o‘zbek tili uchun sun’iy intellektga asoslangan dialektal korpus yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Professor N.Abduraxmonova o‘z tadqiqotlarida dialektal nutqning real kommunikativ muhitdagi ustuvorligini alohida ko‘rsatib, *nutqiy faoliyatda sheva unsurlari adabiy me’yorlardan ko‘ra faolroq ishtirok etishini ta’kidlab o‘tadi* [Abduraxmonova, 2021]. Ushbu fikr sun’iy intellekt tizimlarida aynan dialektal nutqni modellashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O‘zbek tili uchun 12 viloyat shevasiga asoslangan dialektal korpus yaratish orqali yangi sun’iy intellekt texnologiyalari yaratish mumkin. Jumladan, mashina tarjimasi uchun o‘zbek tilidagi 3 lahjaga asoslangan lingvistik baza shakllantiriladi. Bu baza orqali o‘zbek lahjalari asosida qiyosiy tadqiqotlar olib borish, aynan ingliz, rus tillaridagi dialektlar bilan solishtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida matnni nutqqa (TTS) va nutqni matnga (STT) aylantirish tizimlarini yaratishda, qolaversa, o‘zbek tili dialektlariga asoslangan nutq sintezatori uchun ham matnli, ham audio formatdagi ma’lumotlar bazasi sifatida

foydalanish mumkin. Bu imkoniyatlarni taqdim etish uchun dialektal korpus katta hajmga va yosh, jins, ohang, mavzu, hudud, lahja jihatidan rang-baranglikka ega bo‘lishi talab etiladi.


Professor N.Abduraxmonova ilmiy maktabida o‘zbek tili korpusi tarkibida dialektal korpus yaratish ishlari boshlangan bo‘lib, quyida ushbu subkorpus bilan tanishish mumkin [https://uzbekcorpus.uz/].

Dialektal korpus yaratish uchun har bir lahjaga oid tabiiy muhit va ohangdagi audiolar to‘planadi. Ular korpus uchun maxsus qoidalar asosida annotatsiya qilinadi. Masalan, berilgan audio so‘zlovchining nutqiga qarab qismlarga ajratiladi. Bunda nutqning sofligiga, turli xil shovqinlardan xoli ekanligiga hamda talaffuzning aniqligiga e’tibor qaratish lozim. Umumiy audiodan ajratib olingan har bir bo‘lak uchun uning xususiyatlari belgilanadi. Bunda so‘zlovchining jinsi, suhbat tili, mavzusi hamda ohangdan anglashilayotgan ruhiy holat (masalan, qo‘rquv, xursandchilik, xafalik yoki neytral holat) tanlanadi. Audio tarkibida tushunarsiz bo‘lgan qismlar tashlab yuboriladi.

Annotatsiya jarayonida boshqa tillardagi so‘zlar [] belgisi orqali teglanadi. Lekin ular orasida hamma uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlar shevadagi ko‘rinishi bo‘yicha yoziladi. Shuningdek, audio matnda kelgan qisqartma so‘zlar ham talaffuzdagi variantida yozilishi talab etiladi. Atoqli otlar, ismlar, joy nomlari hamda x va h harflarining ham adabiy til qoidalariga ko‘ra bosh harflar bilan yozilishi maqsadga muvofiqdir.


Yaratilgan lingvistik baza **.xlsx** formatidagi faylda to‘planib, unda sheva so‘zning adabiy tildagi shakli, adabiy orfografiyadagi shakli, transkripsiyasi, ularning **.txt** faylda belgilangan nomi, qaysi lahjaga oidligi, respondentning manzili, yoshi, ma’lumoti, kasbi hamda qaysi urug‘ga mansubligi kabi ma’lumotlar aks ettiriladi va korpusga har biri uchun alohida metama’lumot yuklanadi:

Adabiy tilda	shevada (talaffuzi)	fayl (txt)	ševada(talaffuzi)	lahjasi	Meta ma'lumot			Urug'i
					Meta ma'lumot	Yoshi va jinsi		
bolalik	bolaliq	1	bālalīq	qipchoq	Qo'shrabot tumani O'rozmat qishlog'i	92 yosh, erkak	ma'lumoti yo'q, cho'pon	O'rozmat
davrim	dovrim	1	dāvrīm	qipchoq	Qo'shrabot tumani O'rozmat qishlog'i	92 yosh, erkak	ma'lumoti yo'q, cho'pon	O'rozmat
	urush	1	uruš	qipchoq	Qo'shrabot tumani O'rozmat qishlog'i	92 yosh, erkak	ma'lumoti yo'q, cho'pon	O'rozmat
	yillariga	1	jīllarīga	qipchoq	Qo'shrabot tumani O'rozmat qishlog'i	92 yosh, erkak	ma'lumoti yo'q, cho'pon	O'rozmat
to'g'ri kelgan	tuvri kegan	1	tuvrī kegan	qipchoq	Qo'shrabot tumani O'rozmat qishlog'i	92 yosh, erkak	ma'lumoti yo'q, cho'pon	O'rozmat
	qo'l	1	qol	qipchoq	Qo'shrabot tumani O'rozmat qishlog'i	92 yosh, erkak	ma'lumoti yo'q, cho'pon	O'rozmat




1-rasm.

Har bir.txt faylda audioning transkripsiyadagi matni keltiriladi:




2-rasm.

To‘plangan lingvistik bazaning o‘zbek tili korpusi tarkibiga dialektal subkorpus sifatida joylashtirilgan bo‘lib, bu yerda Xorazm, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyat shevalariga oid matnli va audio formatdagi ma’lumotlar bilan tanishish mumkin:



25-rasm.

Qidiruvga adabiy tilda yoki shevadagi so‘z kiritilganda uning qaysi lahjaga mansubligi, mazkur shevadagi audio, adabiy tildagi va trankripsiyadagi matni hamda qidiruv statistikasi beriladi:



Yaratilgan ushbu dialektal korpusdan nafaqat o‘zbek tili nutq sintezatori uchun, balki yangi sun’iy intellekt texnologiyalari uchun lingvistik baza sifatida foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dialektal korpuslar sun’iy intellekt texnologiyalarining ilmiy asoslangan, inklyuziv va samarali ishlashini ta’minlovchi muhim lingvistik resurs hisoblanadi. Jahon tajribasi, nazariy manbalar hamda yaratilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili uchun dialektal korpus yaratish nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega ilmiy-amaliy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonova N.Z. Kompyuter lingvistikasi (darslik). –Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 394 b.

2. Abduraxmonova N. Korpus lingvistikasi (darslik). –Toshkent: Globeedit, 2023. – 400 b.
3. Abdurakhmonova N., Astanova G., Akhmedov A., Mengliev D., Ibragimov B., Abdullayev A. Development of a lexical dataset and a rule-based algorithm for the analysis of Khorezm dialects of the Uzbek language, Data in Brief, Volume 63, 2025.
4. Bender E. M., Friedman B. Data statements for natural language processing: Toward mitigating system bias and enabling better science //Transactions of the Association for Computational Linguistics. – 2018. – T. 6. – C. 587-604.
5. Jurafsky D., Martin J. H. Machine translation //Speech and Language Processing. Prentice-Hall, Englewood Cliffs. – 2000.
6. McEnery T., Hardie A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. – Cambridge University Press, 2011.
7. Mengliev D.B., Abdurakhmonova N., Hayitbayeva D., Barakhnin V.B. Automating the Transition from Dialectal to Literary Forms in Uzbek Language Texts: An Algorithmic Perspective, *2023 IEEE XVI International Scientific and Technical Conference Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE)*, Novosibirsk, Russian Federation, 2023, pp. 1440-1443.
8. Sinclair J. Corpus, concordance, collocation. – 1991.
9. https://uzbekcorpus.uz/

O‘ZBEK TTSDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING LINGVISTIK MODELLASHTIRILISHI

Abduraxmanova Nazokat Azamjonovna
Farg‘ona davlat universiteti,
Tilshunoslik kafedrasi tayanch doktoranti
nazokat.abduraxmanova21@gmail.com
ORCID ID 0009-0008-2456-1423

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili elektron korpusi materiallari asosida matndan nutqqa (TTS) tizimlarining lingvistik front-end bosqichida o‘zlashma so‘zlarni (arabcha-forscha hamda ruscha-baynalmilal qatlam) talaffuzga yaqinlashtirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi – yozuv va talaffuz o‘rtasidagi nomutanosiblik keltirib chiqaradigan hodisalarni (bifonemali grafemalar – j; omograflik – o; ketma-ket unlilar; urg‘u va bo‘g‘in tuzilishiga bog‘liq fonetik variantlar) korpus dalillari bilan tavsiflash hamda ularni qoidaviy va ro‘yxatli yechimlar orqali tartibga solishdir. Metodologiya tavsifiy tahlil, fonetik–morfologik izohlash, korpusdan kollokatsion (birikma) kuzatish hamda turk, qozoq va tatar tillaridagi amaliy tajribalar bilan qiyosiy tahlilga tayandi. Natijada o‘zlashma so‘zlar uchun talaffuz varianti leksikonini boyitish, kontekst orqali omografni ajratish, ketma-ket unli o‘rtasida y/v orttirilishini qoidalashtirish, sirg‘aluvchi j qatnashgan birliklar uchun maxsus ro‘yxat tuzish kabi front-end yechimlari taklif etildi. Xulosa sifatida korpusga tayangan lingvistik normalizatsiya o‘zbek TTSda tabiiylikni oshirish va xatoliklarni kamaytirishning asosiy omili ekanligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili elektron korpusi, o‘zlashma so‘z, omograf, bifonemali grafema, fonetik variant, ketma-ket unlilar, morfofonologiya, lingvistik front-end, matndan nutqqa (TTS).*

Annotation. This paper discusses how loanwords in Uzbek—especially Russian/international and Arabic–Persian strata—should be handled in the linguistic front-end of text-to-speech (TTS) systems, using evidence from the Uzbek electronic corpus. The study aims to identify and systematize orthography–pronunciation mismatches that cause typical synthesis errors: bi-phonemic graphemes (the Uzbek letter <j> encoding both affricate and fricative realizations), homography driven by the lack of distinct letters for foreign phonemes (e.g., the letter <o> in certain borrowed forms), vowel sequences in loanwords that are realized with inserted glides (y/v), and stress- and syllable-structure-dependent variants. Methods

include descriptive linguistic analysis, phonological explanation, corpus-based collocational observation, and cross-linguistic comparison with Turkish, Kazakh and Tatar solutions. The results propose a set of practical front-end strategies: enriched pronunciation lexicon for loanwords, context-based homograph disambiguation, explicit glide-insertion rules for vowel sequences, and curated exception lists for fricative-j items. Overall, corpus-driven linguistic normalization is argued to be the key factor for improving naturalness and reducing errors in Uzbek TTS.

Keywords: *Uzbek electronic corpus, loanwords, homograph, bi-phonemic grapheme, pronunciation variant, vowel sequence, morphophonology, linguistic front-end, text-to-speech (TTS).*

Kirish

O‘zbek tilida matndan nutqqa (TTS) tizimini tabiiy eshitiladigan darajaga olib chiqishda muammo ko‘pincha “ovoz modeli”dan ko‘ra oldingi bosqichda – matnni talaffuzga tayyorlashda paydo bo‘ladi. Bu bosqich lingvistik front-end deb yuritilib, unda matndagi birliklar (so‘z, qisqartma, raqam, termin, o‘zlashma) talaffuz shakliga keltiriladi. O‘zlashma so‘zlar aynan shu yerda sinov maydoniga chiqadi: ularning yozuvi o‘zbek grafikasiga moslashgan bo‘lsa-da, fonetik jihatdan turlicha qatlamlarni aks ettiradi.

Maqolada o‘zlashmalar bilan bog‘liq uchta yirik masala markaziy tahlilga olinadi: (1) grafema–fonema nomutanosibligi (masalan, j harfi bilan ikki fonemaning ifodalanishi), (2) omograflik (bir xil yozilib, turlicha talaffuz va ma’noga ega birliklar), (3) o‘zlashma terminlarda ketma-ket unlilar va urg‘u bilan bog‘liq variantlar. Har bir masaladan keyin uning TTSda qanday hal qilinishi – qoidami, ro‘yxatmi, yoki kontekst tahlilimi – elektron korpus dalillari asosida izohlanadi.

Adabiyotlar tahlili

Turkiy tillarda TTSning lingvistik tayanchi ko‘pincha morfologik tahlil va talaffuz leksikoni uyg‘unligiga borib taqaladi. Turk tilida talaffuz leksikoni ikki darajali morfologik analizator bilan birga qurilib, morfologik tahlil natijasi talaffuzni ham aniqlashga xizmat qilishi ko‘rsatilgan **[Oflazer, 1992].** Qoidaga asoslangan turkcha G2P (grafemadan fonemaga o‘tkazish) yondashuvlarida o‘zlashmalar uchun istisno ro‘yxati va maxsus qoidalar muhim o‘rin tutadi [Altınok, 2016].

Qozoq tilida ochiq ma’lumotlar to‘plamiga tayangan TTS tadqiqotlari (masalan, KazakhTTS) o‘zlashma qatlamning, xususan ruscha fonemalar va urg‘u tushish qoidalarining modellashtirilishini alohida masala sifatida qayd etadi [Khassanov va boshq., 2021]. Tatar tilida ham G2P qoidalari asosidagi avtomatik fonetik transkripsiya yondashuvi va uni nutq

texnologiyalariga ulash tajribasi mavjud [TatarTTS, n.d.]. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashmalarni “oddiy” imlo qoidalari bilan to‘liq qamrab bo‘lmaydi: leksikon va korpusga tayangan istisno qatlam zarur.

O‘zbek tili bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda elektron korpus til birliklarining real nutqdagi qo‘llanishini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba sifatida talqin qilinadi[Abdurakhmonova va boshq., 2021]. Undagi matnlar bazasi so‘z va so‘zshakllarning chastotasi, kontekstual xususiyatlari hamda variantlarini kuzatish imkonini berib, nafaqat nazariy izlanishlar, balki amaliy nutq texnologiyalari uchun ham tayanch vazifasini bajaradi.

Shu jarayonda morfologik tahlil vositalarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, MorphUz kabi analizatorlar so‘zlarni o‘zak va affikslarga ajratish, ularning grammatik belgilari (teglar)ni aniqlash orqali til birliklarining ichki tuzilishini ochib beradi. Bu esa korpus materiallarini tizimli tavsiflash bilan birga, nutq texnologiyalarida to‘g‘ri lingvistik qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi [Abdurakhmonova va boshq., 2022].

Yozuv va talaffuz o‘rtasidagi munosabatlarni izohlashda esa fonetika va grafemika sohasidagi nazariy qarashlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Klassik tadqiqotlarda omograflik hodisasi, bifonemali grafemalar hamda talaffuz variantlarining tabiati atroflicha yoritilgan [Rahmatullayev, 2006; Mirtojiyev, 2013] bo‘lib, bu ma’lumotlar yozma shakl bilan og‘zaki realizatsiya o‘rtasidagi tafovutlarni ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi.

Metodologiya

Tadqiqot uch yo‘nalishdagi ma’lumotlarga tayandi: (a) elektron korpus matnlari, (b) fonetik va grammatik qoidalar (c) turkiy tillar bo‘yicha nutq texnologiyalaridagi tajribalar. Analizning asosiy birliklari – o‘zlashma so‘zlar (ruscha-baynalmilal, arabcha-forscha), ularning omograf shakllari, “j” va “o” grafemalari bilan bog‘liq nomutanosibliklar, ketma-ket unli (diftonglashuvga moyil) tuzilmalar va urg‘u bilan bog‘liq variantlar.

Metodlar: 1) tavsifiy fonetik tahlil (tovushning artikulyatsion tavsifi va pozitsion o‘zgarishi), 2) leksik-semantik tahlil (omonim/omograf ajratish), 3) korpusga asoslangan kollokatsion kuzatish (so‘zning tipik qo‘shnilarini aniqlash), 4) qiyosiy yondashuv (turk, qozoq, tatar tajribalarida o‘zlashmalar qanday “qoplanganini” solishtirish).

Natijalar va muhokama

1. “J” grafemasi va bifonemalilik: o‘zlashmalarda sirg‘aluvchi j

O‘zbek yozuvida j harfi ikki turli undoshni kodlaydi: (I) qorishiq/affrikata j (juda, jo‘ra), (II) sirg‘aluvchi j (jurnal, janr, drenaj kabi ruscha-baynalmilal o‘zlashmalar). Bu holat grafemikada bifonemali grafema sifatida izohlanadi [Rahmatullayev, 2006:118]. Natijada

matnni harfma-harf o‘qishga tayangan TTSda jurnal tipidagi so‘zlar *juda* tipidagi so‘zlar bilan bir xil “j” bilan boshlanadi va talaffuz sun’iylashadi.

TTS yechimi (korpusga tayangan holda): sirg‘aluvchi j qatnashgan o‘zlashmalar “maxsus talaffuz ro‘yxati”ga ajratiladi. Ro‘yxat korpusdan avtomatik yig‘ilishi mumkin: (a) j harfi bilan boshlanib, ruscha/internatsional morfemalar (-aj, -janr, -jurnal) bilan tugaydigan birliklar; (b) ‘-aj’ (drenaj, peyzaj) kabi tipik segmentlar. Korpus chastotasi (qanchalik tez-tez uchrashi) ro‘yxatni ustuvor tartibda yangilashga yordam beradi. Shunda front-end matnda *jurnal* ko‘rsa, uni ‘sirg‘aluvchi j’ bilan talaffuz variantiga yo‘naltiradi; *juda* kabi so‘zlar esa umumiy qoida asosida qoladi.

2. “O” grafemasi va omograflik: *tom* misolida

O‘zbek matnlarida omograflik ko‘pincha alifboda ayrim tovushlar uchun mustaqil harf olinmagani bilan bog‘liq. Masalan, *tom* so‘zi (uyning tomi) bilan *tom* (kitobning tomi) yozuvda teng, ammo talaffuz va kelib chiqish jihatidan farqlanadi. Sh.Rahmatullayev omograflar sun’iy ravishda paydo bo‘lishi, xususan o harfi bilan turli fonetik qiymatlarning berilishi natijasida kuchayishini qayd etadi [Rahmatullayev, 2006:142].

TTS yechimi (korpusga tayangan holda): omografni ajratishning eng sodda va samarali yo‘li – kontekst. Korpusda “uyning tomi”, “tom ma’noda” kabi birikmalar (tom-I/II) bilan “I-tom”, “II-tom”, “kitobning … tomi” kabi birikmalar (tom-III) keskin farqlanadi. Front-end uchun amaliy qoida shunday beriladi: agar tom so‘zi tartib son (I, II, 1-, 2-) yoki ‘kitob’, ‘jild’ kabi indikator so‘zlar bilan qo‘shnichilikda kelsa, o‘zlashma talaffuz varianti tanlanadi; aks holda mahalliy qatlamga xos talaffuz ishlatiladi. Bu yerda “indikatorlar ro‘yxati” korpusdan statistik usulda (masalan, eng ko‘p uchraydigan qo‘shnilar) chiqariladi.

3. Unlilarning “qattiq–yumshoq” variantlari va o‘zlashmalar

O‘zbek tilida ayrim unli fonemalar undosh muhitiga qarab “yumshoqroq/ingichka” yoki “qattiqroq/yo‘g‘on” tarzda yangraydi. Masalan, o‘ unlisi k, g, y, h kabi undoshlardan keyin yumshoqroq, q, g‘, x dan keyin yo‘g‘onroq talaffuz qilinishi kuzatiladi (ko‘l–qo‘l; go‘r–g‘o‘r; ho‘l–xo‘r) [Mirtojiyev, 2013:74]. Shunga o‘xshash farqlar a, i, u kabi unlilarda ham pozitsion variant sifatida qayd etiladi. O‘zlashma qatlamda esa k/g muhitidagi a ning yo‘g‘onlashuvi (karta, katalog), o ning o‘ga yaqinlashuvi (tom ‘jild’), u ning yumshoq variantlari kabi holatlar ko‘proq seziladi.

TTS yechimi: bu hodisa to‘liq “harf–tovush” qoidasi bilan emas, ‘qaror qabul qiluvchi’ ikki manba bilan hal qilinadi. Birinchisi – o‘zlashma leksikon: karta, katalog kabi so‘zlar talaffuz varianti bilan beriladi. Ikkinchisi – korpusga asoslangan uslubiy belgilash: ilmiy-rasmiy uslubda o‘zlashma terminlar ko‘proq uchragani uchun, matn uslubini taxmin qilish

(masalan, terminologik affiksoidlar bio-, avto-, -logiya bilan koʻpligi) ham variant tanlashga yordam beradi. Ya’ni, front-end “yoʻgʻonlashuv ehtimoli”ni leksik va uslubiy signallar bilan boshqaradi.

4. Ketma-ket unlilar (diftonglashuvga moyil tuzilmalar) va y/v orttirilishi

Oʻzlashma terminlarda ketma-ket unlilar koʻp uchraydi (aero-, audio-, arxaik, teatr, biologiya, duet va b.). Mirtojiyev oʻzbek tilida unlilar odatda qator kelmasligini, nutq oqimida esa oʻzlashma birliklarda yondosh unlilar artikulyatsion jipslashib, “diftonglashuvga moyil” holatga kirishini ta’kidlaydi. Amaliy talaffuzda bunday ketma-ket unlilar orasiga y yoki v undoshi orttiriladi: aerodrom → ayrodrom; auditoriya → avditoriya; teatr → teyatr; biologiya → biyologiya kabi (variantlar nutqiy me’yor doirasida) [Mirtojiyev, 2013:96].

TTS yechimi: ketma-ket unlilar uchun qoidaviy blok kiritiladi. Qoidaning mohiyati sodda: (1) agar V1+V2 ketma-ketligi (ae, ai, ea, eo, ia, io, iu, oi, ue, ui) boʻlsa, oraga y kiritish varianti tekshiriladi; (2) ao, au tipida v kiritish varianti tekshiriladi. Biroq bu qoida hamma soʻzda bir xil ishlamaydi, shuning uchun korpus ikki vazifani bajaradi: a) qaysi soʻzda qaysi variant ustunligini koʻrsatadi (chastota), b) istisnolar roʻyxatini beradi. Natijada front-end ‘teatr’ni korpusda ‘teyatr’ varianti ustun boʻlsa, oʻsha variantga yaqinlashtiradi; aks holda standart yozuvga yaqin talaffuzni saqlaydi.

5. Oʻzlashma soʻzlar va morfologiya: qoʻshimcha qoʻshilganda talaffuz barqarorligi

Oʻzlashmalar koʻpincha morfologik jihatdan ham “sinovli”: ular oʻzbekcha qoʻshimchalarni qabul qiladi (tomlar, kataloglar, jurnalda), lekin negiz talaffuzini saqlash yoki moslashtirish turlicha kechadi. Bu yerda muammo – soʻzningʻoʻzlashma negiz’ ekanini front-endning bilishi. Agar negiz belgilab qoʻyilmasa, umumiy fonetik qoidalar ortiqcha qoʻllanib, terminlar sun’iylashishi mumkin.

TTS yechimi: morfologik analizator natijasida soʻzning lemmasi va affikslar ketma-ketligi olinadi; soʻng lemma “oʻzlashma” yoki “oʻz qatlam” tegi bilan belgilangan boʻlsa, fonetik qoidalar differensial qoʻllanadi. Turk tilida talaffuz leksikoni morfologik analizator bilan birga ishlashi, zarur holatda morfologik disambiguatsiya talaffuzni ham ajratishi koʻrsatilgan. Oʻzbek tili uchun ham shunga yaqin yechim korpus yordamida amaliy boʻladi: oʻzlashma tegini korpusdan terminologik signallar (masalan, -logiya, -izm, bio-, avto-) orqali avtomatik taklif qilish, soʻngra qoʻlda tekshirib leksikonga kiritish.

6. Qardosh tillar tajribasi: oʻzlashmalarni qamrashning lingvistik mexanizmlari

Turk tilida oʻzlashma qatlam juda katta boʻlsa-da, talaffuz leksikoni va G2P qoidalari “istisno + qoida” tamoyiliga tayangan. Shuningdek, lingvistik yechimlar koʻpincha kuchli morfologik tahlil va qoidaga asoslangan G2P uygʻunligiga tayanadi. Oflazer turk

morfologiyasini ikki darajali (two-level) model asosida tavsiflab, so‘zning morfologik tuzilishini avtomatik ochish talaffuzni barqarorlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Altınok turkcha qoidaga asoslangan G2Pda o‘zlashmalar uchun istisno ro‘yxatlari va maxsus normalizatsiya qoidalarining zarurligini alohida qayd etadi[Altınok, 2016; Khassanov va boshq., 2021]. Yuret va Türe esa morfologik disambiguatsiya (bir shaklga bir nechta tahlil keladigan holatlarni ajratish) TTS/ASR kabi tizimlarda xatoliklarni kamaytirishini ko‘rsatgan .

Qozoq tilida ruscha o‘zlashmalar (ayniqsa shahar nomlari, texnik terminlar) urg‘u va fonotaktika jihatidan farq qiladi. KazakhTTS kabi ochiq resurslarda nutq sintezi uchun matn–talaffuz mosligi muhim masala sifatida ko‘tariladi. Bu tajribadan o‘zbek tili uchun olinadigan saboq: o‘zlashma terminlar korpusda qaysi uslubda ko‘p uchrashini bilish va talaffuz variantini shu signal bilan boshqarish.

Tatar tilida nutq texnologiyalarida grafema–fonema o‘tkazish qoidalari asosiy bo‘g‘in sifatida ko‘riladi; avtomatik fonetik transkripsiya algoritmini G2P qoidalari tashkil etishi ta’kidlanadi. TatarTTS resursi esa korpus-yorliqlangan audio ma’lumotlar talaffuz leksikonini boyitishda qanday amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Demak, turkiy tillarda umumiy yechim – qoidalar, istisno ro‘yxatlari, korpusga tayangan tekshiruv va yangilash.

Xulosa

O‘zlashma so‘zlar o‘zbek TTSning lingvistik front-endida alohida “kuzatuv nuqtasi” bo‘lib, ular orqali yozuv–talaffuz nomutanosibligi yaqqol ko‘rinadi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni beradi:

1) Bifonemali grafemalar (xususan, j) o‘zlashmalarda maxsus talaffuz ro‘yxati va korpusga tayangan doimiy yangilanib borishlikni talab qiladi.

2) Omograflar (tom va b.) uchun kontekst-indikatorlar korpusdan statistik chiqarilib, front-endda oddiy qoidalar bilan ishlatilsa, talaffuz aniqligi oshadi.

3) Ketma-ket unlilar va y/v orttirilishi kabi hodisalar qoidalashtiriladi, ammo korpus istisnolarni aniqlash va variant ustuvorligini belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

4) Qardosh tillar tajribasi (turk, qozoq, tatar) o‘zlashmalarni qamrash uchun ‘qoida + leksikon + korpus’ uchligining zarurligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, o‘zbek tili elektron korpusiga tayangan lingvistik normalizatsiya va talaffuz leksikonini tizimli boyitish – o‘zbek TTSning tabiiyligini oshiradigan, xususan o‘zlashma qatlamni barqaror ovozlashtiradigan eng samarali yo‘ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altınok, D. (2016). Towards Turkish ASR: Anatomy of a rule-based Turkish g2p. arXiv. https://arxiv.org/abs/1601.03783
2. Oflazer, K. (1992). Two-level description of Turkish morphology. In Proceedings of COLING 1992 (pp. 1–6).
3. Yuret, D., & Türe, F. (2006). Learning morphological disambiguation rules for Turkish. In Proceedings of NAACL-HLT 2006 (pp. 328–334). Association for Computational Linguistics. https://doi.org/10.3115/1220835.1220877
4. Khassanov, Y., et al. (2021). KazakhTTS: An open-source Kazakh text-to-speech synthesis dataset. In Proceedings of Interspeech 2021 (pp. 440–444). ISCA. https://doi.org/10.21437/Interspeech.2021-93
5. (Dataset) TatarTTS: Open-source text-to-speech dataset for the Tatar language. (n.d.). Hugging Face Datasets. https://huggingface.co/datasets
6. Abdurakhmonova, N., Tuliyev, U., & Gatiatullin, A. (2021). Linguistic functionality of Uzbek Electron Corpus: uzbekcorpus.uz. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1–4). IEEE.
7. Abdurakhmonova, N., Alisher, I., & Sayfulleyeva, R. (2022). MorphUz: Morphological analyzer for the Uzbek language. In 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 61–66). IEEE.
8. Rahmatullayev, S. (2006). Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent: Universitet.
9. Mirtojiyev, M. M. (2013). O‘zbek tili fonetikasi. Toshkent: Universitet.
10. Tog‘ayev I. B. (2025). Computer modeling of phonetic and orthographic transliteration of loanwords in the Uzbek language. Development of Science. **https://devos.uz/article.php?id=1844**
11. Hamroyeva S. M., & Makhmudjonova G. U. (2025). The significance of G2P models for the low-resource Uzbek language. Қ. Жұбанов атындағы Ақтөбе өңірлік университетінің хабаршысы, 2(80).

ELEKTRON LUG‘ATLARDA SO‘Z MA’NOLARINI VIZUALIZATSIYA QILISHNING DASTURIY MODELLARI

Toshmurodova Zaynura Ixtiyarovna
AIFU magistranti

Annotatsiya: Mazkur ishda elektron izohli lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilishning dasturiy modellari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi so‘z ma’nolarini vizual semantik tarmoqlar orqali tasvirlashning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Ishda vizual semantik tarmoq modeli asosida so‘z ma’nolarini tugunlar va ular orasidagi semantik bog‘lanishlar orqali ifodalash mexanizmi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, elektron lug‘atlarning dasturiy arxitekturasi, ya’ni ma’lumotlar bazasi, vizual grafik modullar va foydalanuvchi interfeysining o‘zaro integratsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari vizualizatsiyaga asoslangan elektron lug‘atlar an’anaviy matnli izohli lug‘atlarga nisbatan so‘z ma’nolarini anglash, tizimlashtirish va eslab qolish jarayonida yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv raqamli leksikografiya, filologik ta’lim hamda til o‘rganish jarayonlarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *elektron lug‘at, so‘z ma’nosi, vizualizatsiya, semantik tarmoq, dasturiy model, interaktiv tizim, raqamli leksikografiya, polisemantik so‘zlar, semantik bog‘lanish, vizual interfeys, kognitiv jarayon, ta’lim texnologiyalari.*

Annotation: This paper provides a scientific analysis of software models for visualizing word meanings in electronic explanatory dictionaries. The main objective of the study is to examine the theoretical foundations and practical possibilities of representing word meanings through visual semantic networks. The paper explores the mechanism of modeling word meanings as nodes and the semantic relations between them based on a visual semantic network model. In addition, the software architecture of electronic dictionaries—namely, the integration of databases, visual graphic modules, and user interfaces—is analyzed. The research results demonstrate that visualization-based electronic dictionaries are more effective than traditional text-based explanatory dictionaries in terms of understanding, structuring, and memorizing word meanings. This approach has significant scientific and practical value for the development of digital lexicography, philological education, and language learning processes.

Keywords: *electronic dictionary, word meaning, visualization, semantic network, software model, interactive system, digital lexicography, polysemous words, semantic relations, visual interface, cognitive processes, educational technologies.*

Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi zamonaviy leksikografiya oldiga yangi ilmiy va amaliy vazifalarni qo‘ymoqda. Axborotni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va tizimlashtirishga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi an’anaviy izohli lug‘atlarda qo‘llanilgan yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, elektron izohli lug‘atlarda so‘z ma’nolarini faqat matnli izohlar orqali taqdim etish zamonaviy foydalanuvchilarning kognitiv ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi, chunki bunday yondashuv so‘zlarning murakkab semantik tuzilmasi va ularning o‘zaro munosabatlarini yetarli darajada aks ettirmaydi. Bugungi kunda foydalanuvchilar, ayniqsa talaba-yoshlar va til o‘rganuvchilar, axborotni vizual va interaktiv shaklda qabul qilishga ko‘proq moyil bo‘lib bormoqda. Shu bois elektron lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizual semantik tarmoqlar asosida tasvirlash muhim ilmiy-amaliy yechim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Vizual semantik tarmoqlar so‘z ma’nolarini alohida tugunlar sifatida ifodalab, ular orasidagi sinonimik, antonimik, giperonimik hamda assotsiativ bog‘lanishlarni yaqqol ko‘rsatish imkonini beradi. Natijada so‘zning ichki mazmuniy tuzilmasi tizimli va aniq ko‘rinishda ochib beriladi. Bunday vizual yondashuv foydalanuvchining kognitiv faolligini oshirib, so‘z ma’nolarini chuqurroq anglash, ularni qiyoslash va umumlashtirish jarayonlarini faollashtiradi. Shuningdek, vizual semantik tarmoqlar asosida tashkil etilgan elektron lug‘atlar so‘z boyligini shakllantirish, polisemantik birliklarni o‘zlashtirish hamda kontekstual ma’nolarni farqlashda yuqori samaradorlikka ega. Shu jihatdan, so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilish zamonaviy raqamli leksikografiyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolada elektron lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilishda qo‘llaniladigan dasturiy modellar, ularning strukturaviy komponentlari hamda funksional imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Vizualizatsiya jarayonining asosini semantik tarmoq modeli tashkil etib, unda so‘z ma’nolari alohida tugunlar (nodes) sifatida ifodalanadi, tugunlar orasidagi bog‘lanishlar esa semantik munosabatlarni aks ettiradi [D.Crystal, 1]. Bunda sinonimiya, antonimiya, giperonimiya, giponimiya, metaforik va assotsiativ aloqalar graf ko‘rinishida modellashtiriladi. Tadqiqotda polisemantik so‘zlarni vizual tarmoqlar orqali ifodalash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. An’anaviy lug‘atlarda bunday so‘zlarning ma’nolari ketma-ket matn shaklida berilsa, vizual dasturiy modellar ularni tizimli, mantiqiy va ierarxik tarzda ko‘rsatish imkonini yaratadi. Natijada foydalanuvchi so‘zning markaziy va


ikkilamchi ma’nolarini, ularning o‘zaro bog‘liqligini bir vaqtning o‘zida idrok etish imkoniga ega bo‘ladi.

So‘nggi yillarda elektron lug‘atlar va raqamli leksikografiya masalalari lingvistika, axborot texnologiyalari hamda ta’lim sohalari kesishmasida faol tadqiq etilmoqda. Xususan, so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilish masalasi kognitiv lingvistika va semantik modellashtirish yo‘nalishlari doirasida muhim ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Ilmiy manbalarda an’anaviy izohli lug‘atlarning asosiy kamchiligi sifatida so‘z ma’nolarining faqat matnli izoh orqali berilishi, bu esa polisemantik so‘zlarning ichki semantik tuzilishini to‘liq anglashni qiyinlashtirishi ta’kidlanadi. Shu bois bir qator tadqiqotchilar elektron lug‘atlarda semantik munosabatlarni graf, diagramma va konseptual xaritalar orqali ifodalash zarurligini ilgari surganlar [C.Fellbaum, 3]. Xorijiy tadqiqotlarda vizual semantik tarmoqlar so‘zlar o‘rtasidagi sinonimiya, antonimiya, giperonimiya va assotsiativ aloqalarni aniqlashda samarali vosita sifatida baholanadi. Ushbu ishlarda vizual modellar foydalanuvchining kognitiv faolligini oshirishi, so‘z ma’nolarini tezroq idrok etish va uzoq muddat xotirada saqlashga xizmat qilishi ilmiy tajribalar orqali asoslangan. Ayniqsa, interaktiv vizual lug‘atlar til o‘rganishda yuqori didaktik samara berishi qayd etilgan. MDH va mahalliy ilmiy adabiyotlarda elektron lug‘atlar masalasi ko‘proq leksikografik tamoyillar, lug‘at tuzish metodikasi hamda axborot resurslarini yaratish nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda so‘z ma’nolarini aynan vizual semantik tarmoqlar asosida dasturiy modellashtirish masalasi yetarlicha tizimli va chuqur yoritilmagan. Aksariyat ishlar matnli izohni raqamli muhitga ko‘chirish bilan cheklanib, vizualizatsiyaning kognitiv va interaktiv imkoniyatlari to‘liq ochib berilmagan.

Shuningdek, mavjud ilmiy tadqiqotlarning bir qismida vizualizatsiya tushunchasi asosan grafik dizayn, interfeys elementlari yoki axborotni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi sifatida talqin qilingan bo‘lib, so‘z ma’nolari o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlarning ichki tuzilmasi, ularning tizimliligi va o‘zaro munosabatlari yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Bunday yondashuvlarda vizual elementlar ko‘proq estetik yoki ergonomik vazifani bajarib, semantik aloqalarning mazmuniy mohiyati va ularni dasturiy modellar orqali ifodalash mexanizmlari ikkinchi darajali masala sifatida qolib ketgan [R.Lew, 2]. Ayniqsa, elektron lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilish jarayonida semantik tarmoqlarning tugun va bog‘lanishlardan iborat murakkab tuzilmasi, ularning lingvistik asoslari hamda dasturiy realizatsiyasi o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Natijada vizualizatsiya ko‘pincha mazmunni chuqurlashtiruvchi ilmiy vosita sifatida emas, balki yordamchi grafik element sifatida cheklangan holda qo‘llanilgan.

Mazkur holat elektron izohli lug‘atlarda vizual semantik tarmoqlarni kompleks, ya’ni lingvistik, kognitiv va texnologik yondashuvlar asosida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday kompleks yondashuv so‘z ma’nolarining ichki tuzilishini, ularning o‘zaro semantik munosabatlarini va bu munosabatlarning dasturiy modellar orqali qanday ifodalanishini bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda elektron izohli lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilishning dasturiy modellari lingvistik va texnologik jihatlar uyg‘unligida tahlil qilinadi. Tadqiqot mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda vizual semantik tarmoqlarni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy jihatdan tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan, dasturiy jihatdan modellashtirilgan va ta’lim jarayonida samarali qo‘llaniladigan tizim sifatida asoslab berishi bilan ajralib turadi.



1-rasm. Elektron lug‘atning dasturiy arxitekturasi

Shuningdek, maqolada elektron lug‘atlarning dasturiy arxitekturasi, ya’ni ma’lumotlar bazasi, vizual grafik modullar va foydalanuvchi interfeysi o‘rtasidagi integratsiya tamoyillari batafsil yoritiladi. Zamonaviy elektron lug‘atlar ko‘p qatlamli arxitekturaga ega bo‘lib, ularning asosini leksik birliklar, semantik bog‘lanishlar hamda kontekstual ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan strukturaviy ma’lumotlar bazasi tashkil etadi. Ushbu ma’lumotlar bazasi vizual grafik

modullar bilan uzviy bog‘langan holda ishlaydi va so‘z ma’nolarini graf, tarmoq yoki konseptual xarita shaklida aks ettirish imkonini beradi [B.T.Atkins, S.Rundell, 5]. Vizual grafik modullar so‘z ma’nolari o‘rtasidagi sinonimik, antonimik, giperonimik va assotsiativ munosabatlarni dinamik tarzda tasvirlab, foydalanuvchiga murakkab semantik tuzilmani bir butun tizim sifatida idrok etishga yordam beradi. Foydalanuvchi interfeysi esa ushbu vizual modellar bilan samarali o‘zaro aloqani ta’minlab, elektron lug‘atdan foydalanishni intuitiv va qulay qiladi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, intuitiv interfeys va vizual elementlarning uyg‘unligi axborotni o‘zlashtirish tezligini sezilarli darajada oshiradi hamda kognitiv yuklamani kamaytiradi. Vizualizatsiya jarayonida interaktivlik muhim omil sifatida qaraladi. Xususan, foydalanuvchining ma’lum bir tugunni tanlashi orqali so‘zning kengaytirilgan izohi, real nutqiy kontekstlardan olingan misollar, stilistik bo‘yoqlar va pragmatik xususiyatlar haqida batafsil ma’lumot olish imkoniyati yaratiladi. Bu esa so‘z ma’nosini faqat lug‘aviy darajada emas, balki nutqiy va ijtimoiy kontekstda ham anglashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday interaktiv vizual muhitda taqdim etilgan leksik birliklar an’anaviy matnli izohlarga nisbatan foydalanuvchilar tomonidan tezroq o‘zlashtiriladi va uzoq muddat xotirada saqlanadi. Mazkur yondashuv elektron lug‘atni oddiy ma’lumot manbaidan interaktiv o‘quv vositasiga aylantirib, uni til o‘rganish, filologik ta’lim va mustaqil bilim olish jarayonlarida samarali didaktik platforma sifatida qo‘llash imkonini beradi. Shu jihatdan, elektron lug‘atlarning dasturiy arxitekturasi va interaktiv vizualizatsiya mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy raqamli leksikografiyaning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, vizual semantik tarmoqlar asosida ishlab chiqilgan elektron lug‘atlar foydalanuvchilarning kognitiv faolligini oshiradi, so‘z ma’nolarini chuqurroq anglash va uzoq muddatli xotirada saqlash jarayonini jadallashtiradi. Ayniqsa, til o‘rganish, filologik ta’lim va lingvistik tadqiqotlarda ushbu dasturiy modellar yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillar natijalariga tayangan holda, elektron lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilishning dasturiy modellarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, elektron izohli lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizual semantik tarmoqlar orqali ifodalashni asosiy modellashtirish yondashuvi sifatida joriy etish maqsadga muvofiq, chunki bunday yondashuv leksik birliklarning ichki semantik tuzilishini tizimli va ko‘rgazmali tarzda ochib berish imkonini yaratadi. Shuningdek, vizualizatsiya jarayonida lingvistik va dasturiy komponentlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash zarur bo‘lib, bu vizual modellarni nafaqat grafik, balki mazmunan ilmiy asoslangan tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, elektron lug‘atlarning dasturiy arxitekturasida ma’lumotlar

bazasi, vizual grafik modullar va foydalanuvchi interfeysi o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish tavsiya etiladi, chunki ushbu komponentlarning uzviy bog‘liqligi vizual semantik tarmoqlarning barqaror ishlashi va kengaytirilishiga imkon beradi. Vizual tarmoqlar asosida yaratilgan elektron lug‘atlarda interaktivlik darajasini oshirish, ya’ni foydalanuvchining alohida tugunlarni tanlashi orqali kengaytirilgan izohlar, kontekstual misollar va pragmatik ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratish lug‘atdan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, vizual semantik tarmoqlarni modellashtirishda polisemantik va sinonimik birliklarga alohida e’tibor qaratish, ularni ustuvor obyekt sifatida tahlil qilish tavsiya etiladi, chunki aynan ushbu birliklar foydalanuvchilar uchun eng murakkab hisoblanadi. Elektron lug‘atlarning vizual modellarini ta’lim jarayoniga moslashtirish, ularni mustaqil ta’lim va masofaviy o‘qitish tizimlariga integratsiyalash esa raqamli ta’lim resurslarining samaradorligini oshiradi.

Tavsiyalar:

lektron lug‘atlarda vizual semantik tarmoqlarni asosiy modellashtirish usuli sifatida joriy etish tavsiya etiladi - chunki so‘z ma’nolarini tugunlar va ular o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlar orqali ifodalash foydalanuvchiga leksik birliklarning ichki tuzilmasini yaxlit tizim sifatida anglash imkonini beradi hamda polisemantik so‘zlarni o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi;

so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilishda lingvistik va dasturiy yondashuvlarning uyg‘unligini ta’minlash zarur - zero vizual model nafaqat grafik ko‘rinishga ega bo‘lishi, balki semantika, pragmatika va kontekstual ma’no qatlamlariga asoslangan aniq lingvistik mezonlar asosida qurilishi elektron lug‘atning ilmiy ishonchliligini ta’minlaydi;

vizualizatsiya modellarini ishlab chiqishda interaktivlik darajasini oshirish tavsiya etiladi - ya’ni foydalanuvchi vizual tarmoqdagi har bir tugunni tanlash orqali kengaytirilgan izoh, kontekstual misollar, stilistik va pragmatik ma’lumotlarni olishi elektron lug‘atni oddiy ma’lumot manbaidan samarali o‘quv vositasiga aylantiradi;

elektron lug‘atlarning dasturiy arxitekturasida ma’lumotlar bazasi, vizual grafik modul va foydalanuvchi interfeysini integratsiyalashgan holda loyihalash lozim - chunki mazkur komponentlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik vizual semantik tarmoqlarning barqaror ishlashi, tezkor yangilanishi va kengaytirilishiga imkon yaratadi;

vizual semantik tarmoqlarni modellashtirishda polisemantik va sinonimik birliklarga ustuvor e’tibor qaratish maqsadga muvofiq - sababi aynan ushbu leksik birliklar foydalanuvchilar uchun eng murakkab hisoblanadi va ularni vizual tarmoq orqali ifodalash lug‘atdan foydalanish samaradorligini oshiradi;

elektron lug‘atlarda vizualizatsiya modellarini ta’lim jarayoniga moslashtirish tavsiya etiladi - ya’ni vizual semantik tarmoqlar o‘quvchilar va talabalar yosh xususiyatlari hamda bilim darajasini inobatga olgan holda soddalashtirilgan yoki kengaytirilgan shaklda taqdim etilishi ta’lim samaradorligini oshiradi;

kelgusida elektron lug‘atlarning vizual modellarini sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash tavsiya etiladi - chunki avtomatik semantik bog‘lanishlarni aniqlash va vizual tarmoqlarni dinamik ravishda yangilab borish elektron lug‘atchilikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi tavsiyalar elektron lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizual semantik tarmoqlar asosida dasturiy modellashtirishni ilmiy va amaliy jihatdan takomillashtirishga xizmat qilib, raqamli leksikografiyaning zamonaviy talablarga mos rivojlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, elektron lug‘atlarda so‘z ma’nolarini vizualizatsiya qilishning dasturiy modellari raqamli leksikografiyani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, an’anaviy lug‘atchilik yondashuvlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish hamda til birliklarini talqin etishning innovatsion usullarini joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Vizual semantik tarmoqlar asosida ishlab chiqilgan elektron lug‘atlar so‘z ma’nolarining ichki tuzilmasini tizimli va aniq ko‘rinishda aks ettirib, foydalanuvchilarning kognitiv faolligini oshiradi hamda bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur dasturiy modellar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli ta’lim resurslarining samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib, kelgusida sun’iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashgan ilg‘or elektron lug‘atlar yaratish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Crystal, Language and the Internet. - Cambridge: Cambridge University Press, 2011.

2. R.Lew, Electronic Dictionaries and Lexicography. - Oxford: Oxford University Press, 2015.

3. C.Fellbaum, (Ed.). WordNet: An Electronic Lexical Database. - Cambridge, MA: MIT Press, 1998.

4. J.Aitchison, Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. - Oxford: Wiley-Blackwell, 2012.

5. B.T.Atkins, S.Rundell, M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. - Oxford: Oxford University Press, 2008.

O‘ZBEK NASRIY ASARLARIDA SARLAVHANING SEMANTIK VA POETIK AHAMIYATI

Sayfiyeva Madina Alisher qizi
Magistrant
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
madinaxonsa@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek nasriy asarlarida sarlavhaning semantik va poetik funksiyalari lingvopoetik yondashuv asosida yoritildi. Sarlavha badiiy matnning muhim struktur-kommunikativ unsuri sifatida asar mazmunini oldindan belgilovchi hamda muallif g‘oyasini ixcham va ramziy shaklda ifodalovchi birlik ekanligi asoslandi. Bunda sarlavhaning nominativ, informativ, ekspressiv va konseptual vazifalari ajratilib, ularning o‘zbek nasrida namoyon bo‘lish xususiyatlari ko‘rsatib berildi. Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov va Tog‘ay Murod asarlari misolida sarlavha va matn o‘rtasidagi semantik uyg‘unlik hamda poetik bog‘liqlik tahlil qilindi. Sarlavha faqat tashqi nomlash vositasi emas, balki badiiy tafakkurning muhim elementi sifatida talqin qilindi.

***Kalit so‘zlar**: sarlavha, semantika, poetika, badiiy matn, o‘zbek nasri, ramz, konsept, lingvopoetika.*

Annotation. This article examines the semantic and poetic functions of titles in Uzbek prose from a linguopoetic perspective. The title is considered an essential structural and communicative element that anticipates the content of a literary text and conveys the author’s idea in a concise and symbolic form. The article outlines the nominative, informative, expressive, and conceptual functions of titles and analyzes their manifestation in Uzbek prose. Based on works by Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov, and Tog‘ay Murod, the relationship between the title and the literary text is explored. The title is interpreted not merely as a naming unit but as an integral part of artistic thinking.

Keywords: *title, semantics, poetics, literary text, Uzbek prose, symbol, concept.*

Badiiy asar sarlavhasi adabiy matnning tashqi belgilaridan biri bo‘lib, ko‘pincha muallifning matnni shakllantirishdagi dastlabki niyatini ifodalaydigan asosiy element sifatida qaraladi. Biroq sarlavha faqatgina tashqi belgi emas, balki asarning ichki mazmuni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, uning semantik tizimining ajralmas komponentidir. Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda sarlavha matnning “semantik markazi” sifatida baholanadi.

U o‘quvchi bilan badiiy matn o‘rtasida dastlabki kommunikativ aloqa o‘rnatadi va matnni idrok etish jarayonini muayyan yo‘nalishga soladi. Shu jihatdan sarlavha nafaqat informativ, balki interpretativ funksiyaga ham ega bo‘lib, o‘quvchining matnni talqin qilishini oldindan belgilab beradi [Galperin, 1981].

O‘zbek nasriy adabiyotida sarlavha ko‘pincha ramziy va umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik mazmunini ixcham va ko‘p qatlamli shaklda mujassamlashtiradi. Sarlavha orqali muallif asardagi asosiy muammoni, syujet chizig‘ini, qahramonlararo munosabatlarni va badiiy fikrning markaziy g‘oyasini ilgari suradi. Ayniqsa, XX asr o‘zbek nasrida sarlavhalarning poetiklashuvi kuchayib, ular matn mazmunini ochishda muhim semantik kalit vazifasini bajara boshladi. Bu jarayon adabiy matnning ichki strukturasi va semantik xaritasini sarlavha orqali aniqlash imkonini berdi. Masalan, Abdulla Qahhor hikoyalarida sarlavha ko‘pincha syujetning markaziy dramatik nuqtasini aks ettirsa, O‘tkir Hoshimovning ijtimoiy-psixologik nasrida sarlavha qahramonning ichki dunyosi va jamiyat bilan ziddiyatini ifodalovchi ramziy vositaga aylanadi. Shuningdek, Tog‘ay Murod asarlarida sarlavha badiiy matnning poetik tizimini belgilovchi muhim semantik signaturaga ega bo‘lib, asarning umumiy ruhini oldindan sezdiradi.

Sarlavha masalasining dolzarbligi shundaki, u ko‘pincha badiiy tahlilda ikkinchi darajali, ya’ni “tashqi” unsur sifatida e’tibordan chetda qoladi. Aslida esa sarlavha badiiy matnning semantik markazlaridan biri bo‘lib, asarning umumiy mazmuni va poetik tizimini belgilaydi. Y.Lotman fikricha, “Badiiy matndagi har bir element yagona semantik tizimga bo‘ysunadi va sarlavha ana shu tizimning boshlang‘ich nuqtasini tashkil etadi. U matnning boshqa elementlari bilan o‘zaro bog‘lanib, semantik qavatlarni chuqurlashtiradi hamda matnning strukturaviy uyumini ta’minlaydi” [Lotman, 1992: 34]. Shunday ekan, sarlavha nafaqat matnni nomlash, balki uni semantik markazlashtirish vazifasini ham bajaradi.

O‘zbek nasriy asarlarida sarlavhaning semantik va poetik ahamiyatini tahlil qilish, uning badiiy matn bilan munosabatini lingvopoetik yondashuv asosida ochib berish ahamiyatlidir. Tadqiqot doirasida sarlavhaning ma’no qatlamlari, estetik vazifalari va badiiy matnni interpretatsiyalashdagi roli aniqlandi. Buning uchun sarlavhaning funksional imkoniyatlari, semantik zanjirlari va pragmatik ta’siri konkret adabiy misollar orqali o‘rganildi. Shu bilan birga, sarlavhaning matn ichidagi o‘rni, uning struktura va semantika bilan o‘zaro munosabati hamda o‘quvchi ongida uyg‘otadigan intuitsion va estetik reaksiyasi ham tahlil qilindi.

Adabiy matnning tashqi ko‘rinishi va ichki mazmuni o‘rtasida sarlavha muhim bog‘lovchi vosita vazifasini bajaradi. Sarlavha ko‘pincha asarning nomi sifatida ko‘rilsa-da, uning semantik roli bundan ancha kengroqdir. U matnni nomlashdan tashqari, o‘quvchining

matnni idrok etishiga yo‘l ko‘rsatadigan boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida sarlavha ko‘pincha “matnning semantik elementlari”, “yo‘naltiruvchi signal” yoki “kommunikativ kalit” kabi tushunchalar bilan ta’riflanadi.

I.R.Galperinning fikricha, matn yaxlit semantik birlik bo‘lib, uning mazmuniy qatlami bir-biriga bog‘langan elementlardan tashkil topadi. Sarlavha esa shu yaxlitlikni shakllantiruvchi boshlang‘ich bosqich sifatida qaraladi. Ya’ni o‘quvchi matnni o‘qishga kirishganda, sarlavha orqali asarning asosiy g‘oyasi, muammosi yoki ruhiy kayfiyati haqida dastlabki tasavvurga ega bo‘ladi [Galperin, 1981: 48]. Shu bilan sarlavha matnning ichki tuzilishiga kirishish uchun yo‘nalish beradi va uning semantik markazini aniqlashga xizmat qiladi.

Sarlavha o‘quvchining matnga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi, uning o‘qish strategiyasini belgilaydi va matnni talqin qilish jarayonida asosiy “yo‘l-yo‘riq” vazifasini bajaradi. Bu jihatni Y.Lotman badiiy matnni belgilar tizimi sifatida ko‘rib chiqishda alohida ta’kidlaydi. Y.Lotmanga ko‘ra, “Sarlavha matn ichidagi semantik signal bo‘lib, uning yordamida o‘quvchi matnning struktura va mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi hamda matnning boshqa elementlarini tushunishda ularga yo‘naltiruvchi vazifa bajaradi” [Lotman, 1992: 31]. Shunday qilib, sarlavha badiiy matnning semantik tizimida markaziy rol o‘ynaydi va o‘quvchining interpretativ faoliyatini boshlang‘ichdan tartibga soladi.

O‘zbek nasriy adabiyotida sarlavha ko‘pincha qisqa, lekin mazmun jihatdan chuqur bo‘ladi, ya’ni o‘ziga bir asar mazmunini singdira oladi. O‘zbek nasrida shunday sarlavhalar borki, ular 500-600 sahifada aks ettirilgan mazmunni o‘zida yaqqol ifodalay oladi. Masalan, “Jimjitlik”, “Ufq”, “Sarob”, “Ikki eshik orasi”, “Nur borki, soya bor”. Aytish o‘rinliki, yana shunday sarlavhalar borki, o‘zi nom bo‘lgan matn ichida bir marta ham qo‘llanmaydi, lekin matn haqida batafsil ma’lumot beradi. Masalan, O‘.Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” turkumiga kiritilgan bir lavhasida o‘zi aloqador bo‘lgan badiiy matnda umuman qo‘llanmagan, faqat sarlavha bo‘lib kelgan “Sadoqat” biblionimi kuzatildi. Yoki “XX asr o‘zbek she’riyatining ulkan vakili Mirtemirning “Shudring” deb nomlangan she’rining biror-bir misrasida shudring so‘zini uchratmaymiz” [Z.Muqimova, 2020:10]. Bundan ko‘rinadiki, har ikkala muallif sarlavhani matn tarkibida bir marta ham qo‘llamay, o‘quvchiga so‘zning sinoatini, kuchini, obrazli estetik vazifasini ko‘rsata olgan.

Sarlavha matnning to‘liq mazmunini bayon etmaydi, aksincha uni umumlashtirib, ramziy shaklda ifodalaydi yoki asarning g‘oyaviy markazini yoritib beradi. Shuning uchun o‘zbek nasrida sarlavha ko‘pincha syujetning asosiy g‘oyasini, muallifning qarashlarini va matnning estetik yo‘nalishini oldindan sezdiradi. Ayniqsa, XX asr o‘zbek nasrida

sarlavhalarning poetikligi ortib, ular matn mazmunini ochishda muhim semantik kalitga aylangan.

Sarlavha semantik nuqtayi nazardan ko‘p qatlamli, turli ma’nolarni o‘zida jamlagan element sifatida qaraladi. U matnning mazmunini bevosita bayon qilishi yoki yashirin, ramziy yo‘l bilan aks ettirishi mumkin. Adabiyotshunoslik va lingvistika tadqiqotlarida sarlavhaning semantik vazifalari odatda bir nechta asosiy guruhga bo‘linadi: nominativ, informativ, konseptual va implikativ funksiyalar.

Nominativ funksiya sarlavhaning eng oddiy va asosiy vazifasi bo‘lib, asarni nomlash, uning identifikatsiyasini ta’minlash bilan bog‘liq. Bu funksiya orqali matn tashqi ko‘rinishda tartiblanadi, o‘quvchiga qaysi asar bilan ishlashini aniqlash imkoniyati beriladi. Informativ funksiya esa sarlavha orqali asarning mavzusi, voqea markazi yoki asosiy jarayoni haqida qisqacha tasavvur beradi. Boshqacha qilib aytganda, informativ sarlavha o‘quvchiga matnning “nimasi haqida” ekanini ko‘rsatadi.

Konseptual funksiya sarlavhaning semantik mohiyatini chuqurlashtiruvchi xususiyat hisoblanadi. Bu funksiya doirasida sarlavha asardagi markaziy g‘oya, muammo va masalalarni umumlashtirib, ularni bitta konseptual birlikka aylantiradi. Shunday qilib, sarlavha o‘quvchining matnni talqin qilishida “asosiy g‘oyaviy markaz” sifatida xizmat qiladi. Implikativ funksiya esa sarlavhani ma’no jihatdan yanada murakkab, yashirin qatlamga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Implikativ sarlavha ko‘pincha bevosita bayon etilmagan, balki o‘quvchini tafakkurga chorlaydigan, ramziy yoki kontekstual ma’nolarni o‘zida yashirgan bo‘ladi. Bu turdagi sarlavha o‘quvchini matnga chuqurroq kirishga undaydi, uning interpretatsiyasini kengaytiradi [Florenskaya, 2009: 74].

O‘zbek nasrida, ayniqsa, konseptual sarlavhalar keng tarqalganligi kuzatiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidagi sarlavha birinchi qarashda oddiy hodisa nomini bildirgandek tuyuladi. Biroq matn mazmuni tahlil qilinsa, u ijtimoiy adolatsizlik, ma’naviy inqiroz, insoniy qadriyatlarning yemirilishi kabi keng ko‘lamli muammolar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab semantik maydonni ochib beradi. Shu tarzda sarlavha asarning umumiy g‘oyaviy tuzilishini birlashtiruvchi konsept sifatida namoyon bo‘ladi va o‘quvchining matnni talqin qilishini boshqaradi**.**

Sarlavha poetik jihatdan o‘ziga xos estetik kuchga ega bo‘lib, u badiiy matnning obrazlilik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Poetik sarlavha o‘quvchida ma’lum bir kayfiyat, hissiy holat yoki idrok rejimini uyg‘otadi, shu orqali matnni o‘qishga tayyorlab qo‘yadi. Uning poetik ta’siri ko‘pincha lingvistik va semantik vositalar: metafora, ramz, assotsiatsiya,

allegoriya va boshqa badiiy usullar orqali amalga oshadi. Shunday qilib, sarlavha matnning mazmunini faqat nomlash bilan cheklanmay, uning estetik rangini ham belgilab beradi.

Poetik sarlavha koʻpincha matnning ichki obrazini oldindan sezdiradi, voqea yoki muhitning ruhini ifodalaydi. Masalan, Togʻay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi sarlavha nafaqat geografik yoki joy nomini bildiradi, balki avlodlar xotirasi, milliy qadriyatlar, oila tarixi va tarixiy meros kabi tushunchalarni ham poetik koʻrinishda birlashtiradi. Bu sarlavha oʻquvchida oʻtmish va hozirgi zamon oʻrtasidagi bogʻliqlikni his qilishga imkon beradi, matnning asosiy gʻoyaviy yoʻnalishini belgilaydi. Shunday qilib, sarlavha va matn oʻrtasidagi semantik bogʻlanish yanada mustahkamlanadi, matn mazmuni chuqurroq idrok etiladi.

Oʻzbek nasrida poetik sarlavhalar muallifning individual uslubini ham yaqqol aks ettiradi. Masalan, Oʻtkir Hoshimov asarlaridagi sarlavhalar koʻpincha falsafiy va umumlashtiruvchi xarakterga ega boʻlib, inson hayoti, ijtimoiy muhit va jamiyat muammolarini kengroq nuqtayi nazardan koʻrishga undaydi. Bu sarlavhalar muallifning badiiy dunyoqarashi, estetik didi va ma’naviy qarashlarini oʻquvchiga yetkazishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Shu bilan sarlavha badiiy matnning poetik tizimida nafaqat nom, balki muallifning obraziy fikrini ifodalovchi, uning uslubiy “imzosi” boʻlib xizmat qiladi.

Sarlavha va badiiy matn oʻrtasidagi aloqaning mohiyati ikki tomonlama xarakterga ega boʻlib, ular bir-birini oʻzaro toʻldiradi. Bir tomondan, sarlavha matnning semantik yoʻnalishini belgilab beradi, oʻquvchining e’tiborini muayyan mavzu, gʻoya yoki voqea markaziga yoʻnaltiradi. Boshqa tomondan esa matn oʻz ichidagi voqea, obraz va muammolarni rivojlantirib borib, sarlavhaning mazmunini toʻliq ochib beradi. Shu tarzda sarlavha va matn bir-birini nazorat qilib, semantik oʻzaro bogʻliqlikni tashkil qiladi.

Ba’zi hollarda sarlavha matnning boshida tushunarsiz yoki umumiy koʻrinishda boʻlib, asar oxiriga kelib toʻliq ma’noga ega boʻladi. Bu holatda sarlavha retrospektiv effekt kasb etadi: oʻquvchi matnni oʻqib boʻlgach, sarlavhaning qaysi ma’noni anglatgani va nega aynan shunday nom tanlanganini anglab yetadi. Bu jarayon sarlavhani faqat tashqi nom sifatida emas, balki matnning semantik markazi sifatida koʻrsatadi.

Oʻzbek nasrida sarlavha va matn oʻrtasidagi munosabat aynan shu ikki tomonlama dinamikada namoyon boʻladi. Sarlavha matn davomida turli semantik qavatlar bilan boyitilib boradi, matn ichidagi voqea rivojlanishi, obrazlarning oʻzgarishi va muammolar tahlili orqali sarlavhaning ma’nosi kengayadi. Natijada oʻquvchi ongida sarlavha bilan matnning bir butunli, yagona gʻoyaviy konseptga birlashishi kuzatiladi. Shu sababli sarlavha badiiy matndan ajratib

koʻrilmasdan, uning tarkibiy va semantik jihatdan integratsiyalangan qismi sifatida tahlil qilinishi lozim.

Bu munosabat oʻzbek nasrining turli davrlaridagi asarlarda ham aniq koʻrinadi. Masalan, Abdulla Qahhor, Oʻtkir Hoshimov va Togʻay Murod asarlarida sarlavha koʻpincha matnning semantik "qozon"i boʻlib, oʻquvchi matnni tugatgach, sarlavhaning barcha qatlamlari ochilib, u umumiy gʻoyani birlashtiruvchi markazga aylanishi kuzatiladi. Shu tariqa sarlavha va matn oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik badiiy matnning semantik tizimini yanada mustahkamlaydi.

1. Abdulla Qahhor nasrida sarlavhaning semantik yuklamasi

Abdulla Qahhorning nasriy ijodida sarlavha koʻpincha matnning semantik markazi sifatida namoyon boʻladi. Uning hikoya va qissalaridagi sarlavhalar tashqi koʻrinishda oddiy, kundalik leksik birliklardan iborat boʻlishiga qaramay, oʻzida chuqur gʻoyaviy yuk va koʻp qatlamli ma'no saqlaydi. Bu holat Abdulla Qahhorning realizmga asoslangan ijtimoiy tanqidiy yoʻnalishi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, sarlavha orqali muallif jamiyatdagi muammolarni hamda inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni ixcham va ravon tarzda ifodalaydi.

Qahhor asarlaridagi sarlavhalar koʻpincha ma'noni kengaytiruvchi, umumlashtiruvchi xususiyatga ega boʻladi. Misol uchun, "Oʻgʻri" hikoyasining sarlavhasi dastlab oddiygina bir shaxs yoki sodir boʻlgan harakatni anglatgandek koʻrinadi. Biroq matn tahlili jarayonida bu soʻzning semantik maydoni kengayib, jamiyatdagi ma'naviy tanazzul, adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlik kabi masalalarni oʻzida mujassamlashtirgan ramziy belgi darajasiga koʻtariladi. Sarlavha asardagi voqealarning sabab va oqibatlarini anglashga, shuningdek, ijtimoiy muhitning tanqidiy tasvirini koʻrishga yoʻnaltiradi. Shu jihatdan "Oʻgʻri" sarlavhasi nafaqat voqea markazini belgilab bermaydi, balki asarning gʻoyaviy-axloqiy markazini ham tashkil etadi [Qahhor, 2010].

Qahhorning boshqa asarlaridagi sarlavhalar ham koʻpincha baholovchi, ya'ni muallif pozitsiyasini sezdiruvchi xarakterga ega boʻladi. Masalan, "Bemor", "Anor", "Millatchilar" kabi sarlavhalar tashqi jihatdan sodda boʻlsa-da, ularning semantik tuzilishi oʻquvchini muallifning ijtimoiy va axloqiy munosabatiga yoʻnaltiradi. Ushbu sarlavhalar matn ichida rivojlanib, yangi ma'no qatlamlari bilan boyib boradi va yakunda oʻquvchida umumiy badiiy konsept hosil qiladi. Shunday qilib, Qahhor sarlavhalari badiiy matnning semantik tizimini kuchaytiruvchi, uni yagona gʻoyaviy markazga yoʻnaltiruvchi element sifatida xizmat qiladi.

2. Oʻtkir Hoshimov nasrida sarlavhaning poetik xususiyatlari.

Oʻtkir Hoshimovning nasriy ijodida sarlavha koʻpincha poetik va falsafiy tusga ega boʻlib, u inson ruhiyati, hayotning ma'no izlanishi hamda jamiyatdagi murakkab muammolarni

umumlashtirishga xizmat qiladi. Uning asarlaridagi sarlavhalar tashqi jihatdan sodda koʻrinishi mumkin, biroq ular oʻzida keng semantik maydonni jamlab, oʻquvchini chuqur fikrlashga va hayot haqidagi mulohazalarga undaydi. Shu jihatdan Hoshimov sarlavhalari badiiy matnning gʻoyaviy markazini belgilab beruvchi, interpretativ vazifaga ega elementlar sifatida qaraladi.

Hoshimov asarlaridagi sarlavhalarning poetik tabiati ularning koʻp qatlamli maʼnosida namoyon boʻladi. Masalan, “Dunyoning ishlari” nomli asarning sarlavhasi biror aniq voqea yoki shaxsni emas, balki hayotning umumiy murakkabligi, taqdir sinovlari, insonlar oʻrtasidagi munosabatlar va ijtimoiy muhitdagi ziddiyatlarni ifodalaydi. Matn davomida sarlavhaning semantik qatlami epizodlar orqali ochilib boradi, oʻquvchi esa oʻqish jarayonida hayotning mazmuni va insoniylikning noaniq chegaralari haqidagi umumiy tasavvurga ega boʻladi. Shu bilan sarlavha asarning falsafiy yoʻnalishini belgilab beradi va oʻquvchini syujetga emas, balki hayotiy haqiqatlarga qaratilgan tafakkurga yoʻnaltiradi.

Shuningdek, “Ikki eshik orasi” sarlavhasi ramziy-poetik tabiatga ega boʻlib, unda hayot va oʻlim, vaqtning oʻtishi va abadiylik kabi mavhum tushunchalar birlashtiriladi. Bu sarlavha asar matni bilan uzviy bogʻlanib, oʻquvchida voqealar rivojini nafaqat syujet, balki falsafiy maʼno darajasida ham qabul qilishni taʼminlaydi. Hoshimov sarlavhalari muallifning individual poetik uslubini aks ettiruvchi, badiiy matnning semantik strukturasi bilan uzviy bogʻliq elementlar sifatida oʻrin oladi [Hoshimov, 2014].

3. Togʻay Murod asarlarida sarlavha va milliy poetik tafakkur

Togʻay Murodning nasriy ijodida sarlavha koʻpincha milliy poetik tafakkur, tarixiy xotira va maʼnaviy meros bilan uzviy bogʻlanadi. Uning asarlaridagi sarlavhalar, odatda, milliy hayotning muhim jihatlarini: yer, avlod, ota-bobolar merosi, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlarni ramziy uslubda ifodalaydi. Shu jihatdan Murod sarlavhalari faqat nom emas, balki milliy ong va badiiy xotiraning qisqacha, ammo kuchli ifodasi sifatida ham qaraladi.

“Otamdan qolgan dalalar” asarining sarlavhasi aniq bir makon nomi boʻlishiga qaramay, uning semantik maydoni juda keng va koʻp qatlamli. Bu sarlavha ota merosi, oilaviy xotira, milliy tarix va qadriyatlar bilan bogʻliq poetik tasvir sifatida oʻquvchiga taʼsir qiladi. Matnda yer obrazining taʼlimoti va timsoli orqali sarlavha mazmuni yanada boyib boradi; yer nafaqat hayot manbayi, balki inson taqdiri, jamiyatning rivojlanishi va tarixiy jarayonlar bilan bogʻliq ramziy tizim sifatida tasvirlanadi. Shu bilan sarlavha asarning gʻoyaviy markazini tashkil qilib, oʻquvchida milliy xotira va avlodlar uzviyligini anglashga yordam beradi.

Togʻay Murod sarlavhalarida metaforik ifoda va ramziylik ustuvor rol oʻynaydi. Ular matnning umumiy poetik ohangini belgilab, oʻquvchiga matnni qanday idrok etish kerakligini yoʻnaltiradi. Sarlavha asar mazmuni bilan uzviy bogʻlanib, muallifning estetik pozitsiyasini

ochib beradi, shu orqali o‘quvchining badiiy tafakkurini milliy va tarixiy kontekstga yo‘naltiradi. Shunday qilib, Tog‘ay Murod sarlavhalari o‘zbek nasrida milliy poetik tafakkur va tarixiy xotiraning ifodachisi sifatida muhim o‘rin tutadi [Murod, 2008].

Sarlavhaning semantik-poetik umumiy xususiyatlari.

Tahlil qilingan asarlar doirasida ko‘rinib turibdiki, o‘zbek nasrida sarlavha nafaqat tashqi nom, balki matnning semantik va poetik maydonini shakllantiruvchi muhim element hisoblanadi. Sarlavhalar ko‘pincha ramziy, umumlashtiruvchi va baholovchi xarakterga ega bo‘lib, asarning mazmunini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Ular matn bilan uzviy bog‘lanib, o‘quvchiga asar ichidagi g‘oya va obrazlarni bir butun sifatida idrok etish imkonini beradi. Shu tarzda sarlavha badiiy konseptni shakllantiruvchi markaziy vositaga aylanadi.

Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov va Tog‘ay Murod ijodida sarlavhalar turlicha semantik va poetik yo‘nalishlarga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyat mavjud. Birinchidan, sarlavha har bir asarda g‘oyaviy-estetik tizimning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, sarlavha matnning boshqa elementlari bilan o‘zaro bog‘lanib, uning semantik qavatlarini kengaytiradi va o‘quvchining interpretatsiyasini yo‘naltiradi. Uchinchidan, sarlavha o‘quvchi ongida asarning umumiy g‘oyaviy konseptini yaratishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan sarlavhaning badiiy matndagi o‘rni va ahamiyati yana bir bor mustahkamlanadi.

XULOSA

O‘zbek nasriy asarlarida sarlavha badiiy matnning ikkinchi darajali unsuri emas, balki uning mazmuniy va poetik tizimini belgilovchi muhim semantik birliklardan biri hisoblanadi. Sarlavha asar g‘oyasini ixcham shaklda ifodalab, o‘quvchini matnni muayyan estetik va ma’noviy yo‘nalishda idrok etishga tayyorlaydi. Shu jihatdan u muallif va o‘quvchi o‘rtasida dastlabki kommunikativ aloqa vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov va Tog‘ay Murod asarlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, sarlavhalar bu adiblar ijodida turlicha poetik shakl va semantik yuklamaga ega bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat – mazmunni umumlashtirish va badiiy konseptni shakllantirishdir. Abdulla Qahhor nasrida sarlavha ko‘pincha ijtimoiy-tanqidiy ma’no kasb etib, oddiy leksik birliklar orqali chuqur ijtimoiy muammolarni ifodalaydi. O‘tkir Hoshimov asarlarida sarlavhalar falsafiy va ramziy xarakterga ega bo‘lib, inson hayoti va jamiyat munosabatlarini umumlashtiruvchi poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tog‘ay Murod nasrida esa sarlavha milliy poetik tafakkur, tarixiy xotira va avlodlar merosi bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi.

Sarlavha va badiiy matn o‘rtasidagi munosabat dinamik xarakterga ega bo‘lib, asar davomida sarlavhaning ma’nosi kengayib boradi va ko‘p qatlamli semantik tuzilma hosil qiladi. Ko‘pincha sarlavha asar yakunida to‘liq anglashilib, retrospektiv ma’no kasb etadi. Bu holat sarlavhaning faqat nominativ emas, balki konseptual va poetik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘zbek nasriy asarlarida sarlavha badiiy matnni anglashda muhim kalit vazifasini bajaradi. Sarlavhaning semantik va poetik tahlili badiiy asarni chuqurroq idrok etish, muallif estetik qarashlarini aniqlash va matnning ichki mazmuniy qatlamlarini ochishda samarali usul bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Galperin I.R. Текст как объект лингвистического исследования. – M.: Наука, 1981.
2. Lotman Y.M. Структура художественного текста. – M.: Искусство, 1992.
3. Florenskaya O.V. Способы репрезентатsiи скрытых смыслов в структуре художественного текста. // Вестник Алтайского государственного университета, – 2009. – №4(52). – С. 70-75.
4. Mahmudov N. Til va ma’no. –Toshkent: Fan, 2011.
5. Qo‘chqorov R. Badiiy matn poetikasi. –Toshkent: Akademnashr, 2015.
6. Qahhor A. Hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010.
7. Hoshimov O‘. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Sharq, 2014.
8. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
9. Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарларидаги поэтонимларнинг изоҳли луғати /луғат/ З. Муқимова. –Тошкент: “Қaqnus media” нашриёти, 2020. – 68 б.
10. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2004.
11. Rasulov R. Badiiy matn va talqin muammolari. –Toshkent: Universitet, 2012.
12. Yuldashev B. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.

TEZAURUSDA KONSEPT VA SEMANTIK MUNOSABATLARR TADQIQI ATOV BIRLIKLAR MISOLIDA

Yo‘ldoshaliyeva Muyassar Yo‘ldashboy qizi

O‘zMU Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 2- bosqich magistranti

muyassarjdi@gmail.com

ORCID-0009-0003-3931-5720

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilidagi oziq-ovqat nomlarining konseptual tuzilishi va ularning tezaurus tizimidagi semantik munosabatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot nafaqat leksik birliklarning til tizimidagi o‘rnini, balki ularning xalq og‘zaki ijodi materiallarida qanday ma’no yukiga ega ekanini aniqlashga qaratilgan. Xususan, xalq qo‘shiqlari, maqollar va iboralarda uchraydigan “non”, “osh”, “choy” kabi birliklarning ramziy, madaniy qatlamlari o‘rganilib, ular tezaurusda qanday konseptual guruhlarni tashkil qilishi aniqlanadi. Oziq-ovqat nomlarining giperonimik, giponimik va assotsiativ bog‘lanishlari semantik maydon tamoyillari asosida modellashtiriladi. Tadqiqot natijalari folklor materiallarining tezaurus lingvistikasi uchun muhim manba ekanini ko‘rsatib, o‘zbek tilidagi madaniy konseptlarni raqamli tezaurusda aks ettirish imkoniyatlarini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: *Konsept, tezaurus, atov birliklar, AGROVOC, EUROVOC, WordNet, korpus, semantik munosabatlar.*

Annotation. This article presents a comprehensive analysis of the conceptual structure of Uzbek food-related lexical units and their semantic relations within a thesaurus model. The study focuses not only on the linguistic functions of these units but also on their cultural meanings reflected in Uzbek oral traditions. Food names occurring in folk songs, proverbs and idiomatic expressions, such as “bread”, “pilaf”, “tea”, examined as culturally marked concepts with symbolic layers. Their hyperonymic, hyponymic and associative relations are modeled through semantic field principles. The findings demonstrate that folklore materials serve as an essential source for thesaurus linguistics and provide new opportunities for representing cultural concepts in a digital Uzbek thesaurus.

Key words: *Concept, thesaurus, lexical units, AGROVOC, EUROVOC, WordNet, corpus, semantic relations.*

KIRISH. Til tizimi inson tafakkurining ifodasi bo‘lib, unda mavjud bo‘lgan leksik birliklar tildagi konseptual tasavvurlarni, ya’ni inson ongida shakllangan tushunchalar tizimini

namoyon etadi. Leksik birliklarning o‘zaro ma’no aloqalari tilda muayyan semantik struktura hosil qiladi. Har bir tilda so‘zlar nafaqat narsa-buyumlarni atab keladi, balki ularning ortida yashirinib kelgan ma’no qatlamlari, konseptual tizimlar va semantik munosabatlar ham mujassam bo‘ladi. Zamonaviy lingvistikada tezauruslar tildagi birliklarning semantik tizimini tartibga soluvchi va ular o‘rtasidagi aloqalarni aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Lingvistik tezauruslar inson tafakkuridagi konseptual bilimlarni modellashtirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki ular so‘z ma’nolarini bir-biri bilan bog‘laydi va semantik tarmoqlarni hosil qiladi. Tezauruslar orqali tildagi atov birliklarning o‘zaro semantik munosabatlari, giperonimik-giponimik, sinonimik, antonimik va assotsiativ aloqalari aniqlanadi**.**

O‘zbek tilida tezaurus yaratish bo‘yicha dastlabki izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, konsept va semantik munosabatlar asosidagi modellashtirish masalasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Tezaursuda konsept va semantik munosabatlarni tahlil qilish-tilning konseptual va semantik tizimini modellashtirishning ilmiy asosi hisoblanadi. So‘nggi yillarda konsept va semantik bog‘lanishlarni o‘rganish bo‘yicha yangicha yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Olima N.Abdurahmonova tadqiqotlarida o‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari yaratilgani, bu esa semantik tahlilni avtomatlashtirish imkonini bergani ta’kidlaydi. Bu yondashuv bizning mavzuyimiz doirasida, ya’ni oziq-ovqat nomlari orqali o‘zbek xalqining milliy va madaniy xususiyatlarini ochiqlashimiz va tezaurus yaratishda leksik birliklarning real qo‘llanish chastotasini aniqlashimiz uchun imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA. Konsept atamasi kognitiv lingvistika tarkibida shakllangan bo‘lib, inson tafakkuridagi umumlashgan bilim modelini anglatadi. Har bir kosept madaniy va milliy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Azim Hojiyev o‘zining “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da **“atov”**-“narsa yoki hodisani nomlash” ma’nosini bildiruvchi so‘zlar deb izohlaydi[Hojiyev, 2002:19]. Biz atov birliklar sirasiga mavzuyimiz doirasida oziq-ovqat nomlarini atov birlik sifatida olamiz. Oziq-ovqat konseptlari esa bevosita xalqning madaniy qadriyatlari, turmush tarzi, urf-odatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, ular tezaurusdagi semantik tarmoqlarda alohida ahamiyatga ega. Konsept lingvistikada inson tafakkurida shakllangan ma’no modeli sifatida izohlanadi. Har bir konsept tilda bir yoki bir nechta atov birlik orqali ifodalanadi va shu birliklar semantik aloqalar orqali konseptual maydonni tashkil etadi. Tilshunos olim V. A. Maslovaning ta’kidlashicha, konsept-bu “inson ongidagi real voqelikni ifodalovchi, tilda nom topgan bilim birligi”dir[Maslova, 2004:28] deb ta’riflaydi. Ushbu fikdran kelib chiqib, konsept tildagi har bir so‘zning chuqur ma’no qatlamini aks ettiradi. Konseptni til birliklarining milliy-madaniy qatlamini aniqlovchi semantik markaz sifatida izohlash mumkin. Masalan, “non”, ”suv” kabi so‘zlar o‘zbek xalqi

tafakkurida nafaqat predmet nomi, balki muayyan qadriyatning timsoli sifatida konseptual mazmunga ega. G. G‘ulomova esa oziq-ovqat nomlarni o‘rganishda konseptual tahlil usulini qo‘llagan. U “non” konseptining o‘zbek tili tezaurusida ko‘plab semantik qatlamlarga ega ekanligini ta’kidlab, “non”ning fizik, ma’naviy, diniy va madaniy darajadagi talqin qilinishini ko‘rsatib bergan.[8] Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, konsept deganda-inson ongida shakllangan bosh g‘oya, ya’ni “**mazmuniy markaz**”ni tushunish mumkin.

Oziq-ovqat nomlarini komponent tahlil qilish jarayonida har bir so‘z ma’nosini tarkibiy semantik qismlarga (semema yoki semema komponentlariga) ajratib tahlil qilish jarayonidir. Ya’ni har bir so‘zning ma’nosi uni tashkil etgan asosiy semantik belgilarga ajratiladi: [predmet turi], [modda], [tayyorlanish holati], [iste’mol moddasi] kabi turlarga bo‘lib izohlanadi. Biz buni non, sho‘rva, osh misolida ko‘rib chiqamiz.

1-misol:

Semantik komponent	**Tavsif**
[predmet]	non
[modda]	un
[tayyorlanish usuli]	Xamir qoriladi, pishiriladi
[iste’mol holati]	kundalik, asosiy yegulik
[vazifa]	to‘yimlilik

Semantik komponent	**Tavsif**
[predmet]	Sho‘rva
[tarkibi]	Suv, go‘sht, sabzavot, ziravorlar
[tayyorlanish usul]	Qovuriladi,qaynatiladi

[iste’mol usuli]	Birinchi taom (issiq holda)

Semantik komponent	**Tavsif**
[predmet]	Osh
[tarkibi]	Guruch, sabzi, go‘sht
[tayyorlanish usuli]	Qovuriladi, dimlanadi
[Iste’mol shakli]	Asosiy ovqat
[madaniy belgi]	Milliy taom

Komponent tahlil natijasida tezaurus tuzishda har bir oziq-ovqat nomi uchun semantik belgi to‘plami aniqlanadi. Keying qadam giponimik tahlil hisoblanib, tezaurusda “butun-qism” yoki “tur-jins” munosabatlarini ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, *ovqat* so‘zi umumiy giperonim bo‘lib, uning giponimlari suyuq ovaqatlar, quyuq ovqatlar, xamirli ovqatlar, go‘shtli ovqatlar, sutli ovqatlar, don va dukkakli mahsulotdan tayyorlangan taomlar kabidir. Don va dukkakli taomlar osh so‘ziga giperonim hisoblanadi. Osh konseptining meronimi sifatida guruch, sabzi, go‘sht, yog‘, ziravorlar qayd etiladi. Oziq-ovqalarni semantik tahlil qilishda ierarxik tizimdan foydalaniladi.

NATIJALAR. Har bir inson oziq-ovqat nomlarini tahlil qilayotganda, har bir nom uchun assotsiativ maydon (ya’ni u bilan bog‘liq so‘z va tushunchalar to‘plami) shakllanadi. Assotsiativ tahlil-bu til birliklari so‘z, birikma o‘rtasida inson ongida yuzaga keladigan ma’no, obraz va hissiy bog‘lanishlarni aniqlash usulidir. “Sho‘rva” so‘zi inson ongida bevosita iliqlik, g‘amxo‘rlik, sog‘lomlik, onalik tushunchalarini uyg‘otadi. Tezaurusda bu belgilar madaniy-assotsiativ belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. “Non” bilan bog‘liq assotsiatsiyalar, asosan, madaniy va diniy konnotatsiyaga ega. Tezaurusda bu so‘z “baraka”, “mehnat”, “muqaddaslik” guruch, sabzi, go‘sht va yog‘ asosida tayyorlanadigan milliy taom hisoblanadi. U o‘zbek xalqining asosiy taomlaridan biri bo‘lib, mehmon kelsa, dasturxonga osh qo‘yilmasdan uyiga jo‘natilmaydi. Bu so‘z o‘zbek xalqining madaniyati va kundalik hayoti bilan chuqur semantik bog‘lanishga ega.

MUHOKAMA. O‘zbek tilidagi oziq-ovqat nomlari bilan bog‘liq tezaurus, asosan, maishiy-madaniy yo‘nalishda shakllanadi. Boshqa tezauruslarda esa bunday emas. Bugungi kunda xalqaro miqyosda ko‘p tillik tezauruslar yaratilgan AGROVOC(FAO tomonidan

yaratilgan), EUROVOC (Yevropa ittifoqi tezaurusi), UNESKO tezaurusi kabi yirik ma'lumotlar bazalari mavjud. Bu tezauruslarda so‘zlarning semantik munosabatlarini aks ettirgan va koseptual bilimlarni avtomatik qayta ishlashga xizmat qilgan. Masalan, AGROVOC tezuarusi oziq-ovqat nomlariga ixtisoslashgan lug‘at turi hisoblanib, "*bread*" konsepti "*wheat", "flour", "baking", "food processing*" kabi giponimik va assotsiativ munosabatlar orqali izohlangan. EUROVOC-Yevropa Ittifoqining ko‘p tilli tezaurusi bo‘lib, unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va texnik konseptlar asosiy o‘rin egallagan. "Food industry", "nutrition", "agriculture" kabi konseptlar ijtimoiy tizim kontekstida tarmoqlanadi..

Bir so‘z bilan aytganda, EUROVOCda "food" iqtisodiy ishlab chiqarish kontekstida tahlil qilinsa, o‘zbek tezaurusida "oziq-ovqat", asosan, hayotiy, diniy, madaniy konnotatsiyalar bilan bog‘lanadi.

WordNet tizimida so‘zlar sinset(synonym set) shaklida tashkil topadi. Masalan, *bread* konsepti *"food made from flour and water and yeast"* tarzida izohlanib, **food** giporonimiga ulangan. O‘zbek tili tezaurusida ham ushbu modelni tatbiq etish mumkin, ammo semantik tarmoqlarni modellashtirishda assotsiativ va metaforik bog‘lanishlar ham inobatga olinish kerak. Masalan, non-hayot, choy-suhbat, osh-to‘y kabi bog‘lanishlar WordNetda yo‘q, ammo bizning milliy konseptshunosligimizda markaziy o‘rinni egallaydi.

Tilning boy semantik tizimini ifodalovchi manbalardan biri xalq og‘zaki ijodi hisoblanadi. Xususan, maqollar, iboralar, topishmoqlar va qo‘shiqlar tildagi konseptual birliklarning miliy-madaniy mazmunini ochib beradi. Oziq- ovqat nomlari bu manbalarda nomlovchi birlik, balki razmiy, assotsiativ, baholovchi ma'nolarga ham ega bo‘lib keladi. Shu jihatdan ularning semantik aloqasi tildagi konseptual tizimni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Maqollarda oziq-ovqat konseptining semantikasi. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, qadriyati va dunyoqarashini ifodalab keluvchi qisqa, ammo chuqur ma'noga ega otaso‘zlaridir. Oziq-ovqat nomlari ishtirok etgan maqollar odatda Baraka, mehnat, mehr, ehson, to‘y, hayot kabi konseptlar bilan aloqaga kirishadi. Masalan, **"Nonni urgan elni Xudo urar"**- bu maqolda non konsepti *muqaddaslik, baraka, Allohning rizqi* bilan semantik aloqaga kirishyabdi. **"Non topgan joyingda to‘yingni qil**"- bu yerda non konsepti *mehnat, rizq manbayi* sifatida kelgan. **"Non topgan joyda do‘st topasan"-** non orqali *ijtimoiy qadriyat, do‘stlik* konseptlari ifodalangan. . Ushbu holatni **"Non bor joyda jon bor"**-non orqali *tiriklik, yashamoqlik,* **"Osh yeydigan joydan oshirma so‘rama"**-*qarindoshlik, mehmondo‘stlik, qarindoshlik, odob va kamtarlik* kabi tushunchalarni anglatsa, "Choy suvi-suhbat ruhi" maqolida *do‘stlik, birodarlik, mehmondo‘stlik* kabi konseptlar o‘z ifodasini topgan.[O‘zbek xalq maqollari 2005:221.]

Iboralarda oziq-ovqat nomlarining obrazli xususiyati. Iboralar(frazeologizmlar) tildagi obrazli fikrlashni ifodalovchi barqaror birikmalardir. U orqali biz insonning his-tuyg‘usi, ijtimoiy holati, xarakterini bilishimiz mumkin. **“Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun salom ber”**-*minnatdorchilik, sadoqat* ma’nosini ifodalagan. **“Osh tuzi singan”**- osh konsepti *qarindoshlik, do‘stlik* kabi semantik aloqa hosil qilgan. **“Choyxona gapini ko‘pirtirma”**-choy konsepti *muloqot, ijtimoiy muhit*ni bildiradi. **“Qatiqday tiniq, suvday toza, asalday shirin”**-bunda metoforik baholash sifatida ishlatilgan. Bu iborani biz ko‘proq baddiy uslubda ko‘rishimiz mumkin.[SH. Rahmatullayev.2005:131]

Xalq qo‘shiqlarida oziq-ovqat nomlarining ramziy ma’nosi. Xalq qo‘shiqlari orqali **o‘**zbek xalqining hissiyotlari, orzu-armonlari, mehnati, turmush tarsi aks etgan. U yerda oziq- ovqat nomlari ramz(simvol) tarzida talqin etilgan.

“Osh yedik, osh bo‘ldi to‘y,
Non yedik, jon bo‘ldi to‘y.”

Bu satrlarda non va osh birliklari orqali hayot, mehr, to‘y, birlik tushunchalari ifodalangan.

XULOSA. Tezaurus lingvistikasi bugungi kundagi hisoblash lingvistikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u til tizimidagi konseptual va semantik munosabatlarni tuzilmaviy asosda tadqiq etishga imkon beradi. Ushbu maqolada o‘zbek tilida oziq-ovqat nomlari ishtirokidagi atov birliklarning tezaurusda ifodalanish xususiyatlari tahlil qilindi. Oziq-ovqat nomlari o‘zbek konseptshunosligining markaziy qismini tashkil etadi. Ular xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va ijtimoiy ongini aks ettiruvchi asosiy semantik maydon sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, non, choy, osh, sumalak kabi birliklar nafaqat leksik, balki ramziy(simvolik) va madaniy konseptlar darajasida faol ishlatiladi. Tezaurusdagi konseptik tizim madaniy-semantik asosga ega. O‘zbek tilida konseptlarr o‘zaro giponimik, meronimik, sinonimik va assotsiativ aloqalar orqali bog‘lanadi. Ushbu munosabatlar xalq tafakkurining struktural modeli sifatida qaraladi. O‘zbek tili tezaurusini xalqaro EUROVOC, AGROVOC, va WordNet tizimlariga qiyoslaganda oziq-ovqat konseptlari, asosan, texnik yoki leksik darajada tarmoqlansa, o‘zbek tilida ular ma’naviy komponentlar bilan boyitiladi. Bu esa o‘zbek tili tezaurusini boshqa tezauruslardan farqli, o‘ziga xos “milliy konseptual” modelini shakllantiradi. Tezaurus yaratish jarayonida biz o‘zbek tili korpusidan foydalanamiz. O‘zbek tili korpusi(www.uzbekcorpus.uz) asosida atov birliklar o‘rtasidagi bog‘lanish chastotalarini avtomatik tahlil qilish orqali tezaurusning giponimik va assotsiativ tarmoqlarini kompyuter yordamida qurish mumkin. Bu jarayon tezaurusni raqamli platformada shakllantirish uchun nazariy va texnik asos bo‘ladi. O‘zbek tili korpusshunosligi va lug‘atshunosligi oldida o‘zbek tili tezaurusini ko‘p tilli formatda (ingliz, rus, turk tillari bilan parallel) ishlab chiqish, semantik

munosabatlarni ontologik modellashtirish, oziq-ovqat nomlari ostida madaniy konsept xaritasini yaratish kabilar izlanishlarimizni keyingi bosqichida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonova, N. Z. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Toshkent, 2021.
2. Abdurakhmonova, N., & Rajabova, K. (2025, September). Stages of Creating Uzbek Language Multimedia Corpus. In 2025 10th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 1628-1633). IEEE.
3. Aripov, M., Sharipbay, A., Abdurakhmonova, N., & Razakhova, B. (2018). Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In Abstract of the VI international conference “Modern problems of applied mathematics and information technologyal-Khorezmiy (pp. 37-38).
4. Abdurakhmonova, N., & Urdishev, K. (2019). Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL), 6(1-2019), 131-7
5. Abdurahmonova, N. Z. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Toshkent, 2021.
6. Begmatov E. Tilshunoslik va kognitiv konseptual tahlil.- Toshkent :Fan va texnalogiya, 2019.
7. Filmore, C. Frames and the semantics of understanding. Cognitive linguistics, 1982.
8. Hojiyev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
9. Lakoff, G. Women, Fire,and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago: University of Chicago Press, 1987.
10. Maslova, V. A. Kognitivnaya lingvistika. Moskva: Akademiya, 2004.
11. Mengliev, D., Barakhnin, V., Abdurakhmonova, N., & Eshkulov, M. (2024). Developing named entity recognition algorithms for Uzbek: Dataset insights and implementation. Data in Brief, 54, 110413.
12. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
13. Sayfullaeva, R., Abdurakhmonova, N., & Ganiyeva, S. (2025, June). Development of Sentiment Analysis Algorithms of Uzbek Patient Reviews. In 2025 IEEE 26th

International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM) (pp. 2240-2244). IEEE.

14. Thesauri and interoperability with other vocabularies. International Organization for Standardization, 2021.
15. O‘zbek xalq maqollari.-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005.-320 b.
16. O‘zbek xalq qo‘shiqlari to‘plami.- Toshkent:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 1988.
17. G‘ulomova G. Tezaurus va o‘zbek tili leksik tizimi.-Toshken: Fan, 2021.

KOGNITIV METAFORA ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEMALARDA MILLIY TAFAKKURNING AKS ETISHI

Ermanova Fazilat Usmanovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi, 1-bosqich magistranti
fazilatusmanovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda kognitiv metafora asosida shakllangan frazemalar orqali milliy tafakkurning ifodalanishi tahlil qilinadi. Frazemalar nafaqat tilning leksik-semantik tarkibiy qismlari sifatida, balki milliy mentalitet, qadriyatlar va ijtimoiy normativlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan madaniy vosita sifatida ham o‘rganiladi. Ular insonning abstrakt tushunchalarni idrok etish uslubini, shuningdek, madaniy va psixologik xususiyatlarini aks ettiradi.Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tilidagi frazemalar tanlangan bo‘lib, ular orqali milliy tafakkur elementlari aniqlanadi. Tadqiqotning maqsadi frazemalarning semantik va pragmatik jihatlarini kognitiv metaforik yondashuv asosida o‘rganishdan iborat. Shu bilan birga, maqola zamonaviy lingvistik, kognitiv va madaniy tadqiqot metodlariga tayanib, frazemalarning milliy tafakkur bilan bog‘liqligini sistematik tahlil qiladi. Tezisda frazemalarning lingvistik, semantik va pragmatik xususiyatlari batafsil yoritilib, ularning milliy tafakkur va madaniyat kontekstidagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari frazemalar orqali milliy qadriyatlar, mentalitet elementlari va ijtimoiy normativlarning tilga aks etishi jihatlarini ochib beradi. Shu tariqa, kognitiv metafora va frazemalar milliy tafakkur shakllanishining samarali vositasi sifatida ko‘rsatiladi va ularning madaniy, psixologik va lingvistik funksiyalari tizimli tarzda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Kognitiv metafora, frazema, milliy tafakkur, lingvistik metafora, mentalitet, semantika, pragmatika*

Annotation. This thesis analyzes the expression of national thinking through phrases formed on the basis of cognitive metaphor. Phrasemes are studied not only as lexico-semantic components of language, but also as a cultural tool inextricably linked with national mentality, values, and social norms. They reflect a person's way of perceiving abstract concepts, as well as cultural and psychological characteristics.The object of the research is phrases in the Uzbek language, through which elements of national thinking are determined. The purpose of the research is to study the semantic and pragmatic aspects of phrases based on a cognitive metaphorical approach. At the same time, the article systematically analyzes the connection of phrases with national thinking, relying on modern linguistic, cognitive, and cultural research

methods. In the thesis, the linguistic, semantic, and pragmatic features of phrases are described in detail, and they are reflected in the content of national thought and culture.

Keywords: *Cognitive metaphor, phraseology, national thinking, linguistic metaphor, mentality, semantics, pragmatics*

Til — insonning eng muhim kommunikativ vositasi bo‘lib, u nafaqat fikr almashish, balki shaxsning madaniy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbek tili esa milliy meros va madaniyatni ifodalovchi, xalqning fikr va hissiyotlarini uzatishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tilning rivojlanishi, uning lug‘at va grammatik tizimi, talaffuz va yozma nutqdagi o‘ziga xosligi, shuningdek, so‘z boyligi va frazeologik birliklar orqali boyitilishi o‘quv jarayonida markaziy ahamiyatga ega.Til inson tafakkurining murakkab va ko‘p qirrali ifodasi bo‘lib, u orqali milliy mentalitet, ijtimoiy qadriyatlar va insonning dunyoni anglash uslubi namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, tilning frazeologik birliklari, ularning tarkibi va semantik xususiyatlarini o‘rganish milliy tafakkur tahlili uchun muhim vosita deb hisoblasak bo‘ladi. Kognitiv metafora nazariyasi inson tafakkuri va til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganadi va frazemalardagi obrazli fikrlash orqali milliy ongni aniqlash imkonini beradi.

Tilning alohida bir bo‘limi – frazeologiyada biror tushuncha yoki so‘zni ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalar orqali yanada ta’sirchan tarzda ifodalash uchun qo‘llaniladigan frazeologik birliklar o‘rganiladi. Frazeologik birliklarni kognitiv jihatdan tahlil qilish tilda qo‘llaniladigan boshqa birliklarga qaraganda ancha murakkabroq sanaladi. Chunki, muayyan bitta so‘z aytilganda, masalan “qo‘l” deyilsa, aniq bir tushunchani ifodalagan holda miyada uning aniq tasviri hosil bo‘ladi. Biroq biz “qo‘li kaltalik qilmoq” iborasini oladigan bo‘lsak, bunda u umuman boshqa, ya’ni ko‘chma ma’noni ifoda etayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bu bilan frazaemalarning kognitiv xususiyatlari so‘zlardan farq qilishi namoyon bo‘ladi. Bunda bizga kognitiv tilshunoslikning konstruksiya termini yordam beradi. Bunda iboraning o‘z va ko‘chma (idiomatik) ma’nosi kontekst orqali yuzaga chiqadi.

Frazema — bu mustahkam semantik birlik bo‘lib, ko‘pincha metaforik mazmunni o‘zida mujassamlashtiradi. U inson tajribasi va milliy qadriyatlarni til shaklida kodlaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “ko‘ngli ko‘tarilmoq”, “boshi osmonga yetmoq”, “peshonasiga yozilgan” – taqdir, hissiyot va qadriyatlar bilan bog‘liq bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, frazema nafaqat lingvistik birlik, balki milliy tafakkur, tarixiy tajriba va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi vosita sifatida qaraladi. [Azizov, F. (2015).45-58].

Kognitiv metafora, George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ilgari surilgan nazariyaga koʻra, inson tafakkuri metaforik xarakterga ega ekanligini koʻrsatadi. Bu nazariya insonning abstrakt tushunchalarni konkret, tanish tajribalar orqali idrok etish jarayonini tushuntiradi. Masalan, “hayot — yoʻl”, “vaqt — pul” kabi universal metaforalar insonning dunyoni anglash uslubini belgilaydi. Shu bilan birga, har bir millat oʻzining tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasiga ega boʻlgani sababli, frazemalarda ifodalangan metaforalar milliy tafakkur va mentalitetning aksini beradi. Kognitiv metafora nazariyasi til va tafakkur orasidagi uzviy bogʻliqlikni oʻrganishga qaratilgan boʻlib, metafora orqali inson dunyoni idrok etish, abstrakt tushunchalarni konkret tajriba bilan bogʻlash jarayonini tahlil qiladi. Kognitiv metafora tilning konseptual tizimida shakllanadi va u frazemalarda milliy tajriba hamda qadriyatlarni ifodalashda vosita vazifasini bajaradi. Masalan, “yurakdan gapirish”, “koʻz ochib yumguncha”, “boshi osmonga yetmoq” kabi frazemalar oʻzbek milliy mentaliteti, hissiy holatlarni ifodalash uslubi va dunyoqarash xususiyatlarini aks ettiradi.

Kognitiv metafora asosida frazemalarni tahlil qilishda ularning strukturasi, semantik qatlamlari va konseptual ramkalari muhim hisoblanadi. Har bir frazema bir yoki bir nechta metaforik konseptlar asosida shakllanadi va u orqali til foydalanuvchisi voqelikni idrok etadi. Masalan, “koʻngli ochiq boʻlmoq” frazemasi orqali insonning ochiqligi, sadoqati va halolligi milliy qadriyatlar bilan uzviy bogʻliq holda ifodalanadi. Shu bilan birga, “yuragi qinidan chiqmoq” frazemasi xavotir, hayajon yoki qoʻrquv holatlarini ifodalashda milliy psixologik xususiyatlarni koʻrsatadi.

Kognitiv yondashuv frazemalarni tahlil qilishda bir qancha ilmiy imkoniyatlarni beradi. Birinchidan, frazemaning metaforik asosini aniqlash orqali milliy dunyoqarashni, qadriyatlar tizimini va hissiy madaniyatni oʻrganish mumkin. Ikkinchidan, frazemalardagi konseptual metaforalar milliy tafakkur bilan bogʻliq boʻlgan abstrakt tushunchalarni konkret tushunchalar bilan izohlashga yordam beradi. Masalan, “hayot — yoʻl”, “yurak — uy” kabi metaforalar xalqning hayot, insoniy munosabat va madaniy qadriyatlarini til vositasida shakllantiradi.

Milliy tafakkur frazemalardagi metaforalarning semantik va pragmatik qatlamida oʻz aksini topadi. Semantik darajada frazema insonning dunyoni anglash uslubini va abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali tushuntirishini koʻrsatadi. Pragmatik darajada esa frazema nutq kontekstida, ijtimoiy va madaniy normalarga mos ishlatiladi. Shu sababli frazemalarni tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki antropologik va psixologik jihatdan ham ahamiyatlidir [Rakhmonov, S. (2018).23-34].

Oʻzbek tilidagi frazemalar milliy tafakkur va qadriyatlarning eng aniq ifodasi boʻlib, ular nafaqat til shakli, balki milliy madaniyat va tarixiy tajribani ham oʻzida aks ettiradi.

Masalan, “yuzidan nur yog‘moq”, “istarasi issiq” frazemalari insonning ichki his-tuyg‘ularining samimiy ifodasini bildiradi va milliy muloqot odatining ochiqligi, samimiyligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, “tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi” yoki “yer bilan bitta qilmoq” kabi frazemalar o‘zbek xalqining tarixiy va qishloq xo‘jalik tajribasini ifodalaydi.

Milliy tafakkur frazemalarda ayniqsa ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek frazemalarida ko‘pincha oila, mehmondo‘stlik, hurmat, adolat va mehnatsevarlik kabi tamoyillar ifodalanadi. Shu bois frazemalarni pedagogik jarayonda o‘rgatish va tahlil qilish milliy madaniyatni shakllantirish, nutq madaniyati va tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, “ot o‘rnini toy bosadi” frazemasi orqali bolalar ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni tushunadi, ularni amaliy hayotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.Frazemalarni kognitiv metafora asosida tahlil qilishda ularning lingvistik, psixologik va sotsiokultural aspektlari hisobga olinadi. Lingvistik jihatdan frazemaning morfologik va sintaktik tarkibi, semantik qatlamlari o‘rganiladi. Psixologik jihatdan frazemalar nutq foydalanuvchining idrok, tasavvur va hissiyotlarini aks ettiradi. Sotsiokultural jihatdan esa frazemalar milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy normativlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu tarzda, frazemalar milliy tafakkur va madaniyatning integratsiyalangan ifodasi sifatida qaraladi.

Kognitiv metafora orqali shakllangan frazemalarda milliy tafakkur ikki darajada namoyon bo‘ladi: semantik va pragmatik. Semantik darajada frazemaning metaforik tarkibi insonning abstrakt tushunchalarni idrok etish uslubini ko‘rsatadi, pragmatik darajada esa nutq kontekstida, ijtimoiy va madaniy normalarga mos ravishda ishlatiladi. Shu sababli, frazemalar milliy tafakkur va etiketni til orqali namoyon qilishning muhim vositasi hisoblanadi [Azizov, F. (2015).45-58].

Frazemalardagi metaforik tuzilish milliy tafakkur va psixologik xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan, o‘zbek xalqining mehnatsevarligi, sabr-toqat, mehmondo‘stlik va halollik kabi qadriyatlar frazemalarning semantik qatlamida ifodalanadi. “bir mayizni qirqqa bo‘lib yemoq” yoki “bosh omon bo‘lsa do‘ppi topiladi ” frazemalari milliy mentalitetni idrok qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, frazemalar kontekstual jihatdan ham milliy tafakkurga bog‘liq bo‘lib, ularning talqini vaziyatga qarab o‘zgaradi.Globalizatsiya sharoitida frazemalardagi kognitiv metaforalar milliy tafakkur va qadriyatlarni saqlash va uzluksiz ifodalash vositasi sifatida ahamiyatli bo‘ladi. Global madaniyat ta’siri ostida frazemalar yangi kontekstlarda ishlatilsa ham, ularning asosiy metaforik va milliy mazmuni saqlanadi. Masalan, “ko‘ngli ochiq” frazemasi bugungi zamonda ham samimiyat va ochiqlik sifatini bildiradi va milliy mentalitetning barqarorligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, frazemalardagi metaforik obrazlar milliy tafakkur va lingvistik mentalitetni o‘rganishda muhim ilmiy vosita hisoblanadi. Frazemalarni tahlil qilish orqali til va tafakkur, madaniyat va tarixiy tajriba, ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik aniqlanadi. Shu bilan birga, frazemalarning lingvistik, kognitiv va madaniy tahlili milliy tafakkur va mentalitetning rivojlanishi hamda til merosini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv metafora asosida shakllangan frazemalar milliy tafakkur va mentalitetning boy ifodasi sifatida qaraladi. Ular insonning abstrakt tushunchalarni idrok etish, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni anglash va milliy axloqiy normalarni o‘zlashtirish jarayonlarini aks ettiradi. Frazemalar milliy tafakkur va madaniyatni til orqali saqlash, uzluksiz meros sifatida yetkazish vositasi bo‘lib, zamonaviy lingvistik, kognitiv va madaniyatshunoslik tadqiqotlarining markaziy mavzularidan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tug‘rul. M. (2010). *O‘zbek tilining frazema va idiomatik birliklari.* Toshkent: Fan.
2. Azizov, F. (2015). “Kognitiv lingvistika va metafora tahlili.” *Til va tafakkur*, 3(2), 45-58.
3. Rakhmonov, S. (2018). “Milliy tafakkur va frazemalar lingvistik tahlili.” *O‘zbek tili va adabiyoti*, 1(7), 23-34.
4. Sharipov, Sh. (2016). Til va tafakkur: Kognitiv lingvistikaga kirish. Toshkent: Fan.

ZULFIYA MO‘MINOVA SHE’RLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Feruza Hayotovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, lingvistika
(o‘zbek tili) 1-kurs magistranti
feruzaabdullayeva325@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoira Zulfiya Mo‘minova she’rlarining lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishga doir she’rlardan biri, ya’ni “Ayolga baxt bering” deb nomlangan she’rining tahlili ko‘rib chiqildi.Shoiraning “Ayolga baxt bering” she’riga lingvopoetik jihatdan yondashish she’r mohiyatiga yana ham chuqurroq kirib borishga yordam bergan. Tahlilda ayolning tashqi kulgisi va ichki holati o‘rtasidagi qarama-qarshilik, jilmayish ramzining ko‘p qirrali ma’nosi, shu bilan birga,baxt-saodat tushunchalarining poetik talqini yoritilgan. Shoira ayolni nafaqat nozik va sabrli, balki ichki qudratga ega shaxs sifatida ko‘rsatgan. She’riy misralar orqali jamiyatda ayol baxtini faqat tashqi ko‘rinishlar asosida baholash xatoligi yuzaga chiqadi. Annotatsiyada she’rning estetik, badiiy qiymati ochib berilgan..

Kalit so‘zlar: *Zulfiya Mo‘minova, ”Ayolga baxt bering”, lingvopoetik tahlil, lingvistik yondashuv, o‘xshatish, badiiy unsur.*

Annotation. This article examines one of the poems by the poetess Zulfiya Muminova, entitled “Give Happiness to a Woman,” which is a study of the linguopoetic features of her poems. The linguopoetic approach to the poetess' poem “Give Happiness to a Woman” helped to delve deeper into the essence of the poem. The analysis highlights the contrast between a woman's external smile and her internal state, the multifaceted meaning of the symbol of a smile, and at the same time, the poetic interpretation of the concepts of happiness and bliss. The poetess portrayed a woman as not only a delicate and patient person, but also as a person with inner strength. Through poetic lines, the error of evaluating a woman's happiness in society based only on external appearances is revealed. The annotation reveals the aesthetic and artistic value of the poem.

Keywords: *Zulfiya Muminova, “Give happiness to a woman”, linguopoetic analysis, linguistic approach, analogy, artistic element.*

Lingvopoetika - filologiyaning poetik tilni tadqiq etadigan sohasidir. Keyingi yillarda badiiy asar tili, badiiy asar nutqining individual xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yozuvchining so‘z tanlashdagi va qo‘llashdagi mahorati tilshunosligimizning

rivojida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, aynan mana shu jihat orqali yozuvchining individual uslubi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Tilshunosligimizda ijodkor badiiy nutqining o‘ziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar bosh mavzu darajasiga ko‘tarilib bormoqda. Ana shunday ijodkorlarimizdan biri bo‘lgan, shaxs ma’naviy dunyosiga ta’sir o‘tkazgan, uning hislarini junbishga keltirgan, adabiyotning yirik namoyandalaridan biri Zulfiya Mo‘minovadir. Ayolni sevadi dunyo”, “Vatanni sog‘indim”, “Vatan tashlab ketmaydi”, “Yonayotgan ayol”, “Azizim, baxtiyorman” kabi qator she’riy to‘plamlarini qiyosiy tahlil qilganda, mavzu farqi til strukturasiga bevosita ta’sir qilgani ko‘rinadi. O‘z she’larida insoniy muhabbat, bashar turmushida tabiatning o‘rni, qalb xotirjamligi-yu, onaning farzandga bo‘lgan muhabbatini madh aylagan shoira barchamizning ko‘nglimizdan chuqur joy olgan. Ayniqsa, shoira qalamiga mansub “Ayolga baxt bering” she’ri bugungi kunda barcha kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Biz siz bilan tahlil qilmoqchi bo‘lgan ushbu maqolada Zulfiya Mo‘minovaning “Ayolga baxt bering” she’rining linvopoetik tahlili haqida so‘z yuritamiz.

Bugungi kunda tilshunoslikda badiiy matnlarga lingvopoetik jihatdan yondashuv asar mohiyatini ochib berishda, ijod namunalarini shakllantiruvchi asosiy unsurlarni aniqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zulfiya Mo‘minova she’riyatini lingvopoetik jihatdan tahlil qilish jarayonida, avvalo, badiiy tafakkuri til orqali qanday shakllanishiga e’tibor qaratiladi.

Zulfiya Mo‘minova she’rlarining lingvopoetik xususiyatlari uning ayolona sezgirlik, vatanparvarlik va insoniy poklikni til orqali uyg‘unlashtira olganida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoira uchun so‘z nafaqat ifoda, balki mas’uliyatdir. Shu sababli uning poetik tili sodda ko‘rinsa-da, ichki ma’nolari nihoyatda kuchli va ko‘p qirralidir.

Ayolda baxt bering,saodat bering,

Demang yuribdi-ku kulib,jilmayib.

Ayol kulib turib o‘lishi mumkin,

Dunyoni olishi mumkin jilmayib.

Bu she’riy parcha Zulfiya Mo‘minova ijodiga xos bo‘lgan chuqur psixologik va lingvopoetik xususiyatlarni yaqqol ochib bergan. Garchand, to‘rtlikda berilgan kichik matn hajman ixcham bo‘lsa-da, mazmunan nihoyatda og‘ir va ko‘p ma’noli.

Birinchi misrada “Ayolga baxt bering,saodat bering” degan da’vat orqali lirik subyekt jamiyatga murojaat qiladi. Bu buyruq ohangidagi iltimos ayolning baxtga bo‘lgan ehtiyoji

tabiiy va muqaddas ekanini ko‘rsatishi bilan bir qatorda she’riy bandda qo‘llanilgan badiiy tasviriy vositalar she’rning emotsional-ekspressiv holatini yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynagan.

Bandning murojaat shaklida ifodalanishi (II-shaxs,buyruq mayli)she’r ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. “Baxt” va “saodat” so‘zlarining yonma-yon qo‘llanishi semantik kuchaytirish vazifasini bajarib, ayol hayotida faqat moddiy emas, balki ruhiy osoyishtalik ham muhimligini ta’kidlaydi.

Ikkinchi misrada “Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib” jumlasi orqali tashqi ko‘rinishi va ichki holat o‘rtasidagi ziddiyat ochiladi. Bu yerda kulish va jilmayish yuzaki baho mezoni sifatida tanqid qilinadi va asardagi satrlar izchilligini ta’minlashga yordam bergan: Kulib turmoq-jilmaymoq. Aslida, sinonimik qator sifatida e’tirof qilingan ushbu ikki so‘z mohiyati jihatidan darajalanish xususiyatini o‘zida aks ettirgan, ya’ni kulmoq-ma’noviy jihatdan kuchlilikni ifodalasa,jilmaymoq kulmoqqa nisbatan kuchsizroq semantik vosita bo‘lib kelgan. Shoira til orqali jamiyatda keng tarqalgan xato qarashni fosh etadi:ayol kulib yursa, demak u baxtli degani noto‘g‘ri xulosadir.

Uchinchi misrada she’rning eng kuchli dramatik nuqtasidir: “Ayol kulib turib o‘lishi mumkin”. Bu misralarda hiperbola va parodoks birgalikda ishlatilgan. “Kulib turib o‘lishi” birikmasi biologik o‘limni emas, balki ruhiy sinish, ichki yemirilish, ovoz va xotira orqali ifodalanadi.

To‘rtinchi misrada esa kutilmagan semantik burilish yuz beradi: “Dunyoni olishi mumkin jilmayib”. Avvalgi fojiali ohang bu yerda kuch va qudrat timsoliga aylanadi. Jilmayish endi ojizlik belgisi emas, balki ichki quvvat, sabr va iroda ramzi sifatida talqin qilinadi. Ayolning sokin tabassumi butun dunyoni o‘zgartira oladigan kuchga ega ekanini poetik umumlashtirish orqali ifodalanadi.

Ayolga baxt bering,saodat bering,
Gar ko‘zlari kulib tursa-da,
Bog‘zining ostida necha ming hasrat,
Oy yuzlari tursa-da…

-deb davom etgan ikkinchi bandda adabiy tasvir vositalaridan biri takror san’ati qo‘llangan,ikkinchi misradagi” kulib tursa-da” takrori she’riy misralar uyg‘unligini ta’minlagan. Bundan tashqari, mubolag‘a san’ati ham ijodkor tomonnidan mohirona qo‘llangan, ya’ni” Bo‘g‘zining ostida necha keng uchraydigan”ichi dardga to‘la” birligining yaqqol ifodasi sifatida o‘z tasdig‘ini topgan.

Ko‘nglini ko‘taring hech bo‘lmaganda,

Qo‘ini silashga shafoat toping.

Yig‘lab turganida hech bo‘lmaganda,

Yoshini artishga muruvvat toping.

Uchinchi bandda lingvopoetik jihatdan yondashadigan bo‘lsak,unda badiiy nutqning go‘zal namunasiga guvoh bo‘lamiz. Shoirona ifodalargan iborat birliklar she’riy bandda o‘zaro assosiatsiya hosil qilgan:ko‘nglini ko‘tarmoq qo‘lini silamoq, shafoat topmoq, muruvvat topmoq-bularning hammasi ijobiy bo‘yoqdorlikka ega so‘zlar hisoblanib, semantik jihatdan umuman boshqa ma’nolar kasb etsa-da, biroq ijobiylik ottenkasi nuqtayi nazaridan bir guruhga mansub, deb ayta olamiz.

Nogoh yerga tushsa oppoq ro‘moli,
Bosib o‘tmaslikka shafoat toping.
Chaqaloq yalagan etaklarini
Toza deb aytishga adolat bering.

Yuqorida berilgan she’riy matnda shoira sifatlashning badiiy san’atini mohirlik bilan yoritib bergan. Satrlarda qo‘llanilgan sifatlashlar she’rning yanada ta’sirchan, yanada go‘zal bo‘lishiga yordam bergan.

Birinchi misradagi oppoq ro‘mol birikmasidagi oppoq sifatlash aynan ro‘molning ramzi sifatida emas, balki ayolning pokligi, pokizaligi ramzi sifatida keltirilgan.

Navbatdagi sifatlash esa “chaqaloq yalagan etaklar” birligi asosida yuzaga kelib, bu orqali ijodkor ayolning farzandni ulg‘aytirishdagi boshidan o‘tkazadigan mashaqqatlarni aks ettirgan.

Ayolga baxt bering,saodat bering,

Illohi nur toping,hidoyat toping.

Illohi baxt bergan ayol yonidan

Baxtiyor o‘tmoqqa inoyat toping,

-baxt, baxtiyor, nur, hidoyat, inoyat so‘zlari assotsiativ so‘zlar guruhi bo‘lib, Islom dini asosida yuzaga kelganini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Illohi qalqonsiz,illoh qo‘rg‘onsiz
G‘iybatlar yirtmasin ko‘ylakkinasin.
Illohi hushyorsiz,illoh bedorsiz,
Itlar tishlamasin yurakkinasin.

Berilgan misralarga lingvopoetik jihatdan qaraydigan bo‘lsak, so‘z-gaplar takror holda sintaktik jihatdan qo‘llangan bo‘lib, she’rdagi ohangdorlikni kuchaytirgan: illohi, illoh.

Hushyor-bedor so‘zlari esa bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlar bo‘lib, she’r mazmunini kuchaytirishga xizmat qilagan. Dennotiv ma’noli (it) so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib,shoira ushbu misrada ayol yuragiga og‘riq beruvchi, ayolga zulm qiluvchi shaxslarni inobatga olgan.

Ayolga baxt bering,saodat bering,
Tog‘qimirlab toshlar so‘zga kirsa-da,
Ayolga baxt bering saodat bering,-
Oltmishga kirsa-da,yuzga kirsa-da.

Lingvopoetik xususiystga ega bo‘lgan she’rning yakuniy qismida she’r boshidagi misra yana bir bor takrorlanadi. Bu parchada qo‘llanilgan partonim munosabat (tog‘-tosh) she’r mazmuniga yanada ma’no yuklovchi vosita vazifasini bajargan. Zulfiya Mo‘minovaning “Ayolga baxt bering “she’ri o‘ziga xos ohangga, mazmunga ega. Lingvopoetik jihatdan yondashish she’rning tilshunoslik va adbiyot nuqtayi nazaridan ahglashishligiga yordam beradi. E’tibor berganimizdek, she’rda ifodalangan badiiy tasvir vositalari, oldingi bandlarga qo‘llanilgan bandlarning keyingi bandda yana bir bor takrorlanishi,nutq birliklarining o‘ziga xos foydalanilishi, konnotativ va denontativ birliklarga xos jihatlar she’r mohiyatining oson tushunilishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshyev.Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.-T.:2007
2.Begmatov E.,Tojiyev Y.Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.
T.:”O‘qituvchi”,1992.
3.Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.Doktorlik dissertatsiyasi.-T.:1991
4.Xo‘jamberdiyeva G. S.Zunnunova she’riyati linvopoetikasi.Nomzodlik dissertatsiyasi.-T.: 2007.
5.Rahmatillayev Sh.Hozirgi adabiy o‘zbek tili.-T.:”Universitet”,2006.
6.Abduraxmonov N.,Mahmudov N. So‘z estetikasi:-T.:”O‘qituvchi”.1981.7.www.google.com.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ORQALI OLAMNING KONSEPTUAL MANZARASI TASNIFI

Kurbanova Gulchiroy Ravshanovna
Aniq va Ijtimoiy fanlar unversiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning olamning konseptual manzarasini shakllantirishdagi o‘rni tizimli va kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Unda tilning xalq tarixiy tajribasi, madaniyati, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi asosiy semantik-madaniy tizim sifatidagi funksiyasi asoslab beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarning voqelikni obrazli tarzda tasniflashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi, ayniqsa ular orqali antropologik, tabiiy-makon, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va aksiyologik konseptlar ifodalanishi batafsil yoritiladi. Maqolada frazeologik birliklarning metaforik tabiatini belgilovchi obrazlilik mexanizmlari, ularning milliy-madaniy xususiyatlari hamda semantik taraqqiyoti keng ko‘lamda tahlil etiladi. Bular bilan bir qatorda, frazeologizmlarning ma’no strukturasida uchraydigan polisemiyalashuv, sinonimiya va antonimiya jarayonlarining konseptual ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tiladi. Shunday qilib, maqola frazeologiyaning til va madaniyat o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlikni yorituvchi muhim lingvokognitiv hodisa ekanini ilmiy asosda bayon etadi.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, konseptual manzara, til va madaniyat, kognitiv yondashuv, antropotsentrizm, obrazlilik, milliy mentalitet.*

Annotation. This article provides a systematic and cognitive analysis of the role of phraseological units in shaping the conceptual worldview. It substantiates the function of language as a key semantic-cultural system that reflects a people’s historical experience, culture, worldview and values. The study further explains how phraseological expressions serve as an important means of categorizing reality in an imagery-based manner, particularly through the representation of anthropological, natural-spatial, socio-cultural, economic and axiological concepts. The article also offers an extensive examination of the metaphorical mechanisms underlying phraseological imagery, their national-cultural features, and their semantic development. In addition, the conceptual significance of processes such as polysemy, synonymy and antonymy in the semantic structure of phraseological units is highlighted. Thus, the article scientifically demonstrates that phraseology is an essential linguo-cognitive phenomenon that reveals the meaningful interconnectedness between language and culture.

Keywords: *phraseology, conceptual worldview, language and culture, cognitive approach, anthropocentrism, imagery, national mentality.*

Til inson tafakkurining asosiy ifodachisi bo‘lib, unda nafaqat grammatik tuzilma, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyati, tarixiy tajribasi mujassam bo‘ladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tilda jamiyatning hayot tarzi, ruhiyati, dunyoni idrok etish modeli haqida chuqur ma’lumot beradi. Frazeologizmlar orqali xalqning voqelikni qanday tasniflagani, uni qanday kategoriyalarga ajratgani anglash mumkin. Shu bois frazeologik birliklar orqali olamning konseptual manzarasini tadqiq etish tilshunoslikning muhim, zamonaviy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Barchamizga ma’lumki, frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi fransuz tilshunos olimi Sharl Balli hisoblanadi. U o‘zining “Stilistika ocherki” va “Fransuz stilistikasi’’ nomli asarlariga so‘z birlashmalari, ya’ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar keltirgan. U frazeologik birliklarning tashqi va ichki belgilarini bir-biridan farqlagan edi. Bundan tashqari, rus frazeologiyasi fan tarixidan V.L.Arxangeliskiy, V.N.Teliya, L.I.Royzenzon, E.A.Malinovskiy, moldavan (R.S.Shirmankina), osetin millati olimlaridan (M.I.Isayev,I.A.Xugayev), tatar (G.X.Axatov, G.A.Axunzyanov), turkman (A.Abduraxmonova, K.Babayev, G.Achilova, o‘zbek olimlaridan (Sh.Raxmatullayev,Ya.Pinxasov [Yo‘ldoshev.2012: 5] kabilar frazeologiya sohasi rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Natijada, frazeologiya tilshunoslikning alohida, mustaqil sohasi sifatida shakllandi. O‘z vaqtida taniqli frazeolog olima N.N.Amosova aytganlaridek,’’bu lingvistik sohaning shakllanishi va taraqqiyoti ko‘plab frazeolog olimlarning turli tillar bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari samarasidir’’[Амосова. 1965.-С.3]. .- desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Til insonning borliq haqidagi bilimlari shakllanishining va mavjudliligining eng muhim yo‘li va faoliyat jarayonida obyektiv borliqni aks ettirib, inson idrokining natijalarini so‘zda mustahkamlaydi.

Til va madaniyat o‘zaro bog‘liqligi va bu muammoning yechimini topishga qaratilgan dastlabki urunishlar V.Gumbolt asarlarida kuzatiladi. U ta’limotining asosiy xulosalari quydagilardir: 1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda aks topadi; 2) har qanday madaniyat milliy, tabiati tilda olamni o‘ziga xos ravishda ko‘rish orqali ifodasini topadi; tilga har bir xalq uchun xos bo‘lgan ichki shakl mavjud; 3) tilning ichki shakli-bu “xalq ruhi” , uning madaniyatining ifodasi; 4) til inson va uni o‘rab turgan olam o‘rtasidagi bir zanjirdir [Gumbolt, 1998: 65]. Demak, til va borliq tushunchalari bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Shu o‘rinda “olam manzarasi” deb ataluvchi fenomen, hodisa insonning o‘zi kabi qadimdan mavjud bo‘lib, odam tomonidan dastlabki olam manzaralarini yaratish antropogenez jarayoni bilan bir davrda

sodir bo‘lib kelgan. Olam manzarasi insonning hayot faoliyatini boshqaruvchi unsuri sifatida ideal tasavvurlar xazinasi bo‘lmish inson ongi, psixologiyasi, ruhida keng ma’no kashf etib qolmay, balki insonning xulq-atvori, moddiy-hissiy amaliyoti, madaniyati ham o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birgalikda, “manzara” so‘ziga oydinlik kiritadigan bo‘lsak, tilshunoslik nuqtayi nazaridan qo‘llanishiga alohida e’tibor qaratiladi. “manzara” lug‘atda “lisoniy obrazlarda ko‘rish yoki tasavvur qilish mumkin bo‘lgan narsalar” hamda “biror narsaning ko‘rinishi, holati, joylashishi” degan ma’nolarni anglatadi .

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar-“millat hayotining ko‘zgusi” sifatida alohida rol o‘ynaydi [Mamatov.2019: 57]. Frazeologik birliklarning ma’nosi tabiati til sohibining fanga oid qo‘shimcha bilimlari, shaxsning amaliy tajribasi, shuningdek shu tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an’analari bilan uzviy bog‘liqdir. Frazeologik birliklar olam manzarasini bilan assotsiatsiyasiga kirishadigan obyektlarning xususiyatlarini qayd qiladi, yaxlit vaziyatni ya’ni matnlarni nazarda tutadi va uni baholaydi, unga tegishli bo‘lgan munosabatni belgilaydi. Frzeologik birliklar semantik jihatdan insonni va uning faoliyatini baholaydi. Frazeologizmlar bilan yaratiladigan olamning lisoniy manzarasini tahlil qilib uning quyidagi belgisini-antropotsentrikligini aniqlash ham mumkin. Misol qilib aytganda, olam manzarasining antropotsentrikligi uning insonga va uning faoliyatiga yo‘naltirilganligida o‘z ifodasini topadi, ya’ni inson barcha narsalarning o‘lchovi sifatida maydonga chiqadi.

Olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda mifologiya,mifologik konseptlar katta ro‘l o‘ynaydi. Bizning nuqtayi nazarimizda, mifologemalar, obrazli metaforik, konnotativ so‘zlar va boshqalar ularning eng ko‘zga tashlanadiganlaridir. Shundan qilib, olam manzarasini o‘rganish odam va uning borliq xususiyatlari hamda olam bilan o‘zaro munosabatlari, yashash sharoitlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasi insoning turli olam manzaralarini ifodalaydi va umumiy manzarasini aks ettiradi. Frazeologizmning semantik tuzilishi (ma’no imkoniyatlari) frazeologik ma’no (barqaror birikma asosida ifodalanadigan axborot) va qo‘shimcha ma’no bo‘yoqdorligidan iborat bo‘ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma’lumot frazeologik ma’no deyiladi. Frazeologik ma’no obrazliligi bilan leksik ma’nodan farq qiladi.

Frazeologik ma’no o‘ziga xos semantik taraqqiyot jarayonini aks ettiradi. Bunda nafaqat frazeologik ma’no, balki leksema semantikasiga oid ma’no taraqqiyotini ham kuzatish imkoniyati yuzaga keladi. Masalan: *ko‘z* leksemasidan bir qator iboralar shakllangan: Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan iborasi butunlay noma’lum narsa haqida gapirilganda ishlatiladi. Bunda ko‘z sinekdoxa usulidagi ma’no ko‘chishi asosida nafaqat «muayyan shaxs», balki «insoniyat» ma’nosini ifodalaydi. Ko‘z oldi, ko‘z o‘ngi ko‘z ko‘rib turgan, ko‘rinib turgan,

maydon, fazoni anglatadi. Koʻz tikmoq «intiqlik bilan kutmoq», «umid bilan qaramoq», koʻz uzmaslik «tikilib qaramoq», «diqqatni bir nuqtaga jamlamoq», koʻz tutmoq «intiqlik bilan kutmoq» ma'nolarini bildiradi. Koʻz urishtirmoq «ma'noli qaramoq, biror rejani amalga oshirishni maqsad qilmoq», koʻz yugurtirmoq «e'tiborsiz holda, shunchaki qaramoq» tushunchasini anglatadi. Eski oʻzbek tilida shunday soʻzlar borki, tarkibida koʻz leksemasi ishtirok etmasa-da, bevosita shu denotatga aloqador voqelikni aks ettiradi. *Toʻtiyo, surma* shular jumlasidandir. *Toʻtiyo* forscha-tojikcha soʻz boʻlib, turkiy xalqlarning eroniy xalqlar bilan muayyan ijtimoiy muhitda yashagan, madaniy-ma'naviy munosabatda boʻlgan davrlariga boʻlib taqaladi. Keyinchalik, bu soʻz faol qoʻllanib, ma'no kengayishiga uchragan. *Toʻtiyo* izohli lugʻatda shunday tavsiflangan:Toʻtiyo «mis zangidan hosil boʻlgan kristall»ni bildiradi. Koʻrinadiki, toʻtiyo, dastavval, koʻzga malham boʻladigan surgini ifodalagan boʻlib denotativ ma'noda qoʻllangan. Muayyan davrdan soʻng leksema semantikasida «koʻzga surtish» asosiy e'tibor nuqtasiga koʻtarilgan. *«Koʻzga surtmoq»* ma'nosidagi toʻtiyo qilmoq qoʻshma fe'li shakllangan. *Toʻtiyo* leksemasida «koʻk rang», «kukun», «malham», «surgi» semalari mavjud boʻlgan. Semantik kengayish natijasida «aziz qilmoq», «e'zozlamoq» semalari yuzaga kelgan, toʻtiyo qilmoq tipidagi yangi leksema yuzaga kelgan. Bu fe'l mumtoz lirikada koʻp uchraydi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida bu birlik faol qoʻllangan. Masalan:

Necha oqgʻay koʻz yoshim, yetkur gʻuborin,

Ey, nasim, farzi ayn erur yoshorur koʻzga solmoq toʻtiyo.

Bu baytda toʻtiyo lugʻaviy birligining denotativ ma'nosi ifodalangan. Shoir ruhiy sitam oqibatida koʻz yoshi toʻkkani va koʻz yoshini toʻxtatish maqsadida unga malham boʻluvchi gʻuborni yuborishni shamoldan soʻraydi. Bu oʻrinda gʻubor soʻzining «kukun», chang» ma'nosi nazarda tutilmoqda. Shoir fikriga misol keltiradi va tamsil san'ati asosida ta'sirchan ifoda hosil qiladi, yosharur, ya'ni yoshlanadigan (tabiiyki, koʻzning yoshlanishi undagi jarohatdan yoki nasihatlikdan dalolatdir) koʻzga malham sifatida toʻtiyoni surishlarini eslatadi, misol qilib keltiradi. Demak, frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining oʻziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga koʻra frazeologik birliklar alohida yondashishni, oʻrganishni talab qiladi. Frazeologizmlar ham, xuddi soʻzlar kabi, shakl va ma'no butunligiga ega hisoblanadi. Shu bilan qatorda frazeologiyaning bir qismi boʻlgan frazeogik polisemiyaga keladigan boʻlsak , bittadan ortiq ma'noni anglata olishi til birliklariga umumiy xos xususiyatlardan boʻlib, iboralarning ham koʻpgina qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning koʻpi ikki ma'noli; uch ma'noli iboralar ham anchagina; toʻrt-besh ma'noli iboralar sanoqli. Masalan, *bosh(i)ga qilich kelsa ham* iborasi bitta ma'noni («har qanday

sharoitda ham») anglatsa, *aql(i) yetadi* iborasi ikkita ma’noni [1) «*idrok qilmoq»;* 2) «*ishonch hosil qilmoq*»], *bo‘yn(i)ga* qo‘ymoq, iborasi uchta ma’noni [1) «to‘nkamoq, ag‘darmoq»; 2) «isbotlab, e’tirof qildirmoq»; 3) «bajarishga rozi qilmoq»], qo‘lga olmoq iborasi esa to‘rtta ma’noni anglatadi: [1) «o‘z ixtiyoriga o‘tkazmoq»; 2) «qo‘qqisdan hujum qilib bosib olmoq»; 3) «hibsga olmoq»; 4) «o‘z xohishiga bo‘ysunadigan qilmoq»].

Frazeologik omonimiya-bir xil shaklda tuzilgan, ammo boshqa-boshqa ma’nolarni ifodalaydigan iboralar omonim iboralar deyiladi. Omonim so‘zlar tilda ko‘p bo‘lishiga qaramay, omonim iboralar kam uchraydi.

Boshiga ko‘tarmoq I «shovqin solmoq»: Uyni boshiga ko‘targan bolalar tinchib qolishdi;

Boshiga ko‘tarmoq II «e’zozlamoq»: Har doim sizni boshiga ko‘taradi.

Og‘ziga olmoq I «ichmoq»: Ilgari bir qatra og‘ziga olmas edi.

Og‘ziga olmoq II «gapirmoq»: Ammo hech kim meni qaytarishni og‘ziga olmas edi.

Frazeologik sinonimiya- ma’nodoshlik hodisasi ibora uchun ham xos. Shaklan har xil iboralarning bir-biriga yaqin ma’nolarni anglatib kelishi sinonim iboralarni hosil qiladi: *Kayfi buzuq -ta’bi tirriq; toqati toq bo‘lmoq -sabr kosasi to‘lmoq. Yaxshi ko‘rmoq - ko‘ngil bermoq.* Lug‘aviy birlik sifatida iboralar so‘zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo‘ladi: *tomdan tarasha tushganday - kutilmaganda; og‘zi qulog‘ida - xursand, joni chiqmoq - g‘azablanmoq; ta’bi xira -xafa; quling o‘rgilsin - ajoyib*. Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo‘lib, leksemalar, morfemalar bilan bir qatorda, iboralar orasida ham ko‘p kuzatiladi. Ikki iborani o‘zaro sinonim deyish uchun ular ayni bir ma’noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo‘lmaydi. Ayni bir ma’nolilik teng ma’nolilik emas, albatta. Har bir sinonim, shu sinonimiya qatori uchun umumiy ma’no o‘zanidan tashqari, o‘ziga xos ma’no qirrasiga ega bo‘lishi mumkin.

Frazeologik antonimiya - qarama-qarshi ma’no ifodalovchi iboralar antonim iboralar deyiladi: *ko‘kka ko‘tarmoq -yerga urmoq; yuzi yorug‘-yuzi shuvut; ko‘ngli joyiga tushmoq - yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq.* Iboralar so‘zlashuv va badiiy uslubda keng qo‘llanadi. Frazeologik birikma va gaplar ko‘pincha bir so‘z yoki so‘z birikmasiga teng bo‘ladi: *qo‘li uzun -olg‘ir, o‘pkasi yo‘q-shoshilgan, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi -ruhi tushdi* va boshqalar. Tildagi idioma hodisasi ham ko‘chma ma’noga asoslanadi. Idiomada, odatda, hayotiy bo‘lmagan hodisa, harakat, holatlar tasvirlanadi.

Frazeologik tizimning konseptual manzarani shakllantirishdagi roli kognitiv-semantik xususiyatlar orqali namoyon bo‘ladi:

Obrazlilik-frazeologizmlar voqelikni metafora, metonimiya yoki ramziy ma’no orqali ifodalaydi.

Misol: *“Ko‘ngli tog‘dek”-ulug‘lik, kenglik* konsepti bilan bog‘liq.

Milliylik-har bir xalq frazeologiyaga o‘ziga xos madaniy belgilarni singdiradi. Misol: *“Qo‘yday yuvosh”* -chorvachilikka bog‘liq obraz.

Stabiliklik -frazeologizmlarning o‘zgarmas shakli ularning mazmunini mustahkamlaydi.

Kognitiv funksiyalari-frazeologizmlar orqali qayg‘u, quvonch, vaqt, makon, axloqiy me’yor, tabiat haqidagi tushunchalar tushuniladi. Tilshunoslikda inson va borliq konseptual manzarani tasniflashning bir nechta metodlari mavjud bo‘lib, unda frazeologizm asosida shakllanuvchi asosiy konseptual maydonlar ko‘rsatiladi.

Inson xarakteri, hissiyotlari va jismoniy holati frazeologizmlarda eng keng ifodalangan.

“*Yuragi duk-duk”*- qo‘rquv yoki hayajon konsepti.

“Ko‘ngli yarim”- ruhiy og‘riq.

“Qo‘li uzun” -ta’sir kuchiga ega bo‘lish.

Bu birliklar xalqning odamni idrok etish modeli, axloqiy mezonlar va psixologik qarashlarini ochib beradi.

Tabiat va makon konseptlari - tabiat elementlari milliy dunyoqarashning ajralmas qismidir.

“Ko‘ngli bahoriday” -yangilanish, umid.

“*Qorong‘ida yo‘l topmoq*”-tajribaga asoslanish.

Ushbu frazeologizmlar orqali xalqning tabiat bilan aloqasi, ekologik madaniyati va obrazli tafakkuri namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-madaniy konseptlar - jamiyatdagi munosabatlar, e’tiqod, axloqiy qadriyatlar frazeologiyada o‘z ifodasini topadi.

“Yuziga oyoq qo‘ymoq”-hurmatsizlik.

“Oq yo‘l tilamoq”- ezgulik, duo konsepti.

Ijtimoiy hayotdagi hodisalar til orqali frazeologik shaklga o‘tadi va konseptual mazmun kasb etadi.

Iqtisodiy hayot konseptlari-Xalqning mehnat, moliya va tirikchilikka doir qarashlari ham frazeologiyada aks etadi:

“Oyoqda turmoq”-mustaqillik, iqtisodiy barqarorlik.

“Qo‘li kalta”-yetishmovchilik konsepti.

Bular jamiyatning iqtisodiy ongini yoritadi.

Aksiyologik (qadriyat) konseptlar: Ezgu-yovuz, yaxshi-yomon, halollik-hiyla kabi tushunchalar milliy til frazeologiyasida asosiy kategoriya sifatida qatnashadi.

“Toza ko‘ngil”- poklik.

“O‘zi bo‘lmasa ham izi bor”- sahovat, yaxshilik merosi.

Bu frazeologizmlar axloqiy dunyoqarashning asosiy elementlarini shakllantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimisiz mumkinki, frazeologik birliklar xalq tafakkurining eng ixcham, obrazli va chuqur qatlamini tashkil etadi. Ular til tizimida nafaqat tayyor ibora sifatida, balki milliy konseptlarning tashuvchisi sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Frazeologizmlar orqali olamning konseptual manzarasini tasniflash – bu jamiyatning tarixiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, dunyo haqidagi tasavvurini ilmiy asosda tiklash demakdir. Shunday qilib, frazeologik birliklarning tahlili nafaqat tilshunoslik uchun, balki madaniyatshunoslik, psixologiya va antropologiya kabi fanlar uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Topmadim. – Toshkentт: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. –12-b.

2. Амосова Н.Н Теоретическое и практическое значение фразеологии как особой отрасли языкознания// Проблемы фразеологии и задачи не изучения в высшей и средней школе. Тезисы докладов межвузовской конференции.- Череповец,1965. - С.3.

3. G‘ulomov A., Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. – Toshkent: O‘zbekiston FAN, 2016.

4. Mamatov A.E.. Zamonaviy lingvistika.-Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2019.

5. Rahmatullayev Sh.., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I.,.Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

6. Rasulov R. O‘zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2012.

7. Yo‘ldoshev B., O‘zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi va funksional pragmatik xususiyatlari (tanlanma fan) maruzalar matni Samarqand:-2012.

ZAMONAVIY LEKSIK TIZIMDA NEOLOGIZMLAR SINONIMIYASINING O‘RNI

Sharaximova Shohistaxon Maxmud qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-bosqich magistr
shoraximovashoxista@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda muhim o‘rin egallayotgan neologizmlar sinonimiyasi masalasi yoritiladi. Tadqiqotda tilning uzluksiz rivojlanishi jarayonida paydo bo‘layotgan yangi leksik birliklarning mavjud sinonimik qatorlarga kirishi, ularning semantik, stilistik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy lingvistik yondashuvlar doirasida neologizmlar sinonimiyasi dinamik jarayon sifatida ko‘rib chiqilib, an’anaviy sinonimiya tushunchasidan farqli jihatlari aniqlanadi. Maqolada fransuz va o‘zbek tillaridan olingan misollar asosida neologik birliklarning qo‘llanish sohasi, nutqiy vazifasi hamda ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari leksik tizimning boyishi, tilning zamon bilan hamnafas rivojlanishi va sinonimik munosabatlarning yangi shakllarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *neologizm, sinonimiya, zamonaviy lingvistika, leksik tizim, fransuz tili, o‘zbek tili.*

Annotation. This article examines the issue of neologism synonymy, which occupies an important place in modern linguistics. The study analyzes the integration of newly emerging lexical units into existing synonymic sets and explores their semantic, stylistic, and functional characteristics. Within the framework of contemporary linguistic approaches, neologism synonymy is considered as a dynamic process, and its distinctive features in comparison with traditional views on synonymy are identified. Based on examples from the French and Uzbek languages, the article highlights the spheres of usage of neological units, their communicative functions, and their relationship with social factors. The findings of the study contribute to a deeper understanding of lexical system development, the language’s adaptation to modern realities, and the formation of new patterns of synonymic relations.

Keywords: *neologism, synonymy, modern linguistics, lexical system, French language, Uzbek language.*

Kirish. Zamonaviy til doimiy harakatda va uzluksiz rivojlanish jarayonida bo‘ladi. Jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, madaniy, ilmiy-texnik o‘zgarishlar tilda yangi tushuncha va hodisalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ushbu yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji natijasida neologizmlar, ya’ni yangi so‘zlar va iboralar vujudga keladi. Neologizmlar til lug‘at boyligini kengaytiribgina qolmay, balki tilning zamon bilan hamnafas rivojlanishini ta’minlaydi.

Bugungi globallashuv davrida neologizmlar, ayniqsa, texnologiya, internet, ijtimoiy tarmoqlar, siyosat, iqtisod va madaniyat sohalarida juda tez sur’atlarda shakllanmoqda. Fransuz va o‘zbek tillarida ham yangi realiyalarni ifodalash uchun ko‘plab neologik birliklar yaratilmoqda yoki boshqa tillardan o‘zlashtirilmoqda. Biroq neologizmlar tilda yakka holda emas, balki ko‘pincha mavjud so‘zlar bilan sinonimik munosabatga kirishadi.

Neologizmlar sinonimiyasi tilshunoslikda nisbatan yangi va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An’anaviy yondashuvda sinonimiya ko‘proq barqaror va umumxalq tilida mustahkam o‘rnashgan leksik birliklar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, zamonaviy lingvistika sinonimik munosabatlarni dinamik, ya’ni vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boruvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Bu jarayonda neologizmlar mavjud sinonimik qatorlarni boyitishi, ayrim hollarda esa eski birliklarni siqib chiqarishi mumkin.

Zamonaviy yondashuvga ko‘ra, neologizmlar sinonimiyasi faqat ma’no o‘xshashligi bilan cheklanmaydi. Ularning stilistik qiymati, qo‘llanish sohasi, kommunikativ vazifasi, diskursga bog‘liqligi va ijtimoiy omillar bilan aloqasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir tushunchani ifodalovchi an’anaviy so‘z bilan neologizm o‘rtasida ma’no jihatidan yaqinlik bo‘lsa-da, ularning ishlatilish muhiti va nutqiy ta’siri farq qilishi mumkin [Dubois, 2002: 25].

Til doimo o‘zgarib boradi va har bir jamiyatda yangi tushunchalar paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, ularni ifodalash uchun yangi so‘zlar, ya’ni neologizmlar yaratiladi. Neologizmlar nafaqat tilni boyitadi, balki u zamon bilan hamnafas bo‘lishini ta’minlaydi. Ko‘pincha yangi so‘zlar mavjud so‘zlar bilan yaqin ma’noga ega bo‘lib, sinonimlik munosabatiga kiradi [Saussure, 1995: 22].

An’anaviy yondashuvlarda sinonimiya ko‘proq barqaror, uzoq vaqt ishlatilgan so‘zlar bilan bog‘liq bo‘lsa, zamonaviy tilshunoslikda neologizmlar sinonimiyasi dinamik jarayon sifatida qaraladi. Ya’ni yangi so‘zlar mavjud sinonimlar qatorini boyitadi, ayrim hollarda esa ular ma’lum nutqiy vaziyatlarda ustunlikka ega bo‘ladi.

Zamonaviy neologizmlar sinonimiyasi bir necha jihatdan ajralib turadi:

Funktsional farqlanish: Neologizm va uning an’anaviy sinonimi ma’nosi yaqin bo‘lsa-da, ular turli vaziyatlarda ishlatiladi. Masalan, internetda yoki ommaviy axborot vositalarida neologizm ko‘proq ishlatiladi, rasmiy nutqda esa an’anaviy so‘z saqlanadi.

Stilistik rang-baranglik: Ko‘pincha neologizmlar zamonaviylik, yangilik va texnologiklikni ifodalaydi, nutqqa esa yangi ohang va ekspressivlik qo‘shadi.

Ijtimoiy ta’sir: Yoshlar, internet foydalanuvchilari va professional guruhlar neologik sinonimlarning shakllanishida va tarqalishida yetakchi rol o‘ynaydi [Umarov, 2015: 14].

Fransuz tilida yangi so‘zlar ko‘pincha ingliz tilidan o‘zlashtirilgan:

travailler à distance - télétravailler

message électronique - e-mail

acheter en ligne - commander online

Bu misollar neologik birliklarning an’anaviy so‘zlar bilan bir sinonimik qatorni tashkil qilishi, lekin turli vaziyatlarda tanlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida ham neologizmlar sinonimiyasini kuzatish mumkin:

masofaviy ta’lim - onlayn ta’lim

elektron pochta - email

ijtimoiy tarmoq - sotsial tarmoq

Bu juftliklarda neologik birliklar qisqa, qulay va ommaviy nutqda ustunlik qiladi, an’anaviy so‘zlar esa rasmiy va ilmiy uslubda ko‘proq ishlatiladi.

Hozirgi kunda neologizmlar sinonimiyasi kognitiv, pragmatik va sotsiolingvistik nuqtai nazardan o‘rganilmoqda. So‘z endi faqat lug‘atdagi birlik sifatida emas, balki nutqiy ehtiyoj, madaniy kontekst va ijtimoiy ong mahsuli sifatida tahlil qilinadi. Shunday qilib, sinonimik munosabatlar tilning ichki tizimi bilan bir qatorda tashqi omillar ta’sirida ham shakllanishini ko‘rsatadi [Rey, 2008: 35].

Zamonaviy lingvistik yondashuv. Zamonaviy lingvistika til hodisalarini faqat grammatik yoki lug‘aviy birlik sifatida emas, balki inson tafakkuri, ijtimoiy muhit va kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan, neologizmlar sinonimiyasi ham bugungi kunda an’anaviy qarashlardan farqli ravishda kengroq va chuqurroq tahlil qilinmoqda.

Avvalgi tilshunoslikda sinonimiya asosan ma’no yaqinligiga asoslangan holda izohlangan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvda so‘zning qo‘llanish konteksti, nutqiy vazifasi va ijtimoiy omillar asosiy mezon sifatida qaraladi. Neologik sinonimlar aynan qaysi vaziyatda, qaysi auditoriya uchun va qanday maqsadda ishlatilayotgani muhim ahamiyat kasb etadi [Hojiyev, 2002: 85].

Kognitiv lingvistika neologizmlarni insonning dunyoni anglash jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, yangi so‘zlar inson ongida paydo bo‘layotgan yangi tushunchalar va tasavvurlarni aks ettiradi. Sinonimik neologizmlar esa bir tushunchaning turli mental modellar orqali ifodalanishini ko‘rsatadi. Masalan, onlayn ta’lim va masofaviy ta’lim bir hodisani bildirsa-da, ularning idrokdagi talqini va urg‘usi bir xil emas.

Pragmatik yondashuv neologizmlar sinonimiyasini nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Bu yerda so‘zning ma’nosidan ko‘ra, uning qanday maqsadda ishlatilayotgani muhim hisoblanadi. Masalan, rasmiy hujjatlarda an’anaviy terminlar afzal ko‘rilsa, kundalik nutq va internet muhitida neologik sinonimlar faolroq ishlatiladi. Bu holat neologizmlar sinonimiyasining vaziyatga moslashuvchan ekanini ko‘rsatadi[Lyons, 1996: 45].

Sotsiolingvistika neologizmlar sinonimiyasini jamiyat bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. Yoshlar nutqi, kasbiy guruhlar, internet foydalanuvchilari va ommaviy axborot vositalari yangi sinonimik birliklarning tarqalishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, globalizatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida xorijiy tillardan kirib kelgan neologizmlar mavjud so‘zlar bilan sinonimik munosabatga kirishib, til tizimini yangilaydi.

Zamonaviy lingvistik yondashuv neologizmlar sinonimiyasini statik emas, balki dinamik hodisa sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv orqali tilning yangilanish mexanizmlari, leksik tizimning boyish jarayoni va sinonimik munosabatlarning shakllanish qonuniyatlarini chuqurroq anglash mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar va sinonimiya zamonaviy leksikologiya va semasiologiyaning muhim tadqiqot ob’ektlaridan biridir. Tilning dinamik rivoji ijtimoiy va texnologik ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon yangi nominativ birliklar - neologizmlarning yuzaga kelishiga olib keladi va ular tilning leksik-semantik tizimini boyitadi.

Fransuz va o‘zbek tillarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, neologizmlar mavjud leksik birliklar bilan sinonimik munosabatga kirishib, paradigmatik aloqalarni kengaytiradi. Bu jarayonda uslubiy differensiasiya va konnotativ ma’no muhim rol o‘ynaydi hamda nutqning aniqligi va ifodaviyligini oshiradi.

Umuman olganda, neologizmlar sinonimiyasini o‘rganish til taraqqiyotining qonuniyatlarini, leksik-semantik jarayonlarni va nominatsiya mexanizmlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dubois, J. Dictionnaire de linguistique et des sciences du langage. Paris: Larousse, 2002.

2. Lyons, J. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press, 1996.

3. Rey, A. La néologie en français contemporain. Paris: PUF, 2008

4. Saussure, F. de. Cours de linguistique générale. Paris: Payot, 1995.

5. Umarov, A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan, 2015.

6. Hojiyev, A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

7. www.larousse.fr

DIALEKTIZMLARNING BADIIY ADABIYOTDAGI LINGVOSTILISTIK FUNKSIYALARI

Aminova Feruza Anvar qizi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
feruzaaminova98@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek badiiy adabiyoti tilida dialektizmlarning funksional-stilistik xususiyatlari lingvistik, etnolinguistik va stilistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Dialektizmlarning leksik, fonetik, morfologik, semantik va frazeologik turlari badiiy matn materiallari asosida tizimli ravishda o‘rganilib, ularning milliy kolorit yaratish, personaj nutqini individuallashtirish, matnning realizmini ta’minlash hamda emotsional-ekspressivligini kuchaytirish kabi vazifalari aniqlanadi. Shuningdek, dialektizmlarning kontekstual ochilishi, muallif va personaj nutqidagi taqsimlanishi, ularning qadimgi turkiy qatlam bilan bog‘liq etimologik jihatlari yoritiladi. Maqolada V. V. Vinogradovning stilistika nazariyasi, dialektologik xaritalash, korpus lingvistikasining ayrim metodlari orqali dialektal birliklarning badiiy matndagi semantik-diskursiv o‘rni aniqlangan. Tadqiqot natijalari o‘zbek badiiy tilining variantlilik imkoniyatlarini, milliy lingvokulturning matndagi aksini hamda dialektlarning adabiy til taraqqiyotidagi rolini ilmiy asosda yoritadi.

Kalit so‘zlar: *dialektizm, leksik dialektizm, fonetik dialektizm, semantik variant, badiiy matn, lingvostilistik tahlil, milliy kolorit, personaj nutqi, etnolinguistika, variantlilik, badiiy til.*

Annotation. This article analyzes the functional-stylistic features of dialectisms in Uzbek literary language based on linguistic, ethnolinguistic and stylistic approaches. Lexical, phonetic, morphological, semantic and phraseological types of dialectisms are systematically studied based on the materials of the literary text, and their functions such as creating a national color, individualizing the character’s speech, ensuring the realism of the text and enhancing the emotional-expressiveness are determined. Also, the contextual disclosure of dialectisms, their distribution in the author’s and character’s speech, and their etymological aspects related to the ancient Turkic layer are highlighted. The article identifies the semantic-discursive role of dialectal units in the literary text through V. V. Vinogradov’s theory of stylistics, dialectological mapping, and some methods of corpus linguistics. The results of the research shed light on the variant possibilities of the Uzbek literary language, the reflection of the national linguistic

culture in the text, and the role of dialects in the development of the literary language on a scientific basis.

Key words: *dialectism, lexical dialectism, phonetic dialectism, semantic variant, literary text, linguist-stylistic analysis, national color, character speech, ethnolinguistics, variant, literary language.*

O‘zbek adabiy tili taraqqiyoti jarayonida hududiy dialektlar va ularning til birliklari muhim o‘rin tutadi. Dialektizmlar — ma’lum bir hududga xos bo‘lgan, fonetik, leksik yoki grammatik jihatdan adabiy til me’yoridan farqlanuvchi til vositalari — badiiy adabiyotda milliylik, kolorit va realistik tasvirni kuchaytiruvchi o‘ziga xos stilistik birlik sifatida faol qo‘llanadi. So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida dialektizmlarning badiiy matn strukturasi va semantik potensialini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchaydi.

Dialektizmlar — tilning hududiy differensiallashuvi natijasida yuzaga kelgan, muayyan geografik arealga mansub aholining nutqida barqaror qo‘llanadigan, adabiy tilda esa cheklangan qo‘llanma imkoniyatiga ega bo‘lgan til birliklaridir. Ularning paydo bo‘lishi adabiy til va mahalliy shevalar o‘rtasidagi tarixiy, ijtimoiy va funksional munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon tilning ichki variativligini tashkil etadi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, dialektizmlar “tilning ijtimoiy-hududiy tabaqalanishining tashqi ko‘rinishi” sifatida namoyon bo‘ladi va ular adabiy tilning umumxalq norma sifatida shakllanish jarayonida periferik birliklarni tashkil etadi.

Dialektizmlarning lingvistik tabiati polikomponentli bo‘lib, fonetik, leksik, morfologik, so‘z yasash va semantik darajalarda ko‘zga tashlanadi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda dialektizmlarning quyidagi asosiy tasnifi keng qo‘llanadi:

Fonetik dialektizmlar — tovush tarkibidagi farqlar, masalan, bobo/bovo, qaymog‘/qaymağ kabi variantlar.

Leksik dialektizmlar — faqat ma’lum hududda qo‘llanadigan so‘zlar: nov, qo‘ton, kemshik, chiyiq.

Semantik dialektizmlar — adabiy tilda mavjud bo‘lgan so‘zning shevada boshqa ma’noni anglatishi: masalan, shayton (echki).

Morfologik dialektizmlar — grammatik shakllarning hududiy variantlari: kelishlar (kela boshlash), borarsizlar kabilar.

Frazeologik dialektizmlar — faqat ma’lum hududga xos bo‘lgan barqaror birikmalar: yuragiga tap-tap tushdi, hay attisa va boshqalar.

Dialektizmlarni tasniflashda V. V. Vinogradovning stilistik tasnifi, Sh. Rahmatullayev, A. G‘ulomov, U. Tursunov kabi o‘zbek tilshunoslarining dialektologik tavsiflari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy lingvistika nuqtai nazaridan dialekt birliklari nafaqat hududiy belgisi, balki ularning matndagi stilistik vazifasi, kommunikativ yuklamasi, milliy-madaniy konnotatsiyasi nuqtai nazaridan ham o‘rganilishi lozim.

Dialektizmlar, odatda, personaj nutqiga xos bo‘ladi; muallif nutqida esa ularning qo‘llanilishi nazoratlangan bo‘ladi. Bu esa ikki qatlamini farqlashda stilistik signal vazifasini bajaradi.

Badiiy matn tilida dialektal birliklarning qo‘llanishi, avvalo, personaj nutqining individuallashtirilishiga xizmat qiluvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida qaraladi. Tilshunoslikda personaj nutqining individuallashuvi (individualizatsiyasi) muallifning obraz yaratish strategiyasidagi markaziy komponentlardan biri bo‘lib, unda leksik, fonetik, morfologik va sintaktik darajadagi dialektizmlarning o‘ziga xos funksiyalari namoyon bo‘ladi.

Sheva unsurlarining personaj nutqiga tatbiq etilishi, bir tomondan, qahramonning ijtimoiy-madaniy kelib chiqishi, hududiy mansubligi, kasbiy-mavqeiy holati va mental-psixologik portretini ochib berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, matnning realistik tabiatini kuchaytiradi. Sosiolinguistik nuqtai nazardan, sheva birligi — bu nafaqat hududiy belgi, balki jamiyatdagi identifikatsiya vositasi hamdir; shu sababli muayyan dialektal forma qo‘llanishi personajning qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ko‘rsatuvchi indeksal belgiga aylanadi.

Personaj nutqida qo‘llangan dialektizmlar individual nutq modeli (idiolekt)ning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Masalan, fonetik dialektizmlar (masalan, bobo→bovo), leksik dialektizmlar (qotma, nonvos, chiyiriq kabilar), morfologik unsurlar (–la plurali, –mi interrogativi) va sintaktik konstruksiyalar personajning o‘ziga xos nutqiy portretini yaratishda stilistik markerdir. Bu holat Vinogradov ta’kidlagan “obrazli til unsurlarining funksional-estetik signalligi” tamoyiliga hamohang ravishda, dialektizmlarning nafaqat nominativ, balki ekspressiv-semantik yuklamaga egaligini ko‘rsatadi.

Shevalarning personaj nutqini individuallashtirishdagi o‘rni badiiy proza uchun alohida ahamiyatga ega: dialektal birliklar personajning autentik nutq tovushini yaratadi, uni “jonli odam” sifatida qabul qildirishga xizmat qiladi. Xususan, o‘zbek adabiyotida Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Xurshid Do‘stmuhammad kabi adiblar personajlarning tabiiy nutqini berishda sheva unsurlaridan samarali foydalanadilar. Suyundik Mustafo ijodida esa dialektal qatlam — bu qahramonlarning ijtimoiy-madaniy olamini tiklash, qishloq hayoti realiylarini tabiiy aks ettirish va voqeiylikni kuchaytirishning markaziy usullaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, shevalar badiiy matnda personaj nutqini individuallashtirishga xizmat qiluvchi lingvopoetik mexanizm bo‘lib, ular realistik tasvirning ilmiy asoslangan vositasi, muallifning stilistik tanlovi va obraz yaratish texnologiyasidagi zarur element sifatida baholanadi. Dialektal unsurlar personajning individual til olamini shakllantiradi, matnning milliy koloritini kuchaytiradi va badiiylikni semantik hamda emosional jihatdan boyitadi.

Dialektizmlarni ilmiy tadqiq etish metodologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular quyidagicha:

1. Struktural-semantik tahlil - So‘zning semik tarkibi, paradigmatik aloqalari aniqlanadi.
2. Etnolinguistik yondashuv - real borliq, madaniy arxaizmlar, marosimlar bilan aloqasi o‘rganiladi.
3. Dialektologik xaritalash - variantlarning geografik tarqalish izoglossalari aniqlanadi.
4. Korpus lingvistikasi - badiiy matnlarda dialektizmlarning chastotasi va kontekstual taqsimlanishi statistik o‘rganiladi.

O‘zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyotida dialektlarning ta’siri moddiy madaniyat leksikasi, etnografik atamalar va xalqona ifodalar orqali seziladi [Rahmatullayev, 1992:348]. Ammo dialektizmlarning badiiy matndagi funksiyasi faqat “kolorit yaratish” bilan chegaralanmaydi — ular semantik, pragmatik va ideologik yuk ko‘taradi. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Farg‘ona vodiy shevalari o‘zbek nasriy asarlarida ayniqsa faol qo‘llanadi. Suyundik Mustafo, Odil Yoqubov, O‘tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, Tog‘ay Murod singari yozuvchilar asarlarida dialektizmlar milliy mentalitet va xarakter yaratishda asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, dialektizmlar o‘zbek badiiy adabiyotining lingvostilistik qurilmasida alohida o‘rin egallaydi. Ular:

- milliy koloritni boyitadi;
- personaj xarakterini ochadi;
- matnning realizmini kuchaytiradi;
- xalqona nutqning tabiiyligini ta’minlaydi;
- adabiy til taraqqiyotidagi variantlilikni mustahkamlaydi.

Badiiy matnda dialektizmlarning ilmiy tahlili adabiy tilning rivojlanish mexanizmlarini, tilning ichki differensial jarayonlarini va milliy mentalitetning lingvistik aksini yoritishga katta ilmiy imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Трудгил П. Социолингвистика: введение в язык и общество. — Москва: URSS, 2000. — 224 с.
2. Лабов У. Принципы лингвистической изменения. — Москва: Прогресс, 1975. — 412 с.
3. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — Москва: Искусство, 1979. — 424 с.
4. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. — Москва: Гослитиздат, 1959. — 502 с.
5. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. — Москва: Советская энциклопедия, 1966. — 608 с.
6. Халлидей М. А. К., Хасан Р. Язык, контекст и текст. — Москва: Прогресс, 1989. — 351 с.
7. Юнусов Р. Ўзбек тил шевалари ва уларнинг лексик хусусиятлари. — Тошкент: Фан, 1981. — 276 б.
8. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон, 2006. — 656 б.
9. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. — Тошкент: Ўқитувчи, 1992. — 348 б.
10. Ғуломов А., Жўраев М. Ўзбек тили лексикологияси. — Тошкент: Фан, 2003. — 240 б.

TOPONIMLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDAGI O‘RNI

Askarova Yorqinoy Mo‘minjonovna
stajyor o‘qituvchi
ADPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili frazeologik birliklari tarkibida toponimlarning tutgan o‘rni lingvistik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. Frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etgan geografik terminlarning shakllanishida tabiiy-geografik hamda ijtimoiy-madaniy omillarning roli yoritildi. Toponim komponentli frazeologizmlarning semantik tuzilishi, baholovchi xususiyati va milliy-madaniy konnotatsiyasi aniqlandi. Shuningdek, geografik obyektlar ishtirokidagi frazemalar subyektiv baho munosabatiga ko‘ra tasniflanib, etnomintaqaviy va ekzotoponimik frazemalar ajratildi. Tadqiqot natijalari frazeologiyaning onomastik tarkibini o‘rganish hamda lingvomadaniy tadqiqotlar doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Topinim, frazeologik birlik, geografik termin, onomastika, lingvomadaniyat, semantik tahlil, subyektiv baho, etnomintaqaviy frazema, ekzotoponimik frazema.*

Annatation. This article examines the role of toponyms in Uzbek phraseological units from linguistic and linguocultural perspectives. Particular attention is paid to the natural-geographical and socio-cultural factors influencing the formation of phraseological units containing geographical components. The semantic structure, evaluative meaning, and national-cultural connotations of toponym-based phraseologisms are analyzed. In addition, phraseological units incorporating geographical objects are classified according to subjective evaluation, resulting in the distinction between ethnoregional and exotoponymic phraseologisms. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the onomastic composition of phraseology and expand the scope of linguocultural research in modern linguistics.

Keywords: *toponym, phraseological unit, geographical term, onomastics, linguoculture, semantic analysis, subjective evaluation, ethnoregional phraseologisms, exotoponymic phraseologisms.*

Har bir til xalq ruhiyati, tafakkuri va dunyoqarashi ifodasi bo‘lib, undagi frazeologik birliklar esa xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan obrazli ifodalar tizimidir. Frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari turli sohalarga oid leksik birliklardan iborat. Jumladan, tabiiy geografik obyektlarning nomlari ishtirok etgan toponimik leksika (tog‘, daryo, cho‘l, dengiz, osmon jismlari, shahar, yer va b.) ham mavjud.

Toponimlar va antroponimlar shakllanishida geografik manbalar va hududiy bog‘liqlik muhim o‘rin tutadi. Bundan ko‘rinadiki, frazeologik birliklar tarkibidagi geografik komponentlar ham shunga monand holda lingvistik va madaniy jihatdan alohida o‘rganilishi lozim.

Geografik terminlar tabiiy va antropogen obyektlarning nomlarini ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalaridir. Bu kabi birliklar onomastika fanining tarkibiy qismi bo‘lgan toponimika doirasida o‘rganiladi. Onomastika fanida geografik terminlar ishtirok etgan til birliklari o‘ziga xos leksik-semantik, tarixiy-madaniy belgilarni aks ettiradi. Bunday terminlar avvalo, geografik obyektlar va joy nomlarini anglatuvchi lug‘aviy birliklar tushuniladi. Ularning ifodasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Tabiiy obyektlarning nomlari: tog‘, soy, daryo, ko‘l, dasht, cho‘l, tepa, adir, vodiy, qir;
2. Sun’iy yoki antropogen obyektlarning nomlari: qal’a, qo‘rg‘on, ariq, kanal, shahar, qishloq nomlari;
3. Ma’muriy-hududiy birliklarning nomlari: viloyat, tuman, shaharcha nomlari;
4. Landshaftlarning nomlari: botqoq, qo‘ltiq, o‘rmon, yaylov nomlari.

Tilshunos olim H.Hasanov o‘zbek toponimikasining taraqqiyoti va umumiy geografik atamashunoslikning shakllanishiga hissa qo‘shdi [Hasanov, 1964: 111].

Keyinchalik olim T.Nafasov o‘zbek tilshunosligida birinchi bo‘lib toponimika sohasida “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”ni tuzdi [Nafasov, 1988: 288]. Jahon onomastikasida esa tabiiy obyektlar bilan inson aloqasining tarixiy qatlamlari aniqlandi [A.Dauzat, 1951: 64].

Ma’lumki, frazeologik birliklar tilning eng madaniy-boy qatlamlaridan biri bo‘lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashi ifodalanadi. Toponimlar, ya’ni geografik nomlar, frazeologik birliklarda muhim komponent sifatida xizmat qiladi. Ular frazeologizmga nafaqat leksik ma’no, balki milliy-madaniy va tarixiy konnotatsiya ham beradi. Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini, ularning milliy-madaniy mazmunini aniqlashga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu borada shuni eslatib o‘tish lozimki, frazeologizmlarning tarkibida uchraydigan geografik

komponentlar (yer, osmon, tog‘, daryo, yo‘l, sahro kabi birliklar) badiiy-estetik va lingvomadaniy jihatdan alohida tahlilni talab etadi, shuning uchun tilshunoslikda bunday frazeologik birliklarni onomastik tarkibi ya’ni, konteksti bilan o‘rganish har tomonlama, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Frazeologik birliklarning mazmuni va obrazliligini kuchaytirishda toponimlar alohida ahamiyatga ega. Toponimlar frazeologik birliklarda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. **Nomlash vazifasi** –geografik obyektni belgilaydi;
2. **Madaniy kod vazifasi** – milliy urf-odatlar, qadriyatlar va tarixiy voqealarni aks ettiradi;
3. **Psixologik funksiyasi** – milliy identifikatsiya va o‘zga madaniyatga munosabatni ifodalaydi.

O‘zbek tilida *“Termizning issig‘i bosdi”* iborasi xalqimiz tomonidan geografik jihatdan mavjud hudud nomi asosida yaratilgan frazeologizmdir. Termiz qadimiy shahar bo‘libgina qolmay, mumtoz madaniy meros va tarixiy betakrorlikni ifodalaydi. Misol: *Termizning yozi issiq cho‘l iqlimi bilan kechadi* [Wikipedi]. Tog‘, daryo, ko‘l, tog‘ tizmasi, vulqon, cho‘l va hokazo nomlar tabiat obektlarini ifodalovchi leksik birliklar hisoblansa, issiq, sovuq, nam, qurg‘oqchilik kabilar esa iqlim bilan bog‘liq leksik birliklar sanaladi. Ushbu frazemaning shakllanishida geografik obyektning iqlimi bilan bog‘liq leksik birlik muhim vazifa bajargan.

O‘zbek tili leksik zaxirasini o‘rganish jarayonida shu aniqlandiki, iboralar tarkibida toponim komponentning shakllanishi, asosan, tabiiy-geografik va ijtimoiy-madaniy omil ta’sirida yuzaga kelgan. Jumladan, relyef, iqlim, daryo-ko‘l, tog‘ va boshqa geografik xususiyatlar aks etgan frazemalar. Tarixiy voqealar, xalq e’tiqodi, mifologiya, urf-odatlar va kundalik hayot tilning ijtimoiy-madaniy jihatiga ta'sir ko‘rsatadi, natijada til fondida boshqa til birliklari kabi maxsus ***“geografik obyektli frazemalar”*** shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu ikki omil frazeologik birliklarda milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi asosiy manba hisoblanadi.

Geografik terminlar ishtirok etgan frazemalarni subyektiv baho munosabatiga asoslanib tasniflanish ham mumkin. Xususan, ular ikki asosiy guruhga bo‘linadi: Birinchi guruhga etnos mintaqasidagi tabiiy sharoitlarni, iqlimni yoki hududning ijobiy xususiyatlarini ta’kidlovchi frazemalar kiradi. Bunday frazemalar o‘z hududi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning subyektiv bahosi ijobiy konnotatsiyaga ega. Bu turdagi iboralarni **“etnomintaqaviy frazemalar”** deya nomlash mumkin. Qo‘qon gavhari – Qo‘qon shahrining go‘zalligi yoki qadriyatini ta’kidlaydi; Buhoro piri – Buxoro shahrining tarixiy va madaniy obro‘yini bildiradi; Qamchiqdan o‘tganday – Qamchiq dovoni orqali o‘tishning qulayligi yoki tabiiy go‘zalligi ifodalanadi.

Ikkinchisi tur subyektiv baho vositasi sifatida boshqa hudud yoki shahar nomlaridan foydalanilgan frazemalar. Bu turdagi iboralarni **“Ekzotoponimik frazemalar”** deya nomlash mumkin. Bunday frazemalar ikki xususiyati bilan farqlanadi. Birinchidan, salbiy, neytral yoki kamdan-kam hollarda ijobiy baho beruvchi konnotatsiyaga ega bo‘ladi; ikkinchidan, komponent jihatdan toponim + sifat yoki xatti-harakat shaklida ifodalanadi. Masalan, yuqorida keltirilgan *“Termizning issig‘i bosdi”* iborasi ekzotoponimik frazemaga mansubdir. Buning sababi shundaki, bu frazemada **“issiq ↔ sovuq”** leksik oppozitsiya orqali Termiz shahrining iliq iqlimi yoki tabiiy ob-havosi subyektiv tarzda ta’kidlanadi, bu esa frazemaning obrazli va baholovchi xarakterini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, geografik frazemalar leksik oppozitsiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular madaniy va mintaqaviy tafakkurdan kelib chiqqan subyektiv bahoni ifodalash imkonini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili frazeologik birliklari tarkibida toponimlar muhim lingvistik va lingvomadaniy komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Toponim komponentli frazeologizmlar xalqning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri hamda madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi semantik va baholovchi mazmunga ega. Geografik terminlar ishtirokidagi iboralarning shakllanishida tabiiy-geografik sharoitlar bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy omillar ham yetakchi rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov H. Geografik nomlar siri. –Toshkent: Ozbekiston, 1985. – B. 120.
2. Nafsov T. O‘zbek tomonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – B. 290.
3. Dauzat A. “Dictionnaire étymologique des noms de famille et prénoms de France”. – Paris: Larousse, 1951. – Pp. 604. https://www.amazon. Murojaat sanasi: 07.08.2025.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Termiz. Murojaat sanasi: 16.12.2025.

LEKSIK MA’NOGA KOGNITIV YONDASHUV

Imomov Jo‘shqin Erkinovich
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti
imomovjoshqin77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola leksik ma’noga kognitiv yondashuvni ilmiy tahlil qiladi. Kognitiv tilshunoslikning shakllanishi, asosiy tamoyillari va leksik ma’noni tushuntirishdagi yetakchi olimlarning qarashlari yoritilgan. Maqolada Eleanor Roschning prototip nazariyasi, Mark Turnering kognitiv integratsiya nazariyasi, shuningdek, Lakoff, Langacker va Fillmor qarashlari asosida kognitiv yondashuvning boshqa yondashuvlardan farqi va uning ustunliklari ko‘rsatiladi. Kognitiv yondashuv ma’noni statik va formal birlik sifatida emas, balki dinamik, kontekstga bog‘liq va inson idroki bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot kognitiv yondashuvning leksik semantika, metafora, freym va prototiplar orqali real nutq va tafakkur jarayonini tushuntirishdagi ilmiy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv yondashuv, leksik ma’no, prototip nazariyasi, kognitiv integratsiya, freym semantikasi, konseptual metafora, lingvistika, semantika*

Annotation. This article provides a scientific analysis of the cognitive approach to lexical meaning. It discusses the formation of cognitive linguistics, its main principles, and the views of leading scholars in explaining lexical meaning. The article highlights Eleanor Rosch’s prototype theory, Mark Turner’s theory of conceptual integration, as well as the perspectives of George Lakoff, Ronald Langacker, and Charles Fillmore. It also demonstrates the differences between the cognitive approach and other approaches, emphasizing its advantages. The cognitive approach interprets meaning not as a static and formal unit, but as a dynamic, context-dependent phenomenon closely connected with human cognition. This study reveals the scientific significance of the cognitive approach in explaining real speech and thought processes through lexical semantics, metaphor, frames, and prototypes.

Keywords: *cognitive approach, lexical meaning, prototype theory, conceptual integration, frame semantics, conceptual metaphor, linguistics, semantics.*

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ когнитивного подхода к лексическому значению. Рассматриваются становление когнитивной лингвистики, её основные принципы и взгляды ведущих учёных на объяснение лексического значения.

В статье освещаются теория прототипов Eleanor Rosch, теория концептуальной интеграции Mark Turner, а также взгляды George Lakoff, Ronald Langacker и Charles Fillmore. Показаны отличия когнитивного подхода от других направлений и раскрыты его преимущества. Когнитивный подход трактует значение не как статичную и формальную единицу, а как динамическое, контекстуально обусловленное явление, тесно связанное с человеческим познанием. В исследовании раскрывается научная значимость когнитивного подхода в объяснении реальных процессов речи и мышления через лексическую семантику, метафору, фреймы и прототипы.

Ключевые слова: *когнитивный подход, лексическое значение, теория прототипов, концептуальная интеграция, фреймовая семантика, концептуальная метафора, лингвистика, семантика.*

Tilshunoslik tarixida lisoniy, xususan, leksik ma’noni tushuntirish masalasi doimo markaziy muammolardan biri bo‘lib kelgan. Turli davrlarda bu masalaga turli nazariy yondashuvlar shakllangan bo‘lib, ularning har biri ma’noning muayyan jihatlarini yoritishga xizmat qilgan. Kognitiv yondashuv paydo bo‘lishidan avval leksik ma’no asosan falsafiy, strukturaviy, mantiqiy-semantik hamda formal yondashuvlar doirasida izohlangan.

Falsafiy yondashuvda ma’no til tashqarisidagi obyektiv borliq bilan bog‘langan holda talqin qilinadi. Antik davrdan boshlab Aristotel, keyinchalik o‘rta asr va yangi davr faylasuflari so‘z ma’nosini narsa va hodisalarning mohiyati bilan aloqador deb hisoblaganlar. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, u tilni real dunyo bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib, so‘zlarning referensial xususiyatini ochib beradi. Biroq uning kamchiligi – ma’noni inson ongidan, idrok va tajribadan deyarli mustaqil, tayyor va o‘zgarmas hodisa sifatida talqin qilishidadir.

Strukturaviy yondashuv XX asr boshlarida Ferdinand de Sossyur g‘oyalari asosida shakllandi. Bu yondashuvda ma’no til tizimidagi birliklar o‘rtasidagi munosabatlar orqali belgilanadi. So‘zning ma’nosi boshqa so‘zlardan farqi, qarama-qarshiligi va tizimdagi o‘rni bilan aniqlanadi. Strukturaviy yondashuvning kuchli tomoni – ma’noni subyektiv talqinlardan xoli holda, tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berganidadir. Ammo bu yondashuv ham ma’noni inson tajribasi, madaniyat va kognitiv jarayonlardan ajratib qo‘yadi.

Mantiqiy-semantik va formal yondashuvlarda esa leksik ma’no aniq belgilangan xususiyatlar majmui sifatida ko‘riladi. So‘z ma’nosi zarur va yetarli belgilar orqali tavsiflanadi. Bu yondashuvlar ilmiy aniqlik va qat’iylikni ta’minlagan bo‘lsa-da, real nutqda ma’noning o‘zgaruvchanligi, metaforikligi va kontekstga bog‘liqligini yetarli darajada tushuntira olmadi.

Ana shu kamchiliklar XX asr ikkinchi yarmida yangi – kognitiv yondashuvning shakllanishiga zamin yaratdi. Kognitiv tilshunoslik ma’noni inson ongining mahsuli sifatida, tajriba, idrok va madaniyat bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qila boshladi.

Kognitiv tilshunoslik XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda yuzaga kelgan muhim paradigmal burilishlardan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalish tilni mustaqil, yopiq va faqat ichki tizimga asoslangan hodisa sifatida emas, balki inson ongining, idrok jarayonlarining va umumiy bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Aynan shu jihati bilan kognitiv yondashuv avvalgi strukturaviy va formal yondashuvlardan tubdan farq qiladi.

Strukturaviy tilshunoslikda til tizimi markazga qo‘yilgan bo‘lsa, kognitiv yondashuvda inson markaziy o‘ringa chiqadi. Bu yondashuvga ko‘ra, til – insonning olamni qanday ko‘rishi, idrok etishi va tasniflashini aks ettiruvchi kognitiv mexanizmdir. Shuning uchun ham leksik ma’no faqat til tizimidagi munosabatlar orqali emas, balki insonning jismoniy tajribasi, madaniy muhiti va ijtimoiy amaliyoti orqali shakllanadi.

Kognitiv tilshunoslikning shakllanishiga psixologiya, falsafa, sun’iy intellekt va neyrofanning rivoji kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Gestalt psixologiyasi va kognitiv psixologiya inson idrokining faol va konstruktiv tabiatini ochib berdi. Natijada tilshunoslikda ham ma’no tayyor holda mavjud emas, balki inson ongida quriladi, degan qarash mustahkamlandi.

Kognitiv yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri – ma’noning tajribaviyligi hisoblanadi. Insonning tanasi, harakati, sezgi a’zolari orqali olgan tajribasi til birliklarining mazmunini belgilaydi. Masalan, fazoviy tushunchalar ko‘plab abstrakt tushunchalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu holat strukturaviy va formal yondashuvlarda deyarli e’tiborga olinmagan.

Yana bir muhim tamoyil – konseptualizatsiya tushunchasidir. Leksik ma’no obyektiv borliqning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etishi emas, balki inson tomonidan ma’lum nuqtai nazardan talqin qilingan konseptual modeldir. Shu bois bir xil hodisa turli tillarda va turli madaniyatlarda turlicha nomlanadi.

Kognitiv yondashuvning avvalgi yondashuvlardan asosiy farqi shundaki, u ma’noni qat’iy chegaralangan, barqaror birlik sifatida emas, balki moslashuvchan, kontekstga bog‘liq va gradatsiyalangan hodisa sifatida ko‘radi. Bu xususiyat leksik ma’noni real nutq jarayonida chuqurroq tushuntirish imkonini beradi.

Jorj Lakoff kognitiv tilshunoslikning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan olimlardan biridir. Uning ishlari leksik ma’noni tushuntirishda metaforaning o‘rnini tubdan qayta baholashga olib keldi. An’anaviy yondashuvlarda metafora faqat badiiy nutqqa xos,

ikkilamchi hodisa sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, Lakoff uni inson tafakkurining asosiy mexanizmi sifatida talqin qiladi.

Lakoffning konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, inson abstrakt tushunchalarni bevosita idrok eta olmaydi. Shu sababli ularni jismoniy tajribaga asoslangan konkret tushunchalar orqali anglaydi. Masalan, vaqt harakat yoki makon orqali, hissiyotlar esa jismoniy holatlar orqali tushuniladi. Bu holat til birliklarida mustahkam aks etadi.

Leksik ma’no Lakoff qarashlarida metaforik xarakterga ega bo‘ladi. So‘zlar faqat obyektlarni emas, balki inson tajribasiga asoslangan konseptual tuzilmalarni ifodalaydi. Shu jihatdan kognitiv yondashuv formal semantikadan farq qiladi, chunki u ma’noni zarur va yetarli belgilar majmui bilan cheklamaydi.

Lakoff, shuningdek, kategoriyalash masalasiga ham alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, inson kategoriyalari qat’iy mantiqiy chegaralarga ega emas, balki tajriba va madaniyat asosida shakllanadi. Bu esa leksik birliklarning ma’nosini yanada moslashuvchan va kontekstga bog‘liq qiladi.

Lakoffning qarashlari kognitiv yondashuv nega zarur bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi. Chunki avvalgi yondashuvlar metafora, obrazlilik va subyektivlikni tushuntirishda ojiz edi. Kognitiv yondashuv esa bu hodisalarni tilning markaziy mexanizmi sifatida talqin qiladi.

Ronald Langacker tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv grammatika nazariyasi leksik ma’noni tushuntirishda muhim o‘rin tutadi. Langacker an’anaviy grammatika va leksika o‘rtasidagi qat’iy chegarani inkor etadi va ularni yagona kognitiv tizimning turli ko‘rinishlari sifatida talqin qiladi.

Langackerga ko‘ra, til birliklari insonning konseptual tuzilmalari bilan bevosita bog‘liq. So‘z ma’nosi obyektiv voqelikni emas, balki shu voqelikning inson ongida qanday konseptualizatsiya qilinganini aks ettiradi. Shu sababli bir hodisa turli leksik vositalar orqali turlicha ifodalanishi mumkin.

Kognitiv grammatika strukturaviy yondashuvdan farqli ravishda til birliklarini formal qoidalar orqali emas, balki ma’no va tasvirlash usullari orqali tushuntiradi. Bu yondashuv leksik ma’noni dinamik va subyektiv hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Langackerning qarashlarida kontekst muhim rol o‘ynaydi. So‘z ma’nosi faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki nutq jarayonida faollashadigan konseptual model sifatida qaraladi. Bu jihat kognitiv yondashuvni formal semantikadan ajratib turadi.

Charlz Fillmore tomonidan ishlab chiqilgan freym semantikasi leksik ma’noga kognitiv yondashuvning eng muhim va amaliy jihatdan samarali nazariyalaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuvda so‘z ma’nosi alohida, mustaqil birlik sifatida emas, balki kengroq bilim

tuzilmalari – freymlar orqali tushuntiriladi. Freym deganda inson ongida mavjud bo‘lgan tipik vaziyat, hodisa yoki harakat haqidagi strukturalangan bilimlar majmui tushuniladi.

An’anaviy strukturaviy semantikada so‘z ma’nosi ko‘pincha boshqa so‘zlar bilan bo‘lgan munosabatlar orqali izohlangan. Masalan, sinonimiya, antonimiya yoki giponimiya orqali ma’no aniqlangan. Fillmore yondashuvi esa bunday tahlil yetarli emasligini ko‘rsatadi, chunki real nutqda so‘zlar faqat til tizimi doirasida emas, balki hayotiy tajriba va vaziyatlar asosida tushuniladi.

Freym semantikasiga ko‘ra, har bir leksik birlik muayyan freymni faollashtiradi. Masalan, “sotmoq” fe’li savdo freymini talab qiladi. Bu freymda sotuvchi, xaridor, tovar, pul kabi rollar mavjud bo‘ladi. Ushbu rollarni bilmasdan turib, so‘zning to‘liq ma’nosini anglash mumkin emas. Demak, leksik ma’no ensiklopedik bilimlar bilan chambarchas bog‘liq.

Bu jihati bilan freym semantikasi formal va mantiqiy yondashuvlardan tubdan farq qiladi. Formal yondashuvlar ma’noni minimal belgilar majmui sifatida ko‘rsa, Fillmore ma’noni keng kognitiv kontekst bilan bog‘laydi. Bu esa kognitiv yondashuvning asosiy ustunligidir.

Fillmore qarashlarida madaniyat omili ham muhim rol o‘ynaydi. Bir xil so‘z turli madaniyatlarda turlicha freymlarni faollashtirishi mumkin. Bu holat leksik ma’noni universallikdan ko‘ra nisbiylik asosida tushuntirishga imkon beradi. Freym semantikasi leksik ma’noni real nutq, vaziyat va madaniyat bilan bog‘lab tushuntiradi. Aynan shu jihati bilan u kognitiv yondashuvning zarurligini yaqqol namoyon etadi.

Kognitiv lingvistikaning shakllanishida Eleanor Rosch tomonidan ishlab chiqilgan prototip nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu nazariya leksik ma’noni tushuntirishda an’anaviy, xususan, strukturaviy va mantiqiy yondashuvlarda hukmron bo‘lgan qat’iy kategoriyalar tasavvurini tubdan qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Strukturaviy semantika doirasida so‘z ma’nosi odatda aniq belgilangan, qat’iy chegaralarga ega birlik sifatida qaralgan. Bunday yondashuvda har bir leksik birlik muayyan semantik belgilar majmuasi orqali tavsiflanadi va shu belgilar mavjud yoki mavjud emasligi asosida kategoriya aniqlanadi. Rosch esa bunday ikkiyoqlama model inson tafakkurining real ishlash mexanizmlariga mos kelmasligini tajribaviy yo‘l bilan isbotladi.

Roschning psixologik tajribalari shuni ko‘rsatdiki, insonlar kategoriyalarni qat’iy chegaralar asosida emas, balki markaziy va periferik a’zolar asosida idrok etadi. Masalan, “qush” kategoriyasi doirasida chumchuq yoki kaptar kabi a’zolar prototipik bo‘lsa, pingvin yoki tuyaqush kabi a’zolar chekka holatda turadi. Bu holat leksik ma’no ham prototipik

tuzilishga ega ekanini ko‘rsatadi. Kognitiv yondashuvda so‘z ma’nosi qat’iy ta’rif emas, balki markaz atrofida tashkil topgan semantik maydon sifatida talqin qilinadi.

Prototip nazariyasining leksik semantikaga qo‘shgan asosiy hissasi shundaki, u ma’noni inson tajribasi va idroki bilan bevosita bog‘laydi. Strukturaviy yondashuvda ma’no tizim ichidagi munosabatlar orqali tushuntirilgan bo‘lsa, kognitiv yondashuvda ma’no real dunyo tajribasiga tayangan holda shakllanadi. Bu esa leksik birliklarning nima sababdan kontekstga qarab turlicha idrok etilishini izohlash imkonini beradi.

Rosch yondashuvi kognitiv semantikaning boshqa yo‘nalishlari bilan ham uzviy bog‘liq. Xususan, Lakoffning konseptual metafora nazariyasi va Langackerning kognitiv grammatika modeli ham kategoriyalarning gradatsiyali, markaz–chekka tuzilishga ega ekanini tan oladi. Shu jihatdan prototip nazariyasi kognitiv yondashuvning asosiy tayanch nuqtalaridan biri hisoblanadi. Leksik ma’noni prototiplar asosida tushuntirish tilshunoslikda statik, formal modellardan dinamik va psixologik asoslangan modellarga o‘tishning yaqqol ko‘rinishidir.

Mark Turner tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv integratsiya nazariyasi leksik ma’noni tushunishda yana bir muhim burilish yasadi. An’anaviy yondashuvlarda, xususan, formal semantika doirasida ma’no tayyor va barqaror birlik sifatida qaralgan. So‘z yoki ifoda muayyan semantik tarkibga ega bo‘lib, nutqda faqat shu tayyor ma’no faollashadi, degan qarash ustuvor bo‘lgan. Turner esa ma’no nutq jarayonida, turli konseptual tuzilmalar o‘zaro integratsiyalashuvi natijasida yaratilishini asoslab berdi.

Kognitiv integratsiya nazariyasiga ko‘ra, inson tafakkuri bir vaqtning o‘zida bir nechta konseptual makonlarni faollashtiradi va ularni yangi, integratsiyalashgan makonda birlashtiradi. Natijada yangi ma’no, yangi tushuncha vujudga keladi. Bu jarayon ayniqsa metafora, kinoya, ramziy ifodalar va ijodiy nutqda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, “hayot yo‘l” metaforasida “hayot” va “yo‘l” konseptlari integratsiyalashib, yangi, murakkab leksik-konseptual ma’no hosil qiladi.

Turner yondashuvi kognitiv yondashuvning boshqa nazariyalaridan farqli ravishda ma’noni faqat konseptual tuzilma sifatida emas, balki dinamik jarayon sifatida talqin qiladi. Bu jihati bilan u strukturaviy va mantiqiy yondashuvlardan keskin farq qiladi. Strukturaviy semantika ma’noni tizim ichidagi farqlar orqali izohlasa, Turner ma’noni tafakkurdagi faol konstruksiya sifatida tushuntiradi. Natijada leksik ma’no nutq kontekstida qayta-qayta yaratiladigan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv integratsiya nazariyasi leksik ma’noni o‘rganishda inson ijodkorligini, kontekst rolini va madaniy tajribani hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa kognitiv

yondashuvning asosiy ustunliklaridan biri bo‘lib, tilni inson tafakkuridan ajratmasdan o‘rganish imkonini beradi.

Leksik ma’noga kognitiv yondashuvning shakllanishi tilshunoslikda yuzaga kelgan nazariy ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liqdir. Falsafiy yondashuv ma’noni abstrakt va universal tushuncha sifatida talqin qilgan bo‘lsa, strukturaviy yondashuv uni til tizimi doirasida yopiq birlik sifatida ko‘rdi. Formal va mantiqiy yondashuvlar esa ma’noni qat’iy qoidalar va mantiqiy formulalar orqali izohlashga intildi. Ushbu yondashuvlarning har biri muayyan ilmiy natijalarni bergan bo‘lsa-da, ularning umumiy kamchiligi ma’noni inson idroki, tajribasi va madaniy omillardan uzib qo‘yganidadir.

Kognitiv yondashuv esa leksik ma’noni inson tafakkurining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Lakoff, Langacker, Fillmore, Rosch va Turner qarashlari shuni ko‘rsatadiki, ma’no tayyor, qat’iy birlik emas, balki konseptualizatsiya, tajriba va nutq jarayonida shakllanadigan murakkab hodisadir. Bu yondashuv leksik ma’noni tushuntirishda metafora, prototip, freym va integratsiya kabi tushunchalarni markazga qo‘yadi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv yondashuv leksik semantikani statik tizim sifatida emas, balki dinamik, inson markazli jarayon sifatida o‘rganishga imkon beradi. Aynan shu jihati uni boshqa yondashuvlardan ustun qiladi va zamonaviy tilshunoslikda yetakchi nazariyalardan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind*. University of Chicago Press.
2. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar, Volume I: Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press.
3. Fillmore, C. J. (1982). Frame Semantics. In *Linguistics in the Morning Calm* (pp. 111-137). Hanshin Publishing Co.
4. Rosch, E. (1978). Principles of Categorization. In E. Rosch & B. B. Lloyd (Eds.), *Cognition and Categorization* (pp. 27–48). Lawrence Erlbaum Associates.
5. Turner, M. (1996). *The Literary Mind: The Origins of Thought and Language*. Oxford University Press.
6. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. Basic Books.

7. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Edinburgh University Press.
8. Geeraerts, D. (1997). *Cognitive Linguistics: Basic Readings*. Mouton de Gruyter.

LISONIY SHAXS NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Turdiyeva Charos Abdushukur qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti
turdiyevac268@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda muhim nazariy tushunchalardan biri hisoblangan lisoniy shaxs nazariyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Tadqiqotda lisoniy shaxs tushunchasining falsafiy, psixologik va lingvistik asoslari tahlil qilinib, uning ilmiy muomalaga kirib kelishi hamda mustaqil tadqiqot obyekti sifatida qaror topishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, V. fon Gumboldt, E. Benvenist, Yu. N. Karaulov, A. A. Leontev kabi olimlarning qarashlari asosida lisoniy shaxs modelining tarkibiy darajalari ochib berilgan. Maqolada lisoniy shaxs nazariyasining kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika va lingvomadaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilib, uning bugungi tilshunoslikdagi ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *lisoniy shaxs, til kompetensiyasi, nutq madaniyati, kommunikativ shaxs, sotsiolingvistika, psixolingvistika.*

Annotation: This article examines the formation and developmental stages of the linguistic personality theory, which is considered one of the key theoretical concepts in modern linguistics. The study analyzes the philosophical, psychological, and linguistic foundations of the concept of linguistic personality and traces its emergence and establishment as an independent object of scientific research. Based on the views of scholars such as W. von Humboldt, É. Benveniste, Yu. N. Karaulov, and A. A. Leontiev, the structural levels of the linguistic personality model are discussed. The article also highlights the close relationship of the linguistic personality theory with cognitive linguistics, pragmalinguistics, and linguoculturology, emphasizing its theoretical and practical significance in contemporary linguistic studies.

Keywords: *linguistic personality, language competence, speech culture, communicative identity, sociolinguistics, psycholinguistics.*

Tilshunoslik fani inson nutq faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy xulq-atvorini o‘rganishda muhim bosqichlarni bosib o‘tgan. XX asrning ikkinchi yarmida tilni shunchaki kommunikativ

vosita sifatida emas, balki inson shaxsining fikrlash, his qilish va ijtimoiy ongini ifodalovchi hodisa sifatida talqin etish tendensiyasi kuchaydi. Shu jarayon natijasida “lisoniy shaxs” (ruscha: yazykovaya lichnost’) tushunchasi shakllandi va hozirgi zamon tilshunosligining markaziy nazariy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Lisoniy shaxs nazariyasi tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, madaniyatshunoslik, hatto adabiyotshunoslik kabi fanlar tutashgan nuqtada paydo bo‘lib, insonning tildagi individualligi, madaniy tajribasi va nutqiy faoliyatining kognitiv asoslarini tahlil etadi.

Lisoniy shaxs tushunchasining ildizlari antik davr falsafasiga borib taqaladi. Aristotel, Platon kabi faylasuflar til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni muhokama qilganlar. Platon “Kratil” dialogida so‘z va haqiqat o‘rtasidagi munosabatni izohlar ekan, inson tili orqali dunyoni nomlaydi, deb ta’kidlaydi. Aristotel esa “Organon” asarida tilni “tafakkurning ifodasi” sifatida talqin etadi. Bu qarashlar keyinchalik Gumboldt, Shleylermacher, Vaysgerber, Shpet kabi tilshunos-faylasuflar tomonidan rivojlantirilib, til milliy tafakkur va madaniyat bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida qaraldi. Vilgelm fon Gumboldt tilni “millat ruhining ko‘zgusi” deb atab, insonning dunyoni anglashida tilning asosiy vosita ekanini isbotlagan. Aynan shu nuqtayi nazar keyinchalik lisoniy shaxs nazariyasining asosiy tayanchi bo‘ldi, chunki bu qarashda til shaxsning ichki dunyosini ochuvchi fenomen sifatida namoyon. Ammo zamonaviy ma’noda bu tushuncha XX asrning o‘rtalarida shakllana boshladi. Bu jarayonda E. Benvenist, V. Vinogradov, L. Vaysgerber, G. G. Shpet, M. M. Baxin, A. A. Potebnya kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etdi. Ular tilni shaxs ongining in’ikosi, milliy tafakkur va madaniyatni shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida talqin etdilar. E. Benvenist til va subyekt o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratib, “men” va “sen” kabi shaxsiy olmoshlar orqali inson o‘zini til tizimida subyekt sifatida namoyon qilishini isbotladi (Benvenist, 1974). Bu qarash lisoniy shaxs konsepsiyasining falsafiy asosini yaratdi. V. Vinogradov esa tildagi shaxsiyatni badiiy matn tahlili orqali ochib berishga urinib, yozuvchi nutqidagi individual uslubni “ijodkorning lisoniy shaxs portreti” sifatida tahlil qildi (Vinogradov, 1959). Shu tariqa, lisoniy shaxs masalasi dastlab badiiy tahlil doirasida paydo bo‘ldi. Lisoniy shaxs nazariyasining ilmiy asosda shakllanishi G. I. Bogin va Yu. N. Karaulov nomlari bilan bog‘liq. G. I. Bogin “nutqni yaratish va idrok etish qobiliyatiga ega ijtimoiy subyekt” sifatida tariflaydi. Uning fikricha, har bir lisoniy shaxs tildan foydalanish darajasi, lug‘at boyligi, uslubiy imkoniyatlari bilan farqlanadi. Bogin lisoniy shaxsni uch darajali modelda ko‘rsatadi:

1. Til darajasi – grammatik va leksik bilimlar tizimi;
2. Nutq darajasi – mazmunli fikrni ifodalash qobiliyati;

3. Diskurs darajasi – ijtimoiy-madaniy kontekstni tushunish va nutqda ifodalash ko‘nikmasi.

Yu. N. Karaulov esa bu nazariyani yanada rivojlantirib, lisoniy shaxs strukturasini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, har bir shaxsning tildagi mavjudligi uch qatlamdan iborat:

- Verbal-semantik daraja (so‘z boyligi va til tizimi);
- Kognitiv daraja (bilimlar, tajriba, assotsiatsiyalar majmuasi);
- Pragmatik daraja (maqsad, motiv va kommunikativ strategiyalar).

Karaulov shaxsning til bilan aloqasini nafaqat grammatik, balki kognitiv va madaniy jihatdan ham o‘rganish zarurligini ta’kidladi. Shu tariqa, tilshunoslikda “inson markazidagi til” paradigmasi shakllandi. 1980–1990-yillarda bu nazariya rus va g‘arb tilshunosligida keng tadqiq etila boshladi. V. Krasnyx, E. Kubryakova, I. Sternin, A. Leontyev, T. Van Deyk kabi olimlar uni psixolingvistik va kognitiv yo‘nalishda rivojlantirdilar. Masalan, E. Kubryakova lisoniy shaxsni “kognitiv ongda mavjud til modeli” sifatida izohlab, uni fikrlash va dunyoqarash bilan bog‘ladi. T. Van Deyk esa diskurs tahlilida shaxsning ijtimoiy roli va mafkuraviy pozitsiyasini o‘rganib, “diskursiy shaxs” tushunchasini ilgari surdi.

Tilshunoslikdagi lisoniy shaxsning metodologik tamoyillari. Lisoniy shaxs konsepsiyasining shakllanishida uch asosiy yo‘nalish ajratiladi:

1. Struktural (formal) yo‘nalish – til tizimi orqali shaxsni tahlil qilish. Bu yo‘nalishda shaxs til tizimining egasi sifatida qaraladi.

2. Kognitiv yo‘nalish – tilni insonning tafakkur, idrok va bilim tizimi bilan bog‘lab o‘rganish.

3. Pragmatik yo‘nalish – nutq faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganlik jihatini o‘rganish.

Olimlar lisoniy shaxs tuzilmasiga turlicha yondashgan bo‘lsalar-da, ularning barchasi quyidagi umumiy komponentlarni e’tirof etadi:

- Leksik-semantik daraja – shaxsning so‘z boyligi, tildan foydalanish imkoniyatlari;
- Kognitiv daraja – bilimlar, konseptlar, madaniy assotsiatsiyalar majmuasi;
- Pragmatik daraja – shaxsning maqsadi, motivlari, nutqiy strategiyasi;
- Emotsional daraja – nutqda ifodalangan hissiy holatlar va intonatsiyalar.

Masalan, adabiy asar qahramonining tili orqali uning ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy saviyasi, hayotiy pozitsiyasi va ruhiy holati haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shu bois,

badiiy asarda har bir qahramonning nutqi – yozuvchining o‘ziga xos “lingvopsixologik konstruksiyasi”dir.

O‘zbek tilshunosligida bu nazariya 2000-yillardan boshlab izchil qo‘llanila boshladi. N. Mahmudov, A. Nurmonov, D. Rasulova, G. Hojieva, Z. Jumayeva, M. Yo‘ldosheva singari olimlar bu yo‘nalishda muhim izlanishlar olib bordilar. N. Mahmudov lisoniy shaxsni milliy tafakkur bilan bog‘lab, “har bir til bir millat tafakkurining timsoli” ekanini qayd etdi. A. Nurmonov esa matn va nutq o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, “nutq sub’ekti” konsepsiyasini ishlab chiqdi. D. Rasulova o‘zbek tilida so‘zlovchi shaxsning lingvomadaniy portretini aniqlashga urinib, shaxs tildagi tanlovlari orqali o‘zligini ifodalaydi, degan xulosaga kelgan.

Shunday qilib, bu nazariya orqali tilshunoslik inson ruhiyati, madaniyati va tarixiy tafakkurini tahlil qilishda yangi imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Lisoniy shaxs nazariyasi – tilshunoslikda inson omilini markazga qo‘ygan yondashuvdir. U tildan foydalanish jarayonida shaxsning bilimi, maqsadi, hissiyoti va dunyoqarashini tahlil qilish imkonini beradi. Bu nazariya, ayniqsa, badiiy asarlarni, tarixiy shaxslarning nutqini, yozuvchi uslubini o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Караулов Ю.Н. *Русский язык и языковая личность*. — М.: Наука, 1987.
2. Леонтьев А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность.* — М., 1977.
3. Красных В.В. *Этнопсихолингвистика и лингвокультурология.* — М., 2002.
4. Eshonqulova, N. *Til va madaniyat: lisoniy shaxs konsepsiyasi.* — Toshkent, 2019.
5. Qosimova D. *Kommunikativ kompetensiya va lisoniy shaxs.* — “Filologiya masalalari” jurnali, 2021, №2.
6. Chomsky, N. *Aspects of the Theory of Syntax.* — Cambridge, 1965.

METAFORA HODISASINING LINGVISTIK MOHIYATI VA TURLARI

Meliyeva Muhayyo Anorboy Qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, magistranti
muhayyomeliyeva7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada metafora hodisasining lingvistik mohiyati va uning til tizimidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Metafora tilshunoslikda ma’no ko‘chishining muhim shakllaridan biri bo‘lib, u til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalaydi. Tadqiqot jarayonida metaforaning semantik, kognitiv va kommunikativ xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, metaforaning leksik, grammatik, kognitiv va badiiy turlari ilmiy manbalar asosida tasniflangan. O‘zbek badiiy adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy asarlari hamda zamonaviy matnlar misolida metaforaning estetik va konseptual ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari metafora hodisasini chuqurroq anglash va tilshunoslik tadqiqotlarida undan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: metafora, ma’no ko‘chishi, lingvistik mohiyat, kognitiv metafora, leksik metafora, grammatik metafora, badiiy metafora, til va tafakkur.

Annotation: This article analyzes the linguistic nature of metaphor and its role in the language system from a scientific and theoretical perspective. Metaphor is considered one of the main forms of semantic transfer in linguistics, reflecting the close relationship between language and human cognition. The study examines the semantic, cognitive, and functional features of metaphor. In addition, lexical, grammatical, and cognitive types of metaphor are described based on linguistic theories. Examples from the Uzbek language illustrate the significance of metaphor in speech processes. The findings contribute to a deeper understanding of metaphor and its effective application in linguistic research.

Keywords: metaphor, semantic transfer, linguistic nature, cognitive metaphor, lexical metaphor, grammatical metaphor, language and cognition.

Metafora hodisasining nazariy asoslari

Metafora hodisasi tilshunoslik tarixida qadimdan ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Antik davrda Aristotel metaforani nom ko‘chishining muhim turi sifatida talqin qilib, uni predmetlar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishi deb izohlaydi. Uning fikricha, metafora nutqning estetik va mantiqiy ta’sirchanligini oshiruvchi vosita hisoblanadi

[Аристотель, 1984:145]. Ushbu yondashuv keyingi davr tilshunosligi uchun nazariy poydevor vazifasini bajargan.

Zamonaviy tilshunoslikda metafora masalasi ancha keng talqin qilinib, u faqat badiiy ifoda vositasi sifatida emas, balki til tizimining muhim semantik mexanizmi sifatida qaraladi. I.R. Galperin metaforani so‘z ma’nosining kontekst asosida yangilanish shakli sifatida baholab, uning matndagi funksional vazifasini alohida ta’kidlaydi [Гальперин, 1981:52]. Bu yondashuv metaforaning nutqiy jarayondagi faol rolini ochib beradi.

O‘zbek tilshunosligida metafora hodisasi ma’no ko‘chish masalasi bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganilgan. A. Hojiyev metaforani so‘z ma’nosining o‘xshashlik asosida ko‘chishi sifatida izohlab, uni semantik taraqqiyotning muhim omillaridan biri deb hisoblaydi [Hojiyev, 2002:57]. Olimning fikricha, metafora til birliklarining mazmuniy imkoniyatlarini kengaytirib, yangi tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Sh. Rahmatullayev metaforani nutqiy hodisa sifatida baholab, uning kommunikativ vazifasiga e’tibor qaratadi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, metafora nutqning obrazliligini kuchaytiradi va tinglovchiga ta’sir etish imkoniyatini oshiradi [Rahmatullayev, 2006:91]. Bu esa metaforaning faqat leksik hodisa emas, balki pragmatik jihatdan ham muhim ekanini ko‘rsatadi.

XX asr oxirlaridan boshlab metafora masalasi kognitiv lingvistika doirasida yangi bosqichga ko‘tarildi. G. Lakoff va M. Johnson metaforani inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilib, uni “insonning dunyoni anglash usuli” deb baholaydi [Lakoff, Johnson, 1980:3]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, metafora til hodisasi bo‘lish bilan birga, inson tafakkurining mahsuli hamdir.

O‘zbek tilshunosligida kognitiv yondashuv masalalari N. Mahmudov tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Olim til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qilar ekan, metaforani inson tafakkurining til orqali namoyon bo‘lish shakli sifatida izohlaydi [Mahmudov, 2011:36]. Bu qarash metaforaning lingvistik mohiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Shuningdek, metafora hodisasi uslubshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. E. Begmatov metaforani badiiy matnning estetik qiymatini oshiruvchi vosita sifatida baholab, uning obraz yaratishdagi rolini alohida ko‘rsatib o‘tadi [Begmatov, 2008:112]. Ayniqsa, she’riy nutqda metafora muallifning individual uslubini shakllantirishda yetakchi omillardan biri hisoblanadi.

Metafora hodisasining lingvistik mohiyatini aniqlash, avvalo, uning til tizimidagi o‘rnini belgilash bilan bog‘liq. Tilshunoslikda metafora so‘z ma’nosining ko‘chishi natijasida yuzaga keladigan semantik hodisa sifatida talqin qilinadi. Bunda asosiy mezon sifatida

o‘xshashlik, yaqinlik yoki assotsiativ munosabatlar maydonga chiqadi. A. Hojiyev metaforani “so‘z ma’nosining o‘xshashlik asosida ko‘chishi natijasida hosil bo‘ladigan ikkilamchi ma’no” deb izohlaydi [Hojiyev, 2002:58]. Ushbu ta’rif metaforaning lingvistik mohiyatini aniq ifodalaydi.

Metaforaning muhim xususiyati shundaki, u til birliklarining semantik imkoniyatlarini kengaytiradi va til taraqqiyotiga xizmat qiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida metafora ma’no ko‘chishining asosiy turlaridan biri sifatida qayd etilib, u orqali yangi tushunchalar ifodalanishi ta’kidlanadi [ЎТИЛ, 2007:115]. Bu hol metaforaning til tizimidagi faol va dinamik hodisa ekanini ko‘rsatadi.

Sh. Rahmatullayev metaforaning nutqiy jihatiga e’tibor qaratib, uni obrazli ifoda vositasi sifatida baholaydi. Olimning fikricha, metafora nutqning ta’sirchanligini oshiradi, tinglovchi yoki o‘quvchida muayyan tasavvur va hissiy munosabatni shakllantiradi [Rahmatullayev, 2006:93]. Demak, metafora nafaqat semantik, balki kommunikativ vazifani ham bajaradi.

Lingvistik nuqtayi nazardan metafora leksik birliklar darajasida yuzaga chiqsa-da, u butun matn semantikasiga ta’sir ko‘rsatadi. I.R. Galperin metaforani matnning semantik yaxlitligini ta’minlovchi vositalardan biri sifatida baholab, uning kontekst bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi [Гальперин, 1981:60]. Bu qarash metaforaning faqat alohida so‘z doirasida emas, balki matn miqyosida ham o‘rganilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Metaforaning lingvistik mohiyati kognitiv jarayonlar bilan ham bevosita bog‘liq. N. Mahmudov ta’kidlashicha, til birliklari orqali ifodalangan metaforalar inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, ular orqali borliq hodisalari konseptual tarzda anglanadi [Mahmudov, 2011:38]. Masalan, o‘zbek tilidagi “hayot yo‘li”, “vaqt oqimi”, “taqdir zarbasi” kabi birikmalar insonning abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali idrok etishidan dalolat beradi.

Metafora hodisasi badiiy nutqda ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. E. Begmatov badiiy matnlarda metaforaning estetik vazifasini alohida ta’kidlab, uning obraz yaratish va muallif uslubini shakllantirishdagi rolini ko‘rsatadi [Begmatov, 2008:114]. Bunday metaforalar badiiy matnning ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchining tasavvurini boyitadi.

Shuningdek, metafora hodisasi tilning funksional uslublarida turlicha namoyon bo‘ladi. Ilmiy uslubda metafora ko‘pincha terminologik ma’noda qo‘llanilib, murakkab tushunchalarni soddaroq ifodalashga xizmat qiladi. Publitsistik uslubda esa metafora baholovchi va ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo‘llanadi [Yo‘ldoshev, 2015:72].

Metaforaning lingvistik mohiyati uning semantik, kognitiv va kommunikativ jihatlarining o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Metafora til tizimining muhim unsuri

bo‘lib, u til birliklarining mazmuniy imkoniyatlarini kengaytirish, nutqni obrazli va ta’sirchan qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metafora hodisasini chuqur anglash uchun uning semantik va kognitiv xususiyatlarini alohida tahlil qilish zarur. Semantik jihatdan metafora so‘z ma’nosining kengayishi va yangilanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon tilning tarixiy va zamonaviy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Metaforada dastlabki (asosiy) ma’no bilan ikkilamchi (ko‘chma) ma’no o‘rtasida ma’lum bir o‘xshashlik munosabati mavjud bo‘ladi. Ushbu o‘xshashlik asosida yangi ma’no shakllanadi va nutq jarayonida faol qo‘llanadi [Hojiyev, 2002:60].

O‘zbek tilshunosligida semantik ko‘chish hodisalari Sh. Rahmatullayev va A. Hojiyev tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Olimlar metaforani semantik ko‘chishning eng mahsuldor turlaridan biri sifatida baholab, uning til boyligini oshirishdagi rolini ta’kidlaydilar [Rahmatullayev, 2006:95]. Masalan, “ko‘ngli yorishdi”, “yuragi muzladi” kabi birikmalarda insonning ruhiy holati fizik hodisalar orqali ifodalanadi. Bu hol metaforaning semantik asosini yaqqol ko‘rsatadi.

Metaforaning semantik xususiyatlari lug‘aviy birliklar tizimida ham aks etadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ko‘plab so‘zlarning ko‘chma ma’nolari metaforik asosda shakllangani qayd etilgan [ЎТИЛ, 2007:118]. Bu esa metaforaning faqat individual nutq hodisasi emas, balki umumtil darajasidagi barqaror semantik jarayon ekanini ko‘rsatadi.

Kognitiv jihatdan metafora inson tafakkurining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Kognitiv lingvistika doirasida metafora insonning borliqni anglash va tartibga solish mexanizmi sifatida qaraladi. G. Lakoff va M. Johnson metaforani konseptual tizimning ajralmas qismi deb baholab, inson abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglashini ta’kidlaydilar [Lakoff, Johnson, 1980:5]. Masalan, “vaqt — bu pul”, “hayot — bu yo‘l” kabi konseptual metaforalar kundalik tafakkurda keng qo‘llaniladi.

O‘zbek tilshunosligida kognitiv yondashuv masalalari N. Mahmudov tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. Olimning fikricha, metafora inson tafakkurida mavjud bo‘lgan konseptual tuzilmalarni til orqali ifodalash vositasidir [Mahmudov, 2011:41]. O‘zbek tilidagi “taqdir zarbasi”, “umid uchquni”, “dard yuki” kabi birikmalar insonning ichki kechinmalarini konseptual obrazlar orqali ifodalashga xizmat qiladi.

Metaforaning kognitiv xususiyatlari badiiy matnlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy asarlarida abstrakt tushunchalar ko‘pincha jonli va sezilarli obrazlar orqali ifodalanadi. Masalan, “ishq o‘ti”, “g‘am daryosi”, “hijron o‘qi” kabi metaforalar inson ruhiy holatini chuqur va ta’sirchan tarzda ifodalashga xizmat qiladi [Navoiy, 1991:47]. Bu metaforalar o‘quvchi tafakkurida kuchli assotsiativ obrazlarni shakllantiradi.

Shuningdek, metaforaning kognitiv xususiyatlari nutq jarayonida baholovchi va ekspressiv ma’nolarni yuzaga chiqaradi. E. Begmatov ta’kidlaganidek, metafora orqali muallif voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalaydi va o‘quvchining hissiy idrokiga ta’sir ko‘rsatadi [Begmatov, 2008:117]. Bu jihat metaforaning pragmatik ahamiyatini ham belgilaydi.

Metaforaning semantik va kognitiv xususiyatlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi metaforaning lingvistik mohiyatini to‘liq ochib beradi. Metafora til tizimida ma’no yaratishning samarali vositasi bo‘lish bilan birga, inson tafakkurining konseptual tuzilishini aks ettiruvchi muhim hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Metafora turlarining ilmiy tasnifi

Tilshunoslikda metafora hodisasi turli mezonlar asosida tasnif qilinadi. Metaforalarni tasniflash masalasi ularning lingvistik mohiyatini chuqurroq anglash va nutqiy faoliyatdagi funksiyalarini aniqlashga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda metaforalar ko‘pincha semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi. O‘zbek tilshunosligida ushbu tasnif masalasi A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev va E. Begmatov tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Leksik metafora

Leksik metafora so‘zning lug‘aviy ma’nosi asosida yuzaga kelib, o‘xshashlik munosabati orqali yangi ma’no kasb etadi. A. Hojiyev leksik metaforani so‘z ma’nosining eng faol va mahsuldor ko‘chish turi sifatida baholaydi [Hojiyev, 2002:62]. Bunday metaforalar ko‘pincha umumtil darajasida mustahkamlanib, lug‘at tarkibiga kirib boradi.

O‘zbek tilidagi “oy yuzli”, “oltin yurak”, “temir iroda” kabi birikmalar leksik metaforalarga misol bo‘la oladi. Ushbu birliklarda tashqi yoki ichki xususiyatlar boshqa predmet yoki hodisa bilan qiyoslanib ifodalanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida mazkur metaforik birliklarning ko‘chma ma’nolari alohida qayd etilgan [ЎТИЛ, 2007:121]. Bu esa leksik metaforaning umumtil hodisasi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Grammatik metafora

Grammatik metafora til birliklarining grammatik shakllari orqali ifodalanadigan metaforik ma’no bilan bog‘liq bo‘lib, u ko‘pincha zamon, nisbat, shaxs yoki sintaktik tuzilma doirasida yuzaga keladi. I.R. Galperin grammatik metaforani grammatik shakllarning o‘ziga xos semantik yuklama kasb etishi bilan izohlaydi [Гальперин, 1981:74].

O‘zbek tilida grammatik metafora, asosan, fe’l zamonlari va nisbat shakllari orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, “yurak yig‘ladi”, “umid so‘ndi” kabi birikmalarda jonli bo‘lmagan predmetlarga insoniy xususiyatlar yuklanadi. Bu hol grammatik vositalar orqali metaforik ma’no yuzaga kelayotganini ko‘rsatadi. Sh. Rahmatullayev bunday holatlarni nutqiy jarayonda

yuzaga keladigan obrazli ifodaning grammatik ko‘rinishi sifatida baholaydi [Rahmatullayev, 2006:98].

Kognitiv metafora

Kognitiv metafora inson tafakkurida mavjud bo‘lgan konseptual tuzilmalar asosida shakllanadi. Kognitiv lingvistika doirasida metafora insonning dunyoni idrok etish va tushuntirish mexanizmi sifatida qaraladi. G. Lakoff va M. Johnson kognitiv metaforani abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali anglash vositasi sifatida izohlaydi [Lakoff, Johnson, 1980:7].

O‘zbek tilidagi “hayot yo‘li”, “vaqt oqimi”, “taqdir zarbasi” kabi birliklar kognitiv metaforalarning yorqin namunasidir. N. Mahmudov bu kabi metaforalarni inson tafakkurining konseptual modeli sifatida baholab, ularning til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaqqol aks ettirishini ta’kidlaydi [Mahmudov, 2011:44]. Kognitiv metaforalar, odatda, individual nutq doirasidan chiqib, umumiy konseptual tizimning bir qismiga aylanadi.

Badiiy metafora

Badiiy metafora adabiy matnlarda qo‘llanilib, asarning estetik qiymatini oshirishga xizmat qiladi. E. Begmatov badiiy metaforani obraz yaratishning yetakchi vositasi sifatida baholab, uning muallif uslubini shakllantirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi [Begmatov, 2008:119]. Bunday metaforalar individual muallif tafakkurining mahsuli bo‘lib, ko‘pincha kontekstga bog‘liq holda tushuniladi.

Alisher Navoiy asarlarida badiiy metaforalar keng va samarali qo‘llaniladi. Masalan, “ishq dengizi”, “hijron o‘qi”, “ko‘ngil qushi” kabi metaforik obrazlar inson ruhiy holatini chuqur va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi [Navoiy, 1991:50]. Ushbu metaforalar badiiy matnning estetik va emotsional ta’sirini kuchaytiradi.

Nutqiy va individual metaforalar

Nutqiy metaforalar individual muallif yoki so‘zlovchi tomonidan yaratiladi va ko‘pincha muayyan kontekst doirasida qo‘llaniladi. Bunday metaforalar umumtil darajasida mustahkamlanmagan bo‘lsa-da, nutqning ta’sirchanligini oshiradi. M. Yo‘ldoshev nutqiy metaforalarni pragmatik jihatdan muhim vosita sifatida baholab, ularning kommunikativ vazifasiga e’tibor qaratadi [Yo‘ldoshev, 2015:75].

Metafora turlarining ilmiy tasnifi uning ko‘p qirrali lingvistik hodisa ekanini ko‘rsatadi. Leksik, grammatik, kognitiv va badiiy metaforalar til tizimining turli qatlamlarida faol qo‘llanilib, nutqning mazmuniy va estetik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Metafora hodisasi badiiy matnlarda tilning estetik va ifodaviy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim vosita hisoblanadi. O‘zbek adabiy tilida metafora badiiy obraz yaratish,

muallifning individual uslubini namoyon etish hamda asar mazmunining emotsional-ta’sirchanligini oshirishda yetakchi o‘rin tutadi. E. Begmatov ta’kidlaganidek, badiiy metafora adabiy matnning mazmuniy qatlamini chuqurlashtirib, o‘quvchi tafakkurida jonli tasavvurlarni shakllantiradi [Begmatov, 2008:121].

O‘zbek mumtoz adabiyotida metafora hodisasi keng va tizimli tarzda qo‘llanilgan. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida metafora insonning ichki kechinmalari, ishqiy holatlari va falsafiy qarashlarini ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Navoiy she’riyatida “ishq o‘ti”, “hijron o‘qi”, “g‘am daryosi”, “ko‘ngil qushi” kabi metaforik obrazlar inson ruhiy holatini chuqur va ta’sirchan tarzda ifodalaydi [Navoiy, 1991:52]. Ushbu metaforalar badiiy nutqning obrazliligini oshirib, asarning estetik qiymatini yuksaltiradi.

N. Mahmudov Navoiy metaforalarini tahlil qilar ekan, ularning konseptual xarakterga ega ekanini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, Navoiy ijodida metafora faqat bezak vositasi emas, balki muallifning dunyoqarashi va tafakkur tarzini aks ettiruvchi kognitiv model sifatida namoyon bo‘ladi [Mahmudov, 2011:49]. Bu hol Navoiy metaforalarining chuqur semantik va kognitiv asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham metafora faol qo‘llanilib, u badiiy ifodaning muhim unsurlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy adiblar metafora orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, inson ruhiy holatini va davr ruhini ifodalashga intiladilar. M. Yo‘ldoshev zamonaviy badiiy matnlarda metaforaning pragmatik va uslubiy vazifalariga e’tibor qaratib, uning o‘quvchiga ta’sir etish kuchini alohida ta’kidlaydi [Yo‘ldoshev, 2015:78].

Badiiy matnlarda metafora ko‘pincha personifikatsiya, metonimiya va ramz bilan uyg‘un holda qo‘llaniladi. Masalan, “tun sukutga cho‘mdi”, “shamol nolasi”, “ko‘cha uyg‘ondi” kabi birikmalarda jonsiz hodisalarga insoniy xususiyatlar yuklanadi. Bu hol metaforaning badiiy matndagi ekspressivlik darajasini yanada oshiradi [Rahmatullayev, 2006:102].

Metafora hodisasi she’riy va nasriy matnlarda turlicha namoyon bo‘ladi. She’riy nutqda metafora ko‘pincha ixcham va ko‘p ma’noli bo‘lib, o‘quvchidan faol tafakkurni talab etadi. Nasriy matnlarda esa metafora voqea-hodisalarni tasvirlashda va obraz yaratishda xizmat qiladi. A. Hojiyev bu holatni metaforaning kontekstga bog‘liqligi bilan izohlaydi [Hojiyev, 2002:65].

O‘zbek badiiy matnlarida metafora hodisasi tilning estetik va semantik imkoniyatlarini keng namoyon etib, adabiy asar mazmunining chuqurlashuviga xizmat qiladi. Mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalaridagi metaforalar til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyish etadi.

Metaforaning nutqiy va uslubiy funksiyalari

Metafora nutq jarayonida muhim funksional vazifalarni bajaradi. U tilning faqat semantik imkoniyatlarini emas, balki nutqning ta’sirchanlik, baholovchilik va ekspressivlik xususiyatlarini ham kuchaytiradi. Nutqiy jarayonda metafora so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalash, tinglovchi yoki o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Sh. Rahmatullayev metaforaning nutqiy vazifasini uning kommunikativ samaradorligi bilan bog‘laydi [Rahmatullayev, 2006:105].

Metaforaning uslubiy funksiyasi, avvalo, tilning funksional uslublarida turlicha namoyon bo‘lishida ko‘zga tashlanadi. Ilmiy uslubda metafora murakkab tushunchalarni soddalashtirib tushuntirishga xizmat qiladi. Masalan, “til tizimi”, “fikr oqimi”, “nazariya poydevori” kabi birliklar ilmiy matnlarda terminologik metafora sifatida qo‘llaniladi [Galperin, 1981:81]. Bu hol metaforaning ilmiy nutqda ham muhim vosita ekanini ko‘rsatadi.

Publitsistik uslubda metafora baholovchi va ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida faol qo‘llaniladi. Ijtimoiy-siyosiy matnlarda metafora orqali muallifning pozitsiyasi va munosabati ifodalanadi. M. Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, publitsistik nutqda metafora auditoriyaga tez va samarali ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi [Yo‘ldoshev, 2015:82].

Badiiy uslubda esa metafora obraz yaratishning yetakchi vositasi hisoblanadi. E. Begmatov badiiy metaforaning estetik vazifasini alohida ta’kidlab, uning adabiy matnning emotsional-ta’sirchanligini oshirishdagi rolini ko‘rsatadi [Begmatov, 2008:123]. Badiiy nutqda metafora individual va kontekstual xarakterga ega bo‘lib, muallif uslubining muhim belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, metafora nutq jarayonida pragmatik funksiyani ham bajaradi. U so‘zlovchining niyatini yashirin yoki bilvosita tarzda ifodalash, o‘quvchining tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. Bu jihat metaforaning kommunikativ samaradorligini oshiradi va uni nutqiy faoliyatning ajralmas unsurlaridan biriga aylantiradi.

XULOSA. Mazkur maqolada metafora hodisasining lingvistik mohiyati va turlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida metaforaning til tizimidagi o‘rni, uning semantik, kognitiv va kommunikativ xususiyatlari yoritildi. Metafora so‘z ma’nosining o‘xshashlik asosida ko‘chishi natijasida yuzaga keladigan muhim lingvistik hodisa bo‘lib, u til birliklarining mazmuniy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari metaforaning leksik, grammatik, kognitiv va badiiy turlari til va nutq jarayonida turli funksiyalarni bajarishini ko‘rsatdi. O‘zbek badiiy adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodi misolida metaforaning estetik va konseptual ahamiyati asoslab berildi.

Shuningdek, zamonaviy nutq va publitsistik matnlarda metaforaning ta’sirchanlik va baholovchilik funksiyalari aniqlab ko‘rsatildi.

Xususan metafora hodisasi til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiruvchi ko‘p qirrali lingvistik vosita bo‘lib, uni o‘rganish tilshunoslik tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Mazkur maqola natijalari metafora masalasini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. *Поэтика*. – М.: Искусство, 1984.
2. Begmatov E. *Badiiy nutq stilistikasi*. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Galperin I.R. *Tekst kak obyekt lingvisticheskogo issledovaniya*. – M., 1981.
4. Hojiyev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati*. – Toshkent, 2002.
5. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
6. Mahmudov N. *Til va tafakkur*. – Toshkent: Fan, 2011.
7. Navoiy A. *Lison ut-tayr*. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991.
8. Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*. – Toshkent, 2006.
9. Yo‘ldoshev M. *Matn va uslub masalalari*. – Toshkent, 2015.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
11. Погожева О.В. Способы репрезентации скрытых смыслов в структуре художественного текста // *Вестник АГУ*. – 2009. – №4(52).
12. Тамерьян Т.Ю. Интеллектуальные характеристики языковой личности. – Ульяновск, 2006.

OZOD SHARAFIDDINOV ASARLARIDA BOSH VA IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLARNING UYUSHISHI

Askarova Umidaxon Maxamadjon qizi

O‘qituvchi

O‘zbekiston Milliy universiteti

askarovau93@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-9705-3453

Anotatsiya: Munaqqid Ozod Sharafiddinov umri davomida yaratgan yuzlab maqolalar, taqrizlar, sharhlar va portretlar o‘zining takrorlanmas jozibador, shirali tili bilan ajralib turadi. Olimning yozgan asarlaridagi uyushiq bo‘laklar, ya’ni uyushiq ega va kesimlar hamda ikkinchi darajali bo‘laklari o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shu sababli ham biz ushbu maqolamizda uyushiq ega va kesimlar hamda ikkinchi darajali bo‘laklarning uyushiq holda O.Sharafiddinov asarlarida uchrashini misollar yordamida tahlil qilishga urinamiz.

Kalit so‘zlar: *Uyushiq ega, uyushiq kesim, ikkinchi darajali bo‘laklar, gap, matn, bog‘lovchilar, uyushgan aniqlovchi, uyushgan to‘ldiruvchi, uyushgan hollar.*

Abstract: The hundreds of articles, reviews, commentaries and portraits created by the philosopher Ozod Sharafiddinov during his lifetime are distinguished by their unique, attractive, juicy language. The coherent parts, that is, the coherent possessive and the sections, and the secondary parts, occupy a special place in the works of the scientist. Therefore, in this article, we will try to analyze the occurrence of coherent possessive and the sections, and the secondary parts in the works of O. Sharafiddinov using examples.

Keywords: *Possessive pronoun, possessive clause, secondary clauses, sentence, text, conjunctions, possessive determiner, possessive complement, possessive cases.*

Zamonaviy badiiy tafakkurimiz rivojida o‘chmas iz qoldirgan, hamisha barhayot siymo sifatida tan olingan Ozod Sharafiddinov nomi doimo yuksak ehtirom bilan tilga olinadi. Har bir adabiy turning yetakchi janri bo‘lganiday, adabiy-badiiy tanqidning ham mashhur qadimiy janri bor. Bu adabiy-tanqidiy portret bo‘lib, uyushtiruvchi, qoliplovchi xususiyatga ega.

Gapda ikki yoki undan ortiq ega bitta va undan ortiq kesim yo aniqlovchi bilan bir xil sintaktik aloqada bo‘lsa, grammatik tomondan tenglik hosil qilsa, bunday egalar uyushgan egalar hisoblanishi barchamizga birdek ma’lumdir.

Misol uchun *va* bog‘lovchisining juft ifodalar o‘rtasida qo‘llanilishi, asosan uyushiq egalarda hamda uyushiq ikkinchi darajali bo‘laklarda uchraydi: *U Navoiy va Furqat, Mashrab*

va Muqimiy, Avaz O‘tar va Nodira kabi klassiklarning, Nizomiy va Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov va Sobir Tohirzoda kabi ozarbayjon adabiyoti buyuk siymolarining, Abdulla To‘qay, Hodi Toqtash va Olimjon Ibrohimov kabi tatar yozuvchilarining, Shayx Sa’diy va Hofiz, Abdurahmon Jomiy va Bedil kabi fors-tojik adabiyoti klassiklarining asarlarini besh qo‘lday mukammal bilgan.[Birinchi mo‘jiza: 207]

Uyushiq egalar tarkibidagi bo‘laklar ko‘pincha bir xil so‘z turkumlari bilan ifodalanadi.

Otdan ifodalangan uyushiq egalar egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qilganda bu qo‘shimchalar har bir uyushiq ega komponentiga yoki uyushiq egalarning oxirgisiga qo‘shilib keladi. Ushbu bo‘laklar hammasi bir to‘plam kabi o‘qilsa, shuningdek sanalishning tugalligini bildirsa, u qo‘shimchalar eng oxirgi bo‘lakkagina qo‘shiladi va hammasi uchun umumiy bo‘ladi: *Bu bir xillilik, ayniqsa, muhabbat haqidagi she’rlarda ko‘p uchramoqda. Shuhratda ham, Shukrulloda ham, Dushan Fayziyda ham, Mamadali Umarov, Z.Obidovda ham bir xil pryomning juda ko‘p qo‘llanganini ko‘ramiz.*[Birinchi mo‘jiza: 197] Ushbu keltirilgan misolda har ikkisini ya’ni egalik va ko‘plik qo‘shimchasi otdan yasalgan uyushiq egalar *Shuhratda, Shukurulloda, Dushan Fayziyda* kabilarga qo‘shilgan bo‘lsa, *Mamadali Umarov, Z.Obidovda* ikkisi bir to‘plam kabi o‘qilgani hamda sanalishning tugaluvini bildirgani uchun qo‘shimchalar eng oxirgi bo‘lakkagina qo‘shilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Grammatik tomondan uyushiq kesimlar o‘zaro teng bo‘lib, bir egaga yoki uyushgan egaga tobelanadi va ikkinchi darajali bo‘laklarni ham ergashtiradi. Bugungi tilimizdagi uyushiq kesimlar ifodalanish materiallariga ko‘ra ikki turga ajratiladi:

1) fe’l-uyushiq kesimlar;

2) ot-uyushiq kesimlarga bo‘linadi.

Fe’l-uyushiq kesimlarning fe’l bilan ifodalanadigan shakli boshqa so‘zlar bilan ifodalanganida nisbatan ancha ko‘p uchraydi, sababi fe’lning asosiy sintaktik funksiyasi kesim bo‘lib kelishidadir.

Fe’l bilan ifodalangan uyushiq kesimlar shaxs-son va zamon nuqtayi nazardan, asosan bir xil bo‘ladi: *Abdulla Qahhor insonlik sha’niga dog‘ bo‘ladigan har qanday illatni benihoya yomon ko‘radi, axloqsizlik, vijdonsizlik, ikki yuzlamachilikdan nafratlanadi, xalq taniga zulukday yopishib olgan haromxo‘rlardan, tekintomoqlardan jirkanadi va ana shu otashin nafrat va g‘azab uni ijod qilishga, satirik asarlar yaratishga undaydi.*[Birinchi mo‘jiza: 283]

Bir gapda uyushiq kesimlar ham bo‘lishli, ham bo‘lishsiz fe’llar bilan ifodalanishi mumkin. Bunda ularning hamma komponentlari bo‘lishli, yoki hamma komponentlari bo‘lishsiz shaklda, shuningdek aralash holda ham ifodalanadi: *Mashqda ishlatiladigan*

miltiqlarning stvoli teshib qo‘yiladi, ular ko‘rinishiga miltig‘u, lekin otishga yaramaydi, qurollik qilmaydi.[Birinchi mo‘jiza:180]

Ot-uyushiq kesimlarda esa bog‘lama rolida, asosan *bo‘l* fe’lining turli shakllari, *edi, ekan, emish* kabi to‘liqsiz fe’llari, *sanaladi, hisoblanadi* kabi fe’llar qo‘llanadi: *Insoniyat mavjud ekan, u tarix g‘ildiragini aylantirar ekan, bu borada faqat aqli bilan emas, hislari bilan ham ish yuritar ekan, san’at va adabiyot ham yashayveradi.*[Birinchi mo‘jiza:13]

Uyushiq ega va kesimlardan mohirona foydalangan olim Ozod Sharafiddinov o‘z asarlarida uyushiq ikkinchi darajali bo‘laklardan ham unumli foydalangan.

Uyushgan aniqlovchilar. Ayrim hollarda har bir otga birdaniga bog‘lanib kelgan birdan ortiq aniqlovchi uyushgan bo‘ladi, ushbu holatda ular o‘zlari tomonidan aniqlanayotgan otga nisbatan bir xil munosabatda bo‘lib, sanash ohangi va teng bog‘lovchilar orqali yo faqat sanash intonatsiyasi hamda biriktiruvchi pauzalar bilan bog‘lanadi: *Uning qahramonlari ichida jozibasi, ma’naviy kuchi, aqli bilan qalbimizni maftun etadigan go‘zal odamlar ham, nodonligi, kaltafahmligi, egriligi bilan nafratimizni qo‘zg‘aydigan badbashara, xunuk odamlar ham bor.*[Birinchi mo‘jiza: 268]

“Publitsist sintaktik qurilmalarida aniqlovchi qurilmalarning anchayin ixcham va zalvorliligi ko‘zga tashlanadi”[O.Sharafiddinov publitsistikasi tili va uslubi: 31]

Uyushiq to‘ldiruvchilar. Uyushiq to‘ldiruvchilar grammatik shakli va vazifasi jihatdan to‘ldiruvchi bo‘lib, ma’lum vositalar yordamida o‘zaro teng aloqaga kirishgan hamda gapning biror bo‘lagiga bog‘lanib, asosan bir turdagi so‘roqqa javob bo‘lgan bir tipdagi bo‘laklardir. Masalan: *Shoir katta satirik mahorat bilan burjua millatchilarining xalqqa qarshi mohiyatini, kontrrevolyutsion faoliyatini tanqid qiladi va ularga qarama-qarshi o‘laroq, xalqchillik prinsiplarini tasdiqlaydi.*[Birinchi mo‘jiza: 101]

Uyushiq hollar. Uyushgan hollar bir xil ma’no munosabatni ifodalovchi ya’ni o‘rin, payt yoki holat kabi bir necha hollar gapning bitta yoki ba’zan bir necha bo‘lagiga bog‘lanadi hamda o‘zaro teng aloqaga kirishadi.

Teng bog‘lovchilar uyushiq hollar orasida yakka holda (*va, hamda, bilan, lekin, ammo* kabi) va takror holda (*goh .. goh, dam... dam* kabi), shuningdek, goh yakka, goh takror holda (*yo, yoki, ham*) qo‘llanishlari mumkin.

Yakka holda qo‘llanuvchi bog‘lovchilar yordamida bog‘langan uyushiq hollar orasidagi pauza juda qisqa bo‘ladi. Misol uchun, yakka holda qo‘llanuvchi *va* bog‘lovchisi ikki yoki undan ortiq komponentli uyushiq hollarni bog‘laydi: *Ba’zi bir ovro‘palik kaltafahm va befarosat odamlar o‘zbeklarni “osiyolik” deb tahqirlagan, ularni yarim yovvoyi tarzda hayot kechiradigan madaniyatsiz nodonlar deb chuvvos solgan, “mayda millat” deb pastga urgan*

bir sharoitda Cho‘lpon bu xalqning mislsiz madaniyati, juda boy ruhiyati, bukilmas e’tiqodi va pok imoni, mazmundor tarixi uchun iftixor qildi va bu iftixorni ko‘pgina asarlarida, shu jumladan, tanqidiy maqolalarida baralla aytishdan cho‘chimadi.[Ijodni anglash baxti: 82]

Takror holda qo‘llanuvchi bog‘lovchilar (*goh-goh, dam-dam kabi*) har bir uyushiq holdan oldin, faqat takrorlanibgina qo‘llanadi. Bu bog‘lovchilar yordamida bog‘langan uyushiq bo‘laklar orasidagi pauza esa uzun va ta’kidli bo‘ladi*: Bu fikr har xil maqomda — goh yumshoq ta’na shaklida, goh do‘stona maslahat tarzida, goh keskin talab ohangida, goh taassuf yo‘sinida ko‘p aytilgan.*[Ijodni anglash baxti: 277]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, adib uyushgan aniqlovchi, uyushiq to‘ldiruvchi va uyushiq hollar kabi uyushiq birikmalarning barchasidan unumli foydalangan.

Xulosa. Atoqli jamoat arbobi, mohir so‘z san’atkori Ozod Sharafiddinovning “Birinchi mo‘jiza” va “Ijodni anglash baxti” asarlarini uyushiq bo‘laklarini tahlil qilar ekanmiz, u uyushiq bo‘laklardan samarali foydalanib, yozilgan fikrini aniq, to‘liq, obrazli, gapni ixcham tuzish, unda his-hayajon va emotsional holatlarni ham ancha to‘la aks ettirish, stilistik ravonlik va ixchamlik singari xususiyatlari bilan tushunarli, oddiy, haqqoniy ayniqsa, ta’sirli ifodalashga erishilganligini kuzatamiz.

Tahlil jarayonida Ozod Sharafiddinov o‘z maqolalarida tilimizda mavjud barcha imkoniyatlardan, xususan, gap bo‘laklarining uyushib kelishidan ham maqsadli va unumli foydalangan. Va ular orqali ifodalamoqchi bo‘lgan fikri, aytadigan gapi yana ham aniqroq, tushunarliroq bo‘lishiga erishgan degan fikrga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Askarova U. Ozod Sharafiddinov asarlarining sintaktik xususiyatlari. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Toshkent, 2022.
2. Askarova, U. (2025). Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). *Farg‘ona Davlat Universiteti*, *31*(1), 83. Retrieved from https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/5320
3. Askarova U. Gapda uyushiq bo‘laklarning o‘rni va ahamiyati (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida). “FarDU. Ilmiy xabarlar” jurnali. — Farg‘ona, 2025.
4. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. – T.: Fan, 1966.
5. Karimov B. Chin ma’nodagi fidoyi. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.

6. Oripov A. Yuksakka chorlovchi e’tiqod. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
7. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining tili va uslubi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2009.
8. Hamrayeva H. Ozod Sharafiddinov publitsistikasining til xususiyatlari. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. – Toshkent, 2010.
9. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. — T.: “Sharq”, 2004.
10. Sharafiddinov O. Birinchi mo‘jiza. — T.: Adabiyot va san’at, 1979.

TAFAKKURNING MULTIMODAL TABIATI VA IKKI TILLILIK SHAROTIDA KOGNITIV JARAYONLAR

Jo‘rayeva Yulduz Botir qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
lingvistika (o‘zbek tili) 1-kurs magistranti
yulduzjurayeva979@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada til va tafakkur munosabati kognitiv, psixolingvistik hamda bilingvalizm nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil qilinadi. Til va fikr o‘rtasidagi lingvistik determinizm va lingvistik relativizm doirasidagi qarashlar ko‘rib chiqilib, multimodal tafakkur nazariyasi asosida inson ongida ma’no shakllanish jarayoni yoritiladi. Maqolada Lawrence Barsalouning simulyatsiya nazariyasi, Aneta Pavlenkoning til va tafakkur haqidagi qarashlari, François Grosjeanning bilingvalizm modeli, David W. Green va Jubin Abutalebining Moslashuvchi nazorat gipotezasi, Lev Vygotskyning ichki nutq konsepsiyasi hamda Dan I. Slobinning “Gapirish uchun fikrlash” nazariyasi asosida ikki tillilik sharoitida tafakkurning qayta sozlanish mexanizmlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tafakkur multimodal va dinamik jarayon bo‘lib, til esa fikrni shakllantiruvchi emas, balki uni kontekstga mos ravishda ifodalovchi funksional vositadir.

Kalit so‘zlar: *til va tafakkur, multimodal tafakkur, bilingvalizm, kognitiv nazorat, ichki nutq, semantik faollashuv, simulyatsiya nazariyasi, gapirish uchun fikrlash.*

Annotation. This article provides a scientific analysis of the relationship between language and thought from cognitive and psycholinguistic perspectives, with particular attention to bilingualism. The debates on linguistic determinism and linguistic relativism are examined, and the process of meaning construction in the human mind is explained through the framework of multimodal cognition. The study refers to Lawrence Barsalou’s theory of perceptual simulation, Aneta Pavlenko‘s views on language and thought, François Grosjean’s holistic model of bilingualism, David W. Green and Jubin Abutalebi’s Adaptive Control Hypothesis, Lev Vygotsky’s concept of inner speech, and Dan I. Slobin’s “Thinking for Speaking” framework. The findings suggest that thought is multimodal and dynamic, while language functions not as a determinant of cognition but as a context-sensitive tool for structuring and expressing thought, especially in bilingual individuals.

Keywords: *language and thought, multimodal cognition, bilingualism, cognitive control, inner speech, semantic activation, perceptual simulation, thinking for speaking.*

Til va tafakkur munosabati tilshunoslik, psixolingvistika, kognitiv fanlarning markaziy masalalaridan biridir. Uzoq vaqt davomida til va tafakkur munosabatida lingvistik determinizm ya'ni til fikrni belgilaydi va lingvistik relativizm (til fikrga ta'sir koʻrsatadi) doirasida bahs qilib kelingan. Bunday yondashuvda bilimlar va fikrlar alohida "modullarda" saqlanadi va sezgi-harakat tizimlaridan mustaqil ishlaydi deb qaralgan. An'anaviy til va fikr tadqiqotlari faqat bitta til biluvchi shaxslararo olib borilgan, ikki tilli shaxslar esa "nooddiy" yoki "aralash" hodisa sifatida hisobga olinmagan. Natijada, bu yoʻnalish notoʻgʻri yoki toʻliq boʻlmagan xulosalarga olib kelgan. Shu oʻrinda tabiiy savol tugʻiladi: ikki tillilar oʻz tillarida boshqacha fikrlaydilarmi, agar til ta'sir qilmasa, nega ikki tillilar oʻz tillarining fikr jarayonlariga ta'sir qilshini aytadilar? Bilingvallarda til va fikr ilmiy tahlili alohida hodisa sifatida oʻrganila boshlangach, ushbu hodisa haqida chuqurroq tushunchalar, qarashlar paydo boʻla boshladi. Tafakkur har doim soʻz orqali ifodalanmaydi. Biz ma'lumotni turli koʻrinishlarda ongimizda qayta ishlaymiz, bu hol koʻpincha tajribaga tayangan holda yuz beradi, ammo idrok etilayotgan hodisa biz uchun mutlaqo yangi boʻlib, tajriba asosida qayta jonlantirish imkoni yoʻq boʻlgan vaziyatlarda-chi, bunda tafakkur qanday idrok etadi? Bu jarayonlar bir til sohibidan koʻra ikki tilli shaxs ongida ikki karra murakkab ravishda roʻy beradi. Chunki, bilingval ong bir paytda kontekstga mos ravishda semantik faollashuv jarayonida mos soʻzni tanlab, ikkinchi tilni bostirib, uni vaziyatga mos tarzda ifoda etishi lozim boʻladi. Yangi soʻz avval eshitiladi, tushuniladi, xotirada saqlanadi va nutq jarayoniga olib kiriladi. Bunday soʻz inson ongida ovoz-ma'no-tajriba-nutq zanjiri orqali shakllanadi. Tanish boʻlmagan soʻz ongda shunchaki bilim emas, u tasvir + his + tajriba boʻlsa haqiqiy idrok boʻladi. Bu ikki tillilik sharoitida tizimlashgan, izchil murakkab kognitiv jarayonlarni taqozo etadi. Inson fikrlayotganda har doim ichki nutq shaklida soʻzlab oʻtirmaydi; koʻpincha fikrlar, obrazlar, umumiy tushunchalar yoki emotsional yondashuv orqali yuzaga keladi.

L. Barsalou tomonidan taklif etilgan nazariyada til va tafakkur idrok jarayonida, asosan, sezgi-harakat tizimlarining qisman qayta faollashuvi (simulyatsiya) ya'ni miya tushunchani belgilar orqali emas, tajriba orqali qayta tiklashi deb ta'kidlanadi. Zotan, bu koʻp qirrali jarayon boʻlib tafakkur multimodal anglashni taqozo etadi.

Tafakkurning multimodal tabiati-inson fikrlash jarayonining turli sezgi kanallari va tana tajribalari asosida shakllanishi boʻlib, tushunchalar miyada mavhum shaklda emas, balki sezgi-motor tarzda his qilish orqali namoyon boʻladi. Biz ma'lumotni qabul qilganimizda miyamizda bir paytning oʻzida koʻrish (tasvirlar), eshitish (tovushlar), harakat (tanaviy tajriba), his-tuygʻu, hid va ta'm kabi multimodal tabiat bilan idrok etishni boshlaymiz. Ushbu jarayonda miyaga qabul qilingan yoki kodlangan ma'lumot mavhum yoki ramziy qotib qolgan

belgilar shaklida emas, sezgi-motor tajribalar asosida qayta faollashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonni xuddi ko‘rmasdan ko‘rgandek,ushlamasdan ushlagandek,harakat qilmasdan bajarayotgandek his qilish holati bilan tushuntirish mumkin. Masalan,"non" so‘zini o‘ylaganda uning shaklini, ta'mini va hidini eslaysiz.Bu multimodal tafakkurdir. Mazkur mavzuning dolzabligi,ayniqsa, ikki tillilik sharoitda yanada ortadi.Chunki, bunda shaxs tafakkurida tushunchalar turli tillarda, turli tajribaviy vaziyatlarda qayta simulyatsiya bilan bog‘langan bo‘lib, bu holat semantik faollashuv, ma'no tanlash va ma'lumot almashinuv jarayonlariga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Multimodal tafakkur nuqtayi nazaridan olib borilgan tahlillar ikki tilli bolalarda kuzatiladigan kognitiv jarayonlarni ilmiy asosda izohlashga imkon beradi. Ikki tillilik deganda doim aqliy jihatdan ustun bo‘lgan shaxslarni tushunmaslik kerak,, chunki ayrim bilingval bolalarda ma'no tanlash yoki ma'noni idrok etishdagi yuzaga keladigan sekinlashuv ularning bilish faoliyatiga ham ta'sir etadi. Shunday ekan "qaysi tilda o‘ylaydi" qabilidagi savol yetarli bo‘lmaydi, chunki o‘ylash faqat amodal belgilar bilan bog‘liq bo‘lmay tafakkurda bu jarayon tasvir, tushuncha belgi harakat yoki his (emotsiya) bilan ham bajariladi. Shaxs tafakkur paytida tilga bo‘lgan ehtiyojini dastlabki talab sifatida e'tiborga olmaydi. Jarayon ongda faqat mavhum tushunchalar bilangina emas tajribalar asosidagi qayta faollashuv tarzida bo‘ladi. Hodisani anglashda sezgi aparatining faolligi konseptual vazifa bajarganda ham kuzatiladi.

Masalan, ko‘rish, eshitish, harakat bilan bog‘liq miya tizimlarini faqat aniq paytdagi idrokida emas balki u haqida tasavvur qilganda so‘z idroki faollashadi. Bu faollik aniq idrok emas balki ichki faollashuv shaklida bo‘ladi.Odam sezgi tajribasini ongida jonlantiradi ya'ni ichki "sahnalashuv" aks etadi.Bu eshitish, ko‘rish, his qilish asosida ishlab sezgi bilan bog‘lanadi. Ko‘pincha, muammolarni hal qilishda tasvir orqali ishlaydi. Masalan, "Qor ko‘chkisida qolgan bola" muammosida miya- qor, sovuqlik, harakat, qo‘rquvni jonlantiradi. Bundan tashqari, tafakkur jarayonida mavhum tushunchalar, ramzlar bilan konseptual fikrlanadi.

Tajriba yoki ma'lumot his-tuyg‘u nuqati nazaridan baholash orqali ham tushuniladi. Emotsional baholash diqqatni yo‘naltirish va ma'lumotlarni tanlashda ongda ustunlik kasb etadi. Emotsional holat semantik faollashuvni kuchaytiradi, ma'lumotni uzoq muddatli xotirada saqlashni osonlashtiradi. Emotsional baholash orqali qarorlar qabul qilamiz.Lekin, til doimiy emas,vaziyatga bog‘liq vositadir. Tafakkurdagi hodisani til turli vaziyatlarda turli ko‘rinishda ifoda etadi. Ikki tilli sharoitda esa bilingval qaysi tilda hodisani ifoda etish imkoniyati ustunligini tanlaydi. Bu tanlovda u tajribalariga, mavjud bilimlariga yoki vaziyatga tayanadi.

Til va tafakkur munosabati koʻp omilli, moslashuvchan va dinamik tizim. Bu qarashlar tilni faqat tafakkur vositasi emas, balki kognitiv jarayonlarni tashkil etuvchi omil sifatida koʻrishga imkon beradi. *(Pavlenko. Til va tafakkur munosabati, 2014).* Ikki tilli shaxsning tafakkur jarayonida asosiy tanlov til tanlash emas, kognitiv moslashuv ustuvor boʻladi. Ya'ni shaxsda bir paytda ikkita til tarmogʻi faollashadi, lekin mos kelmaydigan ma'nolar bostiriladi. Bu jarayonda diqqat nazorati kuchayadi. F. Grosjean 2010- yilda e'lon qilgan Biling tajriba maqolasida ikki tillilikni ikki alohida til tizimining yigʻindisi emas, balki yagona oʻzgaruvchan va tajribaga asoslangan tizim sifatida talqin qiladi. Ikki tilli shaxsda ikkita til doimiy faollashgan boʻladi, vaziyatga qarab biri ustunlashadi, biri bostiriladi. Kognitiv moslashuv jarayonidan soʻng, fikr kontekstga qarab tilga tayandi. Mazkur tayanish jarayonidan keyin ham darrov fikr nutqqa chiqib ketmaydi. Mana shu nuqtada tilning tafakkurdagi funksional roli aniq koʻrinadi. Endi tafakkurda rejalash va oʻzini oʻzi nazorat qilish jarayoni boshlandi. D.Green & J.Abutalebi Language control in Bilinguals:The Adaptive Control Hypothesis (2013) maqolasida moslashuvchi nazorat gipotezasini taklif qildi. Undagi asosiy fikr shundaki, bilingv til nazorati jarayonlarini oʻzini til ishlatish kontekstlarining doimiy talablari boʻyicha moslashtiradi. Green va Abutalebi ushbu maqolada kognitiv nazorat komponentlarini ajratib ularning har bir til ishlatish jarayonida muhim rol oʻynashini yozadi. Kognitiv nazorat quyidagi jarayonlar roʻy berishida tilning roli yaqqol seziladi, suhbat davomida ifoda maqsadini barqaror ushlab turish, til tanlashda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni aniqlash, tanlanmagan til aralashuvini bostirish, qaysi til kerakligini aniqlash, mos boʻlmagan nutq javobini toʻxtatish, bir til vazifasidan chiqib, yangi til vazifasiga kirish kabi komponentlarni ajratib koʻrsatadi. Fikr tilda mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda nutqni rejalashtiradi. Bu jarayonlar moslashuvchi nazorat gipotezasining markaziy elementlaridan boʻlib, bilingv til nazorati tizimining mezonlarini belgilaydi va vaziyat boʻyicha oʻzgaradi.

Keyingi bosqichda hodisa ichki nutq jarayoniga oʻtadi. Vigotskiyning fikricha, ichki nutq faqatgina ichdan gapirish emas, balki nutqning ijtimoiy-kognitiv jarayonlar orqali shakllanishi demakdir. Ichki nutq bolalikdan boshlab rivojlanadi. Dastlab, bolalar oʻzlari bilan oʻzlari gaplashayotgandek tuyulashadi, keyin bu bosqich asta-sekin ichki nutqqa oʻtadi. Vigotskiyning fikricha, bu oʻtish katta kognitiv transformatsiya boʻlib, fikr yuritish, reja tuzish va oʻz harakatlarimizni nazorat qilishdagi asosiy vositaga aylanadi. Ichki nutq ishchi xotira va fikrni boshqarish, nutq ma'lumotlarini xotirada saqlash, topshiriqlar orasida almashtirish, oʻzini oʻzi yoʻnaltirish uchun ishlatiladi. Ijro funksiyalari oʻrtasida chuqur bogʻliqlik mavjud. Ichki nutq bizni harakatlarimizni nazorat qilish va rejalashtirishga undaydi. Masalan,avval

buni qilaman,keyin bunaqa deyman,mana bu holatda turib gapiraman kabi. Ichki nutq turli psixologik vaziyatlar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Fikrni ifodaga tayyorlash bosqichida til tafakkurni emas, fikr ifodalashning vositasi bo‘lib, fikrning nutqqa moslashtirilishi til orqali amalga oshiriladi. D.Slobin "Gapirish uchun fikrlash" g‘oyasini asoslaydi. Bu tilning tafakkurga ta'sirini faqat gap tuzish vaqtida ko‘rsatadi.Gapiruvchi voqeani idrok etadi, uni tilga solishda muayyan tafsilotlari va jihatlarini tanlab oladi. So‘ng ularni tilning grammatika va leksika imkoniyatlariga moslab uyg‘unlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, gap tuzish paytidagi tafakkur til tuzilmalariga moslab yo‘naltiriladi. Aynan shu bosqichda til ta'sirining tafakkurga kuchayishi seziladi. Til insonning qanday o‘ylashini emas, balki gapirishda nimaga e'tibor berishini belgilaydi. Til gapirish jarayonida tafakkurni yo‘naltiradi. Har bir til gapiruvchini voqelikning ma'lum jihatlariga e'tibor qaratishga majbur etadi. Ko‘pchilik ikki tilli odam ikki xil o‘ylaydi deb hisoblaydi ammo ikki tilli odamda bitta tafakkur bor, lekin gapirayotgan tiliga qarab tafakkurni qayta sozlaydi. Til almashganda, e'tibor yo‘nalishi ham almashadi. Masalan, ikki tilli odam ranglar misolida ruscha gapirganda qaysi ko‘k? deb majbur o‘ylaydi, o‘zbekcha gapirganda shunchaki ko‘k deb ketaveradi. Ikki tilli shaxs tafakkurni tiliga qarab "maydalaydi" yoki "umumlashtiradi". Ikki tillilikda tafakkur faqat til emas, madaniyat bilan ham almashadi. O‘zbekcha gapirayotgan bilingv yosh, mavqe, hurmat darajalarini o‘ylab so‘z tanlaydi. Inglizcha gapirganida bunday qilmasligi mumkin. Bilingval tafakkur moslashuvchan tafakkurdir. Natijada bir xil voqelik turli tillarda turlicha kognitiv qayta ishlanadi. Qaysi til-o‘sha tafakkur rejimi ishga tushadi. Ikki tilli odam ikki xil "ko‘zoynak" bilan dunyoga qaraydi, lekin ularni navbati bilan taqadi, bir vaqtda emas. Ikki tillilik sharoitida Slobinning gapirish uchun o‘ylash mexanizmi multimodal tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bilingval shaxs har bir tiliga xos xususiyatlarga moslab tafakkurni qayta sozlaydi. Natijada til almashinuvi nafaqat lingvistik, balki multimodal kognitiv qayta sozlamalarni ham yuzaga keltiradi. Ammo bu kuchayishni turg‘un deb bo‘lmaydi, chunki tilning tafakkurga ta'siri ma'lum gap tuzish orqali shakllanib, bu til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni real vaqtli faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tilning taffakkurga ta'sirini tushunish murakkab kognitiv jarayonlardan iborat bo‘lib, tafakkur multimodal shakllarda anglanadi. Bu jarayonda til doimiy emas,funksional vosita hisoblanadi. ikki tilli nutq jarayoni murakkablashadi,lekin kognitiv nazorat kuchayadi. D.I.Slobinning o‘rganishlariga asoslanga tadqiqotlaridan biri-bolalarning turli tillarda (masalan, ingliz, ispan, nemis, ivrit) bir xil rasm ketma-ketligini so‘zlab berilshlari solishtirilgan "Frog story" tadqiqotidir. Maqsad shuki, turli tillarda gapiruvchilar

voqealarni qanday tuzib aytishlarini ko‘rish. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, hatto erta yoshli bolalar ham til qurilishidagi belgilarni o‘z hikoyalarida aks ettiradi: ular gapirayotganda tilning grammatik kategoriyalari asosida voqeaning turli qirralarini ajratadi. Bu tilning gap tuzish vaqtida e'tiborini yo‘naltirishda ta'sirini ko‘rsatadi. Gapirish uchun o‘ylash belgilari allaqachon bolalikda shakllana boshlaydi. Bu nazariya ilmiy tahlilda juda qadrlanadi, lekin ba'zi chegaralarga ega. U umumiy fikrni belgilashni da'vo qilmaydi. Faqat nutq tuzish vaqtida tilning ta'sirini ko‘rsatadi. Tafakkurning multimodal tabiati o‘ziga xos, ko‘p qirrali vaziyatga bog‘liq jarayon bo‘lib, ikki tillilik sharoitida turli kognitiv jarayonlarni bosib o‘tadi. Ikki tillilik faqat "ikki tilni bilish"emas, inson ongida nazorat moslashuv va tanlash mexanizmlarini faollashtiruvchi kognitiv tajriba sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pavlenko, Aneta.*The Bilingual Mind: And What It Tells Us about Language and Thought.* Cambridge University Press, 2014.
2. Slobin, Dan I. “From ‘Thought and Language’ to ‘Thinking for Speaking‘.” In *Rethinking Linguistic Relativity*, edited by J. J. Gumperz and S. C. Levinson. Cambridge University Press, 1996.
3. Grosjean, François.*Bilingual: Life and Reality.* Harvard University Press, 2010.
4. Green, David W., and Jubin Abutalebi. “Language Control in Bilinguals: The Adaptive Control Hypothesis.” *Journal of Cognitive Psychology*, 2013.
5. Alderson-Day, Ben, and Charles Fernyhough. “Inner Speech: Development, Cognitive Functions, and Phenomenology.” *Psychological Bulletin*, 2015.
6. Barsalou, Lawrence W. “Grounded Cognition.” *Annual Review of Psychology*, 2008.

GLOBALLASHUV DAVRIDA SO‘Z O‘ZLASHISHI MASALASI

Qozoqova Madina Abduvali qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tiliga kirib kelgan yangi so‘zlar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek o‘zlashma so‘zlarning fonetik, semantik va funksional xususiyatlari ko‘rib chiqiladi va ularning o‘zbek tili lug‘at tarkibiga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Bugungi kunda jamiyat a’zolari tomonidan keng qo‘llanilayotgan yangi so‘zlarga misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zlashma so‘zlar, zamonaviy atamalar, til o‘zgarishi, me’yorlash, fonetik moslashuvglobalizatsiya, texnologik rivojlanish, madaniy almashinuv, ijtimoiy tarmoqlar.*

Shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv jarayonida tilimizda keskin o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Jumladan, xalqaro aloqalar, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va media platformalar kengayishi natijasida o‘zbek tiliga ko‘plab yangi leksik birliklar kirib kelmoqda. Ushbu o‘zlashma so‘zlar jamiyatning tilga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, atamalarning me’yoriy qo‘llanilishi, fonetik va grammatik moslashuvi dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Davlat tili haqida’’gi va ‘‘Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida’’gi qonunlariga muvofiq hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasining xulosasiga ko‘ra 2026-yil 9-yanvarda Bosh vazirning 3 ta qaroriga muvofiq 1060 ta geografik obyekt nomlari, 121 ta tog‘ va cho‘qqi nomi, 161 ta aeroport va avtostansiya nomlari davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiqlashtirildi, ularga o‘zbekcha nom berilishi tilimizga bo‘lgan hurmat va e’tibordan darakdir.

Jamiyatning yangi tushunchalarni ifodalashga ehtiyoji o‘zlashma so‘zlarning yuzaga kelishiga turtki bo‘lmoqda. Ularning paydo bo‘lishiga bir nechta omillar sabab bo‘ladi:

1. Raqamli taraqqiyot – yangi texnik vositalar va jarayonlar bilan bog‘liq atamalar: planshet, smartfon, sensor, onlayn platforma. 2.Xalqaro madaniy va medial jarayonlar ta’siri – kino, musiqa, moda va reklama sohalari orqali kirib kelgan so‘zlar: podkast, kreativ, marketing. 3. Internet tili va ijtimoiy tarmoqlar – tez tarqaluvchi, qisqa va xalqaro formatdagi birliklar:

post, like, trend, storilar, kontent. Bu jarayonlar tilning lug‘at boyligini kengaytiradi va zamonaviy kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi.

O‘zlashma so‘zlar o‘zbek tiliga moslashishda bir necha bosqichdan o‘tadi: *Fonetik moslashuv:* So‘zning talaffuzi o‘zbek tilining fonetik qonuniyatlariga moslashadi: IT- ayti, printer → printr, online → onlayn. *Grammatik moslashuv*: So‘z qo‘shimchalarni erkin qabul qiladi• kontentlar, trendga, blogerlik, platformaning. *Semantik moslashuv*: So‘zning ma’nosi mustahkamlanib, ko‘p ma’nolilik yoki tor ma’nolilik jarayoni yuz beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borish vazifasi belgilangan.

Mazkur Farmonning ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi majlisining 62-son bayoni qabul qilindi. Ushbu bayonga ko‘ra, o‘zbek tilida qo‘llanilib kelayotgan 40 ta xorijiy atama o‘zbekcha muqobillariga almashtirildi.

Xususan, chet tilaridan kirib kelgan “aysberg” atamasi “muztog‘” so‘zi bilan, “karving” – “o‘ymabezak”, “navigator” – “yo‘llagich”, “otvyortka” – “buragich”, “svetofor” – “yo‘lchiroq”, “chellenj” – “chorlov” so‘zi bilan almashtiriladi.

- Anomal — Noodatiy;
- Blokcheyn — Zanjirblok;
- Bonus — Siylama;
- Breket — Tishsim;
- Vertolyot — Tikuchar;
- Dedlayn — So‘ngmuddat;
- Kommentariy — Sharh,izoh;
- Kopirayting — Tijoriy matn yozish;
- Layfxak — Sarayechim;
- Rakovina — Chanoq;
- Suflyor — Shivirchi;
- Xostel — Qo‘noqxona;
- Emoji — Imo.

O‘zbek tiliga zamonaviy so‘zlarning kirib kelishi til rivojlanishidagi muhim omil bo‘lib, u jamiyatning texnologik, madaniy va kommunikativ o‘zgarishlarini ifodalaydi. O‘zlashma

so‘zlarning fonetik, grammatik va semantik moslashuvi ularning til tizimida aks etishida muhimdir. Shuningdek, eng muhim jihatni unutmaslik kerakki, milliy til me’yorlari, o‘zbekcha muqobillarning mavjudligi va tilning o‘ziga xosligi bu ona tilimizning saviyasi, bizning iftixorimizdir. O‘zlashma so‘zlar evazsiga o‘z tilimizni unutmasligimiz darkor. Til unutildiki, xalq, millat, jamiyat o‘ldi demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh. M. O‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaxo ma’naviy boylik, buyuk qadriyat. – Xalq so‘zi gazetasi. – 2019 yil 22-oktyabr.

2. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

3. Orifjonova M. Zamonaviy til jarayonlari va o‘zlashmalar tahlili. – Toshkent, 2022.

4. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent, 2018. Internet tilshunosligi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami, 2021–2024.

5. Afisha.uz

6. https://www.academy.uz/uz.

KOMPYUTER LINGVISTIKASIDA KORPUS VA PARSING MUAMMOLARI

Choriyeva Hilola Murod qizi
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompyuter lingvistikasining muhim yo‘nalishlaridan bo‘lgan lingvistik korpuslar va sintaktik parsing jarayonlari, ularning nazariy asoslari hamda amaliy muammolari yoritiladi. Korpus yaratishdagi muammolar — ma’lumotlar tanlovi, belgilash (annotatsiya), muvozanat va reprezentativlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, parsing jarayonida uchraydigan sintaktik noaniqliklar, morfologik murakkabliklar va tabiiy tillarning strukturaviy xilma-xilligi muammolari ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zbek tili misolida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *kompyuter lingvistikasi, lingvistik korpus, parsing, sintaktik tahlil, annotatsiya, tabiiy tilni qayta ishlash.*

Annotation. This article examines linguistic corpora and syntactic parsing as key components of computational linguistics. It analyzes major challenges in corpus construction, including data selection, annotation, representativeness, and balance. Particular attention is paid to parsing problems such as syntactic ambiguity, morphological complexity, and structural diversity of natural languages. The paper also highlights current issues and future prospects of corpus linguistics and parsing, with a focus on the Uzbek language.

Keywords: *computational linguistics, linguistic corpus, parsing, syntactic analysis, annotation, natural language processing.*

Kompyuter lingvistikasi - tabiiy tillarni kompyuter yordamida modellashtirish, tahlil qilish va qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi fan sohasi hisoblanadi. Bugungi kunda mashina tarjimasi, matnni avtomatik tahlil qilish, nutqni tanish va sun’iy intellekt tizimlari rivojida lingvistik korpuslar va parsing texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada aynan shu ikki asosiy tushuncha - korpus va parsing hamda ular bilan bog‘liq muammolar ilmiy jihatdan yoritiladi. Lingvistik korpus - bu ma’lum mezonlar asosida tanlangan, elektron shaklda saqlanadigan va maxsus belgilangan (annotatsiyalangan) matnlar to‘plamidir. Korpuslar lingvistik tadqiqotlar, statistik tahlil va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) tizimlari uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Kompyuter lingvistikasida lingvistik korpuslar va parsing muammolari, xususan, tarixiy (diaxron) matnlar bilan ishlash

jarayonida yanada murakkab tus oladi, chunki bunday korpuslarda uchraydigan orfografik beqarorlik, OCR (optik belgilarni tanish) xatolari, gap chegaralarini noto‘g‘ri aniqlash va morfologik teglashdagi noaniqliklar sintaktik tahlil natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va xatolarning quyi darajadan yuqori darajaga qarab tarqalishiga olib keladi. Ayniqsa, katta hajmli tarixiy korpuslar, masalan, 1665–1869-yillar oralig‘idagi ilmiy matnlarni o‘z ichiga olgan Royal Society Corpus asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ingliz tili uchun mo‘ljallangan parserlar bunday matnlarni past aniqlikda tahlil qiladi, bu esa sintaktik murakkablikni o‘rganish, jumladan, gap uzunligi, joylashuv chuqurligi (embedding depth) va bog‘liq birliklar soni kabi ko‘rsatkichlarni ishonchli modellashtirishni qiyinlashtiradi. Tarixiy ilmiy matnlarni parsing qilishda aniqlangan xatolarning sezilarli qismi bevosita sintaktik model kamchiliklari bilan emas, balki avvalgi bosqichlarda yuzaga kelgan texnik va lingvistik xatolar — imlo variantlarining ko‘pligi, noto‘g‘ri tokenizatsiya, gap oxirini aniqlashdagi xatoliklar hamda POS-teglashdagi noaniqliklar bilan bog‘liq bo‘lib, bularning barchasi to‘g‘ri sintaktik daraxtlarning qurilishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Shu bilan birga, lingvistik korpuslar nafaqat sintaktik parsing, balki anafora va koreferensiya rezolyutsiyasi kabi yuqori darajadagi diskursiv hodisalarni modellashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki anaforik ifodalarning oldingi bog‘lanma birliklarini aniqlash hamda hujjat doirasida koreferensial zanjirlarni to‘liq tiklash uchun yuqori sifatli, maxsus annotatsiyalangan korpuslar talab etiladi. Anafora rezolyutsiyasi jarayonida annotatsiya faqat alohida anafora–antecedent juftliklarini emas, balki anaforik zanjirlarni ham qamrab olishi zarur, chunki anaforaning muvaffaqiyatli aniqlanishi unga bog‘liq zanjirdagi istalgan oldingi elementning to‘g‘ri topilishi bilan baholanadi, koreferensiya rezolyutsiyasi esa to‘liq koreferensial zanjirlar mavjudligini taqozo etadi. Biroq hozirgi kunda anaforik va koreferensial jihatdan belgilangan korpuslar yetarli darajada keng tarqalmagan va mavjud resurslar hajm jihatidan ham, davriy qamrov nuqtayi nazaridan ham cheklangan bo‘lib qolmoqda, bu esa mashinali o‘rganish asosidagi modellarni samarali o‘qitish va baholash imkoniyatlarini qisqartiradi. Shu sababli, tarixiy va zamonaviy korpuslar asosida olib boriladigan kompyuter-lingvistik tadqiqotlarda parsing, anafora va koreferensiya muammolarini kompleks yondashuv asosida hal qilish, ya’ni orfografik normalizatsiya, xatolarni avtomatik tuzatish, davrga mos parserlarni qayta o‘qitish hamda sifatli annotatsiya standartlarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Korpuslarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- umumiy (milliy) korpuslar;
- ixtisoslashgan korpuslar;
- parallel korpuslar;

- o‘quv va o‘rgatuvchi korpuslar.

Korpuslar til birliklarining real qo‘llanilishini o‘rganish, til qonuniyatlarini aniqlash va avtomatik tizimlarni o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi, biroq korpus yaratish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, bir qator muammolarni keltirib chiqaradi: Reprezentativlik va muvozanat - korpus tilning barcha uslub va janrlarini yetarli darajada qamrab olishi kerak, aks holda, tadqiqot natijalari biryoqlama bo‘lib qoladi; Annotatsiya muammolari - morfologik, sintaktik va semantik belgilash jarayonlari ko‘p vaqt va resurs talab qiladi. Annotatsiyaning avtomatlashtirilishi esa xatoliklar ehtimolini oshiradi; Tilga xos murakkabliklar - agglyutinativ tillar, jumladan o‘zbek tili uchun so‘z shakllarining ko‘pligi korpus yaratishni yanada qiyinlashtiradi. Parsing - bu gapning grammatik tuzilishini aniqlash va uni formal model (daraxt yoki grafik) ko‘rinishida ifodalash jarayonidir. Parsingning asosiy turlari: sintaktik parsing; morfologik parsing; bog‘lanishli (dependency) parsing; tarkibli (constituency) parsing. Parsing tabiiy tilni tushunish va avtomatik tahlil qilishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Parsing jarayonida quyidagi asosiy muammolar yuzaga keladi:

1. Sintaktik noaniqlik:

Bir gap bir nechta grammatik talqinga ega bo‘lishi mumkin. Bu holat avtomatik tahlilda xatoliklarga olib keladi.

2. Morfologik murakkablik:

So‘zlarning ko‘p shaklliligi parsing aniqligini pasaytiradi, ayniqsa, qo‘shimchalarga boy tillarda.

3. Resurslarning yetishmasligi:

Ko‘plab tillar, xususan, o‘zbek tili uchun yirik va sifatli belgilangan korpuslar yetarli emas.

O‘zbek tilida kompyuter lingvistikasini rivojlantirish uchun milliy korpusni kengaytirish; sifatli annotatsiya standartlarini ishlab chiqish; zamonaviy parsing modellari yaratish; sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlarni joriy etish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda lingvistik korpuslar va parsing muammolari kompyuter lingvistikasining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Ularni hal etish tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbek tili misolida bu sohada amalga oshiriladigan ilmiy va amaliy ishlar milliy til texnologiyalarining rivojiga katta hissa qo‘shadi. Kompyuter lingvistikasi doirasida lingvistik korpuslar va parsing muammolari tabiiy tilni avtomatik tahlil qilish va modellashtirishning eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori sifatli korpuslar va aniq sintaktik parsing natijalari nafaqat morfologik va sintaktik tahlil, balki anafora va koreferensiya kabi yuqori

darajadagi diskursiv hodisalarni aniqlash uchun ham muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy (diaxron) korpuslar bilan ishlash jarayonida uchraydigan orfografik beqarorlik, OCR xatolari, tokenizatsiya va gap chegaralarini aniqlashdagi noaniqliklar hamda POS-teglashdagi xatoliklar parsing aniqligini sezilarli darajada pasaytiradi va xatolarning quyi darajadan yuqori darajaga tarqalishiga olib keladi. Bunday holatlarda sintaktik modelning o‘zi mukammal bo‘lsa ham, dastlabki bosqichlardagi kamchiliklar yakuniy natijalarning ishonchliligini susaytiradi. Shu bilan birga, zamonaviy tillar uchun ishlab chiqilgan parserlar tarixiy matnlarning lingvistik xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmasligi sababli, ularni mos davr materiallari asosida qayta o‘qitish va boyitish zarurati yuzaga keladi. Bundan tashqari, anafora va koreferensiya rezolyutsiyasi kabi masalalar uchun maxsus annotatsiyalangan, yetarlicha katta va muvozanatli korpuslarning yetishmasligi ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni cheklab qo‘ymoqda. Anaforik va koreferensial zanjirlarni to‘liq qamrab olgan annotatsiyalar mavjud bo‘lmaganda, mashinali o‘rganish asosidagi modellarni samarali o‘qitish va baholash imkoni sezilarli darajada kamayadi. Bu esa sintaktik parsing bilan yuqori darajadagi diskursiv tahlil o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. Shuning uchun kompyuter lingvistikasi sohasida korpus yaratish, annotatsiya standartlarini takomillashtirish, parsing aniqligini oshirish hamda xatolarni avtomatik aniqlash va tuzatish mexanizmlarini ishlab chiqish kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jurafsky D., Martin J. *Speech and Language Processing*. Pearson, 2023.
2. McEnery T., Hardie A. *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*. Cambridge University Press, 2012.
3. Manning C., Schütze H. *Foundations of Statistical Natural Language Processing*. MIT Press, 1999.
4. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilining grammatikasi. Toshkent, 2018.
5. Nivre J. *Dependency Parsing*. Morgan & Claypool, 2006.
6. O‘zbek tili milliy korpusi materiallari.

LINGVISTIK EKSPERTIZA – TILSHUNOSLIKNING AMALIY YO‘NALISH SIFATIDAGI MAZMUNI

Nazarkulova Dinora
2-bosqich magistranti
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikning amaliy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvistik ekspertizaning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda lingvistik ekspertizaning mohiyati, tahlil obyektlari hamda sud-huquq amaliyotidagi o‘rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, nutqiy jinoyatlarni aniqlashda semantik, pragmatik, struktural va stilometrik tahlil usullarining ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, mualliflikni aniqlashda umumiy va xususiy nutqiy belgilarni farqlash masalasi yoritiladi. Maqolada lingvistik ekspertizaning xatshunoslik ekspertizasidan farqli jihatlari ko‘rsatilib, elektron matnlarni tahlil qilishda lingvistik yondashuvning ustuvorligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari lingvistik ekspertizaning jamiyatda nutqiy xavfsizlikni ta’minlashdagi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik ekspertiza, sud lingvistikasi, nutqiy jinoyatlar, semantik tahlil, pragmatik tahlil, stilometrik tahlil, mualliflikni aniqlash, lingvopragmatika, nutqiy xavfsizlik, anonim matn.*

Annotation. This article examines linguistic expertise as one of the most significant applied branches of linguistics. The study focuses on the theoretical foundations, analytical objects, and practical relevance of linguistic expertise within legal and judicial contexts. Particular attention is paid to semantic, pragmatic, structural, and stylometric analyses used to identify verbal offenses such as insult, defamation, threat, and manipulation, as well as to determine authorship of anonymous texts. The article also distinguishes linguistic expertise from graphological examination and emphasizes the priority of linguistic analysis in the evaluation of electronic and digital texts. Furthermore, the role of general and individual linguistic markers in constructing an author’s speech profile is discussed. The findings demonstrate that linguistic expertise plays a crucial role in ensuring communicative security and represents an interdisciplinary field integrating linguistics, law and psychology.

Keywords: *linguistic expertise, forensic linguistics, verbal crimes, semantic analysis, pragmatic analysis, stylometric analysis, authorship attribution, linguopragmatics, communicative security, anonymous text.*

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida elektron qurilmalarning rivojlanishi, internet resurslarining kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarda anonim kontentning keskin oshishi, postlar, sharhlar, bloglar, xatlar, izohlar, maqolalar — son jihatdan keskin ortishi **huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirilgan** zamonaviy tilshunoslik oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.[17] Ushbu matnlarning muallifini aniqlash ehtiyoji huquq-tartibot, jurnalistika, lingvistik ekspertiza kabi ko‘plab sohalarda alohida ahamiyat kasb etadi Anonim matnlarning muallifini aniqlash — bu nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, huquqiy va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq dolzarb masaladir. Bunday matnlar ko‘pincha muallifning shaxsini yashirish, mas’uliyatdan qochish yoki jamoatchilikni maqsadli boshqarish kabi holatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularning muallifini aniqlash mazmunning ishonchliligini tekshirish, huquqiy jarayonlarda daliliy asoslarni mustahkamlash, shuningdek, ijtimoiy manipulyatsiyalarning oldini olishga xizmat qiladi. Leksik-semantik xususiyatlar mualliflikni aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki har bir muallif o‘ziga xos lug‘aviy tanlov, semantik maydon, metaforik tizim va nutq uslubiga ega. Shu bois mazkur mavzu nafaqat nazariy, balki real amaliy ahamiyatga,ham ega bo‘lib, lingvistik kriminologiya, kompyuter lingvistika va matnshunoslik sohalari uchun muhimdir. Anonim matnlarni identifikatsiya qilishning eng samarali yo‘nalishlaridan biri — leksik-semantik xususiyatlar asosida mualliflikni aniqlashdir.

Dunyo tilshunosligida yuridik lingvistika atamasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol qo‘llanila boshladi. Ushbu yo‘nalish ayniqsa rus va ingliz tilshunosligi maktablarida izchil darajada shakllanib, rivojlangan ilmiy sohaga aylandi.[18] 1990-yillarga kelib esa yuridik lingvistikaning amaliy tarmog‘i sifatida **lingvistik ekspertiza** mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Lingvistik ekspertiza — bu tilshunoslikning huquqiy jarayonlarda qo‘llaniladigan amaliy bo‘limi bo‘lib, inson sha’ni, qadr-qimmati va ijtimoiy obro‘siga zarar yetkazuvchi nutqiy birliklarni aniqlash, baholash va tahlil qilish bilan shug‘ullanadi.[19] Ilm-fan taraqqiyoti, axborot oqimining keskin ko‘payishi va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida muallifi noma’lum matnlar keng tarqaldi. Xususan, diniy-ekstremistik mazmundagi chaqiriqlar, terrorizm g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi materiallar, psixologik bosim va taxdid xarakteridagi yozishmalar, manipulyativ axborotlar global miqyosda o‘ta xavfli bo‘lgan

[17] 2022 — 2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDAgi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli prezident farmoni.
[18] Gibbons J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. Oxford: Blackwell, 2003.
[19] McMenamin G. Forensic Stylistics. Elsevier, 2002.

muammolardan biriga aylandi. Bunday mazmundagi kontentni lingvistik jihatdan ekspertiza qilish, uning potentsial xavfini aniqlash, muallifini topish va mazmunini huquqiy nuqtayi nazardan baholash har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda.

Shu bois bugungi kunda dunyo tilshunosligida anonim matnlarni ekspertizadan o‘tkazish, mualliflikni aniqlash, plagiat faktlarini tekshirish, savdo belgilari va nomlardagi ko‘chirmachilikni aniqlash kabi amaliy masalalar bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, “lingvistik portret”, “idiolekt”, “leksik-semantik indikatorlar”, “stilometrik ko‘rsatkichlar” kabi ilmiy tushunchalar anonim matnlar muallifini aniqlashda asosiy kategoriya sifatida qaralmoqda.[20] Mamlakatimizda ham sud-huquq tizimiga oid ilmiy ishlanmalar mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati sud tili, huquqiy atamalar, rasmiy uslub va qonunchilik matnlari talqiniga qaratilgan. Biroq kun sayin sud jarayonlarida bahsli matnlar, anonim xabarlar, tahdidli yozishmalar, ijtimoiy tarmoqlardagi haqorat va bo‘htonlar, millatlararo yoki diniy ziddiyatga undovchi kontentlar ko‘paymoqda. Aksariyat muallifi noma’lum matnlar tuhmat[21], haqorat qilish[22], shaxsiy hayot daxlsizligini buzish[23], shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish[24], shaxsning sha’nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni oshkor qilish[25], milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish[26], yolg‘on axborot tarqatish kabi jinoyatlarni yashirish maqsadida yoziladi. Bu hol lingvistik ekspertizani mustaqil ilmiy va amaliy soha sifatida yanada rivojlantirish zaruratini tug‘dirmoqda.Bunday vaziyatlarda xatshunoslik, psixologik ekspertiza, kriminologiya kabi yo‘nalishlar ma’lum darajada yechim taklif qilgan bo‘lsa-da, masalaning lingvistik aspektda to‘liq yoritilishi uzoq vaqt davomida yetarli e’tibor qaratilmagan masala bo‘lib qolgan. Jumladan, inson sha’ni, qadr-qimmati, oilaviy obro‘si, diniy e’tiqodi yoki etnik mansubligiga qaratilgan haqoratli, tahdiddor yoki yovuz niyatli yozishmalarni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish bo‘yicha maxsus metodologiya yetarli darajada ishlanmagan edi. Shaxsiy yozishmalar va anonim matnlarni tahlil qilishda leksik-semantik ko‘rsatkichlar, semantik maydonlar, metaforik strukturalar, idiosinkrazik birliklar, nutqiy agressiya indikatorlari, emotiv birliklar, pragmatik maqsad va nutq vaziyati kabi parametrlarni aniqlash tahlilning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi.

[20] [20] Grant T. Author Identification in Forensic Linguistics. Routledge, 2019.
[21] O‘zb.Res.JK.139-modda
[22] Yuqoridagi manba., 140-modda
[23] Yuqoridagi manba., 141 [1]-modda
[24] Yuqoridagi manba., 140 [2]-modda
[25] Yuqoridagi manba., 140 3 -modda
[26] Yuqoridagi manba., 144 [6]-modda

Aynan shu omillar muallifning psixologik holati, dunyoqarashi, madaniy saviyasi, axloqiy qadriyatlari va kommunikativ niyatini ochib berishga yordam beradi. Bugun sud-huquq tizimida uchrayotgan nutqiy jinoyatlarning ko‘pchiligi aynan til orqali sodir etilmoqda. Haqorat, tahdid, shantaj, kamsitish, zo‘ravonlikka undash, ekstremistik targ‘ibot — bularning barchasida asosiy “qurol” lingvistik vositalardir. Natijada tilshunos ekspertlar zamonaviy sud jarayonlarida muhim subyektga aylandi. Ular anonim yoki bahsli matnlarning semantik-sintaktik xususiyatlarini tahlil qiladi, ularning mazmunidagi salbiy pragmatik ta’sirni o‘lchaydi, matn muallifining lingvistik portretini yaratadi va sudga ilmiy xulosa taqdim qiladi.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda lingvistik ekspertiza bo‘yicha ayrim ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning nazariy poydevori mavjud bo‘lsa-da, amaliy metodologiya, algoritmlar, normativ mezonlar, til birliklarining agressiv-semantik tasnifi hali to‘liq ishlab chiqish jarayonini bosib o‘tmoqda. Shu bois tilshunos-ekspertlarning nafaqat nazariy bilimga, balki matnni ijtimoiy, psixologik va huquqiy kontekstda izohlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Yuridik lingvistikaning dolzarbligi shundan iboratki, endilikda matn ekspertizasi shunchaki “yozuv shakli”ga qarab emas, balki uning semantik qatlamlari, pragmatik niyati, nutqiy vaziyatga mosligi, leksik va grammatik birliklarning emotsional yuklanishi asosida amalga oshiriladi. Bu esa lingvistik ekspertiza fanini yangi bosqichga olib chiqadi va o‘zbek tilshunosligida butunlay yangi ilmiy istiqbollarni ochadi.

Tilshunoslikning amaliy yo‘nalishlari orasida lingvistik ekspertiza alohida o‘rin egallaydi, chunki u nazariy tilshunoslikda yaratilgan metod va tamoyillarni real ijtimoiy-huquqiy vaziyatlarda qo‘llashga xizmat qiladi. Bugungi kunda nutqiy jinoyatlar — haqorat, bo‘hton, ekstremistik chaqiriqlar, tahdidlar, manipulyativ axborotlar, shuningdek, anonim matn muallifini aniqlash kabi murakkab masalalar tilshunos-ekspert ishtirokisiz hal etilmayapti. Shuning uchun lingvistik ekspertiza amaliy tilshunoslikning eng faol rivojlanayotgan tarmog‘i sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy tadqiqotimizning ushbu bobida lingvistik ekspertizaning mazmuni, uning amaliy yo‘nalish sifatidagi mohiyati, tahlil obyektlari va metodik asoslari ilmiy-nazariy manbalarga tayangan holda yoritishga harakat qildik. Lingvistik ekspertiza — bu nutqiy mahsulotning (matn, audio, elektron xabar, post va b.) semantik, pragmatik va struktural xususiyatlarini huquqiy baholashga yo‘naltirilgan ilmiy tahlildir. Amerikalik lingvist Rodjer Vellington Shuy aytganidek, “lingvistik ekspertiza – tilshunoslik bilimlarining sud-huquqiy

jarayonda amalga oshiriladigan aniq amaliy faoliyatidir”[27]. U nazariy tilshunoslikdan farqli o‘laroq:

- konkret obyektni (aniq matn, xabar, gaplar tizimi);
- konkret masalani (haqorat bormi? tahdid bormi? muallif kim?);
- konkret natijani (ekspert xulosasi) tahlil qiladi.

Nazariya til qanday ishlaydi? degan savolga javob bersa, ekspertiza aynan shu til ishlatilishi huquqiy jihatdan qanday oqibat tug‘diradi? degan masalani yechadi.

Lingvistik ekspertiza mazmun jihatdan quyidagi tahlillarni o‘z ichiga oladi:

1) Mazmuniy (semantik) tahlil asosida matnda haqorat, bo‘hton, kamsitish, ekstremistik g‘oya, manipulyativ ma’no bor-yo‘qligi aniqlanadi. Sud lingvistikasi mutaxassisi Djerald R.MakMedamin shunday ta’kidlaydi: “Semantik tahlil ekspertizadagi eng asosiy bosqich bo‘lib, matnning yashirin va ochiq mazmunini obyektiv aniqlashni taqozo etadi”.[28] Shundan kelib chiqib matnning boshqa manbalar bilan leksik, sintaktik va strukturaviy moslik darajasi tekshirishda ushbu tahlil samarali hisoblanadi. Bu jarayon korpus lingvistika va matnni avtomatik solishtirish metodlariga asoslanadi.

2) Pragmatik tahlil orqali gapning emotsional ta’siri, kommunikativ niyati, auditoriyaga qaratilgan baholovchi kuchi aniqlanadi. Ekspertiza jarayonida ushbu jihatlar e’tibordan chetda qolishi mumkin emas.

3) Struktural va stilometrik tahlilda esa mualliflikni aniqlashda sintaktik konstruksiyalar, leksik tanlov, individual uslub ko‘rsatkichlari (idiosinkraziya) tahlil qilinadi. Tim Grantning fikricha: “mualliflikni aniqlash jarayoni statistik va stilistik ko‘rsatkichlarning kombinatsiyasiga tayanadi”.[29] Demak, yuqori smara beruvchi va sinalgan bu usul amaliy jihatdan muhim.

4) Lingvopragmatik ekspertiza natijasida matndagi tahdid, shantaj, qo‘rqitish, ishontirish kabi nutq aktlari aniqlanadi va tahlil qilinadi.


Nazariy tilshunoslik til tizimi va uning ishlash mexanizmlarini o‘rganadi. Ammo sud-huquq jarayoni nazariy tahlilning o‘zini talab qilmaydi, balki natijaga qaratilgan amaliy xulosa talab etadi. Bundan ko‘rinadiki, tilshunos-ekspert sud uchun nazariyani emas, balki nazariya asosida olingan xulosani taqdim etadi. Ekspertiza obyektiv bo‘lishi shart. Lingvistik-ekspert hodisa haqida shaxsiy fikr bildirmaydi, balki real til hodisasini tasvirlaydi, daliliy asoslar bilan isbotlaydi, shundan so‘nggina xulosa chiqaradi. Bu jarayonda terminologik aniqlik, matnning

[27] Роджер W. Shuy "Language Crimes: The Use and Abuse of Language Evidence in the Courtroom". Wiley-Blackwel

[28] Джеральд Р. МакМенамин (Gerald R. McMenamin).Forensic Stylistics (Судебная стилистика).1993 год, издательство Elsevier, Амстердам.Статья является частью журнала Forensic Science International, том 58

[29] Tim Grand. THE IDEA OF PROGRESS IN FORENSIC AUTHORSHIP ANALYSIS. Cambridge University Press. 2022.

konteksti va holat bilan bog‘liqlik qat’iy nazorat qilinadi. Umumiy tarzda tilshunoslikning amaliy yo‘nalish sifatidagi lingvistik ekspertiza — bu til hodisalarini huquqiy kontekstda baholovchi ilmiy-amaliy faoliyat bo‘lib, uning mazmuni tilning semantik, pragmatik, stilistik va kommunikativ xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Mazkur yo‘nalish nazariy tilshunoslik, huquqshunoslik va psixologiya bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatda nutqiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan davlatlarda bu yo‘nalish muayyan ilmiy maktabga aylangan bo‘lsa, O‘zbekistonda uning amaliy qo‘llanilish doirasi tobora kengaymoqda.







Shuningdek, matndagi leksik, grammatik, fonetik, sintaktik va punktuatsion vositalarning qo‘llanish darajasi, nutq birliklarining orfografik hamda orfoepik belgilarini farqlash, stilistik tabiatini izohlash, ulardagi individual nutqiy xususiyatlarni belgilash ham

lingvistik ekspertiza tadqiqotlarining ajralmas obyektlaridan hisoblanadi. Matndagi nutqiy birliklarning bunday ko‘lamli tahlili sud-huquq amaliyotida qadimdan mavjud bo‘lgan xatshunoslik (grafologik) ekspertizasidagi shakliy tadqiqotlarni yanada to‘ldiradi va aniqlik kiritadi. Xatshunoslik ekspertizasi, avvalo, yozma nutqqa xos grafik elementlarga tayanadi. Masalan, qo‘lyozma va bosma matnlarning farqlanishi; yozuv vositasining turi – gel ruchka, qalam, marker yoki siyohli ruchka bo‘lishi; yozuv yo‘nalishi – tik, yonboshlagan, yuqoriga qiya yoki pastga qiya shakllanishi; shuningdek harflarning grafik tuzilishi – yoysimon, burchaksimon yoki cho‘zinchoq shaklda bo‘lishi kabi belgilar matnning shakliy xususiyatlariga ko‘ra o‘rganiladi. Daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan matnlar shu asosda solishtiriladi va muallifga xos grafik odatlar aniqlanadi. Bu tahlil turi, mehr bilan aytganda, qo‘lyozma matnlar uchun alohida ahamiyatga ega. Ammo elektron bosma matnlarda bunday shakliy belgilar mavjud bo‘lmagani sababli xatshunoslik ekspertizasini ularning o‘zida qo‘llash imkoni bo‘lmaydi. Shu bois elektron matnlar ustida, avvalo, **lingvistik ekspertiza** o‘tkaziladi. Bunda matnning semantik, grammatik, fonetik, sintaktik, orfografik va punktuatsion jihatlari markaziy o‘rinni egallaydi. Har ikki ekspertiza turi o‘z vazifasiga ega bo‘lib, sud amaliyotida matnning tabiatiga qarab qaysi ekspertiza qo‘llanishi aniqlanadi.

Lingvistik ekspertizada, odatda, muammoli yoki anonim matnlardagi **umumiy** va **xususiy** belgilar farqlab olinadi. 1) Umumiy belgilar yozma nutqqa xos keng doiradagi til me’yorlari darajasini ifodalaydi va matn muallifining savodxonlik darajasi, lug‘at boyligi, uslubiy malakasi hamda imlo madaniyatini ko‘rsatadi. Bu belgilar quyidagi guruhlarga ajratiladi: orfografik; leksik-frazeologik; punktuatsion; grammatik; stilistik. Umumiy belgilar muallifning ma’lum ijtimoiy va intellektual tajribaga egaligi haqida dastlabki tasavvur shakllantiradi.

2) Xususiy belgilar esa muallifga xos individual nutqiy odatlarni namoyon qiladi. Bunga muntazam takrorlanadigan imloviy kamchiliklar, ma’lum bir so‘z turkumidan ortiqcha foydalanishdagi odatlar yoki til vositalarining o‘ziga xos qo‘llanilishi kiradi. Masalan, orfografik xususiy belgilar sifatida: ayrim qo‘shma so‘zlarning noto‘g‘ri yozilishi — *yurak urishi* (o‘rniga yurak-urishi), *tez-tezda* (tez-tez o‘rniga), *ko‘p martalab* (ko‘p-marta o‘rniga); yoki boshqa tillardan kirgan so‘zlarning xato shakllari — *progresiv* (progressiv o‘rniga), *kreativnost* (kreativlik o‘rniga) kabi holatlar misol bo‘la oladi. Leksik-frazeologik xususiy belgilar ham muallifning nutqiy portretini aniqlashda muhimdir. Masalan, shevaga oid so‘zlarni ortiqcha ishlatish: *tuproq* – yer, *do‘mbira* – motiv, *tita* – suyak kabi; jargonlardan foydalanish: *kod* – gap, *minusga tushmoq* – muvaffaqiyatsizlikka uchramoq; metaforik va okkazional birliklar qo‘llanilishi: *yuragi toshdek qattiq*, *fikrlar charxpalak kabi aylanmoqda* kabi ifodalar

individual uslubning belgisi hisoblanadi. Punktuatsion odatlar ham alohida ahamiyatga ega: masalan, vergullarni ortiqcha qo‘llash, nojoiz joyda ikki nuqta ishlatish, gaplarni haddan tashqari qisqa bo‘laklarga ajratish — bularning bari muallifning fikrlash uslubini ko‘rsatadi. Shuningdek, sintaktik xususiyatlar, orfoepik belgilar, stilistik elementlar ham xususiy belgilar sirasiga kiradi.

Bu barcha belgilar tilshunos-ekspert tomonidan izchil o‘rganilib, muallifning ijtimoiy-madaniy kelib chiqishi, savod darajasi, nutqiy portreti va individual xususiyatlari haqida xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Natijada, umumiy va xususiy jihatlar majmuasi muammoli matnning muallifini aniqlashda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning “taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli prezident farmoni.
2. Gibbons J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. Oxford: Blackwell, 2003.
3. McMenamin G. Forensic Stylistics. Elsevier, 2002.
4. Grant T. Author Identification in Forensic Linguistics. Routledge, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Jinoyat kodeksi”
6. To‘rayeva D.A.O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi:Filol. fan bo‘yicha fals.dokt. (PhD)...diss. –Qo‘qon, 2022. –137 b.
7. Yoqubova S. Lingvistik ekspertizada anonim xatlarning shaxs yoshiga xos xususiyatlarini aniqlash: Filol. fan bo‘yicha fals.dokt. (PhD)...diss. –Qo‘qon, 2023.
8. Hotamova G. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda ayollar nutqining xususiyatlari: Filol. fan bo‘yicha fals.dokt. (PhD)...diss. –Qo‘qon, 2023
9. Musulmonova K.X. O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari:Filol. fan bo‘yicha fals.dokt. (PhD)...diss. –Qo‘qon, 2022. –132 b.
10. Джеральд Р. МакМенамин (Gerald R. McMenamin).Forensic Stylistics (Судебная стилистика).1993 год, издательство Elsevier, Амстердам.Статья является частью журнала Forensic Science International, том 58
11.Tim Grand. The idea of progress in forensic authorship analysis. Cambridge University Press. 2022.

IJTIMOIY TARMOQLARDA MULOQOTNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Jumayeva Nozima Salohiddin qizi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Lingvistika:o‘zbek tili yo‘nalishi
2-bosqich magistratura talabasi
nozimajumaeva67@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshiriladigan muloqotning lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya muhitida tilning transformatsiyasi, diskursiv strategiyalar va pragmatik aspektlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada ijtimoiy tarmoqlar matnlarining strukturaviy, leksik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, interfaol muloqot shakllarining lingvistik tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalarida ijtimoiy media diskursining o‘ziga xos xususiyatlari, gipermadaniyatlilik, kod almashtirish va yangi til birliklarining paydo bo‘lish jarayonlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, internet-lingvistika, raqamli diskurs, kompyuterda vositachilikdagi muloqot, internet-kommunikatsiya.*

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические особенности коммуникации в социальных сетях. Рассматриваются трансформация языка, дискурсивные стратегии и прагматические аспекты в современной цифровой коммуникативной среде. В статье проведен анализ структурных, лексических и стилистических особенностей текстов социальных сетей, а также лингвистический анализ форм интерактивного общения. Результаты исследования выявили специфические характеристики дискурса социальных медиа, поликультурность, переключение кодов и процессы возникновения новых языковых единиц.

Ключевые слова: *социальные сети, интернет-лингвистика, цифровой дискурс, компьютерно-опосредованная коммуникация, интернет-коммуникация.*

Abstract. This article analyzes the linguistic features of communication in social networks. The transformation of language, discursive strategies and pragmatic aspects in the modern digital communication environment are examined. The article analyzes the structural, lexical and stylistic features of social network texts, as well as the linguistic analysis of

interactive communication forms. The research results revealed specific characteristics of social media discourse, multiculturalism, code-switching and the processes of emergence of new linguistic units.

Keywords: *social networks, internet linguistics, digital discourse, computer-mediated communication, internet communication.*

Zamonaviy axborot jamiyatining rivojlanishi bilan ijtimoiy tarmoqlar insonlarning kundalik hayotida muhim o‘rin egallagan kommunikativ maydonga aylandi. Facebook, Instagram, Twitter, Telegram va boshqa raqamli platformalar millionlab foydalanuvchilarni birlashtiruvchi virtual muloqot makonini shakllantirdi. Ushbu raqamli muhitda amalga oshiriladigan kommunikatsiya an'anaviy og‘zaki va yozma nutqdan sezilarli farq qiladigan o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Crystal [Crystal, 2011, 45 b.] ta'kidlaganidek, internet-kommunikatsiya "uchinchi tur" sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan yangi til shaklini vujudga keltirdi. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot nafaqat mazmun almashinuvi, balki yangi diskursiv amaliyotlar, til normalarining o‘zgarishi va kommunikativ strategiyalarning evolyutsiyasi jarayonidir.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda raqamli diskursning tahlili alohida ahamiyat kasb etmoqda. Baron [Baron, 2008, 162 b.] kompyuterda vositachilikdagi muloqotning leksik va sintaktik xususiyatlarini o‘rganib, ushbu muhitda til birliklarining yangi funksiyalar kasb etishini ko‘rsatdi. Ijtimoiy tarmoqlar kontekstida til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijtimoiy identifikatsiya, guruh a'zoligi va shaxsiy brendingning muhim instrumenti hisoblanadi. Matnlarning gipermatnli tabiati, multimedia elementlarning integratsiyasi va real vaqt rejimidagi muloqot an'anaviy lingvistik kategoriyalarni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Turkina va Usacheva [Туркина ва Усачева, 2015, 78 b.] rus tilidagi ijtimoiy tarmoqlar diskursini tahlil qilib, emotiv leksika va ekspressiv vositalarning yuqori darajada ishlatilishini qayd etdilar. Ushbu maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshiriladigan muloqotning asosiy lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish va raqamli kommunikatsiya muhitida tilning transformatsiya jarayonlarini aniqlashdan iborat.

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning eng muhim lingvistik xususiyatlaridan biri uning gibrid tabiatidir – bu yerda og‘zaki va yozma nutq elementlari o‘zaro uyg‘unlashadi. Herring [Herring, 2004, 26 b.] ta'kidlaganidek, kompyuterda vositachilikdagi muloqot "yozilgan og‘zaki nutq" deb tavsiflanishi mumkin. Foydalanuvchilar rasmiy yozma til normalarini buzgan holda, spontan, dialogik va shaxsiy xususiyatga ega matnlar yaratishadi. Bu jarayonda grafik vositalarning o‘ziga xos tizimi shakllangan: emotikonlar, emojilar, GIF-animatsiyalar va

boshqa vizual elementlar matnli xabarga emotsional rang berish va pragmatik ma'noni kuchaytirish uchun faol qo‘llaniladi. Ijtimoiy tarmoqlar diskursida punktuatsiya ham yangi funksiyalar kasb etdi – nuqta qo‘ymaslik samimiylik belgisi sifatida, ko‘p undov belgilarining ishlatilishi esa yuqori emotsional qo‘zg‘alishni ifodalaydi.

Leksik darajada ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiyasi doimiy innovatsiyalar bilan ajralib turadi. Yangi so‘zlar va iboralar tez sur'atda paydo bo‘lib, virusli tarqaladi va ba'zan standart tilga kirib boradi. Gretzel [Gretzel, 2007, 113 b.] turizm sohasidagi ijtimoiy media matnlarini tahlil qilib, foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentda evaluativ leksikaning ustuvorligini aniqladi. Kod almashtirish hodisasi ham keng tarqalgan – ko‘p tilli foydalanuvchilar bir matn doirasida turli tillardan so‘z va iboralarni qo‘llashadi. Bu ayniqsa, postsovet makonida rus va mahalliy tillarning aralashmasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Hashteglar ijtimoiy tarmoqlarga xos maxsus lingvistik birlik bo‘lib, ular matnni tematik jihatdan indekslash, axborot qidiruv va diskursiv jamoa yaratish funksiyalarini bajaradi. Zappavigna va Martin [Zappavigna, Martin, 2018, 274 b.] hashteglarni "meta-diskursiv belgilar" deb tavsiflab, ularning interpersonal va tekstual ma'no yaratishdagi rolini ko‘rsatdilar.

Sintaktik jihatdan ijtimoiy tarmoqlar matnlari qisqartilganlik va fragmentlashtirilganlik bilan xarakterlanadi. To‘liq grammatik tuzilmagan gaplar, ko‘pnuqta va chiziqcha orqali fikrning uzilishi, elliptik konstruksiyalar muntazam uchraydi. Bu hodisa qisman real vaqt rejimidagi muloqot tezligi bilan bog‘liq, qisman esa og‘zaki nutq xususiyatlarini taqlid qilish istagidan kelib chiqadi. Thurlow va Mroczek [Thurlow, Mroczek, 2011, 89 b.] raqamli diskursda "jazmlangan og‘zaki nutq" konsepsiyasini taklif etib, grammatik soddalikni kommunikativ samaradorlik strategiyasi sifatida ko‘rib chiqdilar. Gaplarning uzunligi odatda qisqa bo‘lib, murakkab ergash gapli konstruksiyalar kamdan-kam uchraydi, bu esa ekrandan o‘qish qulayligi va mobil qurilmalardan foydalanish bilan izohlanadi.

Diskursiv strategiyalar nuqtai nazaridan ijtimoiy tarmoqlar muloqoti o‘ziga xos matn tashkillashtirish tamoyillariga ega. Baron [Baron, 2008, 178 b.] ta'kidlaganidek, raqamli muhitda xabarlarning strukturasi ko‘pincha mosaikaviy xarakter kasb etadi – turli modal elementlar, giperhavola, mention va reply funksiyalari orqali bir nechta parallel va o‘zaro bog‘liq diskursiv oqimlar shakllanadi. Matnlarning gipermadaniyatli xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi: turli madaniyatlarga mansub foydalanuvchilar global platformalarda o‘zaro ta'sir qilishda, tillararo va madaniyatlararo kommunikativ strategiyalarni qo‘llashadi. Crystal [Crystal, 2011, 92 b.] bu jarayonni tillarning konvergensiyasi deb atab, internet-muhitda til chegaralarining nisbiyligini ta'kidlaydi. Shuningdek, intertekstuallik hodisasi – boshqa matnlarga, memlarra, virusli kontentga havola qilish va ularni qayta ishlash – ijtimoiy

tarmoqlar diskursining asosiy xususiyati bo‘lib, u foydalanuvchilarning madaniy kompetensiyasi va diskursiv jamoaga tegishliligini namoyon etadi. Zappavigna [Zappavigna, 2012, 156 b.] ijtimoiy tarmoqlarda matn yaratishni ijtimoiy amaliyot sifatida tahlil qilib, hashteglar va boshqa indexical elementlar orqali qanday qilib keng qamrovli diskursiv jamoalar shakllanishini ko‘rsatdi.

Pragmatik jihatdan ijtimoiy tarmoqlar muloqoti o‘ziga xos til etiketiga ega. Goffman nazariyasi asosida shakllangan "o‘zini taqdim etish" strategiyalari [Turkina, 2016, 93 b.] ijtimoiy tarmoqlarda alohida ahamiyat kasb etadi – foydalanuvchilar o‘z virtual imidjini yaratishda til vositalarini maqsadli ravishda tanlab olishadi. Xushmuomalalik strategiyalari ham o‘zgardi: rasmiy salomlashuvlar va xayrlashuvlar ko‘pincha emojilar bilan almashtiriladi yoki umuman tushirib qoldiriladi. Ironiya, kinoya va hazil ijtimoiy tarmoqlar diskursining ajralmas qismi bo‘lib, ko‘pincha kontekstga bog‘liq bo‘lgan yashirin ma'nolarni anglatadi. Yus [Yus, 2011, 207 b.] internet-ironiyasini tahlil qilib, uning aniqlanishi uchun kontekstual, ko‘p modal va madaniy bilimlarning zarurligini ta'kidladi. Adresatlarning ko‘pligi (mass auditoriya) muloqot strategiyalariga ta'sir qiladi – xabarlar ko‘pincha universal bo‘lishga yoki aksincha, ma'lum bir guruhga mo‘ljallangan maxsus kodlangan ma'nolarga ega bo‘lishga intiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda faollik darajasi va muloqot intensivligi foydalanuvchining ijtimoiy statusini belgilaydi, bu esa til tanloviga ham ta'sir ko‘rsatadi – faol foydalanuvchilar ko‘proq informal, innovatsion va trend-ga muvofiq til vositalarini qo‘llashga moyil bo‘lishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshiriladigan muloqotning lingvistik tahlili raqamli kommunikativ muhitda tilning chuqur transformatsiyaga uchrayotganini ko‘rsatadi. Og‘zaki va yozma nutq elementlarining sintezi, yangi grafik va leksik vositalarning paydo bo‘lishi, sintaktik soddalashish va pragmatik strategiyalarning o‘zgarishi ijtimoiy media diskursining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Bu jarayonlar tilning tabiiy evolyutsiyasi bo‘lib, zamonaviy texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvini aks ettiradi. Kod almashtirish, hashteglar, emojilar va boshqa raqamli tilga xos elementlar nafaqat kommunikativ samaradorlikni oshiradi, balki yangi ma'no yaratish va ijtimoiy identifikatsiya vositalariga aylanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar til rivojlanishining muhim laboratoriyasi bo‘lib, bu yerda til normlari tez o‘zgaradi, innovatsiyalar paydo bo‘ladi va sinov qilinadi. Kelajakda ushbu jarayonlarning chuqurroq tadqiqi, ayniqsa ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli kontekstlarda, lingvistika fani uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar diskursining xususiyatlarini tushunish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki til ta'limi, tarjima, marketing kommunikatsiyasi va raqamli savodxonlik kabi amaliy sohalarda ham qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baron N.S. Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford: Oxford University Press, 2008. 289 p.
2. Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. London: Routledge, 2011. 179 p.
3. Gretzel U. Online Travel Review Study: Role and Impact of Online Travel Reviews. Laboratory for Intelligent Systems in Tourism. Texas: A&M University, 2007. 145 p.
4. Herring S.C. Computer-Mediated Discourse Analysis: An Approach to Researching Online Behavior // Designing for Virtual Communities in the Service of Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2004. Pp. 338-376.
5. Thurlow C., Mroczek K. Digital Discourse: Language in the New Media. Oxford: Oxford University Press, 2011. 412 p.
6. Туркина Л.В. Языковая личность в пространстве социальных сетей // Вестник Челябинского государственного университета. 2016. № 4 (386). С. 91-96.
7. Туркина Л.В., Усачева А.Н. Особенности коммуникации в социальных сетях // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2015. № 4 (46). Ч. 2. С. 76-79.
8. Yus F. Cyberpragmatics: Internet-Mediated Communication in Context. Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2011. 350 p.
9. Zappavigna M. Searchable Talk: Hashtags and Social Media Metadiscourse. London: Bloomsbury Academic, 2012. 224 p.
10. Zappavigna M., Martin J.R. #Communing affiliation: Social tagging as a resource for aligning around values in social media // Discourse, Context and Media. 2018. Vol. 22. Pp. 271-280.

O‘ZBEK TILI DIPLOMATIK MATNLARNING TILI VA USLUB XUSUSIYATLARI

Umarova Shaxlo Amirullo qizi
Magistrant
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
shahlo1493@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilidagi diplomatik matnlarning leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlari ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Diplomatik matnlar rasmiy-uslubga mansub bo‘lib, ularning tilida betaraflik, neytrallik, ehtiyotkorlik hamda baholashning bilvosita ifodalanishi asosiy belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda diplomatik etikaga mos keladigan leksik birliklar, passiv konstruktsiyalar, nominalizatsiya, murakkab qo‘shma gaplar va bilvosita baholash vositalari misollar bilan yoritiladi. Natijada diplomatik matnlarning o‘ziga xos stilistik mexanizmlari va xalqaro muloqotdagi kommunikativ roli aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *diplomatik matn, rasmiy uslub, pragmatika, betaraflik, bilvosita baholash, nominalizatsiya, passiv konstruktsiya, diplomatik etika, leksik birliklar, kommunikativ funksiya.*

Annotation. The article presents a theoretical and linguistic analysis of the lexical, grammatical, and pragmatic features of diplomatic texts in the Uzbek language. Diplomatic texts belong to the official style and are characterized by neutrality, impartiality, cautious wording, and indirect evaluation. The study highlights the linguistic means that comply with diplomatic etiquette, such as passive constructions, nominalization, complex compound sentences, and indirect evaluative expressions, supported by examples. As a result, the article identifies the specific stylistic mechanisms of diplomatic discourse and emphasizes its communicative significance in international relations.

Keywords: *diplomatic text, official style, pragmatics, neutrality, indirect evaluation, nominalization, passive construction, diplomatic etiquette, lexical units, communicative function.*

Diplomatik matnlar xalqaro munosabatlarning eng muhim kommunikativ vositasi hisoblanadi. Davlatlararo muloqotda har bir so‘z, ibora va gapning o‘zi siyosiy va ijtimoiy ta’sirga ega bo‘lib, nozik vaziyatlarda noto‘g‘ri tanlangan til vositalari katta nizolar va tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli diplomatik matnlar lingvistik jihatdan juda qat’iy me’yorlarga bo‘ysunadi. Ular nafaqat axborot berish, balki murosaga

erishish, ziddiyatlarni yumshatish va davlatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish kabi funksiyalarni ham bajaradi [Rahmatullayev, 2006:141].

O‘zbek tilshunosligida diplomatik matnlar rasmiy-uslub doirasida o‘rganilib, uning asosiy belgilari sifatida rasmiylik, aniqlik, betaraflik, pragmatik ehtiyotkorlik ko‘rsatib o‘tilgan [Yo‘ldoshev, 2018:44]. Diplomatik matnlarning til va uslub xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning kommunikativ funksiyalarini aniqlash va ularni rasmiy-ijodiy faoliyatda qo‘llash amaliy ahamiyatga ega.

Diplomatik matnlar davlatlararo muloqot jarayonida yaratiladigan va rasmiy hujjat hamda nutq turlarini o‘z ichiga olgan kommunikativ birliklar majmuasidir. Ular davlatlar, hukumatlar, elchixonalar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek, diplomatik missiyalar va konsullik idoralari tomonidan ishlab chiqilib, rasmiy aloqalarda qo‘llaniladi. Diplomatik matnlarning mazmuniy doirasi keng bo‘lib, unda nota, memorandum, bayonot, deklaratsiya, protokol, bitim, press-reliz, qaror, deklaratsiya, yo‘riqnoma, deklarativ xatlar va boshqa rasmiy hujjat turlari kiradi. Bu matnlar faqat ma’lumot uzatish vositasi emas, balki davlatlararo siyosiy muloqotning asosiy vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Diplomatik matnlar kommunikativ vazifasi jihatdan boshqa turdagi matnlardan farq qiladi. Ular nafaqat axborot berish, balki murosaga erishish, ziddiyatlarni yumshatish, hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro siyosiy muhitni barqarorlashtirish kabi strategik maqsadlarni ham amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan diplomatik matnlar ijtimoiy hayotdagi eng mas’uliyatli nutq turlaridan biri hisoblanadi, chunki ularning har bir iborasi xalqaro munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa diplomatik matnlarni til jihatidan yuqori darajada tartiblangan va qat’iy me’yorlarga mos bo‘lishini talab qiladi. Shuning uchun har bir ibora, hatto eng kichik ta’rif va so‘z birikmasi ham siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda aniq ma’no kasb etadi [Rahmatullayev, 2006:141].

Chet tilshunosligida diplomatik diskurs ko‘pincha “yuqori darajadagi pragmatik nazorat ostidagi diskurs” sifatida tasniflanadi. Bu ta’rif diplomatik matnlarning faqat til tizimi bilan emas, balki ijtimoiy norma, madaniyat va siyosiy etiket asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Ya’ni diplomatik matnlar nafaqat ma’lum bir davlat tilining grammatik va leksik qoidalariga, balki xalqaro hamkorlik madaniyati, protokol qoidalari va diplomatik odob-axloq tamoyillariga ham tayanadi. Shu bois diplomatik matnlar ham mazmun, ham uslub jihatidan qat’iy tartibga ega bo‘lib, ularning tuzilishi va ifoda uslubi muayyan standartlarga mos kelishi shart.

Diplomatik matnlar mazmun jihatdan ko‘pincha “ikkinchi darajali” ma’no qatlamiga ega bo‘ladi. Ular ochiq ma’lumot berishdan tashqari, yashirin maqsad va subtekstni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan, bir nota orqali bildirilgan “qoniqarsizlik” asosan rasmiy tanqid

bo‘lib, uning ichida kelishuvga chaqiriq yoki ogohlantirish ham yashirin tarzda ifodalanishi mumkin. Shuning uchun diplomatik matnlarni tahlil qilishda nafaqat leksik-semantik, balki pragmatik, stilistik va diskurs tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Diplomatik matnlar rasmiy-uslubga mansub bo‘lib, ularning tilida aniq va tartibli ifoda, rasmiylik, neytral baho va betaraflik ustun bo‘ladi. Ularning asosiy vazifasi – davlatlararo muloqotni tartibga solish va siyosiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan nizolarni nazorat qilishdir. Shu sababli diplomatik matnlarning funksional-uslubiy xususiyatlari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Axborot berish. Diplomatik matnlar, avvalo, faktlar, qarorlar, kelishuvlar, rasmiy pozitsiyalar, o‘zaro kelishuvlar va muayyan holatlarning rasmiy bayoni sifatida xizmat qiladi. Bu funksiyada matnning asosiy vazifasi – ma’lumotni aniq, ishonchli va tushunarli shaklda yetkazishdir.

Ta’sir o‘tkazish. Diplomatik matnlar ko‘pincha murosaga chaqirish, ogohlantirish, munosabat bildirish yoki kelishuv tomonlarini bir fikrga keltirish kabi ta’sir vazifasini ham bajaradi. Bu vazifa doimo ochiq tarzda emas, balki rasmiy va ehtiyotkorona ifodalanadi. Masalan, nota yoki bayonotda ishlatilgan “chuqur xavotir” yoki “jiddiy e’tiroz” kabi iboralar muayyan ta’sir kuchiga ega bo‘lib, diplomatik so‘zlashuvda noaniq bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin ularning ma’nosi kontekstdan kelib chiqib aniq anglanadi.

Baho berish.Diplomatik matnlar davlatning pozitsiyasini, munosabatini yoki bahosini ifodalaydi. Bu baho ko‘pincha neytral, ehtiyotkor va qisman yashirin shaklda ifodalanadi. Bunda tanqid, qoniqarsizlik, xavotir, e’tiroz yoki umid kabi his-tuyg‘ular rasmiy tilda “yumshatilgan” shaklda beriladi. Masalan, “biz bu holatdan chuqur xavotirdamiz” yoki “bizning nuqtai nazarimizni hisobga olishni so‘raymiz” kabi iboralar diplomatik baho berishning tipik namunalaridir.

Munosabatni tartibga solish. Diplomatik matnlar xalqaro huquqiy normalar, protokol qoidalari, shartnomalar va xalqaro odatlar asosida davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Ular orqali davlatlar o‘zaro majburiyatlar, huquq va mas’uliyatlarni aniqlaydi, kelishuvlar va shartnomalarni rasmiylashtiradi. Bu funksiyada matnning rasmiy-uslubiy tarkibi ham muhim rol o‘ynaydi, chunki hujjatning yuridik kuchi va ishonchliligi tilning aniq, tartibli va noaniqliksiz ifodasiga bog‘liq.

Diplomatik matnlarning asosiy tamoyili – tilning ehtiyotkorlik bilan tanlanishi hisoblanadi. Diplomatik nutqda har bir so‘z, ibora va jumla maxsus maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu tamoyil Sh. Rahmatullayev tomonidan ham qayd etilgan: diplomatik nutq til

vositalarining ehtiyotkorlik bilan tanlanishi va baholashning yashirin shaklda ifodalanishi bilan ajralib turadi [Rahmatullayev, 2006:141].

Demak, diplomatik matnlar o‘ziga xos stilistik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning tili rasmiy, neytral, noaniqlikdan holi bo‘lishi, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy ta’sirni minimal ravishda ifodalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu esa diplomatik matnlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishni dolzarb va murakkab ilmiy masala sifatiga ko‘taradi.

Diplomatik matnlarning leksik tarkibi o‘ziga xos aniqlik va tartibga ega bo‘lib, u ko‘pincha rasmiy, huquqiy, siyosiy va diplomatik terminologik birliklar orqali ifodalanadi. Bu matnlar kommunikativ vazifasi jihatdan yuqori darajada mas’uliyatli bo‘lgani uchun ularning leksikasi ham qat’iy me’yorlar asosida tanlanadi. Diplomatik matnlarda ishlatiladigan so‘zlar nafaqat ma’no jihatdan aniq, balki siyosiy kontekstda ham izchil bo‘lishi lozim.

Diplomatik matnlarning leksikasi quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1.Terminologik birliklar – diplomatik hujjat va jarayonlarni nomlaydigan maxsus so‘zlar va iboralar. Masalan: *nota, memorandum, deklaratsiya, protokol, bitim, kelishuv, konsullik, elchixona, vakolatnoma* va h.k. Bu terminlar diplomatik muloqotning rasmiy leksikasini tashkil etadi va matnning hujjat maqomini mustahkamlaydi.

2.Rasmiy leksika – diplomatik jarayonlar, huquqiy munosabatlar va davlatlararo aloqalarni ifodalovchi umumiy rasmiy so‘zlar. Masalan: *tomonlar, taraflar, shartnoma, kelishuv, muzokara, majburiyat, hamkorlik, bitim, majlis, deklaratsiya*. Ushbu leksika diplomatik matnning uslubiy qiyofasini belgilaydi va uning rasmiylik darajasini oshiradi.

3.Bilvosita baho beruvchi leksika – diplomatik nutqda baho berish ko‘pincha ochiq tanqid sifatida emas, balki yumshoq, bilvosita shaklda ifodalanadi. Bunday leksik birliklar orqali diplomatik subyektlar o‘z munosabatini bildiradi. Masalan: *tashvish, e’tiroz, qoniqarsizlik, noqulaylik, xavotir, shubha, muammo, muammoli holat*. Bu so‘zlar tanqidiy mazmunni bevosita aytmasdan, diplomatik etikaga mos ravishda ifodalaydi.

4.Ijobiy leksika – diplomatik matnlarda hamkorlik va konstruktiv munosabatlarni ta’kidlash uchun ishlatiladigan so‘zlar. Masalan: *hamkorlik, o‘zaro manfaat, konstruktiv dialog, do‘stona munosabatlar, barqarorlik, umumiy manfaat*. Bu leksika diplomatik matnning ijobiy va tinchlikparvar yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, diplomatik matnlarda leksik xususiyatlarning yana bir muhim jihati – nominalizatsiya (fe’lni otga aylantirish) orqali matnning rasmiylashishi va obyektivlik darajasining oshishi hisoblanadi. Nominalizatsiya orqali harakat yoki jarayon abstrakt holat sifatida ifodalanadi va matnning hujjatlik tabiati kuchayadi. Masalan, *“muzokaralar o‘tkazildi”* o‘rniga *“muzokaralar o‘tkazilishi”* yoki *“muzokaralar o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda”* kabi

nominal shakl ishlatiladi. Bu usul matnga rasmiylik, neytrallik va obyektivlikni beradi hamda hujjatning uslubiy qoidalariga mos keladi [Hojiyev, 2002:112].

Diplomatik matnlarda baho berish ko‘pincha bilvosita, yumshoq va ehtiyotkorona tarzda ifodalanadi. Bu diplomatik etikaga hamda xalqaro siyosiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Diplomatik nutqda ochiq tanqid, haqorat yoki tajovuzdan foydalanish, odatda, munosabatlarni buzishi va diplomatik aloqalarni keskinlashtirishi mumkin. Shu sababli diplomatik matn mualliflari baho berish jarayonida yumshoq iboralar, modallik (shartli shakllar), bilvosita konstruktsiyalar va e’tiborli leksik birliklardan foydalanadi.
Diplomatik matnlarda baho berishning bilvosita ifodalanishi quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

Yumshoq iboralar va eufemizm: tanqid yoki e’tiroz “yumshatilgan” shaklda beriladi. Masalan, *“tashvish bilan qabul qilamiz”*, *“muammo e’tiborga olinishi lozim”* kabi iboralar diplomatik nutqning nozikligini saqlaydi.

Modallik va shartli shakllar: muallif o‘z fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmasdan, ehtimollik yoki shart bilan ifodalaydi. Masalan, *“ba’zi qarorlar noqulay vaziyat tug‘dirishi mumkin”*.

Bilvosita konstruksiyalar: baho bevosita aytilmay, voqea-holatning holatini tasvirlash orqali amalga oshiriladi. Bu usul orqali diplomatik matnlar konfliktni oldini oladi va muloqotni davom ettirish imkoniyatini saqlaydi.

Shu tarzda diplomatik matnlarda baho berish usullari nafaqat lingvistik, balki pragmatik jihatdan ham ahamiyatlidir. Chunki baholashning bilvosita ifodalanishi orqali diplomatlar o‘z davlatining pozitsiyasini saqlab qoladi, shuningdek, muloqotning tinch va konstruktiv tarzda davom etishini ta’minlaydi [Yo‘ldoshev, 2018:67].

Diplomatik matnlar sintaktik jihatdan murakkab va tartibli tuzilishga ega bo‘lib, ularning sintaksisi ko‘pincha yuqori darajada rasmiylik va ob’ektivlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Diplomatik matnlarda gaplar ko‘pincha bir nechta qismdan iborat bo‘lib, ularning har biri ma’lum bir kommunikativ funksiyani bajaradi. Shuning uchun diplomatik matnlarning sintaktik strukturasida quyidagi asosiy xususiyatlar ajralib turadi:

Ko‘p bosqichli qo‘shma gaplar. Diplomatik matnlarda bir nechta qo‘shma bo‘laklardan tashkil topgan murakkab gaplar ko‘p uchraydi. Bu turdagi tuzilmalar voqea-hodisalarning sabab-oqibat, shart-sharoit va natija munosabatlarini bir jumlada ifodalash imkonini beradi. Masalan, “Aloqa davomida ikki tomon ham kelishuvga erishishga tayyor ekanligini bildirgan, shuningdek, kelgusida hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro manfaatlarni ta’kidlagan”.

Passiv konstruktsiyalar. Diplomatik matnlarda passiv tuzilmalar keng qo‘llaniladi, chunki ular harakat egasini yashirib, matnni betaraf va obyektiv qiladi. Passiv konstruktsiyalar

orqali ayblov yoki tanqid “qaysi tomon tomonidan” amalga oshirilayotgani aniq ko‘rinmasligi sababli, diplomatik muloqotda nizolarni kuchaytirmaslikka xizmat qiladi. Masalan, “masala muhokama qilindi”, “qaror qabul qilindi” kabi iboralar orqali harakatning aniqligini saqlagan holda, harakat egasi yashiriladi [Hojiyev, 2002:112].

Nominalizatsiya – fe’l ma’nosini ot yoki ot birikmasi orqali ifodalash bo‘lib, diplomatik matnlarda rasmiylik va obyektivlikni oshiradi. Nominalizatsiya natijasida matn abstrakt, umumiy va hujjatga mos bo‘lib qoladi. Masalan, “muzokaralar o‘tkazildi” o‘rniga “muzokaralar o‘tkazilishi” yoki “muzokaralar jarayoni” kabi nominal shakllar ishlatiladi. Bu usul matnni yanada rasmiy va hujjatga mos qiladi.

Modallik.Diplomatik matnlarda modallik (zarur, mumkin, lozim, maqsadga muvofiq) keng qo‘llaniladi. Modallik vositalari orqali muallif o‘z fikrini bevosita aytmasdan, ehtimollik, zarurat yoki tavsiya sifatida ifodalaydi. Bu esa diplomatik nutqning nozikligi va ehtiyotkorligini ta’minlaydi. Masalan, “muammo e’tiborga olinishi lozim”, “kelishuvlar imzolanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi” kabi iboralar diplomatik matnning modallik xususiyatini ko‘rsatadi.

Shu tarzda, diplomatik matnlarning sintaktik tuzilishi ularning kommunikativ maqsadiga to‘liq mos keladi. Murakkab qo‘shma gaplar, passiv konstruktsiyalar, nominalizatsiya va modallik orqali matnning rasmiyligi, ob’ektivligi va betarafligi ta’minlanadi. Bu esa diplomatik matnlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishni muhim va dolzarb qiladi.

Diplomatik matnlarda grammatik vositalar faqat sintaktik tuzilmani shakllantirib qolmay, balki kommunikativ vazifani ham bajaradi. Nominalizatsiya, passiv konstruktsiyalar va murakkab qo‘shma gaplar matnning rasmiy, hujjatga mos va obyektiv bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, diplomatik matnlar ko‘pincha sabab-oqibat, shart-sharoit va maqsadni ifodalovchi murakkab sintaktik tuzilmalarga ega bo‘ladi. Bu esa matnning mantiqiy izchilligini oshiradi va voqealarni aniq ketma-ketlikda bayon etishga imkon beradi.

Masalan, “A va B davlatlari o‘rtasida muzokaralar olib borildi, natijada tomonlar kelishuvga erishdi va kelgusida hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha qo‘shma ishchi guruh tuzishga qaror qildi” kabi jumlalar orqali bir nechta voqea ketma-ketligi bir jumlada bayon qilinadi. Bu esa diplomatik matnning aniq, tartibli va hujjatga mos bo‘lishini ta’minlaydi.

Diplomatik matnlar kommunikativ vaziyatga qarab turli pragmatik funksiyalarni bajaradi. Ular nafaqat ma’lumot uzatadi, balki xalqaro munosabatlarni tartibga solish, ziddiyatlarni yumshatish va murosaga erishish kabi strategik maqsadlarni ham amalga oshiradi. Diplomatik matnlarning pragmatik vazifalari quyidagilardan iborat:

Murosaga chaqirish – tomonlarni bir fikrga kelishga, kelishuv tomonlarini topishga undash.

Ogohlantirish – muayyan harakatlar yoki vaziyatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar haqida rasmiy ogohlantirish.

Tashvish bildirish – voqea-holatga nisbatan rasmiy tashvish yoki xavotirni ifodalash.

Baho berish – davlatning pozitsiyasini, e’tirozini yoki qoniqarsizligini rasmiy tarzda bildirish.

Hamkorlikni mustahkamlash – o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish va do‘stona aloqalarni mustahkamlash.

Diplomatik matnlar pragmatik jihatdan xulosa chiqarishga, voqeani yumshatishga va ziddiyatni kamaytirishga yo‘naltiriladi. Bu esa matnning leksik va grammatik tarkibida aniq ko‘rinadi. Masalan, diplomatik matnlarda tanqid “qoniqarsizlik” yoki “tashvish” kabi yumshoq leksika orqali ifodalanadi, shuningdek, passiv konstruktsiyalar orqali harakat egasi yashiriladi. Bu usullar orqali diplomatik nutq o‘zining kommunikativ maqsadini amalga oshiradi.

Diplomatik matnlar o‘zida “diplomatik etika”ni aks ettiradi. Diplomatik etika – bu muloqot jarayonida hurmat, betaraflik, adolat va tinchlik tamoyillariga rioya qilishdir. Shu sababli diplomatik matnlarda keskin baho, haqorat, tahqirlash kabi unsurlar kam uchraydi. Diplomatik etika, avvalo, davlatlararo munosabatlarning barqarorligini saqlashga qaratilgan. U muloqot ishtirokchilarini o‘zaro hurmat, diplomatik odob-axloq va huquqiy normalarga rioya qilishga majbur qiladi.

Diplomatik matnlar muallifi odatda o‘z fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita, yumshoq shaklda ifodalaydi. Bu esa diplomatik muloqotning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u xalqaro munosabatlarni saqlashga xizmat qiladi. Chet tilshunosligida diplomatik diskurs “yuqori darajadagi pragmatik nazorat ostidagi diskurs” deb tasniflanadi, bu esa diplomatik matnlarning nafaqat til, balki ijtimoiy norma va madaniyat asosida shakllanishini ko‘rsatadi [Fairclough, 2015:92].

Shunday qilib, diplomatik matnlarning pragmatik va kommunikativ xususiyatlari ularning tilini nafaqat rasmiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham o‘ziga xos qiladi. Diplomatik matnlarni tahlil qilishda pragmatik nuqtai nazar eng muhim omillardan biri hisoblanadi, chunki u matnning maqsadi, niyati va ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Amaliy tahlil (misollar)

1. Misol 1: Bayonot

“Tomonlar o‘rtasida hamkorlikning yanada mustahkamlanishi bo‘yicha muzokaralar davom etmoqda. Ikkala tomon ham o‘zaro manfaatlar asosida kelishuvga erishish imkoniyatlarini ko‘rib chiqmoqda.”

Tahlil: Bu bayonotda rasmiylik, betaraflik va konstruktivlik ustun. “Muzokaralar davom etmoqda” — voqeani neytral tarzda ifodalaydi. “O‘zaro manfaatlar” iborasi diplomatik muloqotning muhim leksik birligidir.

2. Misol 2: Nota

“Qabul qilingan qarorlar mamlakatimiz manfaatlariga zid bo‘lishi mumkinligi sababli, ushbu masala bo‘yicha qo‘shimcha maslahatlashuvlar zarur.”

Tahlil: Bu nota bilvosita tanqidni o‘z ichiga oladi. “Manfaatlarga zid bo‘lishi mumkinligi” — bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ayblash emas, balki yumshatilgan ogohlantirish.

3. Misol 3: Press-reliz.

“Xalqaro hamkorlik doirasida yangi yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Ushbu hujjat ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.”

Tahlil:Press-relizda ijobiy baho, hamkorlik, kelishuv kabi leksik birliklar ko‘p uchraydi. Bu matnni konstruktiv va ishonchli qiladi.

4. Misol 4: Deklaratsiya

“Davlatlar o‘rtasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida, barcha masalalar xalqaro huquq normalari asosida hal qilinishi zarur.”

Tahlil:Bu deklaratsiyada modallik (“zarur”) va umumiy tamoyillar (xalqaro huquq) asosiy rol o‘ynaydi. Matnning pragmatik vazifasi — hamkorlik va tinchlikni ta’minlashga chaqirish.

Xulosa

Maqolada o‘zbek tili diplomatik matnlarining til va uslub xususiyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Diplomatik matnlar rasmiy-uslubga mansub bo‘lib, leksik, grammatik va pragmatik xususiyatlarga ega. Ularning leksik tarkibi rasmiy va huquqiy terminlardan iborat bo‘lib, baho ko‘pincha bilvosita ifodalanadi.

Grammatik jihatdan passiv konstruktsiyalar, nominalizatsiya, murakkab qo‘shma gaplar keng qo‘llaniladi. Pragmatik nuqtai nazardan diplomatik matnlar ziddiyatni yumshatish, murosaga chaqirish va hamkorlikni mustahkamlash vazifalarini bajaradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, diplomatik matnlarning lingvistik xususiyatlari ularning kommunikativ maqsadlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, til vositalarining tanlanishi davlatlararo muloqotning muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Shu sababli diplomatik matnlarni tahlil qilish o‘zbek tilshunosligi va xalqaro kommunikatsiya sohasida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining funksional uslublari. Toshkent, 2006.
2. Yo‘ldoshev M. Matn lingvistikasi. Toshkent, 2018.
3. Yo‘ldoshev M. Rasmiy-uslubiy nutq tahlili. Toshkent, 2019.
4. Mahmudov N. Til va tafakkur masalalari. Toshkent, 2020.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2002.
6. Rasulov R. Rasmiy nutq va uning lingvistik xususiyatlari. Toshkent, 2017.
7. Begmatov E. Nutq madaniyati va uslub masalalari. Toshkent: Fan, 2013.
8. Fairclough N. Language and Power. London, 2015.
9. van Dijk T. Discourse and Power. London, 2011.
10. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. Cambridge, 1983.
11. Leech G. Principles of Pragmatics. London, 1983.
12. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford, 2008.
13. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. London, 1978.
14. Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford, 1962.
15. Searle J.R. Speech Acts. Cambridge, 1969.
16. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. Toshkent, 2007.
17. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. Toshkent, 2013.
18. “Diplomatik etik” mavzusi bo‘yicha xalqaro maqolalar (Internet manba): https://kh-davron.uz/
19. Z.X. Mirzaev. Diplomatik til va uning xususiyatlari. Toshkent, 2018.
20. K. Ibragimov. Rasmiy uslubda matn yaratish texnologiyasi. Toshke

NERGA OID ASOSIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Xoljurayeva Yulduz Sobir qizi
2-bosqich magistranti
O‘zMU Kompyuter lingvistikasi
abdirahimovayulduz4@gmail.com
ORCID-0009-0008-8120-8239

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan nomlangan obyektlarni aniqlash (Named Entity Recognition — NER) tizimlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida NER modellarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ko‘rib chiqilib, lug‘atga asoslangan, qoidaviy, statistik hamda chuqur o‘rganishga tayanuvchi yondashuvlarning ishlash mexanizmlari yoritiladi. Har bir yondashuvning afzalliklari va cheklovlari mavjud ilmiy adabiyotlar asosida tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: *NER, tabiiy tilni qayta ishlash, NER modellar, qoidaga asoslangan tizim, statistik yondashuv, chuqur o‘rganish, transformer modellar, BERT, CRF.*

Annotation: This article examines Named Entity Recognition (NER) systems as one of the key research directions in the field of Natural Language Processing (NLP). The study reviews the main stages in the development of NER and discusses dictionary-based, rule-based, statistical, and deep learning approaches, with particular attention to their operating principles, strengths, and limitations.

Keywords: *NER, Natural Language Processing, NER models, rule-based system, statistical approach, deep learning, transformer models, BERT, CRF.*

So‘nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash sohasida matnlarni avtomatik tahlil qilish masalalari, xususan, nomlangan obyektlarni aniqlash (Named Entity Recognition — NER) vazifasi muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda [Nadeau & Sekine, 2007:3]. Ushbu texnologiya matn tarkibidan muayyan semantik toifalarga mansub birliklarni aniqlash hamda ularni tegishli yorliqlar bilan belgilashni nazarda tutadi [Yadav & Bethard, 2018:2]. Insonni o‘rab turgan real voqelikdagi har bir geografik yoki ijtimoiy obyekt muayyan nom bilan ifodalanadi va aynan shu nom obyektlarni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi [Hakimov, 2016:15]. Shu sababli til tizimida ko‘plab leksik birliklar vaqt o‘tishi bilan nomlash funksiyasini bajaruvchi atoqli otlarga aylangan. Biroq kundalik nutqda uchraydigan “kutubxona”, “maktab”, “bog‘cha” kabi so‘zlar obyektni bildirsa-da, ular umumiy tushunchani

ifodalovchi turdosh otlar (appellyativlar) hisoblanadi va muayyan individual nom vazifasini bajarmaydi [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006:28]. Turdosh va atoqli otlar o‘rtasidagi asosiy farq ularning nomlash xususiyatida namoyon bo‘ladi. Atoqli otlar konkret obyektni bevosita nomlaydi, turdosh otlar esa umumiy tushunchani bildiradi. Shu ma’noda nomlangan va nomlanmagan obyektlar semantik kengayish hamda qayta nomlanish jarayonlari orqali farqlanadi [Mengliev va boshq., 2024:4]. Named Entity (NE) tushunchasi ot so‘z turkumi doirasida aniqlangan va muayyan obyektni nomlash funksiyasini bajaruvchi leksik birliklarni, ya’ni atoqli otlarni qamrab oladi.

Nomlangan obyektlarni avtomatik tarzda aniqlashga qaratilgan jarayon esa Named Entity Recognition (NER) deb ataladi va u matndagi barcha nomli birliklarni aniqlash hamda tasniflashni o‘z ichiga oladi [Keraghel et al., 2024:6]. NER texnologiyasi bugungi kunda tabiiy tilni qayta ishlashning axborot izlash, matnlarni tasniflash, mashinaviy tarjima va bilimlar bazasini shakllantirish kabi ko‘plab yo‘nalishlarida keng qo‘llanilmoqda [Salman et al., 2021:9]. NER tizimlarining samaradorligi bevosita qo‘llanilayotgan model va yondashuv turiga bog‘liq bo‘lib, ularning shakllanish jarayoni an’anaviy lingvistik qoidalardan boshlab, zamonaviy chuqur o‘rganish va transformer arxitekturasiga asoslangan metodlargacha bo‘lgan bosqichlarni qamrab oladi [Yadav & Bethard, 2018:1]. Nadeau va Sekine o‘z tadqiqotlarida NER jarayoni faqat nomlarni aniqlash bilan cheklanmasdan, balki ularni kontekst asosida to‘g‘ri tasniflash orqali matn mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi muhim bosqich ekanini ta’kidlaydi [Nadeau & Sekine, 2007:4].

Named Entity Recognition (NER) modellarining rivojlanishi tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu modellar yordamida turli matnlardan shaxs ismlari, geografik obyektlar, tashkilot nomlari, sana, miqdor va boshqa maxsus semantik birliklar avtomatik aniqlanadi [Keraghel et al., 2024:2]. NER tizimlarining aniqlik va barqarorligi esa tanlangan algoritm hamda yondashuvlarga bevosita bog‘liqdir [Salman et al., 2021:5]. Adveyt Datan o‘z tadqiqotida amaliyotda eng keng qo‘llaniladigan NER tizimlarini uchta asosiy guruhga ajratadi.

Birinchi guruh — lug‘atga asoslangan NER tizimlari (Dictionary-based systems) bo‘lib, bunda oldindan tuzilgan lug‘atlar yordamida matndagi so‘zlar lug‘at elementlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslanadi. Ushbu yondashuv sodda va tezkor bo‘lsa-da, lug‘atni doimiy ravishda yangilab borish zarurati uning asosiy kamchiligi hisoblanadi.

Ikkinchi guruhni qoidaga asoslangan (Rule-Based) NER modellar tashkil etadi. Bu yondashuv lingvistik qoidalar, leksik shablonlar va oldindan belgilangan lug‘atlarga tayangan holda nomlangan obyektlarni aniqlashni amalga oshiradi. Qoidaviy modellar morfologik,

sintaktik va semantik belgilar yordamida shaxs, joy, tashkilot, sana yoki raqam kabi entitetlarni ajratib ko‘rsatadi [Nadeau & Sekine, 2007:6]. Ushbu yondashuv NER tizimlarining dastlabki bosqichlarida keng qo‘llanilgan bo‘lib, tilshunoslikka asoslangan tahlil orqali nomlangan birliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Qoidaga asoslangan NER tizimlari nomlangan obyektlarni aniqlashda regulyar ifodalar (Regular Expressions — Regex), leksik shablonlar (patterns) va lug‘atlarga tayangan moslik mexanizmlaridan foydalanadi [Nadeau & Sekine, 2007:7]. Bunday tizimlarda har bir entitet turi uchun alohida qoidalar yoki shablonlar majmuasi ishlab chiqiladi. Masalan, shaxs nomlarini aniqlashda “janob”, “xonim”, “professor”, “doktor” kabi indikator birliklar muhim signal vazifasini bajaradi. Geografik obyektlarni aniqlashda esa “shahrida”, “viloyatida”, “ko‘chasida” kabi lokativ birliklar asosida tegishli entitetlar ajratiladi [Adwait, 2024:6]. Qoidaviy yondashuv morfologik tahlilga tayanib, so‘z turkumlari, qo‘shimchalar, ot va sifat shakllarini aniqlash orqali ishlaydi. Shuningdek, sintaktik qoidalar yordamida so‘zlarning gap ichidagi o‘zaro bog‘liqligi hisobga olinadi. Natijada, tizim kontekstdan nisbatan mustaqil holda, oldindan belgilangan lingvistik belgilar asosida nomlangan obyektlarni aniqlaydi [Rachna Jain et al., 2020:3].

Qoidaga asoslangan NER modellarining bir qator afzalliklari mavjud. Avvalo, bunday tizimlar katta hajmdagi belgilangan ma’lumotlarni talab qilmaydi, ya’ni kam resurs sharoitida ham samarali ishlashi mumkin. Shuningdek, kichik hajmdagi yoki tor sohaga oid matnlarda, xususan tibbiyot va huquq kabi sohalarga xos terminologiyada yuqori aniqlik ko‘rsatadi. Qoidalar puxta ishlab chiqilgan taqdirda, tizim barqaror va aniq natijalarni taqdim etishi mumkin [Salman et al., 2021:4]. Biroq qoidaga asoslangan yondashuv bir qator muhim cheklovlarga ham ega. Eng avvalo, u moslashuvchanlik jihatidan zaif bo‘lib, har bir yangi til, domen yoki mavzu uchun qoidalarni qayta ishlab chiqishni talab qiladi. Bundan tashqari, bunday tizimlar kontekstni chuqur semantik darajada tahlil qila olmaydi va faqat oldindan belgilangan shablonlarga tayanadi. Qoidalar sonining ortishi esa katta hajmdagi matnlar bilan ishlashda tizim tezligining pasayishiga olib keladi [Nadeau & Sekine, 2007:9].

Shunga qaramay, qoidaga asoslangan NER modellar amaliyotda hanuzgacha keng qo‘llanilmoqda, chunki ular ma’lum turdagi matnlarda yuqori aniqlikka erisha oladi. Xususan, lug‘atga asoslangan (Dictionary-based) tizimlarda oldindan tuzilgan shaxs, joy, tashkilot, kasb yoki brend nomlari ro‘yxati — gazetteerlar yordamida entitetlar aniqlanadi. Masalan, “O‘zbekiston”, “BMT”, “Apple Inc.”, “Toshkent shahri” kabi birliklar lug‘atda mavjud yozuvlar asosida tezkor aniqlanadi [Keraghel et al., 2024:5]. Bunday tizimlarda ko‘pincha Aho–Corasick algoritmidan foydalaniladi, bu esa katta hajmdagi lug‘atlar bilan ham yuqori tezlikda moslikni aniqlash imkonini beradi [Adwait, 2024:7]. Bundan tashqari, regulyar

ifodalarga asoslangan yondashuvlar orqali ma’lum formatdagi sana, raqam, telefon raqamlari kabi ma’lumotlarni avtomatik aniqlash keng qo‘llaniladi.

Statistik yondashuvga asoslangan NER modellar (Machine Learning-based systems) nomlangan obyektlarni aniqlashda mashina o‘rganish usullariga tayangan holda ishlaydi. Ushbu modellar oldindan belgilangan (annotatsiyalangan) matnlar korpusi asosida o‘qitilib, keyinchalik yangi matnlardagi entitetlarni avtomatik aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi [Yadav & Bethard, 2018:2]. Statistik yondashuv lug‘at va qoidaga asoslangan tizimlarning asosiy cheklovlarini kamaytirib, kichik imlo xatoliklari va turli yozilish variantlarini ham aniqlash imkonini beradi.

Statistik NER modellarida Hidden Markov Model (HMM) entitetlarning ketma-ketlikdagi ehtimolliklarini hisoblash orqali aniqlashni amalga oshiradi. Conditional Random Fields (CRF) esa tokenlar o‘rtasidagi kontekstual bog‘liqlikni hisobga olib, ketma-ketlikni yaxlit holda belgilash imkonini beradi. Support Vector Machines (SVM) esa oldindan ajratilgan xususiyatlar asosida entitetlarni tasniflashda qo‘llaniladi [Rachna Jain et al., 2020:4]. Ushbu yondashuvning asosiy ustunligi shundaki, til qoidalarini qo‘lda yozish talab etilmaydi va model mavjud ma’lumotlardan avtomatik tarzda o‘rganadi.

Shu bilan birga, statistik yondashuvning samarali ishlashi katta hajmdagi belgilangan ma’lumotlar bazasini talab qiladi. Xususiyatlarni ajratish (feature engineering) jarayoni murakkab va vaqt talab qiluvchi bo‘lib, modelni yangi til yoki domenlarga moslashtirish jarayonida aniqlik darajasi pasayishi mumkin [Salman et al., 2021:6]. Umuman olganda, statistik yondashuv NER tizimlarining rivojlanishida muhim oraliq bosqich vazifasini bajargan va chuqur o‘rganish modellarining shakllanishi uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Chuqur o‘rganishga asoslangan NER modellar nomlovchi birliklarni aniqlash masalasini sun’iy neyron tarmoqlar (Neural Networks) yordamida yechishga qaratilgan zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Ushbu usul an’anaviy statistik modellar bilan solishtirilganda matn kontekstini chuqurroq anglash, murakkab bog‘lanishlarni o‘rganish va moslashuvchanlik jihatidan yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Chuqur o‘rganish modellarining asosiy ustunligi shundaki, ular matndagi yashirin naqshlarni avtomatik aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lib, qo‘lda xususiyatlar ajratishni deyarli talab qilmaydi. Amaliyotda keng qo‘llaniladigan chuqur o‘rganish modellaridan biri BiLSTM-CRF (Bidirectional Long Short-Term Memory + Conditional Random Fields) hisoblanadi. Ushbu model matndagi so‘zlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ikki yo‘nalishda — oldingi va keyingi kontekst asosida o‘rganadi hamda CRF

qatlami yordamida entitetlar ketma-ketligini optimal tarzda belgilaydi. Natijada entitetlarni aniqlash aniqligi sezilarli darajada oshadi.

So‘nggi yillarda transformer arxitekturasiga asoslangan modellar NER vazifalarida yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Jumladan, BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers), RoBERTa, XLNet, ELECTRA va mBERT kabi modellar ikki yo‘nalishli kontekstni hisobga olgan holda so‘zlarning semantik ma’nosini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ko‘pma’noli so‘zlarni kontekstga mos ravishda to‘g‘ri aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, BERT asosidagi NER modeli “Apple” so‘zining matndagi qo‘llanishiga qarab uni kompaniya yoki meva sifatida ajrata oladi. Bu esa qoida yoki statistik yondashuvlar uchun murakkab hisoblangan vazifalardan biridir.

Shuningdek, GPT va T5 kabi generativ modellar ham NER masalalarini hal etishda qo‘llanilishi mumkin. Ushbu modellar katta hajmdagi matnlar asosida oldindan o‘qitilgan bo‘lib, turli NLP vazifalarini, jumladan nomlovchi birliklarni aniqlashni ham bajarishga qodir. Ilgari NER tizimlari asosan qoida va xususiyatlarga tayangan bo‘lsa, hozirgi kunda LSTM, BiLSTM va CNN kabi chuqur neyron tarmoqlar bu jarayonni avtomatlashtirib, yuqori aniqlik ko‘rsatkichlarini ta’minlamoqda.

Chuqur o‘rganish yondashuvining asosiy afzalligi — modelning katta hajmdagi ma’lumotlar asosida mustaqil ravishda xususiyatlarni o‘rganishi va kontekstni to‘liq hisobga olishi bilan bog‘liq. Shu sababli bunday modellar ko‘p tilli va ko‘p domenli muhitlarda yuqori samaradorlik bilan ishlaydi. Biroq ushbu yondashuv ayrim kamchiliklardan ham holi emas. Jumladan, modellarni o‘qitish uchun katta hajmdagi belgilangan (annotatsiyalangan) ma’lumotlar, kuchli hisoblash resurslari va uzoq vaqt talab etiladi. Bundan tashqari, chuqur o‘rganish modellarining “qora quti” xususiyati sababli ularning qaror chiqarish mexanizmini izohlash qiyin hisoblanadi. Resurslar cheklangan tillar, xususan o‘zbek tili uchun, yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganda modellar samaradorligi pasayishi mumkin.

Umuman olganda, chuqur o‘rganishga asoslangan NER yondashuvi hozirgi kunda eng istiqbolli va samarali yo‘nalishlardan biri sanaladi. Ushbu yondashuv kelajakda kontekstga moslashuvchi, ko‘p tilli va izohlanadigan NER modellarini yaratishda asosiy poydevor vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, Salman Naseer rahbarligidagi tadqiqotchilar guruhi nomlovchi birliklarni aniqlashda uchta asosiy yondashuv — qoidaga asoslangan, o‘rganishga asoslangan va gibrid yondashuvlar samarali ekanligini ta’kidlaydi. Boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida esa NER tizimlarining yondashuvlari uchta asosiy guruhga ajratilgan.

Birinchidan, xususiyatlarga asoslangan usullar (Feature engineering-based methods) bo‘lib, ular qo‘lda belgilangan xususiyatlarga tayanadi. Bunga so‘z uzunligi, so‘z turkumi (POS tegi), katta harf bilan boshlanishi kabi belgilar kiradi. Ushbu toifaga HMM, CRF, SVM va Maximum Entropy kabi modellar misol bo‘la oladi.

Ikkinchidan, bilimga asoslangan usullar (Knowledge-based methods) bo‘lib, ular qoidalar, lug‘atlar, domen ontologiyalari va bilim bazalariga tayangan holda ishlaydi. Qoidaga asoslangan va lug‘atga asoslangan NER modellar ushbu guruhga kiradi.

Uchinchidan, chuqur o‘rganishga asoslangan usullar (Deep learning-based methods) bo‘lib, ular CNN, RNN hamda transformer arxitekturalari orqali o‘rganadi. Shuningdek, CNN va RNN yoki transformer va RNN kombinatsiyasiga asoslangan gibrid modellar ham ushbu toifaga mansub hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Nomlangan obyektlarni aniqlash (NER) tabiiy tilni qayta ishlashda muhim vazifa bo‘lib, matnlardan ma’lumotlarni avtomatik ajratish va turli sohalarda samarali qo‘llash imkonini beradi. Dastlab qoidaviy va statistik yondashuvlar ishlatilgan bo‘lsa, hozirgi kunda chuqur o‘rganish va transformer asosidagi modellar orqali yuqori aniqlik va kontekstni chuqur tushunish imkoniyati yaratilgan. Shu bilan birga, resurs cheklangan tillarda samarali va moslashuvchan gibrid modellar yaratish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, NER texnologiyasi NLP va sun’iy intellekt sohalarida matnlarni chuqur tahlil qilish va avtomatlashtirishda asosiy poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliev, D., Barakhnin, V., Abdurakhmonova, N., & Eshkulov, M. (2024). Developing named entity recognition algorithms for Uzbek: Dataset insights and implementation. Data in Brief, 54, 110413.

2. Abdurakhmonova, N. Z., Ismailov, A. S., & Mengliev, D. (2022, November). Developing NLP tool for linguistic analysis of turkic languages. In 2022 IEEE International Multi-Conference on Engineering, Computer and Information Sciences (SIBIRCON) (pp. 1790-1793). IEEE.

3. Abdurakhmonova, N., Alisher, I., & Toirova, G. (2022, September). Applying web crawler technologies for compiling parallel corpora as one stage of natural language processing. In 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK) (pp. 73-75). IEEE.

4. Adwait. “A Beginner’s Introduction to NER (Named Entity Recognition).” Analytics Vidhya, 20 Mar 2024. https://www.analyticsvidhya.com/blog/2021/11/a-beginners-introduction-to-ner-named-entity-recognition/
5. Hakimov Q. Toponimika. “Mumtoz so‘z” nashriyoti. Toshkent. 2016.
6. Keraghel I., Morbieu S., Nadif M. Recent Advances in Named Entity Recognition: A Comprehensive Survey and Comparative Study. arXiv preprint arXiv:2405.05328, 2024.
7. Nadeau D., & Sekine S. (2007). "A Survey of Named Entity Recognition and Classification."
8. Rachna Jain, Abhishek Sharma, Gouri Sankar Mishra, Parma Nand, and Sudeshna Chakraborty. Named Entity Recognition in English Text. Journal of Physics: Conference Series. 2020.
9. Salman N., Muhammad M., Sohaib A., Anam K., Shafique R., Ghulam M. Named Entity Recognition (NER) in NLP Techniques Tools Accuracy and Performance // Pakistan Journal of Multidisciplinary Research. 2021.
10. Yadav V., Bethard S. A Survey on Recent Advances in Named Entity Recognition from Deep Learning Models. // Proceedings of COLING. — 2018.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIDA RANG FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING NUTQIY - KOMMUNIKATIV VAZIFALARI

Shahriniso Sodiqova Abror qizi
O‘zbekiston, Toshkent shahri.
Toshkent davlat tibbiyot
akademiyasi ingliz tili o‘qituvchisi,
O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi
Sho‘basi- O‘zbek tilshunosligi va
tilshunoslikning nazariy masalalari
E-mail: shahrinisosodikova@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy o‘zbek tilida rang komponentli frazeologik birliklarning nutqiy-kommunikativ vazifalarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib,tadqiqotda rang frazeologizmlarining semantik qatlamlari, pragmatik xususiyatlari hamda og‘zaki va yozma nutqda bajaradigan kommunikativ rollari yoritiladi. Tahlillar natijalari zamonaviy badiiy, publitsistik va og‘zaki nutq materiallari asosida olib borildi.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, rang frazeologizmlari, og‘zaki nutq, pragmatika, semantika, nutqiy vazifa, kommunikativ ta’sir.*

This article investigates the communicative functions of phraseological units with color components in modern Uzbek discourse. The study focuses on the semantic structure and pragmatic characteristics of color-based phraseologisms, highlighting their role in shaping meaning and communicative intent in both spoken and written forms of language. The analysis is conducted on the basis of contemporary literary texts, journalistic materials, and samples of everyday spoken discourse. The findings demonstrate that color phraseologisms serve as effective linguistic tools for enhancing expressiveness, evaluation, and communicative impact in modern speech.

Keywords: *phraseology, color-based phraseological units, modern Uzbek discourse, pragmatics, semantics, communicative function, expressive language.*

Kirish

Zamonaviy o‘zbek tilida frazeologik birliklar nutqning obrazliligi, ta’sirchanligi va emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi muhim til vositalaridan biridir. Ayniqsa, rang komponenti ishtirok etgan frazeologik birliklar (*oq, qora, qizil, ko‘k, sariq va boshqalar)* milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar hamda kommunikativ ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Rang frazeologizmlari nafaqat predmet yoki hodisaning tashqi belgilarini, balki baho, munosabat va psixologik holatni ham ifodalaydi. Shu bois ularning nutqiy-kommunikativ vazifalarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Til bu-jamiyat tafakkuri va madaniyatining asosiy ko‘zgusi hisoblanadi. Frazeologik birliklar nafaqat tilni obrazli qilib ko‘rsatadi balki, milliy-madaniy ko‘rinishini o‘zida aks ettiradi. Ayniqsa, rang komponentli frazeologik birliklar xalq dunyoqarashi, psixologiyasi va estetik qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Hozirgi paytda tilshunoslikda frazeologik birliklarni faqat semantik xususiyatlarni emas, balki nutqiy-kommunikativ jihatdan o‘rganish tendensiyasi kuchaydi. Ushbu maqolada ham ana shu yondashuv asosida rang frazeologizmlarining nutqdagi vazifalarini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Rang frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari

Rang frazeologik birliklar semantik jihatdan ko‘p qatlamli bo‘lib, ular ko‘pincha ko‘chma ma’no asosida shakllanadi. Frazeologizmlar o‘z ma’nosini qisman yoki to‘liq yo‘qotib,yaxlit ma’no ifodalovchi turg‘un birikmadir.Masalan, *oq yo‘l* (ezgu tilak), *qora kun*(musibatli davr) kabi iboralar rangning bevosita ma’nosidan uzoqlashib, axloqiy, ruhiy yoki ijtimoiy holatni ifodalaydi.

Rang frazeologik birliklari ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, ijtimoiy baho va subyektiv munosabatni ifodalaydi. Masalan, *oq yo‘l, oq ko‘ngil* birikmalari ijobiy semantikani bildirsa, qora niyat, qora ish kabi frazeologizmlar salbiy ma’no yuklaydi. Bu holat ranglarning xalq ongida shakllangan ramziy talqini bilan izohlanadi [1].

Rang frazeologik birliklarining nutqiy-kommunikativ vazifalari

Rang frazeologik birliklarining asosiy nutqiy-kommunikativ vazifalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Emotsional-ekspressiv vazifa.

Rang frazeologizmlari nutqda hissiy ta’sir kuchini oshiradi. Masalan, qizil yuz bo‘lib ketmoq iborasi uyat va hayajon holatini kuchli ekspressiya bilan ifodalaydi. Bunday birliklar og‘zaki nutqda ayniqsa faol qo‘llanadi.

2. Baholovchi (aksiologik) vazifa.

Rang frazeologizmlari orqali shaxs, hodisa yoki holatga ijobiy yoki salbiy baho beriladi. Oq yuzli bo‘lmoq — ijobiy, qora yuz bo‘lmoq — salbiy bahoni ifodalaydi. Bu vazifa kommunikatsiyada muallif pozitsiyasini ochiq ko‘rsatishga xizmat qiladi [2].

3. Pragmativ (ta’sir o‘tkazish) vazifa.

Rang frazeologik birliklari tinglovchi yoki o‘quvchiga ma’lum bir ruhiy ta’sir o‘tkazishni ko‘zlaydi. Masalan, publitsistik nutqda qora kuchlar, oq niyatli insonlar kabi birikmalar orqali muayyan ijtimoiy qarash shakllantiriladi.

4. Stilistik vazifa.

Badiiy matnlarda rang frazeologizmlari obraz yaratish, qahramon xarakterini ochish va muallif uslubini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Abdulla Qodiriy asarlarida qora bulutday qoplandi kabi iboralar voqealarning keskinligini ifodalashga xizmat qiladi [3].

Zamonaviy nutqda rang frazeologizmlarining qo‘llanishi

Bugungi kunda rang frazeologik birliklar ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va og‘zaki muloqotda faol ishlatilmoqda. Ayrim frazeologizmlar yangi pragmatik ma’nolar kasb etib, zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashmoqda. Bu holat rang frazeologizmlarining dinamik va ochiq tizim ekanini ko‘rsatadi.Zamonaviy nutqda rang frazeologizmlari quyidagi kommunikativ vazifalarni bajaradi:



Masalan, ommaviy axborot vositalarida “qora ro‘yxat”, “oq sahifa ochmoq” kabi birikmalar keng qo‘llanib, axborotning tez va tushunarli yetkazilishiga xizmat qiladi.Hozirgi davr nutqida rang frazeologizmlari ko‘proq publitsistik va og‘zaki muloqotda faol ishlatilmoqda.

Ommaviy axborot vositalarida “qora ro‘yxat”, “oq yo‘l”, “qora kunlar” kabi birikmalar axborotni tez va tushunarli yetkazishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda esa bu frazeologizmlar nutqni qisqa, lekin ta’sirchan qilish uchun qo‘llaniladi. Rasmiy uslubda rang frazeologizmlarining qo‘llanishi cheklangan bo‘lsa-da, zamonaviy nutqning demokratlashuvi natijasida ular ayrim holatlarda rasmiy matnlarga ham kirib kelmoqda.

Kommunikativ vazifa	Ilmiy tavsif	Frazeologizm misoli	Nutqdagi ahamiyati
1. Ekspressivlikni kuchaytirish	Nutqqa hissiy bo‘yoq beradi	*ko‘ngli oq, qora yurak*	Nutqni jonli va ta’sirchan qiladi

2. Baholash vazifasi	Ijobiy yoki salbiy munosabatni bildiradi	*oq niyat, qora niyat*	Muallif pozitsiyasini ochib beradi
3. Pragmatik ta’sir	Tinglovchini ishontirish yoki ogohlantirish	*qora ro‘yxat*	Nutqiy ta’sirni kuchaytiradi
4. Ixchamlik	Murakkab mazmunni qisqa ifodalaydi	*oq sahifa ochmoq*	Fikrni lo‘nda yetkazadi

Yuqoridagi jadval asosida rangga oid frazeologizmlarning nutqdagi ahamiyati haqida qisqacha tushuntirish berib o‘tildi. Rang frazeologizmlari zamonaviy o‘zbek nutqida muhim kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ular nutqning emotsional-ekspressivligini oshiradi, baholovchi va pragmatik ma’noni kuchaytiradi hamda muloqot samaradorligini ta’minlaydi. Rang frazeologizmlarini kommunikativ-pragmatik jihatdan o‘rganish tilshunoslikda dolzarb masala bo‘lib, ularning zamonaviy nutqdagi o‘rni va funksiyasini chuqur tahlil qilish ilmiy ahamiyatga ega

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Zamonaviy o‘zbek tilida rang frazeologik birliklar muhim nutqiy-kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Ular emotsional-ekspressivlikni oshiradi, baholovchi munosabatni ifodalaydi, pragmatik ta’sir kuchiga ega hamda nutqning stilistik jihatdan boy bo‘lishini ta’minlaydi. Rang frazeologizmlarini chuqur o‘rganish nafaqat frazeologiya, balki pragmalingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 384 b.
2. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 256 b.
3. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semantikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2007. – 312 b.
4. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 180

5. Safarov Sh. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 220 b.
6. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 320 b.
7. Qodirov A. Nutq madaniyati va uslubiyat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 198 b.
8. Abdullayeva M. Frazeologik birliklarning stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2014. – 164 b.
9. Saidova D. Zamonaviy o‘zbek tilida baholovchi birliklar. – Toshkent: Fan, 2018. – 210 b.
10. Safarov Sh., Mahmudov N. Til va muloqot. – Toshkent: Fan, 2012. – 176 b.

SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA MA’NAVIY TA’LIMNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Abduvaliyeva Dildora Abulkasimovna
Guliston davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
(ma’naviyat asoslari) yo‘nalishi magistranti
Email: dildoraxon8686@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli davr va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida yoshlar ta’limi hamda ma’naviy tarbiyasida yuz berayotgan muhim o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Globallashuv va axborot oqimining tezlashuvi yoshlarning tafakkuri, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulqiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani asoslanadi. Tadqiqotda raqamli axborot makonining ta’lim jarayoniga ta’siri, ijtimoiy tarmoqlar va media muhit orqali shakllanayotgan raqamli madaniyatning ijobiy va salbiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini ma’naviy-ma’rifiy ta’lim jarayonlariga integratsiya qilish imkoniyatlari va u bilan bog‘liq axloqiy muammolar ko‘rib chiqiladi. Maqolada yoshlar ma’naviy immunitetini mustahkamlash, axborot madaniyatini rivojlantirish va raqamli davr sharoitida barqaror tarbiya modelini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, sun’iy intellekt, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy madaniyat, axborot makoni.

Abstract. This article examines key transformations in youth education and moral upbringing in the context of rapid digitalization and the growing influence of artificial intelligence technologies. It argues that globalization and accelerated information flows significantly affect young people’s cognition, value systems, and social behavior. The study analyzes the impact of the digital information environment on educational processes, highlighting both positive and negative aspects of digital culture shaped through social media and mass communication. Special attention is paid to the integration of artificial intelligence into moral and educational practices, as well as to the ethical challenges arising from this process. The article emphasizes the importance of strengthening moral resilience, developing information culture, and designing sustainable educational models that respond to the

demands of the digital era. Practical recommendations aimed at enhancing value-based education and youth development under contemporary digital conditions are proposed.

Keywords: digital education, artificial intelligence, youth upbringing, moral culture, information environment.

Zamonaviy globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida yoshlar jamiyatning eng faol, eng moslashuvchan va ayni paytda eng ta’sirchan ijtimoiy qatlami sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot oqimi tezlashuvi, sun’iy intellekt texnologiyalarining kundalik hayotga chuqur kirib borishi va raqamli muhitning ustuvorlik kasb etishi yoshlar tafakkurining shakllanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada yoshlarning bilish uslubi, dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori va qadriyatlar tizimi avvalgi avlodlardan sezilarli darajada farqlanib bormoqda.

Raqamli davrda sun’iy intellekt texnologiyalarining keng qo‘llanilishi inson kognitiv faoliyatining an’anaviy shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, yoshlar tafakkuri sun’iy intellekt asosidagi muhit bilan doimiy o‘zaro aloqada bo‘lib, bilish jarayonlari — idrok, diqqat, xotira, tafakkur va qaror qabul qilish mexanizmlarida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt endilikda faqat tashqi texnologik vosita emas, balki yoshlarning bilish muhitini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt asosidagi muhitda yoshlar axborotni ko‘pincha tayyor, saralangan va algoritmik tarzda taqdim etilgan shaklda qabul qilmoqda. Bu esa ularning kognitiv faoliyatida tezkorlik, ko‘p vazifalilik va vizuallikka tayanuvchi fikrlash usullarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, bunday muhitda chuqur tahlil, mantiqiy izchillik va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarining zaiflashish ehtimoli ham mavjud.

Raqamli davrda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivoji yoshlar tafakkurining kognitiv tuzilmasida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt endilikda nafaqat texnik yordamchi vosita, balki yoshlarning bilish muhiti, axborotni idrok etish usuli va fikrlash strategiyalarini belgilovchi muhim omilga aylanmoqda. Yoshlar ongida shakllanayotgan kognitiv jarayonlar sun’iy intellekt tomonidan tezlashtirilgan, saralangan va yo‘naltirilgan axborot oqimi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda.

Sun’iy intellekt asosidagi muhitda kognitiv jarayonlarning transformatsiyasi, avvalo, diqqat bilan bog‘liq mexanizmlarda namoyon bo‘ladi. Raqamli platformalar va algoritmik tavsiyalar yoshlar diqqatini uzluksiz ravishda chalg‘itib, uni qisqa vaqtli, tez almashuvchi va fragmentar shaklga keltirmoqda. Doimiy bildirishnomalar, real vaqt rejimidagi yangilanishlar va vizual stimullar diqqatni chuqur kontsentratsiyadan uzoqlashtiradi.

Natijada yoshlar uzoq matnlarni tahlil qilishdan ko‘ra, qisqa va tez iste’mol qilinadigan axborotga ko‘proq moyil bo‘lib bormoqda.

Diqqatning bunday fragmentarlashuvi tafakkurning izchilligi va mantiqiy chuqurligiga ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar ko‘pincha axborotni mazmunan tahlil qilishdan ko‘ra, sarlavha va vizual tasvirlar asosida tezkor xulosa chiqarishga o‘rganmoqda. Bu esa tafakkurda yuzaki idrok, tez baholash va emotsional reaksiya ustuvorligini kuchaytiradi. Natijada tanqidiy fikrlash va refleksiv mushohada qilish qobiliyatlari zaiflashishi mumkin.

Sun’iy intellekt muhitining kognitiv jarayonlarga ta’siri xotira faoliyatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yoshlar bilimni ichki xotirada saqlashdan ko‘ra, uni qayerdan va qanday topishni bilishga ko‘proq e’tibor qaratmoqda. Qidiruv tizimlari, sun’iy intellekt yordamchilari va raqamli arxivlar xotiraning funksional yukini o‘z zimmasiga olmoqda. Ushbu holat ilmiy adabiyotlarda “tashqi xotiraga delegatsiya” sifatida talqin qilinadi.

Bir tomondan, tashqi xotiraga tayanuvchanlik kognitiv yuklamani kamaytirib, tezkor axborot bilan ishlash imkonini beradi. Biroq ikkinchi tomondan, bu holat bilimlararo ichki bog‘lanishlar hosil qilish, tushunchalarni chuqur anglash va uzoq muddatli xotirani mustahkamlash jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yoshlar bilimni tizimli tarzda o‘zlashtirishdan ko‘ra, uni fragmentlar shaklida qabul qilishi kuzatiladi.

Sun’iy intellekt asosidagi muhitda tafakkur tobora tezkor va instrumental tus olmoqda. Algoritmlar tomonidan taqdim etilayotgan “tayyor javoblar” yoshlarni muammoni bosqichma-bosqich tahlil qilishdan ko‘ra, tezkor natijaga erishishga undaydi. Tafakkur jarayonida sabab–oqibat munosabatlarini chuqur anglash o‘rniga, funksional samaradorlik ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat globallashuv sharoitida fikrlashning “tez, ammo yuzaki” modelini shakllantirayotganini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellektning yana bir muhim ta’siri qaror qabul qilish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Tavsiya algoritmlari yoshlarning qaysi axborotni iste’mol qilishi, qaysi pozitsiyani qo‘llab-quvvatlashi va hatto qaysi qadriyatlarni muhim deb bilishini bilvosita shakllantirmoqda. Bunday sharoitda qaror qabul qilish jarayoni insoniy tanlovdan ko‘ra, algoritmik yo‘naltirishga ko‘proq tayana boshlaydi. Natijada mas’uliyat hissi va mustaqil baholash mexanizmlarining susayish xavfi yuzaga keladi.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi muhit yoshlar kognitiv rivoji uchun yangi imkoniyatlar ham yaratmoqda. Katta hajmdagi ma’lumotlarni tez tahlil qilish, murakkab muammolarni modellashtirish va global bilim resurslaridan foydalanish yoshlarning intellektual salohiyatini kengaytiradi. Muammo sun’iy intellektdan foydalanishning o‘zida

emas, balki uni ongli, tanqidiy va ma’naviy mezonlar asosida idrok etish darajasida ekanligi aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosidagi muhit yoshlar kognitiv jarayonlarini sifat jihatdan o‘zgartirmoqda. Diqqatning fragmentarlashuvi, xotiraning tashqi texnologiyalarga tayanishi, tafakkurning tezkor va instrumental tus olishi hamda qaror qabul qilishda algoritmik yo‘naltirishning kuchayishi ushbu jarayonning asosiy belgilaridir. Ushbu kognitiv transformatsiyalarni chuqur anglash keyingi bo‘limlarda yoshlar dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli davrda ijtimoiy tarmoqlar va media platformalar yoshlar hayotida axborot manbai bo‘lish bilan birga, ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy muhitga aylanmoqda. Agar avvalgi davrlarda yoshlar ongining shakllanishida oila, maktab va jamoa yetakchi rol o‘ynagan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu institutlar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar ham muhim ijtimoiylashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. Media oqimi yoshlar uchun nafaqat axborot yetkazuvchi, balki ijtimoiy me’yorlar, ideal obrazlar va qadriyatlar ishlab chiqaruvchi makon vazifasini bajarmoqda.[30]

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborot oqimi o‘zining tezkorligi, vizualligi va emotsional ta’siri bilan ajralib turadi. Yoshlar ko‘pincha axborotni mantiqiy tahlil asosida emas, balki vizual obrazlar, qisqa matnlar va ijtimoiy reaksiya (layk, izoh, repost)lar orqali qabul qiladi. Bu holat dunyoqarashning shakllanishida ratsional mulohazadan ko‘ra, emotsional baholash ustuvor bo‘lishiga olib keladi. Natijada qadriyatlar tizimi barqaror ichki mezonlar asosida emas, balki ijtimoiy tarmoqdagi ommaviy kayfiyat va trendlar asosida shakllanib boradi.

Media oqimining yoshlar dunyoqarashiga ta’sir etuvchi muhim mexanizmlaridan biri — algoritmik seleksiyadir. Ijtimoiy platformalar foydalanuvchining xatti-harakati va qiziqishlari asosida axborotni saralab taqdim etadi. Bu jarayon yoshlarni muayyan axborot doirasida “yopib qo‘yadi” va muqobil qarashlar bilan to‘qnash kelish imkoniyatini cheklaydi. Natijada dunyoqarashda biryoqlamalik, stereotiplashuv va intellektual yopiq muhit shakllanish xavfi kuchayadi.

[30] Anthony Giddens. *Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives.* — London: Profile Books, 1999, pp. 62–67.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar qadriyatlar tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mashhurlik, ko‘rinish, tezkor muvaffaqiyat va ijtimoiy e’tirof kabi omillar ko‘pincha mehnat, sabr, chuqur bilim va axloqiy mas’uliyat kabi an’anaviy qadriyatlardan ustun qo‘yila boshlaydi. Media makonida yaratilayotgan “ideal hayot” obrazlari yoshlar orasida doimiy solishtirish, norozilik va ichki qoniqmaslik holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Bu jarayon yoshlar psixologik barqarorligi va ijtimoiy o‘zini anglashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Media oqimi yoshlar ijtimoiy xulq-atvorini ham qayta shakllantirmoqda. Onlayn muloqotning ustuvorligi yuzma-yuz kommunikatsiya ko‘nikmalarining qisqarishiga, empatiya va mas’uliyat hissining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Yoshlar o‘z fikrini virtual muhitda erkin ifoda etadi, biroq real hayotda ijtimoiy mas’uliyat va muloqot madaniyatida muammolar kuzatiladi. Bu holat ijtimoiy xulqning fragmentarlashuvi va individualizmning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va media oqimi yoshlar uchun ijobiy imkoniyatlarni ham yaratadi. Global muloqot, ijtimoiy faollik, fuqarolik tashabbuslari va o‘zini ifoda etish imkoniyatlari kengaymoqda. Muammo media muhitning mavjudligida emas, balki unda tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganidadir. Yoshlar media oqimini ongli ravishda tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan taqdirdagina, raqamli muhit ularning ijtimoiy va ma’naviy rivojiga xizmat qilishi mumkin.

Media oqimining iqtisodiy va ideologik tabiati ham yoshlar dunyoqarashiga ta’sir etuvchi muhim omildir. Media kontent ko‘pincha tijoriy manfaatlar, reklama va manipulyativ strategiyalar asosida ishlab chiqiladi. Natijada yoshlar iste’molchi sifatida shakllanadi va ularning qadriyatlari bozor logikasiga mos ravishda yo‘naltiriladi. Bu holat ommaviy madaniyatning ustuvorligini kuchaytirib, milliy va ma’naviy qadriyatlarning ikkinchi planga surilishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar va media oqimi yoshlar dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini shakllantirishda kuchli ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. U yoshlarning axborotga munosabati, o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy xulq-atvoriga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois raqamli davr sharoitida yoshlar bilan ishlashda media savodxonlik, tanqidiy tafakkur va ma’naviy barqarorlikni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Ushbu tahlil keyingi bo‘limda raqamli axborot makonida shaxs ongining transformatsiyasi va ijtimoiy xulq-atvordagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli axborot makonining kengayishi va sun’iy intellekt texnologiyalarining kundalik hayotga chuqur integratsiyalashuvi zamonaviy yoshlar ongida yuz berayotgan o‘zgarishlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Shaxs ongi faqat bilish jarayonlari majmui emas, balki insonning o‘zini anglash usuli, ijtimoiy muhit bilan munosabati va axloqiy tanlovlarini belgilovchi murakkab tizimdir. Raqamli axborot makoni sharoitida ushbu tizim an’anaviy ijtimoiylashuv modellaridan farqli ravishda tezkor, ko‘p manbali va doimiy o‘zgaruvchan muhitda shakllanmoqda. Natijada yoshlar ongi real va virtual tajribalar, algoritmik yo‘naltirish va ijtimoiy reaksiya mexanizmlarining kesishgan nuqtasida rivojlanmoqda.

Raqamli muhitda shaxs ongining transformatsiyasi, eng avvalo, yoshlarning o‘zini anglash jarayonida namoyon bo‘ladi. An’anaviy ijtimoiylashuv sharoitida shaxs o‘zini anglash jarayoni nisbatan barqaror ijtimoiy muhit — oila, ta’lim muassasasi, mahalla va madaniy an’analar orqali shakllangan bo‘lsa, raqamli axborot makonida bu jarayon ko‘p manbali va uzluksiz o‘zgaruvchan tus olmoqda. Yoshlar o‘z “men”ini nafaqat real ijtimoiy tajriba asosida, balki virtual makonda yaratilgan obrazlar, onlayn profillar, ijtimoiy tarmoqdagi baholar va algoritmik tavsiyalar orqali ham shakllantirmoqda. Natijada o‘zini anglash jarayoni ichki refleksiyadan ko‘ra tashqi signallar va ijtimoiy reaksiya bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda.

Raqamli muhit yoshlarning ijtimoiy rolini belgilash usullarini ham tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy roli ko‘proq yosh, kasb, oilaviy maqom va ijtimoiy mavqe orqali aniqlangan bo‘lsa, virtual makonda bu rol ko‘pincha faoliyat ko‘lami, ko‘rinish darajasi, auditoriya soni va onlayn faollik bilan belgilanadi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlarini muayyan rol — fikr yetkazuvchi, kuzatuvchi, faol ishtirokchi yoki mashhur obraz sifatida namoyon etadi. Bu holat ijtimoiy rollarning tez almashishi, vaqtinchaligi va vaziyatga moslashuvchanligini kuchaytiradi. Natijada shaxs ongida “men kimman?” degan savol barqaror javobdan ko‘ra doimiy qayta talqinga muhtoj jarayonga aylanadi.

Boshqalar bilan munosabat o‘rnatish usullari ham raqamli muhit ta’sirida sezilarli darajada o‘zgaradi. Virtual makonda muloqot tezkor, qisqa va ko‘pincha emotsional reaksiya asosida quriladi. Yuzma-yuz muloqotga xos bo‘lgan empatiya, mas’uliyat va noverbal belgilar (ohang, mimika, tana harakati) raqamli muloqotda to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Bu holat yoshlarning ijtimoiy munosabatlarni soddalashtirilgan va ba’zan yuzaki shaklda idrok etishiga olib keladi. Natijada shaxs ongida munosabatlar barqaror axloqiy majburiyatdan ko‘ra vaqtinchalik va shartli aloqa sifatida qabul qilinishi mumkin.

Virtual makon yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, identitetning barqarorligi bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Raqamli muhitda shaxs o‘zini bir nechta obrazda namoyon qilishi, real va virtual “men” o‘rtasida farq paydo bo‘lishi mumkin. Bu holat ayrim hollarda ijodkorlik va moslashuvchanlikni oshirsa, boshqa holatlarda ichki ziddiyat, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va doimiy solishtirish holatini kuchaytiradi. Shaxs ongida “qanday ko‘rinayapman?” degan savol “kimman?” degan savoldan ustunlashishi ehtimoli ortadi.

Raqamli axborot makoni shaxs ongida mas’uliyat hissi va axloqiy chegaralarning qayta talqin qilinishiga ham sabab bo‘lmoqda. Virtual muhitda anonimlik va masofa hissi kuchli bo‘lgani sababli, yoshlar ba’zan real hayotda qabul qilib bo‘lmaydigan xatti-harakatlarni onlayn makonda osonroq amalga oshiradi. Bu holat axloqiy me’yorlarning nisbiylashuvi, ijtimoiy javobgarlikning susayishi va “virtual–real” ajralishining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli muhit axloqiy masalalar bo‘yicha tezkor munozara, jamoatchilik nazorati va ijtimoiy birdamlikni ham shakllantirish imkonini beradi.

Shu jihatdan, raqamli axborot makoni shaxs ongini bir vaqtning o‘zida rivojlantiruvchi va murakkablashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. U yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ijtimoiy tajribasini boyitadi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq ayni paytda identitetning barqarorligi, ichki axloqiy tayanchlar va mas’uliyatli ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish jarayonini murakkablashtiradi. Shu bois raqamli muhit sharoitida yoshlar ongining transformatsiyasini ijobiy yo‘naltirish ma’naviy tarbiya, media savodxonlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi zarur.

Mazkur bo‘limda shaxs ongidagi transformatsiyalar ijtimoiy xulq-atvor bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Chunki ongdagi o‘zgarishlar bevosita yoshlarning muloqot madaniyati, ijtimoiy mas’uliyati, empatiya darajasi va jamoaviy munosabatlarda tutgan pozitsiyasida aks etadi. Raqamli muhitda shakllanayotgan xulq-atvor modellarining ayrimlari ijtimoiy faollik va ochiqlikni kuchaytirsa, ayrimlari esa konformizm, mas’uliyatsizlik yoki ijtimoiy beqarorlik xavfini yuzaga chiqarishi mumkin.

Shuningdek, raqamli axborot makoni yoshlar ongida ijtimoiy me’yorlar va axloqiy qadriyatlarning nisbiylashuviga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual muhitda ijtimoiy baho ko‘pincha tezkor va yuzaki shaklda namoyon bo‘lib, shaxsning ichki axloqiy mezonlariga qaraganda tashqi reaksiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu holat yoshlar ijtimoiy xulq-atvorida ichki mas’uliyatdan ko‘ra tashqi moslashuvning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Raqamli axborot makonining kengayishi yoshlar ongida yuz berayotgan transformatsiyalarni nafaqat kognitiv, balki shaxsiy va ijtimoiy darajada ham

chuqurlashtirmoqda. Axborot oqimi tezlashuvi va sun’iy intellekt texnologiyalarining kundalik hayotga singib ketishi natijasida shaxs ongi endi barqaror va izchil tizimdan ko‘ra, doimiy o‘zgaruvchan, moslashuvchan va fragmentar xarakter kasb etmoqda. Bu holat yoshlarning o‘zini anglash usuli, ijtimoiy munosabatlarga kirishish shakli va xulq-atvor strategiyalarida bevosita aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021. — 464 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Axborot xavfsizligini ta’minlash sohasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. — Toshkent, 2018. — 14 bet.
3. Mamarasulova, Gulnoz. "SIYOSIY MATN TARJIMASINING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI." *Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2025.
4. Mamarasulova, Gulnoz. "GEOPOLITICAL MEANINGS IN MEDIA DISCOURSE." *Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2025.
5. Mamarasulova, Gulnoz, and Ruxshona Cho‘liyeva. "DIPLOMATIK MATNLARNING TARJIMADA IFODALANISHI." *Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2025.
6. Mamarasulova, Gulnoz. "Geopolitical Discourse In Translation." *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research*. Vol. 1. No. 4. 2025.

XORAZM SHEVASIDA SOTSIOLEKTLARNING SUBKOD SIFATIDA ISHLATILISHI

Asal Rimbayeva
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
2-kurs magistr talabasi.

Annotatsiya: Mazkur tezisda Xorazm shevasida shakllangan sotsiolekt birliklarning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari hamda ularning subkod sifatida namoyon bo‘lish mexanizmlari tahlil qilinadi. Hududiy nutq tarkibida ijtimoiy guruhlarga xos leksik va uslubiy birliklarning shakllanish omillari yoritilib, ularning kommunikativ vazifalari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *sotsiolekt, subkod, sheva, hududiy til, ijtimoiy identifikatsiya, lingvistik variativlik.*

Abstract: This thesis analyzes the socio-linguistic nature of sociolectal units formed within the Khorezm dialect and examines the mechanisms of their functioning as subcodes. The study explores the factors contributing to the emergence of lexical and stylistic units specific to particular social groups within regional speech, and identifies their communicative, identificational, and differentiating functions. Furthermore, the role of sociolects in the dialectal system and their contribution to linguistic variability are substantiated.

Keywords: *sociolect, subcode, Khorezm dialect, regional language, social identification, linguistic variability, differentiation.*

Аннотация: В данной тезисе анализируется социолингвистическая природа социолектных единиц, сформировавшихся в рамках хорезмского диалекта, а также механизмы их функционирования в качестве субкода. Освещаются факторы формирования лексических и стилистических единиц, характерных для определённых социальных групп в региональной речи, и выявляются их коммуникативные, идентификационные и дифференцирующие функции. Кроме того, обосновывается роль социолектов в системе диалекта и их значение в обеспечении лингвистической вариативности.

Ключевые слова: *социолект, субкод, хорезмский диалект, региональный язык, социальная идентификация, лингвистическая вариативность, дифференциация.*

Zamonaviy tilshunoslikda tilning ijtimoiy tabiatini o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Til jamiyatning turli qatlamlari, kasb egalari, yosh guruhlari va norasmiy birlashmalari nutqida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, sotsiolekt hodisasi til tizimidagi variativlikning muhim ko‘rinishi sifatida e’tirof etiladi.

Xorazm shevasi o‘zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan o‘zbek tilining hududiy variantlaridan biri sifatida ajralib turadi. Mazkur sheva doirasida shakllangan ijtimoiy nutq birliklari esa alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Sotsiolekt — muayyan ijtimoiy guruh nutqiga xos bo‘lgan til birliklari majmuasidir. U umumxalq tilining tarkibiy qismi bo‘lib, leksik-semantik, fonetik va uslubiy jihatdan o‘ziga xoslik kasb etadi. Sotsiolektlar ko‘pincha yoshlar nutqi, kasbiy nutq, norasmiy guruhlar tilida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xorazm hududida ham ayrim ijtimoiy qatlamlarga xos leksik birliklar faol qo‘llaniladi. Bunday birliklar tor kommunikativ doirada tushunarli bo‘lib, umumiy adabiy til me’yoridan farqlanishi mumkin. Ular ko‘pincha ekspressivlik, baholash, kinoya yoki ijtimoiy birdamlikni ifodalash vazifasini bajaradi.

Sotsiolektlarni subkod sifatida talqin qilish masalasi alohida e’tiborga loyiqdir. Subkod umumiy til tizimi doirasida ma’lum guruh tomonidan qo‘llaniladigan ichki kommunikativ tizimni anglatadi. Xorazm shevasidagi ayrim sotsiolekt birliklar aynan shu xususiyatga ega: ular ijtimoiy chegaralash, “o‘z” va “begona” oppozitsiyasini shakllantirish hamda guruhiy identifikatsiyani ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm shevasida sotsiolektlar nafaqat leksik qatlamda, balki fonetik o‘zgarishlar va uslubiy vositalar orqali ham namoyon bo‘ladi. Bu holat hududiy sheva va ijtimoiy differensiasiyaning o‘zaro uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi. Natijada sheva doirasida ko‘p qatlamli ichki variativlik yuzaga keladi.

Xorazm shevasida sotsiolektlar hududiy til tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Ular muayyan ijtimoiy guruh nutqida subkod vazifasini bajarib, kommunikativ jarayonda identifikatsiya, differensiasiya va ekspressivlik funksiyalarini amalga oshiradi.

Mazkur hodisani o‘rganish hududiy shevalarning ijtimoiy-lisoniy tabiatini chuqurroq anglash hamda o‘zbek tilidagi variativlik jarayonlarini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev, Sh.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Universitet, 2006.

2. Shomaqsudov, A. va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1983.

3. Madvaliyev, A. (tahr.). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

4. Mahmudov, N.. Til va nutq madaniyati. — Toshkent: Ma’naviyat, 2012.

5. Yo‘ldoshev, B.. O‘zbek dialektologiyasi. — Toshkent: Fan, 2007.

6. Begmatov, E.. Hozirgi o‘zbek tilining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2010.

7. Qo‘ng‘urov, R.. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIBBIY TERMINOLOGIYANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Yusupjanov Bekzod Ixtiyor o‘g‘li
EMU university davolash ishi fakulteti 3-kurs talabasi
yusufjanovbekzod06@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan tibbiy terminologiyaning lingvistik xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mumtoz adabiyot tilida faol ishlatilgan “dard”, “shifo”, “tabib”, “maraz”, “illat”, “malham”, “davo”, “xasta”, “jarohat”, “og‘riq” kabi birliklarning semantik tuzilishi, ularning denotativ va konnotativ ma’no qatlamlari, metaforik kengayish jarayoni hamda lingvopoetik funksiyalari o‘rganildi. Navoiy ijodida tibbiy terminlar nafaqat fiziologik jarayonlarni ifodalovchi vosita, balki ruhiy-axloqiy, tasavvufiy va konseptual mazmunni tashuvchi estetik birlik sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy asosda yoritildi. Shuningdek, terminlarning arab va fors tillaridan kirib kelishi, ularning eski o‘zbek adabiy tilidagi fonetik-morfologik moslashuvi va sintaktik qo‘llanish xususiyatlari ham tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari Navoiy merosida tibbiy leksika keng semantik maydonga ega ekanini hamda u poetik tafakkur va konseptual dunyoqarashni shakllantirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *tibbiy terminologiya, lingvistik tahlil, semantika, metafora, dard, shifo, tabib, lingvopoetika, konsept, mumtoz adabiyot, kognitiv tahlil.*

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the linguistic characteristics of medical terminology used in the works of **Alisher Navoi**. In the course of the study, the semantic structure of units actively used in the language of classical literature—such as *disease*, *healing*, *physician*, *ailment*, *affliction*, *ointment*, *remedy*, *patient*, *wound*, and *pain*—was examined, along with their denotative and connotative meaning layers, the process of metaphorical extension, and their linguopoetic functions. It is scientifically demonstrated that in Navoi’s creative work medical terms function not only as means of expressing physiological processes, but also as aesthetic units conveying psychological-ethical, Sufi, and conceptual content. Additionally, the borrowing of these terms from Arabic and Persian, their phonetic-morphological adaptation in the old Uzbek literary language, and their syntactic usage are analyzed. The research results show that medical vocabulary in Navoi’s legacy occupies a broad semantic field and plays an important role in shaping poetic thought and conceptual worldview.

Keywords: *medical terminology, linguistic analysis, semantics, metaphor, disease, healing, physician, linguopoetics, concept, classical literature, cognitive analysis.*

Mumtoz o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi bo‘lgan Alisher Navoiy ijodida inson va uning ichki olami markaziy mavqe egallaydi. Shoir asarlarida insonning ruhiy kechinmalari, iztiroblari, ma’naviy kamolot sari intilishi va axloqiy poklanish jarayonlari badiiy ifodasini topadi. Bu jarayonlarni tasvirlashda tibbiyotga oid terminologiya muhim stilistik va semantik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy yashagan davrda tabobat ilmi Sharq ilmiy tafakkurining ajralmas qismi bo‘lgan. Tibbiyot, falsafa va tasavvuf o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanganligi sababli, tibbiy tushunchalar adabiy matnda keng qo‘llanilgan.

Tibbiy terminologiya odatda organizm, kasallik, patologik holat, davolash usullari hamda shifo jarayoniga oid maxsus leksik birliklarni o‘z ichiga oladi. Navoiy asarlarida bunday birliklar ikki asosiy qatlamda namoyon bo‘ladi: bevosita lug‘aviy ma’no va ko‘chma, ramziy ma’no. Masalan, “dard” so‘zi fiziologik og‘riqni anglatishi mumkin, biroq shoir she’riyatida u ko‘proq ishqiy iztirob, ruhiy azob yoki ma’naviy izlanish ma’nosida qo‘llanadi. Bu esa semantik kengayish va metaforik ko‘chish jarayonining yorqin namunasidir.

Navoiy asarlarida uchraydigan tibbiy leksika mazmunan keng semantik maydonni tashkil etadi. “Maraz”, “illat”, “xasta”, “og‘riq” kabi birliklar insonning jismoniy yoki ruhiy holatini ifodalaydi. Biroq ular ko‘pincha ichki kechinma, ma’naviy yetishmovchilik yoki ilohiy muhabbat yo‘lidagi sinov sifatida talqin qilinadi. “Davo”, “malham”, “darmon”, “shifo” kabi birliklar esa azob-uqubatdan xalos bo‘lish, qalb taskin topishi yoki ruhiy poklanish ma’nosini anglatadi. “Tabib” yoki “hakim” obrazi esa shunchaki shifokor emas, balki qalb dardini anglaydigan va unga malham qo‘ya oladigan ma’naviy yetuk shaxs timsolida namoyon bo‘ladi. Ayrim hollarda yor obrazi ham tabib sifatida tasvirlanib, u oshiqning dardiga shifo beruvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Lingvistik nuqtai nazardan tibbiy terminlar denotativ va konnotativ ma’no qatlamlariga ega. Denotativ ma’no so‘zning asosiy, lug‘aviy ma’nosini bildirsa, konnotativ ma’no uning qo‘shimcha emotsional, ekspressiv va ramziy mazmunini anglatadi. Navoiy ijodida aynan konnotativ qatlam ustunlik qiladi. “Ko‘ngil yarasi”, “ishq dardi”, “qalb xastaligi” kabi birikmalar real patologiyani emas, balki ruhiy holatni ifodalaydi. Bu jarayonda metafora, tashbeh va mubolag‘a kabi badiiy vositalar faol ishtirok etadi.

Tibbiy terminlarning kelib chiqishi masalasiga e’tibor qaratilsa, ularning aksariyati arab va fors tillaridan o‘zlashganini ko‘rish mumkin. “Shifo”, “davo”, “maraz”, “illat”, “hakim” kabi birliklar o‘sha davr ilmiy-madaniy muhitining mahsuli hisoblanadi. Navoiy ushbu terminlarni

o‘z poetik tizimiga moslashtirgan va ularni eski o‘zbek adabiy tilining tarkibiy qismiga aylantirgan. Bu jarayonda terminlar fonetik jihatdan moslashgan, morfologik jihatdan esa turli qo‘shimchalar orqali yangi shakllar hosil qilgan. Masalan, “dard” so‘zidan “dardmand”, “dardli”, “bedard” kabi hosilalar yuzaga kelgan bo‘lib, bu esa terminning so‘z yasash imkoniyatlari kengligini ko‘rsatadi.

Sintaktik jihatdan tibbiy terminlar ko‘pincha aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida keladi yoki izohlovchi birikmalar tarkibida ishlatiladi. “Og‘riq chekmoq”, “malham qo‘ymoq”, “dard tortmoq” kabi birikmalar frazeologik tusga ega bo‘lib, tilning barqaror birliklariga aylangan. Bu birliklar poetik matnda emotsional ta’sirchanlikni oshiradi va obrazlilikni kuchaytiradi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, Navoiy ijodida “dard” konsepti markaziy o‘rin tutadi. Dard insonning kamolot sari intilishida zarur bosqich sifatida talqin qilinadi. U ruhiy uyg‘onish va o‘zlikni anglashning boshlanish nuqtasi sifatida namoyon bo‘ladi. “Shifo” esa bu jarayonning yakuni, ya’ni ma’naviy poklanish va ilohiy haqiqatga yetishish ramzidir. Demak, tibbiy terminlar shoir tafakkurida konseptual ramz darajasiga ko‘tarilgan.

Lingvopoetik jihatdan tibbiy leksika obrazlilikni kuchaytiradi. “Yurak qon bo‘ldi”, “ko‘ngil xasta”, “ishq dardi jonimni kuydirdi” kabi ifodalar o‘quvchida kuchli emotsional ta’sir uyg‘otadi. Bu yerda fiziologik jarayon obrazli ifoda vositasiga aylanib, ruhiy holatni chuqurroq tasvirlash imkonini beradi. Natijada matnning estetik qimmati ortadi.

Navoiy asarlarida tibbiy terminologiyaning qo‘llanishi faqat poetik bezak vazifasini bajarmaydi, balki shoirning dunyoqarashi va falsafiy qarashlarini ifodalashga xizmat qiladi. Inson organizmi va ruhiyati o‘rtasidagi bog‘liqlik tasviri orqali shoir ma’naviy sog‘lomlik g‘oyasini ilgari suradi. Ruhiy kasallik – jaholat, nafsga berilish yoki ma’naviy sustlik sifatida talqin qilinadi. Shifo esa ilm, ma’rifat va ilohiy muhabbat orqali erishiladigan poklanishdir.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy asarlarida tibbiy terminologiya ko‘p qatlamli semantik va stilistik tizimni tashkil etadi. U faqat biologik tushunchalarni emas, balki ruhiy-axloqiy va tasavvufiy mazmunni ham ifodalaydi. Terminlar metaforik kengayish orqali poetik matnda yangi ma’no qirralarini hosil qiladi. Arab va fors tillaridan kirib kelgan leksik birliklar shoir tomonidan ijodiy qayta ishlanib, milliy adabiy til rivojiga xizmat qilgan. Shu bois Navoiy merosini tibbiy terminologiya nuqtai nazaridan o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tibbiyot tarixi uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy terminologiyaning badiiy matndagi faolligi Navoiy tafakkurida til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ham namoyon etadi. Shoir organizm bilan bog‘liq tushunchalarni

ruhiy jarayonlar bilan parallel holda tasvirlaydi. Masalan, yurak va ko‘ngil obrazlari ko‘pincha anatomik organ sifatida emas, balki insonning ruhiy markazi sifatida talqin qilinadi. “Dil” va “jigar” birliklari Sharq poetikasida keng qo‘llangan bo‘lib, ular hissiy kechinmalarni ifodalashda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Bu jarayonda anatomik termin poetik ramzga aylanadi. Natijada tibbiy leksika insonning ichki olamini ochib beruvchi semantik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Navoiy asarlarida uchraydigan “qon”, “yara”, “jarohat” kabi birliklar ham ikki qatlamli ma’noga ega. Ular bir tomondan real fiziologik holatni anglatsa, ikkinchi tomondan ruhiy og‘riq, ayriliq azobi yoki vijdon qiynog‘ini tasvirlaydi. Masalan, “ko‘ngil yarasi” iborasi anatomik jarohat emas, balki ruhiy sinish va iztirobni bildiradi. Bu yerda semantik ko‘chish jarayoni metafora asosida yuzaga keladi. Ruhiy og‘riq jismoniy og‘riq bilan qiyoslanadi va shu orqali o‘quvchida kuchli tasavvur hosil qilinadi.

Tibbiy terminlarning bunday ko‘chma qo‘llanishi tasavvufiy tafakkur bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Tasavvufda inson qalbi kasallanishi mumkin bo‘lgan ma’naviy makon sifatida talqin qilinadi. Jaholat, kibr, hasad va nafs kabi illatlar qalbning “kasalligi” sifatida ko‘rsatiladi. Ularni davolash esa ma’rifat, zikr va muhabbat orqali amalga oshadi. Navoiy ijodida ham “illat” va “maraz” tushunchalari ko‘pincha axloqiy nuqson ma’nosida ishlatiladi. Demak, tibbiy terminologiya shoirning ma’naviy-falsafiy konsepsiyasini ifodalashda muhim vositaga aylangan.

Shuningdek, Navoiy tilida tibbiy terminlar orqali ijtimoiy holat ham tasvirlanadi. Ayrim baytlarda jamiyatdagi adolatsizlik yoki axloqiy tanazzul “kasallik” sifatida talqin qilinadi. Bunday hollarda shoir jamiyatni “xasta”, adolatni esa “davo” sifatida tasvirlaydi. Bu esa tibbiy terminlarning semantik doirasi shaxsiy kechinmalar bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy-falsafiy mazmunga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Morfologik jihatdan tibbiy terminlar Navoiy tilida faol so‘z yasash imkoniyatiga ega. Masalan, “dard” so‘zidan “dardmand”, “dardkash”, “bedard” kabi shakllar hosil qilinadi. “Shifo” so‘zidan “shifobaxsh”, “shifoyob” kabi birliklar yuzaga keladi. Bu esa terminlarning derivatsion salohiyati yuqori ekanini bildiradi. So‘z yasash jarayonida qo‘llangan affikslar termin ma’nosini yanada boyitadi va uning ekspressivligini oshiradi.

Fonetik jihatdan esa arab va fors tillaridan kirib kelgan terminlar eski o‘zbek adabiy tilining fonetik me’yorlariga moslashgan. Ayrim tovush o‘zgarishlari yoki urg‘u xususiyatlari natijasida ular milliy til tizimiga uyg‘unlashgan. Bu holat Navoiy tilining normativ va adabiylashgan shaklini shakllantirishda muhim omil bo‘lgan.

Sintaktik jihatdan tibbiy terminlar ko‘pincha fe’llar bilan birikib, barqaror birikmalar hosil qiladi. “Dard chekmoq”, “malham qo‘ymoq”, “shifo topmoq”, “og‘riq tortmoq” kabi birikmalar frazeologik birlik darajasiga ko‘tarilgan. Bunday birikmalar poetik matnda takrorlanish orqali ma’no urg‘usini kuchaytiradi. Takror esa stilistik vosita sifatida iztirobning davomiyligini yoki shifo umidining qat’iyligini ifodalaydi.

Kognitiv yondashuv asosida qaralganda, Navoiy tafakkurida inson hayoti “kasallik va shifo” modeli asosida konseptuallashtiriladi. Dard – sinov, izlanish va ruhiy poklanishning boshlanishi. Shifo esa kamolot va haqiqatga yetishish natijasidir. Bu model insonning ichki o‘sish jarayonini tibbiy terminlar orqali ifodalash imkonini beradi. Demak, tibbiy leksika shoir tafakkurida metaforik konsept sifatida ishlaydi.

Bundan tashqari, Navoiy asarlarida tabib obrazi alohida e’tiborga loyiq. Tabib nafaqat jismoniy kasallikni davolovchi shaxs, balki ruhiy dardni anglaydigan va unga malham qo‘ya oladigan ma’naviy murshid sifatida tasvirlanadi. Ayrim o‘rinlarda yor ham tabibga qiyoslanadi. Oshiqning dardi faqat yor vasli bilan shifo topadi. Bu esa ishqiy lirikaning tibbiy metafora orqali boyitilganini ko‘rsatadi.

Tibbiy terminlarning poetik matndagi takroriyligi ularning konseptual ahamiyatini yanada mustahkamlaydi. “Dard” va “shifo” qarama-qarshi semantik qutblar sifatida namoyon bo‘lib, ular o‘zaro dialektik bog‘liqlikni hosil qiladi. Dardsiz shifo bo‘lmaganidek, iztirobsiz kamolot ham bo‘lmaydi degan g‘oya ilgari suriladi. Bu esa shoirning hayot falsafasini ifodalovchi markaziy tamoyildir.

Shunday qilib, Navoiy asarlarida tibbiy terminologiya keng qamrovli lingvistik tizimni tashkil etadi. U semantik, morfologik, sintaktik va lingvopoetik jihatdan faol birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Terminlar bevosita biologik tushunchalarni ifodalash bilan cheklanmay, balki ruhiy-axloqiy, tasavvufiy va ijtimoiy mazmunni ham o‘zida mujassam etadi. Ularning metaforik kengayishi poetik tafakkurning chuqurligini ko‘rsatadi. Shu bois Navoiy merosini tibbiy terminologiya nuqtai nazaridan o‘rganish tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik uchun muhim ilmiy istiqbolga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. *Xamsa*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, turli nashrlar.
2. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2000.

3. Alisher Navoiy. *Lison ut-tayr*. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2011.
4. Alisher Navoiy. *Xazoyin ul-maoniy* (Devonlar). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983–1985.
5. Ibrohim Haqqul. *Navoiy ijodiy olami*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
6. Bertels Evgeniy Eduardovich. *Alisher Navoiy va o'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: Fan, 1965.
7. Abduqodir Hayitmetov. *Navoiy lirikasi*. – Toshkent: Fan, 1971.
8. Shavkat Rahmatullayev. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
9. A.Nurmonov. *Lingvistik nazariya asoslari*. – Toshkent: Fan, 2008.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
11. O'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi bo'yicha tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, turli yillar.
12. Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf terminologiyasiga oid ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Universitet nashriyoti, turli yillar.

O‘ZBEK TILINING RAQAMLI ASRDAGI O‘RNI: IJTIMOIY TARMOQLAR VA TILNING RIVOJLANISHI

Komilova Oygul Vohidjonovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining o‘rni sezilarli darajada kengayib rivojlanayotgani va bu jarayon ona tilimiz uchun ham katta imkoniyatlar, ham ayrim muammolarni o‘z ichiga olayotgani xususida fikr ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: *o‘zbek tili, raqamli asr, lingvistik xizmatlar, til me’yorlari, milliy kontent.*

Annotation: This article discusses how the role of the Uzbek language is significantly expanding and developing in the digital age, particularly on social networks, and how this process includes both great opportunities and certain challenges for our mother tongue.

Keywords: *Uzbek language, digital age, linguistic services, language norms, national content.*

Аннотация: В данной статье рассматривается, как роль узбекского языка заметно расширяется и развивается в цифровую эпоху, в частности в социальных сетях, и как этот процесс содержит в себе как большие возможности, так и определенные проблемы для нашего родного языка.

Ключевые слова: *узбекский язык, цифровая эпоха, лингвистические услуги, языковые нормы, национальный контент.*

Raqamli asr, ya’ni axborot texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi jamiyatimizning ijtimoiy ongini o‘stirishga va ulardan foydalanish hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Butunjahonga tarqalgan Telegram, Instagram, Whatsapp va boshqa ijtimoiy tarmoqlar hayotimizdagi har bir soha-tibbiyot, transport, ishlab chiqarish, moliya, shuningdek, ta’limda ham samaradorlikni oshirib, ko‘plab qulayliklar va yangi imkoniyatlar eshigini ochib kelmoqda. Raqamli platformalarda turli xil yangi metodlar, yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, kompyuter hamda mobil aloqa vositalari uchun dasturlar yaratilmoqda. Aynan ta’lim sohasida bu vositalar muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kundagi dolzarb muammoga aylangan davlat tilini o‘rganish va o‘rgatishda tilda an’anaviy tarzdagi kitob hamda auditoriyadan foydalanmagan holda onlayn, virtual o‘rganish qulayroq, tezroq, osonroq bo‘lmoqda. Tabiiyki, bu o‘qirmanga bir qancha qulaylik, vaqtni tejash imkonini yaratib beradi.

Shu nuqtayi nazardan, internetning paydo bo‘lishi va texnologiyaning rivojlanishi bilan onlayn tarjima va lingvistik xizmatlar rivojlanmoqda. Lingvistik xizmat yoki lingvistik

mahsulot atamalari o‘zbek tili uchun yangi va juda muhim. Shuningdek, sanoat termini “korxonalardagi ishlab chiqarish, tovar va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan iqtisodiyot va biznes sohasi” ma’nosini anglatadi. Biz lingvistik xizmat va mahsulot ishlab chiqarish deganda matn yaratish, matnlarni tahrirlash, tuzatish va tarjima qilish, chet tillarini o‘rgatish, milliy va mahalliy dasturiy ta’minotni yaratish hamda boshqa tegishli sohalarda lingvistik xizmatlar ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarni nazarda tutamiz. Aytish lozimki, lingvistik mahsulot, odatda, tabiiy til, uning tuzilishi, funksiya va xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish yoki tarjima, til o‘rgatish va kompyuter uchun tilni qayta ishlash kabi til bilan bog‘liq sohalarda amaliy qo‘llash maqsadida yaratiladi. Masalan, lug‘at, grammatik ma’lumotnoma, sohaviy va umumiy ensiklopediya, til korpuslari, til atlaslari, ilmiy maqola va monografiya, auidokurs, qo‘llanma va darslik, lingvistik dastur va ilovalar, tilshunoslik bo‘yicha konferensiya va simpozium kabilar. Bu lingvistik mahsulot va xizmatning har biri tilni o‘rganish yoki o‘rgatishda o‘ziga xos xususiyat, maqsad va foydalanish usullariga ega[31].

Darhaqiqat, shu davrgacha o‘zbek tilini rivojlantirishga katta e’tibor berib kelingan. Uni o‘qitish faqatgina ma’lum bir auditoriya uchungina shakllangan an’anaviy usulda olib borilgan. Zamon taraqqiy etgani sayin raqamli texnologiyalar orqali axborot olishning tezligi va qulayligi undan foydalanuvchilar soni ortishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy usullar ta’lim jarayonining samarasini sezilarli darajada rivojlantirdi. Hozirgi kunda o‘zbek tilini tez, qulay, oson o‘rganish uchun turli xil dasturlar va yangi metodlar mavjud.

Ta’limda eng muhim masala o‘quv materiallarini tanlash va ulardan foydalanish muammosidir. Avvalo, qaysi o‘quv materiallarini o‘quvchi bilishi zarur ekanini aniqlab olish kerak, zero globallashuv davrida o‘n yil oldingi talab ham bugun o‘zini oqlamay qolishi mumkin, shu ma’noda bugun va yaqin kelajakda o‘quvchiga muntazam zarur bo‘ladigan ko‘nikma va malakalarni rivojlantiruvchi o‘quv materiallarini yaratish, tanlash va samarali qo‘llash usullarini ishlab chiqish eng dolzarb vazifadir.

Bu borada professorlar Askar G‘ulomov va Hamid Ne’matovlarning quyidagi fikrini keltirish o‘rinli:”Asrlar davomida insoniyat tomonidan to‘plangan barcha til ilmini o‘rta maktab o‘quvchisiga o‘rgatishning iloji va zaruriyati yo‘q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy bilimlardan biri. Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda

[31] https://www.marifat.uz//oz//2024/06/26/uzbek/

to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta’minlaydigan bilimlarni tushunamiz”[32].

Barchamizga sir emaski, raqamli metodlar 2020-yilda butunjahonda COVID-19 infeksiyasi sababli pandemiya vaqtida tashkil qilindi. Barcha turdagi ta’lim muassasalari ta’limni masofaviy tarzda e’lon qilib, qisqa hajmdagi videodarslar, audio qo‘llanmalar, internet dasturlari ishlab chiqildi. Mazkur materiallar ommaviy axborot vositalaridan tashqari ijtimoiy tarmoqlar orqali ham keng tarqala boshladi. Ijtimoiy tarmoqlarning qulay tomoni ulardagi ma’lumotni istalgan vaqtda o‘qish, o‘rganish mumkin. Bu esa oldingi an’anaviy tizimlardan farqli va yutuqli tomoni bo‘ldi, shuningdek ko‘zlangan maqsadga erishish imkonini yaratdi[33].

Davlat tilini o‘rganishni onlayn platformalarga o‘tkazishga intilish, zamon bilan hamnafas bo‘lish yaxshi, albatta. Buning uchun eng qulay vosita bu mobil aloqadir. Uni qo‘llashning yaxshi usuli ulardagi ijtimoiy tarmoqlardir. Telegram, Youtube tarmoqlari orqali o‘zbek tiliga oid mavzular birma-bir tushuntirilib, mavzu yuzasidan taqdimotlar, video hamda audio qo‘llanmalar, onlayn testlar yaratilgan. Ushbu darslarda qatnashish, ularda ishtirok etish bepuldir. Hozirgi vaqtda o‘zbek tilini o‘rgatuvchi yuzdan ortiq guruh va kanallar mavjud. Muhim jihati shundaki, ishonchli, qulay, kuchli mutaxassislar yuritadigan kanal va guruhlarga a’zo bo‘linsagina, natijaga erishish mumkin.

Virtual tarzda o‘zbek tilini kengroq va chuqurroq o‘rganishda videodarslarning o‘rni katta. O‘zbek tilini o‘rganishga mo‘ljallangan videodarslar qisqa metrajli va kichik hajmli bo‘lib, mavzulari tushunarli va sodda tarzda yoritib berilgan:

[32] https://www.marifat.uz//oz//2024/03/13/uzbek/

[33] https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilini-o-qitishda-ijtimoiy-tarmoqlarning-o-rni

Ushbu havola orqali kanalga a’zo bo‘lib, darslarni o‘zlashtirishingiz mumkin bo‘ladi. Buning qulaylik tarafi, unga joylangan audio va video materiallarni bepul yuklab, istalgan vaqtda o‘rganish mumkin. Shu jumladan, takrorlash uchun onlayn testlar, viktorina savollar mavzuni mustahkamlash, o‘rgangan ma’lumotlarni qiyoslash, tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu vositalar til o‘rganishning yanada oson va qulay bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy. Ijtimoiy tarmoqlarning til o‘rganish va foydalanishga ta’siri, shuningdek, til me’yorlariga bo‘lgan ta’siri qanday? Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kommunikatsiya vositasi sifatida til o‘rganish va undan foydalanish, lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali bo‘lsa-da, til me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan qisqartirishlar, shaxsiylashtirilgan imlo va noto‘g‘ri grammatika keng tarqalgan. Qisqartirilgan yozish uslublari va norasmiy tilda muloqot qilish- “y” o‘rniga “u” yozilishi yoki “lol”, “omg” kabi ixtiyoriy qisqartirishlar ommalashmoqda. Shuningdek, tilni yanada soddalashtirib, nutqdagi chuqur grammatika va stilistik murakkabliklarning yo‘qolishiga olib kelmoqda.

Shuni aytish ham joizki, raqamli texnologiyalar ta’limni osonlashtiradi. Har bir foydalanuvchiga ko‘plab fanlarni bepul o‘rganish imkonini yaratadi. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilida aloqa qilish, ma’lumot almashish va fikr yuritish uning rivojida yangi imkoniyatlar kasb etadi. Yangi so‘zlar, iboralar va terminlar paydo bo‘lishiga yordam beradi. Yangi madaniy va lingvistik fenomenlarni joriy etib, tilni boyitadi. Foydalanuvchilar yangi atamalar va so‘zlarni tez o‘zlashtiradi, masalan, “influencer”, “like” yoki “vlog” kabi terminlar tilga kirib kelmoqda.



2- rasm

Bu yangi lug‘at ommaviy madaniyatga, til dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda, foydalanuvchilar tilni samarali o‘rganish uchun texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llashi, ammo bu jarayonda lingvistik qoidalarga amal qilishi muhimdir[34].

Internet va ijtimoiy tarmoqlar ushbu ta’sir jarayonlarini tezlashtirib, yangi kommunikatsiya shakllarini yaratmoqda. Ushbu mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun bir qator muhim manbalar va tadqiqot usullari mavjud. Naomi S. Baron – "Always On: Language in an Online and MobileWorld" (2008). Ushbu kitobda internet va mobil texnologiyalar ta’sirida til qanday o‘zgarayotganini o‘rganiladi. Muallif virtual muloqot va an’anaviy yozishmalar o‘rtasidagi tafovutlarni tahlil qilib, raqamli kommunikatsiyaning kelajagi haqida fikr yuritadi. Kitob o‘nta bobdan iborat bo‘lib, unda onlayn va mobil aloqa turlarining tarixi bayon qilinadi hamda bu texnologik vositalar kundalik hayotga tobora chuqurroq singib borishi natijasida lingvistik va ijtimoiy me’yorlarning qanday o‘zgarishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Muhim boblarda ayrim aloqa texnologiyalariga (masalan, tezkor xabar almashish, mobil telefonlar) oid fanlararo tadqiqotlar keltirilgan hamda ular tarixiy nuqtayi nazardan o‘xshash texnologiyalar va aloqa amaliyotlari (masalan, telefonlar, jonli qo‘ng‘iroqlar orqali suhbatlar) bilan solishtiriladi.Markaziy boblarning bir qismida antropologiya, nutq tahlili, sotsiolingvistika, ta’lim va neyrobiologiya bo‘yicha tadqiqotlar umumlashtirilgan bo‘lib, ularda Baron va uning hamkasblari tomonidan o‘tgan o‘n yil davomida AQShning ayrim bakalavr talabalari orasida olib borilgan asl tadqiqot natijalari ham keltirilgan. Ushbu tadqiqotlar onlayn va mobil aloqa shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan xulq-atvor namunalari hamda lingvistik xususiyatlarga oid ommaviy qarash yoki savollarni o‘rganishga qaratilgan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda yoshlar nutqiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri, kod-mixing va emoji lingvistikasi bo‘yicha tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu kitob internet tilining shakllanishi, o‘ziga xos xususiyatlari va uning an’anaviy til tizimlariga qanday ta’sir qilishi haqida batafsil ma’lumot beradi. Muallif til o‘zgarishlarini lingvistik nazariya asosida tahlil qiladi[35].


Umuman olganda, raqamli texnologiyalar ona tilini rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbek tilidagi elektron lug‘atlar, masalan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Til.uz” kabi portallar, grammatik va imlo tekshiruvi dasturlari, ta’lim platformalari til taraqqiyoti uchun zamonaviy poydevor bo‘lishi mumkin[36]. Raqamli darsliklar, elektron

[34] Mayliyeva G, (2024). Ijtimoiy tarmoqlarning til o’rganish va foydalanishga ta’siri

[35] Review by Shannon Sauro. REVIEW OF ALWAYS ON: LANGUAGE IN AN ONLINE AND MOBILE WORLD. Language learning and technology. October 2010, Volume 14,number 3

[36] https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/21/uzbek/

kitoblar, mobil ilovalar, til o‘rgatuvchi veb-servislar ayniqsa talabalar, o‘quvchilar va chet elliklar uchun katta foyda keltiradi. Masalan, ayni paytda o’zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish, ularni lotin yozuviga o’girish va so’zlarning lug’aviy ma’nosiga mo’ljallangan onlayn platformalar ham amaliyotda faol qo’llanmoqda. O’zbekcha matnlarni sun’iy intellekt yordamida qayta ishlash va o’zbek tilida muloqot qilishga mo’ljallangan “aqlli” dasturning ishlab chiqilgani va “O’zbek tili lug’ati” ning yaratilgani buning yorqin dalilidir.



3-rasm

Til madaniyatini rivojlantirishda raqamli kontent muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ko‘plab xorijiy tillarda blogerlar, yozuvchilar, jurnalistlar o‘z tillarida internet foydalanuvchilari uchun turli yo‘nalishlarda foydali kontent ishlab chiqmoqda. O‘zbek tilida ham bunday kontentlar sonini ko‘paytirish, ijtimoiy tarmoqlarda toza, adabiy, estetik til namunalarini keng targ‘ib etish ona tilining nufuzini oshiradi. Til jozibasini yoshlar qalbiga singdirish uchun aynan raqamli formatlar – qisqa videolar, infografikalar, interaktiv testlar, o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi[37]. Raqamli asrda tilni saqlab qolish, uni rivojlantirish va zamonga moslashtirish – bu tilni kitoblarda emas, real hayotda, xususan, internet va texnologik vositalarda jonli saqlash ekanligini unutmasligimiz lozim.. O‘zbek tilini raqamli maydonga olib chiqish uchun ilmiy, texnologik va ijtimoiy yondashuvlar birgalikda bo‘lishi kerak. Bu yo‘lda davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy tashabbuslar, eng asosiysi esa, har bir fuqaroning ona tiliga bo‘lgan mehr-muhabbati hal qiluvchi omilga aylanishi shart. Zero, tilni saqlash – bu milliy o‘zlikni, tarixni, madaniyatni saqlashdir[38].

Xulosa qilib aytganda, raqamli asr o‘zbek tili uchun ham katta imkoniyat, ham jiddiy sinovdir. Tilning rivoji nafaqat davlat siyosatiga, balki ijtimoiy tarmoqlardagi har bir foydalanuvchining yozish madaniyati va yaratayotgan kontentiga bevosita bog‘liq. Lotin alifbosidagi imlo qoidalariga rioya qilish va “ommaviy savodsizlik” ka qarshi kurashish har birimizning kelajakdagi asosiy vazifamizdir.

[37] Ziyodullayev A. Raqamli til muhitida o‘zbek tilining o‘rni. – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2022, №2.
[38] Rasulov M., Moydinov M. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.marifat.uz//oz//2024/06/26/uzbek/

2. https://www.marifat.uz//oz//2024/03/13/uzbek/

3.https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-tilini-o-qitishda-ijtimoiy-tarmoqlarning-o-rni

4. Mayliyeva G, (2024). Ijtimoiy tarmoqlarning til o'rganish va foydalanishga ta'siri

5.Review by Shannon Sauro. REVIEW OF ALWAYS ON: LANGUAGE IN AN ONLINE AND MOBILE WORLD. Language learning and technology. October 2010, Volume 14,number 3

6. https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/21/uzbek/

7. Ziyodullayev A. Raqamli til muhitida o'zbek tilining o'rni. – "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2022, №2.

8.Rasulov M., Moydinov M. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z URG‘USINING NAZARIY ASOSLARI

Abdulxayeva Munavvarxon
Amaliy fanlar universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola so‘z urg‘usini o‘zbek tilshunosligining zamonaviy paradigmalari asosida qayta baholash masalalarini qamrab oladi. Unda urg‘u shunchaki tovush kuchayishi emas, balki so‘zning yaxlitligini ta’minlovchi va sintagmatik munosabatlarni shakllantiruvchi supersegment birlik sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda urg‘uning tarixiy rivojlanishi va bugungi kundagi faol o‘zgarishlari o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z urg‘usi, prosodiya, suprasegment fonetika, dinamik-kvantitativ tabiat, morfofonologiya, delimitativ vazifa, eksperimental fonetika, fonologik interpretatsiya.

Abstract. This article addresses the re-evaluation of word stress within the context of modern paradigms in Uzbek linguistics. Here, stress is interpreted not merely as sound amplification, but as a suprasegmental unit that ensures word integrity and shapes syntagmatic relations. The study elucidates the correlation between the historical development of stress and its active contemporary transformations.

Keywords: word stress, prosody, suprasegmental phonetics, dynamic-quantitative nature, morphophonology, delimitative function, experimental phonetics, phonological interpretation.

Til - inson jamiyati va madaniyatining eng muhim vositasi bo‘lib, uning strukturasi va funksiyalari - tilshunoslik fanining markaziy predmetlaridan biridir. Tilshunoslikning zamonaviy paradigmalari til birliklarini nafaqat statik tuzilma, balki kommunikativ jarayonning faol ishtirokchisi sifatida o‘rganishni taqozo etadi. Ushbu yondashuv asosida tahlil qilinganda, o‘zbek tili fonologik tizimining markaziy unsurlaridan biri bo‘lgan so‘z urg‘usi oddiy akustik hodisa chegarasidan chiqib, murakkab semantik va grammatik vazifalarni bajaruvchi supersegment birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, fonologiya nutq tovushlari bilan bir qatorda prosodik vositalarni ham tadqiq etadi, bu esa urg‘uning tilning barcha sathlari — morfologiya, leksikologiya va sintaksis bilan uzviy aloqasini ta’minlaydi.

Prosodika – fonologiyaning supersegment vositalari xususida bahs yurituvchi bo‘limdir. Prosodika tarkibida urg‘u, bo‘g‘in, cho‘ziqlik, ohang kabi supersegment vositalarni birlashtiradi. Mazkur vositalar nutq oqimining turli sathi va vazifalariga ko‘ra

differensiyallashgan bo‘lsa-da, o‘zbek tili lisoniy tizimida so‘z urg‘usi bo‘g‘inlarni iyerarxik tartibga solish va so‘zning fonetik butunligini ta’minlashda yetakchi o‘rin egallaydi. Urg‘u - so‘z yoki gap ichidagi alohida bo‘g‘in yoki tovushning boshqa bo‘g‘inlarga nisbatan ta’kidlanishi. Til tipologiyasida urg‘u shakllari va funksiyalari tillar orasida sezilarli darajada farqlanadi va u tilning fonologik va kommunikativ imkoniyatlariga bevosita ta’sir qiladi. Nutqdagi barcha ohang vositalari aynan urg‘u hosil qilgan cho‘qqi atrofida birlashadi. Shu bois, o‘zbek tili prosodiyasini tadqiq etishda, avvalo, urg‘uning tabiatini chuqur o‘rganish talab etiladi. Bu masalalarning to‘g‘ri tahlil qilinishi tilimizning ichki fonetik tuzilishini anglash bilan birga, nutq madaniyati, talaffuz me’yorlari va til ta’limini rivojlantirishda muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tili odatda leksik urg‘u so‘z oxirgi bo‘g‘inga tushishi bilan tavsiflangan bo‘lsa-da, ko‘p hollarda jahon tillari bilan qiyoslash, til tipologiyasi jihatidan umumiy qoidalar va farqlarni aniqlash talab etiladi. Xususan, jahon fonologiya maktabining asoschisi N.S. Trubetskoy o‘zining fundamental asari hisoblangan “Fonologiya asoslari” kitobida nutq idrokida tovushlarning reprezentativ sathidagi vazifalarini uch turga ajratadi. Muallif ushbu qatlamda fonetik xususiyatlarning kulminativ, delimitativ va distinktiv funksiyalarini alohida ta’kidlaydi. [N. S. Trubetzkoy. 1971:35]. Olim distinktiv funksiyani tilning yashashi uchun shart deb hisoblasa-da, urg‘u va chegara ko‘rsatkichlarini kommunikativ qulaylikni ta’minlovchi omillar sifatida talqin qiladi. Ya’ni, nutq jarayonida so‘zlar orasidagi chegaralarni har safar to‘xtam orqali ko‘rsatish o‘rniga, til tizimi urg‘u kabi tejamkor va samarali vositalardan foydalanadi. Bu esa tinglovchiga jumlani sintaktik va semantik yaxlitliklarga osonroq ajratish imkonini beradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, to‘xtam ko‘proq fiziologik zarurat yoki kuchli uslubiy vosita sifatida ko‘rinadi, ammo urg‘u – bu tilning doimiy va zaruriy segmenti. Muallif haqli ravishda urg‘u orqali erishiladigan tejamkorlik nutqning ritmik tuzilishini shakllantiradi deb to‘g‘ri yondashgan. Leksik urg‘usiz so‘zlar yig‘indisiga aylanib, uning semantik yaxlitligiga putur yetgan bo‘lardi. Aynan urg‘u so‘zlarni fonetik qobiqdan ma’noli sintaktik birlikka aylantirib beruvchi birlamchi vositadir. Agar funksional fonologiya maktabi vakillari urg‘uning kommunikativ qulaylik yaratishdagi o‘rnini ta’kidlagan bo‘lsalar, generativ yo‘nalish asoschisi N. Xomskiy urg‘uning shakllanishi jihatidan yondashadi. Xomskiy talqinida urg‘u — bu shunchaki akustik hodisa bo‘libgina qolmay, grammatik qoidalarning fonologik sathdagi proyeksiyasidir. Olim Nuclear Stress Rule (Yadroviy urg‘u qoidasi) orqali gap tarkibidagi har bir elementning urg‘u darajasi uning sintaktik iyerarxiyadagi o‘rniga ko‘ra matematik aniqlikda belgilanishini isbotlab beradi. Birikma tarkibidagi eng o‘ng tomonda joylashgan birlamchi urg‘uli bo‘g‘inga asosiy urg‘uni yuklaydi va qolgan barcha urg‘u darajalarini bir pog‘onaga pasaytiradi. [Chomsky, N., & Halle,

M. [1968:45]. Ya’ni Xomskiy har bir so‘zda bitta asosiy urg‘u va uning ikkilamchi shakllari bo‘lgani holida qo‘shimcha qo‘shilganda birlamchi urg‘u ko‘chib boraveradi.

Urg‘u nazariyasining dastlabki bosqichi qiyosiy-tarixiy va dialektologik kuzatishlarga asoslanadi. XX asrning boshlarida o‘zbek tilining fonetik qurilishi turkiyshunoslik kontekstida o‘rganilar ekan, dastlabki nazariyalar o‘zbek tili vokalizmi va urg‘usining boshqa turkiy tillardan farqli jihatlarini aniqlashga qaratildi. Xususan, o‘zbek tilidagi singarmonizm (tovushlar uyg‘unligi) qonuniyatining buzilishi va fors-tojik tili ta’sirida urg‘u tizimining o‘ziga xoslashuvi masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu davrda urg‘u ko‘proq etnolingvistik va areal xususiyat sifatida baholanib, uning nazariy asosi tovushlar tarixiy taraqqiyotini tushuntirishga xizmat qilgan. Urg‘u fonetik hodisa bo‘lishi bilan birga chuqur iyerarxik-sintaktik hodisa ekanligi ko‘rinadi. Jahon fonologiyasidagi ushbu qarashlar o‘zbek tilshunosligida, xususan, A. Abduazizov, M. Mirtojiyev kabi olimlarimizning tadqiqotlarida o‘ziga xos tarzda talqin etilgan. O‘zbek tilida urg‘uning fonologik funksiya bajarishini birinchi bo‘lib prof. Ayub G‘ulomov ko‘rsatib bergan edi. O‘zbek tilida urg‘u so‘zlarning mustaqilligini ta’minlaydi va bir xil fonematik tarkibdagi so‘zlar va so‘z shakllarini bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi [Abduzuhur Abduazizov. 2010:145]. Garchi o‘zbek tilida urg‘u an’anaviy ravishda so‘z oxiriga bog‘liq barqaror hodisa deb qaralsa-da, uning lisoniy tizimdagi o‘rni faqat joylashuv o‘rni bilan cheklanmaydi. N. Trubetskoyning funksional fonologiyasi va N. Xomskiyning generativ modellari o‘zbek tili urg‘usining chegaralovchi hamda iyerarxik-sintaktik tabiatini chuqur anglashga, uning ma’no va shakl qurilishidagi tarkibiy rolini ilmiy asoslashga imkon beradi. Til birliklarining shakliy tuzilishini nutq tovushlari tashkil etsa-da, ularning kommunikativ voqelanishi tovush kuchi, balandligi va davomiyligi kabi akustik ko‘rsatkichlar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Mazkur xususiyatlar nutqning segmentar qismlari ustiga qurilgan supersegment yoki prosodik sathni yuzaga chiqaradi. O‘zbek tili urg‘usini ko‘proq nutqiy segmentatsiyani shakllantiruvchi dinamik birlik sifatida baholash maqsadga muvofiq. Zero, agglyutinatsiya hodisasi tufayli so‘zning semantik chegaralari kengayishi jarayonida aynan urg‘u lisoniy yaxlitlikni ta’minlovchi tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tili prosodik tizimining o‘ziga xosligini ochib berishda M. Mirtojiyevning urg‘u yuzasidan qilgan ilmiy-amaliy ishlari alohida ahamiyatga ega. Olim o‘zining bir qator amaliy ishlarida urg‘uning nafaqat so‘z oxirida kelishi, balki uning turli nutqiy vaziyatlarda ko‘chishi va ma’no farqlashdagi imkoniyatlarini kvantitativ va artikulyatsion tahlillar orqali yoritib bergan. Tilning o‘ziga xos talaffuzini belgilab berish urg‘uning muhim vazifasi bo‘lib, tabiiy ravishda, u so‘zning ajralmas fonetik xususiyati bo‘ladi va har bir so‘zning bo‘g‘inida o‘z aksini topadi. Ya’ni har bir so‘zning biror bo‘g‘ini urg‘uni o‘zida aks ettiruvchi eng yuqori talaffuz

nuqtasi, muhim nuqtasi bo‘lib qoladi. [Щербак А. 1910:75] O‘zbek tilining so‘z leksik urg‘usi uchun cho‘ziqlik asosiy komponent hisoblanadi. Ya’ni o‘zbek tilidagi so‘zlarning leksik urg‘u tushgan bo‘g‘ini unlisi boshqa bo‘g‘in unlisidan nisbatan cho‘ziq bo‘lishi shart. [M. M. Mirtojiyev. 2013:150] Shu bilan birga, o‘zbek tilida urg‘uning nutqiy segmentatsiyani ta’minlashdagi roli uning akustik tabiatida ham o‘z aksini topadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, leksik urg‘u olgan bo‘g‘in unlisida tovush kuchi ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib, asosiy urg‘u ko‘pincha tovushning nisbiy davomiyligi hisobiga yuzaga chiqadi. Urg‘uli bo‘g‘inning ham cho‘ziqlik, ham kuch jihatidan boshqa unlilardan ajralib turishi so‘zning fonetik yaxlitligini ta’minlashda muayyan cho‘qqi hosil qilishga xizmat qiladi. Masalan, burun so‘zini akustik jihatdan tahlil qilganimizda so‘z urg‘usi ikkinchi bo‘g‘iniga tushganini ko‘rsatadi, urg‘uli unli 80 m.sek. cho‘ziqlikka ega bo‘lib, birinchi bo‘g‘in unlisi 20 m.sek. cho‘ziqlikda talaffuz etilgan. Tahlilga ko‘ra, ikkinchi bo‘g‘in unlisi birinchi bo‘g‘in unlisidan to‘rt baravar cho‘ziq. Shunga mos ravishda, urg’u tushgan bo‘g‘in 6 mm amplituda kuch bilan, birinchi bo‘g‘in esa 5.5 mm amplituda kuchda talaffuz qilingan. Bu shuni ko‘rsatadiki, urg’u tushgan bo‘g‘in ham cho‘ziqligi ham, ham tovush kuchi jihatidan ham yuqori turadi. O‘zbek tili urg‘u tizimining o‘ziga xos tabiatini yoritishda M. Mirtojiyevning amaliy tadqiqotlarida urg‘uning an’anaviy so‘z oxiridagi o‘rni bilan bir qatorda, uning nutqiy vaziyatlarga ko‘ra ko‘chishi hamda semantik farqlash imkoniyatlarini ochib bergan. Zero, tilning o‘ziga xos talaffuz qiyofasini belgilovchi ushbu hodisa so‘zning zarur tarkibiy qismi bo‘lib, lisoniy birlikning har bir bo‘g‘inida o‘z ifodasini topadi.

Urg‘u va prosodiya shunchaki segmentar-fonetik hodisa bo‘lmay, nutqning semantik, pragmatik va emotsional qatlamlarini shakllantiruvchi ko‘p funksiyaliligi bilan ajralib turadi. Ularning lisoniy tizimdagi o‘rni til tipologiyasiga ko‘ra leksik yoki sintaktik sathlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Mazkur suprasegmental birliklarni tadqiq etishda akustik tahlil va korpus ma’lumotlariga tayangan holda individual yondashish ilmiy zaruriyat hisoblanadi.

O‘zbek tilida an’anaviy ravishda urg‘uning so‘z oxirgi bo‘g‘iniga tushishi holati ko‘proq qayd etilgan bo‘lishi mumkin, lekin umumiy tahlil va chet tillar bilan solishtirish shuni ko‘rsatdiki: bu - universal qonun emas. Urg‘u joylashuvi va uning aks etishi kontekst, morfologik struktura, nutq turi, stilistik shartlar, pragmatik vaziyatlar va ohang birliklarga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin. Shunday ekan, o‘zbek tilida urg‘u va prosodiya masalalari faqat klassik fonologik tavsiflar asosida emas, balki zamonaviy tilshunoslik, fonetika, akustika va pragmatik jihatdan yondashish orqali qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Til o‘rgatish, talaffuz mashg‘ulotlari va til ta’limi metodikasida ham urg‘u va prosodiya alohida e’tiborga loyiqdir. Ayniqsa chet tilini o‘rganuvchilarda (masalan, ingliz tili), segmental talaffuz bilan birga leksik

urg‘u, ohang, ritm va fonetik xususiyatlarni ham tushuntirish, mashq qilish - tilni tushunish va ravon talaffuz qilishda samaradorlikni oshiradi. Urg‘u va prosodiya tahlillari tilshunoslikda faqat bir muammo emas, balki til tahlilining muhim yo‘nalishi, til tipologiyasini, fonologiya va fonetika qonuniyatlarini, nutq kommunikativ jihatlarini birlashtiruvchi kompleks fenomen. Shu bois kelajakda urg‘u tadqiqotlari kengaytirilgan: akustik tahlillar, real nutq korpusi, tipologik solishtirish, morfologik va pragmatik kontekstlar, dialektal va stilistik variantlarni hisobga olgan holda olib borilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Jamolxonov. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2009.
2. N. S. Trubetzkoy. Principles of Phonology – Ltd. London, England: California University of California Press, 1971.
3. Chomsky, N., & Halle, M. The Sound Pattern of English. – New York: Harper & Row, 1968.
4. Abduzuhur Abduazizov. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi : Toshkent – Universitet, 2010.
5. Шербак А. М. Сравнителъная фонетика тюркских язмков.]–Л.: На- ука, 1970. –С. 110; Федянина Н. А. Ударение В современном русском язмке, -М. РЯ.,1976.

TIL VA MILLIY IDENTITET

Mamatqulova Muxayyoxon
Toshkent Amaliy Fanlar universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va milliy identitet o‘rtasidagi dialektik munosabat zamonaviy lingvokulturologiya va antropotsentrik paradigma asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda V. fon Gumboldtning “til – millat ruhi” nazariyasidan kelib chiqib, tilning milliy mentalitet va dunyoqarashni shakllantirishdagi roli ochib berilgan. Xususan, Avstraliya aborigenlari ingliz tili (Aboriginal English) misolida “til”, “vatan” va “oila” tushunchalari, shuningdek, o‘zbek va ingliz tillaridagi “oy” konseptining qiyosiy tahlili orqali madaniy konseptualizatsiya jarayoni yoritilgan. Maqolada globallashuv sharoitida “trans-madaniy identitet” va “trans-varietal” so‘zlovchilar fenomenining paydo bo‘lishi, vaqt (time) konseptiga polixron va monoxron yondashuvlar, hamda xorijiy tilni o‘rganishda madaniy kodlarni interpretatsiya qilish masalalari tadqiq qilingan. Xulosada til o‘rganish jarayoni nafaqat lisoniy ko‘nikma, balki madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish va milliy o‘zlikni boyitish omili ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *til va madaniyat, milliy identitet, madaniy konseptualizatsiya, lingvokulturologiya, V. fon Gumboldt, trans-madaniy identitet, olamning lisoniy manzarasi, madaniy kod, madaniyatlararo muloqot, Jahon ingliz tili (World Englishes).*

Annotation: This article analyzes the dialectical relationship between language and national identity based on modern linguoculturology and the anthropocentric paradigm. Drawing upon W. von Humboldt's theory of language as the "spirit of the nation," the study explores the role of language in shaping national mentality and worldview. Specifically, the process of cultural conceptualization is elucidated through a comparative analysis of Aboriginal English (concepts of "language," "country," and "family") alongside the concept of "Moon" in Uzbek and English languages. The article investigates the emergence of "trans-cultural identity" and "trans-varietal" speakers in the context of globalization, contrasting polychronic and monochronic approaches to the concept of "time," as well as issues regarding the interpretation of cultural codes in foreign language acquisition. The study concludes that the language learning process is a fundamental factor in forming not only linguistic skills but also intercultural competence and enriching national self-awareness.

Keywords: *language and culture, national identity, cultural conceptualization, linguoculturology, W.von Humboldt, trans-cultural identity, linguistic picture of the world, cultural code, intercultural communication, World Englishes.*

Ma’lumki, inson jamiyatdan ayro holda yashay olmaganidek, tilsiz ham mavjud bo‘la olmaydi. Til insonlar orasidagi eng asosiy axborot almashish qurolidir. Qolaversa, til inson uchun muloqotni ta’minlabgina qolmay, millatning o‘ziga xos milliy mentaliteti, dunyoqarashi, e’tiqodi, madaniyati va tarixiy tajribalarini o‘zida aks ettiruvchi tirik xazinadir. Lingvokognitiv tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir til o‘ziga xos madaniy konseptualizatsiyalar(madaniy tushunchalar)dan iborat. Ya’ni inson dunyoni o‘zining fikrlashi, madaniyati va bilimlari asosida ko‘radi. Tildagi so‘zlar inson tafakkurida tasvirlar hosil qiladi va bunda insonning yashash tarzi alohida o‘rin tutadi. Bu jarayonda shaxs o‘zining milliy mansubligini anglash, uning qadriyatlari, tarixiy xotirasi va madaniy tajribasini qabul qilish ya’ni milliy identitet shakllanadi.

Aslini olganda til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat dialektika qonuniga bo‘ysunadi, ya’ni bir-birisiz mavjud emas. Hozirgi globallashuv zamonida, jahon tillarini o‘rganishga talab kuchayib borishi natijasi til va milliy identitet munosabatiga ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Til va milliyat tushunchalarining ajralmas ekanligini ta’kidlash jarayonida, V.fon Gumboldtning quyidagi fikrlari yodimizga keladi. “Til xalqlar ruhining xuddi zohiriy namoyon bo‘lishidir: xalqning tili uning ruhidir va xalqning ruhi uning tilidir, bulardan-da bir-biriga aynan mos boshqa biror narsani tasavvur qilib bo‘lmaydi”; “Xarakter yaratish uchun eng qulay vosita tildir; butun milliy xarakter faqat tilda muhrlangan”; “Millatning xarakterini axloq, odat, 6 xatti-harakatidan ko‘ra, tiliga qarab osonlik bilan bilish mumkin” [Гумбольдт, 1984: 68]. Bu fikrlardan anglashiladiki, har bir til foydalaniladigan millatiga doir milliy o‘ziga xoslikni tashiydi. Shu nuqtayi nazardan ham til sofligini saqlash, uning umrini bardavom qilish uchun til madaniyatini shakllantirishga e’tibor qaratish lozimdir. 2003-yilning 21-fevralida Xalqaro ona tili kuni munosabati bilan YUNESKOning o‘sha paytdagi Bosh direktori Koichiro Matsuuro shunday degan edi: “Ona tiliga nima uchun bu qadar e’tibor berilmoqda? Shuning uchunki, tillar insoniyat ijodining butun rang-baranglikdagi betakror ifodasidir. Aloqa, idrok va tafakkur quroli sifatida til, shuningdek, biz dunyoni qanday ko‘rishimizni tavsiflaydi, o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi aloqani aks ettiradi. Har bir insonda tug’ilganidanoq tilning muayyan ta’sirlarni yuzaga keltirishiga, ya’ni hatto keyinchalik inson boshqa ko‘plab tillarga sohib bo‘lganida ham mutlaqo yo‘qolmaydigan, narsalarni o‘ziga xos tarzda ko‘rishni ato qilishiga ko‘ra ona tillari unikaldir. Xorijiy tilni o‘rganish – bu dunyoni boshqacha ko‘rish

bilan, boshqacha yondashuvlar bilan tanishish usulidir.” Yapon diplomati bu g’oyani ilgari surar ekan, o‘zga tilni o‘rganish dunyoni boshqa ko‘z bilan ko‘ra olish, u til madaniyatini o‘ziga singdirish ekanligini ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayoni shunchaki yangi leksik birliklar va grammatik qoidalarni yodlash bilan cheklanmaydi, balki o‘sha til egalarining dunyoni idrok etish modelini — olamning lisoniy manzarasini (linguistic picture of the world) kashf qilishni ham taqozo etadi. Zamonaviy tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmada, til va madaniyat munosabati Saper-Uorf gipotezasi (lingvistik nisbiylik nazariyasi) gipotezasi orqali yanada chuqurroq tahlil qilinmoqda. Unga ko‘ra, insonning tafakkuri va dunyoqarashi u so‘zlashadigan tilning gramatik va leksik tuzilishi tomonidan qoliplanadi. Demak, globallashuv sharoitida ikkinchi tilni o‘rganish inson ongida “ikkilamchi lisoniy shaxs”ni shakllantiradi. Bu jarayon bir tomondan, shaxsning kognitiv imkoniyatlarini kengaytirib, unga o‘zga madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish (intercultural competence) imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ona tili va milliy o‘zlikni saqlab qolish masalasini dolzarb qilib qo‘yadi. Zero, Matsuura ta’kidlaganidek, ona tili insonga “narsalarni o‘ziga xos tarzda ko‘rishni" ato etgan birlamchi manbadir va u shaxsning ruhiy-ma’naviy o‘zagi bo‘lib xizmat qiladi.” Yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qiladigan bolsak, inson yangi tilni o‘rganar ekan o‘z ona tiliga qay daraja dahl qiladi? Ya’ni yangi til insonda to‘liq shaklda o‘sha tilga oid madaniyatni namoyon qiladimi? Bu savollarga javob topish uchun ikki tillilar orasida tajribalar o‘tkazish va ularning ongida tillar qay darajada modellashishini o‘rganish lozim.

Tadqiqotchilar, xususan, Kler Kramsh (Claire Kramsch) kabi olimlarning fikricha, til o‘rganuvchi to‘liq “xorijlik” bo‘lib qolmaydi va ayni paytda faqat o‘z milliy qobig’ida ham qolib ketmaydi. U “uchinchi makon” (third place) deb ataluvchi ramziy hududda o‘zligini qayta kashf etadi. Bu makonda shaxs o‘z milliy qadriyatlarini saqlagan holda, global madaniyat bilan muloqotga kirishadi. Demak, xorijiy tilni o‘rganish bu o‘zlikdan voz kechish emas, balki “madaniyatlararo kompetensiya”ga ega bo‘lish demakdir.

Zero, hozirgi kunda bir tilni turli madaniyatlarda o‘rganlishi ustida tajribalar olib borilmoqda. Eng ko‘p o‘rganiladigan va so‘zlashiladiga tillardan biri ingliz tilini turli madaniyatlarda ishlatilishini tahlil qilinmoqda. Ingliz tilining global miqyosda keng tarqalishi tobora ko‘proq madaniyatlarning ingliz tili bilan bog’lanishiga olib kelmoqda va bu o‘z navbatida ingliz tilining ko‘plab yangi variantlari paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Shunday qilib, "Jahon ingliz tili variantlari" (World Englishes) paradigmasi til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog’liqlikni o‘rganuvchi yondashuvdan sezilarli foyda ko‘radi va Madaniy lingvistika aynan mana shu imkoniyatni taqdim etadi. aborigen madaniy sxemasini ifodalovchi leksik

birliklarga misol sifatida “til” (language) so‘zini keltirish mumkin; bu tushuncha mahalliy so‘zlovchilar uchun o‘zgacha ramziy ahamiyat (symbolic significance) kasb etadi. Avstraliyalik aborigen Joan Tranter ta’kidlaganidek: “Til — shunchaki so‘zlar yig’indisi emas. U yer va vatan (yurt) bilan bog’lovchi bevosita rishtadir. Til o‘zida an’anaviy qo‘shiqlar va rivoyatlarni saqlaydi [Joan Tranter, cited in New SouthWales Reconciliation Council 2011]. “Aborigenlar dunyoqarashiga (olam manzarasiga) ko‘ra, ilohiy ajdodlar “Tushlar davri”da (Yaratilishning muqaddas zamoni) borliq va insoniyatni yaratib, turli aborigen "hududlari"ga (countries) mahalliy tillarni “joylashtirganlar” (ekkanlar). Shu tariqa, “til” tushunchasi aborigen xalqini o‘z yeri bilan uzviy bog’lovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi [Rumsey, 1993]. Aborigenlar ingliz tilidagi “country”(mamlakat/hudud) so‘zi madaniy asosda shakllantirilgan geografik chegaralarni qamrab oladi va shu jihatdan, ushbu leksema aborigen madaniy konseptini o‘zida namoyon etadi.” [Cultural Linguistics and world Englishes, Farzad Sharifian World Englishes, 2015 0883-2919 doi: 10.1111/weng.12156]. Bu misollar ingliz tilini madaniyat vakillari orasidagi konseptualizatsiy jarayonida turli xil tasvir hosil qilishining isbotidir. bu jarayonda milliy identitet ham muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, milliy identitet shunchaki o‘z ona tilida so‘zlashish bilan cheklanmaydi, balki u o‘zga tilda muloqot qilganda ham o‘z madaniy kodlarini (cultural codes) saqlab qolish va uzatish salohiyatida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, til egasi (subyekt) xorijiy tildan foydalanganda, ongsiz ravishda o‘z milliy madaniyati va qadriyatlar tizimiga tayanadi. Natijada, umumiy qabul qilingan ingliz tili so‘zlari yangi, milliy-madaniy mazmun bilan boyiydi.

Muayyan leksema turli identitet vakillari ongida farqli asotsiya hosil qilishi mumkin. Avstraliyalik madaniy tilshunos Farzad Sharifian bir guruh Aborigen talabalari gapiradigan ingliz tilidagi madaniy kontseptualizatsiyalarni o‘rgangan, ularning talaffuzi Avstraliya ingliz tili so‘zlovchilariga o‘xshaganligi sababli o‘qituvchilari ularni Aborigen ingliz tili so‘zlovchilari sifatida aniqlamaganlar. Biroq, so‘z assotsiatsiyasi (Word Association) tadqiqoti orqali u “family” (oila), “home” (uy) va “shame” (uyat) kabi inglizcha so‘zlar ushbu talabalarda asosan Avstraliya ingliz tiliga emas, balki Aborigen ingliz tiliga xos bo‘lgan madaniy kontseptualizatsiyalarni uyg‘otganini aniqladi. Masalan, Aborigen talabalari uchun "family" (oila) so‘zi anglo-avstraliya madaniyatida markaziy tushuncha bo‘lgan **“**yadroviy” (nuclear) oiladan ancha keng bo‘lgan Aborigen ingliz tilidagi toifalar bilan bog‘langan ko‘rinadi. Aborigen ishtirokchilar tomonidan berilgan javoblar (masalan, *uncles* — amakilar/tog‘alar, *aunties* — xolalar/ammalar kabi kengaytirilgan oila a’zolariga murojaat qilish) Oila haqidagi Aborigen madaniy sxemasini namoyon etadi. Anglo-Avstraliya ishtirokchilarining javoblari esa "oila" so‘zi ko‘p hollarda yadroviy oila bilan cheklanganligini, ba’zan esa uy hayvonlari

ham kiritilganligini ko‘rsatadi. [Farzad S h a r i f i a n, Cultural Linguistics, Ethnolinguistic 28 Lublin 2017 .DOI: 10.17951/et.2016.28.31]. Bundan ko‘rinib turibdiki, bir tilda so‘zlashuvchi ammo turli madaniyat vakili ongidagi tasvir ham boshqa-boshqa narsalarga ishora qilishini yaqqol isbotidir. Yoki bo‘lmasa, ma’lum madaniyatga doir o‘xshatishlarni olsak, ular shunchaki muayyan bir narsa yoki hodisaga obrazli tasvirni ifodalash bilan birga, tilning madaniy konseptualizatsiyalarni ham o‘zida aks ettiradi. Masalan, “Oy” (Moon) konseptining lisoniy voqelanishini qiyosiy tahlil qilib ko‘raylik. O‘zbek milliy lisoniy manzarasida “oy” — go‘zallik, poklik va nafosatning eng yuqori etaloni hisoblanadi. Xalqimizda keng qo‘llaniladigan *“oydan tushgandek”*, *“oy yuzli”* yoki *“o‘n to‘rt kunlik oydek”* kabi o‘xshatishlar asosan ayollar go‘zalligini ta’riflashda ijobiy estetik baho (pozitiv konnotatsiya) kasb etadi.

Biroq, ingliz tilidagi lisoniy madaniyatda xuddi shu osmon jismi boshqacha konseptual ma’nolarni tashiydi. Ingliz tilida *“moon-faced”* (oy yuzli) birikmasi go‘zallikni emas, balki ko‘pincha shaxsning yuzi haddan tashqari yumaloq va rangpar ekanligini anglatuvchi, biroz kinoyali yoki neytral tasvirni ifodalaydi. Qolaversa, inglizlarda oy ko‘proq *“lunacy”* (telbalik) yoki *“moodiness”* (kayfiyat o‘zgaruvchanligi) tushunchalari bilan assotsiatsiya qilinadi.
Ko‘rinib turibdiki, tabiatdagi yagona obyekt turli xalqlarning milliy identitetidan kelib chiqib, turlicha “madaniy kod”lar bilan yuklangan. Til egasi o‘z nutqida ushbu o‘xshatishlardan foydalanganda, o‘zi anglamagan holda o‘z millatiga xos estetik did va dunyoqarashni namoyish etadi.

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillardan kelib chiqib, til va madaniyat, til va tafakkur,til va milliy identitet tushunchalari bir-birini taqozo etuvchi munosabatlardir. V.fon Gumboldt ta’kidlaganidek, til xalqning ruhini aks ettiradi va bu aloqa bugungi globallashuv davrida ham o‘z kuchini yo‘qotmagan. Inson qaysi tilda so‘zlashmasin, uning nutqida milliy dunyoqarash, tarixiy xotira va qadriyatlar izi saqlanib qoladi. Masalan, oila so‘zini oladigan bo‘lsak, inson bu so‘zni qaysi tilda ishlatmasin, o‘zining milliy mentaliteti nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, ongida tasvir hosil qiladi.

Biroq, XXI asr lingvistik manzarasini tahlil qilar ekanmiz, masalaning yana bir muhim jihatini – “trans-madaniy identitet” tushunchasini ham ko‘zdan qochirmasligimiz lozim. Bugungi shiddatli globallashuv va axborot almashinuvi davrida inson ko‘pincha yagona madaniy muhit bilan cheklanib qolmay, bir vaqtning o‘zida bir nechta til va madaniyatlar kesishmasida yashamoqda.. Bugungi globallashuv davrida insonlar ko‘pincha bir nechta madaniyat va tillar ta’sirida yashashi va ommaviy axborot vositalari natijasida “trans-varietal” (variantlararo) so‘zlovchilar paydo bo‘lmoqda. Bunday insonlar bir vaqtning o‘zida bir nechta

madaniy konseptualizatsiya tizimlaridan foydalanishi mumkin, bu esa milliy identitetning yangi, yanada murakkab va o‘zgaruvchan shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, misol sifatida xalqaro kompaniyalarda ishlovchi mutaxassislarning “vaqt” (time) konseptiga munosabatini keltirish mumkin. Ular o‘z oilaviy davrasida yoki milliy marosimlarda (masalan, to‘y-hashamda) vaqtga nisbatan sharqona polixron (vaqtga qat’iy rioya qilinmaydigan, munosabatlar ustun turadigan) yondashuvni namoyon etadilar. Ammo ish jarayonida, xorijiy hamkorlar bilan ingliz tilida muloqotga kirishganda, ular ongli ravishda g’arbga xos monoxron (vaqt – pul, qat’iy reja) madaniy sxemaga o‘tadilar. Bu insonning ikki xil madaniy makonda birdek harakatlana olish (code-switching of behavior) qobiliyatini isbotlaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, tilning markazida inson turar ekan, uning tahlili va o‘rganilishi murakkablashib boraveradi. Inson tildan shunchaki axborot almashish, ijtimoiylashish uchungina emas, madaniy kodlarni uzatish, yangi tilni o‘rganish bu yangi madaniyatni ham ichiga kirib borishi demakdir. Har bir tilning o‘ziga xos fonetik tizimi, ifoda uslubi, tasviriy ifodalari, iboralari, gap qurilishi bor. Bu omillar tilning xususiyligini ifodalash bilan birga madaniyatini ham ifodalaydi. Muayyan madaniyatdagi o‘ziga xos jihatlar uning tilida zuhur bo‘ladi. Shunday ekan, xorijiy tillarni o‘rganish va qo‘llash jarayoni milliy o‘zlikni yo‘qotishga emas, balki uning murakkablashuvi va boyishiga olib kelmoqda. Zamonaviy inson o‘z milliy ildizlariga tayangan holda, dunyo madaniyatining universal kodlarini ham o‘zlashtirib, moslashuvchan va dinamik identitetni shakllantirmoqda.

Zero, tilshunoslik va pedagogikaning asosiy vazifasi — til o‘rganuvchilarda nafaqat leksik-grammatik ko‘nikmalarni, balki madaniyatlararo muloqot ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat bo‘lmog’i lozim. O‘z ona tili boyliklarini chuqur anglagan va ayni paytda o‘zga madaniyatlarni to‘g’ri talqin qila oladigan shaxsgina globallashuv davrining chinakam “madaniyatlararo muloqot subyekti”ga aylana oladi.o‘zga madaniyatlarni to‘g’ri interpretatsiya qila oladigan shaxsgina globallashuv davrining chinakam “madaniyatlararo muloqot subyekti”ga aylana oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гумбольдт, В. фон. (1984). Избранные труды по языкознанию. (Перевод с нем. Г.В. Рамишвили). Москва: Прогресс. (68-bet).
2. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press. (Third place concept).

3. Kramsch, C. (2009). The Multilingual Subject: What Language Hunters Don't Tell You. Oxford: Oxford University Press.
4. Matsuura, K. (2003). Message from Mr. Koichiro Matsuura, Director-General of UNESCO, on the occasion of International Mother Language Day. Paris: UNESCO.
5. New South Wales Reconciliation Council. (2011). Our Languages, Our Way. Sydney: NSWRC. (Joan Tranter interview).
6. Rumsey, A. (1993). Language and territoriality in Aboriginal Australia. In M. Walsh & C. Yallop (Eds.), Language and Culture in Aboriginal Australia (pp. 191–206). Canberra: Aboriginal Studies Press.
7. Sharifian, F. (2015). Cultural Linguistics and World Englishes. World Englishes, 34(4), 515-532. doi: 10.1111/weng.12156.
8. Sharifian, F. (2017). Cultural Linguistics. Ethnolinguistics. Problems of Language and Culture, 28, 33-61. Lublin. DOI: 10.17951/et.2016.28.31.
9. Whorf, B. L. (1956). Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Cambridge, MA: MIT Press. (Saper-Uorf nazariyasi asosi).
10. Маслова, В. А. (2001). Лингвокультурология: Учебное пособие. Москва: Академия. (Qo‘shimcha nazariy asos uchun tavsiya etiladi).
11. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (O‘zbek tilshunosligi nuqtai nazaridan).

O‘XSHATISHLAR BILISHNING MEXANIZMI SIFATIDA

Rahmonaliyeva Shahnoza Yorqinjon qizi
1-kurs magistranti
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada lisoniy o‘xshatishlarning inson tafakkurida axborotni qayta ishlash va yangi bilimlarni tizimlashtirishdagi kognitiv mexanizm sifatidagi o‘rni tadqiq etiladi. Tadqiqotda o‘xshatishlar an’anaviy ritorik bezak darajasidan chiqarilib, borliqni anglash va modellashtirishning fundamental vositasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvokognitologiya, lisoniy o‘xshatishlar, analogiya, mental xaritalash, vizual obraz.*

Abstract: This article investigates the role of linguistic similes as a cognitive mechanism in information processing and the systematization of new knowledge within human cognition. The study moves beyond the traditional view of similes as mere rhetorical ornaments, interpreting them instead as fundamental instruments for perceiving and modeling reality.

Keywords: *Cognitive Linguistics, linguistic similes, analogy, mental mapping, visual image.*

Insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi bu unga ato etilgan til va tafakkurdadir. Darhaqiqat, til va tafakkur insoniyat taraqqiyotining mezoni, uning olamni idrok etishdagi asosiy vositadir. Qolaversa, til — shunchaki tovushlar tizimi emas, balki inson ongining borliq bilan munosabati, uni o‘z tafakkuri va idroki mahsuli sifatida qabul qilish jarayonidir. Biz biror voqealikni shunday ko‘rmaymiz, balki uni til imkoniyatlarimiz orqali ongimizda qayta ishlash orqali tahlil qilamiz. Ma’lumki, insonning borliqni bilishi uning yer yuzida paydo bo‘lishi bilan boshlangan. U borliqni idrok qilishning muayyan bosqichida tilga ega bo‘lgan, boshqacha aytganda, borliqni amaliy bilish va til orqali tushunish-tushuntirishdek ajralmas bu ikki faoliyat insonning fitratida mavjud. Tilning olamni bilish jarayonlari va bu jarayonning natijalarini boshqalarga yetkazishdagi rolini tushunish demakdir. Ya’ni tilning bilish jarayonidagi rolini anglash bu uning kognitiv vazifalarini boshqa vazifalari bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishdir. Tilning ana shunday maqsadda o‘rganish kognitiv yondashuv yoki kognitiv lingvistika deb ataladi[Болдырев,2019:194] Insonda kognitiv imkoniyat borligi uchungina u qiyoslay oladi, o‘xshata oladi yoki reja tuza oladi. Ana shunday kognitiv imkoniyatlardan biri bu lisoniy o‘xshatishlardir. O‘xshatishlarning tarixi til va tafakkur haqidagi ilk qarashlar bilan

chambarchas bog‘liq. Hofstadter ta’kidlaganidek, analogiyani inson kognitsiyasining o‘zagi deb hisoblash mumkin.Ularni kognitiv jihatdan tahlil qilish jarayonigacha turli xil yo‘llarni bosib o‘tishgan. Analogiya ehtimol o‘n ming yillar davomida insonning kognitiv qobiliyati bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, uning tarixiy manbalarda bevosita namoyon bo‘lishi yozma tilning rivojlanishini kutdi. Analogiyadan foydalanish — alohida vaziyatlar o‘rtasidagi munosabat o‘xshashliklarining aniq qayd etilishi — dunyoning eng qadimgi saqlanib qolgan adabiyotlarida uchraydi. Taxminan 4000 yil muqaddam yozilgan Bobilning “Bilgamish” dostonida qahramon o‘z do‘sti Enkiduning jasadi ustida motam tutadi:

...Bilgamish yopdi. Enkiduning yuzini kelinning niqobi kabi.
U jasad uzra burgutdek parvona bo‘ldi,
Yoki o‘z bolalari uzra ona sher kabi.

Xuddi shu davrda qadimgi misrlik shoir shunday deb yozgan edi:

O‘lim bugun mening qarshimda
Xuddi musaffo bo‘lgan osmondek,
Asirlikning sanog‘i yo‘q yillaridan so‘ng vatanini ko‘rishni istagan kishining orzusidek.

Analogiyalar barcha davrlar va madaniyatlar she’riyatida muhim o‘rin tutgan. Analogiyaning asosiy funksiyalaridan biri — ehtimol uning eng qadimiysi — she’riyatda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu emotsiyalarning ko‘chirilishi jarayonidir[Gentner., Holyoak., Kokinov,2001: 8]

O‘xshatishlar haqida fikrlar Aristotelning “Ritorika” asarida ham duch kelishimiz mumkin. Notiqlar nutqida o‘xshatishlar shunchaki nutq bezagi o‘laroq tinglovchilarning ongiga ta’sir ko‘rsatish ya’ni ularning ongida vizual ma’no uyg‘otish bo‘lgan. Ana endi o‘xshatishlar adabiyotda asarning badiiy bezagi, she’riyatning esa estetik quvvatini oshiruvchi vosita sifatida tahlil qilingan. Biroq ushbu yondashuvlarning hech biri o‘xshatishning inson tafakkuridagi axborotni qayta ishlash tizimi ekanligini to‘liq ochib berolmagan edi. O‘xshatishlar nutqning bezagigina bo‘lib qolmay, balki inson tafakkurining dunyoni idrok qilishdagi asosiy quroli, ya’ni bilishning o‘ziga xos mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Professor N. Mahmudov ham o‘xshatishlarni olamni anglashdagi o‘rni haqida quyidagicha fikr yuritadi: “Insonning dunyoni bilishda o‘xshatish-qiyoslash benihoya katta o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini

topadi. Ta’kidlash lozimki, qiyoslash bilingan narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkoniyatini beradi, masalan, toshning qattiqligi bilingan xususiyat bo‘lsa, endi boshqa narsaning shu xususiyati toshga qiyosan (toshdan qattiq) yoki toshga o‘xshatish orqali (toshday qattiq) osonlik bilan idrok etilaverishi mumkin[Mahmudov.,Xuyoyberganova,2013:4,5] O‘xshatishlarning bilish jarayonidagi o‘rni haqida jahon tilshunos olimlarining ham bir nechta fundamental nazariyalari mavjud. Xususan, Dedre Genterning “Stucture-mapping theory ” nazariyasidagi yondashuvida o‘xshatish — bu narsalarning o‘zini emas, balki ularning qanday tartibda bog‘langanligi (tizimi) haqidagi bilimni bir sohadan ikkinchisiga o‘tkazish mexanizmidir. Masalan, tilimizda aktual holatda qo‘llanib kelinayotgan “bo‘zchining mokisiday”(ko‘p qatnamoq, tinimsiz borib kelavermoq, sarson bo‘lmoq) o‘xshatishi asosida tahlil qilishimiz mumkin. Unda moki bilan inson harakati o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlik emas, ularning har ikkisidagi tizimlilik va takroriylik kabi ichki mantiqiy munosabatlarni xaritalash kabi qarashni ilgari suradi. O‘xshatishlarni kognitiv jihatdan tahlil qilishda uning quyidagi asosiy vazifalari mavjud.

1. *Mental xaritalash* — bunda o‘xshatishlarni tizimlik o‘xshashlik asosida ko‘chirish. Ya’ni obyektlarning tashqi ko‘rinishi emas, balki ularning ichki ishlash tizimi va mantiqiy bog‘liqliklarni bir sohadan ikkinchi sohaga o‘tkazish.

2. *Vizual obraz yaratish* — inson ongida subyekt va etalon o‘rtasidagi o‘xshashlikni ta’minlovchi mental reprezentatsiyaning (ruhiy aksning) shakllanish jarayonidir. Bu reprezentatsiya ko‘p hollarda vizual obraz shaklida namoyon bo‘lsa-da, mohiyatan u tushunchalarning kognitiv xususiyatlarini bir-biriga ko‘chiradi.

Endi bu har ikki vazifaning ham farqli va mushtarak jihatlarini quyidagi jadval orqali dalillaymiz:

Umumiy o‘xshashlik jihatlari

1.	Kognitiv asosi	Har ikkala jarayon ham inson ongida sodir bo‘ladi va til birliklari ya’ni o‘xshatishlar tomonidan qo‘zg‘atilishi
2.	Maqsad mushtarakligi	Ikkisining ham vazifasi — so‘zlovchi yetkazmoqchi bo‘lgan mavhum tushunchani tinglovchiga yanada tushunarli qilish
3.	Sinxronlik	O‘xshatishni eshitgan paytimizda miyya bu ikki jarayonni deyarli bir vaqtda, parallel tarzda bajara boshlashi

Farqli jihatlari

	Vizual obraz	**Mental xaritalash**
1.	Rasm. Miya etalonni tashqi ko‘rinishini gavdalantiradi	Jarayon. Miya etalonning xususiyatlarini subyektga ko‘chiradi
2.	Shunchaki bir tasvirni “ko‘rish”	Bir sohadan ikkinchi sohaga “ko‘prik” qurish natijasida bog‘lash
3.	Faqat ko‘proq tashli belgilar (shakl, rang, hajm) ahamiyat kasb etishi	Ichki xususiyatlar, mantiqiy bog‘lanishlar

Qo‘shimcha qilib, vizual obraz bu o‘xshatishlarning shunchaki “bezagi” emas, balki kognitiv asosi hamdir. Vizual obraz bo‘lmasa kognitiv jarayon ham mavjud emas. Vizual obrazning kognitiv rollarini quyidagi misollar orqali anglashimiz osonroq.

1. Inson miyasi juda katta hajmdagi ma’lumotni bitta vizual obrazga "joylab" qo‘yadi. “Paxtaday yumshoq” deganda, ongimizda uzundan uzun gaplarni saqlamaydi. Bu esa uning axborotni siqish vazifasi.
2. “Tulkidek ayyor” degan o‘xshatishda esa inson tafakkuri anglashda qiyinchilikka duch keladigan mavhum (masalan: *ayyorlik, mardlik, go‘zallik*) kabilarni konkretlashtiradi. Ongimizda bu ayyorlik sifati “tulki” orqali aniqlashtiradi. Qolaversa, shunday o‘xshatish idrokimizda o‘xshatilayotgan narsa yoki odamga nisbatan bashorat qila olish va baholash kabi kognitiv vazifalarni ham bajara oladi.

Xulosa sifata ko‘rishimiz mumkinki, o‘xshatishlarning bilish mexanizmidagi o‘rni beqiyos. O‘xshata olish bu insonning fundamental qobiliyatlaridan biri desak ham bo‘ladi. O‘xshatishlarni madaniyat tashuvchi translyator bo‘lib qolmay u mazkur zamonaviy lingvokognitiv jihatdan tahlil qilish esa uning insonning lisoniy dunyo manzarasini shakllantiruvchi va olam haqidagi barcha bilimlarini tizimlashtiruvchi asosiy intelektual qurol desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. – 320 b.
2. Gentner, D., Holyoak, K. J., & Kokinov, B. N. (Eds.). (2001). The Analogical Mind: Perspectives from Cognitive Science. – MIT Press.
3. Болдырев Н. Н. Когнитивная теория языка: Введение в когнитивную лингвистику: курс лекций. – 2-е изд., испр. и доп. – Тамбов: Издат. дом ТГУ им. Г. Р. Державина, 2016. – 236 с.
4. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика: учеб. пособие. – 2-е изд. – Минск: ТетраСистемс, 2005. – 256 с.

TIL VA MADANIYAT MUNOSABATLARIDA KONSEPTNING O‘RNI

Yunusova Dilsuz Toxirovna
Toshkent amaliy fanlar
universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qirrali munosabatlar konsept tushunchasi orqali tahlil qilinadi. Kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida konseptning milliy tafakkur, madaniy xotira va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettirishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda turk va o‘zbek tillaridagi ayrim asosiy madaniy konseptlar (masalan maqol, vatan, mehmon, andisha) qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning semantik tuzilishi va madaniy mazmunidagi umumiy hamda farqli jihatlar aniqlanadi va ochib beriladi. Ilmiy o‘rganish natijalari konseptlarning til va madaniyat integratsiyasidagi muhim vosita ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *konsept, til va madaniyat, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, turk tili, o‘zbek tili.*

Kirish. Bugungi kunga kelib tilshunoslik tilni o‘rganishda yanada yuqori yutuqlarga erishmoqda. Bunga sabab tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki milliy madaniyat, tarixiy tajriba va ijtimoiy ongning aks etish shakli sifatida o‘rganish ustuvor yo‘nalishlardan deb tanlanganidir. Ayniqsa, kognitiv va lingvomadaniy tadqiqotlarda til va madaniyat munosabati markaziy masala sifatida qaraladi. Ushbu munosabatni tushunishda konsept tushunchasi muhim ilmiy kategoriya hisoblanadi. Ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida shakllangan kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlarida til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzusiga aylandi.

Zamonaviy tilshunoslikda til inson faoliyatining faqat kommunikativ vositasi sifatida emas, balki jamiyatning madaniy tajribasi va tafakkur tizimini aks ettiruvchi hodisa sifatida talqin etilmoqda. Til orqali milliy ong, tarixiy xotira, qadriyatlar tizimi va dunyoni idrok etish usuli namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, konsept tushunchasi til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlashda muhim nazariy birlik hisoblanadi. Konsept inson ongida shakllangan bilimlar majmuasi bo‘lib, u tilda muayyan birliklar orqali ifodalanadi.

Mavzuni yoritishda konsept kategoriyasidan foydalanish tilning anglanish imkoniyatlarini ochib berish uchun asosiy yordamchi hisoblanadi. Konsept inson tafakkurida shakllanadigan, madaniy tajriba bilan boyigan va tilda ifodalanadigan murakkab birlikdir. Har

bir xalqning tili uning dunyoni qanday idrok etishini, qadriyatlar tizimini, an`analarini va mentalitetini aks ettiradi. Shu bois turk va o‘zbek tillari kabi genetik jihatdan yaqin bo‘lgan tillarni konseptual nuqtai nazardan qiyosiy o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. O‘zbek va turk tillari umumiy turkiy ildizga ega bo‘lishiga qaramay, ularning madaniy rivojlanish yo‘li, tarixiy tajribasi va ijtimoiy muhitida farqlar mavjud. Mazkur farqlar konseptual tizimda o‘z aksini topadi. Shuning uchun ushbu tillar materiallari asosida konsept fenomenini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi – turk va o‘zbek tillari misolida til va madaniyat munosabatlarida konseptning o‘rnini ochib berish hamda ayrim asosiy konseptlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Til va madaniyat munosabati masalasi. Til va madaniyat o‘rtasidagi aloqadorlik masalasi tilshunoslik, falsafa, antropologiya va etnolingvistika sohalarida keng tadqiq qilingan mavzulardan hisoblanadi. V. fon Gumboldt tilni “xalq ruhi”ning ifodasi sifatida baholagan bo‘lsa, E. Sapir va B. Uorf tilning inson tafakkuriga ta’sirini asoslab bergan. Madaniyat esa jamiyatning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan murakkab hodisadir. Til ushbu madaniyatni saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy vosita. Har bir xalq vakili o‘z tilida o‘z xalqining madaniyatini aks ettiradi. Shu ma’noda til va madaniyat ajralmas birlikni tashkil etadi.

Tariximizga nazar solsak turk va o‘zbek xalqlarining tarixiy ildizlari, turmush tarzi va qadriyatlari ko‘p jihatdan bir biriga o‘xshash . Ammo olamda farq qilmaydigan narsaning o‘zi yo‘q. Hatto bir hududning ikkita chegarasida yashovchi insonlarning dunyoni anglashida tafovutlar kuzatiladi. Shunga ko‘ra turk va o‘zbek xalqlari til va madaniyat munosabatlarida bir qancha farqlar mavjud. Bu farqlar aynan konseptlar tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Turk va o‘zbek tillarida madaniy qadriyatlar til birliklari orqali mustahkamlangan. Aynan shu birliklar orqali madaniyat avloddan avlodga uzatiladi.

Konsept tushunchasi va uning lingvistik talqini. Konsept tafakkur birligi bo‘lib, uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’nolar umumlashmasi yotadi. “Konsept” so‘zini fanga ilk bor rus olimi S.A. Askoldov (1870-1945) olib kirgan. U konsept nuqt orqali shakllanadi, uning asosiy belgisi sifatida “o‘rnini bosishlik funksiyasi”ni qayd qiladi. “Konsept fikriy hosila bo‘lib, u fikrlash jarayonida muayyan turdagi predmetlarning o‘rnini bosadi”[39] Konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslik doirasida shakllangan bo‘lib, u inson ongida mavjud bo‘lgan

[39] Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесностиь: Антология/ под. ред. В.П. Нерознака. - М.,1997. – С. 4.

bilim, tasavvur va baholarning umumlashgan shaklini anglatadi Konsept til birliklari orqali namoyon bo‘ladi, biroq u faqatgina leksik ma’no bilan cheklanmaydi.. Z.D. Popova va I.A. Sternin konseptni “inson ongidagi madaniy-ma’noli birlik” sifatida izohlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda konsept ko‘pincha uch tarkibli tuzilma sifatida qaraladi:

-mazmuniy (mantiqiy) qatlam;

-obrazli (assotsiativ) qatlam;

-baholovchi (aksiologik) qatlam.

Mazmuniy (mantiqiy) qatlam - mazmuniy komponent, konsept anglatadigan asosiy ma’no hisoblanadi.

Obrazli (assotsiativ) qatlam - Tasviriy komponent, konseptning tafakkurimizda paydo qiladigan chizmasi, tasviridir. Har bir konsept ongimizda hosil bo‘lganda u bilan bog`liq qandaydir tasvir ko‘z o‘ngimizda gavdalanayotganini his qilamiz. Masalan, “Vatan” deganda hammaning ko‘z o‘ngida o‘z uyi yoki tug`ilgan shahri, qishlog`i gavdalanadi.

Baholovchi (aksiologik) qatlam - baholovchi komponent (ijtimoiy va madaniy baho).Biror konseptga nisbatan ongimizda aks etuvchi tuyg`ularimiz. Ular ijobiy yoki salbiy bo‘lishi ham mumkin. Tasavvur qiling “G`iybat” konseptiga nisbatan sizda qanday baholash yuzaga keladi. Albatta bu ishning yomon ekanligiga nisbatan salbiy munosabatni his qilasiz.

Mazkur qatlamlar milliy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, konseptni oddiy so‘zdan farqlaydi. Shu sababli konsept til va madaniyat kesishgan nuqtada joylashgan hodisa sifatida talqin etiladi.

Konseptlar so‘z, ibora, frazeologizm va matnlar orqali ifodalanadi, ya’ni til orqali verbalizatsiya qilinadi. Shu bois konsept til va madaniyatni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘taydi deb ayta olamiz. Lingvomadaniy konseptlar muayyan millatga xos bo‘lgan madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Bunday konseptlar til tizimida barqaror birliklar – maqollar, iboralar, frazeologizmlar orqali mustahkamlanadi. O‘zbek va turk tillarida lingvomadaniy konseptlar umumiy turkiy asosga ega bo‘lsa-da, ularning mazmuniy yo‘nalishi milliy xususiyatlar bilan boyigan. Bu holat konseptlarning semantik hajmi va baholovchi komponentida yaqqol ko‘rinadi.

Masalan,maqol, vatan, ota-ona, andisha kabi tushunchalar har bir xalqda mavjud bo‘lsa-da, ularning mazmuni va bahosi turlicha bo‘ladi.

Turk va o‘zbek tillarida lingvomadaniy konseptlar quyidagi xususiyatlarga ega:

Tarixiy tajriba bilan bog‘liqlik;

Milliy mentalitetni aks ettirish;

Barqaror til birliklari orqali ifodalanish.

Fikrimizning isboti sifatida quyida bir qancha konseptlarni tahlil qilamiz. Bizga ma`lumki maqollar xalqning dunyoqarashi , tarixi, madaniyati, urf-odat an`analarini aks ettiruvchi asosiy vositalardir. Shu sababdan konseptlarni maqolar asosida keltiramiz.

Eng avvalo “Maqol” konseptini tahlil qilsak. O‘zbeklarda maqol xalq og`zaki ijodining bir janri bo‘lib, qisqa va lo‘nda , obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma`noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli fikr bo‘lib tarbiya beruvchi, o‘rnak bo‘luvchi, oldindan o‘rgatuvchi ahamiyatga ega. Maqollarda avlod ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixiy, ruhiy holati,etik va estetik tuyg`ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlangan bo‘ladi. Maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi sababli o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.[40] (O‘zbek xalq maqollari, 1987: 12)

Ilk bora turk maqollarini tizimli ravishda to‘plab , nashr etgan Umar Osim Aksay maqollarni muqaddaslashtirib, o‘z fikriga “Atalar sözü Kur`an`a girmez, yanınca yelişür” ataso‘zini ilova qiladi. Ya`ni maqollar “ Qur`onga kirmaydi , lekin u bilan yonma-yon yuradi” degan maqol bilan o‘z fikrlariga isbot beradi.[41] (Aksoy, 2020: 13) . Bu shuni anglatadiki turklarda ham maqolarga bo‘lgan ishonch va ularga rioya qilish yuksak darajada. Fikrimizni ushbu maqol ham isbotlaydi:

Atalar sözünü tutmayanı yabana atarlar [42](Aksoy, 2020: 157)

Maqollarga rioya etmaganlarni kimsasiz qirda qoldiradilar.

“Vatan” konsepti tahlili.

“Vatan” konsepti har ikki tilda muhim madaniy-ideologik ahamiyatga ega. O‘zbek tilida vatan tushunchasi ko‘pincha ona, tuproq, muqaddaslik obrazlari bilan bog‘lanadi (Ona vatan, Vatanni sevmoq iymondandir). Ushbu konsept xalq og‘zaki ijodida va badiiy adabiyotda yuksak hissiy baho bilan ifodalanadi.

Turk tilida esa vatan (vatan, memleket) tushunchalari mustaqillik va fidoiylik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq (Vatan uğruna can vermek). “Vatan” tushunchasi tarixiy kurashlar ham bilan bog‘liq. “Vatan için can vermek” kabi iboralar konseptning qahramonlik va fidoiylik bilan bog‘langanini ko‘rsatadi.

Bu holat ikki xalq tarixidagi ijtimoiy-siyosiy tajribalar bilan izohlanadi.

[40] O‘zbek xalq maqolari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; Mas`ul moharrir. Sh. Turdimov. -Toshkent “Sharq”, 2019.

[41] Aksoy O.A. (2020) “Atasözleri ve deyimler sözlüğü”, İstanbul , İnkilap Kitabevi yayın va Ticaret AŞ, 2020

[42] Aksoy O.A. (2020) “Atasözleri ve deyimler sözlüğü”, İstanbul , İnkilap Kitabevi yayın va Ticaret AŞ, 2020

O‘zbek madaniyatida mehmon konsepti alohida qadrlanadi. “Mehmon otangdek ulug‘”, “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan”,” Mehmon hurmatda, mezbon izzatda” maqollari o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik mentalitetini yaqqol ko‘rsatadi. Turk tilida ham “Misafir” konsepti ijobiy baholanadi (Misafir berekettir), biroq hozirgi kunga kelib turklarning zamonaviy shahar madaniyatida bu konseptning amaliy ifodasi nisbatan o‘zgargan.
“Andisha” konseptining tahlili
O‘zbeklarda andisha uyat, mulohaza, ehtiyotkorlik, oliyjanoblik ma`nolarida ifodalanadi. “Andishali odam adashmas” ya`ni oldindan o‘ylab , mulohaza qilib ehtiyotkorlik bilan ish tutgan inson adashmaydi. “Andishaning otini qo‘rqoq demang” . Hayotdagi ayrim vaziyatlarda yoshi biroz katta insonlar xato so‘zlashganda , yosh insonning kattalar hurmatini saqlab so‘zlashdan tiyilishi yoki bir aqlsiz odam musht ko‘targanda, donishmand insonning bir pog`ona pastga tushishi holarlarida , va yana ikki xil jins vakillarining o‘rtasida nizoli vaziyat yuz berganda , biri boshqasiga nisbatan qo‘rqqanidan emas,hurmat yuzasidan so‘z demasligi vaziyatlarida qo‘llanadi.
Turklarda “Andisha” konsepti “utanmak, edep, çekinme, düşünce” ma`nolarida anglashiladi. Ammo bu konsept o‘zbek tilidagi “Andisha”ni to‘liq bera olmaydi “Edep insanin süsüdür” Odob insonning bezagidir. “Utanmayanın yüzü kalın olur” Beandisha insonning yuzi qalin bo‘ladi. “Edepli edebinden susar edepsiz beni susturdular sanır” Andishali (odobli) inson odobidan sukut saqlaydi, andishasiz (odobsiz) meni gapirtirmadilar der. Hozirgi kunga kelib turk madaniyatidagi ayrim o‘zgarishlar, g`arbcha madaniyatning ommalashishi natijasida andishaning biroz ma`no jihatidan no‘to‘g`ri anglanishi kuzatiladi. “Andisha qilib sukut saqlash” holati o‘zbeklarda oliyjanoblik, donishmandlik hisoblangan bir paytda turk madaniyatida kamchilik , nuqson sifatida qaralayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Bu konseptlar tildagi frazeologik birliklar, maqollar va nutqiy etiket shakllari orqali namoyon bo‘ladi. Konseptlarning qiyosiy tahlilidagi umumiy va farqli jihatlar
Turk va o‘zbek tillaridagi konseptlar:
umumiy turkiy ildizga ega;
madaniy yaqinlikni aks ettiradi;
ijtimoiy rivojlanish jarayonida o‘ziga xos farqlarga ega bo‘ladi.
Bu farqlar tilning semantik tizimida va nutqiy amaliyotda namoyon bo‘ladi. Konseptlarning qiyosiy tahlilidagi xulosalar. O‘zbek va turk tillaridagi konseptual tizim quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:
umumiy tarixiy va madaniy ildizlar;
milliy tajriba bilan boyigan semantik qatlam;

til orqali barqarorlashgan baholovchi komponent.

Konseptlar qiyosiy tahlil jarayonida til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni konsept tushunchasi asosida o‘rganish milliy tafakkur va dunyoqarashni chuqur anglashga xizmat qiladi. Turk va o‘zbek tillari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, konseptlar madaniy tajribaning tildagi asosiy tashuvchisidir. Har bir konsept xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va mentalitetini o‘zida mujassamlashtiradi.

Konseptlar nafaqat til birliklari majmuasi, balki xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlarini mujassam etgan murakkab tizimdir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki inson ongi uning biologik kelib chiqishidan qat`iy nazar turlichadir. Bir millatning madaniy ongida aks etgan konsept boshqa millatning ongidagi tushunchadan farqli bo‘lishi yoki bir biri bilan uzviy bog`liq bo‘lishi ham mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Humboldt V. fon. Til va tafakkur. – Berlin, 1836.
2. Sapir E. Language. – New York: Harcourt, 1921.
3. Whorf B. L. Language, Thought and Reality. – Cambridge, 1956.
4. Popova Z.D., Sternin I.A. Kognitiv lingvistika. – Moskva, 2007.
5. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001.
6. Karimov S. O‘zbek tilida lingvomadaniy konseptlar. – Toshkent, 2015.
7. Aksoy O.A. (2020) “Atasözleri ve deyimler sözlüğü”, İstanbul , İnkilap Kitabevi yayın va Ticaret AŞ, 2020
8. O’zbek xalq maqolari. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; Mas`ul moharrir. Sh. Turdimov. -Toshkent “Sharq”, 2019.
9. Aksan D. Her Yönüyle Dil. – Ankara: TDK, 2009.
10. Qodirov N. Til va madaniyat masalalari. – Toshkent, 2020.

XORAZM SHEVALARINING XORIJIY TURKOLOGLAR TOMONIDAN TADQIQ ETILISHI: J. BUDENS VA K. MENGES ILMIY QARASHLARI

Barnoxon Sobirova
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining muhim dialektal hududlaridan biri hisoblangan Xorazm shevalarining xorijiy turkolog olimlar tomonidan o‘rganilishi masalasi tahlil qilinadi. Xususan, Yevropa turkologiya maktabi vakillari bo‘lgan J. Budens hamda K. Mengesning ilmiy qarashlari asosida Xorazm shevalarining lingvistik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida mazkur olimlarning turkiy tillar dialektologiyasiga oid asarlari tahlil qilinib, ularda Xorazm hududiga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarning qanday talqin etilgani ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy turkologlarning tadqiqot metodologiyasi hamda ular tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarning o‘zbek dialektologiyasi rivojidagi ahamiyati aniqlanadi. Maqolada Xorazm shevalarining tarixiy shakllanish jarayoni, boshqa turkiy tillar bilan aloqadorligi va ularning turkiy til tizimidagi o‘rni haqida xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida J. Budens va K. Menges ilmiy ishlari Xorazm shevalarini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi hamda ular tomonidan amalga oshirilgan qiyosiy tahlillar turkiy dialektologiya rivojiga sezilarli hissa qo‘shganligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Xorazm shevalari, o‘zbek dialektologiyasi, turkologiya, J. Budens, K. Menges, turkiy tillar, qiyosiy tilshunoslik, fonetik xususiyatlar, leksik qatlam.

Turkiy tillar tizimida o‘zbek tili o‘zining murakkab dialektal tuzilishi bilan ajralib turadi. O‘zbek tilining hududiy variantlari tarixiy, etnik va madaniy omillar ta’sirida shakllangan bo‘lib, ular til tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbek dialektologiyasida an’anaviy ravishda uchta asosiy dialekt guruhi — qarluq, qipchoq va o‘g‘uz dialektlari ajratib ko‘rsatiladi. Mazkur dialekt guruhlarining har biri o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy material vazifasini bajaradi.

Xorazm vohasi o‘zbek tilining dialektal tizimida alohida o‘rin tutadi. Ushbu hudud shevalari turli dialektal qatlamlarning kesishgan nuqtasi sifatida qaraladi. Tilshunoslarning ta’kidlashicha, Xorazm shevalarida qipchoq hamda o‘g‘uz guruhiga xos ayrim lingvistik

xususiyatlar birgalikda uchraydi. Bu holat Xorazm hududining tarixiy-geografik joylashuvi hamda turli etnik guruhlarning uzoq vaqt davomida o‘zaro aloqada bo‘lib kelganligi bilan izohlanadi. Natijada mazkur hudud shevalari o‘zbek tilining boshqa hududiy variantlariga nisbatan murakkab va ko‘p qatlamli lingvistik tuzilishga ega bo‘lgan.

Xorazm shevalari nafaqat o‘zbek tilshunoslari, balki xorijiy turkolog olimlar e’tiborini ham tortgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab Yevropa hamda Amerika turkologiya maktabi vakillari turkiy tillarning tarixiy rivojlanishi va ularning dialektal tizimini o‘rganishga katta qiziqish bildirganlar. Bu davrda turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o‘rganish keng rivojlangan bo‘lib, turli hududlarda mavjud bo‘lgan shevalarning fonetik va grammatik xususiyatlarini aniqlash orqali turkiy tillarning tarixiy ildizlarini aniqlashga harakat qilingan.

Xorijiy turkologlar orasida Xorazm hududiga xos til xususiyatlarini o‘rganishga hissa qo‘shgan olimlardan biri J. Budens hisoblanadi. U o‘z ilmiy tadqiqotlarida turkiy tillarning hududiy variantlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilib, ularning tarixiy shakllanish jarayonini o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan. Budensning ilmiy qarashlariga ko‘ra, ayrim hududiy shevalar turkiy tillarning qadimgi bosqichlariga oid til unsurlarini saqlab qolgan bo‘lib, bunday shevalar turkiy til tarixini rekonstruksiya qilishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Xuddi shuningdek, turkiy tillarni chuqur tadqiq qilgan yana bir mashhur turkolog olim Karl H. Menges ham turkiy tillarning dialektologik tizimini o‘rganishda katta ilmiy meros qoldirgan. Menges turkiy tillarni tarixiy va qiyosiy nuqtai nazardan o‘rganib, ularning hududiy variantlarini keng miqyosda tahlil qilgan. Uning ilmiy ishlari turkiy tillarning tasnifi, fonologik tizimi hamda tarixiy rivojlanish bosqichlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Xorazm hududining til xususiyatlari turkiy tillarning o‘zaro aloqadorligini o‘rganishda ham muhim ilmiy material beradi. Chunki bu hudud qadimdan turli etnik va madaniy guruhlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, bu jarayon til tizimida ham o‘z aksini topgan. Ayrim tadqiqotchilar Xorazm shevalarida qadimgi o‘g‘uz hamda qipchoq til qatlamlariga oid unsurlar mavjudligini qayd etganlar. Bu holat mazkur hudud tilining tarixiy shakllanish jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xorazm shevalarini o‘rganish turkiy tillarning tarixiy rivojlanishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xorijiy turkologlar tomonidan amalga oshirilgan qiyosiy tadqiqotlar ushbu hudud shevalarining lingvistik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. J. Budens va K. Mengesning ilmiy ishlari aynan shu jihati bilan alohida ahamiyatga ega.

Turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy asosda o‘rganish XX asr boshlarida turkologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu davrda turli turkiy tillarning fonetik, morfologik va

leksik tizimini tahlil qilish orqali ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar keng rivojlandi. Ana shunday ilmiy izlanishlar jarayonida Yevropa turkologiya maktabi vakillari alohida faoliyat koʻrsatgan boʻlib, ular turkiy tillarning hududiy variantlarini ham chuqur oʻrganganlar. Ushbu olimlar qatorida J. Budensning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Uning tadqiqotlari turkiy tillarning dialektologik tizimini aniqlash hamda ayrim hududiy shevalarning tarixiy ahamiyatini koʻrsatishda muhim rol oʻynagan.

J. Budens oʻz ilmiy faoliyatida turkiy tillarni oʻrganishda qiyosiy-tarixiy metoddan keng foydalangan. Mazkur metod turli turkiy tillar va ularning dialektlarini oʻzaro taqqoslash orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Budens aynan shu yondashuv asosida turkiy tillarning fonetik tizimini tahlil qilib, ayrim hududiy shevalarda qadimgi turkiy tilga xos unsurlar saqlanib qolganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, turkiy tillarning ayrim periferik hududlarida qadimgi til qatlamlari nisbatan kam oʻzgarishga uchragan boʻlib, bunday hududiy shevalar til tarixini oʻrganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Xorazm hududi ana shunday lingvistik hududlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Budens oʻz tadqiqotlarida ushbu hudud shevalarining turkiy tillar tizimidagi oʻziga xos oʻrniga e'tibor qaratadi. Olimning fikricha, Xorazm vohasida shakllangan shevalar turli tarixiy til qatlamlarining oʻzaro ta'siri natijasida vujudga kelgan. Bu holat, avvalo, hududning tarixiy-geografik sharoiti bilan bogʻliq boʻlib, Xorazm qadimdan turli turkiy qabilalar va etnik guruhlar yashab kelgan mintaqa hisoblangan. Natijada bu hududda shakllangan til tizimi bir nechta dialektal elementlarning oʻzaro uygʻunlashuvi natijasida vujudga kelgan.

Budens tadqiqotlarida Xorazm shevalarining fonetik xususiyatlari ham alohida koʻrib chiqiladi. Olim ayrim fonetik hodisalarni tahlil qilar ekan, bu hudud shevalarida ba'zi tovush almashuvlari boshqa oʻzbek shevalariga nisbatan oʻziga xos tarzda namoyon boʻlishini qayd etadi. Masalan, ayrim soʻzlarda unlilar tizimining barqaror saqlanishi yoki ayrim undosh tovushlarning qadimgi shakllarini saqlab qolishi Xorazm shevalarining tarixiy jihatdan qadimiy qatlamlarga ega ekanligini koʻrsatadi. Bu kabi fonetik xususiyatlar turkiy tillarning tarixiy fonologiyasini oʻrganishda muhim ilmiy material boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, Budens Xorazm shevalarining leksik tarkibini ham tahlil qiladi. Uning kuzatishlariga koʻra, mazkur hudud shevalarida ayrim qadimgi turkiy soʻzlar saqlanib qolgan boʻlib, ular boshqa oʻzbek shevalarida kamroq uchraydi. Bu holat Xorazm hududining tarixiy rivojlanish jarayonida nisbatan konservativ til muhitini saqlab qolganligini koʻrsatadi. Ayrim leksik birliklar esa boshqa turkiy tillar bilan oʻxshashliklarga ega boʻlib, bu hudud tilining turkiy tillar oʻrtasidagi aloqadorlikni koʻrsatishda muhim rol oʻynashini tasdiqlaydi.

Budensning ilmiy qarashlarida yana bir muhim jihat shundaki, u turkiy tillarning dialektal tasnifini ishlab chiqishda hududiy shevalarning tarixiy shakllanish omillarini ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, har bir dialekt yoki sheva nafaqat lingvistik hodisa, balki tarixiy va ijtimoiy jarayonlar natijasidir. Shu sababli Xorazm shevalarini o‘rganishda ham hududning tarixiy rivojlanishi, etnik tarkibi hamda madaniy aloqalarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

J. Budensning ushbu ilmiy qarashlari keyingi turkolog tadqiqotchilar tomonidan ham davom ettirilgan. Xususan, Karl H. Menges turkiy tillarning tasnifi hamda ularning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda Budens ilgari surgan ayrim nazariy qarashlarni rivojlantirgan. Menges turkiy tillarning fonologik tizimi hamda ularning tarixiy rivojlanishini yanada chuqurroq tahlil qilib, ayrim hududiy dialektlarning turkiy tillar tarixidagi o‘rnini aniqlashga harakat qilgan.

Shu jihatdan qaraganda, Budens tomonidan ilgari surilgan ilmiy g‘oyalar keyinchalik Menges tadqiqotlarida yanada rivojlantirilganini ko‘rish mumkin. Xususan, Menges turkiy tillarning dialektologik tizimini o‘rganishda hududiy shevalarning fonologik xususiyatlarini keng qamrovli tahlil qilgan. Bu esa Xorazm shevalari kabi murakkab dialektal tizimga ega bo‘lgan hududlarning lingvistik xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini bergan.

Shu sababli turkologiya tarixida Budens va Menges ilmiy ishlari o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. Ularning tadqiqotlari turkiy tillarning hududiy variantlarini o‘rganishda nazariy asos yaratib bergan bo‘lib, ayniqsa Xorazm shevalarining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Keyingi qismda Karl H. Mengesning turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining dialektal tizimi haqidagi ilmiy qarashlari hamda uning Xorazm hududi bilan bog‘liq lingvistik kuzatishlari batafsil ko‘rib chiqiladi.

Turkiy tillar dialektologiyasini ilmiy asosda o‘rganishda Karl H. Mengesning ilmiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. XX asr turkologiyasining yirik vakillaridan biri bo‘lgan bu olim turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti, ularning fonologik tizimi hamda hududiy dialektlarini qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilishga katta hissa qo‘shgan. Menges turkiy tillarni o‘rganishda kompleks yondashuvni qo‘llagan bo‘lib, u lingvistik hodisalarni faqat til tizimi doirasida emas, balki tarixiy va etnik omillar bilan ham bog‘liq holda talqin etishga harakat qilgan. Bu yondashuv turkiy tillarning dialektologik tizimini yanada chuqurroq anglash imkonini bergan.

Karl H. Menges o‘z tadqiqotlarida turkiy tillarning tasnifi va ularning tarixiy rivojlanish bosqichlariga alohida e’tibor qaratadi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, turkiy tillarning hozirgi shakllanish jarayoni uzoq tarixiy rivojlanish natijasi bo‘lib, bu jarayonda turli hududiy dialektlar muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, ayrim hududiy shevalar qadimgi til qatlamlarini saqlab

qolganligi sababli turkiy tillarning tarixiy rekonstruksiyasida muhim manba hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Menges turkiy tillarning ayrim periferik hududlarida saqlanib qolgan shevalarga alohida e’tibor qaratadi.

Xorazm hududi ana shunday lingvistik hududlardan biri sifatida turkolog olimlarning diqqatini tortgan. Mengesning ilmiy qarashlarida ham Xorazm shevalarining turkiy tillar tizimidagi o‘ziga xos o‘rni qayd etiladi. Olimning ta’kidlashicha, Xorazm vohasi tarixiy jihatdan turli turkiy qabilalar va etnik guruhlar yashab kelgan hudud bo‘lib, bu jarayon hudud tilining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Natijada Xorazm shevalari bir nechta dialektal qatlamlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllangan murakkab lingvistik tizimni namoyon etadi.

Menges Xorazm hududiga xos til xususiyatlarini tahlil qilar ekan, ayniqsa fonologik tizimga e’tibor qaratadi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, mazkur hudud shevalarida ayrim fonetik hodisalar boshqa o‘zbek shevalariga nisbatan o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, ayrim unlilar tizimining saqlanishi yoki undosh tovushlarning ma’lum darajada qadimgi shakllarini saqlab qolishi bu hudud shevalarining tarixiy ildizlari chuqur ekanligini ko‘rsatadi. Bu kabi fonologik hodisalar turkiy tillarning tarixiy fonologiyasini o‘rganishda muhim ilmiy material sifatida qaraladi.

Menges shuningdek Xorazm shevalarining leksik tizimini ham qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Uning fikricha, mazkur hudud shevalarida uchraydigan ayrim leksik birliklar boshqa turkiy tillar bilan o‘xshashliklarga ega bo‘lib, bu holat turkiy tillar o‘rtasidagi tarixiy aloqadorlikni ko‘rsatadi. Ayrim so‘zlarning qipchoq guruhidagi tillar bilan yaqinligi, boshqalarining esa o‘g‘uz guruhidagi tillarga o‘xshashligi Xorazm hududi tilining murakkab tarixiy shakllanish jarayonidan dalolat beradi.

Olimning ilmiy qarashlarida yana bir muhim jihat shundan iboratki, u turkiy tillarning dialektologik tizimini o‘rganishda lingvistik geografiya metodining ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu metod til hodisalarining hududiy tarqalishini o‘rganish orqali ularning tarixiy rivojlanish jarayonini aniqlash imkonini beradi. Menges ushbu metod yordamida turkiy tillar dialektlarini tahlil qilib, ularning geografik tarqalish doirasi hamda o‘zaro aloqadorligini aniqlashga harakat qilgan.

Xorazm shevalari misolida ham bu yondashuv muhim ilmiy natijalar beradi. Chunki mazkur hudud Markaziy Osiyoning muhim tarixiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu hudud orqali turli davrlarda turli xalqlar va qabilalar o‘tganligi sababli til tizimida ham turli qatlamlarning izlari saqlanib qolgan. Mengesning fikricha, aynan shu tarixiy jarayonlar Xorazm shevalarining ko‘p qatlamli lingvistik tuzilishga ega bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Budens va Menges ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilganda, ularning turkiy tillarni o‘rganishda o‘xshash metodologik yondashuvdan foydalanganligini ko‘rish mumkin. Har ikkala olim ham turkiy tillarning dialektal tizimini o‘rganishda qiyosiy-tarixiy metodni asosiy ilmiy usul sifatida qo‘llagan. Shuningdek, ular hududiy shevalarni til tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida baholaganlar.

Biroq Menges tadqiqotlari turkiy tillarning fonologik tizimini yanada chuqurroq tahlil qilgani bilan ajralib turadi. U turkiy tillarning fonologik tizimida yuzaga kelgan tarixiy o‘zgarishlarni aniqlash orqali turli dialektlarning o‘zaro aloqadorligini tushuntirishga harakat qilgan. Bu esa Xorazm shevalari kabi murakkab dialektal tizimga ega hududlarning lingvistik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish imkonini bergan.

Shu tariqa, Budens va Menges ilmiy ishlari Xorazm shevalarini o‘rganishda muhim nazariy asos yaratadi. Ularning tadqiqotlari turkiy tillarning dialektologik tizimini tushunishda hamda hududiy shevalarning tarixiy shakllanish jarayonini aniqlashda katta ilmiy ahamiyatga ega. Keyingi qismda ushbu ikki olimning ilmiy qarashlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, ularning Xorazm shevalari haqidagi fikrlaridagi o‘xshash va farqli jihatlar ko‘rib chiqiladi.

Xorazm shevalarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganishda J. Budens va Karl H. Menges tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar muhim nazariy asos yaratadi. Ushbu olimlar turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o‘rganib, hududiy dialektlarning tarixiy shakllanish jarayonini aniqlashga harakat qilganlar. Ularning tadqiqotlari turkiy tillar tizimining ichki tuzilishini tushunish hamda ayrim hududiy shevalarning tarixiy ildizlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Xorazm shevalari misolida bu olimlarning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish ushbu hudud tilining murakkab lingvistik tabiatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

J. Budens va Karl H. Menges tadqiqotlarida o‘xshash jihatlardan biri shundaki, har ikkala olim ham turkiy tillarning dialektal tizimini o‘rganishda qiyosiy-tarixiy metoddan keng foydalangan. Bu metod turli turkiy tillar hamda ularning hududiy variantlarini o‘zaro taqqoslash orqali ularning umumiy ildizlari va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Budens ham, Menges ham turkiy tillarning ayrim hududiy shevalari qadimgi til qatlamlarini nisbatan yaxshi saqlab qolganini ta’kidlaydilar. Shu nuqtai nazardan Xorazm shevalari turkiy tillarning tarixiy rivojlanishini o‘rganishda muhim lingvistik manba sifatida baholanadi.

Budens tadqiqotlarida Xorazm shevalari ko‘proq turkiy tillar o‘rtasidagi tarixiy aloqadorlikni ko‘rsatadigan lingvistik hodisa sifatida talqin qilinadi. U bu hudud shevalarida turli dialektal elementlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi kuzatilishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, Xorazm hududi tarixiy jihatdan turli turkiy qabilalar yashagan hudud bo‘lgani sababli bu yerda

shakllangan til tizimi ham ko‘p qatlamli xarakterga ega bo‘lgan. Natijada Xorazm shevalarida qipchoq hamda o‘g‘uz guruhiga xos ayrim fonetik va leksik xususiyatlar birgalikda uchraydi.

Karl H. Menges esa mazkur masalani yanada kengroq lingvistik kontekstda ko‘rib chiqadi. Uning tadqiqotlarida Xorazm shevalari turkiy tillarning umumiy fonologik tizimi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Menges ayrim fonetik hodisalarni tahlil qilar ekan, Xorazm shevalarida saqlanib qolgan ayrim tovush shakllari turkiy tillarning qadimgi bosqichlariga oid bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu esa mazkur hudud tilining tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Budens va Menges qarashlarini qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, ularning ilmiy yondashuvlari ma’lum darajada bir-birini to‘ldiradi. Budens ko‘proq dialektlarning tarixiy shakllanish omillariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Menges fonologik tizim va lingvistik geografiya metodlari asosida dialektlarning hududiy tarqalishini tahlil qilgan. Bu ikki yondashuvning uyg‘unligi Xorazm shevalarining lingvistik tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xorazm shevalarining fonetik tizimini tahlil qilganda, bu hududda ayrim tovush o‘zgarishlari boshqa o‘zbek shevalariga nisbatan o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Masalan, ayrim so‘zlarda unlilar tizimining barqaror saqlanishi yoki undosh tovushlarning qadimgi shakllari bilan bog‘liq hodisalar mavjud. Bu holat ayrim turkiy tillarda ham uchraydi, bu esa Xorazm shevalarining turkiy tillar tizimi bilan yaqin aloqadorligini ko‘rsatadi.

Leksik jihatdan ham Xorazm shevalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu hududda qo‘llaniladigan ayrim so‘zlar boshqa o‘zbek shevalarida kamroq uchrasa-da, boshqa turkiy tillarda uchrashi mumkin. Bu holat hudud tilining tarixiy shakllanish jarayonida turli turkiy tillar bilan aloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar Xorazm hududida qo‘llaniladigan ayrim leksik birliklarning qipchoq guruhidagi tillarga yaqinligini qayd etganlar.

Budens va Menges tadqiqotlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular hududiy shevalarni o‘rganishda tarixiy omillarni ham hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar. Xorazm vohasi tarixan savdo yo‘llari kesishgan hudud bo‘lib, bu yerda turli xalqlar va madaniyatlar o‘zaro aloqada bo‘lgan. Bunday tarixiy jarayonlar til tizimiga ham ta’sir ko‘rsatib, hudud shevalarining o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Xorazm shevalarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganishda xorijiy turkologlarning ilmiy tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, J. Budens va Karl H. Menges tomonidan olib borilgan izlanishlar turkiy tillarning dialektologik tizimini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini bergan. Ushbu olimlar turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o‘rganib, hududiy shevalarning shakllanish jarayoni hamda ularning tarixiy ildizlarini aniqlashga katta e’tibor

qaratganlar. Natijada ularning ilmiy ishlari nafaqat umumiy turkologiya, balki o‘zbek dialektologiyasi rivojida ham muhim nazariy asos vazifasini bajargan.

Budens va Menges tadqiqotlarining ahamiyati shundaki, ular turkiy tillarni o‘rganishda hududiy dialektlarning rolini alohida ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, til tizimining tarixiy taraqqiyotini to‘liq anglash uchun faqat adabiy tilni o‘rganish yetarli emas. Aksincha, hududiy shevalar til tarixining muhim qatlamlarini o‘zida saqlab qolgan bo‘lib, ular til taraqqiyotining turli bosqichlarini aniqlashda muhim ilmiy material hisoblanadi. Shu sababli Xorazm shevalari kabi tarixiy jihatdan boy lingvistik materialga ega hududlarni o‘rganish turkiy tillarning tarixiy rivojlanishini tadqiq etishda katta ahamiyatga ega.

Xorazm hududi Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy markazlaridan biri bo‘lib, bu hududda turli tarixiy davrlarda turli etnik guruhlar yashab kelgan. Bu jarayon til tizimida ham o‘z aksini topgan. Natijada Xorazm shevalari turli dialektal elementlarning uyg‘unlashuvi asosida shakllangan murakkab lingvistik tizimni namoyon etadi. Budens va Menges tadqiqotlari aynan shu murakkab lingvistik jarayonlarni tushuntirishga yordam beradi.

Xorijiy turkologlarning ilmiy izlanishlari o‘zbek dialektologiyasi rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ularning qiyosiy tahlillari o‘zbek tilining hududiy variantlarini boshqa turkiy tillar bilan solishtirish imkonini yaratdi. Bu esa o‘zbek dialektologiyasi doirasida yangi ilmiy qarashlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Xususan, turkiy tillar tasnifi hamda ularning dialektal tizimini o‘rganishda xorijiy turkologlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar keyingi tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Budens va Menges ilmiy ishlari shuni ko‘rsatadiki, Xorazm shevalari turkiy tillarning tarixiy rivojlanish jarayonida alohida o‘rin tutadi. Bu hudud shevalarida ayrim fonetik va leksik xususiyatlar boshqa o‘zbek shevalariga nisbatan qadimgi shakllarni saqlab qolgan bo‘lishi mumkin. Bu esa turkiy tillarning tarixiy fonologiyasi hamda leksik tizimini o‘rganishda muhim ilmiy material hisoblanadi. Shu sababli Xorazm shevalarini chuqur o‘rganish turkiy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, xorijiy turkologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hududiy shevalarni o‘rganishda kompleks yondashuv zarurligini ham ko‘rsatadi. Til hodisalarini faqat lingvistik jihatdan emas, balki tarixiy, etnik va madaniy omillar bilan ham bog‘liq holda o‘rganish zarur. Xorazm shevalarining shakllanish jarayoni ham aynan shunday ko‘p omilli tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat hudud tilining murakkab lingvistik tuzilishga ega bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Xorazm shevalarini o‘rganish nafaqat o‘zbek dialektologiyasi uchun, balki umumiy turkiy tilshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki mazkur hudud tilida turkiy

tillarning turli tarixiy qatlamlariga oid unsurlar uchraydi. Bu esa turkiy tillarning tarixiy rivojlanish jarayonini rekonstruksiya qilishda muhim ilmiy material sifatida xizmat qiladi.

Budens va Menges tomonidan olib borilgan tadqiqotlar turkiy tillarning hududiy variantlarini o‘rganishda ilmiy metodologiya nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Ularning qiyosiy-tarixiy tahlillari turkiy tillarning fonologik tizimini hamda dialektal tuzilishini chuqurroq anglash imkonini bergan. Bu esa keyingi turkolog olimlar uchun yangi ilmiy yo‘nalishlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbek dialektologiyasida ham Xorazm shevalarini o‘rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Hudud tilining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini zamonaviy lingvistik metodlar asosida o‘rganish turkiy tillar tizimini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu jihatdan qaraganda, Budens va Menges ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Xorazm shevalari o‘zbek tilining dialektal tizimida alohida o‘rin tutadigan lingvistik hodisa hisoblanadi. Ushbu hudud shevalari tarixiy shakllanish jarayoni, fonetik va leksik xususiyatlari hamda boshqa turkiy tillar bilan aloqadorligi jihatidan tilshunoslar uchun muhim ilmiy material hisoblanadi. Xorazm vohasining tarixiy va geografik joylashuvi bu hudud tilining o‘ziga xos shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Qadimdan turli etnik guruhlar yashab kelgan bu hududda til tizimi ham ko‘p qatlamli xususiyat kasb etgan. Shu sababli Xorazm shevalarini o‘rganish turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xorazm shevalarini ilmiy jihatdan o‘rganishda xorijiy turkologlarning hissasi alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, J. Budens va Karl H. Menges tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar turkiy tillarning dialektologik tizimini tushunishda muhim nazariy asos yaratdi. Ushbu olimlar turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o‘rganib, hududiy dialektlarning tarixiy shakllanish jarayonini aniqlashga harakat qilganlar. Ularning ilmiy qarashlari Xorazm shevalarining lingvistik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Budensning ilmiy qarashlarida Xorazm shevalari turkiy tillarning tarixiy rivojlanishini o‘rganishda muhim lingvistik manba sifatida baholanadi. Olim bu hudud shevalarida turli dialektal elementlarning uyg‘unlashuvi kuzatilishini ta’kidlab, ularning shakllanishi tarixiy va etnik jarayonlar bilan bog‘liq ekanligini qayd etadi. Xususan, Xorazm hududida qipchoq hamda o‘g‘uz guruhiga xos ayrim til unsurlarining birgalikda uchrashi mazkur hudud tilining murakkab tarixiy shakllanish jarayonidan dalolat beradi.

Karl H. Menges esa turkiy tillarning fonologik tizimini chuqur tahlil qilgan holda hududiy shevalarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganadi. Uning tadqiqotlarida Xorazm

shevalari turkiy tillarning tarixiy fonologiyasini o‘rganishda muhim ilmiy material sifatida qaraladi. Menges ayrim fonetik hodisalarni tahlil qilar ekan, bu hudud shevalarida qadimgi turkiy til unsurlarining saqlanib qolgan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu esa Xorazm shevalarining turkiy tillar tizimidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Budens va Menges ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikkala olim ham turkiy tillarning hududiy variantlarini o‘rganishda qiyosiy-tarixiy metoddan keng foydalangan. Ular hududiy shevalarni til tarixining muhim manbasi sifatida baholab, ularni o‘rganish orqali turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotini aniqlash mumkinligini ta’kidlaydilar. Bu yondashuv turkiy dialektologiya rivojida muhim ilmiy metod sifatida shakllangan.

Xorijiy turkologlarning tadqiqotlari o‘zbek dialektologiyasi rivojiga ham muhim ta’sir ko‘rsatgan. Ularning ilmiy ishlari o‘zbek tilining hududiy variantlarini boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy jihatdan o‘rganish imkonini yaratgan. Natijada o‘zbek dialektologiyasi doirasida yangi ilmiy yondashuvlar shakllanib, hududiy shevalarning lingvistik xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘lgan.

Shu bilan birga, zamonaviy tilshunoslikda ham Xorazm shevalarini o‘rganish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Hudud tilining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini zamonaviy lingvistik metodlar asosida o‘rganish turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, lingvistik geografiya, dialektologik atlaslar hamda korpus lingvistikasi kabi zamonaviy metodlardan foydalanish Xorazm shevalarining lingvistik xususiyatlarini yanada kengroq tahlil qilish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, Xorazm shevalarini o‘rganishda J. Budens va Karl H. Menges ilmiy merosi muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ilmiy qarashlari turkiy tillarning dialektologik tizimini tushunishda hamda hududiy shevalarning tarixiy shakllanish jarayonini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Xorazm shevalari turkiy tillar tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularni o‘rganish turkiy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Menges, K. H. The Turkic Languages and Peoples: An Introduction to Turkic Studies. Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1968.
2. Menges, K. H. Eastern Turkic and Central Asian Linguistic Studies. Bloomington: Indiana University Press, 1979.
3. Baskakov, N. A. Vvedeniye v izucheniye tyurkskix yazykov. Moskva: Nauka, 1962.

4. Kononov, A. N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka. Moskva–Leningrad, 1960.
5. Reshetov, V. V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Fan, 1978.
6. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1973.
7. Serebrennikov, B. A., Gadjieva N. Z. Sravnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazykov. Moskva: Nauka, 1986.

II SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA GRAMMATIK MAVZULARNING AHAMIYATI

M.Rahmatov
Alfraganus universiteti
Sharq filologiyasi kafedrasi professori
mardonrahmat@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishning dastlabki bosqichida grammatik darslarning ahamiyati, ularni rejalashtirish, grammatik mavzular talabalarning og‘zaki va yozma nutqining rivojlantirishdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Xorijda o‘zbek tili xorijiy til sifatida o‘qitilganda talabalar O‘zbek tili darslarida minimal grammatik materialning berilishi juda muhim sanaladi. Bunda grammatik mavzuning hajmi, bir-biri bilan aloqadorligi, ularning izohi va qo‘llanishiga doir ko‘rsatma va mashqlarning bo‘lishi juda muhim sanaladi. Shu ma’noda, biz ushbu maqolada xitoylik talabalarda o‘zbek tilini o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarni yoritishni maqsad qildik va uni “Fe’lning orttirma nisbatlari” mavzusi misolida ko‘rsatib beramiz.

Kalit so‘zlar: *grammatika, grammatik material, orttirma nisbat, aniq nisbat, majhul nisbat, og‘zaki, yozma nutq, o‘zbek tili, xitoy tili.*

Abstract: This article discusses the importance of grammar lessons at the initial stage of teaching Uzbek as a foreign language, their planning, and the role of grammatical topics in the development of students’ oral and written speech. When teaching Uzbek as a foreign language abroad, it is very important to provide students with a minimum of grammatical material in Uzbek language lessons. In this regard, the volume of grammatical topics, their interrelationships, the presence of instructions and exercises on their explanation and application are very important. In this sense, we aimed to highlight the aspects related to teaching Uzbek to Chinese students in this article and will show it on the example of the topic “Verb Incremental Proportions”.

Keywords: *grammar, grammatical material, incremental proportional, definite proportional, passive proportional, oral, written speech, Uzbek language, Chinese language.*

Til o‘rgatishning boshlang‘ich davrining bosh vazifasi til o‘rgatuvchi tomonidan tanlangan ma’lum bir til o‘rgatish metod va usullari yordamida cheklangan til materiallari (fonetik, leksik va grammatik)ni cheklangan aniq bir o‘quv mashg‘uloti jarayonida talabalarga

o‘rgatilayotgan tilning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish va shu orqali talabalarning o‘rganilayotgan til savodxonligini (og‘zaki va yozma nutqini) egallashi va o‘stirishdan iboratdir.

Ma’lumki, fonetik, grammatik va leksik vositalar tizimi yordamida shakllantiriladigan lingvistik bilimlar talabalarning o‘rganilayotgan tilda o‘qish, tinglash, gapirish va yozish kabi qobiliyatlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Nutq faoliyatning bu turlarining samarali va mukammal bo‘lishi uchun til o‘qituvchisidan katta mas’uliyat, keng bilim va malakali yondashuvni talab qiladi. Bundan tashqari til o‘qituvchisiga talabalarning so‘z boyligiga ega bo‘lishi va nutqining rivojlanishiga tizimli yondashish mas’uliyatini yuklaydi va shunga muvofiq o‘qitishni yuqori saviyada tashkil etish zaruriyatini tug‘diradi.

Ma’lumki, xorijlik talabalarga muayyan bir tilni o‘rgatishda shu tilga xos kichik-kichik jumlalarni tuzishni o‘rgatishdan boshlanadi. Albatta, har bir tilda jumla qurilishida zarur bo‘lgan, gap asosini belgilaydigan grammatik shakllar, grammatik aloqa turlari va vositalar mavjud bo‘lib ular jumla qurishda faol qo‘llanadi. O‘rgatilayotgan tilning grammatikasi so‘zlarni nutqda (tilning yozma va og‘zaki shakllarda) to‘g‘ri qo‘llash (to‘g‘ri talaffuz qilish va yozish)ni o‘rgatar ekan, til o‘rgatish darslarida grammatikani o‘rgatish yoki o‘rgatmaslik masalasi muhokama markazida bo‘lmasligi kerak. Ya’ni til o‘rgatish darslarida grammatik qoidalarisiz grammatikasini o‘rgatish lozim bo‘ladi.

O‘zga tilni o‘rganayotgan shaxs o‘rganilayotgan tilda gapirmoqchi yoki qandaydir bir fikrni bayon qilmoqchi bo‘lsa, albatta, o‘z oldiga uni qanday shakllantirishni, qanday gap tuzishni o‘z oldiga maqsad qiladi; gap tarkibidagi so‘zlarga, ularning qanday bog‘lanishiga, ularning tartibiga e’tibor qaratadi va, albatta, tanlangan, gap strukturasiga olib kirilgan so‘zlarni til qoidalariga muvofiq tizib chiqishi lozim bo‘ladi. Olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, agar chet tilini o‘zlashtirmoqchi bo‘lgan shaxs o‘rganilayotgan tilning fonetik xususiyatlari, leksikasi, grammatik qurilishi va stilistik qonuniyatlari haqida yaxshigina nazariy bilimlarga ega bo‘lib borsa, boshqa til o‘rganuvchilarga qaraganda (masalan, ko‘cha tili asosida o‘rganish yoki tilni mustaqil o‘zlashtirishdan ko‘ra) uning o‘sha til haqidagi tasavvurlari tez shakllana boradi, tilni his qilishi tez rivojlanadi va tilga nisbatan aqliy yondashishi oson kechadi. Ta’kidlanishicha, grammatik bilimlarga tayanmasdan tilni egallash jarayoni uzoqroqqa cho‘ziladi, uning samarasi kamroq bo‘ladi va uning salbiy ta’siri keyingi bir necha o‘n yillar davomida ham tilda aks etishi mumkin. Grammatik materialni bilish tilni tez o‘zlashtirishning shartidir.

Muayyan grammatik materialni o‘quv jarayoniga kiritish faqat uning kommunikativ zarurati, ya’ni muayyan qurilmani ham sintaktik, ham semantik jihatdan to‘g‘ri ifodalash

zarurati bilan belgilanadi. Dars jarayonida talaba grammatik mavzu nima maqsadda berilayotganini his qilishi, nima uchun o‘rganish taklif qilinayotganini tushunib yetishlari, grammatik mavzularga asoslanib o‘zlarining og‘zaki va yozma muloqotlarini ongli ravishda tashkil etishni va topshiriqlarni mos holda bajarishni o‘rganishlari kerak. Ayni mana shu jihat ongli ta’limning eng muhim umum didaktik tamoyilini aks ettiradi va til o‘qitishning mohiyatini tashkil qiladi. Ongli-amaliy usul talabalarning amalda qo‘llashlari kerak bo‘lgan grammatik bilimlarini anglab yetishlari va ularni tizimlashtirishlarini o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, tilshunoslikning grammatika bo‘limi morfologiya va sintaksisni o‘z ichiga oladi. Lekin tizim sifatida grammatika morfologiya va sintaksisdan tashqari o‘z ichiga so‘z yasalishini ham qamrab oladi. Tilshunoslikda bu bo‘limlar mustaqil o‘rgatilsa-da, aslida ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Til fanining morfologiyasida so‘z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe’l, yordamchi so‘zlar va ularga xos grammatik ma’nolar, sintaksisda esa so‘zlarning bir biriga bog‘lanishi, gap, gap turlari va boshqalar o‘rganiladi.

O‘zbek tilining minimum grammatikasiga o‘rgatishning dastlabki davrlarida o‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi morfologik shakllar kiritilishi va ularga tayangan holda sintaktik qurilmalar shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Til materialining bosqichma-bosqich kompleks-konsentrik joylashuvi va taqsimlanishi mashg‘ulotning dastlabki bosqichidanoq o‘zbek tilida muloqot qilish imkonini beradi. O‘qitishning dastlabki bosqichida grammatik minimumga kiritilishi kerak bo‘lgan ba’zi morfologik mavzularga nazar solsak:

-ot: atoqli va turdosh otlar, ularning nutqda birlik va ko‘plikda qo‘llanishi, so‘zlarni bir-biriga bog‘lashda kelishiklarning o‘rni va ahamiyatini bilishlari va nutqda to‘g‘ri qo‘llashni to‘g‘ri o‘rgatish uchun;

-sifat: nutqda sifat va ularning darajalari qo‘llanishni to‘g‘ri o‘rgatish uchun;

-son: nutqda tartib va sanoq sonlarni to‘g‘ri o‘rgatish uchun;

-olmosh: nutqda kishilik, so‘roq, belgilash olmoshlarini, shuningdek, ko‘rsatish olmoshlarini to‘g‘ri o‘rgatish uchun;

-fe’l: nutqda fe’l zamonlari, fe’llarning tuslanishi, fe’l nisbatlarining ishlatilishi, fe’llarning vazifa shakllarini to‘g‘ri o‘rgatish uchun;

-ravish: nutqda payt, vaqt, o‘rin so‘zlarini to‘g‘ri o‘rgatish uchun;

-nutqda ayrim ko‘makchilar, bog‘lovchilar, undov va modal so‘zlarni to‘g‘ri o‘rgatish uchun.

Grammatik minimal sintaktik mavzularga, masalan, so‘z birikmalarini, ba’zi sodda va qo‘shma gap turlarini ham kiritish lozim. Asosiysi, grammatik material oqilona tashkil etilgan va o‘quv jarayoniga kiritilgan bo‘lishi lozim.

O‘zbek tilni xorijiy til sifatida o‘rganayotgan xitoylik talabalarga til o‘rgatishning boshlang‘ich davrida o‘tilgan, boshlang‘ich darajadagi o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lgan “Orttirma nisbat” mavzunini e’tiboringizga havola qilamiz.

Mavzuni o‘tish davomida fe’llarda ish-harakatning bajaruvchisi bilan birga bajartiruvchisi ma’nosi ham mavjud bo‘lishi, ish-harakatni amalga oshiruvchining ma’nosi fe’lning orttirma nisbati shakli orqali namoyon bo‘lishi tushuntiriladi. Talabalarga o‘zbek tilidagi orttirma nisbat shaklini tushuntirganda aniq nisbatdagi fe’llar bilan solishtirish, ularning grammatik ma’nosidagi, gap tarkibidagi sintaktik shakllarning farqli holatlarini tushuntirish ham maqsadga muvofiq sanaladi (Aniqlik maylidagi ish harakatning bajaruvchisi -ni tushum kelishigini olishi natijasida uning sintaktik vazifasida yuza keladigan o‘zgarishlarni e’tiborga olish nazarda tutiladi).

“Fe’lning orttirma nisbatlari” mavzusini o‘rgatishga qaratilgan darsda o‘zbek tilida nisbatan ko‘proq qo‘llanadigan *-t, -tir/-dir, -sat* kabi nisbat shakllari tanishtirilishi va ularning nutqda qo‘llanishi tushuntiriladi.

Mazkur grammatik shakllarni fe’l asosidan so‘ng qo‘shilishi, undan keyin zamon va shaxs-son ma’nosini ifodalovchi shakllar qo‘yilishi tushuntiriladi. Bunda, dastavval, misol tariqasida ikki bosh bo‘lakli sodda yig‘iq qolipidagi gaplar misolida tushuntirish o‘rinli bo‘ladi. Mavzu o‘timli va va o‘timsiz fe’llar mavzusi bilan bog‘lansa yaxshi samara beradi va talabalarda o‘zbek tilining ichki qurilishi haqidagi tasavvurlari boyiydi va tizimli bilimlarning shakllanishiga olib keladi.

Misollar:

Aniq nisbat	**Orttirma nisbat**
Bola yig‘ladi	Bolani yig‘la**t**di
Mashina keldi	Mashinani kel**tir**di
Qizlar yugurdi	Qizlarni yugur**tir**di
Bola kuldi	Bolani kul**dir**di
Talaba o‘qidi	Talabani o‘qi**t**di
Karim ko‘rdi	Karimni ko‘r**sat**di
Ustoz ko‘rdi	Ustozni ko‘r**sat**di

Talabalarga ish-harakatni yuzaga keltiruvchi shaxs ma’nosini hosil qilishda *-t, -tir/-dir, -sat* kabi qo‘shimchalarning mavjudligi o‘zbek tilining agglyutinativ tabiati bilan bog‘liq ekanligi eslatiladi va uning so‘z, ya’ni asosga qo‘shilish tartibiga amal qilish ham so‘raladi.

Talabadan mavzuni qanday o‘zlashtirgani so‘ralganda, shunday javoblar olindi: *Soch oldirdim. Sochimni men emas, balki sartarosh oldi. Men sartaroshga bordim va sartarosh*

sochimni oldi. Demak, sartaroshga sochimni oldirdim. Yoki: *xat yozdim, xat yozdirdim. Men xat yozmadim, balki men boshqa odamga xat yozishni iltimos qildim va u xat yozdi. Demak, boshqa odamga xat yozdirdim.*

Til o‘rgatishda yana bir muhim jihat borki, uni har doim e’tiborda tutish va undan o‘rinli foydalanish lozim. U ham bo‘lsa, talabalarning ona tilisidir. Talabalarga minimum grammatikani o‘rgatishda ularning ona tilisini ham hisobga olish kerak, chunki har qanday til o‘rganuvchi chet tillarni o‘rganganida, birinchi navbatda, ona tilisiga tayanadi. L.V. Shcherba aytganidek, “Biz chet tili darslarida ona tilini qancha chetlab o‘tmoqchi bo‘lsak ham biri bir u qatnashadi” [Щерба, 1974: 429].

Fe’lning orttirma nisbati shaklini tushuntirishda talabalarning ona tilisiga qiyoslanishi talabalarning mavzuni yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi. Darsni mustahkamlash qismida aniq va orttirma nisbatdagi gaplarni (fe’llarni) xitoy tilidan o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan xitoy tiliga tarjima qildirish ham o‘qituvchining darsdan ko‘zlagan maqsadiga erishishga katta yordam beradi.

Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, xitoy tilida aniq nisbatdagi gapga/fe’lga “kimdir nimanidir qildirishi/bajartirishi” ma’nosini qo‘shish uchun maxsus so‘zlardan foydalaniladi. Ular quyidagilar: 使 [shǐ], 让 [ràng], 令[ling],叫[jiao]. Xitoy tilida o‘zbek tilidagi orttirma nisbat shakli ma’nosini hosil qilish uchun aniq nisbatdagi gapga yuqorida qayd etilgan maxsus so‘zlardan biri qo‘llanadi. Masalan: yozdi - 写了 [xiěle] (yozdirdi: 使 [shǐ]…写了 [xiěle]; 让 [ràng]……写了[xiěle]. (Bu o‘zbek tilidagi orttirma nisbat ma’nosini beruvchi so‘zni birini o‘rnida boshqasini ishlatish mumkin). Quyidagi misollar fikrimizni to‘ldirishga xizmat qiladi:

Yusuf xat(ni) yozdi — Yusuf 写了封信 [Yusuf xiěle fēng xìn];

Yusuf xat(ni) yozdirdi — Yusuf 让人写了封信 [Yusuf ràng rén xiěle fēng xìn].

Ishchilar ishladi — 工人们工作了 [Gōngrénmen gōngzuòle];

Ishchilarni ishlatdi — 他让工人们工作了 [Tā ràng gōngrénmen gōngzuòle].

Qizlar kuldi — 女孩们笑了 [Nǚháimen xiàole];

Qizlarni kuldirdi — 他让女孩们笑了 [Tā ràng nǚháimen xiàole]。yoki 他逗笑了女孩们 [Tā dòuxiàole nǚháimen].

Bola uxladi — 孩子睡着了 [Háizi shuìzhele];

Bolani uxlatdi — 他让孩子睡着了 [Tā ràng háizi shuìzhele].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xorijiy tilni o‘rgatishda grammatikani o‘rgatish bosh maqsadga ko‘tarilmasligi, unga til o‘rgatishning bir vositasi sifatida bilish, lekin grammatika kommunikativ faoliyat – talabalalarning og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri rivojlanishga xizmat qilishini unutmaslik ham kerak.

Xorijiy tilni o‘rganuvchilar o‘rganilayotgan tilning grammatik qurilishini anglamasdan uni tez va oson o‘rganishlari qiyin, shuning uchun uning minimum loyihasini ishlab chiqilishi va shu asosda darslar tashkillashtirilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, Ўқитувчи. 1980. –Б. 448.
2. Чеснокова, М.П. Методика преподавания русского языка как иностранного: учеб. пособие / М.П. Чеснокова. – 2 изд., перераб. – М.: МАДИ, 2015. – 132 с.
3. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. - Л.: Наука, 1974. - 429 с.
4. Rahmatov M.M. O‘zbek tili xorijiy til sifatida: til o‘rgatishda dialoglarning o‘rni: O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari mavzuidagi Anjuman materiallari. Elektron nashr. Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. -C 413-415.

XORIJDA O‘ZBEK TILI TA’LIMINING AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xodjayeva Dilso‘z Shomurod qizi
AIFU lingvistika o‘zbek tili 1- kurs magistranti
dilsozxodjayeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada 2015-2024-yillar oralig‘ida chet mamlakatlarda o‘zbek tili ta’limining rivojlanish ko‘rsatkichlari statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. O‘qitish jarayonidagi metodik yondashuvlar, xorijliklar uchun o‘zbek tilini o‘qitishning mazmuni, o‘zbek tilining o‘rgatishning o‘ziga xosligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, o‘zbek tilini o‘qitish, elektron darslik, onlayn platforma.*

O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi iqtisodiy-siyosiy mavqeyi ortayotganligi, xorijning ko‘plab yetakchi ta’lim muassasalarida o‘zbek tili yo‘nalishlarining ochilishi natijasida o‘zbek xalqining urf-odatlarini, mentalitetini o‘rganishni xohlovchilar soni sezilarli darajada ko‘payib bormoqda. Natijada bu o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzining ham o‘sganligini ko‘rsatmoqda. So‘nggi o‘n yillikda o‘zbek tiliga bo‘lgan xalqaro qiziqish sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2015-yilda atigi 12 mamlakatda o‘zbek tili o‘rgatilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 27 davlatga yetdi.[1]Xalqaro universitetlar, turkiy tillar markazlari sonining ko‘payishi o‘zbek tilining global maydondagi mavqeini kuchaytirmoqda. Quyida keltirilgan statistik ma’lumotlarga e’tibor qiladigan bo‘lsak:

O‘quvchilar soni:

2015 — 4 800 nafar

2018 — 7 200 nafar

2021 — 10 600 nafar

2024 — 15 000 dan ortiq

Hududlar bo‘yicha taqsimot:

Yevropa — 39%

Osiyo — 28%

AQSH va Kanada — 18%

Yaqin Sharq — 10% [2]

O‘zbek tilining xorijda o‘rganilishini Turkiya misolida ko‘radigan bo‘lsak, Turkiya Respublikasida o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha 30 yildan ortiq tajriba mavjudligini ta’kidlash

zarur. Qardosh turkiy davlatning 18 ta universitetida: Afyon Kojatepe, Pamukkale, Sivas Jumhuriyat, Ankara Haji Bayram Veli, Mug‘la Jitki Kochman, Nevshehir Haji Bektash Veli, Nig‘de O‘mer Halisdemir, Ardahan, Ataturk, Bartin, Kastamonu, Kirklareli, Ushak, Dijle, Firat, Hajettepe, Istanbul, Ankara universitetlarida zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar (Зağdaş Tьrk Lehзeleri ve Edebiyatları) bo‘limlari mavjud [3].

Ammo xorijiy auditoriyalardagi o‘zbek tili ta’lim dargohlari, o‘zbek tili va madaniyati markazlarini tilimizga oid zarur o‘quv qo‘llanmalar, elektron darsliklar, o‘quv-metodik ishlanmalar bilan ta’minlash talab darajada emas. Xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha 1990-yilda Toshkentda I.A.Kissen, Sh.U.Rahmatullayevlar tomonidan chop etilgan “Изучаем узбекский язык для взрослых (самоучитель)” [4] , 1997-yilda A.Rafiyev, Tunjay O‘zturk, D.Nuriddinova tomonidan tayyorlanib Toshkentda chop etilgan “Chet elliklar uchun o‘zbek tili” [5], 2002-yilda Nigora Ikromova va Hanneke Ykema tomonidan o‘zbek va ingliz tillarida tayyorlanib, Toshkentda chop etilgan “Marhamat” o‘quv qo‘llanmasi [6], Y.Azizxanova va R.Tolipova tomonidan “O‘zbek tili chet elliklar uchun” o‘quv qo‘llanmalarini [7] ko‘rsatib o‘tish mumkin. Mazkur o‘quv darsliklari xorijliklarni o‘zbek tili alifbosi va fonetikasi, grammatik tuzilish bilan tanishtirish, til o‘rganuvchilar nutqini dastlabki muloqot uchun zarur bo‘lgan lug‘aviy baza bilan boyitishni maqsad qilgan bo‘lib, ularda nutq tovushlari talaffuzi haqida ma’lumotlar berilgan, faol qo‘llanadigan so‘z birikmalari, 5 gap va jumlalar tarjimasi bilan keltirilgan, ularni nutqda qo‘llashga doir mashq va topshiriqlar bilan ham tanishtirilgan.

Mazkur darsliklarning ham kamchiligi shundan iboratki, eng avvalo, til o‘rganuvchilar o‘zbek tilining grammatikasi bilan tanishishgan, xolos. Ularga faqatgina grammatik qoidalar singdirilgan. Nutqiy kompetensiyalar, ya’niki, o‘rganuvchilarda o‘zbek tilida gapira olish, tushunish, tinglash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga oid bazalar yetarlicha mavjud bo‘lmagan. Qolaversa, raqamlashgan dunyoda o‘zbek tilining hali ham qog‘ozlarda yashayotgani tilimizning jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topa olmayotganini buning sababi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi ‘‘O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktyabrdagi ‘‘Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PF-6084-sonli Farmonlari va ular ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da bu masalaning dolzarbligi qayd etib o‘tilgan.

Davlatimiz tomonidan oldimizga qo‘yilgan ushbu vazifalarni bajarish yo‘nalishida “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia

mahsulotlarini yaratish” amaliy loyihasi doirasida 5 ta tilda: ingliz, nemis, rus, xitoy, koreys tillarida so‘zlashuvchilar uchun elektron darslik, lug‘at, so‘zlashgich va o‘zbek tilining milliy-madaniy so‘zlari glossariysidan iborat elektron mahsulotlar majmuasi ishlab chiqildi. Ushbu dasturiy mahsulotlarning mavjud o‘quv qo‘llanmalardan farqi ularning multimedia ishlanmalaridan iboratligi bo‘lib, ulardan dars berish jarayonida ham, shuningdek, o‘zbek tilini mustaqil o‘qib o‘zlashtirish uchun ham foydalanish mumkin.

Yangi elektron darsliklar, ilmiy bazalar, o‘zbek tili korpusi kabi yaratilayotgan ilk qadamlar hozirda o‘zbek tilining jahon ta’lim muassasalarida o‘rganilishi, keng tarqalishiga sababchi bo‘layotgani nafaqat tilimiz, balki davlatimiz, madaniyatimizning ham tanilishiga hissa qo‘shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
2. Abdullayeva N. Chet til sifatida o‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Azizxanova Y., Tolipova R. O‘zbek tili (практический курс для иностранцев). – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
4. Киссен И.А., Раҳматуллаев Ш.У. Изучаем узбекский язык для взрослых (самоучитель). – Тошкент, 1990.
5. Madjidova R.U., Muxitdinova X.S. va b. Xorijliklar uchun o‘zbek tilidan multimedia mahsulotlari majmuasi: elektron darslik so‘zlashgich, lug‘at, milliy madaniy so‘zlar glossariysi (o‘zbek-ingliz, o‘zbek-rus, o‘zbek-nemis, o‘zbek-koreys, o‘zbek-xitoy tillarida elektron majmua) – O‘zR Adliya Vazirligi Intellektual mulk agentligining mualliflik guvohnomalari: № DGU 005874, № DGU 005875. – Toshkent, 2022.
6. Qodirova D. “Xorijiy auditoriyalarda o‘zbek tili darslarining o‘ziga xos xususiyatlari.” Filologiya masalalari, №3, 2021.
7. Rafiyev A., O‘zturk T., Nuriddinova D. (eds.) Uzbek language for foreigners. Tashkent: O‘zbek-Turk litseylari, 1997. – 176 p.
8. Sharipova N., Ykema H. Marhamat. Uzbek Coursebook for Beginners. -Toshkent, 2002. 297 p.

G‘URURLI, LEKIN QIYINCHILIKSIZ: O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘RGANISH TAJRIBASIDAN

Kamil Zaitjonovich Tilyabayev,
Toshkentda Xalqaro Vestminster Universiteti
katta o‘qituvchisi, PhD
k.tilyabaev@wiut.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada millati o‘zbek bo‘lgan, ammo rus tilida ta’lim olgan 20-40 yoshli O‘zbekiston fuqarolarining o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishning hissiy tajribalari tahlil qilinadi. Garchi ular o‘zbek tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirib, shu tilni bilishdan g‘ururlansalar ham, mazkur o‘rganishning murakkablik darajasi yetarli bo‘lmaganini ta’kidlab, tegishli fikr-mulohazalar va takliflar berishdi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, g‘urur, qiyinchilik, millat, o‘rganish tajribasi.*

Abstract. This paper analyses the emotional experiences of Uzbek citizens of Uzbek ethnicity aged 20-40 who learnt Uzbek as a second language through Russian. Although they were successful in acquiring Uzbek and are proud of it, they were not sufficiently challenged, and hence, shared some feedback and recommendations.

Keywords: *Uzbek language, pride, challenge, ethnicity, learning experience.*

Kirish. Tilshunoslarning his-tuyg‘ularga bo‘lgan qiziqishi 1980-yillarda boshlangan. Hozirda his-tuyg‘ular til o‘rganishning markaziy tarkibiy qismi sifatida ko‘rilmoqda [Dewaele, 2010]. Ikkinchi til o‘rganishda ijobiy psixologiya va his-tuyg‘ular modeli Shao va boshq. [2020] tomonidan taklif qilingan. Mazkur model quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: 1) o‘quv muhiti/tizimi; 2) talabalarning shaxsiy sifatlari; 3) talabalarning his-tuyg‘ulari; va 4) talabalar natijalari. Ushbu elementlar bir biriga ta’sir qilib, ikkinchi til o‘rganish borasidagi tegishli natijalarga olib keladi. Ushbu model bir qator empirik tadqiqotlar bilan isbotlandi [Arens, Morin, va Watermann, 2015; Frenzel va boshq., 2018; Wei, Gao, and Wang, 2019], va o‘qitish hamda o‘rganishini baholash uchun foydali deb topildi.

Mavjud adabiyotlarda asosan maktab va universitet muhitidagi vaziyatlar ko‘rib chiqiladi, rasmiy ta’lim kontekstidan tashqarida esa ikkinchi til o‘rganish his-tuyg‘ulari haqida ma’lumot kam [Driver va Prada, 2024]. Bundan tashqari, mavjud empirik natijalar xalqaro miqyosda qanchalik ishonchli va universal ekanligi haqida savol tug‘ilishi mumkin, chunki asosan G‘arb ta’lim muhiti shu paytgacha tadqiqotchilarning e’tiborini tortib kelgan. Mavjud

adabiyotlarning aksariyati ikkinchi til sifatida ingliz tilini o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini yoki Italiya [MacIntyre, P.D. va Vincze, L., 2017], Ruminiya [Pavelescu va Petrić, 2018; Dewaele va Pavelescu, 2021], Vengriya [Piniel and Albert, 2018] va Kanada [Boudreau, MacIntyre and Dewaele, 2018] kabi g‘arbiy sharoitlarda ikkinchi til o‘rganish xususiyatlarini yoritib kelgan. Shunday qilib, ikkinchi til o‘rganish his-tuyg‘ular bilan qanday bog‘liqligini yoritish uchun boshqa tillar misolida va boshqa kontekstlarda ko‘proq tadqiqotlar o‘tkazish tanlangan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Global miqyosda aniqlangan bo‘shliqlar O‘zbekistonda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishga ham taalluqlidir, chunki ma’lumki, bunday tadqiqotlar hali olib borilmagan. Shunday qilib, nog‘arbiy kontekstda olib boriladigan tadqiqotlar hamda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan O‘zbekiston fuqarolarining hissiy tajribalariga e’tibor qaratish yuqorida qayd etilgan bo‘shliqlarni samarali to‘ldirishga yordam beradi. Tanlangan mavzuning yangiligi, maqsadi va vazifasi ham aynan shulardan iborat. Ushbu maqolada o‘zbek millatiga mansub O‘zbekiston fuqarolarining o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishidagi hissiy tajribalarini yoritib beradigan keng qamrovli tadqiqotning bir qismi taqdim etiladi.

Uslubiy qism. Ma’lumotlar o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan yoki o‘rganishda davom etayotgan 20-40 yoshdagi 25 ta O‘zbekiston fuqarosi bilan individual suhbatlar orqali to‘plangan. Olingan ma’lumotlardan tadqiqot maqsadlarida foydalanish, ularning xavfsizligi, maxfiyligi va manbalarini taxalluslash BERA [2018] axloqiy me’yorlariga muvofiq ta’minlandi. Olingan ma’lumotlar narrativ tahlil usuli yordamida qayta ishlangan [Smith, 2016] va o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan talabalarning millati va hissiy tajribalaridan kelib chiqqan holda to‘rtta narrativ-hikoya shaklida muallifning doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan. Ushbu maqolada “G‘ururli, lekin qiyinchiliksiz” deb nomlangan faqat bitta narrativ-hikoya taqdim etiladi.

Natijalar taqdimoti va muhokamasi. Bu hikoyada millati o‘zbek bo‘lgan Setora, Shoira, Hojimat, Dinislom, O‘lmasoy va Bahodirlarning o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalari tahlil qilinadi. Ulardan faqat Bahodir o‘zbek tilini mukammal biladi. Boshqalari esa o‘zbekcha faqat yaxshi gapirishadi. Ularning ba’zilari dastlabki yillarini O‘zbekistonning turli joylarida va undan tashqarida o‘tkazgan bo‘lsa-da, barchasi 1990-2010-yillarda rus tilida ta’lim olishgan va hozirda O‘zbekistonning ruscha eng ko‘p so‘zlashiladigan hududi bo‘lib qolayotgan Toshkentda yashab ishlamoqda. Ularning eng kuchli tili rus tilidir, va garchi u o‘zbek tilining sofligiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ular oilaviy davradagi muloqot uchun asosan o‘zbek tilidan foydalanib kelishmoqda. Bundan tashqari, xalqaro kompaniyalarda

ishlaydigan Setora va Shoiradan boshqalar uchun o‘zbek tilining kasbiy faoliyatidagi ahamiyati tobora kuchayib bormoqda.

Ushbu hikoya “G‘ururli, lekin qiyinchiliksiz” deb nomlanadi, chunki oltitasi ham ota-bobolarining tili bilan faxrlanadilar va farzandlari o‘zbek tilini ulardan ko‘ra yaxshiroq bilishlarini xohlashadi. Bunday munosabat, Zhao [2022] oldin ko‘rsatganidek, asosan ularning o‘zbekzabonligi va o‘zbek millatiga mansubligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, ularning barchasi tilni rasmiy o‘rganish tajribasida o‘zlarining qulaylik zonalaridan chiqmay, adabiy o‘zbek tili ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kerakli qiyinchiliklarga duch kelmaganligini ta’kidladilar. Ularning o‘zbek tiliga nisbatan hissiyotlari qanday shakllanganligi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun ularning: 1) oila davrasidagi va 2) rasmiy va norasmiy ta’limdagi tajribalarini ko‘rib chiqiladi.

Shunisi e’tiborga loyiqki, Shoira va Dinislomdan tashqari ularning barchasi “sof” o‘zbeklardir. Ularning ota-onalari har doim uyda o‘zbekcha gaplashishgan va ushbu tanlangan oila tili siyosati [Curdt-Christiansen va Huang, 2020] tufayli ular o‘zbekcha yaxshi tushunishadi va gapirishadi. O‘lmasoy hattoki adabiy o‘zbek tilidan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishda onasining omma oldida yuksak mahorat bilan o‘zbekcha gapirganligini va bu unga kuchli motivatsiya berganligini aytgan. Bundan tashqari, ajdodlar tiliga bo‘lgan munosabat aynan oila tomonidan shakllantirilayotganligi ma’lum [Schalley va Eisenchlas, 2020].

Shu bilan birga, Setora va Dinislomning o‘zbek tilini bilish darajasi ularga uyda faqat kundalik mavzularda gapirishga imkon berishini ta’kidladilar. Bundan tashqari, ilgari Mee va Alimjonova [2001] ta’kidlaganlaridek, Dinislom ota-onalar va bolalar o‘rtasida qarama-qarshi jins bilan munosabatlar kabi jiddiyroq so‘z boyligini talab qiladigan juda nozik mavzularda samimiy suhbatlashish o‘zbek an’anasida yo‘qroq, deb aytdi. Bolalarning o‘z ona tilida bunday so‘z boyligi va bunday hayotiy tajribasi mavjud emas. Bunday vaziyatlarda o‘zbek mentaliteti ularni cheklab qo‘ygandek tuyuladi, shuning uchun bu masalalar bo‘yicha bilimlar odatda ota-onalardan emas, balki norasmiy kanallardan [Buckley, Barrett va Asminkin, 2004], shu jumladan Internetdan [Gazeta.uz, 2020] olinadi. Biroq, o‘zbek tili kam resurs tili ekanligini hisobga olsak [Kuriyozov va boshq., 2019], internetda o‘zbekcha ma’lumot unchalik ko‘p emas, shuning uchun ular rus tilidan foydalanishadi.

Rus tilida ta’lim sifati yuqori bo‘lganligi [Bezborodova, 2023] uchun Setora, Shoira va O‘lmasoy bolalarini rus maktablariga berishga majbur bo‘ldi. Ota-onalaridan farqli o‘laroq, Setora va Shoira bolalari bilan o‘zbekchadan ko‘ra ko‘proq ruscha gaplashishgan, bu esa rus tilida ta’lim olish bilan birgalikda bolalarining o‘zbek tilida kamroq gaplashishiga olib keldi.

Darhaqiqat, koʻpincha bolalarda maktab tili ota-bobolar tilining oʻrnini bosadi; bu baʼzan ota-onalar tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi va bolalarni oilaviy madaniyatidan uzoqlashtiradi [De Houwer, 2020]. Bundan tashqari, ajdodlar tilida muloqot qilish ularda hayajon tugʻdiradi, bu esa uni ishlatish bilan bogʻliq vaziyatlardan qochishga va natijada uning past darajasiga olib keladi [Sevinç, 2020]. Dinislom, Hojimat va Bahodirlarga kelsak, ularning hali farzandlari yoʻq, lekin ular farzandlari oʻzbekcha albatta yaxshi biladi deb aytishdi.

Keyingi yillarda odamlarning Oʻzbekiston mintaqalaridan Toshkentga oqimi kuchayganligi tufayli [Olma, 2021] qahramonlarimizning oʻzbek tilini ishlatish doirasi kengayib bormoqda. Setora, Shoira, Dinislom, Hojimat va Bahodir suhbatdoshlariga qulay boʻlsin deb oʻzbekcha soʻzlashishdan mamnun [Shodiyeva, 2023], va tilni mashq qilish uchun har qanday imkoniyat uchun minnatdor. Oʻlmasoy yana tez-tez turli mahalliy telekoʻrsatuvlarga taklif qilinib, oʻzbek tilining rasmiy uslubini rivojlantirishga motivatsiya olganman, deb minnatdorlik bilan eslaydi. U suhbat mavzusini oldindan bilar edi, shuning uchun tayyorgarlik koʻrishga vaqti bor edi.

Qahramonlarimizning oʻzbek tilini rasmiy oʻrganishlari haqida gapiradigan boʻlsak, ularning hech biri maktab va universitetda qiyinchiliklarga duch kelmadi, chunki ular yaxshi bazaviy koʻnikmalarga ega edilar. Ularning barchasi oʻzbek tili fanidan yaxshi baholar olgan boʻlsa-da, oʻqitish uslubida bir qancha kamchiliklar borligini qayd etishdi. Masalan, Bahodirning aytishicha, agar u oʻzbek tilini oʻrganishda faqat maktabiga tayanib, oʻzi oʻzbek tilida koʻp narsa oʻqimaganida hamda koʻp narsalarni mustaqil ravishda oʻzbek tiliga tarjima qilmaganida, hech qachon oʻzbek tilini oʻrganmagan boʻlardi. Xuddi Bahodir singari, Oʻlmasoy va Dinislom ham oʻqishlari yetarlicha qiyin boʻlmagan deb hisoblaydi [Falout va Maruyama, 2004], Shoira esa, ilgari Panthito [2018] koʻrsatganidek, darslarni faqat oʻzbek tilida olib borish tilni mashq qilish nuqtayi nazaridan juda foydali boʻlardi deb tan oldi. Shoira shuningdek, Noom-Ura [2013] hamda Chang va Cho [2003] taʼkidlaganlaridek, katta guruhlar va yomon sinf boshqaruvi kabi demotivatsiyalovchi omillarni eslatib oʻtdi:

Sinfda 35 kishi edik. Koʻpincha butun sinfga bitta oʻzbek tili oʻqituvchisi dars berardi va intizom bilan bogʻliq muammolar boʻlardi. Bunga qoʻshimcha ravishda, Dinislom, oldin Zhang [2007] taʼkidlaganidek, maktabidagi oʻzbek tili oʻqituvchisining oʻz faniga va oʻquvchilariga boʻlgan hurmatsizligini til oʻrganish uchun salbiy omil sifatida qayd etdi. Dinislom, shuningdek, bir xil grammatik material yoki bir xil soʻzlarning imlosi turli oʻqituvchilari tomonidan turlicha oʻrgatilishi oʻzbek tilida aniq qoidalar yoʻq, va hamma narsani taxmin qilish yoki yodlab olish kerak degan taassurot qoldirganini taʼkidladi. Bundan tashqari, Hojimat va Setora oʻzbek tilini qiziqtirib oʻqitish kerakligini taʼkidladilar. Til

o‘rganish uzluksizligini ta’minlash uchun unga qiziqish uyg‘otish juda muhim deb hisoblanadi [Fryer, 2019].

O‘qituvchilar faqat dastur bo‘yicha ishlashardi. Ular o‘quvchilarni (o‘zbek) milliy madaniyati bilan ko‘proq tanishtirish uchun ekskursiyalar tashkil qilishlari mumkin edi. Ular o‘zbek tili tarixi haqida ko‘proq gapirsalar, qiziqroq bo‘lar edi. Afsuski, buning hammasi yo‘q edi [Setora].

O‘z navbatida Hojimatda shunday taasurot paydo bo‘ldiki, sinfidagi o‘quvchilarning aksariyati o‘zbekzabon bo‘lganligi sababli, ularga tilni o‘rgatishning hojati yo‘q edi, shuning uchun o‘qituvchilar o‘z asosiy vazifasini bajarilgan deb bilishgan. Yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklarga qaramay, Shoira, Setora, Hojimat va Dinislomlarning o‘zbek tilini rasmiy o‘rganish tajribalarida ba’zi ijobiy jihatlar mavjud. Bu asosan ularning o‘zbek grammatikasini o‘rgana olganligi, o‘qituvchilarining vijdonli ishlaganligi va o‘quvchilarga nisbatan iliq munosabatda bo‘lganligi bilan bog‘liq. Shularning aksi motivatsiyani pasaytirayotganini hisobga olsak [Dörnyei, 2001], mazkur omillar ijobiy ta’sirga ega ekanliklaridan dalolat beradi.

O‘zbek tili grammatikasini juda yaxshi o‘rgandim. O‘qituvchilar vijdonan mehnat qilganlar, bizga hamma narsani o‘rgatishga harakat qilganlar. [Shoira]

O‘qituvchilarim juda yaxshi, juda mehribon edilar. O‘zbek tili darslarida har doim ijobiy atmosfera hukm surar edi. [Setora]

O‘zbek tili darslari o‘zbek grammatikasini o‘rganishimga yordam berdi. [Hojimat]

Maktabdagi o‘qituvchimiz bilan muloqotim juda sust edi. Universitetdagi ustozim bilan esa muloqotim juda yaxshi edi. U menga xatolarimni aytib, ko‘p yozdirib, siyosiy yangiliklarni o‘zbekcha gapirtirardi. Bularning barchasi o‘zbek tilini mukammallashtirishimga yordam berdi. [Dinislom]

O‘zbek tilini bilish darajasi ancha yuqori bo‘lishiga qaramay, oltitasi ham hozirgi til ko‘nikmalaridan noroziligini bildirdi. Biroq ularning hech biri o‘zbek tilini yaxshilash uchun hech qanday xususiy kurs olishga urinmadi. Ularning barchasi o‘zbekcha o‘qishga harakat qilishadi, ammo buning uchun vaqt topish har doim ham oson emas. Setora qiziga o‘zbek kitoblarini o‘qib, har doim o‘zi bilmagan so‘zlarni topadi. Dinislom qonunchilik bilan bog‘liq kasbiy faoliyatidan til borasida ko‘p narsalarni o‘rganyapti, chunki hozir qonunchilik sohasida o‘zbek tili ko‘proq ishlatilmoqda. O‘lmasoy o‘zbek tilida yaratilgan ajoyib asarlardan ilhom olayotganini tan oladi. Maktab yillarida u ruscha ko‘p yozib, endi esa ko‘proq o‘zbekcha yozishga harakat qilmoqda. Bu uni so‘z tanlash, ta’sirchanlik va silliq yozish ustida ishlashga majbur qiladi. Ushbu urinishlar doimiy bo‘lib ko‘rinadi, chunki ular bevosita yoki bilvosita

oʻrganuvchilarning oʻzlarini yaxshi his qilishlariga olib keladi, va bu tilni oʻrganishning muhim natijasi hisoblanadi [Shao va boshq., 2020].

Ehtimol, oltitasi ichida Bahodir eng faol boʻlib, oʻzbek tilini norasmiy oʻrganishdan katta foyda olgan. Rus maktabida oʻqiyotganida u oʻzbek adabiyotining koʻplab asarlarini oʻqigan va universitetga kirishga yaxshi tayyorgarlik koʻrib, u yerda tarixni oʻzbek tili orqali oʻrgangan. Universitetda u viloyatlardan kelgan tengdoshlari bilan uchrashdi va ular bilan muloqot qilib, oʻzbek tilining turli shevalari bilan tanishdi. Tarixchi sifatida u nafaqat zamonaviy oʻzbek tilini yaxshi biladi, balki qadimgi turkiy tildagi oʻrta asr matnlarini ham oʻqib tushuna oladi. Bundan tashqari, universitet yillarida va hozir dars berayotgan paytda ham u resurslar yetishmasligi sababli [Kuriyozov va boshq., 2019] rus tilidan oʻzbek tiliga koʻp tarjima qiladi, bu unga oʻzbek tili koʻnikmalarini yaxshilashga yordam berdi. Bahodir tadqiqotchi va oʻqituvchi boʻlishi bilan birga taniqli oʻzbek blogeri hamdir. Oʻzbek tilini erkin bilishi unga nafaqat oʻz fikrlarini oʻzbek tilida ogʻzaki va yozma ravishda yaxshi ifodalash, balki jamiyatimizdagi oʻzbek tiliga bogʻliq muammolar haqida mulohaza yuritish imkonini beradi. Uning ilgʻor fikrlari oʻzbek tiliga befarq boʻlmagan oʻzbek yoshlari orasida katta qiziqish uygʻotmoqda, bu esa Bahodirni oʻzbek tili koʻnikmalarini takomillashtirish va uning muammolarini oʻrganish boʻyicha sa’y-harakatlarini davom ettirishga undaydi.

Xulosa. Setora, Shoira, Oʻlmasoy, Hojimat, Dinislom va Bahodirlarning hikoyalariga yakun yasasak, ularning til rivojlanishiga tegishli tizimlarning hissasini turlicha talqin qilish mumkin. Garchi millati oʻzbek boʻlib, oʻzbekcha bilishdan faxrlanishsa ham, rasmiy ta’lim tizimi ularga yetarlicha qiyinchilik tugʻdirmay, shu til koʻnikmalarini sayqallashga imkon bermadi. Ular bu borada mavjud toʻsiqlarni koʻrsatib, ularni yengib oʻtish uchun ba’zi fikrlar va tavsiyalar berishdi. Ehtimol, qahramonlarimizning yaxshi bazaviy koʻnikmalari, shuningdek, oʻzbek tili oʻqituvchilari bilan iliq munosabatlari oʻzbek tilini rasmiy oʻqitish tizimini kamroq tanqid qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, Setora, Shoira, Oʻlmasoy, Hojimat, Dinislom va Bahodirlarning oilaviy davralari oʻzbek tilini bilish nuqtayi nazaridan ancha foydali boʻlgan. Ularning oʻzbek tiliga nisbatan hurmati ularning oila davrasidagi shu tilda gapirish va shu tilni uzluksiz norasmiy oʻrganish natijasidir. Shunday qilib, ushbu hikoyaning barcha oltita qahramoni tomonidan oʻzbek tilini ikkinchi til sifatida oʻrganishga aloqador hissiyot muhitga (rasmiy va norasmiy oʻrganish tizimlari), shaxsiy xususiyatlarga (millat) va natijalarga (oʻzbek tilini umumiy bilish darajasi) bogʻliqligi koʻrsatilgan. Ushbu his-tuygʻular qahramonlarimizning til oʻrganishda qat’iyatliligiga (shaxsiy xususiyat) va motivatsiyasiga (natija) ta’sir qiladi [Shao va boshq., 2020]. Albatta mazkur xulosalarning

ishonchliligini oshirish maqsadida bu borada kengroq ko‘lamdagi tadqiqotlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan manbalar:

1. 2018. BERA Ethical Guidelines for Educational Research. 4th ed. [ebook] London: BERA, Available at: <https://www.bera.ac.uk/publication/ethical-guidelines-for-educational-research-2018-online> [Accessed 21 February 2021].
2. Arens, A.K., Morin, A.J. and Watermann, R., 2015. Relations between classroom disciplinary problems and student motivation: Achievement as a potential mediator? Learning and instruction, 39, pp.184-193.
3. Bezborodova, A., 2023. Language practices and processes in English-Medium Higher Education in Uzbekistan (Doctoral dissertation, University of Westminster).
4. Boudreau, C., MacIntyre, P. and Dewaele, J.M., 2018. Enjoyment and anxiety in second language communication: An idiodynamic approach. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp.149-170.
5. Buckley, C., Barrett, J. and Asminkin, Y.P., 2004. Reproductive and sexual health among young adults in Uzbekistan. Studies in Family Planning, 35(1), pp.1-14.
6. Chang, S.M. and Cho, C.H., 2003. Demotivating factors in foreign language learning. In Selected Papers from the Twelfth International Symposium on English Teaching (pp. 257-264).
7. Curdt-Christiansen, X.L. and Huang, J., 2020. Factors influencing family language policy. Handbook of social and affective factors in home language maintenance and development, pp.174-193.
8. De Houwer, A., 2020. Harmonious bilingualism: Well-being for families in bilingual settings. Handbook of home language maintenance and development: Social and affective factors, pp.63-83.
9. Dewaele, J.M. and Pavelescu, L.M., 2021. The relationship between incommensurable emotions and willingness to communicate in English as a foreign language: a multiple case study. Innovation in Language Learning and Teaching, 15(1), pp.66-80.
10. Dewaele, J.M., 2010. Emotions in multiple languages. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
11. Dörnyei, Z., 2001.Teaching and researching motivation. England: Pearson Education.
12. Driver, M. and Prada, J., 2024. Global perspectives on heritage language education and emotion: Introduction to the special issue. Modern Language Journal, 108(S1), pp.3-13.

13. Falout, J. and Maruyama, M., 2004. A comparative study of proficiency and learner demotivation. Language Teacher-Kyoto-JALT-, 28(8), pp.3-10.
14. Frenzel, A.C., Becker-Kurz, B., Pekrun, R., Goetz, T. and Lüdtke, O., 2018. Emotion transmission in the classroom revisited: a reciprocal effects model of teacher and student enjoyment. Journal of Educational Psychology, 110(5), p.628.
15. Fryer, L.K., 2019. Getting interested: Developing a sustainable source of motivation to learn a new language at school. System, 86, p.102120.
16. Gazeta.uz, 2020. Bog‘chadan oliy ta’limgacha — o‘g‘il-qizlarga jinsiy tarbiyadan ta’lim beriladi (in Uzbek). Gazeta.uz. Available at: https://www.gazeta.uz/oz/2020/11/13/education/ (Accessed: 25 January 2024).
17. Kuriyozov, E., Matlatipov, S., Alonso, M.A. and Gómez-Rodríguez, C., 2019, May. Construction and evaluation of sentiment datasets for low-resource languages: The case of Uzbek. In Language and Technology Conference (pp. 232-243). Cham: Springer International Publishing.
18. MacIntyre, P.D. and Vincze, L., 2017. Positive and negative emotions underlie motivation for L2 learning. Studies in Second Language Learning and Teaching, 7(1), pp.61-88.
19. Mee, W. and Alimdjanova, D., 2001. Women in the Republic of Uzbekistan. Asian Development Bank (ADB).
20. Noom-Ura, S., 2013. English-Teaching Problems in Thailand and Thai Teachers’ Professional Development Needs. English Language Teaching, 6(11), pp.139-147.
21. Olma, N., 2021. Driving in the shadows: Rural–urban labour migrants as informal taxi drivers in post-socialist Tashkent. In Labour, Mobility and Informal Practices in Russia, Central Asia and Eastern Europe (pp. 36-50). Routledge.
22. Panthito, B., 2018. A study of English-speaking skills of first-year students in Mahachulalongkornrajavidyalaya University. Journal of MCU Humanities Review, 4(2), pp. 185 -195.
23. Pavelescu, L.M. and Petrić, B., 2018. Love and enjoyment in context: Four case studies of adolescent EFL learners. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp.73-101.
24. Piniel, K. and Albert, A., 2018. Advanced learners’ foreign language-related emotions across the four skills. Studies in Second Language Learning and Teaching, 8(1), pp.127-147.
25. Schalley, A.C. and Eisenchlas, S.A. eds., 2020. Handbook of home language maintenance and development: Social and affective factors (Vol. 18). Walter de Gruyter GmbH & Co KG.

26. Sevinç, Y., 2020. Anxiety as a negative emotion in home language maintenance and development. Handbook of home language maintenance and development: Social and affective factors, pp.84-108.
27. Shao, K., Nicholson, L.J., Kutuk, G. and Lei, F., 2020. Emotions and instructed language learning: Proposing a second language emotions and positive psychology model. Frontiers in Psychology, 11, p.2142.
28. Shodieva, M.A., 2023. Code-Switching and Multilingualism: Exploring the Dynamics of Language use in Uzbekistan. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), pp.549-553.
29. Smith, B., 2016. Narrative analysis. Analysing qualitative data in psychology, 2, pp.202-221.
30. Wei, H., Gao, K. and Wang, W., 2019. Understanding the relationship between grit and foreign language performance among middle school students: The roles of foreign language enjoyment and classroom environment. Frontiers in psychology, 10, p.1508.
31. Zhang, Q., 2007. Teacher misbehaviors as learning demotivators in college classrooms: A cross-cultural investigation in China, Germany, Japan, and the United States. Communication Education, 56(2), pp.209-227.
32. Zhao, L., 2022. Uzbek for My Heart: Language Choice and Identity Negotiation in Multilingual Uzbekistan. Security and Communication Networks, pp. 1-8.

XORIJ TA’LIMIDA O‘ZBEK TILI

Murodova Diyora Akramovna
AIFU lingvistika o‘zbek tili
1- kurs magistranti
E.mail: Musayevmahmud323@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilining chet tili sifatida o‘qitilishi, o‘zbek tilini sifatli o‘qitishdagi yo‘l-yo‘riqlar, uning dunyo bo‘ylab keng tarqalishi uchun zarur bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, tilni bosqichma-bosqich o‘qitishga doir qo‘llanmalar yaratish to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, ta’lim korpusi, o‘zbek tilini o‘qitish, elektron darslik, onlayn platforma.*

Annotation. The article discusses the teaching of the Uzbek language as a foreign language, the strategies for quality instruction of the Uzbek language, modern approaches necessary for its widespread dissemination around the world, as well as reflections on the creation of resources related to teaching the language step by step and subject-specific language instruction.

Keywords: *Uzbek language, educational corpus, teaching Uzbek, electronic textbook, online platform*.

Hozirgi Renessans davrida yangi O‘zbekistonni rivojlantirish uchun yurtboshimiz boshchiliklarida olib borilayotgan katta islohotlar jarayonida til siyosatini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa kasb etmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 2-dekabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmonida [1] o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, so‘nggi yillarda yaratilgan zamonaviy darslik va qo‘llanmalar, lug‘atlar, xalqaro darajada tashkil etilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar va eng asosiysi tilimizda yangi qadam - o‘zbek tili korpusining yaratilgani ona tilimizga bo‘lgan e’tiborning yaqqol dalilidir. Jumladan, Prezidentimizning “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi Farmoni”da: “... ona tilimizning Internet jahon axborot

tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, uning kompyuter uslubini, o‘zbek tili va dunyodagi yetakchi xorijiy tillar asosida tarjima dasturlari va lug‘atlar, elektron darsliklar yaratish bilan bog‘liq ilmiy-metodik ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu borada erishilgan natijalarni amaliyotga keng tatbiq etish” vazifasi alohida qayd etilgan.

Tashqi aloqalarning kengayishi, migratsiya jarayonlari, turkiy tillarga bo‘lgan qiziqishlar sabab O‘zbekistonning xalqaro maydonda mavqeyi oshishi natijasida o‘zbek tilini o‘qitish doirasi jahon bo‘ylab ham tobora kengayib bormoqda.

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbek tilida so‘zlashuvchilar soni 50 milliondan ortgani tilimizga qiziqishningko‘payganligini isbotlamoqda. Hozirgi kunda 70 ga yaqin davlatda o‘zbek tili va o‘zbek adabiyoti o‘rganiladi. Shu bilan birga keyingi yillarda turkiy davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqalarning yanada kuchayishi ham tilimizning nufuzini yuksaltirmoqda.

Xususan, so‘nggi yillarda Germaniya, Turkiya, Chexiya, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Misr, BAA, Rossiya kabi mamlakatlarda o‘zbek tili universitetlar, madaniy markazlar va onlayn ta’lim platformalarida o‘qitilmoqda [2] Germaniya, Chexiya, Polshada o‘zbek tili o‘qitishdagi yondashuvdan maqsad matn tahlili, turkiy tillar qiyosiga asoslangan. Koreya, Yaponiya, Xitoyda esa kommunikatsiya maqsadida o‘qitilgan, qolaversa, o‘zbek tili yozuv o‘rgatilgan. AQSH va Kanada esa onlayn ta’lim shakli asosida ona tilimiz o‘rganib kelinmoqda. BAA, Misr, Saudiya Arabistonida o‘zbek tili amaliy muloqot uchun, diniy matnlar integratsiyasi uchun o‘rganilib kelinmoqda [3].

Xorijda tilimizni o‘qitishni yanada kengaytirish, ona tilimizning mavqeyini oshirish uchun bir qancha muhim ishlarni amalga oshirish zarur. Masalan, Xorijliklar uchun mo‘ljallangan o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha darajalarga ajratilgan darslik-qo‘llanmalar yaratilishi maqsadga muvofiq. Xuddi ingliz tili o‘qitish sistemasi singari: *beginner*, *elementary, intermediate va h.k.z* kabi bosqichlar asosida ingliz tili o‘rganilayotgani mazkur tilning keng va samarali foydalanishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbek tilida ham yaqinda boshlang‘ich o‘rganuvchilar uchun A1, A2 darajadagi darsliklar yaratilgani tilimiz yutug‘i bo‘ldi. Ammo B1, B2, C1 kabi darajada bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishi uchun darslik va qo‘llanmalar mavjud emasligi achinarli holatligicha qolmoqda.

Shuningdek, o‘zbek tili rivoji uchun elektron shakldagi o‘zbekcha matnlar to‘plamiga asoslangan axborot-ma’lumotnoma tizimi – o‘zbek tili milliy korpusini yaratish masalasi ham biz mutaxassislar oldidagi ulug‘vor maqsadlarimizdandir. Masalan, rus tili bo‘yicha umumiy hajmi 900 milliondan ortiq so‘zdan iborat zamonaviy “rus tili korpusi” mavjud. Shu bois aksar millat vakillari rus tilida so‘zlasha olishlarining sababi ham shundadir.

O‘zbek tilimizning yanada sifatli o‘qitish va uni butun dunyoga keng yoyish uchun, Navoiy-u Bobur bobomizning muborak asarlarini keng targ‘ib qilish uchun ham eng avvalo, internet manbalarni ko‘paytirishimiz, jumladan, videodarsliklar tayyorlash; tilni bosqichma-bosqich o‘qitishda soha tilini o‘rgatish bo‘yicha qo‘llanmalar yaratish zarurati bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-okbrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni.

3. Rahimov A. (2023). Teaching Uzbek in Europe: Challenges and Solutions European Oriental Studies, 8(2), 54–72.

4. Tursunov B. (2023). O‘zbek tilining xorijiy ta’lim tizimidagi o‘rni. O‘zbekiston filologiyasi jurnali, 7(1), 23-38.

5. Zahiriddinova M. (2024). O‘zbek tili darsliklarining lingvodidaktik tahlili. Language Education Innovations, 5(4), 90-108.

6. https://lex.uz/docs/-5058351

O‘ZBEK VA TURK TILLARI DARSLIKLARIDA FE’L KATEGORIYALARINI O‘QITISH METODIKASI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Mohigul Rahimqulova
BuxDPI 2-bosqich magistranti
rahimqulovamohigul1994@gmail.com
+998912414340

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va turk tillari darsliklarida fe’l kategoriyalarini o‘qitish metodikasi qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O‘zbekiston va Turkiyada qo‘llaniladigan 15 dan ortiq darslik seriyalari, 10 ta zamonaviy raqamli ta’lim platformalari hamda 2020-2025-yillar oralig‘ida nashr etilgan o‘quv-metodik adabiyotlar o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilida 12 ta zamon-aspekt shakli, turk tilida esa 8 ta asosiy zamon konstruksiyasi mavjud bo‘lib, ularning o‘qitilishi 40% an’anaviy, 35% kommunikativ va 25% raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: *fe’l kategoriyalari, agglyutinativ tillar, qiyosiy tipologiya, o‘zbek tili metodikasi, turk tili o‘qitish, kommunikativ yondashuv, TBLT, raqamli ta’lim resurslari, morfologik tahlil, evidentsiallik.*

Turkiy tillar oilasiga mansub o‘zbek va turk tillari dunyo miqyosida 110 milliondan ortiq aholi tomonidan so‘zlashiladi, shundan 35 million kishi o‘zbek tilida, 75 million kishi turk tilida muloqot qiladi [1, 12-b.]. XXI asrda til o‘qitish metodikasi keskin o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda - an’anaviy grammatika-tarjima usulidan zamonaviy kommunikativ-kognitiv yondashuvlarga o‘tish 2015-2025 yillar oralig‘ida 65% tezlik bilan amalga oshirilmoqda [2, 234-b.].

O‘zbekiston Respublikasida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish dasturi qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra 2025-yilgacha barcha o‘quv muassasalarida zamonaviy o‘qitish metodlarini joriy etish rejalashtirilgan [3, 45-b.]. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 9,871 ta umumta’lim maktabida 6.3 million o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 100% ona tili darslarida fe’l kategoriyalarini o‘rganadi [4, 78-b.].

Turkiya Respublikasida esa “Türkiye Yüzyılı Maarif Modeli” (2024-2025) doirasida 18,346 ta maktabda 19.2 million o‘quvchi yangilangan o‘quv dasturi asosida ta’lim olmoqda [5, 156-b.]. Turk ta’lim vazirligining ma’lumotlariga qaraganda, til o‘qitishda konstruktivist

yondashuv 2004-yildan beri qo‘llanilmoqda va hozirgi kunga kelib 87% maktablarda to‘liq joriy etilgan [6, 89-b.].

Qiyosiy tipologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va turk tillari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish darajasi 10-25% ni tashkil etsa-da [7, 234-b.], grammatik tuzilmalarning o‘xshashligi 75-80% ga yetadi [8, 45-b.]. Bu statistika ikki til o‘rtasida qiyosiy o‘qitish metodikasini qo‘llash imkoniyatini ko‘rsatadi.

2023-yilda o‘tkazilgan xalqaro PISA tadqiqotida qatnashgan o‘zbek o‘quvchilarining 42% til kompetensiyasida o‘rtacha ko‘rsatkichga erishgan bo‘lsa, turk o‘quvchilarida bu ko‘rsatkich 48% ni tashkil etgan [9, 167-b.]. Bu natijalar til o‘qitish metodikasini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Raqamli ta’lim resurslari bo‘yicha statistika quyidagicha: o‘zbek tili uchun 5 ta maxsus mobil ilova, turk tili uchun esa 25 dan ortiq ilova ishlab chiqilgan [10, 89-b.]. YouTube platformasida o‘zbek tili o‘rganish bo‘yicha 1,200 ta, turk tili bo‘yicha 15,000 dan ortiq o‘quv videolari mavjud [11, 234-b.].

O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasining muhim vakillari sifatida boy grammatik tizimga ega bo‘lib, ularning fe’l kategoriyalari til ta’limining markaziy qismini tashkil etadi. Fe’l kategoriyalarini samarali o‘qitish nafaqat grammatik kompetensiyani rivojlantirish, balki kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ham muhim asos hisoblanadi. Ikkala tilda ham fe’l tizimi agglyutinativ xususiyatga ega bo‘lib, ko‘p sonli qo‘shimchalar orqali murakkab ma’nolar ifodalanadi. Bu tadqiqot O‘zbekiston va Turkiyada qo‘llaniladigan darsliklar va o‘qitish metodlarini qiyosiy tahlil qilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

O‘zbek tilida fe’l kategoriyalari quyidagi asosiy guruhlarni o‘z ichiga oladi. Zamon kategoriyalari uch asosiy guruhga bo‘linadi: o‘tgan zamon (-di, -gan, -ib shakllari), hozirgi zamon (-a/-y, -yap, -yotir, -moqda shakllari) va kelasi zamon (-(y)ajak, -adigan/ydigan shakllari). Mayl kategoriyalari shart mayli (-sa), maqsad-istak mayli (-moqchi) va buyruq maylini o‘z ichiga oladi. Nisbat kategoriyalari esa aniqlik, majhul, o‘zlik, birgalik va orttirma nisbat shakllarini qamrab oladi. O‘zbek tilidagi aspektual farqlanishlar perfektiv va imperfektiv belgilanishi, turli hozirgi zamon shakllari orqali progressiv aspekt va mukammal konstruktsiyalarda tugallangan aspektlar orqali ifodalanadi.

Turk tilida fe’l kategoriyalari tizimli ravishda tashkil topgan. Zamon shakllari aniq o‘tgan (-di), xulosaviy o‘tgan (-miş), aorist o‘tgan, hozirgi davomli (-iyor), kelasi (-ecek) va aorist (-(i/e)r) zamonlarni o‘z ichiga oladi. Mayl kategoriyalari xabar mayllar (turli o‘tgan, hozirgi va kelasi indikativ shakllar) va istak-shart mayllar (buyruq, optativ, shart, zaruriyat

mayllar)ga bo‘linadi. Nisbat tizimi aniqlik, majhul (-il/-in), o‘zlik (-(i)n), birgalik (-(i)ş) va orttirma (-t/-dir/-ir) nisbatlarni qamrab oladi.

O‘zbekistonda fe’l kategoriyalarini o‘qitish uchun quyidagi asosiy darslik seriyalari qo‘llaniladi. “O‘qituvchi” davlat nashriyoti tomonidan chiqarilgan standart o‘quv dasturi darsliklari 1-11-sinflar uchun “O‘zbek tili” seriyasini nashr etadi. “Yangi asr avlodi” xususiy nashriyoti zamonaviy yondashuvlarga asoslangan darsliklarni taqdim etadi. “O‘zbekona” darsligi (muallif Gulruxsor Ergasheva, 2020) chet elliklar uchun eng yaxshi sinf darsligi sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, A1 darajasi uchun mo‘ljallangan, audio yozuvlar, lotin yozuvi va 9 ta asosiy mavzuni qamrab oluvchi darslarni o‘z ichiga oladi. Milliy o‘quv dasturi asosida tasdiqlangan darsliklar bosqichma-bosqich murakkablashtirilib, elementar (1-4-sinflar) darajasida asosiy fe’l shakllari, o‘rta (5-9-sinflar) darajasida murakkab talablar va ilg‘or (10-11-sinflar) darajasida adabiy shakllar o‘qitiladi.

Turkiya ta’lim tizimida “Türkiye Yüzyılı Maarif Modeli” (Turkiya asri ta’lim modeli) doirasida 2024-2025 o‘quv yilidan boshlab yangi o‘quv dasturi joriy etilmoqda. Milliy ta’lim vazirligi (MEB) tomonidan rasmiy nashrlar chiqariladi, shu bilan birga Özgün Yayınları (7-sinf), Hecce Yayınları (8-sinf) kabi xususiy nashriyotlar ham faol ishtirok etadi. Fe’l kategoriyalarini o‘qitish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: boshlang‘ich (1-4-sinflar) darajasida oddiy fe’l konjugatsiyalari va asosiy zamonlar, o‘rta (5-8-sinflar) darajasida murakkab zamon tizimlari va nisbat konstruksiyalari, o‘rta maxsus (9-12-sinflar) darajasida ilg‘or adabiy va rasmiy registrlar o‘qitiladi.

O‘zbekistonda grammatikani bosqichma-bosqich o‘qitish usuli qo‘llaniladi, ya’ni, avval oddiy qoidalar o‘rgatiladi, keyin asta-sekin murakkabroq mavzularga o‘tiladi. Bu usulda til qoidalari mantiqiy ketma-ketlikda beriladi. Darsliklar haqiqiy hayotdan olingan materiallar - gazetalar, videolar, audio yozuvlar bilan boyitilgan. Bu o‘quvchilarga tilni kundalik vaziyatlarda qanday ishlatishni o‘rgatadi. O‘zbekiston ham xalqaro til bilish darajalarini (Yevropa standartlari) qo‘llaydi, bu chet tillarini o‘qitishda ayniqsa muhim. O‘quvchilar ham lotin, ham kirill alifbolarini bilishlari ta’minlanadi, chunki O‘zbekistonda ikkala yozuv ham ishlatiladi.

Turkiyada o‘quvchi shaxsiyatini markazga qo‘yuvchi usul qo‘llaniladi. Bu degani, har bir bolaning alohida qobiliyatlari va o‘rganish tezligi hisobga olinadi. O‘qituvchi faqat ma’ruza o‘qib o‘tirmaydi, balki bolalar o‘zlari ishtirok etadigan loyihalar ustida ishlaydi. Turli fanlar bir-biri bilan bog‘lanadi - masalan, til darsida matematika yoki tabiatshunoslik mavzulari ham ishlatilishi mumkin. Kompyuter va internetdan faol foydalaniladi. Har bir bola o‘ziga xos usulda o‘rganishi e’tirof etiladi - kimdir ko‘rish orqali, kimdir eshitish orqali, kimdir amaliy

mashqlar orqali yaxshi o‘rganadi. Baholash faqat imtihon orqali emas, balki dars davomidagi faollik orqali ham amalga oshiriladi.

Fe’l kategoriyalarini o‘qitishda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. O‘zbek va turk tillari darsliklarida fe’llarni o‘zlashtirishga qaratilgan turli xil mashq va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu mashqlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, til bilish darajasi va o‘quv maqsadlariga muvofiq tanlanadi.

Zamonaviy til o‘qitish metodikasida an’anaviy grammatik mashqlardan tortib, kommunikativ yondashuvga asoslangan interaktiv topshiriqlargacha keng spektrdagi faoliyat turlari qo‘llaniladi. Ikkala mamlakat ta’lim tizimida ham mashqlarning samaradorligi ularning tizimli, bosqichma-bosqich murakkablashuvi va real hayotiy vaziyatlarga yaqinligi bilan belgilanadi. Quyida o‘zbek va turk tillarini o‘qitishda keng qo‘llaniladigan mashq turlari va ularning metodik xususiyatlari keltirilgan.

Bo‘sh joylarni to‘ldirish mashqlari - ikkala tilda ham eng ko‘p ishlatiladigan mashq turi. Masalan: “Men kitob _____ (o‘qimoq)” yoki turkchada “Ben kitap _____ (okumak)”. O‘quvchilar bo‘sh joyga fe’lning to‘g‘ri shaklini yozishlari kerak. Bu mashqlar orqali fe’l tuslanishi, zamon qo‘shimchalari va fe’lning turli shakllari o‘rganiladi.

Shakl almashtirish mashqlari - fe’lni bir zamondan ikkinchi zamonga o‘tkazish. Turkchada: “Ben okuyorum (o‘qiyapman)” → “Ben okudum (o‘qidim)” → “Ben okuyacağım (o‘qiyman)”. O‘zbekchada: “Men o‘qiyapman” → “Men o‘qidim” → “Men o‘qiyman”.

Tarjima mashqlari - gaplarni ona tilidan o‘rganilayotgan tilga yoki aksincha tarjima qilish. Bunda fe’l shakllarining ikki tildagi farqiga e’tibor beriladi.

Ijodiy yozish topshiriqlari - berilgan fe’l shakllarini ishlatib hikoya yozish, o‘tgan zamon fe’llari bilan kundalik yozish, kelasi zamon fe’llari bilan reja tuzish.

Hozirgi kunda fe’llarni o‘rgatishda kompyuter dasturlari va mobil ilovalar keng qo‘llanilmoqda. **Mondly** dasturi ovozingizni taniydi, siz to‘g‘ri talaffuz qilayotganingizni tekshiradi, xuddi haqiqiy inson bilan gaplashgandek mashq qildiradi va xatolaringizni darhol to‘g‘rilaydi. **Drops** ilovasi kuniga atigi 5 daqiqa vaqt talab qiladi, rasmlar orqali o‘rgatadi, tarjima qilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tilni o‘zlashtirishga yordam beradi.

O‘zbek tili uchun **Flashcardo** dasturi mavzular bo‘yicha kartochkalar taqdim etadi, YouTube platformasida ham ko‘plab darslar bor, lekin maxsus ilovalar soni hali kam. Turk tili uchun esa tanlov ancha boy: **Babbel** (3 haftada gaplashishga o‘rgatadi), **Busuu** (haqiqiy turklar sizning nutqingizni tekshiradi), **Duolingo** (o‘yin ko‘rinishida o‘qitadi) va **TurkishClass101** (turk madaniyati bilan birga til o‘rgatadi).

Zamonaviy pedagogikada aqliy faoliyatga asoslangan o‘qitish usullari alohida o‘rin tutadi. Ma’noli o‘rganish usulida yangi fe’l shakllarini o‘zlashtirishda o‘quvchilar avvalgi bilimlari bilan bog‘lash tavsiya etiladi. Masalan, yangi fe’l shaklini o‘rganayotganda uni tanish fe’llarga o‘xshatish, kundalik vaziyatlarda qo‘llash va mexanik yodlashdan ko‘ra ma’nosini tushunishga urg‘u beriladi.

O‘z-o‘zidan qoida chiqarish yoki induktiv usulda o‘qituvchi tayyor qoidani bermaydi, balki ko‘plab misollar orqali o‘quvchilarning o‘zlari qonuniyatni kashf etishlariga sharoit yaratadi. Bu usul o‘quvchilarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘zlashtirilgan bilim mustahkamroq bo‘ladi.

O‘z o‘rganishini boshqarish strategiyasi o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o‘quvchilar fe’llarni o‘rganish jarayonini rejalashtirish, o‘z yutuq va kamchiliklarini kuzatish hamda xatolar ustida ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar.

Vazifaga asoslangan til o‘qitish zamonaviy kommunikativ yondashuvning muhim qismidir. Bu metod uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi. Tayyorgarlik bosqichida yangi lug‘at birliklari va fe’l konstruksiyalari bilan tanishtiriladi. Asosiy vazifa bosqichida o‘quvchilar real hayotiy vaziyatga asoslangan topshiriqni bajaradilar, masalan, kelasi zamon fe’llarini qo‘llab dam olish rejasini tuzadilar. Tahlil bosqichida bajarilgan vazifa muhokama qilinib, til jihatidan takomillashtiriladi va xatolar konstruktiv tarzda tuzatiladi.

Ikkala til turkiy tillar oilasiga mansubligi bir qator umumiyliklarni keltirib chiqaradi. Agglyutinativ tuzilma tufayli ikkala tilda ham fe’lga ketma-ket qo‘shimchalar qo‘shib, murakkab grammatik ma’nolar ifodalanadi. Shaxs-son kategoriyalari, boy zamon tizimi, turli nisbat shakllari (o‘zlik, majhul) va evidentsiallik kategoriyasi kabi umumiy xususiyatlar mavjud.

Shu bilan birga, tarixiy rivojlanish va madaniy ta’sirlar natijasida sezilarli farqlar ham yuzaga kelgan. Turk tilida unli tovushlar uyg‘unligi to‘liq saqlanib qolgan, o‘zbek tilida esa fors tili ta’sirida bu hodisa deyarli yo‘qolgan. O‘zbek tilidagi fors ta’siri leksik va fonologik darajada yaqqol namoyon bo‘lsa, turk tilida arab va keyinchalik Yevropa tillari ta’siri kuchliroq. Grammatik jihatdan o‘zbek tilida zamon shakllari xilma-xilligi ko‘proq, turk tilida esa qoidalar muntazamligi yuqori. Inkor konstruksiyalarida ham farqlar mavjud - turkchada sistematik “-me/-ma” qo‘shimchasi, o‘zbekchada esa “-ma” qo‘shimchasi va ayrim hollarda “emas” yordamchi fe’li qo‘llaniladi.

O‘qitish samaradorligini oshirish uchun darslik muallif va o‘qituvchilarga quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi. Darslik tuzishda fe’l paradigmalarini bosqichma-bosqich, sodda

shakllardan murakkab konstruksiyalarga qarab tizimli taqdim etish, ikki til o‘rtasidagi qiyosiy jadvallar berish, chastotali fe’llarni birinchi navbatda o‘qitish va morfema chegaralarini aniq belgilash muhim.

Dars jarayonida o‘qituvchilar tillararo farqlarni chuqur bilishi, murakkab grammatik mavzular uchun an’anaviy deduktiv usullarni qo‘llashi, nazariy tushuntirishlarni amaliy kommunikativ mashqlar bilan uyg‘unlashtirishi hamda xatolarni o‘quv resursi sifatida konstruktiv foydalanishi lozim.

O‘quv dasturi darajasida lingvistik murakkablikka asoslangan ketma-ket o‘qitish, tillararo qiyoslashni doimiy pedagogik strategiya sifatida qo‘llash, formal grammatik ko‘rsatmalar bilan kommunikativ amaliyotni muvozanatlash va o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun muntazam takrorlash sikllari zarur.

Bu kompleks yondashuv o‘quvchilarning nafaqat grammatik kompetensiyasini, balki umumiy kommunikativ ko‘nikmalarini ham rivojlantirib, ularni real muloqot vaziyatlarida tildan erkin foydalanishga tayyorlaydi.

O‘zbek va turk tillarida fe’l o‘qitish usullari tobora zamonaviylashmoqda. Ikkala mamlakatda ham eski usullardan yangi, o‘quvchi markazli usullarga o‘tilmoqda. Tillarning o‘xshash va farqli tomonlarini bilish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va turli usullarni birlashtirib qo‘llash eng yaxshi natija beradi. Bu nafaqat grammatikani o‘rganishga, balki tilni kundalik hayotda ishlatishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Johanson L. Turkic Languages: Structural and Historical Overview. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. 456 p.
2. Azimova N., Kent A. Uzbek: An Elementary Textbook. Washington: Georgetown University Press, 2020. 678 p.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022, 3-son, 23-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Ta’lim statistikasi yilnomasi. Toshkent: Statistika nashriyoti, 2024. 234 p.
5. T.C. Millî Eğitim Bakanlığı. Türkiye Eğitim İstatistikleri Yıllığı 2024. Ankara: MEB Yayınları, 2024. 456 p.
6. Ergün M., Ersoy Ö. Türk Dili Öğretim Yöntemleri: Karşılaştırmalı Analiz. İstanbul: Pegem Akademi, 2023. 345 p.

7. Lindsay R. Mutual Intelligibility Among the Turkic Languages. Journal of Turkic Studies, 2023, vol. 45, no. 3, pp. 234-256.
8. Qodirov A. O‘zbek va turk tillari grammatik tizimining qiyosiy tahlili. Toshkent: Fan nashriyoti, 2023. 456 p.
9. OECD. PISA 2023 Results: Language Competencies in Focus. Paris: OECD Publishing, 2024. 789 p.
10. Hasanova D. Raqamli ta’lim resurslari: O‘zbek tili misolida. Pedagogika jurnali, 2024, №2, 89-102 b.
11. Digital Education Research Institute. Language Learning Apps Statistics 2024. London: DERI Press, 2024. 345 p.

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA “KO‘NGIL / GÖNÜL” KONSEPTINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISHI

Uzoqova Yulduz Dilshodbek qizi
Andijon davlat universiteti
Filologiya va tillarni o‘qitish:o‘zbek
tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Tursunova Odinaxon Azimjanovna
filologiya fanlar nomzodi, dotsent
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada turk va o‘zbek tillarida “ko‘ngil / gönül” konseptining frazeologik birliklar orqali ifodalanish xususiyatlari qiyosiy aspektda o‘rganiladi. Tadqiqot materiallari sifatida o‘zbek tilidagi “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” (Sh. Rahmatullayev) va turk tilidagi “Türkçe Deyimler Sözlüğü” (Ö. A. Aksoy)dan olingan birliklar tahlil qilindi. Tadqiqotda semantik tasnif, funksional tahlil hamda lingvokulturologik tahlil metodlari qo‘llanildi. Natijalar “ko‘ngil / gönül” konseptining ikki tilda ham hissiy-aqliy markaz sifatida shakllanganini, biroq uning frazeologik qatlamida madaniy-pragmatik farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, madaniyat, ko‘ngil, gönül, pragmatika, lingvokulturologik, konsept.*

Abstract: The article studies the features of the expression of the concept of “heart / soul” in Turkish and Uzbek languages through phraseological units in a comparative aspect. The units taken from the “Uzbek Phraseological Dictionary of the Uzbek Language” (Sh. Rahmatullayev) and the “Turkish Dictionary of Idioms” (Ö. A. Aksoy) were analyzed as research materials. The methods of semantic classification, functional analysis, and linguo-cultural analysis were used in the study. The results show that the concept of “heart / soul” is formed as an emotional-mental center in both languages, but there are cultural-pragmatic differences in its phraseological layer.

Keywords: *phraseology, culture, heart, soul, pragmatics, linguo-cultural, concept.*

Zamonaviy tilshunoslikda muhim va dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida konsept tushunchasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu termin kognitiv tilshunoslik va

lingvokulturologiyaning tayanch kategoriyalaridan biri bo‘lib, inson tafakkurida borliqni idrok etish va uni til vositasida ifodalash mexanizmlarini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Konsept til birliklari orqali shakllanadigan, milliy-madaniy tajriba va ijtimoiy ong bilan uzviy bog‘liq murakkab kognitiv tuzilma sifatida talqin etiladi.

Mazkur tadqiqotimizda turk va o‘zbek tillarida “ko‘ngil” konsepti hamda unga oid frazeologik birliklar qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Hozirgi jahon tilshunosligida turli til sathlariga mansub birliklar orqali umuminsoniy tushunchalarning milliy-madaniy o‘ziga xosligini aniqlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va hissiy kechinmalarini ifodalovchi konseptlar madaniyatlararo tadqiqotlar uchun muhim ilmiy obyekt hisoblanadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tilshunos olimlar tomonidan e’tirof etilgan bo‘lib, bugungi kunda tilni madaniy kontekstda o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, “ko‘ngil” konsepti milliy tafakkur, axloqiy-me’yoriy qarashlar hamda emotsional munosabatlarni aks ettiruvchi muhim semantik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar orqali ko‘ngil tushunchasining baholovchi, obrazli va madaniy jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay, turk va o‘zbek tillarida “ko‘ngil” konseptining frazeologik birliklar asosida tematik va statistik tahlil yordamida konseptuallashtirilishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Ushbu maqolada individual yondashuv asosida “ko‘ngil” konsepti lingvistik, kognitiv, lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “ko‘ngil” konseptining prototipik kategoriyalashtirilishi orqali til va madaniyatga xos o‘ziga xosliklar yanada aniq va shaffof tarzda namoyon bo‘ladi. Bu esa turk va o‘zbek tillarida ko‘ngil konseptining milliy-madaniy talqinlarini qiyosiy asosda o‘rganish tilshunoslik uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Frazeologik birliklar tilning leksik tizimida eng barqaror va semantik jihatdan zich qatlam hisoblanadi. Ular millatning tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari hamda ijtimoiy munosabatlarini mujassamlashtiradi. Ayniqsa, insonning ichki dunyosi bilan bog‘liq konseptlar — “ko‘ngil”, “dil”, “yurak” kabi tushunchalar frazeologiya orqali madaniy kod sifatida shakllanadi.

Lingvokulturologiyada konsept til va madaniyat kesishgan nuqta sifatida talqin qilinadi. “Ko‘ngil / gönül” konsepti turkiy xalqlar tafakkurida nafaqat psixologik holatni, balki axloqiy me’yor, insoniylik mezoni va ijtimoiy muvozanat belgisini ifodalaydi. Shu sababli mazkur konseptni frazeologik birliklar asosida qiyosiy tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tilida “ko‘ngil” komponentli frazeologik birliklar asosan uch semantik maydonda jamlanadi:

1) emotsional holat;

2) ijtimoiy munosabat;

3) axloqiy baholash;

1. Emotsional holatni ifodalovchi birliklar:

Ko‘ngli joyiga tushdi — tashvishdan xalos bo‘lish

Ko‘ngli cho‘kdi — ruhiy tushkunlikka tushish

Ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi — kuchli quvonch holati

Bu birliklarda “ko‘ngil” inson ruhiy muvozanatining markazi sifatida talqin qilinadi.

2. Ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi birliklar:

Ko‘nglini topmoq — shaxslararo muvozanatni tiklash

Ko‘ngliga qaramoq — ijtimoiy moslashuv

Ko‘ngli qolmoq — munosabatda uzilish

Bu guruh birliklari esa o‘zbek madaniyatida shaxslararo munosabatlarda hissiy moslikning ustuvor ekanini ko‘rsatadi.

3. Axloqiy baholash:

Ko‘ngli pok — axloqiy tozalik

Ko‘ngli qora — yomon niyatli

Fikrimizcha, bu holatda “ko‘ngil” insonning ichki axloqiy mezoni sifatida semantik markazga chiqadi.

Turk tilida “gönül” komponentli iboralar (deyimler) semantik jihatdan o‘xshash bo‘lsa ham pragmatik yuklamasi biroz boshqacharoqdir.

1. Hissiy kechinma bilan bog‘liq birliklar:

Gönlü hoş olmak — ruhiy osoyishtalik

Gönlü kırılmak — hissiy jarohatlanish

Gönlü düşmek — umidsizlik holati

2. Shaxsiy tuyg‘u va muhabbat sohasidagi birliklar:

Gönül vermek — samimiy bog‘lanish

Gönülden sevmek — chin dildan sevish

Gönül ilişkisi — romantik munosabat

Bu birliklar turk tilida “gönül”ning ko‘proq shaxsiy hissiyotlar markazi sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

2. Ijtimoiy muvozanatni ifodalovchi birliklar:

Gönül almak — kelishmovchilikni bartaraf etish

Gönül koymak — ko‘ngli qolmoq, norozilik bildirish

Har ikki tilda ham “ko‘ngil / gönül” konsepti quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

a) insonning ichki olami markazi;

b) hissiy holat ifodasi;

d) axloqiy baholash mezonidir;

Bu umumiyliklar konseptning umumturkiy madaniy ildizga ega ekanini tasdiqlaydi.

V.N. Telia ta’kidlaganidek, frazeologik birliklar milliy madaniyatning “mikromodeli”dir. “Ko‘ngil / gönül” konsepti asosidagi birliklar quyidagi madaniy kodlarni ochib beradi:

O‘zbek madaniyatida:

ijtimoiy muvozanat → ko‘ngilni asrash

axloqiylik → ko‘ngil pokligi

Turk madaniyatida:

shaxsiy his → gönül erkinligi

romantik ideal → gönül bağı

Shunday qilib, bir xil konsept ikki madaniyatda turli diskurslarda faol ishlatiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki: “Ko‘ngil / gönül” konsepti har ikki tilda markaziy antropotsentrik birlik hisoblanadi. Frazeologik birliklar bu konseptning emotsional, ijtimoiy, axloqiy qatlamlarini ochadi. O‘xshashliklar umumiy madaniy-genetik ildizlar bilan izohlanadi. Farqlar esa ijtimoiy munosabatlar tizimi va mentalitet bilan bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “ko‘ngil / gönül” konsepti turk va o‘zbek tillarida insonning ichki dunyosi, hissiy holati va axloqiy qarashlarini ifodalovchi markaziy semantik birlik hisoblanadi. Frazeologik birliklar orqali bu konseptning milliy-madaniy mazmuni ochiladi. O‘zbek tilida “ko‘ngil” ko‘proq ijtimoiy muvozanat va axloqiy baho bilan bog‘liq bo‘lsa, turk tilida “gönül” shaxsiy tuyg‘u va romantik munosabatlar markazida namoyon bo‘ladi. O‘xshashliklar umumturkiy tafakkur bilan, farqlar esa mentalitet va ijtimoiy munosabatlar xususiyati bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Toshkent: “Sangzor” nashriyoti, 2006. -92b

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. -Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. 2008.

3. Türk Dil Kurumu. Türkçe Sözlük. - Ankara: TDK Yayınları, 2011. - 2756 s.

4. Rahmatullaev Sh. O‘zbek xalq maqollari. - Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006. - 560 b.

5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. - Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1978.
6. Aksoy Ö.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. - İstanbul: İnkılap Yayınları, 2016. - 1400 s.

INGLIZ VA TURKIY TILLAR O‘RTASIDAGI TIL ALOQALARI: O‘ZBEK TILIDAGI INGLIZCHA O‘ZLASHMALAR TA’LIMGA OID SO‘ZLAR MISOLIDA

Normurodov Bahrom Hayrullayevich
Termiz davlat universiteti (O‘zbekiston),
Jiangsu Universiteti (Xitoy) Lingvistika: ingliz tili
qo‘shma dastur magistratura talabasi
Email; normurdovbahrom4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan va asosan ta’lim, ilm-fan va akademik faoliyat bilan bog‘liq o‘zlashmalarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot maqsadi – inglizcha pedagogik so‘zlarning o‘zbek tilida fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashuvini aniqlash va ularning zamonaviy qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganish. Tadqiqot aralash metodologiya asosida olib borilgan: miqdoriy yondashuv o‘zlashmalar soni va tez-tez uchrash darajasini o‘rganishga xizmat qilsa, sifatli yondashuv fonetik, morfologik va semantik tahlil imkonini beradi. Tadqiqot namunasini zamonaviy o‘zbek tilidagi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar va ta’lim portallaridagi matnlar tashkil etadi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida matn korpuslari tahlili, onlayn resurslar va ekspert baholari ishlatilgan. Tadqiqot natijalari inglizcha o‘zlashmalarni o‘zbek tiliga integratsiya qilishda fonetik va morfologik moslashuv jarayoni, semantik o‘zgarishlar va ularning ta’lim jarayonidagi funksional roli haqida ma’lumot beradi. Ushbu tadqiqot lingvistik jihatdan til aloqalari va o‘zlashmalar fenomenini o‘rganishga hissa qo‘shadi, shuningdek, ta’lim sohasida ishlatiladigan leksik birliklarni tizimli tarzda ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *inglizcha o‘zlashmalar, o‘zbek tili, ta’lim leksikasi, til aloqalari, fonetik moslashuv, morfologik moslashuv, semantik o‘zgarish.*

Annotation; study investigates English loanwords in the Uzbek language, focusing specifically on those used in the field of education, science, and academic activities. The aim of the research is to identify the phonetic, morphological, and semantic adaptation of English pedagogical terms in Uzbek and to examine their usage in contemporary educational contexts. The study employs a mixed-methods approach: the quantitative method analyzes the frequency and distribution of loanwords, while the qualitative method explores their phonetic, morphological, and semantic characteristics in depth. The research sample consists of modern Uzbek textbooks, teaching materials, academic articles, and online educational resources. Data collection involved corpus analysis, online resources, and expert evaluations. The findings

reveal systematic patterns of phonetic and morphological adaptation, semantic changes, and the functional role of these loanwords in educational communication. This study contributes to the understanding of language contact and lexical borrowing phenomena and provides a structured overview of English loanwords in the Uzbek educational lexicon.

Keywords: *English loanwords, Uzbek language, educational lexicon, language contact, phonetic adaptation, morphological adaptation, semantic change.*

